

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**NAMANGAN MUHANDISLIK-TEXNOLOGIYA
INSTITUTI**

"IJTIMOIY FANLAR" KAFEDRASI

KASBIY PSIXOLOGIYA
fanidan

**O'QUV – USLUBIY
MAJMUA**

Bilim sohasi: 300000 – Ishlab chiqarish – texnik soha

Ta'lif sohasi: 310000 – Muhandislik ishi
320000 – Ishlab chiqarish texnologiyalari

Ta'lif yo'naliishlari:

5321700 – Texnologik jarayonlarni boshqarishning axborot kommunikatsiya tizimi

5310100 – “Energetika”(issiqlik energetikasi)

5310200 – “Elektr energetikasi” (energiyani ish/ch, uzatish va taqsimlash)

Namangan – 2021

Mazkur o'quv-uslubiy majmua, 2020 yil 14 avgustdagি № BD – 5111000 raqami bilan ro'yxatga olingan va O'zbekiston Respublikasi Oliy va O'rta maxsus ta'lim vazirligi tomonidan 2020 yil 14 avgustdagи № 418 – sonli buyrug'i 6-ilovasi bilan tasdiqlangan namunaviy dastur asosida tuzildi, NamMTI "Ijtimoiy fanlar" kafedrasining 2021 yil 26 avgustdagи 1-sonli yig'ilishida muhokama qilindi hamda institut kengashiga tasdiqlash uchun tavsiya etildi.

Tuzuvchi: **N.Mullaboyeva – PhD, dotsent**

Taqrizchilar: **O`Asqarova – NamDU, p.f.d. professor.**

T.Malikov – NamMTI, f.f.n. dotsent.

O'quv-uslubiy majmua NamMTI kengashning 2021 yil "29" avgustdagи 1-sonli bayonnomasi bilan tasdiqlandi

MUNDARIJA

So‘z boshi.....	6
I. Ma’ruza materiallari.....	7
II.Mustaqil ta’lim mavzulari.....	191
III. Glossariy	196
IV. Illovalar.....	219

- fan dasturi

- fanning ishchi dasturi

-tarqatma materiallar

- testlar

- baholash mezoni

ANNOTATSIYA

Kasb psixologiyasi shaxsda kasbga doir bilim, ko'nikma, malakalarni shuningdek, ulardagi mavjud tushuncha, tasavvurlarini boyitishga xizmat qiladi. Ushbu majmuada kasbiy psixologiya fanining o'rganuvchi asosiy muammosi, predmeti, maqsadi, vazifalari va tadqiqot metodlari, kasb psixologiyasining shakllanish tarixi, SHarq allomalari asarlarida kasb-hunar va kasb tanlash masalasi, o'zbek psixologlari tadqiqotlarida kasb tanlash va kasbga yo'naltirish muammolari, kasb ta'limi faoliyati va unga qo'yiladigan zamonaviy talabalar, kasb tushunchasi va kasblarni psixologik tasniflash, kasbiy professiogramma va uning psixologik mazmuni, kasb psixologiyasida kasbiy motiv va motivatsiya, kasbiy shakllanish jarayonida shaxs taraqqiyoti va shaxsning kasbiy kamoloti, mehnat jarayonida sub'ektning kasbiy shakllanishi va kasbiy yetuklik muammosi, kasbiy sifatlar va kasbiy identifikatsiya, shaxsda kasbiy anglashning va shaxs shakllanishing turli bosqichlarida kasbiy o'zlikni anglash, shaxsiy fazilatlarning kasb tanlashdagi roli, kasb tanlashga yo'llashning umumiyligi masalalari va uning psixologik mohiyati, kasbiy faoliyat psixodiagnostikasi, kasbiy faoliyat darajalari va ko'rsatkichlarini tekshirish yo'llari, kasbiy layoqat tashxisi, reorientatsiya psixologik muammo sifatida, kasb tanlashga ta'sir etuvchi asosiy omillar, mutaxassis attestatsiyasining psixologik jihatlari va shunga doir ilmiy nazariy ma'lumotlar keltirilgan.

АННОТАЦИЯ

Профессиональная психология служить для развития у личности профессиональных знаний, навыков и квалификации, а также для обогащения имеющихся понятий и представлений. В этом пособии рассматривается основные проблемы, предмет, цели, задачи и методы исследования профессиональной психологии, история формирования профессиональной психологии, проблемы выбора профессии в трудах восточных ученых, проблемы выбора профессии и направления на профессию в исследованиях узбекских психологов, деятельность профессиональной подготовки и современные требования к нему, понятия профессии и его психологическое классификация, профессиограмма и его значения в психологии, профессиональный мотив и мотивация в профессиональной психологии, развитие личности и профессионального совершенства в процессе профессионального формирования, проблема профессионального формирования и профессиональной зрелости субъекта, профессиональные качества и профессиональной идентификации, профессиональной сознательности у личности и в различных стадиях профессионального познание себя, роль личностных качеств в выборе профессии, основные вопросы в направлении к выбору профессии и его психологический смысл, психодиагностика профессиональной деятельности, методы исследований стадий и показателей профессиональной деятельности, анализ профессиональной пригодности, о реориентации как психологической проблеме, основные факторы влияющие на выбор профессии, психологические вопросы аттестации специалистов и другие научно-теоритические сведения.

ANNOTATION

Psychology plays role on the professional knowledge and skills, as well as their expectations for the current understanding of enrichment. Professional training manual, the subject of the problem based on the study of the science of psychology, goals, objectives and methods of research, the history of professional psychology, the works of the East and the issue of choice of profession, the Uzbek psychological studies the problems of professional and vocational choice, students in vocational training activities and the contemporary, professional and psychological classification of professional concept and its psychological content, psychology of the person in the process of formation of professional motivation and the motivation of professional development and professional development of the person, professional and professional maturity of the formation of a problem during labor, professional qualities and professional identity, professional understanding and professional self-consciousness at different stages of the formation of the person, personal qualities, such as the role of the professional choice, the choice of general issues and send its psychological aspect, not to mention the professional activity psychodiagnostics professional ways to check the levels and activity indicators, capacity diagnosis, reorientation psychological problems as the main factors that affect the choice of profession, an expert on the psychological aspects and certification of scientific and theoretical information.

SO‘Z BOSHI

Oliy ta’lim muassasalarida yuqori malakali kadrlarni tayyorlash jarayonida kasbiy psixologiya fanining roli va o‘rni beqiyosdir. «Kasbiy psixologiya» psixologiya fanining muhim sohalaridan biri bo‘lib, uning yordamida inson psixikasining o‘ziga xos xususiyatlari, kasb bilan bog‘liq bo‘lgan jihatlari haqidagi to‘liq ma’lumotlar to‘plash imkoniga ega bo‘linadi. Sababi kasbiy psixologiya zamonga xos tarzda yangi bilimlar bilan jadal rivojlanib borayotgan, jamiyat uchun kerak bo‘lgan ilmiy fanning amaliy sohasidir. Ta’lim yo‘nalishlari bo‘yicha bakalavrlarning o‘z faoliyatlarida psixologik diagnostikaning metodlaridan samarali foydalanishlari lozimligi bugungi kunning dolzarb muammolaridan biridir. Chunki kasbiy-psixologik diagnostika yordamida shaxsning aqliy imkoniyatlari, shaxsiy xususiyatlari, undagi ijtimoiy-psixologik ta’sir omillarini, kasbga nisbatan qobiliyatini o‘rganish orqali, har qanday faoliyat jarayonini to‘g‘ri rejalashtirish, uchraydigan kamchiliklarni tuzatish, psixologik-pedagogik profilaktika hamda korreksion ishlarni tashkil etish imkoniyatiga ega bo‘lish mumkin.

Mazkur o‘quv uslubiy majmua “Kasbiy psixologiyasi” fanidan 5321700 – Texnologik jarayonlarni boshqarishning axborot kommunikatsiya tizimi, 5310100 – “Energetika”(issiqlik energetikasi), 5310200 – “Elektr energetikasi” (energiyani ish/ch, uzatish va taqsimlash) ta’lim yo‘nalishlari uchun mo‘ljallangan bo‘lib, Yengil sanoat texnologiyasi fakultetining “Ijtimoiy fanlar” kafedrasи professor-o‘qituvchilari tomonidan ishlab chiqilgan. “Kasbiy psixologiyasi” fani o‘quv uslubiy majmuasini yaratishda yetakchi xorijiy OTMlari o‘quv dasturlariga asosiy adabiyotlar ro‘yxatiga kiritilgan.

Kasbiy psixologiya haqida umumiy tushunchalar, fanning rivojlanish tarixi, kasbiy psixologiyaning ilmiy tadqiqot metodlari, shaxs uning rivojlanishi, psixik jarayonlar (diqqat, sezgi, idrok, xotira, xayol, tafakkur) shakllanishi, shaxsning individual psixologik xususiyatlari, kishi xayot tarzining yosh davrlari-o‘smirlik, o‘sprinlik davrlari, professiografiya va professiogramma, o‘rta maxsus ta’limi o‘quvchilari o‘quv faoliyatining psixologik xususiyatlari, pedagog shaxsining psixologik xususiyatlari, haqida ma’lumotlar berilgan.

“Kasbiy psixologiya” fanini o‘zlashtirish natijasida, barkamol avlodni aqlan va jismonan rivojlanishi muammolari yuzasidan chiqarilgan qonun-qoidalariga amal qilish va sog‘lom, har tomonlama yetuk avlod yaratishga intilish, mohir pedagog ko‘nikmalariga ega bo‘ladi.

Ushbu o‘quv – uslubiy majmua ma’ruza materiallari, namunaviy va ishchi o‘quv dasturi, modulni o‘qitishda foydalaniladigan interfaol ta’lim metodlari, (adabiyotlar ro‘yxati, mustaqil ta’lim mavzulari, glossariy, keyslar banki, nazorat savollari va test savollari) va amaliy mashg‘ulotlar materiallaridan tashkil topgan.

I. MA’RUZA MATERIALLARI

I – modul. Kasbiy psixologiya fanining predmeti, vazifasi, metodologik asoslari.

1 – mavzu: Kasb-hunar egallashning ijtimoiy va tarixiy muammolari.

Reja:

1. Kasb psixologiya fanining shakllanish tarixi, predmeti, maqsadi va vazifalari.
2. Kasb psixologiyasining boshqa fanlar bilan aloqasi.
3. Kasb psixologiyasining ijtimoiy hayotda tutgan o‘rni

Maruza mashg‘ulotning maqsad va vazifalari: talabalarda kasbiy psixologiya fanining predmeti, maqsad va vazifalari, kasbiy psixologiya prinsiplari, kasblar va ularning klassifikatsiyasi haqida tushuncha hosil qilish, ularni rivojlantirish, mustaqil fikrlash malakasini shakllantirish.

Maruza mashg‘ulotning rejasi va uning qisqacha mazmuni:

Kasbiy psixologiyaning predmeti, maqsadi, vazifalari va metodlari. Kasbiy psixologiya fanining dolzarbliji, fanning hozirgi kundagi ahamiyati va o‘rni. Kasbiy psixologiya fanining oldida turgan vazifalari va maqsadi. Bo‘lajak mutaxassislarini kasbiy psixologiyaga oid bilimlar bilan qurollantirish masalalari. Fanning tadqiqot metodlari.

Kasbiy psixologiya fanining rivojlanish tarixi. Kasbiy psixologiyaning fansifatida rivojlanish bosqichlari. Sharq allomalari asarlarida kasb-hunar va kasb tanlash masalalarining yoritilganligi va ahamiyati. O‘zbek psixologlari tadqiqotlarida kasb tanlash va kasbga yo‘naltirish masalalari yuzasidan amalga oshirilgan ishlar.

Kasbiy psixologiyaning maqsad va vazifalari.

Inson bolasi voyaga yetgach o‘z qiziqish va qobiliyatlariga ko‘ra biror kasb yoki hunarni tanlaydi. Har bir inson hayotida kasbiy faoliyat muhim ahamiyatga ega. Chunki, kasbiy faoliyat uzoq vaqt davomida inson hayotining ajralmas qismiga aylanib qoladi. Psixologik tadqiqotlarning natijasiga ko‘ra ham odamlarning salomatligi hamda o‘zini baxtli his etish darajasi uning tanlagan kasbi bilan uzviy bog‘liq ekan. O‘z kasbin ota – onalarning majburlashi orqali tanlagan insonlarda esa sog‘liqning yomonligi, ruhiy tushkinlik, o‘zini baxtsiz hi etish, kasbiy faoliyatida hech qanday o‘sish kuzatilmagan. Ota-onalar farzandlarining ilk qadamlaridan o‘zing kelajagi to‘g‘risida o‘ylab qolishadi. Farzandlarining qiziqish va qobiliyatlarini kuzatish orqali ularning kasbiy kelajagini aniqlashga harakat qiladilar. Ayniqsa, maktabda beriladigan ta’lim-tarbiya o‘quvchining turli fanlarga bo‘lgan tanlovli munosabatini keltirib chiqaradi, ayrim bolalarda esa qaysidir fanlarga bo‘lgan qiziqishi tez seziladi, ya’ni tasviriy, musiqaviy va hokazolar. O‘smyrilik davriga kelib, muammo yanada kuchayadi. Ko‘pgina o‘quvchilar va ota-onalarga qanday kasbni tanlashlari oldindan ma’lum bo‘ladi: ular “Men shifokor bo‘laman”, “Bizning o‘g‘limiz, qizimiz, tibbiyot insititutiga hujjat topshiradi. Shunday bo‘lsada, kasbiy maqsadlarning aniqligi va ularni ruyobga chiqishi bo‘yicha xavotirlanish holatlari sezilib turadi. Omadsizlikka uchrasa-chi? Ayrim o‘quvchilar uchun to‘qqizinchisinfni bitirgach, kasbiy yo‘nalishlarini tanlash – eng dolzarb masala bo‘lib qoladi.

Ko‘pgina maktab bitiruvchilari kelajakda kim bo‘lsam ekan yoki sohani mutaxassis bo‘lsam ekan? – degan savolni o‘z oldilariga qo‘yib, kasb tanlash muammosiga duch kelishadi. Natijada o‘quvchilar tomonidan mutaxassisliklar tasodifan

tanlanadi. Hech qanday maxsus tayyorgarlikka ega bo‘lmasdan yoki kasbiy kelajagini tushunib yetmasdan maktab bitiruvchilarining bir qismi darhol ishga joylashadi. Bunda kasb dunyosida o‘z o‘rnini qidirish o‘zgacha ma’noga ega bo‘ladi.

Kasb - hunar kollejiga kirgan yoshlar uchun kasb tanlash muammosi to‘liq yechilmagan bo‘ladi. Ularning bir qismi tanlovning to‘g‘riligiga o‘qishning birinchi yilidayoq ikkilanib qolishadi, boshqalari – mustaqil kasbiy faoliyatning boshida, ayrimlari kasb bo‘yicha 3-4 yil ishlagandan keyin, yoshlarning ayrimlari kasb maktabini bitirib, egallagan kasbi bo‘yicha ish topa olmaydilar va ishsizlar qatoriga qo‘silib qoladi. Demak, ular uchun kasb tanlash muammosi yana dolzarb bo‘lib qolaveradi. Psixologik toliqish, xavotirlanish, kelajakka nisbatan ishonchsizlik bilan qarash mehnat olamida o‘zini topishida ma’lum qiyinchiliklarni yuzaga keltiradi.

Kasbiy tayyorgarlikka ega bo‘lgan o‘quvchilar oldida ishga joylashish muammosi paydo bo‘ladi. Kishilarning individual-psixologik xususiyatlarini kasb talablari bo‘yicha kasbiy tayyorgarligiga mosligini aniqlash uchun qator mutaxassisliklar bo‘yicha kasbiy tanlov o‘tkaziladi. Uning bajarilishi bir qancha muammolarni keltirib chiqaradi ya’ni unga ko‘ra kasbning normativ tavsiflarini belgilab olish psixologik xususiyat va sifatlarini aniqlash lozim.

Bo‘lajak mutaxassis shaxsida yangi a’zolari orasida, turli yoshdagagi kishilar bo‘lgan jamoaga kirish, kasbiy faoliyatga ko‘nikish, yangi ijtimoiy rolni tushunib olish yana muammolarni keltirib chiqaradi. Moslashuv bosqichiga kasbiy ijtimoiy yetuklik va ijtimoiylashuv shakli kiritiladi. O‘zgargan kasbiy vaziyat yangi psixologik xususiyatlar va sifatlarning shakllanishiga olib keladi. Shaxs psixologik tuzilishidagi keskin o‘zgarishlar kishining hayotini ham o‘zgartiradi. Oldingi – “maktab – oila –jamiyat” tizimi o‘rnida yangi ya’ni “kasb-oila ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlar” vaziyati kelib chiqadi. Endi shaxs rivojlanishida kasb-muhit omili muhim ahamiyatga ega bo‘ladi.

Har bir kishining hayotida kasbiy rivojlanish bo‘yicha o‘zgartiruvchi normativ vaqtlar mavjud bo‘ladi. Masalan: kasb-hunar kollejiga kirish, uni tugatish, ishga kirish, mehnatga bo‘lgan layoqatini yo‘qotish, majburiy ishdan bo‘shash va boshqalar. Bunday voqealarining paydo bo‘lishi bexosdan yoki qandaydir sharoitlar tufayli, gohida esa mutaxassislik sababi natijasida bo‘ladi. Ko‘p hollarda normativ bo‘lmagan voqealar kasbiy istalmagan noxush voqealar hisoblanadi.

O‘z kasbini ustasi bo‘lishga erishish variantlari ko‘p bo‘lib, bu borada talaygina muammolar paydo bo‘ladi. Shaxsning kasbiy rivojlanishi turli xilda namoyon bo‘lishini qanday tushuntirib bersa bo‘ladi? Nega bir kishi hayoti davomida ma’lum bir kasbga sodiq qoladi, boshqasi esa yillar davomida mehnat turlarini o‘zgartirib turadi? Kasbni o‘zgartirish sabablari (qanday) nimada? Kasbdan qoniqish, mutaxassislarning kasbiy rivojlanishi, lavozimlardan ko‘tarilishi qanday omillarga bog‘liq? Qanday qilib kasb ustasi bo‘lish mumkin? Insonning kasbiy hayotini o‘zgarishida shu savollarga javob berish kerak bo‘ladi.

Shu bois talaygina muammolar ishsizlikni keltirib chiqaradi. Bu esa ertangi kunga bo‘lgan ishonchsizlik psixologik zo‘riqishni kuchaytiradi. Bunda ko‘pgina ishsizlar uchun kasbini o‘zgartirish muammosi kelib chiqadi. Yangi kasbni shakllanishi jarayonida kasbiy qarashlar shaxs xususiyatlarining o‘zgarishini talab etadi.

Har bir kishining kasbiy hayotida kasbiy rivojlanish inqirozlari uchrab turadi. Bir

necha yil davomida ma'lum bir sohada faoliyat ko'rsatish mutaxassisning kasbidan zerikish holatlarini keltirib chiqaradi. Kasbiy tiklanish shaxs faolligini susaytiradi, hordiq chiqarish imkoniyatlarini qidirishga olib keladi.

Hozirgi kunda sun'iy intellektli texnologiyani hamma joyda uchratish mumkin. U quyidagi maqsadlarda ishlatiladi: logistikani rejalashtirishda, moliyalashtirishda, ma'lumotlarni taxlil qilishda, ishlab chiqarishda, internetdagi izlash tizimsida, avtomobillarda, mobil telefonlarda va hokazolarda (Kurzweil, 2005; Russell & Norvig, 2003).

Sun'iy intellektning psixik sog'likni saqlashda ishlatilishi, shubhasiz, psixologik amaliyot va izlanishlar olib borilishiga katta ta'sir ko'rsatdi. Tarixdan ma'lumki, psixologiya sun'iy intellekt sohasiga katta hissa ko'shgan. Masalan, Frank Rozenblatt psixolog bo'lgan va neyron turi konsepsiyasi asosida ishlaydigan, o'zidan o'zi bilim o'rgana oladigan Mark 1 Perceptron mashinasini yaratgan. Devida Rumelxarta va uning xamkasblari (Rumelhart, McClelland & PDP Research Group, 1986) neyron turi xotira modelini o'rjanib, mashina singari bilim olishni rivojlanishiga ta'sir ko'rsatishdi. Bundan tashkari, 1960- yilda psixologiyada butun kognitiv revolyutsiya, ya'ni kompyuter modelining odamga xos anglash xususiyati qiziqishni uyg'otdi.

Sun'iy intellekt texnologiyasini malakali qo'llanmalari mavjud va ular bemorlarga, tibbiy xizmat ko'rsatuvchilarga, avtomobil yullarida xizmat ko'rsatishni yaxshilashda, samaradorlikni oshirishlarida foyda keltirishi mumkin. Ammo, bu texnologiyani qo'llashda salbiy oqibatlarga olib kelishi xavfi bor. Bir xil kasbiy faoliyati jarayonida mutaxassisda muhim kasbiy fazilatlar rivojiana boshlaydi. Shaxsning o'z kasbiy ustasi bo'lishi faoliyat mahsuldorligiga ta'sir etadi. Qanday qilib mutaxassisning ishga bo'lgan layoqatini saqlab qolish, gohida esa tiklash mumkin. Ma'lumki, mutaxassis muntazam ravishda kasbiy psixologik tomonidan yordamga muhtoj bo'ladi.

Jamiyatimiz uchun dolzarb psixologik muammolardan biri-bu ishchining nafaqaga chiqishi hisoblanadi. Ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoitlarning o'zgarishi yangi ijtimoiy vazifa – nafaqaxo'rlar uchun psixologik qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi. Shuningdek, ular psixologik ko'mak va qo'llab-quvvatlashga muhtoj bo'ladilar.

Shaxs va kasblarga moslashuvning ko'p jihatli psixologik fundamentlari an'anaviy tarzda mehnat psixologiyasi tomonidan taddiq etilgan. Ammo shaxsning to'liq kasbiy shakllanish jarayoni aniqlanmagan. XX asr bo'sag'asida paydo bo'lgan mehnat psixologiyasi kasbiy faoliyat turlarini, faoliyatning insonga, uning psixofiziologik imkoniyatlariga bo'lgan talablarini, kasbiy qobiliyat, ko'nikmalarini o'rjanadi.

Mehnat psixologiyasining muhim vazifalaridan biri, mehnat sharoitlari, vositalari va mazmunini tahlil qilishdan iborat. Ishlab chiqarishdagi turli nuqsonlarni, layoqat va charchoqni diagnostika qilish orqali optimal ish tajribasini aniqlashga katta e'tibor beriladi. Ammo tadqiqotchilar diqqat markazida asosan mehnatning ijrochilik operatsion jihatlari, uning psixofiziologik tavsiflari turadi. Mehnat psixologiyasining asosiy muammosi bu insonning mehnat qurollariga, vositalariga, jarayon va sharoitlarga ko'nikishidir. Bunda kishining mehnat faoliyatiga moslashuvi psixologik va fiziologik usullar asosida o'rjanilgan. Mehnat psixologiyasi - inson psixik faoliyatining

takomillashishi va qonuniyatlarini o'rganuvchi psixologiya sohasi bo'lib, u mehnat jarayonida shaxsdagi jarayon, holatlar va xususiyatlarni o'rganadi. Mehnat psixologiyasi vazifalariga psixologiyaning mehnat faoliyatini psixologik muammolarini, mehnat unumdoorligini orttirishning psixologik shart-sharoitlari, mehnat va dam olish rejimi, mehnat turlarini psixologik tahlil qilish, kadrlarni ularning individual psixologik xususiyatlarga qarab tanlash hamda joy-joyiga qo'yish, ishlab chiqarish avariysi va travmasining psixologik sabablari kabi masalalar kiradi.

Mehnat psixologiyasi va kasbiy psixologiya predmetlarini farqini alohida ta'kidlash lozim. Ye.A.Klimov, mehnat psixologiyasiga quyidagicha tavsif beradi: **mehnat psixologiyasi fan sifatida bu insonning sub'yeqt sifatida faoliyat ko'rsatishi va shakllanishi sohasidagi vazifalarni yechish usullari, yo'llari va sharoitlarini o'rganuvchi psixologiya yo'nalishidir.**

Yuqoridagi fikrlardan ko'rindan, mehnat faoliyati borasidagi psixologik tadqiqotlar insonlarda kasbiy maqsad, kasbiy o'zlikni anglash, kasbiy shakllanish, kasb tanlash va uni o'zgartirish sabablari haqida, kasbiy rivojlanish bosqichlari haqida to'liq tasavvurni bermaydi. Ular esa o'z navbatida kasbiy psixologiyaning predmetini tashkil qiladi. Aynan kasb tanlash borasidagi ishlarni to'g'ri yo'lga qo'yish, ongli kasb tanlash, kasbiy inqiroz va qiyinchiliklarni yengib o'tishda mazkur fanga doir bilimlarni bilish talab qilinadi. Shu bois, hozirgi kunda kasbiy psixologiyaga doir bilimlarga zarurat sezilmoqda.

Keng tarqalgan ta'riflarga ko'ra psixologiya – psixik faktlar, ularning qonuniyatları va mexanizmlarini o'rganadi. Shuningdek, psixologiya inson faoliyati va xulq-atvorida ob'ektiv reallikning aks etishi qonuniyatları haqidagi fan. Psixologiya sohasida amalga oshirilgan ilmiy tadqiqotlar va o'rganilgan nazariy manbalar, shuningdek fanlararo o'zaro integratsiya jarayonlari psixologiya tarmog'ida ko'pgina o'z predmetiga ega bo'lgan sohalarni ajralib chiqishiga turtki bo'ldi. Ular jumlasiga kasbiy psixologiyani kiritishimiz mumkin.

Kasbiy psixologiyaning predmeti – shaxsning kasbiy shakllanish mexanizmi, qonuniyatları hamda psixologik xususiyatlarini o'rganishdir.

Bundan kelib chiqqan holda kasbiy psixologiya – bu shaxsda kasbiy maqsadlarni tanlash, kasb egallash, mutaxassisning kasbiy rivojlanishiga doir qonuniyatlarini, shuningdek, shaxsning mehnatga layoqatlilik darajalarini o'rganuvchi psixologiya fanining sohalaridan biridir, – deb aytish mumkin.

Kasbiy psixologiyaning ob'yehti – shaxsning kasb bilan hamkorligi yoki o'zaro bog'liqligidan iborat. Kasbiy psixologiya psixologiya fanining mustaqil sohasi bo'lib, u o'zining tadqiqot predmeti va ob'ektiga ega. Shu jihatdan aynan u mehnat psixologiyasi, muhandislik psixologiyasi, yosh davrlari psixologiyasi va pedagogik psixologiya fanlarining ob'ekti va predmetidan farqlanadi.

Mazkur farqlar jadvalda qo‘yidagicha ifodalaniladi:

Psixologiya fanlarining tarmoqlari	Tadqiqot predmeti	Tadqiqot ob’yekti
Mehnat psixologiyasi	Mehnat faoliyatining psixologik qonuniyatlari va xususiyatlari	Mehnat faoliyatining yangi va uning psixologik, bajaruvchilik tavsiflari
Muhandislik psixologiyasi	Inson va texnikaviy tizimlar o‘rtasidagi o‘zaro aloqalarning psixologik qonuniyatlari	Inson-mashina tizimi
Pedagogik psixologiya	Ta’lim va tarbiyaning psixologik qonuniyatlari	Ta’lim oluvchi va tarbiyalanuvchi shaxsi
Yosh davrlari psixologiyasi	Shaxsning ontogenezda rivojlanishining psixologik qonuniyatlari	Shaxsning ontogenezda psixik rivojlanishi
Kasbiy psixologiya	Shaxsni kasbiy shakllanishining psixologik qonuniyatlari	Shaxsning “inson-kasb” tizimida kasbiy rivojlanishi

Muhandislik psixologiyasi – inson va texnik tuzilmalar o‘rtasidagi informatsion aloqa vositalari va jarayonlarini o‘rganuvchi psixologiya tarmog‘idir. Muhandislik psixologiyasi psixologiyaning texnik moslamalar bilan uni boshqaruvchi kishilar o‘rtasidagi o‘zaro bog‘lanish hamda o‘zaro ta’sirini tekshirish bilan shug‘ullanuvchi maxsus sohasi. Muhandislik psixologiyasining ilmiy vazifasi optimal konstruksiyalarni psixofiziologik jihatdan asoslash va mexnat unumdarligini orttiruvchi psixikani loyihalashda mutaxassis injenerlarga bevosita yordam berishdan iboratdir.

Yosh davrlar psixologiyasi – ontogenezda shaxs tug‘ilganligidan to umrining oxirigacha shaxsda kechadigan psixik rivojlanish va shakllanish bosqichlarini o‘rganuvchi psixologiya tarmog‘i. Yosh psixologiyasi psixologiyaning turli yosh bolalik, o‘smirlik, o‘spirinlik va boshqa bosqichlaridagi psixik rivojlanish qonuniyatlarini o‘rganuvchi maxsus sohasi.

Pedagogik psixologiya – shaxsga ta’lim-tarbiya berishning qonuniyatlari va muammolarini o‘rganuvchi psixologiya sohasi. Pedagogik psixologiya psixologiyaning yosh avlodga ta’lim va tarbiya berishning psixologik muammolarini o‘rganuvchi maxsus sohasi. Pedagogik psixologiya pedagogikaning ilmiy asoslaridan biri bo‘lib, pedagogika nazariyasi va amaliyotini tashkil qilish uchun zarur bo‘lgan psixologiyaga oid fakt hamda qonuniyatlarni aniqlaydi.

Kasbiy psixologiya shaxsning kasbiy jihatdan shakllanishini o‘rganadi. Bunda

shaxs rivojlanishi kasbiy shakllanishi sifatida ko'rib chiqiladi. Kasbiy psixologiya-mehnat psixologiyasining kasblarni psixologik komponentlarini yoki muayyan kasbda ishlovchilarga nisbatan qo'yiladigan psixologik talablarni o'rganish hamda ilmiy tahlil qilish bilan shug'ullanuvchi bo'limidan iborat.

Mutaxassislikning turli ijtimoiy – madaniy va ijtimoiy-iqtisodiy qarashlarida kasbiy hulq muhim ahamiyatga ega. Shaxsning psixomotor motivatsion va kognitiv sifatlariga e'tibor berilgan holda kasbiy yutuqlarga asosiy e'tibor qaratiladi. Inson va uning kasbi o'rtasidagi, shuningdek, kasbiy vazifasi va kasblar olami tuzilmasi o'rtasidagi munosabatlar tahlil qilinadi.

Kasbiy psixologiya inson uchun kasbiy faoliyatning ahamiyatini o'rganib, shaxsning kasbiy shakllanishini tadqiq etadi, shuningdek, yoshlikda kasbiy tasavvurlarni rivojlanishini, kasbiy yetuklik determinantalarini ayniqsa, kasbga kirishish va uning hayotga bo'lgan ta'sirini o'rganadi.

Kasbiy psixologiyaning muhim jihatlari – bu kasbiy faoliyatning tahlili, kasbiy maqsadlar, vaziyatlar, qiyinchiliklarini o'rganishi, kasbiy talablarni aniqlashdan iborat.

Kasbiy psixologiyasining predmetining ta'rifiga asoslanib, uning quyidagi vazifalarini ajratib ko'rsatish maqsadga muvofiq:

1. Shaxsning kasbiy shakllanishi asosiy tushunchalari va tadqiqot tamoyillarini, o'zining faoliyatiga tegishli uslublarini asoslash;
2. Kasbiy psixologiya predmetiga mos bo'lgan tadqiqot uslullarini ishlab chiqish va o'ziga xos uslublarini tuzish;
3. Kasblarning tavsifiy tuzilmasini psixologik tahlil qilish, kasblarni proyektlash uslublari va tamoyillarini ishlab chiqish;
4. Shaxsning kasbiy shakllanishi qonuniyatları va psixologik mexanizmlarini tadqiq etish. Bu jarayon dinamikasini determinantlovchi omillarni aniqlash, kasbiy shakllanishdagi inqirozlarni tahlil etish;
5. Mutaxassislikning kasbiy destruksiyalarini, ya'ni shaxsning deformatsiyasi, kasbiy faoliyatga bo'lgan layoqatini pasayishi va boshqalar;
6. Shaxsning kasbiy rivojlanish monitoringni yuritish, bu borada psixodiagnostik vositalarni ishlab chiqish hamda mutaxassislarni attestatsiyadan o'tkazish;
7. Shaxsning kasbiy shakllanishiga psixologik yordam hamda insonning kasbiy hayoti davomida yordam berish, qo'llab-quvvatlash;
8. Kasbiy maslahat, kasbiy ma'lumotning shaxsiy rivojlantiruvchi psixologik jihatlari, attestatsiyadan o'tkazish, kasbiy rivojlanish psixotexnikasi, kasbiy korreksiya va reabilitatsiya, kasbdan ketishga psixologik tayyorgarlik borasidagi bilimlar bilan qurollantirishdan iborat.

Kasbiy psixologiyaning metodologik asosi – bu shaxsning kasbiy shakllanish konsepsiyasidir. Mazkur konsepsiyaning asosiy mohiyati shundaki, kasb tanlash jarayonida shaxs miqdor va sifat jihatidan rivojlanib boradi ya'ni ular o'z yo'nalishini boyitib boradi, shu orqali tajriba va salohiyat shakllanadi. Kasbiy shakllanish jarayonida inqirozlar, to'qnashuvlar, destruktiv o'zgarishlar bo'lib o'tishi mumkin. Bu jarayonning tezligi biologik va ijtimoiy omillarga, shuningdek tasodifiy holatlarga, hayotiy muhim kasbiy voqealarga bog'liq bo'ladi.

Kasbiy shakllanish – bu shaxs rivojlanishining katta bir qismini o'z ichiga olib,

u kasbiy maqsadlarning tarkib topishidan boshlab, kasbiy hayotning tugallangungacha bo‘lgan davrni o‘z ichiga oladi. Bu geteroxron jarayondan optatsiya, ya’ni kasbiy ta’lim va tayyorgarlik, profadaptatsiya, professionalizm hamda mahorat bosqichlarini ajratish mumkin.

Kasbiy psixologiyaning asosiy konseptual qoidalari quyidagi jadvalda aks ettirilgan.

Asosiy tushunchalar	Konseptual qoidalari
Kasbiy shakllanish	Kasbiy shakllanish – bu shaxsning kasb tanlash jarayonidagi kasbiy ta’limga tayyorlanish, shuningdek kasbiy faoliyat jarayonidagi rivojlanish hisoblanadi.
Kasbiy shakllanish bosqichlari	Kasbiy shakllanish-getroxron jarayon bo‘lib, ayrim paytlarda pasayish va sakrash xususiyatiga ega. Individning shaxsiy va kasbiy rivojlanish omillarining o‘zaro aloqalariga ko‘ra kelishmovchilik va inqirozlar kiritiladi. Bu individual to‘laqonli jarayonini ijtimoiy vaziyat va asosiy faoliyat bilan bog‘liq bosqichlarga ajratish mumkin. Ular sirasiga kasbiy tayyorgarlik, kasbiy adaptatsiya, birlamchi va ikkilamchi professionalizatsiya va kasbiy mahoratlar kirdi.
Kasbiy shakllanish turlari	Kasbiy shakllanish yo‘li va tezligi bir guruh omillar bilan belgilanadi. Ularga yosh, individual-psixologik, kasbiy texnologik va ijtimoiy-iqtisodiy omillarni kiritish mumkin.
Kasbiy rivojlanish	Kasbiy rivojlanish – bu yo‘nalish salohiyat va muhim kasbiy sifatlarning boyib borishi, mehnat faoliyati samaradorligini oshirib borish bilan belgilanadi.
Kasbiy shakllanishining psixologik jihatni .	Shaxsning kasbiy rivojlanish va kasbiy jihatidan o‘zini topa olish uchun o‘z ustida ishlashi va turli masalalarni hal qilish uchun bor kuchini sarflash, shart-sharoitlar hamda imkoniyatlar yaratish, kasbiy va shaxsiy rivojlanishdagi destruktiv an’analarni o‘zlashtirishda kishilarga psixologik madad va yordam ko‘rsatish.
Kasbiy jihatdan o‘zini	Insonning kasbni psixologik imkoniyatlarini kasbiy faoliyat mazmuni va talablari bilan bo‘lgan jihatlarini

anglash	mustaqil anglab olishi, shuningdek ma'lum ijtimoiy-iqtisodiy vaziyatda bajarila-digan ishidan ma'no topishi.
Kasbiy jihatdan o'zini asray olish.	Inson shaxsiga yo'naltirilgan mahsuldor kasbiy faoliyatda doimiy o'zini-o'zi o'zgartirib turishi, tayyorlarligi va kasbiy imkoniyatini o'zini ruyobga chiqarishi, kasbiy hayotini boshqara olishi, kasbiy rivojlanish va lavozimda ko'tarilishdagi destruktiv vaziyatlarni yengib o'tish bilan bog'liqdir .
Professionalizatsiyalashuv destruksiyalari	Professionalizatsiya jarayonidagi miqdor va sifat o'zgarishlar, shaxsning rivojlanishi va deformatsiyasi bilan kuzatiladi.
Kasbiy o'zini-o'zi faollashtirish	Shaxsning kuchini faollashtirish yo'li bilan kasbiy rivojlanishni tezlashtirish, normadan ortiq kasbiy faoliyatni namoyon etish, shuningdek turli xil psixotexnologiyalarda qatnashish va boshqalar.
Kasbiy ijtimoiylashuv	Kasbga kirib borish va uni egallahda kasbning ijtimoiylashuvi kuzatiladi; ya'ni, kasbiy ta'rifikatsiyada o'z o'rnini topish, kasbiy imkoniyatini ishlab chiqish, kasbiy identifikatsiyani shakllantirish .

Ijtimoiy taraqqiyotni ro'yobga chiqarish uchun mamlakatda yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlash va ularni jahon standartlari darajasiga ko'tarmoq lozim, fan va texnikaning bugungi kun taraqqiyotiga javob berish uchun keng saviyali, bilimdon, o'z kasbining fidoiy kishisini kamol toptirish orqali davlatimizda bozor iqtisodiyotiga bardosh beradigan raqobatbardosh mahsulotlar yaratuvchi kasb egalarini shakllantirish joiz. Toki ular davr talablariga og'ishmay javob beradigan, qiziqishi keng, malakasi mustahkam, xotirasi barqaror, fikr yuritishi puxta, izlanuvchan, mehnatsevar, vatanparvar, iyomon-e'tiqodli insonlar bo'lib voyaga yetishsin.

Shuni alohida ta'kidlash joizki, o'rta ta'lim oluvchilarining hammasi kasb tanlashga kelganda oqilona va to'g'ri yo'l tutadi, deb bo'lmaydi, albatta. Ulardan ba'zilari tavakkalligiga ish tutsalar, ayrimlari ota ona kasbini tanlaydilar yoki ko'zga tashlanib turgan yaqqol namunalarga taqlid qiladilar, goho sevimli kishilari izidan borishni mo'ljallaydilar. Ko'pchilik o'quvchilar ta'lim jarayonida fan asoslarini egallab, muayyan tasavvur hosil qiladilar, o'zları yoqtirgan kasb-hunarlar haqida o'ylaydilar.

Maktab o'quvchilarining mayllari, havaslari, intilishlari, xohishlari, motivlari, ezgu-niyatlari xususan kasbkorga bo'lgan qiziqishlari, motivlari, ehtiyojlari tug'ilishi psixologiya fanining shaxs muammosi bilan uzviy bog'liqdir. Shaxs psixologiyasini o'rganish o'quvchilarini kasb tanlashga yo'llash demakdir. O'quvchilarining individual tipologik xususiyatlari, yoshi va jinsini hisobga olgan holda ularning har birini oqilona kasbga yo'llash shaxs psixologiyasining muhim vazifalaridan biridir. Bozor

iqtisodiyotiga asoslangan jamiyat qurish to‘g‘risidagi hujjatlarda o‘quvchilarni mustaqil kasb tanlashga (o‘z imkoniyatlarini o‘zi baholash orqali) o‘rgatish juda muhim va zarur vazifa ekanligi ta’kidlanadi. Shunga ko‘ra psixolog olimlar, metodistlar, tashxis Markazi xodimlari keng jamoatchilik bilan birgalikda kasbga doir bilimlarni keng tashviqot qilishlari, kasb-kor tanlashga oid yo‘l-yo‘riqlari va metodlar ishlab chiqishlari, kasb tanlash maslahatlari rasmiy shaxobchalari kengaytirilishi, professiogramma, professiografiya, psixogrammalar ko‘lami orttirilishi lozim.

Kasb tanlash faoliyatini oqilona tashkil etish uchun mamlakatimiz qaysi soha mutaxassislariga muhtojligini nazarda tutish va shunga yarasha ta’lim oluvchilarni ularning mayli, intilishi, qiziqishi, imkoniyati, aqliy va jismoniy qobiliyatlariga qarab, hamda u yoki bu kasbga yaroqlilagini aniqlab, so‘ng kasbga yo‘llash kerak.

Hozirgi davrda xalq ta’limi bo‘limlarida, ishlab chiqarishda, aholini ish bilan ta’minlash muassasalarida, kollejlardan va Oliy ta’lim muassasalarida yoshlarga kasb tanlash yo‘lini ko‘rsataditan maxsus kasb-hunar xonalarini tashkil etilgan. Bu borada Respublika tashxis markazining, hamda joylardagi uning bo‘limlarining faoliyati ibratlidir. Bundan tashqari malakali psixologlar va pedagoglar (shu jumladan mahalla tarbiyachisi), murabbiylar, muxandislar va texniklar har bir kasb-hunarning o‘ziga xos tomonlari haqida malakaviy maslahatlar tashkil qilishadi. Lekin yoshlarning kasb-hunar tanlashi asosan o‘rta maktabdan boshlanadi, shunga ko‘ra o‘quvchilar kichik jamoasi bilan psixologlar oldida turli yoshdagi jinsdagi ta’lim oluvchilarni kasbga qiziqtirish, mehnat qobiliyatlarini rivojlantirish, ichki imkoniyatlarini ishga solish (o‘zini-o‘zi namoyon etish) kabi muhim vazifa turibdi. Psixologlar bundan tashqari, o‘quvchilarning aql idroki, qobiliyatlarini hamda muayyan kasbga yaroqlilik darajasini aniqlash metodlari, usullari, texnologiyasi, akllari mezonlari va tarkibiy qismlarini ishlab chiqishlari shuningdek, bu sohada ilmiy- tadqiqot ishlari olib borishlari zarur.

Shuni alohida ta’kidlab o‘tish joizki psixologiya fani o‘quvchilarning kasb-hunar tanlashiga yordam beradigan, yo‘l-yo‘riqlar va tavsiyalar, mukammal qo‘llanmalar, aksariyat kasb-hunarning professiogrammasini hali to‘liq ishlab chiqqan emas. Lekin shaxs psixologiyasiga oid amaliy va nazariy materiallar yetarli miqdorda yaratilgan. Shaxs psixologiyasi masalalarini yoritish, ya’ni shaxsning bilish qibiliyatları, aql-idroki, aql-zakovati, individual tipologik xususiyatlari, ruhiy holatlarini aniqlash yo‘li bilan uning nimalarga qodir, qanday kasb-hunarga yaroqligi to‘g‘risida aniq fikr bildirish muayyan tavsiyalar berish mumkin.

Ilk o‘spirinlar va katta o‘smirlarning kasb tanlashi katta hayotiy ahamiyatga ega bo‘lgan ham shaxsiy, ham ijtimoiy muammo bo‘lganligidan bu jarayonda ota-onalar, jamoatchilik va turli kasb ustalari ham faol qatnashishlari kerak, chunki yoshlar ko‘p hollarda kattalarning maslahatlari va tavsiyalarini hisobga olgan holda qat’iy bir fikrga, qarorga kelishlari mumkin. Shuni ham aytib o‘tish o‘rinlikni, ta’lim oluvchilar kasb tanlash borasidagi o‘z qarorlarini, ko‘pincha, har tomonlama dalillab bera olmaydilar, biroq ularning ko‘pchiligi bu masalaga ongli ravishda yondashishga intiladilar.

Maktabdagagi kasb-hunarga yo‘naltirish ishlarining samarali bo‘lishini maktabning kasb-hunarga yo‘naltirish xonasiz tasavvur qilib bo‘lmaydi. Maktabning kasb-hunarga yo‘naltirish xonasi “O‘quvchilarni kasb-hunarga yo‘naltirish xonasi to‘g‘risidagi Nizom” asosida tashkil etiladi va jihozlanadi. Mazkur nizomda maktab kasb-hunarga

yo‘naltirish xonasining vazifalari, unda o‘tkaziladigan tadbirlar, stend va ma’lumotlar bo‘lishligi haqida aytib o‘tilgan. Maktab kasb-hunarga yo‘naltiruvchi mutaxassisining asosiy vazifasi o‘quvchilarni kasb-hunarga yo‘naltirishni ta’minlovchi barcha ma’lumotlar bankini yaratishdan iborat. Bu maqsadda kasb-hunarga yo‘naltiruvchi mutaxassis tuman (shahar) tashxis Markazidan olgan kasbiy axborotlar, kasblar ro‘yxati, tasnifi, hududiy kasblar ro‘yxati, kasblarga bo‘lgan ehtiyoj va boshqa kasbiy tashxis metodikalari, tavsiya yo‘riqnomalardan foydalaniladi. Maktab kasb-hunarga yo‘naltiruvchi mutaxassisini tomonidan o‘quvchilarni kasbiy qiziqishlarini rivojlantirish, kasblar haqidagi ma’lumotlarni to‘liqroq anglab yetishi shuningdek, ularning kasb tanlashdagi reallikni vujudga keltirish maqsadida mактабда ilg‘or kasb egalari, kasb faxriylari, kasb sulolalari bilan uchrashuvlar, davra suhbatlari, kechalar va ma’ruzalar tashkil etilsa maqsadga muvofiq bo‘ladi. Ushbu tadbirlar o‘quvchining shu kasbga bo‘lgan qiziqishini yanada qat’iy lashishini vujudga keltiradi.

Kasbiy psixologiyasi fanining rivojlanish tarixi

Ko‘p qirrali psixologik fenomen bo‘lgan shaxs va kasb o‘rtasidagi masala mehnat psixologiyasida o‘rganiladi. Lekin shaxsni kasbiy layoqati masalasi bunda ochib berilmadi. Mehnat psixologiyasi XX asr boshlarida paydo bo‘lib har xil kasbiy masalalar bilan shug‘ullanadi.

Mehnat psixologiyasi har xil kasblarni faoliyatini, faoliyatning insonga bo‘lgan talabini, insonni psixofiziologik imkoniyatlarini, ahloqiy-irodaviy sifatlarini, kasbga kerak bo‘lgan qobiliyat va malakalarni o‘rganar edi. Lekin mehnat psixologiyasining eng asosiy vazifasi bu mehnat sharoiti, mohiyati, uskinalarini taxlil qilish edi. Unda katta e’tibor trovmatizmni profelaktika qilish, ish qobiliyatini va charchashni diagnostika qilish, mehnat rejimini optimal yo‘lini tanish va shu kabilar edi. Mehnat psixologiyasining asosiy masalasi bu insonni mehnat qurollariga va mehnat sharoitlariga moslashishi edi.

Insonlarni mehnat qilishlari uchun shu kasbga xos bo‘lgan layoqatlarini, tanlagan kasblariga xos bo‘lgan fiziologik, psixologik moslik darajalarini o‘rganishga talablar oshib bordi. Bundan tashqari sanoatni tez o‘sib borishi, qishloq yerlaridan insonlarni sanoat joylariga ko‘chib kelishi – migratsiyasi kuchaydi. Bular esa ularni o‘rganish masalalarini muhim masalalardan biri qilib qo‘ydi. SHunday talablar asosida kasbga yo‘nalishni o‘rganuvchi birinchi labaratoriylar paydo bo‘ldi. Bu labaratoriylar 1903 yilda Strasburgda (Frantsiya) va 1908 yilda AQSHning Boston shahrida paydo bo‘ldi. Bu labaratoriylar aynan sanoatni tez o‘sib borishi bilan bog‘liq holda shakllandi. Demak ko‘rinib turibdiki quyidagi jarayonlar kasb psixologiyasini paydo bo‘lishiga sabab bo‘lgan: 1) Jamiyatda sanoatni tez o‘sib borishi; 2) Sanoatni o‘sib borishi bilan texnikani, mashinasozlikni rivojlanishi; 3) Migratsiyani o‘sib borishi va odamlarni o‘rganish zaruriyati paydo bo‘ldi; 4) Inson va uni o‘zi ishlayotgan kasbga moslik darajasini o‘rganish zaruriyatini paydo qildi. Bular esa insonni fiziologik va psixologik jihatdan kasbga mosligini o‘rganish masalasini qo‘ydi. Bular esa ishlab chiqarishni kuchaytirishga va unga mos bo‘lgan kasblarga insonlarni tayyorlash zaruriyatini vujudga keltirdi.

SHunday qilib mehnat faoliyatini psixologik o‘rganish kasbiy shakllanishni o‘rganishni natijalarini bera olmadi. Bu esa mehnat psixologiyasida alohida bo‘lgan va

kasbga xos tomonlarini o'rganuvchi alohida fanni vujudga kelishiga sharoit yaratdi. SHuni aytish kerakki hozirgi psixologik fanlar ichida bunday fan deyarli yo'q. Lekin jamiyat yoshlarni kasbga yo'naltiruvchi va ularni mehnatini psixologik tamondan o'rganuvchi fanga zaruriyat sezib bordi. Insonlarni mehnatga bo'lgan intilishi ularni qiziqishi, iroda kuchi, kasbni mohirona egallashi, o'zidagi psixologik jihatlarni rivojlantirib yaxshi kasb egasi bo'lib borishi, aqliy jihatdan xar xilligi va ularni o'z o'rniga qo'yish kabi ko'plab masalalar turibdiki bular kasb psixologiyasi kasbini fan sifatida jamiyat uchun zarur qilib qo'ymoqda. Bu aytilgan fikrlardan shunday o'ziga xos tamonlar ko'zga tashlanadi.

- 1) Jamiyatda o'sib kelayotgan yoshlarni o'zлari qiziqqan kasblarini egallashlari uchun yo'nalish bershlari zarurligidan;
- 2) Jamiyatni ham ishlab chiqarishda kerakli bo'lgan kadrlarni tayyorlashi zarurligidan;
- 3) Jamiyatni taraqqiyoti, fan va texnikani o'sib borishi bilan bog'liq holda yangi kasblar paydo bo'lganligi sababli yoshlarni bu yangi kasblar bilan tanishtirish zarurligidan;
- 4) Jamiyatda olib borilayotgan islohatlarni natijasi sifatida jahondagi tayyorlanayotgan kadrlarga raqobatbardosh bo'lgan sifatli mutahassislani tayyorlash zaruriyat;
- 5) Jamiyatimizni taraqqiyotini taminlashga xizmat qiladigan fan sifatida zaruriyat tug'ilganligi sababli

Kasb psixologiyasini taraqqiyot tarixi.

Kasb psixologiyasi psixologik fanlar ichidagi eng yosh va tarixi qadim zamonlarga borib taqaladigan fanlar qatoriga kiradi. Haqiqatan ham kasb psixologiyasi yaqin vaqtarda ko'zga ko'rinish borgan bo'lsa ham uning ahamiyati haqidagi fikrlar qadimlarga borib taqaladi. Dunyo madaniyatini beshigi bo'lgan eng qadimiyy ta'limotlardan biri bo'lgan muqaddas "Avestoda" ham kasb va uning ahamiyati haqida fikrlar mavjuddir. Antik davr filosoflari ham kasbhaqida o'z fikrlarini aytib o'tganlar. Masalan Platon o'z asarlarida odamlar kasb jihatidan taqsimlanishi kerakligi, bu esa ularga qo'yiladigan talablardan kelib chiqishini aytib o'tgan edi. "...Odamlar o'zaro tengdirlar, lekin ular majburiyatlariga munosabatlarida bir xil emasdirlar, ular qobiliyatlarini jihatidan har xildirlar – bir xillari boshqarish uchun tug'ilganlar, boshqalari yordamlashishga, yana bir boshqalari – dehqonchilik, xunarmandchilik uchun yaratilgandirlar. Ularni xammasini... tilla, ko'mish, mis, va temir kabi farqlash mumkin"¹. (tarj. avtor.)

Kasb psixologiyasi mehnat psixologiyasi tarkibida shakllanib keldi. Mehnat psixologiyasi kasb psixologiyasiga tegishli bo'lgan masalalarini o'z predmetini hal etish davomida o'rganib bordi. Lekin kasb psixologiyasi qo'ygan masalalarga yondoshish davr talabi bilan zaruriy ravishda uni mustaqil fan sifatida ajralib chiqishiga sabab bo'ldi.

Kasb psixologiyasini mustaqil fan sifatida shakllanishini uchta etapga ajratish mumkin:

¹ Гуревич К.М. Дифференциальная психология и психоdiagностика. М.,2008 г. 28 с.

- 1) XIX asr oxirlarida psixotexnikani psixologiyani yo'nalishi sifatida paydo bo'lishi va mehnatni ilmiy tashkil qilishning psixologik muammolarni yechilishi (W. Stern, F. Taylor, N. Munsterberg va boshqalar.) Psixotexnikani asosiy vazifalari bu mexnat usullari va sharoitlarini ratsionalizatsiya qilish, travmotizm va avariya xolatlarini kamaytirish, ishlab chiqarishga o'rgatishni takomillashtirish edi.
- 2) XX asr boshlarida mustaqil fan sifatida paydo bo'lgan mehnat psixologiyasi rivojlanishi (F. Parson, M. Weber, S.G. Gallershteyn, A.K. Gastev va boshqalar). Uning asosiy izlanish vazifalari – insonni mehnat jarayonida shakllanishi va psixikasini ko'rinishini, shuningdek kasbiy tanlov, kasbiy maslaxat va mehnat ekspertizasini o'rganish edi.
- 3) O'tgan asrning 70 – yilarida mehnat psixologiyasining inson va kasb o'rtasidagi munosabatlarini o'rganish vazsi, yangi kasb psixologiyasini aloxida fan sifatida shakllanishiga olib keldi. Mehnat psixolgiyasining bu aloxida yo'nalishi kasb psixologiyasi deb nomlanadi. Bu A. Huth. E. Bornemann, K. Seifert, E. Vlich ishlarida ko'rindi. Kasb psixologiyasi kasbiy maslahat, kasb tanlash va professiografiya masalalari bilan shug'ullandi.

Mustaqil fan sifatida kasb psixologiyasi AQSHda shakllandi. Kasb psixolgiyasining ajralib chiqishi hozirda insonni kasbiy mexnatga muvofiqlashishi , ayrim kasblar bilan o'zaro munosabati, shuningdek kasblar dunyosiga bo'lgan munosabatidan kelib chiqadi. Kasb psixologiyasining asosiy vazifasi bu inson va kasb o'rtasidagi munosabatlarni o'rganish va uni nafaqaga tayyorlash hisoblanadi.

Kasb psixologiyasining rivojiga Rossiyalik quyidagi olimlar o'z xissasini qo'shganlar: Ye.M.Borisova, K.M.Gurevich, Yu. M.Zabrodn, Ye . A. Klimov, Yu.V. Kotelova, T.V.Kudryavtsev, N.V.Kuzmina, N.D.Livitov, B.F.Lomov, A K. Markova, K.K. Platonov va boshqalar.

XIX asrning XXasrning boshlarida F.Teylerning mexnatni tashkil qilish va korxonani boshqarishga bag'ishlangan ishlari paydo bo'ladi. Bu ishlarda fiziologik va psixologik masalalar – kasb tanlash, mehnat me'yori, haq to'lash tizimi, rag'batlantirish va jazolash, ish quollarini ishchiga moslash kabi dolzarb tamonlar o'rganiladi. Teylarning ishlar to'laligicha ishbilarmonlar manfatiga qaratilgan bo'lib, ko'proq foyda olishni maqsad qilib qo'ygan edi.

Mehnat psixologiyasini vujudga kelishiga G.Ford tomonidan konveyr tizimini ishlab chiqarishga tadbiq qilinishida ko'rish mumkin. G. Ford o'zini g'oyasini o'rta xol ishchiga qaratgan va ular ish qidirish davomida jismonan va ruxan zo'riqmaydigan ishni qidiradilar deb ko'rsatadi. Ishlab chiqarishga texnikani kiritilishi esa ularni qoniqtiradi demoqchi bo'ladi. Bu ularni kasblarni bilishini shart emas qilib qo'yadi va ular ma'lum bir mexanik ishlarni bajaradilar demoqchi bo'ladi. Bu orqali inson faktori inkor etiladi. Bu insonni ishlab chiqarishni bir vintigi qilib qo'yadi.

F. Teylarning boshqarish tizimi quyidagilarga asoslangan edi;

- 1) Boshqarish va tashkil etish bilan bog'liq bo'lgan aqliy mehnatdan ajratish.
- 2) Ishchilarni barcha boshqa ishlardan, ya'ni boshqarish va tashkil etish bilan bog'liq bo'lgan aqliy ishlardan ozod qilish.

- 3) Ishchilarni normalarini bajarish yoki ortig'i bilan bajarishini diferentsial xolda rag'batlantirish.

Bu davrda mehnatni ilmiy boshqarishga bo'lgan intilishlar vujudga kela boshladi. Teylor tamonidan tavsiya etilgan ilmiy boshqarishning mohiyati nimadan iborat edi. Teylor mavjud bo'lgan korxonani boshqarishni "tashabbuslar va rag'batlantirish" usulidagi boshqarish deb baholadi. Teylor ishlab chiqarishni pastligini ko'rsatuvchi uchta asosiy sababni ko'rsatdi. **Birinchi** sabab – bu ishchilar agar ish suratini oshirib ishlasak boshqa ishchilarni ishsiz qolishiga sababchi bo'lamiz deb o'ylashlari. **Ikkinci** sabab ... odamlarni tabiiy instinktlari va odatlari bo'lgan bayramlar ... bosiqlik, o'rta hol darajasida sekin ishlashlari ham sabab bo'lgan. **Uchinchi** sabab korxonada ishlashni ratsional ko'rinishini ko'rsatib beradigan yo'riqnomani yo'qligi. Teylor shu sabablar tufayli ishlab chiqarish past deb baholaydi. Teylor ishchilarni o'rganish uchun ular bilan birga ishlashga va ularni sharoitini o'rganishga harakat qiladi. Mehnatni ilmiy boshqarish uchun Teylor eksperimentlar o'tkazadi.

Teylor ishlab chiqarishda yuqori yutuqlarga ega bo'lismi uchun "ilmiy boshqarishning" 4 ta tomonini ko'rsatdi. Bular quyidagilar:

- 1) Ishchilarni qobiliyati va malakasini umumlashtirish , klassifikatsiya qilish orqali. Har bir mehnat turini ilmiy asosli o'rganish. Har bir insonni xarakatini takomillashtirish va mehnat qurollarini standartlashtirishga qaratilgan eksperimentlar o'tkazish.
- 2) "ilmiy asoslangan talablarga" muvofiq ishchilarni tanlab olish. Ularni "yuqori sifatli ishchi" sifatida o'qitish, ishga tayyorlash. Bu talablardan bosh tortganlarni bo'shatib yuborish.
- 3) Administratsiya ishchilar bilan yaxshi xamkorlikni amalgaga oshirishi. Teylor aytganidek ishchi va fan o'rtasida yaqinlikni yuzaga kelletirish. Ishchilarni ish bajarishlarini tezlashtiradi va ularni aniq bajarishini taminlaydi.
- 4) Mehnat taqsimoti deyarli teng bo'lib, ishchi va boshqaruchilarni javobgarligi bir xilda bo'lishi kerak qilib qo'yiladi.

Teylording bu kabi ilmiy eksperimentlari asosan tadbirdorlarning ish unumini va biznesini ko'payishiga qaratilgan bo'lsa ham ishchilarni malakasini oshirish, ularni yaxshi kasb egasi bo'lshga va psixologiyasida o'zgarishlar yasashi kerakligini ko'rsatadi. Teylor o'zining bu tamoyillari bilan ishchini "tashabbusi va rag'batlantirishni" ilmiy boshqarish asosda olib borish kerakligini, buning uchun esa sabr toqat, chidam va bosiqlik zarurligini ko'rsatadi. U o'zini bu tizimini tezda tadbiq qilib bo'lmasligini va kerakli natijani olish uchun bir necha yillar kerak bo'lishini aytib o'tadi. Ishchini o'rganish uchun uzoqdan emas, balki yaqindan turib, uni uy fikrlarini, mulohazalarini bilish zarurdir deb ko'rsatadi. SHuning uchun ishchi bilan yonma yon bo'lishni tavsiya etadi. Uni o'zini ketidan olib borish bilan yangiliklarga va yutuqlarga ega qilish mumkin deydi. Albatta bu sekin astalik bilan bo'lishini tushuntiradi. Eng oddiy tarzdagi mehnatni tashkil qilishda ham Teylording fikricha ilmiylik yotadi.

Teylording ikkinchi tezisi ham birinchiga bog'liq bo'ladi. Bu "Dars" yoki "Vazifa" g'oyasidir. "Dars" Teylording fikricha butun ilgairgi mehnatga beriladigan haqni almashtirishi zarur. Dars bu ish normasini bajarish hisoblanadi. Lekin Teylor bunga o'zgacha ma'no beradi. Dars bu xar kungi vazifa bo'lib, uni bajarish fat'iy

belgilangandir. Teylor buni mактабдаги бериладиган vazifaga tenglashtiradi. Dars bu yaxshi ishchining bir kunlik ish normasini bajarishi sifatida qaraladi. Bu esa ishchini bir kunlik ish normasini bajarishi hisoblanadi. Yaxshi ishlamagan yoki darslarni bajarmagan ishchilarni boshqasi bilan almashtirish va ish unumдорligini oshirish Teylording asosiy maqsadi bo'ladi. Teylor ishni tashkil etishda ishchilarni charchab qolishini hisobga olgan holda ularni dam olishlarini ham ilmiy boshqarishga kiritadi.

Teylording ikkinchi tamoyiliga asosan ishchilarni tanlov asosida ishga olishni ko'rsatadi. Uchinchi tamoyilga asosan administratsiya va ishchi o'rtasida o'zaro yaxshi munosabatlarni vujudga keltirish yotadi. Ishchilarni tanlashda Teylor bo'yicha "odamlarni ommaviy rivojlantirish emas", balki "har bir alohida individuumni" rivojlantirish kerakligi ko'rsatiladi. Teylor olib borgan eksperimentlar asosida ishchini tanlab olish masalasi yotadi. Bunga misol qilib uni SHmid deb nomlangan ishchi bilan suhbatini ko'rsatish mumkin bo'ladi. Abatta Teylording o'tkazgan eksperimentlari o'z davri uchun ma'lum bir yutuq va kamchiliklarga ega. Lekin mehnatni ilmiy boshqarish orqali ish unumдорligini oshirish, ishchilarga mehnat qilish uchun sharoitlar yaratib berish, mehnati uchun rag'batlantirish va kamchiliklari uchun jazolash, ishchini fiziologik imkoniyatlarini bilish kabi masalalarini hal qilish davomida kasbga xos bo'lган masalalar ham yuzaga chiqadi. Bu olib borilgan tajribalardan kasb va kasbga tanlash, kasbga layoqatlilik, insonni fiziologik imkoniyatlari, insondagi psixologik xususiyatlar va jarayonlarni bilish, kasbini ustasi bo'lish uchun nimalar qilish kerakligi va shu kabi ko'plab masalar ko'zga tashlanadi.

Teylording mehnatni ilmiy tashkil qilishi bilan bog'liq jarayonlarda kasbga va kasb psixologiyasiga tegishli ko'plab masalalar yuzaga chiqishi orqali bu fanni rivojlanishi uchun imkoniyatlar paydo bo'ladi. Abatta mehnatni ilmiy tashkil etishning asosiy shartlaridan biri bu o'z kasbiniyaxshi biluvchi va unga qiziquvchi kadrlarni tayyorlash hisoblanadi. SHuning uchun ham xozirda rivojlanayotgan davlatlarda jamiyat uchun kerak bo'lган yangi va yangi kasblarga tayyorlash va ulardan o'z kasbiniyaxshi bilishlarini talab qilinmoqda. Bu yo'lда O'zbekistonda ham ko'plab amaliy ishlar olib borilib raqabotbardosh kadrlar tayyorlashga diqqatni qaratilmoqda.

XIX asr oxiri XX asr boshlarida amaliy psixologiyaning bir yo'nalishi sifatida industrial psixologiyani shakllanishi va rivojlanishi psixotexnikani paydo bo'lishiga olib keldi. Psixotexnika Amerikada teylorizm bilan paralell tarzda shakllandı. Teylorizm texnika va insonning jismoniy chidamligini o'rgangan bo'lsa, psixotexnika psixologiya tarkibidan o'sib chiqdi. Psixotexnika Teylording ishlaridan alohida holda shakllanib chiqdi. Psixotexnikani shakllanishiga Frayburg universiteti dotsenti Gugo Myunsterberg o'zining "Psixologiya va iqtisodiy hayot" (1912 y) kitobida fikrlarini bildiradi. U keyinchalik Amerikaning Garvard universiteti professori bo'lib ishlaydi. Psixotexnika keyinchalik mehnat psixologiyasi bo'lib shakllandı.

Myunsterberg G. o'zining "Psixotexnika asoslari" deb nomlanuvchi asarida kasb psixologiyasini shakllanishiga ta'sir etuvchi fikirlar bildiradi. Myunsterberg o'zining bu asarida psixotexnikaning uchta asosiy masalalarini ko'rsatadi.

1. Ishlab chiqarishga "to'g'ri keluvchi odamlarni" tanlab olish (Bu yerda iqtisodiy to'g'rikeladigan va joyiga mos keladigan shaxslarni tanlab olish haqida gapirilmoqda).

2. Ishlab chiqarishda mehnat unumdorligining iloji boricha yuqori darajasiga erishish. (bu yerda psixologik ta'sir asosida maxsulotni sifatini, sonini ko'tarish yoki uni shu natijalarini pasayib ketmasligiga xarakat qilish nazarda tutilmoqda).
3. Yuqori psixologik effektga erishish (shaxsga ta'sir etuvchi ma'lum psixologik jarayonlar asosida iqtisodiy jarayonni ko'tarish).

Birinchi masala bu kasbiy layoqatlik hisoblanib unda: kasbiy tanlov, kasbiy maslahat (profkonsultatsiya) va xatto kasblar bilan yoshlarni tanishtirish (proforientatsiya) yotadi. Bu masalalarni hal qilish differentsiyal psixologiya bilan bog'liq bo'lib, bu haqida Myunsterberg to'g'ri fikir bildiradi. Myunsterberg shunday deydi: "Industrial psixologiya uchun individual psixologik farqlar asosiy hal qiluvchi ahamiyatga ega".

Myunsterbergga kasbiy layoqatlikni ajratib olish uchun V.Shternning va boshqa differentsiyal psixologlarning qarashlari muhim ahamiyat kasb etadi. Insondagi ma'lum bir psixologik jihatlar ma'lum kasb uchun muhim ekanligi buni esa differentsiyal psixologlar tamonidan ko'rsatilishini Myunsterberg aytib o'tadi. "Eksprimental va hattoki differentsiyal psixologiyani metodlari kasbiy talablarga mos tushmaydi. SHuning uchun maxsus ekspriment tizimini (testlarni) yaratish zarurdir. Bu testlar kasbga xos psixologik xususiyatlarni ko'rsatishi va kasbiy faoliyatni faollashtirishi zarur"dir deb ko'rsatadi Myunsterberg. Buning uchun aniq mehnat faoliyati ko'rinishlarini kasbiylik nuqtai nazaridan sub'ektiv faktorlar asosida o'rganish zarurdir. "Biz har xil kasblarni sinchiklab o'rganishimiz va ularga mos tushuvchi psixologik faoliyatlarni tahlil qilishimiz kerak bo'ladi" – deb yozadi Myunsterberg.

Myunsterberg kasbni psixologik taxlil qilish uchun birinchi bo'lib korxonalarining egalari bilan suhbatlar olib boradi. Korxonalarining egalari ishni tashkil qilish uchun ishchilarni o'z ishiga intilib ishlashlarini, halol bo'lishlarini, ishlarni bajara olishlarini, o'z kasbini ustasi bo'lish kabi tamonlarni ko'rsatadilar. Lekin ular ishchilarga tegishli bo'lgan psixologik tamonlarga etibor bermaydilar. Ishchilarning diqqati va uning o'ziga xos tamonlari, xotirasi va uning kuchi, irodasi, tafakkuri va boshqa psixologik xususiyatlarini e'tiborga olmaydilar. Myunsterberg xar bir mehnat faoliyatiga esa o'ziga xos psixologik tamonlar borligini va ular kasbiga qarab farqlanishini ko'rsatib beradi. Har bir faoliyat maxsus kasbga xos bo'lgan psixologik taxlilni, psixologik qonunlarga asosan talab qiladi. SHuning uchun bu yerga mutaxasis psixologlarni jalgilish zarur bo'ladi. Kelajakda, deydi Myunsterberg, korxonalarining egalar o'zlarini psixolog mutaxasisligiga muhtoj bo'ladi va ularni ishga chaqiradilar. Psixolog mutaxasislar ishni sifatini va unumdorlikni ko'tarish uchun ishchilarni faoliyatini o'rganadilar va o'ziga xos tavsiyalar bilan bu maqsadlarni amalga oshirib boradilar. Myunsterberg sanoat psixotexnikasini "Mehnatni ishlab chiqishdagi yuksak yutug'i" deb ta'riflaydi. Myunsterberg ishchilarni "mashq qilish va o'rgatish"ga e'tibor qaratadi Uning olib borgan eksprimentlarida kasbga o'rgatish va bu o'rgatishlar davomida ishchilarni toliqib qolishi masalasini ko'zga tashlanganligini ko'rsatib beradi. Myunsterberg telegrafistlar va mashinistikalar bilan ishlar olib boradi va e'tiborni ularni mehnat qilishlari davomida yuzaga kelgan ko'plab masalalarni o'rganishga o'z diqqatini qaratadi. Myunsterberg o'z eksprimentlarida ishchilarni toliqib qolishi va ularga beriladigan imkoniyatlarni ham o'rganadi. CHarchash faoliyatni susayishiga olib

kelishini, u bilan bog'liq holda ko'plab psixologik muammolar vujudga kelishin ko'rsatadi. Myunsterberg o'z faoliyati davomida kasb psixologiyasini rivojlanishi uchun, mehnatni ilmiy boshqarish va kasblarga xos bo'lgan psixologiyani o'rganish uchun ko'plab eksperimentlar, testlar, mashq qilish bilan bog'liq maketlarni tayyorlab berdi. Keyinchalik fanni rivojlanib borishi kasblarni mashq qilib o'rgatadigan, treninglar o'tkazadigan o'quv markazlari paydo bo'ldi. Kasb psixologiyasi rivoj topib bordi.

K.Torndayk, Dj.Fanogenlar tomonidan Amerika aviatsiyasi uchun pilot va ekipaj a'zolarini tanlashda ularni shu ish faoliyatiga layoqatini tahlil qilishdagi o'tkazgan testlari muvaffaqiyatli chiqdi. Ikkinci jaxon urushida AQSH kuchlariga jalg qilinganlardan 20 millioni testlardan o'tkazilib juda katta auditoriyani qamrab oldi. 1943 yil test sinovlaridan o'tgan 10 000 uchuvchilar 1950 yilgacha kuzatuvchi bo'ldilar. Bu va boshqa o'tkazilgan tajribalar shuni ko'rsatdiki, "yuqori darajadagi intellektual qobiliyatlar" juda xilma – xil o'lchamga, bir xil bo'lмагan tabiatga va mazmunga ega ekanlar. Kasb psixologiyasi masalalari Rossiyada ham o'rganildi. Bu sohani o'ziga yarasha o'rgangan psixologlar paydo bo'ldi. Ishlab chiqarishga va undagi jarayonlarni ilmiy boshqarishga asoslangan mehnatni ilmiy tashkil etish markazlari karxonalar qoshida tashkil topdi.

Harbiy holatdagi sharoit sanoatda test o'tkazishga bo'lgan qiziqishni xam faollashtirdi, shu jumladan korxonalardagi ishchi kuchini tartibga solishga e'tiborni ham tortdi.

O'tgan asrning 40 – yillarida test o'tkazish bo'yicha ortirilgan malakalar asosida AQSHda qobiliyatlarni o'rganuvchi testlarni kompleks batareyalari shakllantira boshlandi. Bunda batareya so'zi quyidagilarni anglatadi, ya'ni uning elementi sifatida quyidagilar kiradi:

- tekshirilayotganlar uchun instruktsiya;
- test mazmuni;
- olingan natijalarni ochib beruvchi kalit;
- testolog uchun instruktsiya- bunda olingan natijalarni tahlil qilish nazarda tutiladi;
- testologni o'rgatish metodikasi;
- qayta test o'tkazish uchun instruktsiya.

Ko'zga tashlangan batareyalar sifatida o'sha vaqtadagi AQSHda tarqalgan testlar SAT - bunda o'qishga, kasb o'rganishga bo'lgan qobiliyati bo'lganlarni tanlab olish, yana TALENT- katta makkab yoshidagilar uchun testlar, shuningdek DATB – bu bo'yicha dunyoni 50dan ortiq mamlakatlarda sanoat uchun kasbiy tanlov va armiyaga tanlab olindi. 1948 yilda AQSH da "situatsion testlar" ishlatila boshlandi. Bu tkstlarda odamlarni yolg'on gapirishlpri, o'g'rilikka bo'lgan maillari va hulqidagi ayrim tamonlar o'rganildi. SHu davrning o'zida shaxsni kasb tanlashgan qiziqishini o'rganuvchi Rorshaxning testlari ham keng yoyildi.

Kasb psixologiyasini fan sifatida rivojlanishi Rossiyada E.F.Zeer, Ye.A.Klimov, A.K. Markova kabi psixologlar nomi bilan bog'liq. Ular kasbiy psixologiyaga tegishli ko'plab amaliy ishlarni hayotga tadbiq qilib kelmoqdalar. Yoshlarni kasbga yo'naltirish, kasbiy maslahatlar, ishchilarini o'z kasbilarini egalashlari va bu sohani ustasi bo'lishlari nafaqaga tayyorgarlik ko'rish bilan bog'liq ko'plab psixologik masalalar ular tamonidan o'rganilib, tadqiqot ishlari olib borilgan. Umuman esa kasb bilan bog'liq ishlar rus

psixolog olimlari tamonidan o'tgan asrning boshlaridayoq qiziqish ob'ekti bo'lган.

Biroq keyinchalik rus psixologgi Ye.A. Klimov o'z tadqiqot ishlarida aynan shu masalaga, ya'ni "kasb tanlash", "kasbga yo'naltirish" kabi masalalarga e'tiborini qaratib, bu borada tadqiqot ishini olib borgan. Xususan, misol sifatida Differensial diagnostik so'rovnoma (DDS) metodikasini ishlab chiqqan. Ye.A.Klimovdan tashqari ham ko'p chet el olimlari bu masala bo'yicha ish olib borganlar. Asta-sekin jamiyatda kasb tanlashga nisbatan ongli yondoshishlar kuzatila boshlandi. Ya'ni ularning barchasi kasbiy psixologiyaning shakllanishiga olib keladi.

Kasbiy psixologiyaning ajralib chiqishi hozirgi kunda shaxsning kasbiy mehnatga o'rganib ketishi emas, balki alohida kasbiy bilim, ko'nikma va malaka hamda umuman kasblar olamiga kirib borishiga asoslanadi. Tadqiqot muammosining asoslari shaxsning kasbiy xulq-atvorini, shuningdek, kasbiy tayyorgarlikni boshlang'ich rivojlanishidan toki kasbiy hayotni tark etgunga qadar bo'lgan jarayonlarni ochib bergen. Kasbiy psixologiya masalalarini o'rganishga G.V.Kudryavsev, Ye.A.Klimov, B.F.Lomov, K.K.Platonov, K.M.Gurevich, Ye.F.Zeyer, A.K.Markova, L.M.Mitina, V.A.Bodrov, V.B.Klagin, S.P.Beznosov va boshqalar o'z hissalarini qo'shib kelmoqdalar. Kasbiy shakllanish muammosi XX-asr boshlarida dolzarb masalalardan hisoblanib, lekin bu vaqtgacha kasbning erkin tanlovi bo'lмаган.

Insonlarning kasbiy hayotidagi o'zgarishlar shuningdek, **jamiyatning patriarxal tuzumi**, chegaralangan sanoat inqilobi va mehnat bozori, yangi kasblarning paydo bo'lishiga olib keladi. Ko'pchilik odamlarni topish va ishga kasbiy tayyorlash muammosiga duch kelishdi. O'zgargan tarixiy vaziyat kasblar dunyosini keskin o'zgarishiga olib keldi. Yangi ish qurollari va vositalarini yaratish, ko'p yillar davomida mehnat vazifalarini sifatli va mahsuldor bajara oladigan yuqori malakali ishchilarga nisbatan ehtiyojni kuchaytiradi. Mehnatni tashkillashtirishda F.Teylor tomonidan ishlab chiqilgan tizimi keng tarqaldi. Mehnat jarayonidan tashqari bu tizimda ishchining kasbiy layoqatiga katta e'tibor berilgan

Kasbiy o'zlikni anglash va kasbiy layoqat masalalarini yechimini topilishi-psixologiyaning yangi sohasi psixotexnikaning rivojlanishiga olib keldi. 1920-yillarda esa mehnat jarayoni, inson va texnikaning rivojlanishiga turki bo'ldi. Bu jarayonda insonning psixika va ishlab chiqarish texnologiyasiga moslashuvi jarayoniga katta e'tibor berilgan.

Ishlab chiqarishni tashkil qilishda demokratik tamoyillarning o'rnatilishi shaxsning faoliyatida mehnatning ahamiyati to'g'risidagi insonparvarlik nazariyalar rivojlangan mamlakatlarda XX-asrning 70-yillarida paydo bo'ldi va shaxsning kasbiy jihatlari to'g'risidagi konsepsiyanı boshqacha anglashlariga olib keldi. Shaxs va kasb hamkorligi kasbiy shakllanishning o'zagi deb hisoblana boshlandi. Kasb egallash va ayniqsa kasbiy faoliyatni bajarish jarayonida ishchi shaxsida va faoliyat tuzilmasida o'zgarishlar bo'lib o'tadi, ya'ni shaxs o'z kasbni ustasi bo'lib kasbning mazmuni va xususiyatini o'zgartiradi.

Sharq allomalari asarlarida kasb-hunar va kasb tanlash muammosi.

Kasb psixologiyasi o'zining tarixi bilan sharq mamlakatlari bilan ham bog'liq. SHarq haqida gap ketganda eng avvalo qadimgi ta'limot bo'lgan Zardushtiylikka tegishli bo'lgan yozuvlar va ulardagi kasb bilan bog'liq fikrlar nazarda tutiladi. Muqqadas

“Avesto” da inson hayotining barcha sohalariga tegishli bo’lgan fikrlar mavjud. SHular qatorida kasb va unga bo’lgan e’tibor ham o’z aksini topgandir. Bu haqida “Avesto”da shunday deyiladi: “Har bir nekbin odam biron kasb bilan shug’ullanishi, band bo’lishi, «aql ishlatib» «ikki qo’llab yerga ishlov berib» «chorva parvarishlab» «biron dasgohni yurgazib» «biron oloti kor» yoki «oloti harba yasab» kun kechirmog’i, beg’araz rizqu ro’z topib yemog’i, birovlarga muhtoj bo’lib, «qo’l uzatib, tilanchilik qilmoqdan» asramog’i darkor ”.² Bu fikrlar shuni ko’rsatadiki qadimdayoq odamlar kasblarni o’rganish orqali o’z trikchilagini yaratishga intilganlar. O’sha davrdayoq odamlar ongiga ilm, qalbiga ro’shnolik, nazariga nekbinlik, qo’liga xunar singdirishga intilishgan va ularni to’g’ri yo’l tutishga, rostgo’y bo’lishga vijdonan ishlashga o’rgatishgan.

Qo’hna sarchashmalar va «Avesto» dagi dalillar shuni ko’rsatadiki, - deb yozadi Xamidjon Xamidiy, - ta’lim jarayonida kundalik hayot uchun zarur bo’lgan barcha bilimlar o’qitilgan, hunarlar o’rgatilgan. Ko’rinib turibdiki qadimgi ota – bobolarimiz yoshlarni tarbiyalashning muhim qirrasi deb unga hayotda kerak bo’ladigan kasblarni o’rgatishni o’z oldilariga vazifa qilib qo’yanlar.

SHarq o’zining bilimlari bilan har doim oldinda bo’lgan, Bunga ko’plab misollar keltirish mumkin. Deylik, Kaykovsning “Qobusnom”sida aynan kasb haqida uning inson uchun foydasi va zarurligi haqida fikirlar bildirilgan. “Ey farzand, ogoh bo’lki, hunarsiz kishi xamisha foydasiz bo’lur va hech kishiga naf’ yetkurmas.”³ Inson ma’lum bir kasbni egallab uni yaxshi o’zlashtirgan bo’lishi va shu kasbda o’z nomini ko’rsata olgan bo’lishi kerakligi aytilgan, ya’ni egallagan kasbning ustasi bo’lib yetishishi zarurligi bildirilgan. Yaxshi kasb egasi muloyim bo’lishi va o’zini kasbini boshqalarga o’rgatishi kerakligi ko’rsatilgan. Bu kasb egasidan boshqalarga ham foyda yetishi bildirilgan. Har kimki biror kasbni egaladimi u bu kasbni kelajak insonlariga o’rgatishi va ularni kasbli qilishi zarur ekanligi bildirilgan.

Kasbning hayotdagi o’rni va kerakligi haqida SHarqning juda ko’p allomalari o’z fikrlarini bildirib o’tganlar. Bularga ko’plab misollar keltirish mumkin. Deylik:

O’qib o’rganilgan har bitta hunar,
Hunarmadga bir kun foya keltirar.

Nizomiy Ganjaviy

Hunar va san’at shunday narsaki, u keraksiz qolmaydi, ishlatmasang ham yo’qolib ketmaydi, kerak paytda esa senga ko’makchi bo’ladi. Erkak kishiga qirq hunar ham oz. Erkak bo’la turib «men buni bilmayman» deyish uyatdir.

Favokih –al -julaso

Haqiqatdan ham, hunar mehribon do’st, shafqatli yor va fayz yetkazuvchi bir chapog’on otdeki, u o’z chavondozini tezgina rohat va e’tibor manziliga yetkazadi va shunday himoyachidirki, o’z sohibini tama’ olovidan qutqarib, omonda saqlaydi.⁴

Barxurdor ibn Mahmud

Sharqning ko’zga ko’ringan mutafakkirlai kasb to’g’risida shu kabi ko’plab fikrlarni aytib o’tganlar. Mehnat bu kishini yaxshilikka olib boruvchi yo’l bo’lsa, kasb

² Хамиджон Хамидий Авестодан Шохномага. Т., Шарқ ., 2007 й. 71 б.

³ Кайковс “Қобуснома” Т., 1994 й. 26 б.

⁴ Одоб бўстони ва аҳлоқ Гулистони. Т., 1994 й. 22- 25 б.

uning mehnatini yuzaga chiqaruvchi va yaxshi yashashi uchun imkoniyatlar yaratib beruvchi asosiy samon otdir. Kasbni egallagan inson va uni juda cho'qqisiga chiqqan, mahorotli usta bu yaxshiliklar yoyvchi shaxsdir. Bu insonga e'tibor berish esa, uning xalol mehnatini rag'batlantiruvchi tamon kasb egasini jamiyatdagi o'rnini ko'rsatib beradi. Rag'batlantiilmagan kasb egasi e'tiborsiz qolgan chiroyli gulga o'hshaydi. Kerakli kasblarni egallab har doim xalq xizmatida bo'lgan insonlar albatta rag'batlantirilishi zarur.

Kasb-hunar egalari qadimdan e'zozlanib kelingan. Sharq mutafakkirlari ta'limotida o'g'il va qizlarga ta'lim va tarbiya berish, ularga kasb-hunar o'rgatish g'oyasi muhim o'rin egallaydi. Qadimiylar an'analarimizga binoan hunarmand va kasb, me'mor va naqqosh, dehqon va chorvador, to'quvchi va nonvoy, ustoz-shogird munosabatlarini amalga oshirib kelmoqdalar. Dono halqimiz «Ustozidan o'tmagan shogird - shogird emas», «Hunarli kishi aslo xor bo'lmas», «Ustoz otadek ulug'», «Ta'lim bergen ustozingdan ayrılma» singari maqollarni ijod etganlar va farzandalarining barkamol bo'lib ulg'ayishini orzu qilganlar.

Kasb haqida Sharqning buyuk mutafakkirlari o'z fikrlarini bildirganlar. Bulardan biri Abu Nasr Farobiy edi. Sharqdan chiqqan buyuk faylasuf va ikkinchi ustoz nomini olgan Forobiy o'z qarashlarida kasbga tegishli fikirlarni bildirgan edi. Farobiy kasbga xos fazilatlar tug'ma bo'lmasligini uni inson egallab borishini ko'rsatadi. Insondan kasb – xunarni o'zlashtirish uchun zo'r kuch va iroda talab qilinadi deb ko'rsatadi Farobiy. Kasb – xunarga insonlar ta'lim va tarbiya orqali erishadilar, ulardagi xislatlar kasbni egallash uchun asos bo'lishini ko'rsatadi. “Agar ular ish, kasb – xunarga berilgan bo'lsalar, kasb – xunarga qiziqsalar, shu qiziqish ularni butunlay kasb – hunarga jalb etsa, demak, ular kasb – xunarning chinakam oshig'i bo'ladilar”⁵deb yozadi Farobiy.

Forobiy kasblarni o'zlashtirish haqida gapirib uni ikki yo'l bilan amalgalashishini ko'rsatadi. Biri yaxshi gaplar bilan, agarda kasb o'rganayotgan yaxshi gaplarga ko'nsa va uni bajarsa. Ikknichisi kasbni majbur qilish yo'li bilan o'rgatish. “Bolalar ustida turgan odam esa muallim bo'lib, u bolalarga tarbiya berishda turli tarbiya usulidan foydalanadi”⁶.

Forobiy ijtimoiy hayotning, inson faoliyatining muhim omili sifatida kasb – xunarga, hunar san'atiga, ya'ni ijtimoiy foydali mehnatga katta e'tibor berdi. Farobiy kishilarni keng ma'nodagi foydali mehnatisiz inson jamoasini, davlatni tasavvur qilib bo'lmasligin aytadi. Farobiy kasblarni klassifikatsiya qilishga ham urinadi. Farobiy fozil shaxarlardagi turli kasb – xunarlar ustida to'htab, ularni, chunonchi: dehqonchilik, baliqchilik, bog'dorchilik, chorvachilik, tikuvchilik, to'quvchilik, kosiblik, quruvchilik, tabiblik, kalligrafiya, xuquqshunoslik, raqs, notqlik kabi san'atlarni birma – bir sanab o'tadi.⁷

Buyuk qomusiy olim Abu Nasr Farobiy kasb-hunar to'g'risida ilk fikrlarini bildirib, qimmatli maslahatlar bergan, chunonchi, ta'lim – so'z va ko'nikmalar majmui, tarbiya esa amaliy malakalardan iborat ish - harakat ekanligini, **muayyan kasb-hunarga berilgan**, u bilan qiziqqan kishilar shu kasb- hunarning chinakam shaydosi bo'lishini

⁵ Абӯ Наср Фаробиј Фозил одамлар шахри Т., 1993 й. 184 – 185 б

⁶ Хайруллаев М. Фаробий руҳий процесслар ва таълим – тарбия тўғрисида Т., 1967 й. 67 б.

⁷ ⁷ Хайруллаев М. Уйғониш даври ва Шарқ мутафаккири Т., 1971 й. 255 б.

aytgan. Bu mulohazalardan anglashilib turibdiki, kasb-hunar insoniyat uchun azaldan juda zarur hayotiy vosita bo‘lib kelgan.

Forobiy ta’lim-tarbiya ishlarini ikki yo‘l bilan amalga oshirishni nazarda tutadi. “Amaliy fazilatlar va amaliy san’at kasb-hunarlar va ularni bajarishga odatlantirish masalasi”ga kelganda, bu odam ikki yo‘l bilan hosil qilinadi; bulardan birinchisi – qanoatbaxsh so‘zlar, chorlovchi, ilhomlantiruvchi so‘zlar yordamida odatda hosil qilinadi, malakalar vujudga keltiriladi, odamdagи g‘ayrat, intilish harakatga aylantiriladi. Ikkinci yo‘l yoki usul – majbur etish yo‘li. Bu usul gapga ko‘nmovchi qaysar shaharliklar va boshqa sahroiy xalqlarga nisbatan qo‘llaniladi. Chunki ular o‘z istaklarigacha so‘z bilan g‘ayratga kiradiganlardan emaslar. Ulardan birortasi nazariy bilimlarni o‘rgatishga kirishsa, uning fazilati yaxshi bo‘ladi. Kasb-hunarlarni va juz’iy san’atlarni egallahsga intilish bo‘lmasa bunday odamlarni majbur etmaslik kerak. Chunki shahar xalqlariga tarbiya berishdan maqsad – ularni fazilat egasi qilish va san’at ahllariga aylantirishdir.

Tabiblik kasbining miyasi inson tani va uning a’zosidir. Uning maqsadi shu a’zolar uchun kerakli bo‘lgan sog‘lomlikni hosil qilish va ularni kasal bo‘lishdan saqlashdir. Tabiblik uchun zarur bo‘lgan faoliyat agar u kasal bo‘lsa, sog‘lig‘ini tiklashdir. Bu ishni asbob va vositalarsiz amalga oshirish mumkin emas. Tabiblar kasalliklarning har biri uchun dori-darmon topadilar.

Tabiblik hunari yetti turli bilimni o‘z ichiga oladi.

- 1) inson a’zolarini ayrim-ayrim jihatlarini o‘rganish;
- 2) salomatlik holati, ularning ta’sirlanishini o‘rganish ;
- 3) turli kasaliklarning sabablari va ular bilan bog‘liq bo‘lgan tasodifiy hodisalarni o‘rganish;
- 4) salomatlik va kasallikning belgilari, sabablari, dalillari, butun badanda, ayrim a’zolarda ko‘rinadigan kasallik alomatlarini o‘rganish va bilish;
- 5) sodda va murakkab dorilarni bilish, tabiblik hunarida ishlataladigan asboblarni o‘rganish **va ularni ishlata olish**;
- 6) sog‘lom badanda salomatlikni saqlash uchun zarur bo‘lgan qonun-qoida harakatlarni o‘rganishni bilish;
- 7) badanda sog‘lik-salomatlikni tiklash uchun zarur bo‘lgan qonun-qoida va harakatlarni bilish.

Forobiyning fikricha, insonning kasb-hunar va san’atdagi fazilatiga kelsak, bu fazilat tug‘ma emasdir, aks holda uning fikru-fazilatida mutlaqo kuch va ulug‘lik bo‘lmas edi. Agar kasb-hunar fazilati tug‘ma bo‘lganda podshohlar ham o‘zları ishlab va harakat qilib emas, balki podshohlik ularga faqat tabiiy ravishda muyassar bo‘lgan, tabiat talab qilgan tabiiy majburiy bo‘lib qolar edi. Nazariy va buyuk fikriy fazilat ulug‘ tug‘ma fazilat va ulug‘ (kasb-hunar) fazilati odat – malaka bo‘lib qolgan odamda bu fazilatlar irodani hosil qilishning va odatga aylantirishning sababi bo‘ladi, bunday odamlar cheksiz, juda kuchli tabiat va irodaga egadirlar.

Agar insonda mana shunday go‘zal xususiyatlar yoki fazilatlar birlashsa, uyg‘unlashsa, shundan so‘ng u o‘zidagidek go‘zal fazilat va irodani xalqlar va shahar ahillarida hosil qilish yo‘llarini o‘rganishi kerak.

Buyuk qomusiy olim sifatida barcha hodisalarning mohiyatini ilmiy jihatdan

ochib berishga harakat qilgan sharq mutafakkirlaridan biri - Abu Ali Ibn Sinodir. Uning pedagogik-psixologik qarashlari ilmiy asosda qurilgan bo‘lib, bolaning fe'l-atvori va tasavvurlarini shakllantirishda umuminsoniy g‘oyalar qo‘llanishini yaratgan hamda murabbiy, ota-onalarga uni qattiq tanjazosidan ko‘ra, shaxsiy ibrat orqali voyaga yetkazish ma’qulligini ko‘rsatgan. Mutafakkirning «Donishnoma», «Risolai ishq», «Uy xo‘jaligi», «Tib qonunlari» asarlari mamlakatimiz xalklari odob- axloq psixologiyasi va tabobat olamida alohida o‘rin tutadi.

Mutafakkirning mehnatsevarlik tarbiyasi borasidagi fikrlari ham diqqatga sazovordir. Jumladan, u har bir bolani biror hunarga o‘rgatmoq shart, deydi. Yosh yigit biror hunarni o‘rgansa, uni hayotga tatbiq eta olsa va mustaqil hunar tufayli oilani ta’minlaydigan bo‘lsagina, otasi uni uylantirib qo‘ymog‘i lozim, deb hisoblaydi. O‘siprin hunar egallashi bilan unda nafaqat ahloqiy hislar, balki xarakterning irodaviy xislatlari ham tarkib topa boshlaydi. Hunar egallash orqali o‘siprinlarda sabr-bardoshlik, chidamlilik, mehnatsevarlik, ishbilarmonlik, tadbirkorlik, zukkolik kabi insoniy sifatlar shakllanadi.

Ibn Sino har bir insonning mijozidan kelib chiqqan holda unga alohida e’tibor berish kerakligini ta’kidlashi tufayli juda katta amaliy ish qilganligiga guvoh bo‘lish mumkin. [Uning fikricha](#), har bir inson faqat unga tegishli bo‘lgan xususiyatlargagina egadir, unga o‘xshagan insonlar kamdan- kam bo‘ladi. Abu Ali ibn Sinoning mehnatsevarlik tarbiyasi borasidagi fikrlari ham diqqatga sazovordir. Jumladan, u har bir bolani biror hunarga o‘rgatmoq shart, deydi. Yosh yigit biror hunarni o‘rgansa, uni hayotga tatbiq eta olsa va mustaqil hunar tufayli oilani ta’minlaydigan bo‘lsagina otasi uni uylantirib qo‘ymog‘i lozim, deb hisoblaydi. O‘siprin hunar egallashi bilan unda nafaqat axloqiy hislar, balki xarakterning irodaviy xislatlari ham tarkib topa boshlaydi. Hunar egallash orqali o‘siprinlardan sabr-bardoshlik, chidamlilik, mehnatsevarlik, ishbilarmonlik, tadbirkorlik, zukkolik kabi insoniy sifatlar shakllanadi.

Ibn Sino har bir insonning mijozidan kelib chiqqan holda unga alohida e’tibor berish kerakligini ta’kidlashi tufayli juda katta amaliy ish qilganligiga guvoh bo‘lish mumkin. Uning fikricha, har bir inson faqat unga tegishli bo‘lgan xususiyatlargagina egadir, unga o‘xshash insonlar kamdan-kam bo‘ladi.

XI asrning buyuk mutafakkiri Yusuf Xos Hojib o‘zining «Qutadg‘u bilig» asarida inson va uning hayotiga oid qarashlarini tahlil qilgan. U odamning Olloh tomonidan yaratilganligini hamda odamning dunyoga kelishi va uning kelajakda qanday odam bo‘lib voyaga yetishi ajdodi va kelib chiqishiga, hayotda shug‘ullanayotgan faoliyatiga, atrofga nisbatan munosabatlariga bog‘liqligini aytib: «Kimning nasli otadan boshlab toza bo‘lsa, undan elga yaxshilik, ko‘p manfaatlar keladi» deb hisoblaydi.

XII - XVI asrlarda yashab ijod etgin mutafakkir allomalar Jaloliddin Rumi, [Abu Rayxon Beruniy](#), Mir Alisher Navoiy, Xorazmiy va boshqalarning asarlarida, qo‘llanmalarida, falsafiy-psixologik mulohazalarida turli kasblarga oid turga teng bo‘lgan fikrlar talaygina. O‘zining ta’lim-tarbiya, ahloq nafosatga doir fikr mulohazalari bilan XIX asrda shuhrat qozongan Ahmad Donish o‘qituvchilik kasbi haqida bir qancha fikr mulohazalarni bildiradi.

Ahmad Donish kasb tanlash, kasb yo‘naltirish kasb egalari xususidagi fikrlarini ko‘zdan kechirar ekanmiz, uning o‘qituvchilik kasbi xususidagi qarashlarida ahloq

masalasiga katta e'tibor bergenligini ko'ramiz. U o'qituvchini talabalarga kuchli ta'sir etuvchi deb biladi. Uning ta'kidlashicha, o'qituvchilik kasbini tanlaganlarning nopolikli niyatida bo'lishi g'oyatda zararlidir, chunki ular o'zlaridagi axloqiy buzuqlikni yosh avlod o'rtasida tarqatadilar. Demak, Ahmad Donish o'qituvchining axloqiy qiyofasiga katta e'tibor beradi. U o'qituvchidan yosh avlod manfaatini birinchi o'ringa qo'yishni talab qiladi. O'qituvchi o'quvchi va talabalarga ko'p bilim berish o'z bilimini oshirish va chuqurlashirish uchun o'z ustilarida ko'p ishlashlari lozimligini aytadi. Bundan ko'rinaliki, Ahmad Donish o'qituvchi kasbiga nisbatan jiddiy talab qo'yadi. U go'zal axloqlilik va chuqur bilimdonlikni o'qituvchining go'zal sifati deb biladi.

XX asrning yetuk ma'rifatparvari Abdulla Avloniyning 1913 yilda yozilgan "Turkiy Guliston yohud axloq" asarida bola tarbiyasi, uning ijtimoiy ahamiyati falsafiy-pedagogik jihatdan tushuntirib berilgan. Olim ta'lim va tarbiya jarayonida oila va jamoatchilikning o'rni ularning o'zaro hamkorligini ulug'laydi. Uning talqiniga qaraganda, barkamol shaxsning ko'p qirrali bilimlarga ega bo'lishi, yaxshi bir kasbkorning sirlarini egallashi ko'p jihatdan ijtimoiy muhit bilan oilaviy sharoitning uyg'unligiga bog'liqligini ta'kidlaydi.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash lozimki, sharq allomalari asarlaridagi kasb tanlash, kasbga yo'naltirish borasidagi fikrlarni o'rganish, ularni amaliy hayotga tadbiq etish, o'sib kelayotgan yosh avlodni ongli kasb tanlashga yordam beradi. Bu esa bolalarni yoshligidanoq kasb-hunarga o'rgatish jamiyatning asosiy vazifalardan biri hisoblanadi. Shuningdek, ularda kasbga xos tushuncha, tasavvur va bilimlarini boyishiga xizmat qiladi.

Kasb psixologiyasini hozirda O'zbekistondagi rivoji.

Kasb psixologiyasi fan sifatida O'zbekistonda mustaqillikni qo'lga olgandan so'ng taraqqiy etib bordi. Albatta bu fan endigina rivoj topib bormoqda. Kasb psixologiyasini fan sifatida rivojlanishi ko'pgina masalalar bilan bog'liqdir. Xozirda kasb psixologiyasi fan sifatida oliygohlarga o'qitish uchun kiritilgan. Bu sohada yetarli darsliklar va o'quv qo'llanmalar ham yo'q. Lekin shunga qaramay O'zbekistonlik psixologlar kasb psixologiyasi fanini rivojlantirish uchun intilmoqdalar. Kasb psixologiyasi fanini o'qitish uchun kitoblar yaratib kelmoqdalar. Bu psixologlar E.G'.G'oziyev va K.Q. Mamedovlar tamonidan yozilgan "Kasb psixologiyasi", Karimova V.M. tomonidan yozilgan "Kasb psixologiyasi" va psixolog olim Anvar Jalolov tamonidan yozilgan "Kasb qanday tanlanadi" kabi kitoblardir. Bular albatta institutlar mashtabida yozilgan. Lekin kasb psixologiyasi bo'yicha mutaxasislar hali yetarli emas. O'zbekistonda bu sohalarni mutahassislarini tayyorlash uchun sharoitlar mavjud. Albatta kasb psixologini bo'lishi ishlab chiqarishga va kasb tanlashga o'z ta'sirini ko'rsatadi. Kasb psixologi tamonidan olib boriladigan ilmiy izlanish ishlari hozirgi vaqtida tadbirkorlikni, kasb tanlashni va yoshlarni o'z kasbalarini to'g'ri aniqlab olishlari uchun qulayliklar yaratadi.

Kasb psixologiyasini taraqqiyoti uchun barcha sharoitlar mavjud. Bu ta'lim tizimini isloh qilish bilan bog'liq masalalarda, "Ta'lim to'g'risi"dagi va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"da o'z aksini topgandir. Hozirda bizga yaxshi kasbni egallagan kadrlar juda kerakdir. Bu yo'lida ko'plab amaliy ishlar hayotga tadbiq etib borilmoqda. Bu ishlarni tashkil etishning o'ziga xos tamonlari borki bular haqida yuqorida gapirib

o'tdik. To'qimachilik va yengil sanoat uchun tayyorlanayotgan kadrlarni sifatini ko'tarish va yaxshi mutaxassis bo'lishlari uchun kasbiy tanlovlardan o'tishlari va o'zlarida bunga layoqat borliklarini sinab ko'rishlari zarur bo'ladi. Ma'lumki layoqati bor bo'lgan kasb egasidan jamiyat va o'zi uchun foydali amallar bajariladi. Insonning ma'lum bir kasblar uchun kerak bo'lgan layoqati uni o'z o'rnini topishga imkoniyatlar ham yaratadi. SHuning uchun ham yurtboshimiz ta'lim tizimini isloh qilish orqali yangi bir o'zanga ko'tarilishni, jamiyatimizda taraqqiyotni vujudga keltirishda yoshlarning o'rni boshqacha ekanligiga o'z diqqatlarini qaratgan edilar. Kasb psixologiyasi o'zi sevgan va undan o'z hayotini qura oladigan mutaxassislarni tarbiyalab boradi. Uni rivojlantirish va yoshlarga kasb tanlashlarida yordam berish hozirdagi muhim vazifalardan biri hisoblanadi.

O'zbekistonda kasb psixologiyasini rivojlantirish bu yoshlarni o'z kasblarini to'g'ri tanlashlarini yengillashtirish demakdir. Xar bir sohani o'rganuvchi va shu sohaga kerakli bo'lgan ixtidorli kasb egalarini tanlab olish va shu yo'lda amaliy ishlarni hayotga tadbiq qilib borish hozirda juda zarur bo'lgan sohadir. Bu yo'lida O'zbekiston uchun kasb sohasiga ixtisoslashtirilgan psixologlar zarur bo'ladi.

O'zbek psixologlari tadqiqotlarida kasb tanlash va kasbga yo'naltirish muammolari.

Kasbiy konsultatsiyalar shaxs xossalari, xususiyatlari, sifatlari tashxis metodlarini ishlab chiqish psixologiya fanining markaziy vazifalaridan biridir. Respublikamizda tashxisning bunday metodikalarini yaratishda ma'lum tajriba to'plangan. Masalan, o'quvchilarni psixologik o'rganish metodikasi (V.A.Tokareva S.Sh.Aytmetova) shaxsni o'rganish metodlari (M.G.Davletshin tahriri ostida B.R.Qodirov va K.B.Qodirovlar ishlab chiqqan) o'quvchilarni kasb tanlash vazifalarini hal etish uchun tashxislash metodlari, R.Z.Gaynudinov rahbarligida yaratilgan turli kasblar uchun asosli professiogrammalardir.

"Inson-kasb-ishlab chiqarish muhiti" tizimi o'z-o'zicha ko'p bosqichli, ko'p qirrali, juda murakkab bo'lib, respublikamizda ushbu tizimda davlat miqyosida inson omiliga g'amxo'rlik qilinadi. Kadrlar tayyorlash sohasida davlat siyosati har tomonlama rivojlangan shaxs fuqaroni uzlusiz ta'lim tizimi orqali tarbiyalashni ko'zda tutadi. Shunday qilib, insonning kasbiy shakllanish muammolarini o'rganish ham fundamental, ham amaliy tadqiqotlarning dolzarb vazifalaridan sanaladi. R.Z.Gaynudinov rahbarligida kasbiy tiklanishning turli muammolariga bag'ishlangan qator tadqiqotlar amalga oshirilgan.

D.N.Arziqulovning dissertatsion tadqiqotida Agrar universitet talabalarining kasbiy shakllanish bosqichlari psixologik xususiyatlarini o'rganishga asosiy e'tibor qaratildi.

Sh.G'.Saparovning o'qituvchilarining shaxsiy-kasbiy xususiyatlarini o'rganishga bag'ishlangan tadqiqotida ta'kidlanadiki ularning shakllanishi va rivojlanishi ularning kasbiy faoliyatida amalga oshadi ya'ni namoyon bo'lish darajasi va sifati o'qituvchilarning yoshi va ish stajiga uzviy bog'liqdir.

Yu.M.Asadovning dissertatsiyasida umumta'lim maktabi o'qituvchisining malaka oshirish tizimidan kasbiy-shaxsiy o'sish yo'nalishini belgilovchi psixologik xususiyatlari o'rganiladi. Bu bosqichda mahoratni mustahkamlash, kasbiy tiklanish

samaradorligi ko‘p jihatdan psixologik xususiyatlarga bog‘liq.

Yu.M.Asadov tomonidan olib borilgan tadqiqot ishida maktab ta’limini rivojlantirish davlat umummiliy Dasturi talablaridan kelib chiqqan holda kasb mahorati rivojlanishi omillari sifatida o‘qituvchining individual-psixologik xususiyatlarni o‘rganishning dolzarbliji ilgari surilgan. Unda o‘qituvchi kasb mahoratining yaxlit komponentlarini tasniflovchi “o‘qituvchining kasb mahorati”, “o‘qituvchining individual-psixologik xususiyatlari”, “o‘qituvchining psixologik tipi” kabi tushunchalarni belgilovchi o‘qituvchining individual-psixologik xususiyatlarni psixologik tiplarda integrallashuvi va ularning malaka oshirish tashkiliy shakllarini tanlash motivatsiyasiga ta’sirini izohlovchi individual-psixologik xususiyatlarning o‘qituvchi kasb mahoratini rivojlantirish omillari sifatida ahamiyatini oolib beruvchi ilmiy asoslangan ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertant B.N.Sirliyev “O‘rta maxsus kasb-hunar o‘quv yurtlari ustalari kasbiy kamolotining psixologik jihatlari” mavzusidagi tadqiqot ishi kasb-hunar o‘quv yurtlarining ustalari misolida kasbiy kamoloti va kasbiy o‘zini-o‘zi belgilanishning dolzarb muammolarini tadqiq qilishga bag‘ishlangan. Tadqiqot ishida ishlab chiqarish ustalarini kasbiy moslashish, adaptatsiya va kasbiy mahorat bosqichlarida tayyorlashni va ularning shaxsiy-kasbiy o‘sishlarini takomillashtirish muammosining psixologik jihatlari oolib beriladi.

R.Z.Gaynutdinovning doktorlik dissertatsiyasida o‘qituvchi pedagogik faoliyati komponentlari realizatsiyasi darajasi, shaxsiy xossalari, omillari tahlili asosida kasbiy faoliyatning samaradorligini belgilovchi quyidagi mezonlarini ajratish mumkin. Ular:

- shaxsiy-professional komponentlikning o‘z-o‘ziga nisbati;
- o‘zini o‘zi dolzarblastishga intilish;
- emotsional barqarorlik va kasbiy identifikatsiya;
- o‘z-o‘ziga hurmat va “Men”ning ichki muvofiqligi;
- dinamizm, yutuqlarga erishish ehtiyoji, ektrovertlik, atrofdagilarning o‘ziga nisbatan pozitiv munosabatini kutish;
- internallik (ichki nazorat darajasi).

Kasb tanlashga tayyorlikning psixologik jihatlari va kasbiy diagnostika muammolariga doir tadqiqot ishi K.B.Qodirov tomonidan olib borilgan. Bunda asosiy qoida kasbiy yo‘nalganlik umuman moyilliklarda, qiziqish va qadriyatlarda ifodalaniib, kasbiy rivojlanishning mazmuniy tomoni sanaladi. Kasb tanlash chog‘ida psixologik tayyorgarlik yoki yetuklik kasbiy o‘zini o‘zi anglashning muhim omili bo‘lib, kasbni to‘g‘ri tanlashga yordamlashadi va kuch, barqarorlik, keskinlikda namoyon bo‘ladi, bu onglik, mustaqillik bilan ta’minlanadi va kasbiy tanloving formal-dinamik jihatiga kiradi.

R.Z.Asomova “Kasb tanlash motivatsiyasi va uning dinamikasi” nomli ilmiy izlanishida kasb tanlash motivlari mexanizmlari, ularning birlamchi manbalari, harakatlantiruvchi kuchlari, dinamikasi va shaxsning individualligi masalalari atroficha oolib berilgan. Shuningdek, kasbiy motivlarning mutaxassisni kasbiy tayyorgarligi o‘rtasidagi bog‘liqlik, hamda kasbiy va o‘quv motivlari o‘rtasidagi o‘zaro aloqadorlik masalalari ham keng doirada tadqiq qilingan.

U.S.Jumayev tomonidan “O‘smirlarda kasb tanlashga munosabat tizimi

shakllanishining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari” mavzusidagi nomzodlik ishida kichik, real guruh a’zolari o’smirlarda kasb tanlashga munosabat va uning umumta’lim ta’lim oluvchilarda shakllanishi, namoyon bo‘lishi va dinamikasi ilk bor tadqiq qilindi. Shuningdek, faoliyatlar jarayonida kasb tanlashga munosabat tizimi ko‘rsatkichlari (o‘rtacha umumiy va qiyosiy-tipik) tahlil etildi va tegishli amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi, kasb tanlashga munosabat tizimining yosh xususiyatlari tavsiflab berildi.

R.B.Abduraxmonovaning “Pedagog va psixologlarda kasbiy yo‘nalganlikning kamol topishi” mavzusidagi dissertatsion ishida kasbiy pedagogik va psixologik yo‘nalganlik komponentlari aniqlangan va oliy o‘quv yurtida tayyorgarlik davrida uning shakllanish dinamikasi o‘rganilgan. Tadqiqot natijalari oliy o‘quv yurtida olingan bilimning talablari, shaxslilik motivlari, ustakovkalari va qadriyatlar tizimiga kirib borishidan yaqqol dalolat beradi.

Shunday qilib, yurtimiz psixologlarining kasbiy tiklanishining turli bosqichlarini o‘rganishga bag‘ishlangan tadqiqotlari tahlilida rivojlanishning shaxsiy omillari, shaxsning kasbiy faoliyati doirasida tiklanishining hal qiluvchi roliga asosiy e’tibor qaratiladi. Yuqoridagi fikrlardan ko‘rinadiki, respublikamiz psixologlari tomonidan kasbga yo‘naltirish, kasb tanlash masalalariga doir bir qator ilmiy izlanishlar olib borilgan.

Kasb psixologiyasining boshqa fanlar bilan aloqasi.

Kasbiy psixologiya yaxlit va mustaqil fan sifatida odamlarda gumanistik mentalitetning shakllanishiga xizmat qilib, inson omiliga aloqadorligi, uning shu yo‘nalishdagi muammolarni ma‘lum ma‘noda o‘rganadigan barcha fanlar bilan bevosita aloqasini taqozo etadi. Bular birinchi novbatda ijtimoiy-gumanitar fan sohalari bo‘lib, psixologiyaning ular orasidagi mavqeい o‘ziga xos va yetakchidir.

1. Falsafa va uning oxirgi paytlarda shakllanib, rivojlanib borayotgan ijtimoiy falsafa qismi bilan bo‘lgan aloqa bu ikkala fanning inson va uning hayoti mohiyatini to’la anglash va uning rivojlanish tendensiyalarini belgilashdagi o’rni va ahamiyatidan kelib chiqadi. Tabiat, jamiyat va inson tafakkurining rivojlanishiga oid bo‘lgan umumiy qonuniyatlar va prinsiplarni kasbiy psixologiya falsafaning bazasidan oladi va shu bilan birga o’zi ham inson ongi va tafakkuri qonuniyatları sohasidagi yutuqlari bilan falsafani boy ma‘lumotlarga ega bo‘lishiga yordam beradi. Shuni alohida ta‘kidlash joizki, mustaqillik mafkurasi va milliy ongning shakllanishiga taalluqli umumiy ilmiy qonuniyatlarini izlashda ham yurtimiz sharoitida bu ikkala fan-falsafa va kasbiy psixologiyaning hamkorligi bevosita sezilmoqda. Bu bog’liqlik, avvalo, yangicha tafakkur va dunyoqarashni shakllantirish muammozi ko`ndalang turgan tarixiy davrda milliy mafkura va milliy g’oyani shakllantirish kabi dolzarb vazifani bajarishga xizmat qilmoqda.

2. Sotsiologiya fani ham yangicha ijtimoiy munosabatlar sharoitida o’z taraqqiyotining muhim bosqichiga o’tgan ekan, kasbiy psixologiya ushbu fan erishgan yutuqlardan ham foydalanadi, ham ularning ko’lami kengayishiga baholi qudrat xizmat qiladi. Ayniqsa, psixologiyadan mustaqil ravishda ajralib chiqqan, bugungi taraqqiyot davrimizda alohida ahamiyat kasb etgan kasbiy psixologiyaning sotsiologiya bilan aloqasi uzviy bo‘lib, ular jamiyatda ijtimoiy taraqqiyot va progressni ta‘minlash ishiga xizmat qiladi. Qolaversa, xuquqiy, demokratik davlat qurish ishini sobitqadamlik bilan

amalga oshirayotgan O'zbekiston aholisining huquqiy madaniyatini va demokratik o'zgarishlarga psixologik jihatdan tayyorligini amalda ta'minlash, bu sohada muntazam tarzda ijtimoiy fikr va insonlar dunyoqarashlaridagi o'zgarishlarni o'z vaqtida o'rganish, bashorat qilish va taraqqiyot mezonlarini ishlab chiqishda ikkala fanlar metodologiyasi va metodlarini birlashtirish tadbiqiy ahamiyat kasb etadi.

3. Pedagogika bilan kasbiy psixologiyaning o'zaro hamkorligi va aloqasi an'anaviy va azaliy bo'lib, ularning yosh avlod tarbiyasini zamon talablari ruhida amalga oshirishdagi roli va nufuzi o'ziga xosdir. Respublikamizda amalga oshirilayotgan yangi «Ta'lim to'g'risidagi Qonun» hamda «Kadrlar tayyorlashning milliy Dasturi»ni amalga oshirish ham ikki fan hamkorligi va o'zaro aloqasini har qachongidan ham dolzarb qilib qo'ydi. Milliy dasturda e'tirof etilgan yangicha modeldag'i shaxsni kamol toptirish, uning chuqur bilimlar sohibi bo'lib yetishishi, barkamolligini kafolatlovchi shart-sharoitlar orasida yangi pedagogik texnologiyalarini ta'lim va tarbiya jarayonlariga tadbiq etishda pedagogikaning o'z uslub va qoidalari yetarli bo'lmaydi. Shuning uchun ham kasbiy psixologiya u bilan hamkorlikda yosh avlod ongingin ta'lim olish davrlaridagi rivojlanish tendensiyalaridan tortib, toki yangicha o'qitish texnologiyalarini bola tomonidan o'zlashtirilishi va undagi aqliy hamda intellektual qobiliyatlargacha nechog'lik ta'sir ko'rsatayotganligini o'rganish asosida ta'lim-tarbiya ishkini tashkil etish kasbiy psixologiyadagi metodlarni didaktik metodlar bilan uyg'unlashtirishni taqozo etadi. Ayniqsa, ma'naviy barkamollik tamoyillarini o'quv yurtida va yangi tipdag'i ta'lim muassasalarida joriy etish ham shaxs psixologiyasini teran bilgan holda o'qitishning eng ilg'or va zamonaviy shakllarini amaliyotga tadbiq etishni nazarda tutadi.

4. Tabiiy fanlar: biologiya, fiziologiya, ximiya, fizika va b.q. psixik xodisalar va jarayonlarning tabiiy fiziologik mexanizmlarini tushunish va shu orqali ularning kechishi qonuniyatlarini ob'ektiv o'rganish uchun material beradi. Ayniqsa, bosh miyaning hamda markaziy asab tizimining psixik faoliyatlarini boshqarishda va ularni muvofiqlashtirishdagi rolini e'tirof etgan holda kasbiy psixologiya fani tabiiy fanlar erishgan yutuqlar va ulardagi tadqiqot uslublaridan omilkorona foydalanadi. Masalan, shaxs qobiliyatlarini diagnostika qilish uning tug'ma layoqatlari hamda orttirilgan sifatlarini bir vaqtda bilishni taqozo etgani sababli, o'sha tabiiy layoqatning xususiyatlarini aniqlashda psixofiziologiyaning qator usullaridan (miya assimetriyasi qonunlari, miya bioritmlarini yozib olish, neyrodinamik xodisalarni aniqlash, qon aylanish va tana haroratini o'lchash metodlari) o'z o'rnida foydalanadi va biologiya, anatomiya, fiziologiya, neyrofiziologiya kabi fanlarning shu kungacha erishgan yutuqlaridan foydalanadi. Shuning uchun tabiiy fanlar sohasida erishilgan barcha yutuqlar psixologiyaning predmetini mukammalroq yoritishga o'z hissasini qo'shgan.

5. Kibernetika fani sohasidagi yorishilgan yutuqlar psixologiya uchun ham ahamiyatli va zarur bo'lib, u inson shaxsining o'z-o'zini boshqarish va psixik jarayonlarni takomillashtirish borasida axborotlar texnologiyasi va kibernetika tomonidan qo'lga kiritilgan yutuqlar va tadqiqot metodlari, maxsus dasturdan o'z o'rnida foydalanadi. Ayniqsa, ma'lumotlar asri bo'lgan XX va har bir alohida ma'lumotning qadr-qimmati oshishi kutilayotgan XXI asrda informatsion texnologiyalar va modellashtirish borasida kasbiy psixologiya hamda kibernetika

hamkorligining salohiyati yanada ortadi. Masalan, oddiy muloqot jarayonini yanada takomillashtirish, har bir so'zning shaxslararo munosabatlardagi ta'sirchanligini oshirish maqsadida hamda ana shunday ijtimoiy faoliyat jarayonida shaxs tizimini takomillashtirishda turli kibernetik modellaridan o'rinni foydalanish zamonaviy kasbiy psixologiyasining jamiyatdagi o'rni va rolini oshiradi, maxsus kompyuter dasturlarining keng qo'llanilishi inson miyasi va ruhiy olami sirlarini tez va aniq o'rganishni kafolatlaydi.

6. Texnika fanlari bilan kasbiy psixologiyaning o'zaro aloqasi va hamkorligi ayniqsa, asr oxiriga kelib yaqqol sezilmogda. Bir tomondan murakkab texnikani boshqaruvchi inson ongi muammosini yechishda, ikkinchi tomondan, psixik hayotning murakkab qirralarini ochishda maxsus texnik vositalardan foydalanish zarurati bu ikki yo'nalishning erishgan yutuqlarini birlashtirishni nazarda tutadi. Masalaning yana bir alohida tomoni ham borki, u ham bo'lsa, texnika progressiga intilayotgan bir vaqtida murakkab texnika va mashinalar bilan «muloqot» qilayotgan shaxs faoliyatini yanada mukammallashtirish va uning imkoniyatlariga moslash masalasi ham ana shu hamkorlikda hal qilinishi lozim bo'lган masaladir. Ayniqsa, mustaqil O'zbekiston uchun murakkab zamonaviy texnika sir-asrorlarini biladigan, uning jamiyat va fan ravnaqiga xizmatini ta'minlash qanchalik dolzarb bo'lsa, ana shu texnikaga har bir oddiy fuqaro ongi, tafakkuri va qobiliyatlarini moslashtirish va «odam-mashina» dialogining eng samarali yo'llarini izlab topishi juda muhim. Texnika bilan bemalol «tillashadigan» malakali mutaxassislar tayyorlash borasida ham texnika fanlari pedagogika va psixologiya fanlari metodlaridan foydalana olsagina, muvaffaqiyatga erishadi.

7. Iqtisodiyot bilan kasbiy psixologiyaning o'zaro aloqasi va hamkorligi ham yangilik bo'lib, ayniqsa, bozor munosabatlariga bosqichma-bosqich o'tish sharoitida iqtisodiy ong hamda iqtisodiy xulqning o'ziga xos namoyon bo'lish qonuniyatlarini o'rganishda ikkala fan teng xizmat qiladi. O'zbekiston Prezidenti SH.M. Mirziyoyev fuqarolarda, birinchi noavbatda, yoshlarda yangicha iqtisodiy tafakkur shakllanishining jamiyat iqtisodiy taraqqiyotidagi ahamiyatiga e'tiborni qaratmoqda. Demak, yangi davr shaxsini tarbiyalash va uning jamiyatga moslashuvi masalasida kasbiy psixologiya iqtisodiyot fanida qo'lga kiritgan yutuqlar, yangiliklar va iqtisodiy samaraga erishish omillarini hisobga olsa, iqtisodiyot o'z novbatida iqtisodiy islohotlarning ob'yekti hamda sub'yekti bo'lmish inson omilidagi barcha psixologik o'zgarishlarni aniqlash, taxlil qilish va shu asnoda bashorat qilish vazifasini yechishi kerak. Yuqorida ta'kidlangan fan tarmoqlari kasbiy psixologiya bilan bevosita uzviy aloqada rivojlanadigan fanlarning asosiy qismi xolos. Bugungi kunda har bir fan rivoji uchun inson omilini hisobga olish zarur ekan, kasb psixologiyasi o'sha barcha fanlar bilan aloqada va hamkorlikda rivojlanadi. Bu tibbiyot, qishloq ho'jaligi, kimyo va oziq-ovqat ishlab chiqarish sanoati, xuquq va madaniyatshunoslik kabi o'nlab fan sohalaridir. Yuqoridagi fikrlar va kasbiy psixologiya bilan bevosita aloqador bo'lган fanlarning xarakteriga bog'liq tarzda bugungi kunda psixologiyadan nisbatan aloxida bo'lib ajralib chiqqan tarmoqlar to'g'risida ham fikr yuritish mumkin.

Kasb psixologiyasining ijtimoiy hayotda tutgan o'rni

Ijtimoiy taraqqiyotni ro'yobga chiqarish uchun mamlakatda yuqori malakali

mutaxassislarni tayyorlash va ularni jaxon standartlari darajasiga ko‘tarmoq lozim, fan va texnikaning bugungi kundagi taraqqiyotiga javob berish uchun keng saviyali, bilimdon, o‘z kasbining fidoiy kishisini kamol toptirish orqali davlatimizga bozor iqtisodiyotiga bardosh beradigan, raqobatbardosh mahsulotlar yartuvchi kasb egalarini shakllantirish joiz. Toki ular davr talablariga og‘ishmay javob beradigan, qiziqishi keng, malakasi mustahkam, xotirasi barqaror, fikr yuritishi puxta, izlanuvchan, mehnatsevar, vatanparvar, iyomon – e’tiqodli insonlar bo‘lib voyaga etishsin.

Kasb tanlash faoliyatini oqilona tashkil etish uchun mamlakatimiz qaysi soha mutaxassislariga muxtojligini nazarda tutish va shunga yarasha mакtab o‘quvchilarini ularning mayli, intilishi, qiziqishi, imkoniyati, aqliy va jismoniy qobiliyatiga qarab hamda u yoki bu kasbga yaroqlilagini aniqlab, so‘ngra kasbga yo‘llash kerak.

O‘quvchilarni mustaqil mehnat faoliyatiga puxta tayyorlash vv ularning kasb – hunarini o‘z qobiliyatlariga yarasha to‘ri tanlashlariga erishish uchun mакtab o‘qituvchilarining pedagogik mahorati, bilim saviyasi, didaktik (shuningdek, akademik, tashkilotchilik, perseptik va h.k.) qobiliyatları yuksak bo‘lishi, fan asoslarini turmush bilan bog‘lab o‘rganilishi, to‘garak va qo‘srimcha yordamchi kurslar oqilona uyushtirilishi, maktablarda kasb – hunar to‘g‘risida ma’ruzalar o‘qilishi, suhabatlar, munozaralar o‘tkazilishi, sayoxatlar, uchrashuvlar, kasb – hunar fotoko‘rgazmalarini tashkil qilishlari zarur.

Nazorat savollari:

1. Kasblar psixologiyasining mustaqil fan sifatida shakllanishi bosqichlarini tushuntiring.
2. Kasblar psixologiyasi qachon mustaqil fan sifatida shakllandи?
3. XII- XVI asrlarda yashab ijod etgin mutafakkir allomalarining falsafiy-psixologik mulohazalarini izohlang.
4. O‘zbek psixologlari tomonidan kasb psixologiyasi borasida qanday tadqiqotlar olib borilgan?
5. Qaysi olim kasb-hunar to‘g‘risida ilk fikrlarini bildirgan ?
6. Kasbiy psixologiya fanining paydo bo‘lish sabablari va asoslari.
7. Kasb psixologiyasini taraqqiyot tarixi.Teylarning ishlab chiqarishda ilmiy boshqaruv kontseptsiyasi va bu kontseptsiyaning kasb psixologiyasidagi o‘rni.
8. Kasbiy psixologiyada psixotexnikani asoschisi bo‘lgan nemis psixologi G.Myunsterberg dasturi.
9. Rus psixologlari tomonidan kasb psixologiyasiga tegishli ilmiy – tadqiqot ishlari.
10. SHarq mutafakkirlari asarlarida kasb va kasbga yo‘naltirish masalalari. Buyuk ajdodlarimiz kasb – xunar ortirish va uning foydalari to‘g‘risida.
11. Muqaddas “Avesto”, Ibn Sino, Farobi, Beruniy asarlarida kasb va uni egallash to‘g‘risidagi fikrlar.
12. Kasb psixologiyasini hozirda O‘zbekistondagi rivoji. Kasb psixologiyasini M.G.Davletshin, E.G’ G’oziyev, A. Jalolov va boshqa psixologlar tomonidan rivojlantirilishi.

Mustaqil ish uchun mavzular:

1. Sharq allomalari asarlarida kasb-hunar va kasb tanlash muammosi.
2. E.A.Klimov tadqiqotlarida “kasb tanlash”, “kasbga yo‘naltirish” muammolarining ilmiy tadqiq etilishi.
3. Kasbiy psixologiya fanining tarixi.
4. Psixik hodisalar.
5. Buyuk mutafakkirlar ruhiy hodisalar haqida.
6. Fanlar tizimida psixologiyaning o‘rni.

Mavzu yuzasidan test savollari:

Bir javobli testlar

1. Kasb psixologiyasining metodologik asosi bu?

- a) shaxsning kasbiy shakllanish konsepsiysi b) kasbiy maslahat, kasbiy ma’lumot
v) kasbiy faoliyatning tahlili, kasbiy maqsadlar, vaziyatlar, qiyinchiliklarini o‘rganish
g) shaxsning individual xususiyatlari

2. Kasbiy shakllanish nima?

- a) shaxsning kasb tanlash jarayonida kasbiy ta’limga tayyorlanishi b) salohiyat va muhim kasbiy sifatlarning boyib borishi v) kasbiy jihatdan o‘zini topa olish uchun o‘z ustida ishlashi g) psixika va ongni faoliyatda rivojlanishi

3. Kasb psixologiyasi metodlari asosan nechta metodologik tamoyillarga asoslanadi?

- a) 2, b) 4, v) 3, g) 5

4. Kasb psixologiyasining predmeti?

- a) shaxsning kasbiy shakllanish mexanizmi, qonuniyatlari hamda psixologik xususiyatlarini o‘rganish b) psixologiya sohasida amalga oshirilgan ilmiy tadqiqotlar va nazariy manbalarni o‘rganish v) psixik faktlar, ularning qonuniyatlari va mexanizmlarini o‘rganish
g) fanlararo o‘zaro integratsiya jarayonlarini psixologiya tarmoqlariga ta’sirini o‘rganish

5. Kasb psixologiyasining ob’yekti?

- a) shaxsning kasb bilan hamkorligi yoki o‘zaro bog‘liqligi b) odamning psixik rivojlanishining umumiyligini qonuniyatlari v) shaxsning psixologik xususiyatlari
g) inson faoliyati va xulq-atvorida ob’yektiv reallikning aks etishi qonuniyatlaridan iborat

6. Ontogenezda shaxs tug‘ilganligidan to umrining oxirigacha shaxsda kechadigan psixik rivojlanish va shakllanish bosqichlarini o‘rganuvchi psixologiya tarmog‘i qaysi?

- a) yosh davrlar psixologiyasi b) muhandislik psixologiyasi
v) pedagogik psixologiya g) mehnat psixologiyasi

7. Shaxsni kasbiy shakllanishining psixologik qonuniyatlarini o‘rganuvchi tarmoq?

- a) kasb psixologiyasi b) yosh davrlar psixologiyasi
v) pedagogik psixologiya g) mehnat psixologiyasi

8. Tadqiqiy metodlar deganda nima tushuniladi?

- a) psixikaning xususiyatlari, qonuniyatları va mexanizmlari haqidagi yangi ob'ektiv bilimlar olishga yo'naltirilgan usullari b) yangi bilimlarga qaratilgan uslublar
- v) ma'lumotlarni tadqiqotda qatnashuvchilarning turli guruhlariga nisbatan taqqoslash
- g) kasbiy shakllanishda individual yo'lni o'rghanishga yordam beradi

9. Longityud metodiga xos javobni belgilang.

- a) kasbiy shakllanishda individual yo'lni o'rghanishga yordam beradi
- b) yangi bilimlarga qaratilgan uslub v) savol-javob usullari, testlar tajribalar keng qo'llaniladi. g) metod orqali sinovdan o'tayotgalarning ko'p miqdorini qisqa vaqt ichida qamrab olish mumkin

10. Genetik usullarning tadqiqot metodlarini ko'rsating.

- a) longityud metod, biografik metod b) hujjatlarni o'rghanish, mehnat metodlari
- v) maxsus qobiliyatlar testi, muvaffaqiyatlarni o'rghanish testi g) tabiiy, laboratoriya, shakllantiruvchi usullar

11. Praksimmetrik usullarning tadqiqot metodlarini ko'rsating.

- a) longityud metod, biografik metod b) hujjatlarni o'rghanish, mehnat metodlari
- v) maxsus qobiliyatlar testi, muvaffaqiyatlarni o'rghanish testi g) tabiiy, laboratoriya, shakllantiruvchi usullar

12. Praksimmetrik usullarning tadqiqot metodlarini ko'rsating.

- a) topshiriqlarni tahlil qilish, hujjatlarni o'rghanish b) longityud metod, biografik metod
- v) kavzometriya, psixobiografiya g) despersion, korrelyasion, faktorli (omilli) tahlil

13. Kasbiy psixologiyaning mustaqil fan sifatida shakllanishi necha bosqichda kechdi?

- a) 3 b) 4 v) 2 g) 5

14. Qaysi alloma har bir bolani biror hunarga o'rgatmoq shart, deydi?

- a) Ibn Sino b) Abu Nasr Farobi v) Yusuf Xos Hojib g) Ogahiy

15. Qaysi olim kasb-hunar to'g'risida ilk fikrlarini bildirgan ?

- a) Abu Nasr Farobi b) Ibn Sino v) Ogahiy g) Yusuf Xos Hojib

16. Abdulla Avloniiga tegishli variantni belgilang.

- a) "Turkiy Guliston yohud axloq" asari muallifi, b) har bir bolani biror hunarga o'rgatmoq shart, deydi v) «Qutadg'u bilig» asari muallifi, g) kasb-hunar to'g'risida ilk fikrlarini bildirgan

Ko'p javobli testlar

17. Kasb psixologiyasi metodlari asosan qaysi metodologik tamoyillarga asoslanadi? (2ta to'g'ri javobni belgilang)

- a) sub'yektiv tamoyil b) ob'yektiv tamoyil v) metodologik tamoyil g) psixologik tamoyil

18. Psixobiografiya metodi bu- (3ta to'g'ri javobni belgilang)

- a) shaxslarning hayot yo'lini psixologik o'rghanish metodi hisoblanadi
- b) kishilarning individual kasbiy biografiyalarini o'rghanish maqsadida qo'llanilgan
- v) kasbiy shakllanishdagi inqirozlar haqida qimmatli ma'lumotlarni olish imkonini beradi g) shaxsiy-oilaviy muammo va inqirozlarni echish uchun qo'llaniladi

19. Psixometrik usulga xos bo'Imagan javoblarni belgilang (3-ta to'g'ri javobni belgilang)

- a) inson xotirasi, tafakkuri, qobiliyati va xayolining xususiyatlarini aniqlash maqsadida keng qo'llaniladi
- b) unda odamlarning psixologik xususiyatlari narsa va hodisalarga nisbatan munosabatlari o'rganiladi
- v) AQSHlik Djon Moreno asos slogan
- g) psixometrik usullar tarkibiga psixologik test ham kiradi

20. Kuzatishning predmeti (3-ta to'g'ri javobni belgilang)

- a) insonning xilma-xil holati
- b) onglilik, ongsizlik
- v) faoliyat va muomala

- g) psixologik testlar

21. Faoliyat natijalarini tahlil qilish metodi turlari (2-ta to'g'ri javobni belgilang)

- a) kattalar faoliyatini tahlil qilish
- b) bolalar faoliyatini tahlil qilish
- v) suhbat

- g) kuzatuv

22. O'quvchilarini psixologik o'rganish metodikasini kimlar ishlab chiqqan? (2-ta to'g'ri javobni belgilang)

- a) V.A.Tokareva
- b) S.Sh.Aytmetova
- v) Abdulla Avloniy
- g) B.R.Qodirov

23. Sotsiometriya metodiga xos javobni belgilang (2-ta to'g'ri javobni belgilang)

- a) AQSHlik Djon Moreno asos slogan
- b) kichik (birlamchi) guruh a'zolari o'rtasida emotsiyonal, hissiy munosabatlarni bevosita o'rganish va darajasini o'lchashda qo'llaniladi
- v) shaxslarning hayot yo'lini psixologik o'rganish metodi hisoblanadi
- g) inson xotirasi, tafakkuri, qobiliyati va xayolining xususiyatlarini aniqlash maqsadida keng qo'llaniladi

24. Matematik ishlov berish usullarini belgilang. (2-ta to'g'ri javobni belgilang)

- a) korrelyasion tahlil
- b) dispersion tahlil
- v) shakllantiruvchi eksperiment

- g) modellashtiruvchi eksperiment

25. Kuzatishning bosqichma – bosqichliligi, tadrijiyligi (ierarxiyası) tarkiblarini belgilang (3-ta to'g'ri javobni belgilang)

- a) kuzatishning maqsadi,
- b) kuzatishning vazifalari
- v) kuzatishning dasturi

- g) kuzatishning validligi

Ketma-ketlik testlar

26. Kasbiy psixologiyaning mustaqil fan sifatida shakllanish bosqichlarini ketma-ket ko'rsating:

1. XX-asrning 70-yillari 2. XX-asr 3. XVII-asr 4. XIX asr

- a) 4,2,1
- b) 1,2,4,3
- v) 3,4,2,1
- g) 1,2,4

27. Test o'tkazish bosqichini ketma-ket ko'rsating:

1. olingan ma'lumotlarni qayta ishlash va natijalarini o'rganish

2. test o'tkazishda etika normalariga rioya qilgan holda ko'rsatmaga muvofiq tashkil etish 3. test, savolnomasini tanlash (tadqiqot masalasi bilan belgilanadi)

- a) 3,2,1
- b) 1,2,3
- v) 3,1,2
- g) 2,3,1

28. Kasblar psixologiyasining shakllanish bosqichlarini bosqichini ketma-ket ko'rsating:

1. psixotexnika yo'nalishini paydo bo'lishi
2. mehnat psixologiyasining rivojlanishi
3. mustaqil fan sifatida kasb psixologiyasi yuzaga keldi.

- a) 1,2,3
- b) 3,1,2
- v) 2,3,1
- g) 3,2,1

Moslik testlar

29. Moslikni aniqlang:

1-Muhandislik psixologiyasi, 2-Yosh davrlar psixologiyasi, 3-Pedagogik psixologiya,

a) inson va texnik tuzilmalar o‘rtasidagi informatsion aloqa vositalari va jarayonlarini o‘rganadi b) ontogenezda shaxs tug‘ilganligidan to umrining oxirigacha shaxsda kechadigan psixik rivojlanish va shakllanish bosqichlarini o‘rganadi s)shaxsga ta’lim-tarbiya berishning qonuniyatları va muammolarini o‘rganadi.

a) 1- a; 2- b; 3 – s b) 1- a; 2- s; 3 – b v) 1- s; 2- a; 3 – b g) 1- b; 2- a; 3 – s

30. Moslikni toping

a) kuzatishning ob’ekti b) kuzatishning predmeti

1) insonning xilma-xil holati 2) shaxsning faoliyati ijodiyoti 3) shaxslararo munosabatlar 4) ongosti holatlarining kechishi

a) a - 1,4; b - 2,3 b) a-1, 2; b-3, 4 v) a-3, 2; b-1,4 g) a-1,3; b-2,4

31. Moslikni aniqlang:

1- Ahmad Donish, 2- Ibn Sino, 3- Kaykovus a) fikrlarida insonning mijoziga e’tibor bergan b) XIX asrda o‘qituvchilik kasbi haqida bir qancha fikr mulohazalarni bildirgan s) “Qobusnoma” asarida kasb-hunar haqida bir qator fikr mulohazalar keltiriladi

a) 1- b, 2- a, 3 – s b) 1- a, 2- s, 3 – b v) 1- s, 2- b, 3 – a g) 1- b, 2- s, 3 – a

GLOSSARY:

Amaliy faoliyat – insoniyatning ijtimoiy ishlab chiqarish jarayonida tabiatni va ijtimoiymunosabatlarni o‘zgartirishga qaratilgan maqsadga muvofiq faoliyati.

Industrial psixologiyasi – mehnat psixologiyasining psixologik omillarining sanoatdagi rolini o‘rganuvchi, psixologiyaning qonuniyatlariga asoslanib, mehnat unumdarligini oshirish masalalari bilan shug‘ullanuvchi maxsus sohasi.

Kasb – shaxsning jamiyat a’zosi sifatida yashash manbai bo‘lib xizmat qiladigan doimiy mashg‘ulot yoki faoliyat turi.

Kasb tanlashga yo‘llash – pedagoglar, psixologlar, vrachlar va boshqa mutaxassislarning yoshlarni ongli ravishda kasb tanlashga tayyorlashdagi maslahati, tushuntirishlari kabi tadbirlar tizimi.

Kasbga tayyorgarlik – muayyan kasb bo‘yicha muvaffaqiyatli ishslash imkoniyatini ta’minlovchi maxsus bilim, ko‘nikma, malaka, odat, sifat, xususiyatlar, mehnat tajribasi va xulq normalariga ega bo‘lishlik.

Kasbiy psixologiya – mehnat psixologiyasining kasblarning psixologik komponentlarini yoki muayyan kasbda ishlovchilarga nisbatan qo‘yiladigan psixologik talablarni o‘rganish hamda ilmiy tahlil qilish bilan shug‘ullanuvchi bilim sohasi.

Mehnat psixologiyasi – psixologiyaning mehnat faoliyatini psixologik muammolarini o‘rganuvchi sohasi.

Muhandislik psixologiyasi – psixologiyaning texnika moslamalari bilan uni boshqaruvchi kishilar o‘rtasidagi o‘zaro bog‘lanish hamda o‘zaro ta’sirini tekshirish bilan shug‘ullanuvchi maxsus sohasi.

Keyslar banki

Keys. Matematika o‘qituvchisi mavzuni tushuntirmoqda. Komil ta’sirchan bola.

Bundan oldingi eng yoqtirgan tarix darsida «uch» baho olgan edi. U o‘zining omadsizligidan siqilib, qog‘oz buklab o‘tirgan edi.

O‘qituvchi: Komil nima qilayapsan? Nimaga darsni eshitmayapsan? Sen o‘zingni yomon tutayapsan.

Komil: Nima qilibdi? To‘ng‘illadi Komil.

O‘qituvchi: Sen o‘qituvchi bilan qanday gaplashyapsan? O‘rningdan tur!

Komil: Nega men o‘rnimdan turar ekanman? Men xech narsa qilganim yo‘q.

O‘qituvchi: Xali shunaqami? Sinfdan chiqib ket!

Komil: CHiqmayman!

O‘qituvchi: Yo‘q, chiqasan, o‘qituvchi bolani qo‘lidan ushlab hamma bolalar oldida sinfdan chiqarib yubordi.

Keysni bajarish bosqchilarini va topshiriqlari:

1. Bolani xulqida nimaga o‘zgarish ro‘y berdi?
2. O‘qituvchining Komilga nisbatan pedagogik xarakatlarini izohlang.
3. O‘qituvchining pedagogik xatosi nimada edi?

2-mavzu: Kasbiy psixologiyaning tadqiqot metodlari.

Reja:

1. Kasbiy psixologiyaning tadqiqot metodlari klassifikatsiyasi, metodlarni qo’llash sohasi.
2. Kasbiy psixologiyaning tadqiqot metodlaridan foydalanishni shakllantirish.
3. Genetik metodlar, praksimetrik metodlar, psixosomatik metodlar, eksperimental metodlar haqida tushuncha.
4. Professiografik tadqiqotlarni o’tkazish.

Kasbiy psixologiya fanida quyidagi tadqiqot metodlarining tasnifidan foydalaniladi.

Psixologiya fanida tadqiqot metodlari amal qilinadigan asosiy nazariy prinsiplarga va psixologiya hal qiladigan konkret vazifalarga bog‘liqdir.

O‘rganilayotgan predmet va hodisalar o‘zaro aloqador, bir-birini taqozo etadi, doimo o‘zgarishda, rivojlanishda, qarama-qarshi ziddiyatli jarayonlar mavjud deb qarashni tushunish zarurligidan kelib chiqadi.

Hozirgi zamon psixologiyasida fanning qanchalik qadimiyligiga qaramay qator hal qilinishi zarur muammolar, turli oqimlar va olimlar tomonidan ilgari surilayotgan taxmin va farazlar-gipotezalar mavjuddir. Ba’zan bir-birini to‘ldiradigan,yoki birini ikkinchisi inkor etadigan konsepsiylar va nazariyalar ham bor. Bu singari turli muammo va qarashlarni to‘g‘ri anglab etish hozirgi zamon psixologiyasining asosiy prinsiplarini- determinizm, ong va faoliyat birligi, psixika va ongning faoliyatda rivojlanishi prinsiplariga suyangan holda ilmiy tadqiqotlar olib borilishiga bog‘liq hal qilinadi.

Psixologiyada inson psixikasini tadqiq qilish metodlarining turli tasnifi mavjud. Harqanday psixologik tadqiqot o‘z-o‘zini tekshirish, boshqalardagi o‘zgarish va rivojlanishni tekshirishdan iborat bo‘ladi, shuning uchun ham bularni sub’ektiv va ob’ektiv tadqiqot metodlari deb aytish mumkin. Ammo, aylanib kelib, hammasi ham

psixik jarayon, uning paydo bo‘lishi va rivojlanishini tadqiq qilishga xizmat qiladi, buni genetik metod desak bo‘ladi.

Haqiqiy ilmiy psixologiya psixikani o‘rganishning ob’yektiv metodlaridan foydalanish asosiga qurilishi kerak. Hozirgi zamon psixologiyasining ilmiy tadqiqotga nisbatan muhim talabi psixik faktlarini genetik (tarixiy) jihatdan o‘rganish prinsipiga amal qilishni taqozo etadi. Genetik prinsipning mohiyati shundan iboratki, o‘rganilayotgan psixik hodisaga jarayon deb qaraladi va tadqiqotchi uning dialektik rivojlanishining barcha holatlarini tiklashga, ular bir-birlarini qay yo‘sinda olmoshtira olishlarini ko‘rish va tushunib etishga harakat qiladi, o‘rganilayotgan psixik faktini uning konkret tarixi jihatidan tasavvur etishga urinadi.

Psixologiyada genetik prinsipdan foydalanish zarurligini P. P. Blonskiy (1884-1941), L. S. Vigotskiy (1896-1934), S.L.Rubinshteyn (1889-1960), A.N. Leontev (1903-1979) lar o‘z asarlarida ta’kidlaganlar.

Tadqiqotlarni amalga oshirishning genetik prinsipi keyingi yillarda, ayniqsa bolalar psixologiyasida bola shaxsini bo‘ylama kesimi (prodolno‘y razrez) bo‘yicha o‘rganish metodi deb atalgan usuli keng qo‘llanilmoqda. Bu longityud metodi deb ham aytildi. Longityud (inglizcha Longitude-dolgota) bir holatni uzoq vaqt va muntazam o‘rganish metodidir.

Psixologiyaning asosiy metodlari. B. G. Ananev psixikani o‘rganish metodlarini to‘rt guruhga ajratib, ularni tashkiliy, empirik (amaliy), natijalarni qayta ishslash yoki statistik, natijalarni sharxlash yoki interpretatsiya metodlari guruhlariga ajratadi.

- Birinchi. Tashkiliy guruh o‘z ichiga qiyoslash, longityud (uzluksiz), kompleks (ko‘p qirrali) deb atalgan turlarini oladi. Qiyoslash turi umumiyligi psixologiyada, sotsial psixologiyada, meditsina, sport, yuridik psixologiyada keng ko‘llaniladi. Longityud metodi bilan bir holatni uzoq vaqt kuzatish, birdaniga bir necha sinaluvchini tekshirish, qiyoslash maqsadida qo‘llaniladi. Nemis olimi V. SHtern, fransuz olimi R. Zazzo, rus olimlari N. A. Menchinskaya, A. N. Gvozdev, N. S. Leytis, V. S. Muxina va boshqalar bu usuldan keng foydalandilar. Bu usulda kuzatish "Ona kundaligi" singari nomda ham atalishi mumkin.

- Psixologik tadqiqotlar ilmiyligini oshirishda bir necha fanlar hamkorligiga suyanib kompleks metod qo‘llaniladi. (Psixologiya, fiziologiya, genetika, falsafa, sotsiologiya, kibernetika, logika va boshqa fanlar hamkorligi). Hozir muxandislik psixologiyasi, psixo-fiziologiya, kosmik psixologiya, tibbiyot psixologiyasidagi ko‘pgina kashfiyotlar shu usul bilan ochilmokda.

- Ikkinci guruh - empirik metodlarga kuzatish (o‘z-o‘zini kuzatish), eksperiment (tabiiy va laboratoriya eksperimenti), test, anketa, so‘rovlar, sotsiometriya, suhbat, intervyu, faoliyat jarayoni va uning mahsulini tadqiq qilish, tarjimai hol (shaxsiy guvohnomalarni, qujjat, turmush faoliyati voqealarini taqlil qilish) kabilalar kiradi va ular sinash, tekshirish, diagnostika va prognozlash vazifalarini bajaradi.

- Uchinchi guruh metodlar - natijalarni qayta ishslashga mo‘ljallangan bo‘lib, ular statistik (miqdoriy) va psixologik (sifat) tahlili turlariga bo‘linadi. To‘plangan ma’lumotlarni qayta ishlab chiqishda quyidagi formulalardan foydalanish mumkin:

$$M = \frac{\sum}{n};$$
 o‘rta arifmetik qiymatni topish uchun qo‘llaniladi;

M - yig‘indi, V-variatsion miqdor, h- sinaluvchilar soni.

2) $0^1 q \sqrt{\frac{C}{h^2}}$; son qatoridagi o‘rtalik kvadrat og‘ishini hisoblashda yoki standart og‘ishni hisoblashda ishlataladi. 0^1 - kvadratlik og‘ish, S - dispersiya, h - miqdor.

3) $S = \sqrt{\sum (V-M)^2}$ -sonlar qatoridagi miqdorlar tarqoqligini aniqlash formulasi. V ba’zan «S» dispersiya deb ham ataladi.

Tadqiqot metodlarining to‘rtinchi guruhi - genetik va donalash metodlaridan iboratdir.

Genetik metodga asoslanib psixik o‘zgarishlar bilan rivojlanish bosqichlarining bevosita bog‘liqligining ildizini aniqlanadi. Uzilishlarga yo‘l qo‘ymaslik uchun yig‘ilgan materiallar maxsus bosqichlarga ajratib sharxlanadi.

Tadqiqotning birinchi tayyorlov bosqichida kashf qilinadigan psixologik qonun to‘g‘risidagi taxmin va farazlar tahlil qilinadi.

Tadqiqotning ikkinchi bosqichida tajriba o‘tkazish prinsipi, sharoiti, ob‘yektiv va sub‘yektiv omillar bo‘yicha mulohaza yuritiladi.

Tadqiqotning uchinchi bosqichida esa olingan natijalarini qayta ishlanadi va bu ham o‘z navbatida to‘rt bosqichga bo‘linadi:

- a) materialni birlamchi tahlil qilish (sharxlash);
- b) tahlil qilingan material bilan tadqiqot gipotezasi alohida sharxlanadi;
- v) ikkilamchi tahlil (barqaror, ustuvor dalillar ajratiladi);
- g) ikkilamchi sintez - (psixik qonuniyat, topilgan dalil, omil va tadqiqot gipotezasini birlashtirib maxsus xulosalar chiqarish).

Tadqiqot natijalarini sharxlashning to‘rtinchi bosqichi - sharxlashda har bir fakt, alomat, ko‘rsatkich, xossa psixik jihatdan so‘z-mantiq orqali tahlil qilinadi. Ana shu boskichda tadqiqot yakunlanadi, zarur xulosalar chiqariladi, amaliy tavsiyalar beriladi.

Psixologiyada eng ko‘p qo‘llaniladigan tadqiqot metodlari empirik metodlar guruhidir. Empirik (amaliy) metodlar guruhiga kuzatish, suhbat, test, eksperiment (tajriba), biografiya, sotsiometriya usullari kiradi.

Tadqiqiy metodlar (usullar) – bu psixikaning xususiyatlari, qonuniyatlarini va mexanizmlari haqidagi yangi ob‘yektiv bilimlar olishga yo‘naltirilgan maxsus tarzda tashkil topgan faoliyat usullaridir.

Sub‘yektiv yangi bilimlar (dalillar, baholar, ko‘rsatkichlar, belgilar, psixologik yordam, maslahat, korreksiya uchun muhim) omillarga qaratilgan psixologiya usullarini umumiy, pragmatik usulublar deb ataladi.

Kasbiy psixologiya metodlari asosan ikkita metodologik tamoyillarga asoslanadi:
Sub‘yektiv tamoyil – o‘zini o‘zgartirishga qaratilgan kasbiy shakllanishga erishishni ta’minlovchi tamoyil.

Ob‘yektiv tamoyil – psixik hodisalarni tashqi tomonlama anglashning turli tadqiqiy vositalari orqali kasbiy shakllanish belgilarini o‘rganishni nazarda tutuvchi tamoyil.

Tadqiqiy metodlarning 2 ta turi mavjud;

1. Longityud

2. Kesimli

Longityud metodi – ma’lum kishilar guruhi yoki aniq kishilarning bir xil belgilariga

ko‘ra psixik xususiyatlarini davomli va muntazam o‘rganishni nazarda tutadi. **Kesimli metod** – ma’lumotlarni tadqiqotda qatnashuvchilarning turli guruhlariga nisbatan taqqoslash xosdir. Bu metod orqali sinovdan o‘tayotgalarning ko‘p miqdorini qisqa vaqt ichida qamrab olishi mumkin. Kesimli tadqiqotlarni o‘tkazishda savol-javob usullari, testlar tajribalar keng qo‘llaniladi.

Longityud metodi – kasbiy shakllanishda individual yo‘lni o‘rganishga yordam beradi. Mazkur metod yordamida shaxsning obro‘ orttirishi uning faoliyatidagi turli xildagi tanqidiy holatlarini aniqlaydi.

Psixologiyada qo‘llaniladigan tadqiqot usullari kelib chiqishiga ko‘ra umumpsixologik ko‘rinishga ega, lekin spetsifik xususiyatiga ega emas. Kasbiy psixologiya yosh psixologiyasiga yondosh ekanligini hisobga olsak, bu o‘z navbatida shakllanib bo‘lgan metodlarni o‘zlashtirishga olib keladi. Barcha tadqiqotlarda keng doirada metodlarni qo‘llash o‘ziga xos tadqiqiy metodlarni yaratilishiga olib keladi. Kasbiy psixologiya tadqiqot metodlarining tizimlanishi, ularning qo‘llanishi sohasini aniqlash shuningdek, sifat, xususiyatini ko‘rib chiqish zaruriyatini keltirib chiqaradi.

Psixologiya fanida yagona umuman olganda, tadqiqotlar metodlarining to‘liq tasnifi mavjud emas. Ko‘pincha, alohida metodlar yoki psixologiyada ma’lum muammoni hal etishga tavsiya etiladigan metodlar ro‘yxati beriladi.

Psixologiyaning metodlar tizimini tahlil etgan olimlar quyidagi metodlar guruhibi taklif etadi.

1. Tadqiqotni tashkillashtirish va rejalashtirish metodlari, ya’ni tashkiliy metodlar.
2. Dalillar to‘plash, ilmiy ma’lumotlar olishga qaratilgan empirik metodlar(usullar).
3. Ma’lumotlarni qayta ishslash usullari
4. Interpretatsion metodlar(usullar).

Boshqa bir qator psixolog-olimlar psixologiyasining quyidagi usullarini ajratishadi:

1. Sub’yektiv metodlar (o‘zini o‘zi kuzatish);
2. Ob’yektiv metodlar (kuzatishning xar xil turlari; eksperimental, testlar, savol-javob, so‘rovnomalar).

Afsuski, bu metodlar muallifi psixologiya metodlarining tasniflanishini (klassifikatsiya) taqdim etmay, faqatgina psixologiya fanidagi mavjud metodlarini sanab o‘tish bilan chegaralanadilar. Bu esa o‘z navbatida aniq ilmiy tasniflanishning mavjud emasligi, psixologiyada metodlarning ko‘pligi hamda bir tizimga solinmaganligi bilan izohlanadi.

Yosh va pedagogik psixologiyaning metodlarini tahlil etib, tadqiqiy metodlarni tasniflashning asosi sifatida muhim jihatlarini ajratib olish kerak. Bu masalalar 4 xil shaklga ega: tasvirlash, o‘lchash, tushuntirish va psixik hodisani shakllantirishdan iborat. Shunga muvofiq metodlarning 4 ta guruhi taklif etiladi: noeksperimental (klinik), diagnostik, eksperimental va shakllantiruvchi.

Shunday qilib kasbiy psixologiya oldida quyidagi tadqiqiy masalalar turibdi:

1-guruhi – shaxsning kasbiy shakllanishi bu murakkab, ba’zida esa dramatik jarayonning psixologik xususiyatlarini tasvirlashdan iborat. Bu jarayonni tadqiq etish uchun longityud, savol-javob, psixobiografiya, tanqidiy voqealar metodlarini qo‘llash to‘g‘ri bo‘ladi. Bu metodlar guruhibi genetik metodlarga kiritishi mumkin.

2-guruhi – kasblarning psixologik tavsifi, kasbning psixologik mazmunini tadqiq etish,

faoliyat mahsuldorligini o'rganish, mehnat metodi, hujjatlarni o'rganish, kuzatilayotganlarni savol-javob orqali o'rganish metodi, shuningdek, professiografiya yo'li bilan amalga oshirilishi mumkin. Bu uslublar guruhi praksimmetrik uslublarga tegishlidir.

3-guruhi – muhim kasbiy ko'rsatkich faoliyat va shaxs belgilarini o'lchash. Bu tadqiqiy masalani hal qilish uchun maxsus qobiliyat testlari, muvaffaqiyat va ta'lim testlari qo'llaniladi. Bu psixometrik usullar guruhidir.

4-guruhi – kasbiy shakllanishning xususiyatlarini, qonuniyat va mexanizmlarini tushuntirishdan iborat. Bu vazifani bajarish usullari eksperimental usullardir: ya'ni labaratoriya, modellashtiruvchi va tabiiy eksperimentlardir.

5-guruh – usullari tadqiqiy ma'lumotlarga miqdoriy ishlov berishga yo'naltirilgan. Ularga matematik ishlov berish usullari kiradi: ya'ni korrelyatsion, omilli tahlil va boshqalar.

Kasbiy psixologiyaning tadqiqot metodlari umumiylar tarzda quyidagi jadvalda aks ettirilgan

Tadqiqot vazifasi	Tadqiqot metodlari guruhi	Aniq tadqiqot metodlari
Shaxs kasbiy shakllanishining tasviri	Genetik metodlar	Longityud metod, biografik metod, kauzometriya, psixobiografiya, tahlil qilish metodi
Kasblar tavsifi	Praksimmetrik metodlar	Topshiriqlarni tahlil qilish, hujjatlarni o'rganish, mehnat metodlari, kuzatuv so'rovi metodi
Muhim kasbiy belgilarni o'lchash	Psixometrik metodlar	Maxsus qobiliyatlar testi, muvaffaqiyatlarni o'rganish testi, qiziqishlar bo'yicha savol-javoblar, ta'lim diagnostikasi
Shaxsning kasbiy shakllanishini tushuntirish	Eksperimental metodlar	Tabiiy, laboratoriya, shakllantiruvchi metodlar
Tadqiqot usullariga ishlov berish	Matematik ishlov berish metodlari	Despersjon, korrelyatsion, omilli (omilli) tahlil

Rossiyalik psixolog E. F. Zeer kasbiy psixologiyaning izlanish metodlari sifatida beshta guruh usullarini ko'rsatadi. Birinchi – shaxsni kasbni egallash bilan bog'liq psixologik xususiyatlarni ta'riflab berish. Buning uchun longityut, so'rov usullari (anketa, intervyyu), psixobiografiya ma'qul deb hisoblanadi. Zeer E. F. bularni **genetik** usulga tegishli deb belgilaydi.

Ikkinchı – kasbni psixologik xarakteristikasi. Kasbni psixologik mazmunini o’rganish, faoliyat mahsulotlarini o’rganish, mehnat usullarini o’rganish, xujjatlarni taxlil qilish so’rovli kuzatish, professografiya kabilar orqali bilish mumkin. Bu guruh usullari **proksemitrik** usullar deyladi.

Kasb psixologiyasining o’rganish usullari

Izlanishning vazifasi	Izlanishga xos usullar guruhi	Izlanishning aniq usullari
SHaxsnini kasbni egallashini ko’rsatish	Genetik usullar	Longityud usullar, biografik usul, kauzametriya, psixobiografiya, anamenez usul.
Kasbni xarakteristikasi	Praksimetrik usullar	Vazifalarni taxlil qilish, xujjatlarni o’rganish, mehnat usullari, kuzatuv so’rov.
Kasbiy ahamiyatga ega bo’lgan belgilarni o’lchash	Psixometrik usullar	Maxsus qobiliyatlar testi, yutuqlar testi, qiziqishlarni o’rganish so’rovnomasasi, ta’lim diagnostikasi
SHaxsnini kasbni egallashini tushuntirib berish	Eksperimental usullar	Tabiiy, labaratoriya, modellashtiruvchi, shakllantirish eksperimenti
Izlanish usullarini ishlab chiqish	Matematik ishlab chiqarish usullari	Dipressiv, korrektzion, omilli taxlil

Uchinchi – kasbiy ahamiyatga ega bo’lgan ko’rsatkichlarni, shaxsning va faoliyatning belgilarini o’lchash. Bu izlanish vazifalarini yechishda maxsus qobiliyatlar testi, ta’lim, o’rgatish va yutuqlarga asoslangan testlaridan foydalaniladi. Bundan tashqari kasbiy qiziqishga, qadriyatlarga asoslaish va kasbiy ustanovkalarga tegishli so’rovnomalardan foydalaniladi. Bu uslubni **psixometrik** deb ataladi.

To’rtinchi- bu kasbni egallashdagi mexanizmlar, qonuniyatlar va xususiyatlarni tushuntirib beradi. Bu vazifalarni eksperimentlar asosida yechiladi, ya’ni laboratoriya, modellashtirish va tabiiy eksperimentlar asosida.

Beshinchi – bu usul izlanishni sonlarda o’tkazilishiga asoslanadi. Ularga matematik ishlovlari tegishli bo’lib, ular dispersion, korrelyatsion, omilliy taxlil va boshqalar hisoblanadi.

Genetik metodlar guruhi. Genetik metodlar uzoq vaqt davomida shaxs kasbiy rivojlanishining o’zgarishlarini tadqiq etish uchun mo’ljallangan. Kasb psixologiyada longityud metod, psixobiografiya, individning kasbiy shaklanishini monografik tasvirlash usullaridan keng foydalaniladi.

Longityud metod – bir xil yoshdagи sinaluvchilarning ularni rivojlanishi jarayonini ko’p marotabali tizimli ravishda o’rganishdan iborat. Longityud metodi insonlardagi turli xususiyat va sifatlarni o’rganish maqsadida yillar davomida o’tkaziladi. Longityud metodi psixologiyada XX asrning 20-yillarda shakllana boshladi va asosan psixik genezisi va bolalar, yoshlari psixik bashoratini ilmiy jihatdan asoslab berish uchun qo’llanilgan. Keyingi yillarda (20-30 yil davomida o’tkazilgan) davomli

longityud tadqiqotlari jarayonida deyarli qo'llanilmagan.

Longityud metod bir vaqtning o'zida boshqa metodlarni qo'llanilishini ham nazarda tutadi. Jumladan, kuzatish, savol-javoblar, test, psixografiya, praksimmetriya va hokazo. Longityud metodi yordamida olingan natijalar shaxsning yoshiga, ish stajiga, tadqiqot o'tkazilgandagi ijtimoiy iqtisodiy sharoitlariga hamda kasbiy faoliyat turiga bog'liq bo'ladi. Longityud metodini kasbiy psixologiyada qo'llash orqali shaxs kasbiy shakllanishining individual o'zgarishlarini o'rganish imkonini beradi shuningdek, kasbiy faoliyatda rivojlanish, obro'-e'tibor qozonishning yo'l-yo'riq va vositalarini aniqlash imkonini beradi.

Longityudni qo'llashdagi qiyinchiliklardan biri sinovda ishtirok etayotganlarni tanlash hamda ularning sonining ko'pligi va kamligida bilinadi. Keyingi muammo o'lchovlar o'rtasidagi oraliq masofalar hisoblanadi. Bu metod orqali insonlarda tadqiqotlar gohida bir yil ayrim vaqtarda esa undan ham uzoq vaqtlar oralig'ida o'tkazilgan. Shaxsning kasbiy shakllanishini o'rganishda tadqiqot intervali sifatida kasbiy rivojlanish fazalari va bosqichlarini ajratib olish mumkin. Longityud metodidagi muammolardan biri uning davriyligini belgilash bo'lib, bunda u 5 yildan 50 yilgacha davom etishi mumkin. Klassik longityud sifatida 1928 yildan bugungi kungacha davom etib kelayotgan Kaliforniya longityudini misol sifatida keltirish mumkin.

Longityud metodning kamchiligi uning davriyligidadir. Shaxsiy va kasbiy o'zgarishlar tasodifiy yoki drammatik voqealarga bog'liq bo'lishi mumkin. Yillar davomida tekshiriluvchilar sonining qisqarishi, o'rganilayotgan jarayonlarning mazmun mohiyati kengayib boradi. Longityud metodining qo'llanilishini chegaralovchi omillardan biri shaxsni o'rganish uchun ko'p vaqt ni ketishidir. Longityud metodining kamchiliklarini boshqa psixobiografik usullarni qo'llash yordamida bartaraf etish mumkin.

Biografik usul – shaxs hayot yo'lini o'rganish va loyihalashtirish usullari, hayotiy dasturlar, kasbiy rejalar, kasbiy shaxsiy shakllanishining senariylarini ishlab chiqishga yo'naltirilgan. Biografik usullarga tarjimai hol, ma'lumotlarni o'rganish, kasbiy mehnatdan qoniqish va boshqalarni kiritish mumkin.

Kauzometriya – Ye.I.Golovaxa va A.A.Kromiklar tomonidan taklif etilgan usul bo'lib, u shaxsning psixologik vaqt va hayotiy sub'yektiv holatlarini tahlilini tadqiq etish metodi hisoblanadi. Bu intervyu quyidagi jihatlarni o'z ichiga oladi: biografik savol-javob, muhim voqealar ro'yxatini tuzish, voqealarni keltirib chiqargan sabablarini aniqlash va boshqalardir. Intervyu natijalari kavzometriya shaklida tasvirlanadi. Kauzometriya kasbiy muammo va inqirozlarni yechish uchun qo'llaniladi.

Psixobiografiya –shaxslarning hayot yo'lini psixologik o'rganish metodi hisoblanadi. Avval psixobiografiya siyosatchilarining obro'-e'tiborini, kishilarning individual kasbiy biografiyalarini o'rganish maqsadida qo'llanilgan. Kasb psixologiyada psixobiografiyanı qo'llash orqali shaxsning kasbiy maqsadlarining paydo bo'lishi, kasbiy shakllanishdagi inqirozlar haqida qimmatli ma'lumotlarni olish imkonini beradi.

Anamnez metod – bu insoning mehnat sub'ekti sifatida rivojlanish tarixi xaqidagi ma'lumotlarni yig'adi. Bu usul Ye.A.Klimov tomonidan batafsil ko'rib chiqilgan. Kasbiy anamnez mehnat motivlarini o'rganish, **tanjidiy voqealarni aniqlash**, kasbiy

faoliyatda obro‘-e’tibor qozonishni oldindan tashxis qilishda qo‘llaniladi. Anamnezlik tadqiqot o‘z ichiga suhbat tizimini olgani uchun, suhbat metodiga qo‘yiladigan talablar bu usulga ham tadbiq etiladi.

Praksimmetrik metodlar guruhi. Faoliyat mahsulotlari va jarayonlarini tahlil etish yo‘llari bo‘lib, unga B.G.Ananev xronometriya, profesiografiya, bajarilgan ishlar va buyumlar bahosini izohlashlarni kiritadi. Kasbiy psixologiyaning bu guruhidan quyidagi metodlar muhim ahamiyatga ega.

Topshiriqlar tahlili – bu kuzatilayotgan inson va uning yashirin kasbiy xulqining yo‘nalganligini psixologik jihatlarini tadqiq qilish metodidir. Topshiriqlarni tahlil etish metod F.Teylor tomonidan ishlab chiqilgan bo‘lib, tasvirlash va tahlil etish maqsadida qo‘llanilgan. Topshiriqlarni tahlil etish hamda bajarilgan ishlarni tahlil etish metodi ham muhandislik psixologiyasida keng qo‘llaniladi.

Ye.Mak-Kormik va uning kasbdoshlari metallurgiya sanoatiga xos bo‘lgan 250 ta kasb turlarini tahlil etish uchun faoliyatlar ro‘yxatini ishlab chiqishdi. Olingan ma’lumotlarni omilli tahlil qilish yo‘li bilan qayta ishlash orqali 14 ta omil ajratildi va bu omillar “pozitsion tahlil so‘rovnomasi”ni loyihalashtirishga asos bo‘ldi (RAQ).

RAQ 187 elementdan iborat bo‘lib, ular mehnat xulqining asosiy shakllari hamda turli jihatlarini o‘z ichiga oladi. Ayrim jihatlarga tegishli misollarni keltiramiz: yozma topshiriqnini ko‘rsatmasiga asoslangan holda bajarish, klaviaturadan foydalanish, konsultatsiyalarda qo‘l ostidagi ishchilar miqdori va boshqalar.

RAQ metodi asosida to‘plangan ma’lumotlarni tahlil etishda tadqiqotchi har bir bo‘limlar bo‘yicha javoblarni oladi. Ta’kidlash kerakki, RAQ – topshiriqlar emas, balki bajarilgan ishlar tahlili metodi bo‘lib, ishchilarni tanlash muammosini hal etishda qo‘llaniladi. RAQ ishchilarni o‘qitish, malaka oshirish va ma’muriy jihatdan o‘zgarishlarida qo‘llaniladi.

Kasbiy tahlilning yana bir muammoi kritik voqealar metoddir. Uning mohiyati shunda-ki, tadqiqotchi ishchining qoniqarsiz xulqini tasvirlaydi.

Hujjatlarni o‘rganish – mehnat jarayoni ishchilar tarkibi, ularning kasbiy tayyorgarligi va malakasi to‘g‘risidagi ob‘yektiv ma’lumotlarni yig‘ish metodi hisoblanadi. Bu ma’lumotlar quyidagi hujjatlardan olinadi:

- Ishchilar harakatlarini tasvirlovchi texnologik kartalar, ishning bajarilish usullarini sifatiga quyiladigan talablar;
- Insonga psixofiziologik va psixologik ta’sir ko‘rsatadigan asbob-uskunalarning texnik tavsifnomasi;
- Yoshi, staji, ma’lumoti, kasbiy tayyorgarligi, kadrlar qo‘nimsizligi uning sabablari va hokazolar xaqidagi ma’lumotlar;
- Ishlab chiqarishdagi avariylar va travmalar shuningdek, ishchilar sog‘ligining holati to‘g‘risidagi ma’lumot.

Mehnat metodi – bu kasbiy faoliyatni to‘g‘ridan-to‘g‘ri ish joyida o‘rganishga qaratilgan tadqiqot metodidir. Kasbiy faoliyatni egallagan va bajaruvchisi sifatida psixolog ham tadqiqotchi ham ishchi sifatida faoliyat olib boradi. Har bir ish kunidan keyin standartlashgan sxema bo‘yicha bayonnama to‘ldiriladi. Ish joyida tadqiqot olib borish usullari samaraliroq hisoblanadi. Tadqiqotchi standart kuzatish chizmasi asosida ishchining faoliyatini o‘rganadi. Bu usullarning afzalligi kasbiy realikka maksimal

darajada yaqin bo‘lishidadir.

Kuzatish metodi tabiiy metodlar jumlasiga kirib, bunda tashqi kuzatuv mohiyatan kuzatiluvchi xulq-atvorini bevosita tashqaridan turib kuzatish orqali ma’lumotlar to‘plash usuli bo‘lsa, o‘z-o‘zini kuzatish esa odam o‘zida kechayotgan biror o‘zgarish yoki hodisani o‘zi o‘rganish maqsadida ma’lumotlar to‘plashdir. Kuzatish metodi tashqi ob‘yektiv va sub‘yektiv (o‘z-o‘zini) o‘rganishga imkon beradi. Inson psixikasidagi o‘zgarishlarni kuzatish uchun quyidagilar amalga oshirilishi kerak: 1) Kuzatish maqsadi, vazifasi belgilanadi; 2) Kuzatish ob‘ekti tanlanadi; 3) Sinaluvchining yoshi, jinsi aniqlanadi; 4) Tadqiqot vaqtি rejalashtiriladi; 5) Kuzatish qancha davom etishi qat’iylashtiriladi; 6) Qaysi faoliyat kuzatilishi belgilab olinadi; 7) Kuzatish shakli (yakka, guruhiy, jamoaviy) belgilanadi; 8) Kuzatishni qayd etib borish vositalari (kundalik, kino-video, foto, magnit yozuvi va boshqalar).

Kuzatish orqali turli yoshdagi odamlarning diqqati, his-tuyg‘ulari, nerv tizimidagi tashqi ifodasi, temperament xususiyatlari, imo-ishoralari, sezgirligi, xulq-atvori, nutk faoliyati va boshqalar ham o‘rganiladi.

Erkin kuzatuvda ko‘pincha biror ijtimoiy hodisa yoki jarayonni o‘rganish maqsad qilib qo‘yiladi. Masalan, dars jarayonida ta’lim oluvchilarning u yoki bu mavzu yuzasidan umumiy munosabatlarini bilish uchun ham ba’zan erkin kuzatish tashkil etilishi mumkin. *Standartlashtirilgan kuzatuv* esa, buning aksi bo‘lib, nimani, qachon, kim va kimni kuzatish qat’iy belgilab olinadi va maxsus dastur asosida kuzatuv olib boriladi.

Psixologiyada guruhiy jarayonlarning shaxs xulq-atvoriga ta’sirini o‘rganish maqsadida bevosita *ichkaridan kuzatuv* tashkil qilinadi, bunda kuzatuvchi shaxs o‘scha guruh hayotiga tabiiy ravishda qo‘shiladi va zimdan kuzatish ishlarini olib boradi. Shu yo‘l bilan olingen ma’lumotlar bir tomondan tabiiyligi va mufassalligi bilan qimmatli bo‘lsa, ikkinchi tomondan, agar kuzatuvchida konformizm xislati kuchli bo‘lsa, o‘zi ham guruh hayotiga juda kirishib ketib, undagi ayrim hodisalarni sub‘ektiv ravishda takrorlaydigan bo‘lib qolishi ham mumkin. Guruhiy fenomenlarni *tashqaridan kuzatish* buning aksi – ya’ni kuzatuvchi guruhga yoki kuzatilayotgan jarayonga nisbatan chetda bo‘ladi va faqat bevosita ko‘zi bilan ko‘rgan va eshitganlari asosida fikr-mulohaza yuritadi.

Kuzatish metodining ijtimoiy hayot, professional ko‘rsatkichlarni qayd qilishda so‘zsiz afzalliklari bor, lekin shu bilan birga kuzatuvchining professional mahorati, kuzatuvchanligi, sabr-qanoatiga bog‘liq bo‘lgan jihatlar, yana to‘plangan ma’lumotlarni sub‘ektiv ravishda tahlil qilish xavfi bo‘lgani uchun ham biroz noqulayliklari yuzaga kelishi mumkin. Shuningdek, tadqiqot jarayonida ba’zida turli hodisalar ko‘p uchraydi va kuzatilayotgan voqealarga aralashib ketadi. Ayrim vaziyatlarda esa sinovchilarga tadqiqot vazifalari haqida ma’lumot berishga to‘g‘ri keladi, bu esa ularning kasbiy xulqi va faoliyatini suniy ravishda o‘zgartirishiga olib keladi.

Kuzatuv metodi kamchiliklarini tartibga solish maqsadida 1973 yilda AQShda kuzatuv so‘rovi² ishlab chiqiladi. Mazkur kuzatuv so‘rovining amerika va nemes standart variantlari kasbiy talablar, kvalifikatsiya, kasbiy qiziqish, mehnatdan qoniqish, ish joyi va tashkilotni tahlil qilish uchun ishlab chiqilib, u 194 savollardan iborat.

Kuzatuv so‘rovining tadqiqot ob‘yektlari 4 blokga bo‘lingan:

- 1) axborot to‘plash va qayta ishlash;
- 2) mehnatga oid harakatlarni bajarish;
- 3) shaxslararo va professional munosabatlar;
- 4) murakkab va maxsus mehnat sharoitlari.

Kuzatuv so‘rovi o‘rtacha 1yildan 4 yilgacha bo‘lgan muddatda olib boriladi. Uning davomiyligi tadqiqotchilarning ishlab chiqarish faoliyati to‘g‘risidagi bilimlari va sinaluvchi (ishchi) bilan o‘rnatilgan ishonch darajasiga bog‘liq.

Psixometrik metodlar guruhi. *Psixometriya*-psixik voqeа va hodisalarning miqdoriy tomonining nisbati va tavsiflarini o‘rganadi. Psixometriyaning muhim belgisi psixik jarayonlarning individual farqlar, empirik dalillar dinamikasini, parametrlarini o‘lchash texnologiyasining standartlashganligidir. Psixometriya ishonchliligi bilan ajralib turuvchi psixodiagnostik metodikalarini yaratishga yo‘naltirilgan. Psixometrik usullar tarkibiga psixologik test ham kiradi.

Test – psixologik diagnostika metod bo‘lib, u ma’lum ma’noga ega bo‘lgan standart savol va masalalardan iborat. Test intellektual va maxsus qobiliyatlarini, shaxsning psixofiziologik xususiyatlari va sifatlarining rivojlanishini, kasbiy layoqatni aniqlash, kasbiy ekspertiza va reabilitatsiya shuningdek, kasbiy maslahatlar jarayonida qo‘llaniladi.

Test o‘tkazish 3 bosqichga ajratiladi:

- test, savolnomasini tanlash (tadqiqot masalasi bilan belgilanadi);
- test o‘tkazishda etika normalariga rioya qilgan holda ko‘rsatmaga muvofiq tashkil etish;
- olingen ma’lumotlarni qayta ishlash va natijalarni o‘rganish.

Kasbiy psixologiyada *maxsus qobiliyatlarning diagnostikasi* va kasbiy yutuqlar muhim ahamiyat kasb etadi. An’anaviy intellektual testlar akademik qobiliyatlarini o‘rganishga qaratilgan. Vakant (bo‘s) o‘rinlarga nomzodlarni kasbiy tanlovi uchun ishonchli usullarga bo‘lgan ehtiyoj psixologlarni maxsus qobiliyatlarini diagnostika qilish uchun test ishlab chiqildi. Ishlab chiqarishning turli sohalari ishchilarning oldiga o‘ziga xos talablarni qo‘yadi. Kasbiy tanlov, kasbiy maslahat, kadrlarni joylashuvi, vakant ishchi o‘rinlarini to‘ldirish maqsadida muhim kasbiy psixofiziologik xususiyatlar, psixologik sifatlar, kasbiy malakalarini aniqlash imkonini beruvchi testlar bo‘lishi lozim.

Maxsus qobiliyatlar testi asosan kasbiy tanlov uchun qo‘llaniladi. Ayniqsa, sensor qobiliyatlar diagnostikasi xususiyatlarini ko‘rib chiqamiz. Ko‘pgina, kasblar sensor sohaning xususan ko‘rish va eshitishning yuqori darajada rivojlanishini talab qiladi. Vizual qobiliyatlar testi muhim kasbiy belgilarga bog‘liq holda ko‘rish o‘tkirligini, ranglarni farqlay olish va ularning ichki xususiyatlari o‘rtasidagi bog‘liqliklar darajasini aniqlaydi. Eng keng tarqalgan ko‘z o‘tkirligini aniqlab beruvchi test - sinovda ishtirok etayotgan sinaluvchilarga bosma harflar tasvirlangan jadval ko‘rsatiladi va tadqiqotchi tomonidan ko‘rsatilayotgan harflarni aniqlash kerak bo‘ladi. Eshitish qobiliyatlarini aniqlashda ovoz, signal ko‘p hollarda odam ovozi eshittiriladi. Chuqurroq o‘rganilishi maqsadida masalan, musiqiy eshitish qobiliyatini aniqlash testlari qo‘llaniladi.

Harakat qobiliyatlarini diagnostika qilish-harakat reaksiyalarini tasvirlash va

koordinata tezligini aniqlash maqsadida qo'llaniladi. Bunday hollarda biz sensomotor diagnostikasini nazarda tutishimiz kerak, chunki aksariyat hollarda bu ko'rish orqali bajariladi. Chet elda barmoqlar mahoratini, buyumlarni o'ynata olish tezligi, qo'l mustahkamligi, reaksiya vaqt, qo'l harakatining tezligini tahlil etuvchi testlar keng tarqalgan.

Motor testiga misol keltiramiz. Bunda tadqiqotda ishtirok etayotganlarning oldiga ikki seriyadan iborat bo'lgan to'g'ri burchakli taxta qo'yiladi. Har qaysi seriyasida 48 tadan teshik bo'lib, seriyalardan biridagi teshiklar silindrli sterjenlar bilan to'ldirilgan. Sinaluvchilarga imkon qadar sterjinlarni boshqa seriyalardagi teshiklarga olib o'tish taklif qilinadi. Bunday tadqiqotda ishtirok etayotgan kishi ma'lum vaqt davomida ishning qancha qismini bajara olgani hisobga olinadi.

Shuningdek, ishchilar kasbiy tanlovida texnik qobiliyatlar testi muhim o'rin egallaydi. Texnik qibiliyatlar deganda – murakkab intellektual qibiliyatlar tushuniladi. Bu qibiliyatlar o'z ichiga keng tasavvurlar, texnik salohiyat va sensomotor malakalarini qamrab oladi. Texnik qibiliyatlar testi – injenerlar, mexaniklarni kasbiy tanlovida keng doirada qo'llaniladi. Bu borada A.A.Beknet va Minnesotski testlari keng tarqalgan.

Maxsus qobiliyatlarning so'nggi guruhi A.Anastazi kasbiylashgan qobiliyatlarni kiritadi. Ularni o'lchash uchun tuzilgan testlar faoliyatning ma'lum kasb sohasida shakllantiriladi. AQShda Minnesota shtatida konselariya testi keng ommalashgan bo'lib, tartibni qabul qilish tezligi, ishbilarmonlik atamalar ro'yxatini bilishi, eshitishi, xabardorlik, savodxonlik chiroysi nutqqa egalik kabi qobiliyatlarni aniqlab beradi.

Kasbiylashgan qobiliyatlarga shuningdek, badiiy, musiqaviy, tadqiqiy konstrukturlik, ishbilarmonlik, ijtimoiy va ijrochilik qobiliyatları kiradi. **Kasbiy yutuqlar testi** faoliyatning ma'lum bir turini egallash darajasini o'lchash yoki kasbiy tayyorgarlik natijalarini tashxis qilish maqsadida qo'llaniladi.

Yutuqlar testi sinovdagilarning ma'lum bilim, ko'nikma va malakalarini egallanganlik darajasini aniqlab beradi. Iqtidor testlaridan farqli ravishda ular maxsus ta'lim dasturlarining kasbiy tayyorgarlikning ma'lum samaradorligiga, kasb egallahsha bo'lgan ta'sirini o'lchaydi. Boshqacha qilib aytganda, yutuqlar testi asosan individning ta'lim yakunidagi so'nggi muvaffaqiyatlarini baholashga yo'naltirilgan.

Insonlarda yutuqlar testining 3 ta shaklini qo'llashadi: harakat testlari, yozma va og'zaki testlar. Bu testlarda aniq kasbiy faoliyatda eng muhim bo'lgan bir qator topshiriqlarni bajarish talab etiladi. Harakat testlari idoraviy kasblarda (texnik kotiba, mashinistka, stenografiya va hokazolarda) keng qo'llaniladi.

Yutuqlarning yozma testlari maxsus bilimlar ya'ni, savodxonlik uchun muhim bo'lgan kasblarda ishlataladi. Mazkur testlar asosiy tushunchalar, mavzulardagi sinifiy belgilari, texnik tavsiflar, formulalarni o'rganilganligini o'lchashga yo'naltirgan. Standartlashgan baholash shakli ob'ektiv harakatga ega bo'lib, guruhiy ishlashga imkon beradi va ko'p vaqtini talab etmaydi.

Kasbiy yutuqlarning og'zaki testlari – maxsus kasbiy bilimlarga tegishli bo'lgan standartlashgan savollar seriyasidan iborat. Savollar kasbiy faoliyatni tahlil etish, malakali ishchilarni kuzatish va har qaysi savolning muhimliligi asosida tanlanadi. Yutuqlar testlarini kasbiy salohiyatni baholash maqsadida qo'llanishi AQShda

psixologlar attestatsiyasi tajribasidan ko‘rish mumkin. Yutuqlar testining keng tarqalishi ular mutaxassislarga, ishchi kasbiy tayyorgarlik darajasini aniqlash hamda shaxsda kasbiy tanlashni kuzatish va kasbiy yutuqlarni bashorat qilish imkonini beradi.

So‘rov metodi ham psixologiyaning barcha tarmoqlarida birlamchi ma’lumotlar to‘plashning an’anaviy usullaridan biri bo‘lib, unda tekshiriluvchi tekshiruvchi tomonidan qo‘yilgan qator savollarga muxtasar javob qaytarishi kerak bo‘ladi. *Og‘zaki so‘rov* oddiygina qilib, suhbat metodi deb ham ataladi. Suhbat o‘tkazadigan shaxs unga ma’lum darajada tayyorgarlik ko‘rgach so‘roq o‘tkazadi. Agar so‘rovchining professional mahorati yoki tajribasi bunga yetarli bo‘lmasa, so‘rov o‘z natijalarini bermasligi, aksincha bo‘lsa esa ushbu metod yordamida inson ruhiy kechinmalariga aloqador bo‘lgan noyob ma’lumotlarni to‘plash imkoniga ega bo‘ladi. *Yozma so‘rov* yoki anketaning afzalligi shundaki, uning yordamida bir vaqtning o‘zida ko‘pgina odamlar fikrini o‘rganish mumkin bo‘ladi. Unga kiritilgan savollar, ulardan kutiladigan javoblar (yopiq anketa), yoki erkin o‘z fikrini bayon etish imkoniyatini beruvchi (ochiq anketa) so‘rovnomalari aniq va ravon tilda, javob beruvchilar tushunish darajasiga monand tuzilgan bo‘lsa, qimmatli birlamchi materiallar to‘planadi.

So‘rovning ham *erkin* va *standartlashtirilgan* shakllari mavjud bo‘lib, birinchisida oldindan nimalar so‘ralishi qat’iy belgilab olinmaydi, ikkinchi shaklida esa, hattoki, dastur ishlab chiqilib, minglab odamlarda bir xil talablar doirasida so‘roq o‘tkazilishi nazarda tutiladi.

Psixometrik usullar guruhiga barcha standartlashgan so‘rovlari kiradi. Kasbiy psixologiyada anketa-so‘rovnomalari keng ko‘lamda qo‘llanilib, ular orasida biografik anketalar, qiziqish savolnomalari ham mavjud. Biografik anketalar kasbiy faoliyat turlari, ish va ish joyining o‘zgarishi, ta’lim xarakteri darajalarini aniqlaydi.

Qiziqishlar so‘rovnomalari ta’limiy va kasbiy manfaatlarni o‘lchash uchun mo‘ljallangan. Ular professional tanlash masalalarini hal qilish uchun foydalaniлади. Birinchi bunday so‘rovnomalardan biri 1920 yilda E.Strong tomonidan yaratilgan "Kasblar qiziqish bloki" bo‘lib, u to‘rtta qiziqish ko‘rsatkichini aniqlaydi:

- 1) muayyan kasbda muvaffaqiyat qozongan shaxslarning manfaatlari bilan sub’ektning manfaatlari o‘xshashligi;
- 2) erkaklar va ayollar qiziqishlari tuzilmasi;
- 3) qiziqishlar yetuklik darajasi;
- 4) kasbiy tayyorgarlik darajasi.

Kasbiy ta’lim diagnostikasi. Ta’lim tizimi orqali o‘quv-kasbiy faoliyat samaradorligi, shaxs qobiliyatлари (dastlabki bilim, qobiliyat, ijobiy motivatsiya, ma’lum darajada jismoniy rivojlanish, salomatlik va b.) aniqlanadi. O‘quvchanlik qanchalik yuqori bo‘lsa, ta’lim oluvchi yangi bilimlarni tez o‘zlashtiradi, professional ko‘nikmalarni oson egallaydi. O‘quv – kasbiy vaziyatlar qanchalik erkin bo‘lsa, talabaning kasbiy rivojlanishini yuqori darajaga oshiradi. Kasbiy ta’limning asoslari sensomotor qobiliyatлarni, psixik jarayonлarni, shuningdek, shaxsning hissiy, motivatsion-irodaviy fazilatларни rivojlantirishdan iborat. Rivojlanish darajasi va ushbu xususiyatlarning kombinatsiyasi o‘zlashtirish qobiliyatidagi individual farqlarni aniqlab, uning sifat ko‘rsatkichlari hisoblanadi.

O‘rganish mezonlariga quyidagilar kiradi:

mantiqiy fikrlash usullarini shakllantirish;
 tafakkurning mustaqilligi;
 tafakkurning xilma-xilligi.

Tafakkurning bu sifat xususiyatlarini diagnostika qilish psixologiyada keng qo'llaniladigan usullar yordamida amalga oshiriladi.

Kasblar psixologiyasida "Kasb-hunar o'rganish" tushunchasini ishlatish va kasb mazmuniga qarab, diagnostika metodikasini ishlab chiqiladi.

Asosiy diagnostik ko'rsatkichlar quyidagilar:

- kasb tanlash motivi va maqsadli qadriyatlar;
- o'quv- kasbiy qobiliyatlarini rivojlantirish darajasi;
- mustaqillik va refleksiya.

O'quv-kasbiy ta'limning diagnostikasi mutaxassislarni kasbiy tayyorgarligini farqlashga, professional faoliyatning yutuqlarini taxmin qilishga imkon beradi.

Eksperimental metodlar guruhi. *Eksperiment metod* – psixologik reallik mexanizmi va qonuniyatlarini o'rganish bo'yicha asosiy metod hisoblanadi. Uning asosiy mohiyati nazorat qilinadigan va boshqariladigan sharoitlarda yangi ilmiy bilimlarni olishga qaratilgan. Eksperimentning asosiy nomutaxassislik vazifasi – sabab-natija aloqalarini o'rganish va psixologik jaryonlar va hodisalarini tushuntirishdan iborat. Eksperiment o'tkazishda farq va rozilik qoidasini qo'llaydilar (J.S.Mill) A, B guruh voqealar guruhi ketidan D voqeasi kelsa ammo B, V ketidan A kelmasa, unda A, a, ning sababidir. Ikkala voqealar guruhidan birinchisi eksperimental sifatida ko'rib chiqiladi, ikkinchisi – nazorat guruhi deb ko'rildi. Ularni yagona farqlovchi voqe mustaqil o'zgaruvchi deyiladi va u jarayonning davomida turli o'zgarishlarga duch kelish mumkin.

Keng tarqalgan eksperiment modeli quyidagi jadvalda ko'rsatilgan bo'lib, unda tadqiqotchi tahlil natijalarida sub'ektiv baholardan foydalangan holda, ya'ni $x_2 - x_1$ dan katta, u_2 esa u_1 katta degan xulosani ta'kidlab qolmasdan balki, hech bo'limganda umumiy hollarda qay darajada kattaligini aniqlashi kerak bo'ladi. Aks holda, eksperiment va nazorat guruhlaridagi o'zgarishlarni tasdiqlashning o'zi bo'lmaydi.

Eksperiment modeli

Guruh	Guruhning eksperimentgacha holati	Guruhning eksperimentdan so'nggi holati	Bo'lib o'tgan o'zgarishlar
Eksperimental nazorati	X_1 U_1	X_2 U_2	$X_1 - X_2$ $U_1 - U_2$

Eksperimental tadqiqotni kasbiy tanlov misolida ko'rib chiqamiz. Korxonada mutaxassislar murakkab mexanik agregatlarni qabul qilishda ishlab turgan muhandislar ko'p deffektlarni o'tkazib yuborganliklari sabab, ishchilar orasidan nazoratchilarni tanlash zaruriyati kelib chiqadi.

Eksperimentning mazmuni shundan iborat-ki nazoratchi uchun muhim bo'lgan qibiliyatlarini tashxis qilib beruvchi (diqqatni jamlay olish, mustaqillik, sensor farqlash darajasi, keng fikrlash) test loyihalashtiriladi. Test tanlovchilar orqali nazoratchilarning eksperimental guruhi tuzildi. Eksperimental va nazorat guruhi ishlarini korreksion tahlil

qilish asosida tasdiqlash, testning samaraliliginini va nazoratchilarni tanlash va tayyorlash metodikasini aniqlash imkonini beradi.

Psixologik tadqiqotlarda eksperiment natijalarini miqdoriy ifoda qilish masalasi eng qiyin masala hisoblanadi. Shuning uchun miqdoriy ma'lumotlar, odatda, absolyut emas, balki nisbiy ahamiyatga ega. Ular ikki guruh darajasini tasdiqlash imkonini beradi, ammo har qaysining absolyut tavsifini aniqlay olmaydi. Shunday bo'lsa-da, psixologiya fani real o'quv-kasbiy faoliyatida o'zgarishlarni kutmaydigan, imkoniyatlar beruvchi vaziyatlar yaratish orqali shaxsdagi o'zgarishlarni o'lchash uchun turli xil shakllarni yaratadi.

Eksperimentni o'tkazishda o'rganilayotgan jarayon o'tadigan sharoitlarni keng miqiyosda o'zgartiriladi, o'zgaruvchan omillar ta'sirini ajratish, ularning o'zaro aloqasini aniqlash va shu tariqa psixik hodisalarning qonuniyatlari va mexanizmlarni o'rgatish mumkin.

Eksperiment metodining muhim sifati shundaki o'rganilayotgan jarayoniga to'g'ri baho berish, ma'lumotlarning miqdoriy hisobini olish imkonini beradi, bu esa tadqiqot natijalariga ishlov berish muhim statistik xulosa chiqarishga imkon beradi.

Eksperimental usulning 3 turi mavjud: tabiiy, modellashtiruvchi va labaratoriya eksperimentlaridir.

Tabiiy eksperiment psixik hodisalarni odatiy tabiiy sharoitlarda o'rganishni nazarda tutadi (darsda, mehnat topshirig'ini bajarish jarayonida va hokazo). Tabiiy eksperimentning afzalligi – tadqiqot maqsadlarining nisbatan yashirinligi, jarayonning norasmiy muhitda o'tishi va sinovdagilarning hayoti va faoliyatiga bevosita kirib borishi bilan belgilanadi.

Modellashtiruvchi eksperiment ayrim mehnat jarayonlarining nazariy dinamikasi va murakkabligi tufayli real texnik moslamalarni odatiy ish tartibidagi usullarni o'rganib bo'limganligi tufayli qo'llaniladi. Bu jarayonlar anglanilgan holda o'rganilayotgan mehnat jarayonida ishning muvaffaqiyatini belgilab beruvchi uning tarkibiy qismlariga ajratiladi, bu faoliyatni amalga oshirish uchun sun'iy sharoitlar yaratiladi va shu tariqa modellashtirilgan sharoitlarda murakkab mehnat jarayoni o'rganiladi. Modellashtiruvchi eksperiment shaxsning kasbiy shakllanish jarayonidagi muhim kasbiy sifatlarni o'rganishda qo'llaniladi. Labaratoriya eksperiment tadqiqotlarni maxsus asbob-uskunalar bilan jihozlangan psixologik labaratoriyyada o'tkazishni nazarda tutadi. Eksperimentning bu turi odatda elementar psixik funksiyalarni o'rganish maqsadida qo'llaniladi ya'ni, sensor va motor reaksiyalari tanlov reaksiyalari va boshqalarni kiritish mumkin. Insonning ish-harakatlarini o'rganish borasida oxirgi 20 yil mobaynida videotexnika va turli antik mexanik moslamalar rivojlanishining yuqori darajasiga ko'tarilgan. Bu bir tomonidan videoga tushirish, streoskopik tushirish kabi usullarni keng qo'llashga olib kelgan bo'lsa, boshqa tomonidan tayyorlov ishlari ya'ni, eksperimentni o'tkazish va materiallarni tahlil etish kabi ishlarni yengillashtirishga xizmat qiladi.

Videofotoregistratsiya metodining universalligiga qaramay tadqiqotlarda EHM va boshqa maxsus texnikaning qo'llanilishi bugungi kunda murakkab muammo bo'lib kelmoqda.

Shakllantiruvchi eksperiment – bu usulning asosiy belgisi V.V.Davidovning

“psixikaning u yoki bu empirik shakllarining xususiyatlarini oddiygina ta’kidlab emas, balki ularni faol modellashtirib maxsus sharoitlarda namoyon etib, ular mohiyatini ochib berishi” kerak degan fikri bilan belgilanadi.

Shakllantiruvchi eksperiment usullarini qo’llash o‘quv-kasbiy jarayonlarning ma’lum tavsiflarini o‘zgartirish va shu o‘zgarishning ta’lim oluvchilarining yosh, intellektual xususiyatlariga bo‘lgan ta’siri bilan bog‘liq. Mohiyatiga ko‘ra, bu usul keng tadqiqot o‘tkazish vositasi sifatida boshqa usullarni qo’llash orqali o‘tkaziladi.

Shakllantiruvchi eksperiment V.V.Davidov bergen tavsifiga ko‘ra – birinchidan, ko‘p sonli ya’ni, statistik muhim; **ikkinchidan**, u yoki bu konsepsiyanı yuritish uchun amalga oshiriladigan; uchinchidan uzoq davomli va nihoyat pedagogik-nazariyotchi diagnostik metodistlarni o‘zaro hamjihatligini ta’minlab beruvchi eksperimentdir. Shakllantiruvchi eksperiment kasbiy ta’limning optimal texnologiyalarida, korxonada kasbiy tayyorgarlikning samarali metodikasida, malaka oshirish tizimiga innovatsion usullarni qo’llash jarayonida foydalaniladi.

Matematik ishlov berish metodlari guruhi. Miqdoriy ma’lumotlarga ishlov berish usullariga tadqiqot xulosalarini chiqarishning statistik usullari hamda ular o‘rtasidagi ma’lum aloqalarini aniqlash, ilgari suralgan gipotezaning haqqoniyligini tekshirish kabilar hisoblanadi. Natijalarga matematik ishlov berish, tadqiqotlarning isbotlanganligini (reprezentiligi) tanlab beradi.

Sifat ko‘rsatkichlarining miqdoriy ishlov berilganlik bilan bir qatorda psixologik tadqiqotning ob’yektligi sezilarli darajada oshiriladi. Tadqiqot usullarining to‘g‘riliqi nafaqat qo’llanilgan matematik apparatning takomillashganligiga balki, o‘rganayotgan hodisa va ob’yektlarni real miqdoriy tavsiflarini qay darajada aks etishiga bog‘liq. Bu talablarga rioya etmaslik, matematik o‘lchovni oddiy formulalar o‘yiniga aylantiradi.

Ta’lim yoki tarbiyaning u yoki bu amallarini yoki tomonlarini baholash uchun miqdoriy belgilarni topish – matematik muammo hisoblanmaydi. Bu vazifani tadqiqotchi psixologlar hal etishi kerak. Ammo bu masalani hal etish uchun o‘lchov usullarining qo’llash chegaralari va sharoitlarini hisobga olib, psixologik hodisalarini to‘g‘ri o‘lhash kerak bo‘ladi

O‘lchov – ma’lum qoidalarga muvofiq voqealar va ob’ektlarga raqamlarni qo‘yib, yozish raqamli tavsiflarni, narsa – buyum va hodisalarga qo‘silib yozilishining eng oddiy metod – ularni qayd etishdir. Qayd etishning mohiyati shundaki – qandaydir belgini ajratib kuzatish va eksperimentda shu belgisi bo‘lgan predmet yoki hodisa paydo bo‘lsa shu holat muntazam qayd etib boriladi. Masalan, o‘qish sabablarini o‘rganishda so‘rovnama asosida javobning u yoki bu variantini tanlangan talabalar sonini aniqlashadi qayd etish natijalariga statistik ishlov berish o‘rganilayotgan hodisalarga nisbatan ayrim muhim umumlashgan va xulosalarni qilish imkonini beradi. Qayd etishning muhim xususiyati shundaki, u psixologik – pedagogik tadqiqotlarda ko‘p uchraydigan hol bo‘lib, ya’ni o‘rganilayotgan xodisalarning belgilarini aniqlash, imkon bo‘lman Hollarda ham miqdoriy jihatlarini tahlil qiladi.

Masalan talabalarning bilim va malakalari darajasini, u yoki bu ma’naviy sifatlarining rivojlanishi bu ta’lim metodining samarali darajasini to‘g‘ri o‘lhash qiyin. Ammo shunga tegishli voqealarni – xatolar, o‘zini tutishi va hokazolarni qayd etib, bu sifatlarning ma’lum miqdoriy tavsifini olish mumkin. Demak, ular paydo bo‘lishining

qonuniyatlarini o'rganish mumkin.

Ma'lumotlarga miqdoriy tavsif berishning keyingi metodi – tartibga solish operatsiyasidir. Uning mohiyati shundaki, o'rganilayotgan hodisalar ma'lum belgi hajmining o'sish yoki pasayish tartibida joylashadi. Keyin ob'ektlarning har qaysi guruhiga o'sish yoki pasayish qatoridagi bir guruh o'rniiga tegishli bo'lgan son bo'ladi. Bu ob'ektlarda o'rganilayotgan sifatning tartibini ko'rsatib beruvchi sondir.

Ma'lumotlarni tartibga solgandan keyin ularni guruhlashadi. Buning uchun o'rganilayotgan sifat ma'nosini ma'lum intervali o'lchov belgisi deb qabul qilinadi. O'rganilayotgan hodisalarda belgi ma'nosini necha marta shu o'lchov birligi kuzatilayotgan ob'ektda namoyon etilishi son bilan belgilanadi. Ma'lum sabablarga ko'ra, matematik apparatni qo'llashda va o'lchovda qiyinchiliklar kelib chiqadi.

O'lchov natijasida olingan miqdoriy sifatlar matematik statistika usullari yordamida ishlab chiqiladi va bu empirik natijalarni umumlashtirishga "Tasodifiy" natijalar sababini tushuntirishga unga ma'lum ishonarli izoh berishga imkon beradi. Amaliy psixologiyada miqdoriy ma'lumotlarga ishlov berishning eng keng tarqalgan usullari – dispersion, korrelyatsion va omilli tahlil usullaridir

Dispersion tahlil – o'rganilayotgan o'zgaruvchiga turli omillarning ta'sirini tahlil etish imkonini beruvchi statistik usuldir. Dispersion tahlilning mohiyati shundaki o'rganilayotgan sifat mustaqil tarkibiy qismlarga bo'linib ketadi, bu qismlarning har biri u yoki bu omilning yoki o'zaro aloqaning ta'sirini tavsiflab beradi.

Korrelyatsion tahlil – o'rganilayotgan sifatlar yoki omillar aloqasining shakli, belgisi yoki zichligini baholash statistik metoddir.

Omilli tahlil – ko'p o'lchovli matematik statistika metod bo'lib, bu usul statistik jixatdan bog'liq sifatlarni o'rganishda qo'llaniladi. Bu usul ilmiy tadqiqotlarning boshlang'ich bosqichlarida sermahsul hisoblanadi, chunki bu paytda o'rganilayotgan sohadagi qonuniyatlarni ajratish kerak bo'ladi. Tadqiqotlarga matematik ishlov berishning boshqa metod ham mavjud. Biz eng ko'p tarqalgan usullarini ko'rib chiqdik. Tadqiqot tajribasi shuni ko'rsatadiki, matematik ishlov berish ko'pgina muhim psixologik tavsiflarni, ularning aloqalari, munosabatlari, qonuniyatlarini o'rnatish va tasvirlashning samarali vositasi hisoblanadi.

Tadqiqot usullarini tavsiflash xulosalarida shuni ta'kidlash kerakki, ayrim usullarni boshqalariga qarama-qarshi qo'yish yoki qaysilarinidir imkoniyatlarini absolyutlashtirib bo'lmaydi. U yoki bu usulni tanlash tadqiqot predmeti va vazifalari bilan belgilanadi. Har qaysi psixologik tadqiqotlarda o'zaro bir-birini to'ldiruvchi va haqqoni xulosalar chiqarish imkonini beruvchi usullar kompleksi qo'llaniladi.

Nazorat savollari:

1. Kasbiy psixologiya fanining predmeti, ob'yekti, maqsad va vazifalarini tushuntiring.
2. Kasbiy psixologiya fanini o'rganishning ahamiyatini tushuntiring.
3. Kasbiy psixologiya fanining qanday tadqiqot metodlarini bilasiz?
4. Mehnat psixologiyasi va kasb psixologiyasi predmetlarini farqini tushuntiring.
5. Kasb psixologiyasining metodologik asosi nima?
6. Kasb psixologiyasi metodlari qanday metodologik tamoyillarga asoslanadi?

7. Ilmiy-tadqiqot metodlari va uning ahamiyati nimada?.
8. Tadqiqot bosqichlari nimalardan iborat?
9. O‘z guruhingizda test, anketa va sotsiometrik usulda tadqiqot o‘tkazib, natijasini yozib chiqing.
10. Kuzatish metodi qanday tashkil qilinadi?
11. Test metodining nechta turlari mavjud?

Mustaqil ish uchun mavzular:

1. Mustaqillik yillarda milliy kadrlarni tayyorlash sifatiga bo‘lgan zamon talablari.
2. Kasbiy psixologiyaning ilmiy tadqiqot metodlari ilmiy-amaliy masalalari.

Glossariy

<i>Questionnaire</i>	<i>Anketa</i>	<i>Anketa</i>	<i>metodlardan biri bo‘lib, respondent to‘g‘risida aniq ko‘zlangan ma’lumotlarni yig‘ish maqsadida qo‘llaniladi</i>
<i>Method of biographics</i>	<i>Metod biografii</i>	<i>Biografik metod</i>	<i>odamni uning tarjimai holi bilan bog‘liq bo‘lgan xujjatlar orqali o‘rganish usuli.</i>
<i>Observing</i>	<i>Nablyudeniya</i>	<i>Kuzatish</i>	<i>sinaluvchini aniq maqsad, faoliyat, vaqt, guruh bilan bog‘liq ravishda tekshirish, o‘rganish, ma’lumotlar to‘plash metodi</i>
<i>Method</i>	<i>Metod</i>	<i>Metod</i>	<i>bilishning nazariy va amaliy o‘zlashtirish usullari yig‘indisi.</i>
<i>Methodology</i>	<i>Metodologiya</i>	<i>Metodologiya</i>	<i>tadqiqot, tekshirish usuli bo‘lib, bilishning nazariy va amaliy o‘zlashtirish usullari yig‘indisidir</i>

Keyslar banki

1-Keys. O‘qituvchi darsga kirish vaqtida xonada bolalar to‘paloni ustidan chiqdi. O‘qituvchi urushayotgan bolalarni koridorga olib chiqib, nima sababdan urushayotganlarini so‘radi. Bolalar bir-birlariga qarab sababini aytmadilar.

«Bu sirmi?» - deb so‘radi o‘qituvchi. Bolalar boshlarini qimirlatdilar. SHunda o‘qituvchi bolalarga «sizlar 5 daqiqa vaqt ichida erkakchasiga gaplashib olinglar, faqat bir-biringlarni urmasdan, xaqorat qilmasdan kelishinglar. Sinfga siz oldingidan ham inoqroq do‘sit bo‘lib kiring, shunday xayotiy muammolarni ham tinch-totuv echib kirganingizni boshqalar ko‘rsin.»

Keysni bajarish bosqchilari va topshiriqlar:

Keysdagagi muammoni keltirib chiqargan asosiy sabablarni belgilang (individual va kichik guruhda).

1. O‘qituvchi xaqmi? U vaziyatni qanday boshqardi?
2. Siz bolalarda ta’lim – tarbiya ishlarini olib borishda, «erkakcha», «qizlarga hos» degan fikrlarni ishlatalishiga qanday qaraysiz?
3. Siz bu vaziyatda qanday yo‘l tutar edingiz?

2-Keys. Bir kuni siz do‘sstlarining bilan kursdosh o‘rtog‘ingiznikiga mehmonga

bordingiz.O‘rtog‘ingizni uyida ota – onasi yo‘q ekan. O‘rtoqlaringiz bundan foydalanib spirtli ichimlikni qo‘lma-qo‘l qilib ichishyapti. Siz ichishni xoxlamayapsiz. Sizga boshqalarni xatti – xarakatidan noqulay bo‘lyapti. Siz do‘stingizga pichirlab ichishni xoxlamayaganingizni aytgan edingiz, u kulib: «Sen bir ta‘tib ko‘rgin, xar doim ham yosh bola bo‘lib qolmaymizku!»- deb aytdi. Siz nima qilasiz?

Keysni bajarish bosqchilari va topshiriqlar:

Keysdagi muammoni keltirib chiqargan asosiy sabablarni belgilang (individual va kichik guruhda).

1. Ichasiz, chunki boshqalar hammasi ichmoqda, ichmasangiz sizni ustingizdan kulishadi.
2. «Men dori ichyapman, spirtli ichimlik bilan aralashtirib bo‘lmaydi» deb bahona qilasiz.
3. Oddiygina «yo‘q, rahmat» yoki «men xohlamayman» deb qo‘ya qolasiz.

Test savollari

1. Psixologiyada qaysi tadqiqot metodlaridan foydalaniadi

A).Ob’yektiv va sub’yektiv kuzatish metodidan V). Kuzatish va eksperiment metodidan S). Laboratoriya metodidan D). Kuzatish, eksperiment, suxbat, anketa, sotsiometriya va test metodlaridan

2.Ko‘rsatilgan usullardan qaysi biri laboratoriya eksprementi metodiga ta’luqli

A). Tadqiqot, maxsus jixozlangan xonada o‘tkaziladi V). Tadqiqot odatdagি sharoitlarda o‘tkaziladi S).Psixik o‘zgarishlar sodir bo‘lishi kutib turiladi D). Maxsus sharoit yaratilib kuzatiladi

3. Pxixologiyaning tadqiqot metodlarini ko‘rsating?

A). Kuzatish metodi, tabiiy eksprement, laborotoriya, eksperimenti V). Ob’yektiv kuzatish, sub’ektiv kuzatish metodi S). Kuzatish, eksprement, test, suxbat, biografiya, anketa faoliyat tafsilotlarini tekshirish D). Laboratoriya, ma’ruza, suhbat metodi

4. Sotsiometrik metodini kim ishlab chiqqan?

A). D. Moreno V). Vundt S).J. Piaje D). Meys

5. Tabiiy eksprement metodi kim tomonidan fanga kiritilgan?

A). A.N. Leontev V). Vigotskiy L.S. S). A.F. Lazurskiy D).S.L. Rubinshteyn

3-mavzu: Kasb tanlash va kasbiy shakllanishining psixologik jihatи.

Reja:

- 1.Shaxsning biogenetik va sotsiogenetik nazariyaları.
2. Shaxs faolligi.
3. Kasbiy shakllanish tarixi.
4. Shaxsning kasbiy shakllanish determinatsiyasi.
5. Shaxsning kasbiy rivojlanish bosqichlari haqida tushuncha va ilmiy tasavvur hosil qilish.

Tayanch tushunchalar:

Rekapitulyatsiya qonuni - filogenezni qisqacha takrorlash.

Konstitutsion psixologiya - insonning tana tuzilishiga asoslangan nazariya.

Tsikloid - tez qo‘zg’aluvchi, xis-tuyg’usi o’ta beqaror.

Shizoid - odamovi, munosabatga qiyin kirishuvchi.

Irratsionalizm - aqldan tashqari narsa, aql kuchi bilan bilib bo'lmaydigan, ilmiy mantiqiy bilishni inkor qiluvchi reaktsion oqim.

Hozirgi vaqtda psixologiyada XIX asrda vujudga kelgan, lekin dastlabki ildizlari qadimgi yunon madaniyati tarixiga borib qadaladigan qator nazariyalar bor. Ularning eng ko'p tarqalgalari quyidagilardir: biogenetik nazariya (V. SHtern), sotsiogenetik nazariya (K. Levin), bixevoiristik nazariya (E. Torndayk), psixoanaliz nazariyasi (Z. Freyd) va boshqalardir.

Psixologiya muammolari turli sohalar bilan bog'liq bo'lishi bilan birga hozirgi kun uchun o'ta dolzarb vazifalarni hal qilish bilan ham bog'liq. Bular jumlasiga ekologiya muammolari, zoopsixologiya va odamshunoslik muammolari, demografik va millatlararo munosabatlар muammozi, insonparvarlik muammolari bilan bog'liq psixologik muammolarni ko'rsatish mumkin. Bulardan tashqari moddiy ishlab chiqarishni ko'paytirish, mehnat samaradorligini oshirish, inson-inson, inson-texnika, er-inson, inson-iqlim munosabatlari, oila munosabatlari, o'z joniga qasd qilish, turli jinoyatchilik singarilar ham o'ta muhim bo'lganligidan psixologik tadqiqotlar orqali aniqlanadi va tuzatishlar kiritiladi.

Biologik nuqtai nazardan shaxs taraqqiyoti individ nasliy jihatdan orttirgan genetik dasturlarning amalda ro'yobga chiqishi tarzida tasavvur etiladi.

Biogenetik nazariyada insonning **biologik yetilishi** bosh omil sifatida qabul qilingan, qolgan jarayonlarning rivojlanishi ixtiyoriy bo'lib ana shu omil bilan o'zaro bog'liqdir. Mazkur nazariyaga binoan, rivojlantirishining bosh maqsadi biologik derminantlarga (aniqlovchilarga) qaratiladi va ulardan ijtimoiy-psixologik xusiyatlar kelib chiqadi.

Biogenetik qonunni F.Myuller va E.Gekkel kashf qilgan. Biogenetik qonunga ko'ra, shaxs psixologiyasining individual rivojlanishi (ontogenez) butun insoniyatning tarixiy rivojining (filogenez) asosiy bosqichlarini qisqacha takrorlaydi. Nemis psixolog V. SHternning fikricha, **chaqaloq** xali odam xisoblanmaydi balki faqat sut emizuvchi xayvondir; oltioylikdan oshgach u psixik rivoji jixatidan faqat maymunlar darajasiga tenglashadi, ikki yoshida oddiy odam xoliga keladi, besh yoshida ibridoiy gala xolidagi odamlar darajasiga etadi, mакtabga kirganidan boshlab ibridoiy davrni boshidan kechiradi, (ularni ongi o'rta asr kishilar darajasiga etadi) nixoyat, etuklik davri (16-18) yoshlaridagina xozirgi zamon kishilarining madaniy darajasiga etadi.

Amerikalik olim S.Xoll «rekapitulyatsiya qonunini» yani (filogenezni qisqacha takrorlashni) psixologik o'sishning bosh qonuni deb hisoblaydi. Uning fikricha, ontogenez filogenezning muhim bosqichlarini takrorlaydi. Olimning talqinicha, go'daklik hayvonlarga xos rivojlanish pallasidan boshqa narsa emas. Bolalarning esa asosiy mashg'uloti ovchilik va baliqchilik bo'lgan qadimgi kishilarning davriga aynan mos keladi. 8-12 yoshlardagi o'sish davri yovvoyilikning oxiri va tsivilizatsiyaning boshlanishidagi kamolotga tengdir. O'spirinlik esa jinsiy etilishdan (12-13 yoshdan) boshlanib etuklik davrigacha (22-25 yoshgacha) davom etib, romantizmga barobardir. S. Xollning talqinicha, bu davrlar «bo'ron va tazyiqlar», ichki va tashqi nizolar (ziddiyatlar) dan iborat bo'lib, odamda «individuallik tuyg'usi» vujudga keladi. YOsh davrlarni tabaqlashning bu turi o'z navbatida tanqidiy, mulohazalar manbai vazifasini o'taydi, chunki inson zotidagi rivojlanish bosqichlari filogenezni aynan takrorlamaydi va takrorlashi ham mumkin emas.

Biogenetik kontseptsiyaning boshqa turi nemis «konstitutsion psixologiyasi» (insonning tana tuzilishiga asoslangan nazariya) namoyondalari tomonidan ishlab chiqilgan. E. Krechmer shaxs (psixologiyasi) tipologiyasining negiziga bir qancha biologik omillarni (masalan, tana tuzilishining tipi va boshqalarni) kiritib, insonning jismoniy tipi bilan o'sishining xususiyati o'rtasida uzviy bog'liqlik mavjud, deb taxmin qiladi. E. Krechmer odamlarni ikkita katta toifaga: tsikloid (tez qo'zg'aluvchi, hist tuyg'usi o'ta beqaror) va **shizoid** (odamovi, munosabatga qiyin kirishuvchi, his-tuyg'usi cheklangan) larga ajratadi. Bu taxminini yosh davrlari xususiyatlariga ham tatbiq etib, o'smirlar **tsikloid** xususiyatli, o'spirinlar esa **shizoid** xususiyatlilagini ta'kidlaydi. Lekin insonning kamol topishida biologik shartlangan sifatlar hamisha etakchi va hal qiluvchi rol o'ynay olmaydi, chunki shaxsning individul-tipologik xususiyatlari bir-biriga aynan mos tushmaydi.

Biogenetik nazariyaning namoyondalari – amerikalik psixologlar A. Gezell va S. Xoll rivojlanishning biologik modeliga tayanib ish ko'radilar, bu jarayonda muvozanat, integratsiya va yangilanish tsikllari o'zaro almashinib turadi, degan xulosaga keladilar.

Psixologiya tarixida biologizmning eng yaqqol ko'rinishi Zigmund Freydning shaxs talqinida o'z ifodasini topgan. Uning ta'limotiga binoan shaxsning barcha xatti-harakatlari (xulqi) ongsiz biologik mayllar yoki instinktlardan kelib chiqadi, birinchi navbatda, jinsiy (seksual) maylga bog'liqdir. Bunday biologizatorlik omillari inson hulqini belgilovchi birdan-bir mezon yoki betakror turtki rolini bajara olmaydi.

Biogenetik nazariyaning qarama-qarshi ko'rinishi **sotsiogenetik** nazariyadir. Bu nazariyada shaxsda ro'y beradigan o'zgarishlarni jamiyatning strukturasi, ijtimoiylashish (sotsializatsiya) usullari, atrofidagi odamlar bilan o'zaro vositalari asosida tushuntiriladi. Ijtimoiylashish nazariyasiga ko'ra inson biologik tur sifatida tug'ulib, hayotdagi ijtimoiy shart-sharoitlarning bevosita ta'siri ostida shaxsga aylanadi.

G'arbing eng muhim nazariyalaridan biri – rollar nazariyasidir. Bu nazariyaga ko'ra jamiyat o'zining har bir a'zosiga status (haq-huquq) deb nomlangan xatti-harakatning barqaror usullari majmuasini yaratadi. Inson ijtimoiy muhitda bajarishi shart bo'lган maxsus rollar uning hulq-atvorida, boshqalar bilan munosabatida sezilarli iz qoldiradi.

AQSHda individual tajriba va bilimlarni o'zlashtirish (ko'nikish) nazariyasi keng tarqalgan. Mazkur nazariyaga binoan, shaxsning hayoti va vogelikka munosabati, ko'nikmalarni egallashi va bilimlarni o'zlashtirishi qo'zg'atuvchining barqarorligiga bog'liqdir.

K. Levin tavsiya qilgan «fazoviy zarurat maydoni» nazariyasi o'z davrida muhim ahamiyat kasb etgan. K. Levin nazariyasiga ko'ra, shaxsning hulqi (xatti-harakati) psixologik kuch vazifasini o'tovchi ishtiyoq (intilish), maqsad (niyat) bilan boshqarilib turadi, bu kuchlar fazoviy zarurat maydonining ko'lami va tayanch nuqtasiga yo'nalgan bo'ladilar.

YUqorida ifodalangan xar bir nazariya shaxsning ijtimoiy hulqini u odam xoxlashi yoki xohlamasligidan qatiy nazar mazkur muhitga moslashmog'i (ko'nikmog'i) zarur degan g'oidaga amal qiladi.

Psixologiyada psixogenetik nazariya tarafдорлари, biogenетик va sotsiogenетик omillarni kamsitmaydi, balki psixik jarayonlarning rivojlanishini birinchi darajali axamiyatga ega deb hisoblaydi.

Psixodinamika nazariyasining namoyondasi amerikalik psixolog E.Erikson insonning umrini o'ziga xos betakror xususiyatlarga ega **8** ta davrga ajratadi.

Birinchi davr - go'daklikda tashqi dunyoga ongsiz «ishonch» tuyg'usi vujudga keladi. Buning bosh sababi ota-onaning mehr-muhabbati,g'amxo'rligi va jonkuyarligidir. Agar go'dakda ishonchning negizi paydo bo'lmay, borliqqa ishonchsizlik hissi tug'ilsa, voyaga etgach ularda mahdudlik,umidsizlik vujudga kelishi mumkin.

Ikkinci davr- ilk bolalikda yarim mustaqillik va shaxsiy qadr-qimmat tuyg'usi shakllanadi yoki aksincha ularning teskarisi - uyat va shubha xissi hosil bo'ladi.Bolada mustaqillikning o'sishi unga o'z tanasini boshqarish uchun keng imkoniyat yaratib, bo'lg'usi shaxs xususiyatlaridan tartib-intizom, masuliyat,javobgarlik,xurmat tuyg'ulari tarkib topishiga zamin xozirlaydi.

Uchunchi davr – o'yin yoshi deb ataladi va unga 5-7 yoshli bolalar kiradi. Bu davrda tashabbus tuyg'usi qandaydir ishlarni amalga oshirish, bajarish mayli tarkib topadi. Mabodo boladagi hoxish-istikani ro'yobga chiqarish yo'li to'sib qo'yilsa, buning uchun u o'zini aybdor deb hisoblaydi. Mazkur davrdaavra, ya'ni guruh o'yinlarga, tengqurlari bilan muloqotga kirishish muhim ahamiyat kasb etadi: bola turli roller bajarib ko'rishiga, uning xayoloti o'sishiga imkon yaratadi. Xuddi shu davrda bolada adolat tuyg'usi, uni tushunish mayli tug'ula boshlaydi.

To'rtinchi davr – maktab yoshi boladagi asosiy o'zgarishlar: ko'zlagan maqsadiga erishish uchun intilish, uddaburonlik va tirishqoqlik bilan ajralib turadi. Uning eng muhim qadriyati omilkorlik va mahsuldarlikdan iboratdir. Bu yosh davrining salbiy jihatlari (illatlari) ham bo'lib, ular ijobjiy hislatlari etarli bo'lmasligi, ong hayotning barcha qirralarini qamrab ololmasligi, muammolarni hal qilishda aql-zakovat darajasining pastligi, bilimlarni o'zlashtirishdagi qoloqlik va hokazolardir. Xuddi shu davrda shaxsning mehnatga munosabati shakllana boshlaydi.

Beshinchi davr – o'spirinlikni betakror xislati, o'ziga xosligi, boshqa odamlardan keskin farqlanishi bilan xarakterlanadi. SHuningdek, o'spirinlik shaxs sifatida noaniqligi muayyan rolni uddalamaslik, qat`iyatsizlik singari salbiy sifatlarga ham egadir. Mazkur davrning eng muhim xususiyati «rolini kechiktirish»ning o'zgarishi hisoblanadi. U ijtimoiy hayotda bajarayotgan rollarning ko'lami kengayadi, lekin ularning barchasini jiddiy egallash imkoniyatiga ega bo'lmaydi, shuningdek, rollarda o'zini sinab ko'rish bilan cheklanadi, xolos. Erikson o'spirinlarda o'zini o'zi anglashning psixologik mexanizmlarini batafsil taxlil qiladi, unda vaqtin yangicha xis qilish, psixoseksual qiziqish, patogen (kasallik qzg'atuvchi) jarayonlarni va ularning turli ko'rinishlari namoyon bo'lishini bayon qiladi.

Oltinchi davr – yoshlik boshqa jinsga psixologik intim yaqinlashuv qobiliyati va ehtiyoji vujudga kelishi bilan ajralib turadi. Bunda ayniqsa, jinsiy mayl alohida o'r'in tutadi. Bundan tashqari, yoshlik tanholikni yoqtirish va odamovilik kabi yoqimsiz xususiyat bilan ham farqlanadi.

Ettinchi davr – etuklik davrida hayotiy faoliyatning barcha sohalarida (mehnatda, ijodiyotda, g’amxo’rlikda, pusht qoldirishda, tajriba uzatish va boshqalarda) mahsuldarlik tuyg’usi uzlusiz hamroh bo’ladi va ezgu niyatlarning amalga oshishida turki vazifasini bajaradi. SHuningdek, mazkur davrda ayrim jihatlarda turg’unlik tuyg’usi salbiy xususiyat sifatida hukm surishi ham mumkin.

Sakkizinchi davr, yani qarilik inson sifatida o’z burchini uddalay olganligidan, turmushning o’mroviligidan qanoatlanish tuyg’ulari bilan xarakterlanadi. Salbiy xususiyat sifatida esa hayot faoliyat noumidlilik, ko’ngil sovish tuyg’ularini aytish mumkin. Donolik, soflik, gunohlardan forig’ bo’lish har bir holatga shaxsiy va umumiyy nuqtai nazardan qarash bu yoshdagi odamlarga xos eng muhim jihatlardir.

Personologik nazariyaning yirik namoyondalari E. Shpranger, K. Byuller, A. Maslou va boshqalar xisoblanadilar.

E. Shpranger «O’spirinlik davri psixologiyasi» nomli asarida bu davrga 13-19 yoshli qizlarni, 14-22 yoshli yigitlarni kiritishni tavsiya qiladi. Uningcha, bu yosh davrida yuz beradigan asosiy: a) shaxsiy «Men»ni kashf qilish; b) refleksianing o’sishi; v) o’zining individuallagini anglash va shaxsiy xususiyatlarini e’tirof qilish; g) hayotiy ezgu rejalarining paydo bo’lishi; d) o’z shaxsiy turmushini ongli holda qurishga intilish va hokazolardir. 14-17 yoshlarda vujudga keladigan inqiroz o’smirlarda o’zlariga kattalarning bolalarcha munosabati doirasidan qutulish tuyg’usi paydo bo’lishidan iboratdir. 17-21 yoshlilarning yana bir xususiyati ularda tengqurlaridan «ajralish» inqirozi va tanholik istagining paydo bo’lishidir. Bu holat tarixiy shart-sharoitlardan kelib chiqadi.

Kognitivistik nazariyaning asoschilari qatoriga J. Piaje, Dj. Kelli va boshqalarni kiritish mumkin.

J. Piajening aql-idrok nazariyasi, aql-idrok funktsiyalari hamda uning davrlari haqidagi ta’limotni o’z ichiga oladi. Aql-idrokning asosiy funktsiyalari uyushqoqlik va moslashish, ko’nikishdan iborat bo’lib, aql-idrokning funktsional invariantligi deb yuritiladi.

Kognitiv - genetik nazariyachilar L.Kolberg, D.Bromley, A.Vallon, G.Grimm va boshqalar xisoblanadilar.

A.Vallon (frantsuz) nuqtai - nazaricha yosh davrlarini quyidagicha bosqichlarga ajratadi:

1. homilaning ona qornidagi davri;
2. impulsiv harakat davri – tug’ilgandan 6 oylikkacha;
3. emitsional (his-tuyg’u) davri – 6 oylikdan 1 yoshgacha;
4. sensomotor (idrok bilan harakatning uyg’unlashuvi) davri – 1 yoshdan 3 yoshgacha;
5. personologizm (shaxsga aylanish) davri – 3 yoshdan 5 yoshgacha;
6. farqlash davri – 6 yoshdan 11 yoshgacha;
7. jinsiy etilish va o’spirinlik davri – 12 yoshdan 18 yoshgacha;

Yana bir frantsiyalik yirik psixolog R. Zazzo o’z vatanidagi ta’lim va tarbiya sistemasining printsiplaridan kelib chiqqan holda, mazkur muammoga boshqacharoq yondashib va uni boshqacha talqin etib, insonning ulg’ayib borishini quyidagi bosqichlarga ajratishni tavsiya qiladi:

1. Birinchi bosqich – bolaning tug'ilganidan 3 yoshgacha davri.
2. Ikkinci bosqich – 3 yoshidan 6 yoshigacha.
3. Uchinchi bosqich – 6 yoshidan 9 yoshigacha.
4. To'rtinchi bosqich – 9 yoshidan 12 yoshigacha.
5. Besinchi bosqich – 12 yoshidan 15 yoshigacha.
6. Oltinchi bosqich – 15 yoshidan 18 yoshigacha.

Yosh davrlariga ajratishidan ko'rinaladi, R. Zazzo inson rivojlanishining bosqichlariga shaxs sifatida tarkib topish, takomillashuv nazariyasidan kelib chiqib yondoshgani shaxs shakllanishi pallasining yuqori nuqtasi, ya`ni ijtimoiylashuvi bilan chekhanishga olib kelgan. SHuning uchun uning ta`limoti insonning tug'ilganidan umrining oxirigacha psixologik takomillashuvi, o'zgarishi, rivojlanishi xususiyatlari va qonuniyatlari to'g'risida mulohaza yuritish imkonini bermaydi.

Sotsiologik yondashuv shaxsning madaniy-tarixiy muhit ta'sirida kamol topishini tan oladi. Ulardan farqli *individual-psixologik* yondashuv shaxsning rivojlanishiga uning tana tuzilishi yoki konstitutsional jihatlari va asab tizimi tipining ta'siri borligini ta'kidlab, o'rganadi.

Shaxsni o'rganishning *ijtimoiy-psixologik yondashuvi* uni ijtimoiylashuning bevosita mahsuli sifatida qarab, uning ijtimoiy psixologik tizimini bevosita o'rabi turgan ijtimoiy muhit ta'sirida o'rganadi. Bu borada bir qancha olimlarning o'ziga xos nuqtai nazarlari ham mavjud. Masalan, K.K. Platonov shaxs tizimida to'rtta asosiy jabhani ajaratadi:

1) *SHaxsnинг yo'nalganligи va munosabatlari tizimi*: uning mayllari, xohish-istiklari, qiziqishlari, layoqati, ideallari, dunyoqarashi, e'tiqodi kabilarni o'z ichiga oladi. Bu tizimdagи xususiyatlar ijtimoiy xarakterga ega bo'lib, ular insonning jamiyatda yashashi, undan oladigan tarbiya shakllari, mafkuraviy muhit asosida shakllanadi.

2) *SHaxsnинг individual ijtimoiy tajribasi*: bu jabhadagi sifatlar inson hayoti mobaynida orttiradigan bilimlari, malaka va ko'nikmalari asosida namoyon bo'ladi. Bu sifatlar ijtimoiy xarakterli bo'lib, ko'proq ta'lim jarayonida shakllanadi.

3) *Inson psixik jarayonlarining individual xususiyatlari*: xotira, idrok, sezgilar, tafakkur, qobiliyatlar kabi bir qarashda tug'ma omillarga bog'liq xususiyatlar inson umri davomida takomillashishi va uning boshqa ijtimoiy sifatlari ta'sirida individual o'ziga xoslik kasb etishi mumkin.

4) *Biologik xususiyatlarga bog'liq shaxs sifatlari*: bunga shaxsning tipologik, yoshiga oid, jinsiy xususiyatlari kiradi va u ko'pincha bioijtimoiy omillar sifatida qaraladi.

A.N. Suxov va A.A. Derkachlarning ta'kidlashlarida shaxsning ijtimoiy psixologik xususiyatlari haqida gap ketganda, avvalo uning fikrlash tarzi, qadriyatlari tizimi, motivatsion belgilari (yo'nalganlik, hayotiy maqsadlar, rejalar, hayot tarzi), kognitiv sifatlar (ijtimoiy tasavvurlar, hayot manzaralari to'g'risidagi fikrlari), "Men"-kontseptsiysi, "Men"-obrazi, o'ziga munosabati, o'ziga nisbatan bahosi; o'zini nazorat qilish lokusi, psixologik bilimdonligi, rolli maqomlari, ijtimoiy his-tuyog'ulari va boshqalar nazarda tutiladi.

Ijtimoiy psixologiya uchun har bir shaxsning qay tarzda o'z hayot yo'lini belgilashi va jamiyatda shaxslararo munosabatlardagi *maqomi – statusi* muhimdir. Bu borada uni o'rabi turgan katta – *makro ijtimoiy borliq* hamda *mikro – kichik ijtimoiy borliqning* ta'sirlarini o'rganish katta ahamiyatga ega.

SHaxsga ta'sir etuvchi **makro muhit** – bu inson umri o'tadigan va hayoti mobaynida unga ta'sir etadigan tabiiy, ijtimoiy va ijtimoiy shart-sharoitlar majmuidir. Ya'ni, bizni o'rab turgan jami borliq o'zining o'zgaruvchan va nisbatan barqaror shart-sharoitlari bilan bizning dunyoqarashimiz, fikrlash tarzimiz, qadriyatlarimizning shaklanishiga ta'sir ko'rsatadi. Masalan, qadimiy shaharlar – Samarqand, Xiva, Buxoro kabilar o'zlarining tarixiy obidalari bilan ma'naviy qadriyatlarimiz tizimini belgilasa, Farg'ona vodiysi, Qashqadaryo vohasi, betakror Boysun tabiatni estetik didlarni tarbiyalash bilan birgalikda shaxsning olam va odam, hayot ma'nosi va qadriyatlari kabi tushunchalarini kengaytiradi, uning ijtimoiy tasavvurlarini takomillashtiradi.

Makro muhit hakida gap ketganda, olimlar uning global mifyosdagi hamda xududiy ta'sirlarini farqlaydilar. Bugunni ochiq axborot makonida barchamiz butun dunyoda yuz berayotgan voqeа va xodisalarni idrok etish va ularga nisbatan muayyan pozitsiyamizni shakllantirishga muvaffaq bo'lgan bo'lsak, bu global makro muhit ta'sirlari maydonini tashkil etadi. Bunda OAV orqali berilayotgan ma'lumotlar, teleseriallar, reklama roliklari, turli shou-ko'rsatuvarlar, kompyuter o'yinlarining roli sezilarlidir. Ayniqsa, yoshlarning didi, talablari, orzu-havaslari, modaga munosabati paydo bo'lishida shu kabi global ta'sirlarning sezilarli ekanligiga barchamiz guvohmiz.

Xududiy jabhada makro muhitning ta'siri quyidagi omillar orqali kechadi:

- **demografik omil** – bu aholi zichligi, tug'ilish va o'limning dinamikasi, umr davomiyligi, migratsiya jarayonlari va b.q.; masalan, aholi reproduktiv madaniyatining o'zgarib borayotganligi, oilada tug'ilayotgan bolalar soning kamayishi, odamlarning sog'lom turmush tarzi to'g'risidagitasavvurlarining o'zgarib borayotganligi, zamonaviy tibbiyotning inson umrini uzaytirish borasida qo'lga kiritayotgan olmashumul yutuqlari, tabiiy, har bir alohida olingen shaxs psixikasida muayyan davr va xududga nisbatan o'zgarishlarnisodir etishi tabiiydir;
- **tabiiy-ekologik omil** – yashash joyining qaerda va qancha territoriyada joylashganligi, havo harorati, foydali qazilmalarning mavjudligi, ekologik vaziyat va shu kabilar; masalan, Yer kurasida global harorat isishi jarayoni ko'plab xududlarda istiqomat qiladigan odamlarning turmush tarziga o'zgartirishlar kiritishi bilan birgalikda ularning dunyoqarashini, hayotiy pozitsiyalarini ham o'zgartiradi, albatta;
- **ilmiy-texnika omili** – xududdagi fan va texnologiyalarning qay darajada rivojlanganligi, kompyuterlashtirish darjasasi, texnika taraqqiyoti va boshqalar ayniqsa, bolalar psixologiyaga bevosita ta'sir ko'rsatmoqda; bugun olimlar, psixologlar yosh bolalarni qanday qilib, kompyuterdan, Internet tarmog'idan biroz bo'lsa-da, chalg'itish, ular qiziqishlar olamiga boshqa texnik vositalarni taqdim etishni o'ylamoqdalar, chunki doimiy texnika bilan muloqot insoniy munosabatlarning qadriyat sifatida chekinishiga olib kelishi, o'z navbatida shaxs tizimida ayrim salbiy xususiyatlarni shakllantirishi mumkin;
- **iqtisodiy omil** – axoli daromadlari manbai, inflyatsiya darajasi, ishsizlik va aholining ish bilan bandligi va xokazolar ham shaxsga ta'sir etuvchi muhim omillar bo'lib, aholi daromad manbalarining ortib borayotganligi shaxsning o'z imkoniyatlari, professional qobiliyatlar darajasining yuqori bo'lishini taqozo etadi;
- **siyosiy-huquqiy omillar** – mamlakatdagi siyosiy tuzilma, rasmiy mafkuraning bor yoki yo'qligi, qonunchilik tizimining mukammalligi, inson huquqlarining himoya

qilinishi darajasi va boshqalar ham shaxsga ta'sir etadi. Masalan, O'zbekistonda xotin-qizlarning davlat va jamiyat qurilishidagi rolini kuchaytirishga qaratilgan qator Prezident Farmonlari va Vazirlar Mahkamasining qarorlari ularning saylovlardagi ishtirokini, davlat organlariiga qaror chiqaruvchi organlar faoliyatidagi ishtiroklari uchun ravon yo'llarni ochib berdi. SHu bois bugun mamlkat Parlamentining quyi Palatasida ham, yuqori palatasi – Senatda ham xotin-qizlarning ulushi sezilarli darajada oshdi;

ijtimoiy-madaniy omillar – xalq ma'naviyati, madaniyati, an'analarini, udumlarining saqlanganligi, denga munosabatning ijobiy tomonga o'zgarganligi, buyuk shaharlar yubileylarining, turli xalqaro va respublika miqyosidagi san'at anjumanlarining muntazam o'tkazilib kelinayotganligi, shahar va qishloqlar qiyofasining keskin o'zgarib, obodoshlashgani, yoshlar Forumlari, sport musobahalari, Universiada, Brkamol avlod sport musobahalari kabilar milliy psixologiyada ham shaxs psixologiyasida ham faqat ijobiy fazilatlarning namoyon bo'lishiga real zamin yaratdi.

SHaxsnинг mikro muhiti – bu umumi ijtimoiy muhitning bir bo'lagi bo'lib, u bu muhitni tashkil etuvchilar bilan kundalik ijtimoiy faoliyatida bevosita muloqotda bo'lish imkoniyatiga egadir. Ushbu muhitudagi ijtimoiy munosabatlar shaxslararo o'zaro hamkorlik, hamjihatlik, bирgalikdagi faoliyatni amalga oshirish tarzida kechadi. Bu munosabatlarda bevosita makro muhit ta'sirlari bo'lishi, unda har bir shaxsning yosh, jins, guruhiy xususiyatlari, qaysi oilada tarbiyalanganligi kabi jihatlar o'z in'ikosini topadi. Ya'ni, mikro muhit har bir alohida xolatlarda shaxsni o'rab turgan ijtimoiy guruh bo'lib, uning har bir vaziyatdagi o'rni, yo'nalganligi, maqsad-muddaolari bo'lishi tabiiydir.

SHaxsnинг ijtimoiy psixologik tipologiyasi. SHaxsni ijtimoiy psixologik nuqtai nazardan tiplarga bo'lish ko'p xolatlarda uning odamlar bilan o'rnatadigan munosabatlari xarakteriga qarab amalga oshiriladi. Amerikalik psixolog A. *Maslow* bir inson boshqasiga xuddi o'ziga munosabatda bo'lganday qarasa, u ikkinchi boshqalarga kibr bilan, xuddi buyum yoki xodisaga qaraganday munosabat bildirishi mumkin, deb odamlar o'rtasidagi farqning mufarrarligini isbotlagan edi. E. SHostrom *Masluo* o'z fikrini rivojlantirib, birinchisini aktualizator, ikkinchisini manipulyator, ya'ni, o'z manfaatiga bo'ysundiruvchi, boshqaruvchi deb ta'riflaydi. SHu kabi turli insoniy munosabatlarni tahlil etgan olimlar shaxsning tipologiyasiga o'zgacha qaraydigan.

E. Shpranger taklif etgan tipologiyada shaxs turli hayotiy qadriyatlar doirasida ta'riflanadi: iqtisodiy, estetik, ijtimoiy, siyosiy, diniy. Amerikalik Xorni esa shaxsni boshqalar bilan muloqot ob'ekti sifatida qarab, uning uch toifasini farqlaydi:

"Yopishqoq, kirishimli shaxs" – unda o'zgalar bilan muloqotga kirishish ehtiyoji o'ta kuchli, kimni ko'rsa u bilan do'stlashib ketgisi, o'zini yoqtirtirgisi, suyukli bo'lishni xohlaydi va unga doimoy e'tiborli bo'lishlari, g'amho'rlik ko'rsatishlarini istaydi, uning shiori: "U meni sevishi va menga g'amho'rlik ko'rsatishi kerak".

"Agressiv tip" – o'zgalar bilan muloqotdan hamisha manfaatdor bo'lish kerak, boshqalardan doimo ustun bo'lishlari kerak, aks xolda janjallashishdan ham toymaydi, uning shiori: "Menga bu odamdan foyda, naf chiqarmikin?".

"Begonalashgan tip" – uchun o'zgillardan uzoqroq yurish ma'qul, chunki shaxslararo muloqot, ularning fikricha hech qachon yaxshilikka olib kelmaydi,

guruhlarda ishlashdan ko'ra yolg'iz ishlashni, o'qishni afzal ko'radi. "Meni tinch qo'yisharmikin?" uning doimiy shiori.

Norakidze inson xulqi va unga undovchi ichki motivlarga ko'ra shaxsning quyidagi turlarini farqlaydi:

Barkamol shaxs – unda ichki tuyg'ular, motivlar, istaklar bilan tashqi xattiharakatda ziddiyat bo'lmaydi, dilidagi bilan tilidagi mos, aytganini qiladigan, lavzli, vijlonli, imon-e'tiqodli inson. Butun aqliy salohiyati va vijdoni bilan o'zgalarning manfaatini o'ylaydigan va shu bilan birgalikda hamisha o'z ustida ishlaydigan inson barkamollik yo'lida bo'ladi.

Ziddiyatli, nizoli shaxs – xulqi bilan motivlari o'rtasida doimo qarama-qarshilik kuzatiladi, u odamlardan ko'proq kamchilik qidirib, o'zidagi nuqsonlarni tan olmaydi.

Impulsiv shaxs – hamisha hissyotlarga beriladi, o'ylamay gapirish, birovlarini dilini og'ritib qo'yish keyin afsuslanish unga xosdir. Ko'pchilik orasida ularni fikridan ko'ra o'zini ma'qullatishni istaydi, lekin hamisha ham o'z xukmini o'tkazolmay, odamlardan xafa bo'lib yuradi.

Bu kabi shaxslar oramizda ko'p, lekin har bir shaxsning kimligi, qanday inson ekanligi albatta vaziyatga, tarbiyalangan ijtimoiy muhitiga, bajarayotgan amallarining, xizmat burchlarining qanday vijdonan ado etilayotganligiga bog'liq. Muhimi – har bir shaxs jamiyatda o'zining munosib o'rnini topish, o'zgalar manfaatini o'z manfaatlari doirasida tasavvur eta olishi kerak.

SHaxsning ijtimoiylashuvi: *Ijtimoiylashuv* yoki sotsializatsiya tushunchasi soif ijtimoiy-psixologik va sotsiologik kategoriya bo'lib, bu shaxsning uni o'rab turgan tashqi ijtimoiy muhit ta'sirlariga berilishi, uning norma va qoidalarini o'zlashtirishga moyilligi, o'zlashtirganlik darajasini ifodalovchi jarayondir. Bu tushunchaning umumiy ma'nosida insonning tug'ilib, o'zini bevosita o'rab turgan tashqi muhit ta'sirida ulg'ayishi, shu jamiyat, shu atrof-muhit qurshovida tarbiyalanishi yotadi. Oila muhiti har bir shaxs uchun ana shunday *birlamchi, dastlabki* ijtimoiylashuv o'chog'i, maskani hisoblanadi. Ijtimoiylashuvning ikkilamchi maskanlari ham mavjudki, unga barcha bosqichdag'i ta'lim muassasalari, Mehribonlik uylari, maxsus internatlar hamda harbiy bilim yurtlari kiradi. Chunki u yerda nisbatan uzoq vaqt mobaynida bola tarbiyalandi, o'sha yerning normalari, qadriyatlari va talablari ta'sirida dunyoqarashi shakllanadi, shaxs bo'lib yetiladi. Agar dastlabki yoki ikkilamchi sotsializatsiyadan chekinish, undan mahrum bo'lish yoki xulqning tashqi salbiy ta'sirotlar natijasida deviant shaklga kelishi qayd etilsa, unda ilmiy tilda aytganda, **resotsializatsiya** deb nomlangan jarayon nazarda tutiladi.

SHunday qilib, tor ma'noda ijtimoiylashuv shaxsning ijtimoiy muhitga kirib borishi, unda singib ketishi, tashqi ijtimoiy muhit normalarini qabul qilib ularga rioya qilishi yoki qilmasligini tushuntiruvchi jarayondir. "Ijtimoiylashuv" tushunchasi ma'no jihatdan yaqin bo'lган ikki xil tushuncha bilan bog'liq: "tarbiya" va "moslashuv". Ijtimoiylashuv *tarbiya* jarayonidan ancha kengroqdir, chunki uning ma'no-mazmunida har doim ham qolipga solib bo'lmaydigan, har doim ham shaxs tomonidan angilanmaydigan xolatlar ham mavjud bo'ladi. *Moslashuv* esa ijtimoiylashuvning bir tarkibiy qismi, uning mexanizmi sifatida qaralishi mumkin. **Ijtimoiy psixologik moslashuv**, ya'ni, shaxsning ijtimoiy munosabatlarga ko'nikishi va moslashishi orqali

orttirgan tajribasi umumiy ijtimoiylashuvning bir ko'rinishidir.

Ijtimoiylashuv jarayonida inson jamiyatdagi ijtimoiy normalarni o'zlashtiradi, turli rollarni bajarishga o'rganadi, jamoatchilik sharoitida o'zini tutish ko'nikmalarini hosil qiladi. SHaxsning ijtimoiylashuvi shu ma'noda uning ijtimoiy borliqni bilishiga, anglashiga asoslanadi.

Ijtimoiylashuv manbalariga quyidagilar kirdi:

- 1) *bolalik davrida orttirilgan tajriba* – bu jarayon psixik funktsiyalarning shakllanishi va dastlabki ijtimoiy xulq normalarining namoyon bo'lishi bilan parallel ravishda kechadi;
- 2) *ijtimoiy institutlar* – ta'lim va tarbiya tizimi; oiladan boshlab, to'oliy o'quv yurtlari va undan yuqori pog'onalardagi ta'lim olishga imkon beruvchi maskanlar, mehnat jamoalari shular jumlasidandir;
- 3) *muloqot va hamkorlikdagi faoliyat jarayonidagi odamlarning ta'siri*. Bu o'rinda ham rasmiy, ham norasmiy sharoitlarda odamlarning bir-birlari bilan muloqoti, muomala maromlari nazarda tutiladi.

Inson hayoti mobaynida bajaridigan har bir rolida uni o'rab trugan ijtimoiy borliqning normalari, qoidalari, xulq-atvor mezonlari o'z aksini topgan bo'ladi. Har bir odam hayoti mobaynida xaddan ziyod ko'p turli rollarni bajaradiki, ularning barchasi uning ijtimoiylashuv tajribasida munosib iz qoldiradi. SHuning uchun ushbu jarayonda har bir odam o'zining jamiyatda o'rnini topishga intiladi va samarasiga ko'ra u yoki bu mavqega erishadi. Aslini olganda ijtimoiylashuvning har bir bosqichida shaxs o'zining "Men"ini tobora anglab, unga kerakli tuzatishlar kiritib boradi. Agar shaxsiy tajriba ijobiy bo'lib, odam ko'rgan-kechirganlaridan yaxshi va to'g'ri xulosalar chiqarib, to'g'ri turmush tarzini shakllantira olsa, uning odamlar orasida obro'si yuqori, aks xolda shaxs degradatsiyasi, xulqdagi deprivatsiyalar haqida xulosa chiqariladi.

Demokratik jamiyatda ijtimoiylashuvning ma'nosi odamning o'z "Men"ini to'la ifoda eta olishi, o'z iqtidori, salohiyati va imkoniyatlarini o'z kamoli va odamlar manfaatiga bo'ysundira olishi bilan ifodalanadi. Totalitar tuzum esa aksincha, odamlarda mazoxizm (tobelikka ko'nikish, ahloqan past ketishliklar), sadizm (o'zgalar ustidan cheksiz xukmron bo'lismga intilish, odamlarni qo'rqtish, ular ustidan zo'ravonlikni namoyon etish), destruktsiya (o'z nochorligidan qutulish uchun butun dunyoga zarar keladigan harakatlarridan jirkanmaslik), konformizm (o'z "Men"idan voz kechib bo'lsa ham o'zgalar xukmiga itoat etishga o'rganib qolish) kabi xolatlarni keltirib chiqaradi.

Demokratik o'zgarishlar, inson manfaatlarining hurmat qilinishi qanday ijobiy xolatlarga olib kelishini biz mustaqil O'zbekistonning demokratik islohotlari va ularning yurtimizda yashayotgan, tug'ilib kamol topayotgan insonlar taqdirida ham ko'rib turibmiz. Mustaqillik yillarda bizning yurtdoshlarimizning nafaqat dunyoqarashi, fikrlash tarzi va mental qobiliyatları, balki o'zlariga, o'zgalarga, O'zbekistoonni o'zining yagona Vatani deb tan olgan minglab qardosh millat vakillariga ham munosabatlari yaxshi tomonga o'zgardi, barcha bunyodkorlik, Vatan taraqqiyoti, yurt tinchligi va xalq farovonligi yo'lida bir tan, bir jon bo'lib, harakat qilishga o'rgandi. SHuning uchun ham o'sib kelayotgan yosh avlod katta avloddan ko'ra aqli, dono, ilmga chanqoq, demokratik o'zgarishlarga ko'nikkanroq bo'lib

voyaga yetmoqda. CHunki ularning ijtimoiylashuvi uchun yurtimizda barcha shart-sharoitlar yaratilgan.

Shaxsning faolligi. Shaxs o'zining faoliyati tufayli tevarak -atrofdagi olam bilan faol munosabatda bo'ladi. Shaxsning faolligi deganda odamning atrofdagi tashqi muhitga ko'rsatadigan ta'siri tushuniladi. Tashqi muhit bilan faqat odamlar emas, hayvonlar ham o'zaro munosabatda bo'ladilar, lekin hayvonlar tashqi muhitga moslashib yashaydilar, odamlar esa tashqi muhitga moslashib qolmasdan, uni o'zgartirishga ham qodirlar.

Shaxsning faolligi uning turli qiziqishlarida, ehtiyojlarida namoyon bo'ladi.

Jamiyat bilan doimiy munosabatni ushlab turuvchi, o'z-o'zini anglab, har bir harakatini muvofiqlashtiruvchi Shaxsga xos bo'lgan eng muhim va umumiyligida — bu uning **faolligidir**.

Faollik (lotincha «actus» — harakat, «activus» — faol so'zlaridan kelib chiqqan tushuncha) Shaxsning hayotdagি barcha xatti-harakatlarini namoyon etishini tushuntiruvchi kategoriyaadir. Fanda inson faolligining asosan ikki turi farqlanadi:

A. Tashqi faollik — bu tashqaridan va o'z ichki istak-xohishlarimiz ta'sirida bevosita ko'rish, qayd qilish mumkin bo'lgan harakatlarimiz, mushaklarimizning harakatlari orqali namoyon bo'ladigan faollik.

B. Ichki faollik — bu bir tomondan u yoki bu faoliyatni bajarish mobaynidagi fiziologik jarayonlar (moddalar almashinushi, qon aylanish, nafas olish, bosim o'zgarishlari) hamda, ikkinchi tomondan, bevosita psixik jarayonlar, ya'ni aslida ko'rinxaydigan, lekin faoliyat kechishiga ta'sir ko'rsatuvchi omillarni o'z ichiga oladi.

Misol tariqasida hayotdan shunday manzarani tasavvur qilaylik: uzoq ayriliqdan so'ng ona o'z farzandi visoliga yetdi. Tashqi faollikni biz onaning bolasiga intilishi, uni quchoqlashi, yuzlarini siylashi, ko'zlaridan oqqan sevinch yoshlarida ko'rsak, ichki faollik — o'sha ko'z yoshlarini keltirib chiqargan psixofiziologik jarayonlar, sog'inch xissi, ayrılıq azobi singari bir qarashda ko'z bilan ilg'ab bo'lmaydigan emotsiyonal holatlarda namoyon bo'ladi. Har ikkala faollik ham Shaxsiy tajriba va rivojlanishning asosini tashkil etadi. Bir qarashda har bir konkret Shaxsga va uning ehtiyojlariga bog'liq bo'lib tuyulgan bunday faollik turlari aslida ijtimoiy xarakterga ega bo'lib, Shaxsning jamiyat bilan bo'ladigan murakkab va o'zaro munosabatlarining oqibati hisoblanadi.

Shaxs aynan turli faolliklar jarayonida shakllanadi, o'zligini namoyon qiladi, inson faoliyati ongli ravishda boshqariladigan faol jarayondir. Inson faolligini mujassamlashtiruvchi harakatlar jarayoni **faoliyat** deb yuritiladi.

- **Faoliyat** — inson ongi va tafakkuri bilan boshqariladigan, undagi turli-tuman ehtiyojlardan kelib chiqadigan, hamda tashqi olamni va o'z-o'zini o'zgartirish va takomillashtirishga qaratilgan o'ziga xos faollik shaklidir.

Bu — yosh bolaning real predmetlar mohiyatini o'z tasavvurlari doirasida bilishga qaratilgan o'yin faoliyati, bu — moddiy ne'matlar yaratishga qaratilgan mehnat faoliyati, bu — yangi kashfiyotlar ochishga qaratilgan ilmiy-tadqiqotchilik faoliyati, bu — rekordlarni yangilashga qaratilgan sportchining faoliyatidir.

Shaxs o'zining faoliyati tufayli tevarak -atrofdagi olam bilan faol munosabatda bo'ladi. Shaxsning faolligi deganda odamning atrofdagi tashqi muhitga ko'rsatadigan ta'siri tushuniladi. Tashqi muhit bilan faqat odamlar emas, hayvonlar ham o'zaro munosabatda bo'ladilar. Lekin hayvonlar tashqi muhitga moslashib yashaydilar, odamlar esa tashqi

muhitga faqat moslashib qolmasdan, uni o'zgartirishga ham qodirlar. Shaxsning faolligi uning turli qiziqishlarida, ehtiyojlarida namoyon bo'ladi.

XX asr bosqlarida yashagan avstriyalik psixiatr Z.Freyd Shaxs faolligini quyidagicha tushuntiradi: "Odam o'zining avlodlaridan nasliy yo'l bilan o'tgan instinktiv mayllarning namoyon bo'lishi tufayli faoldir. Instinktiv mayllar asosan jinsiy mayllar shaklida namoyon bo'ladi". Freyd Shaxs faolligini jinsiy mayllar bilan bog'laydi. Shaxsning faolligini hozirgi zamon ilmiy psixologiyasi to'g'ri hal qilib beradi. Ularning fikricha, inson Shaxsiy faolligining asosiy manbai uning ehtiyojlaridadir. Odamning ehtiyojlari faollik ko'rsatishga undaydi.

EHTIYOJ - Shaxs faolligining manbai sifatida namoyon bo'ladigan va uning aniq yashash sharoitiga bog'liqligini ifodalovchi holatdir. Ehtiyojlar paydo bo'lishiga ko'ra, biologik (tabiiy) va ma'naviy (ijtimoiy) ehtiyojlarga bo'linadi:

Tabiiy ehtiyojlar — bu — fiziologik ehtiyojlar(tashnalikni qondirish, ovqatlanish, uyqu), jinsiy, moslashuv ehtiyojlari.

Ijtimoiy ehtiyojlar — bu — muloqotga kirishish, mehnat qilish, blim olish, estetik, ahloqiy va ma'naviy-ma'rifiy ehtiyojlar.

Ehtiyojlarni biologik hamda ijtimoiy turlarga bo'lganimiz bilan shu narsani unutmasligimiz lozimki, Shaxsdagi har qanday ehtiyojlar ham ijtimoiylashgan bo'ladi, ya'ni, ular o'sha jamiyat va muhitdagi qadriyatlar, madaniy normalar va insonlararo munosabatlar xarakteriga bog'liq bo'ladi.

Masalan, eng tabiiy va tushunarli hisoblangan bizning yemishga-ovqatga bo'lgan ehtiyojimizni olsak, u ham konkret muhitga qarab turlicha harakatlarni keltirib chiqaradi. Yana misol uchun, to'y marosimlari yoki juda to'kin dasturxon atrofida o'tirgan odam nima uchun shunchalik ko'p ovqat iste'mol qilib yuborganini bilmay qoladi. Agar bu tabiat qo'yni yoki paxta dalasidagi xashar bo'lsa-chi, bir burda issiq non ham butun tanaga rohat baxsh etuvchi malham bo'lib, ochlikni bilintirmaydi.

Faoliyatning va uni tashkil etuvchi predmetli harakatlarning aynan *nimalarga* yo'naltirilganiga qarab, avvalo tashqi va ichki faoliyat farqlanadi.

- **Tashqi faoliyat** - Shaxsni o'rabi turgan tashqi muhit va undagi narsa va hodisalarini o'zgartirishga qaratilgan faoliyat bo'lsa,
- **ichki faoliyat** - birinchi navbatda aqliy faoliyat bo'lib, u sof psixologik jarayonlarning kechishidan kelib chiqadi. Kelib chiqishi nuqtai nazaridan ichki-aqliy, psixik faoliyat tashqi predmetli faoliyatdan kelib chiqadi. Dastlab predmetli tashqi faoliyat ro'y beradi, tajriba orttirib borilgan sari, sekin-asta bu harakatlar ichki aqliy jarayonlarga aylanib boradi. Buni nutq faoliyati misolida oladigan bo'lsak, bola dastlabki so'zlarni qattiq tovush bilan tashqi nutqida ifoda etadi, keyinchalik ichida o'zicha gapirishga o'rganib, o'ylaydigan, mulohaza yuritadigan, o'z oldiga maqsad va rejalar qo'yadigan bo'lib boradi.

Faoliyat jarayonida barcha harakatlar ham ichki-psixologik, ham tashqi-muvofiqlik nuqtai nazaridan ong tomonidan boshqarilib boradi. Har qanday faoliyat tarkibida ham aqliy, ham jismoniy-motor harakatlar mujassam bo'ladi.

Agar o'ylanayotgan odamni ziyraklik bilan kuzatsangiz, undagi yetakchi faoliyat aqliy bo'lgani bilan uning peshonalari, ko'zları, xattoki, tana va qo'l harakatlari juda muhim va jiddiy fikr xususida bir to'xtamga kelolmayotganidan, yoki yangi fikrni topib,

undan mammuniyat his qilayotganligidan darak beradi.

Yuqorida ta'kidlaganimizdek, har qanday faoliyat ham tashqi harakatlar asosida shakllanadi va motor komponentlardan iborat bo'lishi mumkin.

Agar tashqi faoliyat asosida psixik jarayonlarga o'tish ro'y bergan bo'lsa, bunday jarayonni psixologiyada **interiorizatsiya** deb ataladi, aksincha, aqlda shakllangan g'oyalarni bevosita tashqi harakatlarda yoki tashqi faoliyatga ko'chirilishi **eksteriorizatsiya** deb yuritiladi.

Faoliyat turlari yana ongning bevosita ishtiroki darajasiga ko'ra ham farqlanadi. Masalan, shunday bo'lishi mumkinki, ayrim harakatlar boshida har bir elementni jiddiy ravishda, alohida-alohida bajarishni va bunga butun diqqat va ongning yo'nalishini talab qiladi. Lekin vaqt o'tgach, bora-bora unda ongning ishtiroki kamayib, ko'pgina qismlar avtomatlashib boradi. Bu oddiy tilga o'girilganda, malaka hosil bo'ldi deyiladi. Masalan, har birimiz shu tarzda xat yozishga o'rganganmiz. Agar malakalarimiz qat'iy tarzda bizdagi bilimlarga tayansa, faoliyatning maqsadi va talablariga ko'ra harakatlarni muvaffaqiyatli bajarishni ta'minlasa, biz buni **ko'nikmalar** deb ataymiz. *Ko'nikmalar* — doimo bizdagi aniq bilimlarga tayanadi. Ko'nikma va malakalar o'zaro bog'liq bo'ladi.

Faoliyatni klassifikatsiya qilish va turlarga bo'lishning yana bir keng tarqalgan usuli — bu barcha insonlarga xos bo'lган asosiy faollik turlari bo'yicha tabaqaqlashdir.

Muloqot — Shaxs individual rivojlanishi jarayonida namoyon bo'ladigan birlamchi faoliyat turlaridan biri. Bu faoliyat insondagi kuchli ehtiyojlardan biri — inson bo'lish, odamlarga o'xshab gapirish, ularni tushunish, sevish, o'zaro munosabatlarni muvofiqlashtirishga qaratilgan ehtiyojlaridan kelib chiqadi. Shaxs o'z taraqqiyotini aynan shu faoliyat turini egallashdan boshlaydi va nutqi orqali (verbal) va nutqsiz vositalar (noverbal) yordamida boshqa faoliyat turlarini mukammal egallahga zamin yaratadi.

O'yin — shunday faoliyat turiki, u bevosita biror moddiy yoki ma'naviy ne'matlar yaratishni nazarda tutmaydi, lekin uning jarayonida jamiyatdagi murakkab va xilma-xil faoliyat normalari, harakatlarning simvolik andozalari bola tomonidan o'zlashtiriladi. Bola toki o'ynamaguncha, kattalar xatti-harakatlarining ma'no va mohiyatini anglab yetolmaydi.

O'qish faoliyati ham Shaxs kamolotida katta rol o'ynaydi va ma'no kasb etadi. Bu shunday faollikki, uning jarayonida bilimlar, malaka va turli ko'nikmalar o'zlashtiriladi.

Mehnat qilish ham eng tabiiy ehtiyojlarga asoslangan faoliyat bo'lib, uning maqsadi albatta biror moddiy yoki ma'naviy ne'matlarni yaratish, jamiyat taraqqiyotiga hissa qo'shishdir.

Muayyan bir xarakatlar motor (harakat), sensor (sezgi) va markaziy qismlardan tashkil topgan bo'ladi. Ish-xarakatni amalga oshirishda bajaradigan vazifalariga ko'ra, ularni **ijro etuvchi, nazorat qiluvchi va boshqaruvchi qismlar** deb atash mumkin.

Bajariladigan harakatning ma'lum tomonlari dastavval to'la anglab boshqarishni talab qilinadi, undan keyin ish-xarakatning bajarilishida ongning ishtiroki kamayib boradi. Odam bajaradigan harakatlarning maqsadga muvofiq amalga oshirilishi va avtomatlashuvi **malaka** deb ataladi.

Ish-harakatning qisman avtomatlashuvi tufayli quyidagi o'zgarishlar kuzatiladi:

1. Harakatlarni ijro qilish usullarining o'zgarishi. Avval har biri alohida-alohida bajarilgan harakatlar - bitta yaxlit aktga aylanadi. Masalan: mashina haydashni o'rganayotgan haydovchi, yozishni o'rganayotgan bola.

2. Ishni bajarishda sensor, ya'ni hissiy nazorat usullarining o'zgarishi. Ishni bajarish ustidan qilinadigan ko'rish yoki eshitish nazorati ko'p jihatdan muskul (kinestezik) nazorat bilan almashinadi. Masalan: kompyuter operatorining matnni yozishi, haydovchining motor ovozidagi o`zgarishni farqlay olishi.

3. Ish-harakatni boshqaruvchi usullarning o'zgarishi. Diqqat ish-harakat usullarini idrok etishdan ozod bo'ladi va asosan ish-harakat natijalarni idrok qilishga qaratiladi. Ayrim hisoblash, qarorga kelish va aqliy operatsiyalar tez va "intuitiv" tarzda bajariladi.

Biror faoliyatni amalga oshirish uchun mavjud bilimlardan va malakalardan foydalana olish **ko'nikma** deb ataladi. Har bir odam o`z faoliyati davomida bilim, malaka, ko`nikma va odatlarni egallaydi. Malakalar bir necha xil bo'ladi (yozish, o'qish, yurish, musiqa chalish, sport va h. k.) Maqsadni ko'zlab biror ishni bajarish malakaga bog'liq.

Malaka deb, avval ongli bajarilib keyinchalik avtomatlashgan xatti -harakatlarga aytiladi. Istalgan malakani qayta -qayta takrorlash natijasida hosil qilish mumkin. Malakalar sodda va murakkab bo'ladi. Masalan, mashina haydash, musiqa chalish, kasb egallah murakkab, mix qoqish, o'tin arralash kabilar sodda malaka hisoblanadi. Malakalar mashq qilish natijasida egallanadi.

Shaxsda malakadan tashqari odatlar ham bo'ladi. **Odat** kishi qalbiga chuqur o'rnashib, uning ehtiyojiga aylanib qolgan harakatlardir. Masalan, erta turish, yuz-ko`lni yuvish, to`g`ri ovqatlanish, ozoda yurish, orastalik, saranjom-sarishtalik. Odatlar ijobiy va salbiy bo'ladi. Salbiy odatlarga yolg'on gapiresh, chaqimchilik, alkogol, tamakiga ruju qo'yish kabilar kiradi. Malaka va odatlarning nerv - fiziologik asosini shartli reflekslarning hosil bo'lish mexanizmi tashkil qiladi. Bu shartli refleks oddiy emas, balki dinamik stereotip tarzidagi, ya'ni takrorlash natijasida mustahkamlangan shartli reflekslar tuzilmasidan iborat.

O'quvchilarni o'rganilayotgan kasbga qiziqishini shakllantirish jarayonida ularning e`tiborliligi va berilishini ifodalaydigan materiallarni tavsiflaydigan xolatlar quyidagicha:

1. O'quvchilarning qurish-yasash ishlarini bajarishi, o'lhash, tahlil qilish, izlash, e`tiborlilik darajasini ta`minlaydigan ishlar;

2. O'quvchilarda nazorat to'shiriqlari, 'lanshetlar, hisoblash mazmunini o'rganish orqali, detallar, uzellar va mexanizmlarning sxemalari, chizmalari, jadvallari va konstrutsiyalarini o'rganish orqali belgilashni ta`minlaydigan ishlar.

O'quvchilarda o'rganilayotgan kasbiga qiziqishini shakllantirishni ta`minlaydigan intellektual kom'onentning tarkibiy qismlarini aniqlashda quyidagilarga alohida e`tibor berish lozim:

- Analiz va sintez;
- Diqqat va kuzatuvchanlik;
- Ajratish va umumlashtirish;
- Klassifikatsiyalash va isbotlash.

Kasblarga qo'yiladigan psixofiziologik talablarni umumiyl holatini izohlash uchun:

1. Yoshlar tegishli kasbiy niyatlarini shakllantirish metodlarini ishlab chiqish;

2. Kasbiy qobiliyatlar va kasbga layoqatni shakllantirish metodlarini ishlab chiqish.

3. Turli kasblarning ijtimoiy mavqeini tenglashtirish metodlarini va yo'llarini ishlab chiqish.

4. Mehnat resurslarini taqsimlash va ularning muhim joylashib qolishi jarayonini iqtisodiy va ma`naviy tartibga solib turish omillarini ishlab chiqish.

5. Moddiy ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohalarining yoshlar uchun jozibali bo'lishini oshirish tadbirlari tizimini ishlab chiqish.

6. Kasb tanlashning tegishli motivlari shakllanishiga ommaviy tarbiya vositalari ta'siri samaradorligini oshirish tadbirlari tizimini ishlab chiqish.

7. Umumiy ta`lim mакtabining oila va ishlab chiqarish bilan hamkorlikda kasbga yo'naltirish va kasbiy maslaxat bo'yicha olib boradigan ishlari tizimini belgilashda "xohlayman", "uddalayman" hamda engil sanoat sohasi tarmoqlariga xos ishlab chiqarish korxonalarini o'rganish jarayonida o'quvchilarni mazkur sohaga xos kasblarni tanlashga yo'naltirish asoslarini mukammal o'zlashtirishni ta'minlash zarur.

Bu borada kasbga yo'naltiruvchi mutaxassislarni o'qitish va tarbiyalash muammolari haligacha to'la bartaraf etilmagan. Maktablarda o'qiyotgan yigit va qizlarga davlat alohida g`amho'rlik ko'rsatadi. SHu sababli korxona ularga zarur kasb tayyorgarligi va tarbiya berishni ta'minlashga da`vat etilgan. Tarbiyaviy ishlar – umumiy ta`lim mакtabida olib borilgan ishlarning davomidir. YOshlarni kasbga tayyorlash jarayoni, mehnatga munosabatini tarbiyalash, amaliy ko'nikma va malakalarni shakllantirish, o'quvchi Shaxsini har tomonlama rivojlantirish va shakllantirish ishlarini o'z ichiga oladi.

Ishlab chiqarish sharoitida yoshlar tarbiyasiga yangi muhit – mehnat va ishlab chiqarish jamoasi katta ta'sir ko'rsatadi. YOshlar ishchi jamoaning an`analari bilan tanishadi, uning manfaatlarini o'z manfaati deb tushunadi va o'z mehnat faoliyatining ijtimoiy ahamiyatini anglay boshlaydi.

Hunar ta`limi yagona tarbiyaviy jarayonning tarkibiy qismi hisoblanadi. Boshlang`ich ishlab chiqarish jamoalari doirasida o'quv-tarbiya jarayonlari ko''incha bir kishi – o'rtalbo'g'in ishlab chiqarish jamoaning muhandis – 'edagog tomonidan amalga oshiriladi. Ayni shu muhandis – pedagog ishlab chiqarish jamoaga doimiy va uzlusiz 'edagogik ta'sir ko'rsatadi. Shuningdek, bu jamoaning ayrim a`zolari korxonadagi kasb-hunar ta`limi tizimining turli zvenolaridagi tegishli o'quv gru"alariga jalg qilinadilar.

Pedagogik olimlarga ishchilarning umumiy va maxsus tayyorgarligi, ularning ishlab chiqarish malakasi darjasи, umumiy va mehnat madaniyati, jamoa kasbiy faoliyat jarayonida o'quvchilar o'rtasida shakllanadigan munosabatlar, jamoa foydalanadigan ma`naviy va moddiy rag`batlar kiradi.

Shaxsiy-psixologik omillarga esa e'tiqod ehtiyoji, moyillik, odatlar, ma'lum bir faoliyatning biror turini tanlash masalalari kiradi. Inson ongini o'rganishda Shaxsning aniq vaziyatdagi, aniq maqsadi pedagogik-psixologik, kasbiy, texnik-teknologik foliyatining asosiy maqsadi yoshlarda faqat moddiy boyliklar yaratish malakasini tarbiyalash emas, balki mehnat qilish ehtiyojini ham tarkib to'tirishdir. Kasbiy

yo'naltirish va tarbiya vazifalarini muvaffaqiyatli bajarish uchun o'qituvchi yuksak g`oyaviy, siyosiy yetuk va ma'naviy barqaror inson bo'lishi shart.

Nazorat savollari:

1. Kasbga yo'naltirishda ta'lim va unga bo'lgan e'tibor. Ta'lim tizimi, undagi psixologik sharoit va kasb tanlash.
2. O'qituvchining psixologik maslahat xizmatlari. O'quvchilarda bilim olishga bo'lgan intilishni yanada rivojlantirish.
3. Kasb tanlashda bilim manbalarini yanada ko'paytirish. Kasb tanlashda o'z bilimlariga va malakalariga ishonch xosil qilish. Kasb tanlashda iroda kuchi va uni mustahkamlash.
4. Kasb tanlashga qo'yiladigan talablar. Tasavvur haqida bilimga ega bo'lish. Kasbiy maslahat va uning natijalari. Kasbga yo'naltiruvchi maslahat va uning ahamiyati. (prof.konsultatsiya).

4-MAVZU: Shaxsning kasbiy etikasi va individual xususiyatlari

Reja:

1. Shaxsning kasbiy etikasi.
2. Individual-tipologik xususiyatlar klassifikatsiyasi.
3. Temperament turlari
4. Kasbni egallashda temperamentning roli
5. Xarakter va uning xususiyatlari.
6. Xarakterning tizimi.
7. Shaxs iqtidori va qobiliyatları
8. Qobiliyatlarning psixologik strukturasi

Yillar o'tishi bilan ishlab chiqarish, fan va texnika rivojlanib, ijtimoiy mehnat taqsimoti yanada chuqurlashdi. Bu jarayonning uzlucksiz davom etishi esa, o'z navbatida, har bir muayyan ijtimoiy funksiyani bajaradigan yangidan yangi faoliyat sohalari paydo bo'lishiga sabab bo'ldi. Ularning sohiblari esa shunga ko'ra muayyan ijtimoiy burchlarni bajara boshlaganlar. Mazkur burch va majburiyatlar muayyan axloqiy qoidalar va xulq-atvor normalarida o'z aksini topdi. Kasb etikasi to'g'risida har xil munosabatlar hosil bo'lishining asosiy sabablaridan biri bu mifik, kollej va litsey o'quvchilarida kasb tanlash jarayonida turli xil motivlarning namoyon bo'lishidir. Motivlar o'rtasidagi kurash ularning u yoki bu qarorga kelishlariga sabab bo'ladi. Bizningcha, voqelikka ongli munosabatda bo'lish obyektiv va qat'iy qarorni keltirib chiqaradi.

Kasbiy etika bu har bir kasb-hunarga xos axloqiy norma, prinsip va sifatlarni o'rganadi va hayotga tatbiq etadi.

Kasb-kor (hunar) oldiga qo'yiladigan talablarni asoslash va ularni bayon qilish o'ziga xos xususiyatga ega bo'lib, umumiy hamda xususiy ko'rinishlarni o'zida aks ettiradi:

1. Kasb va uni ixtisosliklarining psixologik tavsifi.
2. Kasb-korning (hunarning) mamlakat iqtisodiyoti uchun ahamiyati.

3. Kasb va ixtisoslikning ijtimoiy tavsifi.
4. Kasbning ijtimoiy psixologik ahamiyati va tavsifi yoshlarda uning ijtimoiy mavqeい(nufuzi), jamoaning o‘ziga xos xususiyatlari, vertikal va gorizontal bo‘yicha shaxslararo munosabatlarning xususiyatlari.
5. Kasbiy faoliyatni muvaffaqiyatli egallash uchun zarur bilimlar va ko‘nikmalar ko‘lamining pedagogik tavsifi (maxsus mezonlar orqali kasbiy mahorat aniqlanadi).
6. Pedagogik jarayonni takomillashtirish yuzasidan takliflar, tayyorgarlik muddatlari, tadbir-choralari umumiyl tavsifi.

Kasb etikasi – jamiyat tomonidan qabul qilingan axloq qoidalarini kishilarning ixtisoslariga nisbatan amalda tatbiq qiluvchi aniq kasbiy burch, sha’n, or-nomus, qadr-qimmat kabi xatti-harakatlarning majmui, umumiyl axloqning kishilar kasb-koridagi o‘ziga xos ko‘rinishi.

Qadimgi davr mutafakkirlarining kasb etikasiga doir qarashlari: Kishilik jamiyatining ilk davrlarida insonlarning turli kasb va hunar egalarining, tabaqalarning, sinflarning haq-huquqlarini asosan podsholar, vazirlar, lashkarboshilar, urug‘ va qabila oqsoqollari himoya qilganlar. Shuning uchun ham qadimgi davr mutafakkirlari ularning axloqiy fazilatlari to‘g‘risida nihoyatda qimmatli fikrlarni bildirganlar va yozib qoldirganlar.

Bular to‘g‘risidagi dastlabki axloqiy ta’limotlar qadimgi Sharq mamlakatlari – Misr, Bobil, Falastin, Xitoy, Hindistonda va Markaziy Osiyoda yuzaga kelgan.

Qadimgi Misrda kasb axloqini yorituvchi pandnomalar yaratilib, ularda odob qoidalarini bilishning afzallikkari ko‘rsatib o‘tilgan. Ularda, masalan, mo‘tadillik va kamtarlik odobli odamning eng go‘zal fazilatlari deb qaralgan.

Bunday fikrlarni qadimgi Hindistonda vujudga kelgan braxmanizm, jaynizm, buddizm hamda qadimgi Xitoyda shakllangan konfutsiylik, daosizm ta’limotlarida ham ko‘plab uchratish mumkin.

Axloq va nafosat to‘g‘risidagi birmuncha aniq ifodalangan qarashlarni qadimgi Gretsya va Rim (er. av. VII–VI asrlar)da ko‘rish mumkin.

Suqrot. Suqrot (Sokrat) eramizdan oldingi 469–399-yillarda yashab o‘tgan yunon faylasufi bo‘lib, kasb axloqi va estetik tafakkuri to‘g‘risida birmuncha oqilona fikrlarni bayon qilgan. Masalan, uning fikricha, jasurlik ayni vaqtida donolikdir, ya’ni xavf-xatarni va xavfsizlikni o‘z vaqtida bilib, anglab olishdir. Mardlik qo‘rquvni daf qilishni, donolik qonunlariga rioya qilishni, mo‘tadillik – o‘z hissiyotlariga erk bermaslikni, adolat yaxshilik qilishni anglatadi.

Suqrot o‘zining estetik qarashlarida go‘zallik koinotdan inson turmushiga, uning ichki kechinmalariga ko‘chirilganligi, estetik tasavvurning nisbiyligi to‘g‘risidagi g‘oyalarni ilgari suradi.

Aflatun. Aflatun (Platon) eramizdan oldingi 427–347-yillarda yashagan yunon faylasuflaridan bo‘lib, o‘zining «Davlat», «Siyosatchi» va «Qonunlar» nomli asarlarida

axloq va estetik tafakkur haqidagi qarashlarini bayon etgan. Aflatunning fikricha, olamning asosida «g‘oyalar dunyosi» yotadi. Eng oliv g‘oya yaxshilik, baxt g‘oyasi xudodir.

Aflatun o‘zining «ideal davlat» haqidagi g‘oyalarini ilgari surar ekan, undagi yaxshi fazilatli odamlarning kasb-hunar axloqi to‘g‘risida ham juda ko‘p qimmatli fikrlarni bildiradi. Masalan, uning fikricha, har bir odam o‘z ishini qilishi kerak, boshqalarning kasbi sohasidagi ishlariga aralashmasligi zarur; ideal davlatni boshqaruvchi shaxs to‘rt yaxshi xislatga: donolik, jasurlik, muvozanatni saqlab turish, odillik kabi axloqiy fazilatlarga ega bo‘lishi kerak.

Aflatun o‘zining falsafiy qarashlarida estetikani go‘zallik, san’at falsafasi tarzida talqin etadi, nafosatning manbaini «g‘oyalar» tashkil etadi, uning yoritib turuvchilik kuchi go‘zallikni kashf etadi, uni faqat his-tuyg‘u bilan emas, balki aql-idrok orqali anglash mumkin, deb hisoblaydi.

Arastu. Arastu (Aristotel) eramizdan oldingi 384–322-yillarda yashagan eng buyuk yunon mutafakkirlaridan biridir. U o‘zining «Nikoh etikasi», «Evdem etikasi», «Katta etika» va «Siyosat» nomli asarlarida axloqiy tushunchalarni tahlil qilib, ulardagi umumiylikni topishga harakat qiladi, etika tushunchalarining ilmiy tasnifini ishlab chiqadi.

Arastu o‘zining «Siyosatchi» nomli asarida axloqning jamiyat hayotida muhim ahamiyatga ega ekanligini ta’kidlab: «Tabiat inson qo‘liga qurol – aqliy va axloqiy kuch bergen, ammo u shu qurolni teskari tomonga nisbatan ham ishlatishi mumkin; shu sababli axloqiy tayanchlari bo‘lmagan odam eng insofsiz va yovvoyi, o‘zining jinsiy va did mayllarida eng tuban mavjudod bo‘lib qoladi», – deb yozgan edi.

Arastuning fikricha, insoniy fazilatlar hayotda to‘g‘ri yo‘l topish, yaxshilikning makonini aniqlab olishdir. Barcha axloqiy fazilatlar – adolat, do‘stlik, muhabbat, mardlik, saxiylik va boshqalar faqat inson faoliyatida namoyon bo‘ladi. Odam adolatli ishlarni bajarish bilan adolatli bo‘lib boradi, mardona harakatlarni amalga oshirish orqali mard bo‘lib boradi.

Arastu o‘zining estetik qarashlarini bayon qilishda, nafosat asosini moddiy dunyodagi narsalar tashkil qiladi, nafosat ana shu narsalarning tartiblilik, aniqlik, uyg‘unlik, yaxlitlik xossalarda namoyon bo‘ladi, degan bir qator ijobiylar fikrlarni olg‘a suradi.

Shaxsning individual xususiyatlari haqida gap ketganda, ularning tug‘ma, biologik xususiyatlari alohida e’tibor beriladi. Chunki aslida bir tomonidan Shaxs ijtimoiy mavjudot bo‘lsa, ikkinchi tomonidan - biologik yaxlitlik, tug‘ma sifatlarni o‘zichiga olgan substrat - individ xamdir. Temperament va layoqatlar individning dinamik - o‘zgaruvchan psixik faoliyati jarayonini ta’minlovchi sifatlarini o‘zichiga oladi. Bu sifatlarning ahamiyati shundaki, ular Shaxsda keyin ontogenetik taraqqiyot jarayonida

shakllanadigan boshqa xususiyatlarga asos bo’ladi.

Insonning ruhiy olami beto’xtov xarakatlar majmuasidan iborat bo’lib, biri ikkinchisini bevosita taqozo etadi va ular uzlusiz zanjir tizimiga o’xhash tarzda hukm suradi. Xuddi shu bois Shaxs ruhiyatida tashqi atrof-muhit to’g’risidagi taassurotlar, o’tmish xotiralari, keljak yuzasidan ijodiy xayollar, ezgu niyatlar, xohish istaklar, maqsad va tilaklar, muloxaza, fikr va muammo, hissiy kechinmalar, irodaviy sifatlar uzlusiz tarzda o’zaro o’rin almashtirib turishi evaziga ontogenetik dunyoga mustaxkam negiz hozirlanadi Ruhiy olam kechishi, uning sur’ati, mazmuni, shakli ko’lami, xususiyati, hislati, sifati, mexanizmi alohida, yakkaxol insonda rang-barang tarzda namoyon bo’lishi kuzatiladi. SHuning uchun bo’lsa kerak, insonlar tabiat hodisalariga, omillariga, ta’sir kuchlariga tez yoki sekin, engil yoki mushkulot bilan javob qaytarishga moyillik ko’rsatadilar.

SHuni alohida ta’kidlab o’tish kerakki, psixik faoliyatning dinomikasi nafaqat temperamentga, balki motivlarga, psixik holatlarga, his-tuyg’ularga xam bevosita bogliqdir. Misol uchun, inson o’zi temperamentning qaysi tiliga taalluqli bo’lishidan qat’i nazar, o’z faoliyatiga layoqatli, mayli kuchli, intilishi qat’iy, kiziquivchan bo’lsa, uni tashkillashtirishda va nazardan qolishda uyushkoklik, xarakat sur’ati esa tezkor amalga oshadi, unga loqayd munosabatni bildirsa, ish sur’ati sekin va sust kechadi. Xar qanday vaziyatga qaramasdan, Shaxsning karindosh uruglari to’g’risidagi, shuningdek, jahonda kechayotgan noxush xabarlar uning a’zoyi badanini larzaga keltiradi, labi ko’ridi, rangi buzaradi, atrof-muhitga nisbatan mo’ljalini yo’qotadi. Psixologiyada temperamentga taalluqdi individual dinomik xususiyatlar bilan motivlar va psixologik holatlar, hissiy kechinmalarning dinamik xususiyatlari o’rtasida muayyan darajada tafovo’t mavjudligi alohida ta’kidlanadi. Ular orasidagi farqlarni ajratib ko’rsatish maqsadida qo’shimcha belgilar kiritiladi va o’ziga xos tarzda tavsiflab beriladi. Ularning ayrimlarini ajratib ko’rsatish maqsadga muvofiq.

1. Favqulodda temperamentning bir xil xususiyatlari, motiv, psixik holat va hodisalardan farqli o’laroq, aynan shu Shaxsning o’zida, uning turli faoliyatlarida, xatti-xarakatlarida, muomalasida ifodalanadi.

2. Temperament xususiyatlari tabiiy shartlanganlik omiliga taalluqli bo’lganligi tufayli inson hayoti va faoliyatining (umrining) bo’tun davomida yoki uning muayyan bir bo’lagida (ta’sirga beriluvchanligi sababligidan qat’i nazar) barqaror, o’zgarmas va mustaxkamdir.

3. Yakkaxol Shaxsga daxldor temperamentning turli xususiyatlari o’zaro bir-biri bilan g’ayriqonuniy ravishda birlashgan bo’lmashdan, balki ular o’zaro bir-biri muayyan qonuniyat asosida mujassamlashib, xuddi shu xususiyatlar uning tiplarini tavsiflovchi o’ziga xos tizilmani vujudga keltiradi.

4. Psixologiya fanida temperament xususiyatlari deganda, alohida bir Shaxsning

psixik faoliyati dinomikasini belgilovchi psixikaning barqaror, o'zgarmas individual-tipologik xususiyatlari majmuasi tushuniladi. Mazkur xususiyatlar turli shakl va mazmunga ega ega bo'lган motivlarda, psixik holatlarda, maqsadlarda, faoliatlarda nisbatan o'zgarmovchi, temperament tipini tasvirlovchi tuzilmani tashkil qiladi.

5. Psixologiya fanning ijtimoiy tarixiy taraqqiyoti davrida temperamentga nisbatan bildirilgan muloxazalar, uning moddiy asosi to'g'risidagi talqinlar xilma-xil bo'lib, Shaxsning psixologik xususiyatlarini o'ziga xos tarzda tushuntirish uchun xizmat qilib kelgan. Temperament lotincha "temperamentum" degan so'zdan olingan bo'lib, buning ma'nosi «aralashma» degan tushunchani anglatadi. Temperament to'g'risidagi dastlabki ta'limotni yunon olimi Gippokrat (eramizdan oldingi 460-356 yillarda yashagan) yaratgan bo'lib, uning tipologiyasi to hozirgi davrgacha qo'llanilib kelinmokda.

Temperamentning fiziologik asoslari to'g'risida tushuncha Kadimgi yunon olimi Gippokrat ta'limotiga binoan, insonlarning temperament xususiyatlari jihatidan o'zaro bir-biridan tafovo'tlanishi, ularning tana a'zolaridagi suyukliklarning (xiltlarning) turlicha nisbatda joylashuviga bogliq ekanligi tasavvur qilinadi. Gippokrat ta'biricha, inson tanasida to'rt xil suyuklik (xilt) mavjud bo'lib, ular o't yoki safro (yunoncha chole), qon (lotincha sanguis yoki sanguinis), qora o't (yunoncha melas «qora», chole «o't»), balg'am (yunoncha «phlegma») kabilardan iboratdir. Uning muloxasicha; 1) o'tning xususiyatni-kuruklikdir, uning vazifasi-tana a'zolarida ko'rulklikni saqlab turish yoki badanni quriq to'tishdir; 2) qonning xususiyati- issiklikdir, uning vazifasi tanani isitib turishdir; 3) qora o'tning xususiyati-namlikdir, uning vazifasi-badan namligini saqlab turishdir; 4)balg'amning (shilimshiq moddaning) xususiyati-sovuklikdir, uning vazifasi-badanni sovo'tib turishdan iboratdir. Gippokrat ta'limotiga muvofiq, xar bir insonda shu to'rt xil suyuklik mavjud bo'lib, uning bittasi ustuvorlik kasb etadi. Mazkur aralashma (lotincha temperamentum) lardan qaysi biri salmoklirok bo'lsa, shunga qarab insonlar temperament jihatdan farqlanadilar, chunonchi, xolerikda sarik o't, sangvinikda qon, melanxolikda qora o't, flegmatikda balg'am (shilimshik modda) ustun bo'lishi ta'kidlanadi.

Gippokratning to'rt xil moddalar (suyukliklar) aralashmasi, ya'ni temperament tushunchasi va uning tipologiyasi (sangvinik, xolerik, flegmatik, melanxolik) ramziy ma'noda hozirgi zamon psixologiyasida xam qo'llanilib kelinmokda.⁸

Temperamentning ilmiy psixologik asoslari va uning fiziologik mexanizmlari keyingi ijtimoiy tarixiy taraqqiyotning bosqichlarida yaratiladi xamda bu borada ishlanilishlar davom ettirilmokda. Temperamentning fiziologik asoslariga ulkan o'z hissini kushgan olimlardan biri rus fiziologi I. P. Pavlov (18-1936) hisoblanadi. Odam

⁸ G'oziev E.G'. Umumiyyat psixologiya.-O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyat nashriyoti. T.: – 2010.

temperamentiga aloqador sifatlarning o'ziga xosligi shundaki, ular odam bir faoliyat turidan ikkinchisiga, bir emotsiyal holatdan boshqasiga, bir malakalarni boshqasi bilan almashirgan paytlarda reaksiyalarning egiluvchan va dinamikligini ta'minlaydi va shu nuqtai nazardan *Temperament - Shaxs faoliyati va xulqining dinamik (o'zgaruvchan) va emotsiyal - missiy tomonlarini xarakterlovchi individual xususiyatlar majmuidir.*

Temperament xususiyatlari Shaxsning ichki tuzilmasi bilan bevosita bogliq bo'lib, ularning namoyon bo'lishi uning qonkret vaziyatlarga munosabatini, ekstremal vaziyatlarda o'zini qanday to'tishini belgilab beradi. Masalan, inson turli vaziyatlarda o'zini turlicha to'tadi: oliv ukuv yurtida talabalar safiga qabul qilganligi to'g'risidagi axborotni eshitgan bolaning o'zini to'tishi, yoki hayotning ogir sinovlari (yaqin kishining ulimi, ishdan xaydalish, do'stning xoinligi kabi) paytida odam beixtiyor namoyon qiladigan reaksiyalari uning temperamentidan kelib chiqadi. SHuning uchun xam ikkala vaziyatni xam kimdir ogir-bosiklik bilan, boshqasi esa o'zini yukotgudek darajada his-xayajon bilan boshidan kechiradi.

SHuning uchun xam temperamentning Shaxs shakllanishi va ijtimoiy muhitda o'ziga xos mavkeni egallashidagi ahamiyati juda katta. O'zini bosib olgan, hayot qiyinchiliklarini sabr-bardosh bilan ko'taradigan insonning odamlar orasidagi obrusi xam baland bo'ladi. Bu uning o'z-o'ziga nisbatan xurmatini xam oshiradi, ishga, odamlarga va narsalarga munosabatini takomillashtirib borishiga imqon beradi. Temperamentning yana bir ahamiyatli jihat shundaki, u hayotiy voqealar va vaziyatlarni, jamiyatdagi ijtimoiy guruxlarni «yaxshi - yomon», «ahamiyatli - ahamiyatsiz» mezonlari asosida ajratishga imqon beradi. Ya'ni, temprament odamning ijtimoiy ob'yektlarga nisbatan «sezgirligini» tarbiyalaydi, professional mahorat va kasb malakasining oshib borishiga yordam beradi.

Temperamental xususiyatlar aslida tug'ma hisoblansada, Shaxsga bevosita aloqador va anglanadigan bo'lgani uchun xam ma'lum ma'noda o'zgarib boradi. SHuning uchun xam tug'ilgan chog'ida sangvinikka o'xshash xarakatlar namoyon qilgan bolani umrining oxirigacha faqat shundayligicha qoladi, deb bo'lmaydi. Demak, xar bir temperament xususiyatlarini va uning Shaxs tizimga aloqasini bilish va shunga yarasha xulosalar chiqarish kerak.

Akademik I. Pavlov temperament xususiyatlarini belgilab beruvchi uch oliv nerv tizimi xossalalarini ajratgan edi:

-*k u ch*, ya'ni nerv tizimining kuchli ko'zgatuvchilar ta'siriga bardoshi, shunga ko'ra odamlardagi mehnatga yaroklilik, Chidam kabi sifatlarning namoyon bo'lishi;

-*m u v o z a n a t l a sh g a n l i k*, ya'ni asabdagi tormozlanish va ko'zgalish jarayonlarining o'zaro mo'tonosibligi, shunga ko'ra, o'zini to'ta olish, bosiklik kabi sifatlar va ularga tEskari sifatlarning namoyon bo'lishi;

-*x a r a k a t c h a n l i k*, ya'ni kugalish va tormozlanish jarayonlaridagi o'zaro

almashinish jarayonining tezligi va xarakatchanligi ma’nosida. Quyidagi rasmida nerv jarayonlari bilan temperament tiplari o’rtasidagi o’zaro bogliqlik asosida temperament tiplari aks ettirilgan.

SHunday qilib, asab tizimi bilan bogliq individual sifatlarni bilish shart, Chunki ular bevosita mehnat va o’qish jarayonlarini xar bir inson tomonidan, uning manfaatlariga mos tarzda tashkil etishga xizmat qiladi. Asabga bogliq bo’lgan tabiiy xususiyatlarmizni xam umuman o’zgarmas deb aytolmaymiz, Chunki tabiatda o’zgarmaydigan narsaning o’zi yuk. SHuning uchun xam oxirgi yillarda o’tkazilayotgan tadqiqotlarda Shaxs tizimida shunday ma’kul, «hayotiy ko’rsatgichli» xususiyatlar tizimini o’rganilmokda va unda temperamentga aloqador sifatlar xam nazarda to’tilmokda. Masalan, V.S. Merlin temperamentning psixologik tasnifi va ularning hayotiy vaziyatlarda namoyon bo’lishini boshqarish masalasida ko’p ishlar qilgan. Uning fikricha, insonda mavjud bo’lgan faollik, bosiklik, emotsiyonal tetiklik, hissiyotlarning tezda namoyon bo’lishi va o’zgaruvchanligi, qayfiyatning turgunligi, behalovatlilik, ishchanlik, yangi ishga kirishib ketish, malakalarning tez hosil bo’lishi kabi qator sifatlar asosida Shaxsdagi o’sha ekstroversiya va introversiya xossalari yotadi va ularni xam o’zgartirish va shu orqali temperamentni boshqarish mumkin.

Temperament turlari

Tepmerament tipologiyasi mabodo insonlar temperamentlari bo'yicha kiyoslansa, u holda uning xususiyatlari jihatidan o’zaro o’xshash Shaxslarning guruxi mavjudligi namoyon bo’ladi. Bu asnoda eramizdan oldingi davrda xam temperament tiplari to’g’risida materiallar to’plangan. Ularda temperament tipi deyilganda, insonlarning muayyan guruxlarini tavsiflovchi psixik xususiyatlarning yig’indisi (majmuasi) anglashinilgan. Hozirgi davrda temperament tipi deganda, ma’lum insonlar guruxi uchun umumiyl bo’lgan xususiyatlarning sodda majmuasi emas, balki mazkur xususiyatlarining qonuniy, zaruriy o’zaro bogliqligi tushuniladi. Temperament tipini tavsiflovchi xususiyatlarning qonuniy tarzda o’zaro bog’liqdigi turlicha aks etishi mumkin.

Temperamentning ayrim xususiyatlarini u yoki bu tashqi ko’rinishiga qarab ulchash mukin. Shaxsning shiddatlik (tezlik, impulsivlik) darajasini ikkita xarakatdan bittasini tanlanmaydigan xarakatga nisbatan qancha vaqt mobaynida qaror chiqarishga qarab aniqlash mumkin. Agar ushbu yo’sinda temperamentning bir nechta xususiyatlari o’lchansa, u holda uning bir xususiyati qancha ko’p miqdorda ifodalansa temperamentning boshqa xususiyatining shuncha ko’p yoki, aksincha oz aks ettishi kuzatiladi.⁹

Xar qaysi tip uchun o’ziga xos xususiyatlarining o’zaro aloqasi, xar bir alohida

⁹ Ivanov P.I, Zufarova M.E Umumiyl psixologiya Darslik.-Toshkent, 2008.

xususiyatning sifat tavsifi temperament tipining boshqa xususiyatlari bilan bogliqdigi xam aks etadi. Masalan, o'zini to'ta bilmaslik yoki o'zini to'ta bilish temperamentning bitta tipi uchun:

a) extiroslik shiddat, b) jazava va jarajadagi munozanatsizlikdir; bir xil tip uchun o'zini to'ta bilish-emotsional-irodaviy bir meyorda to'tish bo'lsa, boshqa uchun u ulugvorlik va vazminlik namunasidir.

Temperament tiplarini psixik xususiyatlar o'rtasidagi qonuniy munosabatlar tarzida tushunish Gippokrat tomonidan talqin qilingan temperament to'g'risida tushuncha ma'nosiga mos tushadi. Lekin u ushbu tushunchani yunoncha krasis suzi bilan belgilangan va u lotincha temperament atamasiga mos bo'lib, nisbatan, munosabat degan ma'noni anglatadi. Nerv tizimsining umumiyligi tiplari bilan fiziologik jihatdan temperament tiplari I. P. Pavlovdan keyin gippokrat tiplari, ya'ni sangvinik, xolerik, flegmatik, melanxolik deb atala boshlangan. Lekin bu tushunchalar hozirgi zamon psixologik ma'lumotlar munosabati bilan yangicha mazmun va mohiyat kasb etgan. SHu boisdan nerv tizimsining to'rtta tipi temperamentning to'rtta tipiga bogliq deb e'tirof etishimizga xakkimiz yuk, Chunki ular gippokratcha tiplarning ayrimlari, xolos. SHuning uchun yangi omillar mazkur tiplarning psixologik tavsifini qayta tahlil qilishni taqozo etadi.

Tempirament tiplarining psixologik tavsifi quyidagi muhim xususiyatlar yordami bilan aniqlanishi mumkin:

1. Senzitivlik (lotincha sensus sezish, his qilish degan ma'no anglatadi). Senzitivlik yuzasidaninsonda bironta psixik reaksiyani hosil qilish uchun zarur bo'lgan o'ta kuchsiz tashqi taassurot kuchiga qarab muloxaza yuritiladi jumladan, sezgilarning paydo bo'lishi uchun kerak ko'zgovchining ozgina kuchi (ularning kuyi chegarasi), extiyojlar qondirilmasligining sezilar-sezilmas darajasi (Shaxsga ruhiy azob beruvchi) mujassamlashadi

2. Reaktivlik. Bu to'g'rida aynan bir xil kuch bilan ta'sir etuvchi tashqi va ichki taassurotlarga Shaxs qanday kuch bilan emoksional reaksiya qilishiga. Qarab munosabat bildiriladi. Reaktivlikning yorqin ro'yobga chiqishi - emotsiyonallik, ta'sirlanuvchanlik ifodalananishidir.

3. Faollik. Bu borada inson qanday faollik darajasi bilan tashqi olamga ta'sir etishi va maqsadlarni amalga oshirishda ob'ektiv xamda sub'ektiv qarama-qarshiliklarni faollik bilan engishiga qarab fikr yuritiladi.

1. Reaktivlik bilan faollikning o'zaro munosabati. Odamning faoliyati ko'p jihatdan nimaga bog'liqligiga binoan, chunonchi tasodifiy tarzdagi tashqi va ichki sharoitlarda (kayfiyatga, favquloddagi hodisalarga) yoki maqsadlarga, ezgu niyatlarga, hohish-intilishlarga ko'ra fikr bildirish nazarda to'tiladi.

2. Reaksiya tempi. Turli xususiyatlari psixik reaksiyalar va jarayonlarning kechishi

tezligiga, binobarin, xarakat tezligiga, Nutq sur'atiga, farosatlilikka, aql tezligiga asoslanib xulosa chiqariladi.

3. Xarakatlarning sillikligi va unga qarama-qarshi sifat rigidlik (kotib qolganlik). Shaxsnинг о'згарувчан ташqi таассуротлarga qanchalik engillik va chakqonlik bilan muvofiqlashishiga (silliqlik bilan moslashishga), shuningdek, uning xatti-xarakatlari qanchalik sust va zaifligi (rigidligi-kotib qolganligi) nisbatan baho berishdan iboratdir.

4. Ekstraverovanlik va intravertirovanlik. Shaxsnинг faoliyati va reaksiya ko'p jihatdan nimalarga bogliqligiga, chunonchi favkuloddagi tashqi taassurotlarga (ekstravertirovanlik) yoki, aksincha, timsollarga, tasavvurlarga, o'tish xamda kelajak bilan uygunlashgan muloxazalarga (introvertirovanlik) taalluqligiga asoslangan holda munosabat ifodasidir.

7-rasm.Temperament turlari



Temperament turlari

Sangvinik-juda faol, xar bir narsaga xam qattiq qo'laveradi; yolgon dalilarga jaxli chiqadi. Atrofdagi narsalar, ma'ruzalar Diqqatini tez jalb etadi. Imo-ishoralarni ko'p ishlataladi, chehrasiga qarab qayfiyatini anglab olish qiyin emas. Juda sezgir bo'lishga qaramay, kuchsiz ta'sir (ko'zg'atuvchilar) ni sezma olmaydi, serg'ayrat, ishchan, tolikmas. Faollik bilan reaktivlik munosanati muvozanatida, imtizomli o'zini tiya biladi, boshqara oladi. Xatti - xarakati jushkin, Nutq sur'ati tez, yangilikni tez payqaydi, aql idroki tirak, topkir, qiziqishlari, qayfiyati, intilishlari o'zgaruvchan. Ko'nikma va malakalarni tez egallaydi. Ko'ngli ochik, dilkash, mulokatga tez kirishadi. Xayolati (fantaziyasi) yuksak darajada rivojlanishi

8-rasm. Sangviinik temperamenti



9-rasm. Xolerik temperamenti



Xolerik-sust senzitivlik xususiyatiga ega. Juda faol va reaktiv. Ko'pincha reaktivligi faollikdan ustun keladi. Betoqat, serzarda.

Sangvinlikka qaraganda silarok, lekin ko'proq kotib qolgan(rigidroq). Qiziqishlari, intilishlari barqaror, xatti-xarakatlarda qat'iylik mavjud. Biroq diqqatni bir joyga to'plashda kiynaladi. Nutq sur'ati tez va xokazo.



10-rasm.Flegmatik temperamenti

Flegmatik-sentizivligi sust, his-tuyg'usi (emotsiyasi) kam o'zgaruvchan, shunga ko'ra bunday Shaxsni qo'ldirish, jaxlini chiqarish, qayfiyatini buzish qiyin. Kungilsiz hodisa xaf-xatar haqidagi xabarga xotirjamlik bilan munosabatda bo'ladi. Vazmin, kam xarakat. Imo-ishorasi, mimikasi ko'zga yaqqol tashlanmaydi. Lekin serg'ayrat, ishchan, faol, Chidamli, matonatli. Nutq vaxarakat sur'ati sust. Farosati kiyikrok. Diqqatni tuplashi osoyishta. Kotib qolgan (rigit). Diqqatni ko'chirish qiyin. Interavertiravonlashgan, kam gap, ichimdan top. YAngilikni qabul qilishi murakkab. Tashqi taassurotlarga sustlik bilan javob beradi (qaytaradi).

11-rasm.

Melanxolik

temperamenti



Melanxolik-sentizivligi yuksak. Tortinchoq g'ayrasiz. Arazchan, xafaqon. Jimgina yig'laydi, kam kuladi. Qat'iyligi va mustaqilligi zaif. Tez toladi. Ortikcha ishchan emas. Diqqati barqaror. His-tuyg'usi sust o'zgaradi. Qotib qolgan (rigid). Interavertlashgan.

Kasbni egallahda temperamentning roli: Psixologik ma'lumotlar e'tirof etilishicha, irsiyat va turmush sharoitlari temperament tiplari o'rtaqidagi tafovutlarining sababchisidir. SHuning uchun irsiy fiziologik xususiyatlari bir xil va bitta tuxumdan yaralgan (gomozigot) egizaklarning temperament xususiyatlari ikkita tuximdan vujudga kelgan (geterozigot) egizaklarning temperament xususiyatlari bilan qiyoslansa, bu omil tasdiqlanishi mumkin. Ma'lumotlarga qaraganda, geterozigot egizaklardan farqli o'laroq, gomozigot egizaklar temperament xususiyatlari shunchalik o'xshashki, xatto ular irsiyat yo'li bilan berilgan omillarini 85% tasdiqlash imkoniyatiga ega. Tarbiyaviy muhit turlicha bo'lishiga qaramay, o'xshashlik saqlanib qolishi tajribalarda ko'p marta tekshirilgan. Lekin temperamentning ayrim xususiyatlari o'zgarishi to'g'risidagi ma'lumotlar inkor etilmaydi, unga favquloddagi tashqi xamda ichki sharoitlar keskin ta'sir o'tkazadi (masalan, tog' sharoiti, xavf-xatar mavjudligi va xokazo).

Shuni esda saqlash joizki, tempearment ayrim xususiyatlarning turmushi sharoiti bilan tarbiyaviy ta'sirida o'zgarishi jarayoni temperament tiplarining takomilashtiruvidan farqlay olish shart. Ma'lumki, temperament tipi unga mo'tanosib xususiyatlari birdaniga paydo bo'lgan narsa emas, Chunki nerv tizimining takomillashuvi umumiylar qonuniyatlarini temperamentga xam ta'sir o'tkazib, o'z izmini qoldiradi. Shaxsning kamolotiga binoan, temperament xususiyatlari nerv tizimining takomillashuvi bilan bogliq razda ro'yobga chika boradi va mazkur jarayon temperament rivojini uzil-kesil hal qiladi.

Xarakter – shaxsning alohida insonlar va insonlar guruhi, o'z-o'ziga, vaziyatlar, narsalar va hodisalarga nisbatan munosabatlaridan orttiradigan sifatlarini o'z ichiga oladi.

Har bir odam har qanday boshqa odamdan o'zining individual psixologik xususiyatlari bilan ajralib turadi. Bunga xarakter xislatlari ham kiradi. Xarakter so'zi grekchadan aynan tarjima qilinganda bosilgan tamg'a degan ma'noni anglatadi.

Xarakter – shaxsdagi shunday psixologik, subhektiv munosabatlar majmuiki, ular uning borliqqa, odamlarga, predmetli faoliyatga hamda o'z-o'ziga munosabatini ifodalaydi.

Demak, «munosabat» kategoriyasi xarakterni tushuntirishda asosiy hisoblanadi. B.F.Lomovning tahbiricha, xarakter shaxs ichki dunyosining asosini tashkil etadi. Munosabatlarning xarakterdagi o'rni xususida fikrlar ekan, V.S.Merlin ularning mazmunida ikki komponentni ajratadi:

1. Emotsional-kognitiv – borliq muhitning turli tomonlarini shaxs qanday emotSIONAL his qilishi va o'zida shu olamning emotSIONAL manzarasini yaratishi.
2. Motivatsion irodaviy – ma'lum harakatlar va hulqni amalga oshirishga undovchi kuchlar. Demak bizning munosabatlarimiz ma'lum mahno va mazmun kasb etgan

munosabatlar bo‘lib, ularning har birida bizning xissiy kechinmalarimiz aks etadi va xarakterimiz namoyon bo‘ladi.

Rus olimi S.L.Rubinshteyn shaxsning o‘ziga xosligi va xarakteriologik tizimida uchta asosiy tuzilmalarni ajratadi:

1. Munosabatlar va yo‘nalish shaxsdagi asosiy ko‘rinishlar sifatida – bu shaxsning hayotdan nimani kutishi va nimani xohlashi.
2. Qobiliyatlar – ana shu tilak-istiklarni amalga oshirish imkoniyati sifatida – bu odamning nimalarga qodir ekanligi.
3. Xarakter imkoniyatlaridan foydalanish, ularni kengaytirishga qaratilgan turg‘un, barqaror tendensiyalar, ya’ni bu odamning kim ekanligi.

Xarakterning boshqa individual xususiyatlardan farqi shundaki, bu xususiyatlar ancha o‘zgaruvchan va orttirilgandir.

Psixologiyada shaxsning quyidagi tizimi ehtirop etiladi:

1. Mehnat faoliyatida namoyon bo‘ladigan xarakteriologik xususiyatlar – mehnatsevarlik, mehnatkashlik, tashabbuskorlik, ishga layoqat, ishga qobillik, mashuliyat, dangasalik, qo‘nimsizlik va boshqalar.
2. Insonlarga nisbatan munosabatlarda namoyon bo‘ladigan xarakteriologik sifatlar – odoblilik, mehribonlik, jonsaraklik, muloqotga kirishuvchanlik, g‘amxo‘rlik, rahm-shafqat va boshqalar.
3. O‘z-o‘ziga munosabatga oid xarakter sifatlari – kamtarlik, kamsuqumllilik, mag‘rurlik, o‘ziga bino qo‘yish, o‘z-o‘zini tanqid, ibo, sharm-hayo, manmansirash va boshqalar.
4. Narsalar va hodisalarga nisbatan munosabatlarda namoyon bo‘ladigan xususiyatlar – tartiblilik, oqillik, saranjom-sarishtalik, qo‘li ochiqlik, ziqlalik, tejamkorlik, pokizalik va boshqalar.

Xarakter sifatlari shaxsning xayotdagi yo‘nalishlaridan kelib chiqadi. CHunki yo‘nalish odamning borliqqa nisbatan tanlovchan munosabatining aks etishidir. Bunday yo‘nalish turli shakllarda namoyon bo‘ladi: diqqatlilik, qiziquvchanlik, ideallar, maslaklar va hissiyotlarda.

Xarakter insonning xatti-harakatlari va amallarida namoyon bo‘ladi. Odamning ongli va maqsadga qaratilgan harakatlari uning kim ekanligidan darak beradi.

Nutqning xususiyatlari (baland tovush bilan yoki sekin gapirish, tez yoki bosiqlik, emotSIONAL boy yoki jonsiz) ham xarakterning yo‘nalishini belgilaydi.

Tashqi qiyofa – yuzining ochiq yoki tund ekanligi, ko‘zlarining samimi yoki johil ekanligi, qadam bosishlari – tez yoki bosiq, mayda qadam yoki salobatli, turishi viqorli yoki kamtarona, bularning hammasi xarakterni tashqaridan kuzatib o‘rganish belgilardir.

Xarakter tashqi muhit tahsirida, turli xil munosabatlar tizimida shakllanadi va

sharoitlar o‘zgarishi bilan o‘zgaradi.

Talabalarning o‘quv, mehnat va ijodiy faoliyatidagi o‘ziga xoslikni tushuntirish uchun kasbiy psixologiya fani birinchi navbatda qobiliyatlar va iqtidor masalasiga murojaat qiladi. Chunki qobiliyatli odamdan avvalo jamiyat manfaatdor, qolaversa, o’sha insonning o‘zi xam qilgan xar bir xarakatidan o‘zi uchun naf ko’radi.

Qobiliyatlar. Bular qiziqish va mayllar bilan mahkam bog’liq bo’ladi hamda odamning kasbga layoqatini ko’rsatuvchi belgilarning ajralmas qismi hisoblanadi.

Xo’sh, qobiliyatning o‘zi nima? Odamning biror faoliyat sohasida muvaffaqiyat qozonishiga yordam beradigan har qanday individual psixologik xusu-siyatni *qobiliyat* deb hisoblash mumkin. Qobiliyatni faqat bilim va malaka-lardan iborat deb hisoblab bo’lmaydi. Masalan, agar odam hidlarning bir-bi-ridan farqini yaxshi bilsa va ularni esda saqlab qola olsa, u holda bunday fa-zilat - ximik uchun, degustator uchun, oshpaz va boshqa shunga o’xhash kasbdagi kishilar uchun juda zarur bo’lgan qobiliyat hisoblanadi. Muhandis quruvchi uchun esa fazoni gorizantal, vertikal holatda unda imoratlarning qad ko’tarilishi umumiyl tuzilishini idrok etaoladigan qobiliyat shakillangan bo’lishi kerak. Basharti, kishining xotirasida juda ko’p raqamlar, harflar, so’zlar yoki tashqi alomatlar yaxshi (mustahkam) saqlanib qoladigan bo’lsa, u kishi mana shu o’z xotirasidagi ma’lu-motlarni kerak paytda ishlata olsa, u holda bu ham juda zarur fazilat, matema-tikka, programmistga, konstruktorga va boshqa shunga o’xhash kasbdagi kishilar uchun zarur bo’lgan qobiliyat hisoblanadi.

Har qanday faoliyat muayyan qobiliyatlar jagini ishlatishni taqozo etadi. Masalan, veterinariya feldsheri yoki vrach kuzatuvchan yoki tashabbuskor kishi bo’lishi, chuqur akl-idrokka ega bo’lgan chaqqon-epchil odam bo’lmogi, o’z ishiga g’oyat halol munosabatda bo’lishi kerak.

Hamma uchun zarur bo’lgan *umumiyl qobiliyatlar* (masalan, ijodkorlikka bo’lgan qobiliyat) yoki juda ko’p kasblar va faoliyat turlari uchun zarur bo’lgan qibiliyatlar (tashkilotchilik qibiliyatları) ayrim kasblar yoki nisbatan tor doiradagi kasblar uchun muhim hisoblangan *maxsus qobiliyatlar* bo’ladi (3-rasm), elektromexanik releni regulirovka qiluvchi kishining qo’llarida se-zuvchanlik juda yaxshi rivojlangan bo’lishi kerak, bir xil ohangdagi ko’zg’ a-tuvchilarga nisbatan bardoshlilik - transport vositalarini haydovchi kishi uchun zarur, chizmalarga qarab murakkab buyumlar tayyorlaydigan kishilar uchun esa jismlarning fazodagi holatini tasavvur qila olish qobiliyati yaxshi ri-vojlangan bo’lmogi kerak. Har qanday kasbda ham umumiyl va maxsus qobiliyatlar birga qo’shilib kelgan taqdirdagina ishning muvaffaqiyati ta’minla-nishi mumkin.

Xo’sh, agar kishida tanlangan kasb uchun zarur qobiliyatlarning hammasi bo’lmasa-chi? Bunday holda ikki yo’l bo’lishi mumkin: yo tanlangan kasbni

o'zgartirish yoxud yetishmayotgan yoki kam namoyon bo'lgan qobiliyatlar o'rnini qoplash yo'llarini qidirib ko'rish kerak bo'-ladi. Masalan, xotirada kamchilik bo'lsa, muntazam ravishda har xil yozuvlar olib borish, kartoteka tuzish va boshqa shunga o'xshash tadbirlar bilan o'sha yetishmovchilik o'rnini qoplash mumkin. Jismning fazodagi tasvirini tasav-vur etishdagi kamchiliklarni to'ldirish uchun hajmi modellardan foydala-niladi va hokazo. Qobiliyatning bo'sh rivojlanishi o'rnini qoplash - bu odat-dagi va zarur hodisa bo'lib, agar kishi o'z ishi sohasida chindan ham yuksak ma-horatni egallashi kerak bo'lsa, qo'shimcha mashg'ulotlar uning hayotida katta o'rinni egallashi kerak.

Maktabda olib boriladigan aktiv o'quv faoliyati sizning har biringizga o'z aqliy qobiliyatizingizni va eng avvalo tafakkur tiniqligini, mantiqan to'g'ri fikrlashni, tafakkurning mustaqil va original bo'lishini, topqirlikni, chu-qur mulohaza qilishni, aqliy teranlik va o'ziga tanqidiy munosabatda bo'lish-ni rivojlantirish imkonini beradi.


Texnik qobiliyat - texnikani egallahsga va texnika fanlarini o'zlashtirishga bo'lgan qobiliyat.	<i>Matematik qobiliyat - fikrlashning matematik metodlarini egallah qobiliyati</i>	Pedagogik qobiliyat - o'qitish va ta'lim-tarbiya berish maqsadida boshqa bir kishiga ta'-sir ko'rsatish qobiliyati
Texnikaga, texnika ijodiyotiga bo'lgan qiziqish, mashina va stanoklarda asboblar bilan ishslashga inti- lish, fizika, ximiya, matematika, chizmachi- lik va shu kabilarni muvaffaqiyat bilan o'zlashtirish.	<i>Matematikaga bo'lgan qiziqish, mantiqiy fikrlash, analiz qilish va umumlashtirish qobiliyati, matematik bilimlarni muvaf- faqiyatli egallah va shu kabilar.</i>	Pedagogik faoliyatga qiziqish, bolalarni sevish, bolalar kollek-tivini uyushtira bilish mahorati, nutqning ravon va ishontira ola-digan bo'lishi, talab-chanlik, xushmuoma- lalik, adolatlilik, xolis niyatli bo'lish va shu kabilar.
Tashkilotchilik qobiliyati - qandaydir bir ishni qila olish va odam-larni uyushtira olish mahorati	Adabiy lingvis-tik qobiliyat - adabiy faoliyatga, tillarni o'rganib olishga bo'lgan qobiliyat	San'atga bo'l-gan qobiliyat - ijodiy tasav vurga ega bo'lish, obrazli fikrlash qobiliyati

Odamlar bilan tezda til topib ketish, odam psixologiyasini tushunish, odamlar o'rtasida mehnatni to'g'ri taqsimlay olish, o'z vazifasini halol bajarish, tirishqoq bo'lismi, o'z xatti-harakatlariga tan-qidiy qarash va shu kabilalar.	Nutqning yaxshi o's-ganligi, lug'at boy-ligi rivojlanganligi, tillarni egallashga, adabiyot-ni o'rganishga qizi-qishi, eshitib eslab qolish xotirasining kuchliligi, kuzatuv-chanlik, assosiasiya-larning bo'lishi va boshqa shunga o'x-shashlar.	Rassom uchun ko'rib tasavvur qilishning yor-qinligi, rang va shakl-ni his qilish, aktyor uchun -diksiya (talaf-fuz), mimika (imo-isho-ra), boshqalar qiyofa-siga kira olish qibiliyati, nutqning ifoda-li bo'lishi, tabiatdagi va tevarak-atrofdagi hayotda go'zal narsalar-ni ko'ra bilish.
--	--	---

Irodaviy sifatlarni, ya'ni: dadillik, qat'iyat, intizomlilik, o'ziga va o'z kuchiga ishonish, o'zini idora qila bilish, og'ir-vazmin bo'lismi singari fazilat-larni rivojlantirishga ham harakat qilish kerak. Mana shu sifatlarning ham-masi birga qo'shib mehnatga bo'lgan qobiliyatni ta'minlaydi.

Qiziqishlar, mayllar va qobiliyatlarning kasb tanlashga ko'rsatadigan ta'sirini 4-rasmdagi sxema tarzida tasavvur qilish mumkin. SHunday qilib, har bir kishi konkret faoliyat sohasida o'z qiziqishlari, mayllari va qobiliyatlarini shakllantirib hamda ri-vojlantirib, tanlanadigan kasbga yaxshi tayyorgarlik ko'rib bormog'i kerak.

Qobiliyatlar inson aqluzakovatining sifati, undagi malaka, ko'nikma va bilimlarning borligi masalasi bilan xam uzviy bog'liq. Ayniqsa, biror kasbning egasi bo'lismi istagidagi xar bir yoshning aqli va intellektual salohiyati uning malakali mutaxassis bo'lib etishishini kafolatlagani uchun xam psixologiyada ko'proq qobiliyat tushunchasi aql zakovat tushunchasi bilan bog'lab o'rganiladi. Xar bir normal odam o'zining aqlli bo'lismini xohlaydi, «Men aqlliman» demasada, qilgan barcha ishlari, gapirgan gapi, yuritgan muloxazasi bilan aynan shu sifat bilan odamlar uni maktashlarini xohlaydi. «Aqlsiz, nodon» degan sifat esa xar qanday odamni, xattoki,



12- расм. Кизиқиши, майл ва қобилиятлар-нинг касб танлашга таъсири.

yosh bolani xam xafa qiladi. Yana shu narsa xarakterlik, ayniqsa, bizning shark xalqlarida biror kimsaga nisbatan «o'ta aqlli» yoki «o'ta nodon» iboralari xam ishlatilmaydi, biz bu xususiyatlarni o'rtacha tasniflar doirasida ishlatamiz: «Falonchining o'g'li anchagina aqlli bo'libdi, narigining farzandi esa biroz nodon bo'lib, ota-onasini kuydirayotgan emish» degan iboralar aslida «aqllilik» kategoriyasi insonning yuragiga yaqin eng nozik sifatlariga aloqadorligini bildiradi.

Ilm-fandagi an'analar shundayki, aql va idrok masalasi, odamning intellektiga bogliq sifatlar juda ko'plab tadqiqotlar ob'ekti bo'lgan. Olimlar qobiliyatlarning rivojlanish mexanizmlari, ularning psixologik tarkibi va tizimini aniqlashga, ishonchli metodikalar yaratib, xar bir kishining aqli sifatiga aloqador bo'lgan ko'rsatgichni ulhashga o'ringanlar. Ko'pchilik olimlar odam intellektida uning verbal (ya'ni so'zlarda ifodalanadigan), miqdoriy (sonlarda ifodalanadigan), fazoviy ko'rsatgichlarni aniqlab, ularga yana mantiq, xotira va xayol jarayonlari bilan bogliq jihatlarni xam kushganlar.

CH.Sirmen faktorial analiz metodi yordamida yuqorida sanab o'tilgan ko'rsatgichlar o'rtasida bogliqlik borligini isbot qilib, aqlning xaqiqatan xam murakkab tuzilmaga ega bo'lgan psixik xususiyat ekanligini ko'rsatdi. Boshqa bir olim Dj.Gilford esa aqlni bir qator aqliy operatsiyalar (analiz, sintez, taqqoslash, mavxumlashtirish, umumlashtirish, sistemaga solish, klassifikatsiya qilish) natijasida namoyon bo'ladigan xususiyat sifatida o'rghanishni taklif etgan. Bu olimlar aql so'zidan ko'ra intellekt so'zini ko'proq ishlatib, bu so'zning o'ziga xos talqini borligiga e'tiborni qaratganlar. Chunki ularning fikricha, intellektual potensialga ega bo'lgan Shaxsnigina qobiliyatli, deb atash mumkin. Intellektual potensial esa bir tomonidan hayotdagi barcha jarayonlarga, boshqa tomonidan - Shaxsga bevosita aloqador tushuncha sifatida qaralgan va uning ahamiyati shundaki, u borlikni va bo'ladigan hodisalarini oldindan bashorat qilishga imkon beradi. Shu o'rinda «intellekt» suzining lugaviy ma'nosini tushunib olaylik.

Intellekt - lotincha so'z - intellektus-tushunish, bilish va intellekt - aql so'zları negizidan paydo bo'lgan tushuncha bo'lib, u aql-idrokning shunday bo'lagiki, uni o'lchab, o'zgartirib, rivojlantirib bo'ladi. Bu - intellekt va u bilan bogliq qobiliyatlar ijtimoiy xarakterga ega ekanligidan darak beradi. Darxaqiqat, qobiliyatlar va intellektga bevosita tashqi muhit, undagi insoniy munosabatlar, yashash davri ta'sir ko'rsatadi. Buni biz bugungi kunimiz misolida xam ko'rib, his qilib turibmiz. Yangi avlod vakillari - kelajagini XX asr bilan bog'lagan o'g'il-qizlarning intellekt darajasi ularning ota - bobolarinikidan ancha yuqori.

Hozirgi bolalar kompyuter texnikasidan tortib, texnikaning barcha turlari juda tez o'zlashtirib olmokda, jahon tillaridan bir nechta bilish ko'pchilik uchun muammo bo'lmay holdai, minglab topshiriqlardan iborat testlarni xam yoshlar o'zlashtirishda

qiyalmayaptilar. Qolaversa, oila muhitining aql o'sishiga ta'sirini xamma bilsa kerak. Agar bola oilada ilk yoshlidan ma'rifiy muhitda tarbiyalansa, uning dunyoqarashi keng, xohlagan soha predmetlaridan beriladigan materiallarni juda tez va qiyinchiliksiz o'zlashtira oladi. Xattoki, bunday bolaga oliv o'quv yurtida beriladigan ayrim predmetlar mazmuni xam o'ta tushunarli, ular yanada murakkabrok masalalarni echishni xohlaydi.

Tug'ma va orttirilgan qobiliyatlar haqida: ba'zan o'ta iqtidorli va qobiliyatli bola haqida gap ketsa, undagi bu sifat Tug'ma ekanligiga ishora qilishadi. Talantli, genial olim, san'atkor yoki mutaxassis haqida gap ketsa xam xuddi shunday. Umuman qobiliyatlarning Tug'ma yoki orttirilgan ekanligi masalasi xam olimlar Diqqat markazida bo'lgan muammolardan. Tug'malik alomatlari bor individual sifatlar *layoqatlar* deb yuritildi va uning ikki xili farqlanadi: tabiiy layoqat va ijtimoiy layoqat. Birinchisi odamdagি Tug'ma xususiyatlardan - oliv nerv tizimi faoliyatining xususiyatlari, miyaning yarim sharlarining qanday ishlashi, qo'l-oyoklarning biologik va fizilogik sifatlari, bilish jarayonlarini ta'minlovchi sezgi organlari - ko'z, qulqoq, burun, teri kabilarning xususiyatlaridan kelib chiksa (bo'lar nasliy ota-onadan genetik tarzda o'tadi), ijtimoiy layoqat - bola tug'ilishi bilan uni o'ragan muhit, muloqot uslublari, so'zlashish madaniyati, qobiliyatni rivojlantirish uchun zarur shart-sharoitlar (ular ota-onsa tomonidan yaratiladi)dir. Layoqatlilik belgisi - bu o'sha individga aloqador bo'lib, u bu ikkala layoqat muhitini tayyoricha qabul qiladi.

Qobiliyatsizlik va intellektning pastligi sabablaridan xam biri shuki, ana shu ikki xil layoqat o'rtasida tafovut bo'lishi mumkin. Masalan, genial rassom oilasida bola tug'ildi deylik. Unda rassomchilik uchun tug'ma, genetik belgilar otasi tomonidan berilgan deylik. Lekin bolaning onasi farzandining xam rassom bo'lishini xohlamasligi, o'ziga o'xshash qo'shiqchi bo'lishini xohlashi mumkin. Ayol bolani yoshlikdan faqat musiqa muhitida tarbiyalaydi. Tabiiy layoqatning rivoji uchun ijtimoiy layoqat muhit yuk, ijtimoiy layoqat o'sishi uchun esa tabiiy, Tug'ma layoqat yo'q bo'lgani sababli, bolada xech qanday talant namoyon bo'lmasligi, u oddiygina musiqachi yoki qo'shiqchi bo'lish bilan cheklanishi mumkin. Intellekt testlari va qobiliyatdagi tug'ma va orttirilgan belgilarni o'rganishning psixologik ahamiyati aynan shunda. Ilk yoshlikdan bolaning o'zidagi mavjud imkoniyatlarni rivojlantirish shart-sharoitini yaratish ishini to'g'ri yulga qo'yish kerak.

Orttirilgan sifati shuki, bola toki bilim, malaka va ko'nikmalarni ustirish borasida xarakat qilmasa, eng kuchli tug'ma layoqat xam layoqatligicha kolib, u iqtidorga aylanmaydi. Eng talantli, mashxur Shaxslarning eng buyuk ishlari, erishilgan ulkan muvaffaqiyatlarining tagida xam qisman layoqat va asosan tinimsiz mehnat, intilish, ijodkorlik va bilimga chankoklik yotgan. SHuni xam unutmaslik kerakki, qobiliyatsiz odam bo'lmaydi. Agar Shaxs adashib, o'zidagi xakikiy iqtidor yoki layoqatni bilmay,

kasb tanlagan bo'lsa, tabiiy, u atrofdagilarga layokatsiz, qobiliyatsiz ko'rindi. Lekin aslida nimaga uning qobiliyati borligini o'z vaqtida to'g'ri aniqlay olishmagani sabab u bir umr shu toifaga kirib qoladi.

Shuning uchun xam xar bir ongli inson o'zidagi qobiliyat va zexnni ilk yoshlikdan bilib, o'sha o'zi yaxshi ko'rgan, «yuragi chopgan» ish bilan shug'ullansa, va undan qoniqish olib, qobiliyatini ustirishga imkoniyat topib, yutuklarga erishsa, biz uni *iqtidorli* deymiz. Iqtidor - insonning o'z xatti - xarakatlari, bilimlari, imkoniyatlari, malakalariga nisbatan sub'ektiv munosabatidir. Iqtidorli odam genial yoki talantli bo'lmasligi mumkin, lekin u xar qanday ishda mardlik, Chidamlilik, o'z-o'zini boshqara olish, tashabbuskorlik kabi fazilatlarga ega bo'lib, o'zlar shugullanayotgan ishni bajonidil, sitqidildan bajaradi. Ular ana shunday xarakatlari bilan ba'zi uta iste'dodli, lekin kamxarakat kishilardan ko'ra jamiyatga ko'proq foyda keltiradi. Iqtidorli insonda iste'dod soxibi bo'lish imkoniyati bor, zero *iste'dod* - xar tomonlama rivojlangan, nixoyatda kuchli va takrorlanmas qobiliyatdir. U tinimsiz mehnat, o'z qobiliyatini takomillashtirib borish yulida barcha qiyinchiliklarni engish va irodasi, butun imkoniyatlarini safarbar qilish natijasida qo'lga kiritiladi.

Qobiliyatlarning psixologik strukturasi: qobiliyatlar avvalom bor *umumi* va *maxsus* turlarga bo'linadi va xar birining o'z psixologik tizimi va tuzilishi bo'ladi. Shaxsning umumi qobiliyatları undagi shunday individual sifatlar majmuiki, ular odamga bir qancha faoliyat sohasida xam muvaffaqiyatli faoliyat ko'rsatish va natijalarga erishishga imkon beradi. Masalan, texnika oliv O'quv yurtining talabasi xam ijtimoiy-gumanitar, xam aniq fanlar, xam texnika fanlari sohasidagi bilimlarni o'zlashtira oladi. Bunda unga umumi bilimdonlik, nutq qobiliyatları, tirishqoqlik, Chidam, qiziquvchanlik kabi qator sifatlar yordam beradi.

Maxsus qobiliyatlar esa ma'lum bir sohada yutuklarga erishish, YUqori ko'rsatgichlar berishga imkon beruvchi sifatlarni o'z ichiga oladi. Masalan, sport sohasi bilan buxgalterlik hisob-kitobi bo'yicha ishlayotgan ikki kishida o'ziga xos maxsus qobiliyatlar bo'lmasa bo'lmaydi.

Umumiy qobiliyatlarni maxsus qobiliyatlarga zid tarzda talqin qilish mumkin emas. Shaxsning umumi qobiliyatları ularni hosil qiluvchi omillar yaqqol psixologik hodisa yoki voqealikdir. Maxsus qobiliyatlar ko'lam jihatdan torrok bo'lishiga qaramay, chuqurroq mohiyatni o'zlarida mujassamlashtiradi.I.P.Pavlov o'z ta'limotida "badiiy", "fikrlovchi", "o'rta" tiplarga ajratilgan Shaxslarning tavsifini beradi.

- "Badiiy tip" uchun bevosita taassurotlar, jonli tasavvur, yorqin idrok va emotsiyalar natijasida vujudga keladigan obrazlarning yorqinligi xos.

- "Fikrlovchilar" uchun esa mavxum mantiqiy, nazariy, metodologik muloxazalarning ustunligi xos.

- "O'rta" tipdagilarda esa xar ikkala toifa xususiyatlarining xos ekanligi ko'rindi.

Xar bir qobiliyat o'zining tizimiga ega. Masalan, matematik qobiliyatni oladigan bo'lsak uning tarkibiga umumlashtirish malakalari, aqliy jarayonlarning egiluvchanligi, mavxum tafakkur qila olish kabi qator xususiyatlar kiradi. Adabiy qobiliyatlarga ulardan farqli, ijodiy xayol va tafakkur, xotiradagi yorqin va ko'rgazmali obrazlar, estetik hislar, tilni mukammal bilishga layoqat; pedagogik qobiliyatlarga esa-pedagogik odob, kuzatuvchanlik, bolalarni sevish, bilimlarni o'zgalarga berishga extiyoj kabi qator individual xossalari kiradi. Xuddi shunga o'xshash qolgan barcha qobiliyatlarni xam zarur sifatlar tizimida tahlil qilish mumkin va bu katta tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'ladi.

Qobiliyatlar va qiziqishlar diagnostikasi: kasbiy psixologiyaning bugungi kundagi eng muhim va dolzarb vazifalaridan biri layoqat ko'rtaklarini ilk yoshlikdan aniqlash, intellekt darajasiga ko'ra Shaxs qobiliyatları yo'nalishini ochib berishdir. SHuning uchun xam hozirda ko'plab intellekt testlari va qobiliyatlarni diagnostika qilish usullari ishlab chiqilgan va ular muvaffaqiyatli tarzda amaliyotda qo'llanmokda.

Mavzu bo'yicha bilimlarni mustahkamlash uchun savollar

1. Shaxsning kasbiy etikasini izohlang?
2. Temperament va faoliyatning individual xususiyatlarini gapiring?
3. Gippokrat ta'limotini izohlang
4. Kasbni egallashda temperamentning roli
5. Xarakter va uning xususiyatlari.
6. Xarakterning tizimi Shaxs iqtidori va qobiliyatlar diagnostikasini izohlang?
7. Tug'ma va orttirilgan qobiliyatlar haqida gapiring?
8. Qobiliyatlarning psixologik strukturasini izohlang

5-MAVZU Kasbiy faoliyati samaradorligini oshirishda hissiy-irodaviy va shaxsiy fazilatlarning o'rni

Reja:

1. Hissiyot to'g'risida umumiyl tushuncha.
2. Shaxsning hissiy-irodaviy sohasi va kasbga moslashishi.
3. His-tuyg'ular va ularning turlari
4. Iroda aktining tuzilishi
5. Iroda nazariyalari talqini

Hissiyot bamisolai insonning kiyimidir. Insonning hissiyotiga ko'ra, uning holati haqida fikr yuritish mumkin.

His-tuyg'ular kishining o'z hayotida nimalar yuz berayotganiga, nimalarni bilib olayotganiga yoki nima bilan mashg'ul bo'layotganiga nisbatan o'zicha turli xil shaklda bildiradigan ichki munosabatidir. His-tuyg'ularning kechishi sub'ekt alohida his

etaryotgan ruhiy holat sifatida gavdalanadi. Bunda biron- bir narsani idrok etish va tushunib etish, biror narsa to'g'risida bilib olish idrok etilayotgan, tushunib olinayotgan, ma'lum yoki noma'lum narsalarga nisbatan Shaxsiy munosabati bilan birgalikda ro'y beradi. SHu hollarning barchasida his-tuyg'ularning boshdan kechirilishi hususida, kishining alohida hissiy holati hususida so'z yuritiladi.

His-tuyg'uni boshdan kechirishning turli shakllari: emotsiya-hissiyot, effekt, kayfiyat, kuchli hayajonlanish (stress holati) kiradi. Emotsiyalar - ruhiy hayajonlanish, ruhiy harakatlanish degan ma'noni anglatadi (qo'rquvdan titrash va xk.). Kishini tez chulg'ab oladigan va shiddat bilan o'tib ketadigan jarayonlar effektlar (hissiy portlashlar) deb ataladi. Ular ongning anchagina darajada o'zgarganligi, xatti-harakatlarni nazorat qilishning buzilganligi, odamning o'z-o'zini idrok qila olmasligi bilan ajralib turadi.

Agar oddiy hissiyot fakat ruhiy hayajonlanishni ifoda eta, u holda effekt burondir. Kuchli zo'rikish (ko'z yosh to'kish, kulish) natijasida mayda sa'i- harakatlar barbod bo'ladi. Induktiv tormozlanish yarim sharlar qobig'ini tobora ko'proq darajada egallay boshlaydi, bu tafakko'rning izdan chiqishiga olib keladi, qobiq osti yo'llarida qo'zg'alish kuchaya boshlaydi.

Kayfiyatlar-ancha vakt davomida kishining butun xatti- harakatiga tus berib turadigan umumiyy hissiy holatini ifodalaydi. U shodlik, qayg'u, jizzakilik yoki muloyimlik tarzida bo'ladi. Kayfiyatlar odatda o'ziga-o'zi hisob bermasligi va sust namoyon bo'lishi bilan belgilanadi. Asosiy hissiyotlar stress holati - inglizcha stress - tazyik ko'rsatish, zo'rikish degan so'zdan olingan qiziqish (emotsiya tarzida) - malaka va ko'nikmalarning rivojlanishiga, ta'lim olishiga moyillik tug'diradigan bilimlarni egallahsga yordam beradigan hissiy holatdir.

Quvonch-qiziqish, xayratlanish, iztirob chekish, g'azablanish, nafratlanish, jirkanish, qo'rquv, uyalish - bular hissiyotning asosiy **belgi** va **ko'rinishlaridir**. Kishining fikrlari va xatti-harakatlari yo'nalishini belgilaydigan barqaror, chuqur va kuchli his-tuyg'u ehtiros deb ataladi.

Muhabbat-hissiy ijobiy munosabatning ob'yektini boshqalarga qaraganda ajratib ko'rsatadigan, hamda uni sub'yektining barqaror hayotiy extiyojlari va qiziqishlari markaziga qo'yadigan yuksak darajasidir.

His-tuyg'ularning shakllanishi: ta'lim berish jarayonida talabalarda intellektual tuyg'ularni shakllantirish, bilishga qiziqish va ishtiyoq uyg'otish masalasi hamisha dolzarb hisoblangan. Ma'lumki, agar talaba ta'lim olishida bilimga ishtiyoq ustunlik kilmasa, agar u doimo yangi narsani bilib olayotganidan shodlik va baxtiyorlikni his etib turmasa, u holda talaba o'qishda va mehnatda yuksak natijaga erisha olmaydi.

«Aqlli kishi uchun har kuni yangi hayot boshlanadi» bu jumlanı qayta-qayta o'qir ekanman, jismimda, ruhiyatimda yangicha bir kuch, yashashga bo'lган ishtiyoq hissi

uyg'onib borardi.

Stiven Likok shunday yozadi: «Taajubki, vaqtdan yulib olingan parchani bizning hayotimiz-umr deb ataymiz. Go'dak o'zicha «Qachon talaba bo'laman» deb o'ylaydi. Xo'sh, keyinchi? Talaba «Qachon ulg'ayaman?» deydi. Xullas, u ulg'aygach, «Kachon uylanaman?» deyishi tabiiy. Nixoyat, uylandi ham. Endi bo'ldimi?

- Aslo!
- Hammasi o'z navbatida kelaveradi. Pirovardida u «Kachon pensiyaga chiqaman?» deb qoladi. Ana endi pensiya yoshiga etgach, bir bosib o'tgan «shonli yo'lga bokadi» yuziga sovuk el urilgandek bo'ladi.

Ko'z oldida hayotda qanchadan-qancha imkoniyatlarni sovurib yuborganini, u damlar endi mutlaqo qaytib kelmasligi haqidagi achchiq haqiqatni anglab etadi» Biz hayot mohiyati bir maromdag'i kun soatida ekanini juda kech faxmlaymiz».

Bezovtalik paydo bo'ldimi, endi u shunchaki o'tib ketadigan «ruhiy horg'inlik» emas. Soat sayin, soniya sayin insonning asab tizimlarini xavfli yonginday ko'rshab oluvchi, azob-uqubatlari bilan tinkani qurituvchi ko'rinas yovdir.

Konfutsiy «Ziqna, izzattalab, maydakash, mahmadona kishilarining turgan-bitgani zarar» degan ekan.

Samimiyat-insondagi eng oliy va ta'sirchan, beminnat hamda engilmas quro.

Bizni tanqid qila boshlashsa, bir o'zgarib olamiz, ammo bizni maqtay boshlashsa, shunga loyikmizmi, yo'qmi, xursand bo'lib ketamiz.

Muxabbatning yonidan qayiqda boylik ketayotganini ko'rib «ey boylik, meni o'zing bilan olib ket» deb so'radi. boylik «xech iloji yo'q, mening qayig'imda, juda ko'p oltinlar va kumushlar, bor qara joy yo'q».

G'urur, faxrdan yordam so'radi «G'urur iltimos meni o'zing bilan olib ket» deb so'rasa. Buning xech iloji yo'q, qayig'imda hamma joyim juda chiroyli, sen uni buzib qo'yish¹⁰ mumkin-deb javob beribdi. Muxabbat yonidan qayg'u o'tib ketayotganini ko'rib kolib, ey qayg'u meni ham o'zing bilan olib ket desa: muxabbat men yolg'iz kolishni istayman-deb ketib kolibdi.¹⁰

So'ng yaxshi kayfiyatdan yordam so'rab bakiribdi. Lekin yaxshi kayfiyat juda baxtli va xursand edi, kimdir uni chakirayotganini eshitmadni.

Bir paytda bir ovoz keldi, ey muxabbat yur men senga yordam beraman degan, qarasa bir keksa odam muxabbatni bir chekkaga olib chiqdi. Muxabbat juda baxtli va xursand bo'lib ketdi va unga kim yordam bergenini ham bilmay koldi. Atrofiga qarasa xech kim ko'rinnadi, menga kim yordam berdi ey bilim deb bilimdan so'radi. Bilim javob berdi, senga vakt yordam berdi-dedi.

Iroda-bu kishining oldiga qo'yilgan maqsadlarga erishishida qiyinchiliklarni

¹⁰ Myers, D. G. Psychology. Hope College. Holland, Michigan, 2010.

yengib o'tishga qaratilgan faoliyati va xulq-atvorini ongli ravishda tashkil qilishi va o'z-o'zini boshqarishi demakdir. Iroda - bu Shaxs faolligining alohida shakli, uning xulq-atvorini tashkil etishning inson tomonidan qo'yilgan maqsad bilan belgilanadigan alohida turidir. Iroda tabiat qonunlarini egallab oladigan va shu tariqa uni o'z extiyojlariga ko'ra o'zgartirish imkoniyatiga ega bo'ladigan kishining mehnat faoliyatida paydo bo'ladi. Iroda o'zaro bog'liq ikkita vazifaning undovchi va tormozlash (to'xtatuvchi) vazifalarning bajarilishini ta'minlaydi va ularda o'zini namoyon qiladi.

His-tuyg'uning ko'rinishlari: kishining o'z faoliyati natijalari uchun mas'uliyatni tashqi kuchlarga va sharoitlarga qayd kilib qo'yish yoki aksincha ularni Shaxsiy kuchg'ayratlariga va qobiliyatlariga moyilligini belgilaydigan sifatlar nazoratni lokallashtirish deyiladi. (lotincha lokus-o'rnashgan joy va fransuzchada sontrole-tekshirish).

Shaxsning irodaviy fazilatlaridan biri tavakkalchilik bo'lib, - bu sub'yekt uchun uning cheki noma'lum va muvaffaqiyatsizlikka duch kelganda

Tavakkalchilik paytida kutilayotgan noxushlik bunday holatdagi muvaffaqiyatsizlik extimoli va nokulay oqibatlar darajasining uyg'unlashtirilishi bilan belgilanadi. Tavakkalchilikning ikki turi farqlanadi: oqlangan va oklanmagan.

Shaxsning irodaviy fazilatlariga yana bir nechta faoliyat motivlari ham kiradi. Ular:

Intilish - hali yetarli darajada anglanmagan extiyojdan iborat faoliyat motifidir.

Istak - faoliyatning motivi sifatida extiyojning yetarli darajada tushunib etilganligi bilan tavsiflanadi. Bunda fakat extiyoj ob'ekti emas, balki uni kondirishning mumkin bo'lgan yo'llari ham tushunib etiladi. Irodaning kuchliligi va kuchsizligi Shaxsning individual hususiyatlariga kiradi.

Hissiyotning buzilishlari ikki xil ko'rinishda bo'lib, ular dan birinchisi:

Abuliya - bu miya patologiyasi zaminida yuzaga keladigan faoliyatga intilishning yo'qligi, harakat qilish yoki uni bajarish uchun qaror qabul qilish zarurligini tushungan holda bunday qila olmaslikdir.

Ikkinchisi: **Apraksiya** - miya tuzilishining shikastlanishi natijasida kelib chiqadigan harakatlar maqsadga muvofiqligining murakkab buzilishidir. Bu jarayon irodaviy harakatning bajarilishini qiyinlashtiradi. Abo'liya va apraksiya-psixikasi (ruhiyati) og'ir kasallangan odamlarga xos, nisbatan kam uchraydigan hodisadir.

Shaxs ijtimoiy hayotining barcha jabhalarida uning xulq-atvorini boshqarib turadigan ahloq mezonlari shu his-tuyg'ularning tevarak atrofdagilardan ob'yektiv ravishda olib turadigan baholashning asosi hisoblanadi. Ayniqsa, ma'naviy his-tuyg'ularni tarbiyalash pedagogik faoliyatda muhim jihatlardan biri hisoblanadi.

Amerikalik olim G.Ollport ijtimoiy ustyanovkaning uch komponentli tizimini ishlab

chiqqan:

-Kognitiv komponent - ustanovka ob'ektiga aloqador bilimlar, g'oyalar tushuncha va tasavvurlar majmui;

-Affektiv komponent-ustnovka ob'ektiga nisbatan sub'ekt his qiladigan real hissiyotlar (simpatiya, antipatiya, loqaydlik kabi emotsional munosabatlar);

-Harakat komponenti - sub'ektning ob'ektga nisbatan real sharoitlarda amalga oshirishi mumkin bo'lган harakatlari majmui (xulqda namoyon bo'lish).

Bu uch xil komponentlar o'zaro bir-birlari bilan bog'liq bo'lib, vaziyatga qarab u yoki bu komponentning roli ustivorrok bo'lishi mumkin. SHuni aytish lozimki, komponentlararo monandlik bo'lmasligi ham mumkin. Masalan, ayrim talabalar talabalik burchi va tartib - intizom bilan juda yaxshi tanish bo'lsalar ham, har doim ham unga rioya qilavermaydilar. «Tasodifan dars koldirish», «jamoatchilik joylarida tartibni buzish» kabi holatlar kognitiv va harakat komponentlarida uygunlik yo'qligini ko'rsatadi. Bu bir qarashda so'z va ish birligi tamoyilining turli Shaxslarda turlicha namoyon bo'lishini eslatadi. Agar odam bir necha marta bila turib, ijtimoiy xulqka zid harakat kilsa, va bu narsa bir necha marta qaytarilsa, u bu holatga o'r ganib qoladi va ustanovkaga aylanib kolishi mumkin. SHuning uchun ham biz ijtimoiy normalar va sanksiyalar vositasida bunday qarama-karshilik va tafovut bo'lmasligiga yoshlarni o'rgatib borishimiz kerak. Bu Shaxsning istikboli va faoliyatining samaradorligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Kasbga yo'naltirishda hal qiluvchi davr talabaning o'z istagi yoki zaruratiga ko'ra, tanlagan va uning mehnat yo'lini belgilaydigan kasbga kirishish davridir. Bu davr shuning uchun ham hal qiluvchiki, kishining mehnat yo'li bo'lishi, bu yo'lda u qanchalik uzoq vakt muvaffaqiyatli bora olishi ishlab chiqarishni xodimlar o'rtasidagi muomalani endi o'quvchi emas, balki boshqa rolni malakali xodim rolini qanchalik oson yoki qiyin, tez yoki sekin o'zlashtirishiga bog'liq.

Kasbiy moslashuv - bu yosh insonning asta-sekin kasbiy mehnat sharoitiga kirish vazifasiga ko'ra emas, balki uning psixik hususiyatiga ko'ra talaba o'quvchilikdan malakali xodimga aylanishidir.

Organizmning ishlab chiqarish muhiti va mehnat rejimiga moslashish tarzida biologik ko'nikish elementlarini ham o'z ichiga olgan holda kasbga ko'nikish bir butunlikda ijtimoiy ko'nikishning asosiy turi hisoblanadi. Kasbiy moslashuv davri odatda uchta o'ziga xos bosqich bo'yicha boradiki, ularning har biri kasbiy ta'lim pedagoglari uchun juda muhim hususiyatga ega.

1. Kasbiy moslashishning birinchi bosqichi tanishtirish bo'lib, o'zining atrof muhitidagi yangi rolini anglashidan iborat. U tanlangan kasb bo'yicha muayyan malaka olishga qaror qilgandan boshlanadi va ishlab chiqarish ta'limiga dastlabki nazariy tayyorgarlik davrida, o'quv qobiliyatlari kasb- hunar kolleji tayanch korxona bilan

tanishishdan boshlanadi. Kasbiy moslashishning bu birinchi bosqichida qabul kilingan qarorning to'g'riliгини talaba o'zi baholaydi. Kasbga, ishlab chiqarish mehnati guruxlariga va ukituvchilariga, kasb-hunar kelleji va korxonaga munosabati vujudga keladi. Talaba o'z kelajagiga nazar tashlaydi hamda tanlangan kasbida qanday jozibali va qandaydir kamchilik tomonlarini ko'radi. Bolalikda uyg'ongan, qiziqtirgan sohalar haqidagi uy- xayollar barbod bo'ladi. Hamda yangi umid va intilishlar paydo bo'ladi. Ta'sirchan talabalar ongida sabablarning qattiq kurashi ketadi. Bu kurash oqibati boshqa bir mashg'ulotga bo'lgan oldingi intilishlar engadimi yoki yangi egallash mavkega muvofiq yangi intilishlar tug'iladimi, bularning hammasi birinchi mashg'ulot: muallim va yakin keljakda o'qish va ishga to'g'ri keladigan kasb hunar kolleji va korxonalarining tuzilishi, ulardagi umumiy sharoitlar uyg'otadigan taassurotga bog'liq bo'ladi.

2. Kasbiy moslashishning ikkinchi tayyorlov bosqichi - ijtimoiy umumiy texnika va maxsus predmetlar hamda o'quv xonalarida ishlab chiqarish ta'limini asosli o'rganishdan iborat bo'lib, bu kasb o'rganishdir. Bu erda ham tanlangan mehnat yo'llini baholash davom etadi. Atrof muhitga, ta'limga va o'zlashtirilayotgan mehnatga munosabat o'zgaradi. Biroq hal qiluvchi narsa taassurot emas, balki o'quv mehnatidagi yutuq va kamchiliklar bo'ladi. Kasbiy moslashishning ancha uzoq va ma'suliyatli bo'lgan bu bosqichida kasbini o'zlashtirayotgan malakali xodim Shaxsining daslabki shakllanishi yuz beradi. Bu shakllanishing muvaffaqiyati o'zining o'quv mehnati natijasidan qanoatlanishi va qanoatlanmasligiga bog'liq yutuklar quvontiradi va ilxom beradi, yanada kattarok muvaffaqiyatlarga undaydi, tasodifiy muvaffaqiyatsizlik yanada ko'proq kuchni safarbar qilishni talab qiladi. Ammo bunday holat tez-tez bo'lib tursa, doimiy muvaffaqiyatsizlik esa ishdan, o'qishdan va kasbdan ixlosini qaytaradi. O'quv predmeti va ishlab chiqarish mashklariga bo'lgan qiziqishning paydo bo'lishi, kuchayishi yoxud yo'qolishini hamda kasbni yoqtirmay kolishi ana shu yutuk va muvaffaqiyatsizliklarga bog'liq bo'ladi. Bularning hammasi avvalo pedagoglarga o'quvchilarining yutug'i va muvaffaqiyatsizligi o'quvchining ruhiy holatiga ko'ra qanchalik e'tibor berishlariga hamda ularning qanchalik moxirlik bilan boshqara bilishiga bog'liq.

3. Kasbiy moslashishning uchinchi asosiy bosqichi yosh insonning korxona xodimlari muhitiga singishidir. Bu bosqich o'quvchi-talaba o'zini o'rabi olgan o'sha jamoaning a'zosi sifatida his qiladigan ammo ular darajasida malaka orttirmagan mehnat unumdarligi va mahsuloti sifatini ta'minlay olmaydigan, ba'zan xato va beparvoliklarga yo'l qo'yadigan, ishlab chiqarish amaliyoti davrida boshlanadi. Rasmiy jihatdan o'zining tengligi va atrofdagi kishilar bilan ishlab chiqarish malakasida tez emasligi hamda ularning yosh xodimga «temir qanot qushcha» deb munosabatda bo'lishini anglash uning bu bosqichdagi kasbiy moslashish jarayonini favkulodda

murakkablashtirib qo'yadi. Buni ijobjiy hal qilish esa amaliyotda korxona xodimlari bilan o'zaro munosabati qanday bo'lishi kasb-hunar kollejini tugatgach ular bilan birgalikda qiladigan mehnatga bog'liq bo'ladi.

Kasb-hunarga moslashish sharoiti bir nechta ta'sir etuvchi omillar natijasida yuzaga keladi. Ularning birinchisi tashqi ta'sir omillari bo'lib, kichiq yoshdagi maktab o'quvchilariga mo'ljallangan ma'naviy-tarbiyaviy ishlar, ijtimoiy-tarbiyaviy mehnat, oilaviy tarbiya, jamoatchilik tarbiyasi kabi tarmoklardan iborat. Maktabdagi va atrofdagi muhit, ota-onaning kasbi-kori, Shaxsning ichki va tashqi tabiat, oilaviy kasb-hunar an'analaridan tashkil topgan ijtimoiy pedagogik omillar ikkinchi gurux hisoblanadi. Uchinchgi guruxga kasb-hunarni to'g'ri tanlay olish, unga nisbatan qiziqish, malaka, ish sharoiti, mehnat faoliyatining samaradorligi kabi o'ziga xos omillar kiradi. Ana shu omillarni uygunlashtirish kasbga moslashuv jarayoniga ijobjiy ta'sir etish barobarida ta'lim - tarbiya tizimiga ilgor pedagogik texnologiyalarni va ish tajribalarini joriy qilishni taqozo etadi. Bunday pedagogik tadqiqotlar yoshlarning muayyan kasb-hunarni mukammal va tez fursatda egallashiga yordam beradi. Bu hol o'z navbatida Shaxs va jamiyat manfaatlariga xizmat qiladi.

Ioda haqida tushuncha: borliqni aks ettirish, faoliyatni muayyan yo'nalishda tashkil qilish, muammolar yechimini egallash yuzasidan ma'lum bir qarorga kelish, uni amalga oshirish jarayonida qiyinchiliklarni engish harakatlar yordami bilan ro'yobga chiqadi. Turli ehtiyojlar (Shaxsiy, jamoaviy, tabiiy, madaniy, moddiy, ma'naviy) tufayli vujudga keladigan, maqsadga yunalganlik hususiyatini kasb etadigan Shaxsning faolligi o'zining tuzilishi, shakli rang- barang bo'lgan harakatlar, xatti -harakatlar va sayi-harakatlar yordami bilan tabiat, jamiyat tarkiblarini maqsadga muvofiq kelmaganligi sababli qayta ko'radi, takomillashtiradi, ezgu niyatga xizmat kildirishga buysundiriladi. Extiyoj, motiv, qiziqish, anglashilmagan, anglashilgan mayllar negizidan kelib chiqadigan barcha ko'rinishdagi harakatlar o'zlarining yuzaga kelishiga binoan ixtiyorsiz va ixtiyoriy turkumlarga ajratiladi.

Odatda psixologiyada ixtiyorsiz harakatlar anglanilgan yoki yetarli darajada anglanmagan istak, xohish, tilak, mayl, ustanovka va shu kabilarning ichki turtki ta'sirida paydo bo'lishi natijasida ro'yobga chiqariladi. Mazkur istak va uning boshqa shakllari impulsiv (lotincha impulsus ixtiyorsiz ko'zg'olish ma'nosini anglatadi) hususiyatiga ega bo'lib, inson tomonidan anglanilmaganligi uchun ma'lum ob'ektga qaratish yuzasidan rejorashtirilmagan, xatto ko'zda tutilmagan bo'ladi. Insonning favkuloddagi vaziyatda yuzaga keladigan sarosimalik affekti, daxshat, hayajonlanish, ajablanish, shubhalanish va shunga uxshash boshqa mohiyatli, har xil shakldagi xatti-harakatlari ixtiyorsiz turkumdagilarga yorqin misoldir. Undagi atamalar ma'nosи, aks etish imkoniyati bundan oldingi hissiyot to'g'risidagi ma'lumotlarda keng ko'lamda bayon kilingan.

Boshqa kategoriyada taalluqli harakatlar ixtiyoriy harakatlar deb nomlanib, ular maqsad ko'zlash, maqsadni anglashni va uni amalga oshirishni ta'minlovchi operatsiyalar, usullar va vositalarni Shaxs o'z miyasida tasavvur qilishni, samaradorligini taxminan baholashni taqozo etadi. O'zining mohiyati bilan tafovutlanib turuvchi ixtiyoriy harakatlarning alohida guruxini irodaviy harakatlar deb ataluvchi turkum tashkil qiladi. Psihologik ma'lumotlarga asoslangan holda ularga quyidagicha ta'rif berish mumkin: «Maqsadga erishish yo'lida uchraydigan qarama-karshiliklarni bartaraf qilish jarayonida zo'r berish bilan uygunlashgan, muayyan maqsadga yo'naltirilgan ongli harakatlar irodaviy harakatlar deyiladi».

Shaxsning irodaviy faoliyati o'z oldiga qo'ygan anglangan maqsadlarni bajarishdan, amalga oshirishdan iborat sodda shakldagi harakatlarning majmuasidan iborat emas. Zo'r berishni taqozo etmaydigan ish harakati (masalan, shkafdan choynak olish, sochiqni kozikka ilish va xokazolar) bilan irodaviy faoliyat tarkiblari o'rtasida keskin tafovut mavjud. Irodaviy faoliyat o'ziga xos hususiyatga ega bo'lib, uning mohiyati shundan iboratki, bunda Shaxs o'z oldiga qo'ygan va unga muhim ahamiyat kasb etuvchi maqsadlariga o'zi uchun kamrok kiymatga molik xatti-harakat motivlarini buysundiradi. Ustivor (etakchi) motivlar qo'yshimcha ko'makchi motivlarni muayyan yo'nalishga safarbar kilib, umumiyl maqsadga xizmat qildiradi.¹¹

Irodaviy faoliyat mohiyati shunda ko'zga tashlanadiki, bunda Shaxs o'zini o'zi boshqaradi, o'zini kulga oladi, o'zining hususiy ixtiyorsiz impulsiv tomonlarini nazorat etadi, xatto zarurat tug'ilsa, u holda ularni tamoman yo'qotadi ham. Iroda paydo bo'lishining bos omili-inson tomonidan faoliyatning turli tarkiblarining irodaviy harakatlarni tizimli tarzda tatbik etilishi bunday ish-harakatlarda ong bilan mujassamlashuvchi Shaxsning faolligidir. Irodaviy faoliyat Shaxs tomonidan keng ko'lamda angilanilgan va ruhiy jarayonlarni amalga oshirish hususiyati bo'yicha irodaviy zo'r berishni talab qiladigan aqliy amallarni taqozo etadi. Bunday aqliy amallar favquloddagi vaziyatni baholash, kelgusida amalga oshirishga mo'ljallangan harakatlar uchun vositalar va operatsiyalar tanlash, maqsad ko'zlash va unga erishishning usullarini saralash, ularni tatbik etish uchun muayyan qaror qabul qilish kabilar bo'lib hisoblanadi. Ushbu amallarning barchasi irodaviy faoliyatning operatsional tomoni deb baholanadi.

Insoniyatning ijtimoiy-tarixiy tarakkiyotining yirik namoyandalari ijodiy faoliyatiga taallukli ma'lumotlar, qarorga kelish namunalari ularning ijtimoiy-psihologik kiyofalarini aks ettirish imkoniyatiga egadir. Masalan, buyuk sarkarda Amir Temur Ko'ragoniyning «Kuch adolatdadir» degan xikmati, Alisher Navoiyning

1. ¹¹ G'oziev E.G'. Umumiyl psixologiya.-O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti. T.: – 2010.

«Zanjirband sher-engaman der» xitobi, CHo'lponning «Xalq dengizdir, xalq to'lqindir, xalq kuchdir» chaqirigi javobgarlikni yuksak his etgan holda xalqining xohish irodasini ifoda kilib, kat'iy irodaviy xatti-harakatlarini amalga oshirganlar, shu bilan birga ular o'zlarining ma'naviy, kadriy, ruhiy kiyofalarini chuqur va ko'pyoqlama ochib berishga musharraf bo'lganlar. Ijtimoiy tarixiy saxifalarimizda, yakin o'tmishimizda va istiklol davrida ko'plab vatandoshlarimiz irodaviy xatti- harakatlarining namunaviy ko'rinishlarini namoyish qilganlar, bular rasmiy manbalarda va badiiy adabiyotlarda keng ko'lama yoritilgan.

YUKoridagi muloxazalardan tashqari, irodaviy faoliyatning o'ziga xos psihologik hususiyatlari ham mavjuddir va ular muayyan tavsiflarga asoslanib talkin qilinadi. Irodaviy faoliyatni yoki alohida iroda aktini (latincha actus harakat degan ma'noni anglatadi amalga oshirishishning hususiyatlaridan biri- bu bajarilayotgan harakatlarning erkin ekanligini Shaxs tomonidan anglash (bunday kilsa ham bo'ladi yoki unday kilsa ham) iboratligidir. Ushbu jarayonda Shaxs xech bir narsani uddasidan chiqmaydigan yoki vaziyatga to'la-to'kis tobeklik qiladigan, qolaversa yuzaga kelgan sharoit talablariga so'zsiz, zaruriy buysunadigan kechinmalar hukm surmaydi. SHuning uchun Shaxs tomonidan qarorga kelishning erkinligi, mustaqilligi bilan uygunlashgan kechinmalar hukm surishi mumkin, holos. Mazkur qarorga kelishdagi erkinlik hissi insonning o'zi niyatlari bilan harakatlari ro'yobga chiqishiga nisbatan mas'uliyat yoki javobgarlik tuyg'usining kechishi bilan izchillik kasb etadi.

Irodaviy faoliyatning o'ziga xos hususiyatlari quyidagilardan tashkil topgandir; 1) irodaviy harakatlarni Shaxs hamisha ularning sub'ekti sifatida amalga oshiradi; 2) irodaviy akt, harakat Shaxs to'la-to'kis mas'ullikni zimmasiga olgan ish, amal sifatida ichdan (ichki dunyosida) kechiriladi; 3) irodaviy faoliyat tufayli inson ko'p jihatdan o'zini o'zi Shaxs sifatida anglaydi; 4) irodaviy faoliyat sababli Shaxs o'z hayot yo'li va taqdirini o'zi belgilashini tushunib etadi va xokazo. SHu bilan birga irodanining faollashtiruvchi va jilovlab turuvchi (tormoz qiluvchi) funksiyalari birgalikda (hamkorlikda) hukm sursagina, fakat shundagina Shaxsning o'z maqsadiga erishish yo'lidagi to'siqlarni engishni kafolatlashi mumkin.

Irodaviy fazilatlarni shakllantirish: iroda muammosiga bagishlangan bundan oldingi saxifalarda ta'kidlab o'tilganidek, Shaxsning irodaviy harakatlari murakkab psihologik mazmun, mohiyat, ma'no kasb etishi bilan tavsiflanadi. SHuni ham eslash o'rinniki, Shaxsda motivlar kurashining paydo bo'lishi uchun unga mas'uliyat, javobgarlik hissining yuklatilishi, irodaviy harakatni amalga oshirish zaruriyati tug'ilishi, mazkur vaziyatda shubhalanish, ikkilanish uyg'onishi favkulodda unda irodaviy zo'r berishlar vujudga kelishi lozim. Bu voqelikni tushuntirish yoki izohlash uchun psihologik nuqtai nazardan iroda aktining tarkiblaridan iborat ekanligini aniqlanish uchun uning unsurlari, bo'linmalari, tuzilishi to'g'risida muloxaza yuritish

joiz.

Insonning miyasida tug'iladigan maqsadga erishish tufayligina irodaviy harakat amaliyotga tadbik etiladi. Ushbu fikr boshqacharok ifodalanganda, Shaxs u yoki bu harakat yordami bilan qo'yilgan maqsadiga erishish yo'llarini anglab etadi, ya'ni harakat bilan maqsad, o'rtasidagi uygunlik insonga tobora yakkollahadi, anglashiniladi. Holbuki shunday ekan, Shaxs o'zining ruhiy holatini o'zgartirishga qaror qiladi, kondirilishi lozim bo'lgan extiyojlarini muayyan tartibga keltiradi, ularni birlamchi va ikqilamchi darajalarga ajratishni lozim topadi. Xuddi shu yusinda irodaviy harakatni amalga oshirishning tarkok va yigik tarkiblari (unsurlari) maqsadga yo'naltiriladi. Ushbu jarayonga inson Shaxsini undayotgan, ham anglanilgan, ham anglanilmagan ruhiy tayyorgarlik motivdan iborat bo'lib, maqsadga intilish va unga erishish majburiyatini tushuntirishga xizmat qiladi.

Irodaviy aktning boshlanishi maqsadga erishish yo'l-yuriklari haqiqatdan ham aniq istaklarning o'shalishiga xizmat qilishi to'g'risida okilona qarorga kelishda o'z ifodasini topadi. Insonda vujudga kelgan kuchli, shijoatli intilishlarni yo'qolishiga harakat qilinadi Biroq qabul kilingan qaror (yoki qarorga kelish) ning ahloq-odob prinsiplariga javob bera olishini (mutanosibligini), ijtimoiy ahamiyat kasb etish imkoniyatini anglashning o'zi Shaxs uchun murakkab ishni «o'lik» nuqtasidan siljitimishga, ko'zgatishga yetarli darajadagi omil bo'lib xizmat qila olmaydi.

Iordaning individual hususiyatlari va fenomenlari mavjud bo'lib, inson faoliyatining maqsadga muvofiq ravishda amalga oshirishni ta'minlaydi. Iroda Shaxs faoliyatining ichki qiyinchiliklarini engishga qaratilgan ongli to'zilmadan iborat bo'lib, u o'zini o'zi boshqarish sifatida dastavval o'ziga, o'z hissiyotiga va xatti-harakatlariga hukm ronlik qilishda aks etuvchi psihologik hodisadir. Iordaning kuchi yoki kuchsizligini aks ettiruvchi holatlar uning individual hususiyatlarini namoyon qiladi. Ana shu atamalardan kelib chiqqan holda irodasi kuchli va irodasi sust (kuchsiz) odamlar hamda ularning ijobiy va salbiy fazilatlari, sifatlari, hislatlari, illatlari to'g'risida muloxaza yuritiladi.

Irodasi sustlikning patologiyasi mavjud bo'lib, ular abo'liya (yunoncha abulia-qat'iyatsizlik degan ma'noni anglatadi) va apraksiya (yunoncha apraxia- harakatsizlik ma'nosini bildiradi) atamalari bilan ifodalanadi. Abo'liya- bu miya patologiyasi negizida vujudga keladigan faoliyatga intilishning mavjud emasligi, harakat qilish, uni amalga oshirish uchun qaror qabul qilish zarurligini anglagan tarzda shunday qila olmaslikdan iborat inson ojizligidir. Masalan, shifokor ko'rsatmalariga rioya qilish zarurligini to'g'ri faxmlagan abo'liya kasali bilan shikastlangan bemor biror narsani bajarishga o'zini mutlaqo yo'llay olmaydi. Apraksiya-miya tuzilishining shikastlanishi tufayli yuzaga keladigan harakatlar maqsadga muvofiqligining murakkab bo'zilishidan iborat psixopatologik holatdir. Nerv tukimalarining buzilishi miyaning peshona

qismlarida yuz bersa, u holda xatti-harakatlarni erkin to'g'rila shda bo'zilish namoyon bo'ladi, natijada iroda akti bajarilishi qiyinlashadi. Abo'liya va apraksiya-psixikasi og'ir kasallangan insonlarga xos, nisbatan noyob, fenomenal psixopatologik hodisalardir. Lekin pedagogik faoliyatda uchraydigan irodaning sustligi miya patologiyasi bilan emas, balki noto'g'ri tarbiya mahsuli bilan tavsiflanadi.

Iroda sustligining yaqqol (tipik) ko'rinishlaridan biri-bu yalkovlik hisoblanib, Shaxsning qiyinchiliklarini engishdan bosh tortishga intilishi, irodaviy kuch-g'ayrat ko'rsatishni kat'iy ravishda istamasligida o'zini aks ettiruvchi illatdir. YAlkovlik-Shaxs ojizligi va irodaviy sustligining, uning hayotga layoqatsizligining, Shaxsiy va ijtimoiy faoliyatga (hamkorlikka) loqaydligining ifodasidir. YAlkovlik-Shaxsning ruhiy kiyofasi bo'lib, o'zluksiz tarbiyaviy ta'sir va o'zini o'zi tarbiyalash orqali bartaraf etish imkoniyati mavjud ruhiy nuqsondir.

Irodaning tadqiqoti uzoq tarixga ega bo'lib, inson ongingining mohiyatini kashf qilish jarayonidan boshlab, muayyan bilimlar tuplanishi tufayli Shaxsning irodasi tabiatini tushunishga ilmiy yondashuv vujudga kelgan. XVII asrdayoq Gobbs va Spinozalar ta'kidlab o'tganlaridek, faollik manbai bemahsul sohaning paydo bo'lishi deb tushunish mumkin emas, Chunki uni Shaxsiy kuch- quvvatini hissiy intilish bilan uzviylikda qaramoklik lozim. Spinozaning fikricha, iroda bilan aql aynan bir narsadir. Unga bunday tasdikiy munosabatning tug'ilishi irodani ilmiy nuqtai nazardan tushunishni shakllantirgan bo'lsa, ikkinchi bir tomondan u mustaqil substansiya sifatida tan olindi ham. V. Vundtning muloxazasicha, irodaning negizida appersepsiya aktining sub'ekti tomonidan ichki faollik uniki ekanligini his etish yotadi. Uning bu konsepsiyasi emotSIONAL yoki affektiv nom bilan psihologiya faniga kirib keldi. U. Djemsning tan olishicha, irodaviy harakatlar boshqa ruhiy jarayonlarga korishtirib bo'lmaydigan birlamchi hususiyatga egadirlar. Har qanday g'oya dastlab dinamik tendensiyaga ega bo'lganligi tufayli irodaviy aktning vazifasi dikkat yordami bilan bir g'oyaning boshqasi ustidan ustuvorligini ta'minlashdan iboratdir.

V. K. Kalin irodaviy sifatlarni tasniflashga (klassifikatsiyalashga) qaror qiladi. Uning nuqtai nazaricha, bazal irodaviy sifatlar irodaviy jarayonlar asosida vujudga keladi, ammo bunda uning intellektual va ahloqiy jabhalari ishtirok etmaydi. U bazal sifatlarni aniqlash uchun ongning quyidagicha namoyon bo'lishini tanlaydi:

- A) Faollik darajasining ortishi;
- B) zarur bo'lган faollik darajasini quvvatlash;
- B) Faollik darajasining pasayishi.

Ana shulardan kelib chiqqan holda tadqiqotchi quyidagi sifatlarni mulohaza uchun tavsiya qiladi; g'ayratlilik, Chidamlilik, vazminlik. Agarda bu jarayonda intellektual negiz ishtirok etmasa, shu narsani tushunib bo'lmaydi, kaysi hal qiluvchi qurilma hisobiga vaziyat baqolanadi va harakatni kuchaytirish, quvvatlash, pasaytirish

to'g'risidagi komanda beriladi.

V. K. Kalin bazali tizimga kirmagan irodaviy sifatlarni ikkilamchi deb nomlaydi, Chunki ularda bilimlar, ko'nikmalar, emotsiya va intellektning paydo bo'lishi mujassalashadi. Muallif qat'iyatlikni ikkilamchilar qatoriga kiritadi, vaholanki uning fikricha, u o'ziga maxliyo qiladigan his-tuyg'ularni engishdan, shuningdek, rad etilgan variantlardan, ishonchsizlikni to'sishdan tashkil topadi. U tirishqoqlikni ham ikkilamchi sifatlar tarkibiga kiritadi.

Chunki ularda ob'ektning to'planganligi ifodasi o'z aksini topgan, ravshan hayotiy qadr-qiyomat mujassamlashgan.

Chidamlilik tavsifida «qo'shimcha impulslar», «qo'shimcha irodaviy zo'r berish», «iroda kuchi», «sabr-tokat» jahhalari ifodasining o'rni mavjud. Chidamlilikka turtkining hususiyatlari tirishqoqlik irodaviy sifatga mos tushish hollari uchraydi. E. P. Ilning rang jadvalida tirishqoqlik sifati Chidamlilikdan keyin joylashgan bo'lib, quyidagi ta'rifga ega: Tirishqoqlik-qiyinchilikka va muvaffaqiyatsizlikka qaramasdan, maqsadga erishish yo'lida o'zluksiz ravishda intilishning paydo bo'lishidir. Tadqiqotchi D.N.O'shakovning muloxazasicha, «Chidam» tushunchasi quyidagi ma'no anglatib keladi:

- 1) Aksil harakat qilmasdan, shikoyatsiz, xasratsiz haloqatli, mushkul, nohush holatlarni dildan kechiradi;
- 2) Aksil harakat kilmasdan, o'zgarishlarni kutgan tarzda taqdir xaziliga rozi bo'lish;
- 3) Biror holatga mubtalolik;
- 4) Nima bilandir kelishish, biror ortiqcha kechinmaga parvo qilmasdan, og'irchilikni muruvvatkorona o'tkazish;
- 5) Imkon darajada amal qilishga ko'nikish;
- 6) SHoshqaloqlikka yo'l qo'ymaslik;
- 7) Paysalga solishga, kutishga imkoniyat yaratish;

Shuni alohida ta'kidlab o'tish joizki, tirishqoqlik, qat'iyatlik sifatlari bilan bir qatorda Chidamlilikni irodaviy hislatlarning etakchisi tariqasida tan olish, qiyinchiliklarga qaramasdan, harakatni davom ettirishga intilish tarzida tushunish muhim ahamiyat kasb etishi shak-shubxasiz. Lekin og'riqqa chidash, bardoshlikka moyillik nuqtai nazardan yondashinilganda esa irodaning erkinligi ta'biri, irodaviy sohaning paydo bo'lishi va amalga oshishi mohiyati yuzasidan metodologik nuqsoniy talqin yuzaga kelishi mumkin.

Iroda - odamning o'z ustidan, o'z his-tuyg'ulari, uy-fikrlari, xatti- harakatlari ustidan hukm ronlik qilishidir, boshqacha aytganda, iroda - insonning o'z xulq-atvorini ongli ravishda boshqara olishi, har qanday qiyinchiliklarga qaramay, o'z oldiga qo'ygan maqsadiga erisha olish qobiliyatidir. Shaxsning ichki to'siqlarni bartaraf qila bilishi

uning tashqi to'siqlarni ham muvaffaqiyatli engishiga imkoniyat yaratadi. Masalan, xizmatchi yugurish musobaqalarida qatnashib, ma'lum masofaga yugurishi, yo'lda uchraydigan suv yoki boshqa g'ovlardan o'tishi, yomon axvoldagi yo'lakdan yugurishi lozim. Qiyinchiliklarni muvaffaqiyatli engib, xizmatchi mazkur qiyinchiliklarni bartaraf etish uchun zaruriy irodaviy sifatlarni o'zida mujassamlashtirishga muvaffaq bo'ladi. Shu bois irodaviy harakatlar - shaxsning ko'zlagan maqsadiga erishish uchun ham ichki, ham tashqi to'siqlarni engishi bilan o'zviy bog'liq ongli xatti-harakatlardir¹².

Psihologiyada iroda sifatlari qatoriga maqsadga intilish, o'zini tuta bilish, Chidamlilik, sabr-tokat, qat'iylilik, botirlilik, intizomlilik, sabotlilik, mustakkilik, mardlik va boshqalar kiritiladi.

Maqsadga intilish – shaxsning o'zidagi barcha kuch-quvvatlarini oldiga qo'ygan maqsadiga qaratish, o'z xatti-harakatlarini ko'zlagan maqsadiga erishish vazifasiga bo'ysundirish, har qanday qiyinchilik va to'siqlarga qaramay maqsadni amalga oshirish uchun intilish qobiliyatidir.

O'zini tuta bilish - odamning o'z xatti-harakatlari, his-tuyg'ulari, xulq- atvori kabilarni boshqara bilishda aks etuvchi iroda sifatidir.

Chidamlilik - maqsadga erishishda odamning ko'pincha sovuk va issikka ham, ochlik-tashnalikka ham, betoblik va boshqa shu singari qiyinchiliklarga qaramay, barcha to'siqlarni engib, o'z maqsadini ro'yobga chiqarishda intilishda aks etuvchi ijobjiy sifatdir.

Kat'iylilik - Shaxsning vaziyatni tezda bakolab, o'z vaktida asosli, uylangan va mustaxkam qaror qabul qilishi, xech qanday ikkilanishsiz uni bajarishga kirishishidan iborat fazilatidir.

Botirlilik - odam sog'ligi yoki hayoti uchun xavfli va murakkab sharoitda ham biron qarorga kelishi va uni bajarishning uddasidan chiqa bilish hislatidir.

Intizomlilik - jamiyat qonunlariga, ahloq normalari va qoidalariga, milliy (umumbashariy) urf-odatlariga, ixtiyoriy hamda ongli ravishda buysunishda ifodalanuvchi inson sifatidir.

Sabotlilik - shaxsning qabul qilgan qarorini bajarish va o'z oldiga qo'ygan maqsadiga erishish uchun, ko'p vakt hamda muayyan qiyinchiliklarni engish talab etilishiga qaramay, og'ishmay intilishida gavdalanuvchi iroda belgisidir.

Mustaqqillik - insonning o'zicha biror qarorga kelishi va uni amalga oshirishidan, qarorni amaliyotga tatbiq etishning usul va yo'llarini o'z mustaqil ravishda tanlashidan, har bir ishda o'zining bilimlari, dunyoqarashi va e'tiqodlariga amal (rioya) qilishidan iborat iroda sifatidir.

2. ¹² G'oziev E.G'. Umumiy psixologiya.-O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti. T.: – 2010.

Mardlik - oliy maqsadlarni ko'zlab ish ko'ruvchi, o'z oldiga qo'ygan maqsadiga erishishda qat'iylik, vazminlik, sabr-matonat, Chidamlilik, bardoshlilik, mustaqillik va dadillik ko'rsatuvchi hislatlar majmuasidir.

Odamlarda irodani o'stirish uchun quyidagi ish-amallarni rejalashtirish maqsadga muvofiq:

- 1) Aniq va ijtimoiy jihatdan ahamiyatli maqsadlarni ko'zlashga o'rgatish yoki mashklantirish;
- 2) Ilmiy dunyoqarash, barqaror e'tiqod va burch hissini shakllantirish;
- 3) Maqsadga intilish va istakni ro'yobga chiqarish mashg'ulotlarini o'tkazish;
- 4) O'z kuchiga ishonch tuyg'usini tarkib toptirish uchun treninglar va sotstreninglarni qo'llash;
- 5) Ichki va tashqi to'siqlarni engishni mashk qilish, irodani turli vaziyatlarda ishga solish;
- 6) O'z faoliyati mahsuliga va xulq-atvoriga baho berish bilan shug'ullantirish;
- 7) Sport bilan shug'ullanish va jismoniy chiniqtirish;
- 8) Kun tartibi bo'yicha barcha harakatlarni amalga oshirish.

Mavzu bo'yicha bilimlarni mustahkamlash uchun savollar

- Hissiyot to'g'risida umumiy tushuncha.
- Shaxsning hissiy-irodaviy sohasi va kasbga moslashish jarayonlarini izohlang?
- His-tuyg'ular va ularning turlarini tushuntiring?
- Iroda aktining tuzilishi
- Iroda nazariyalari talqini

6-MAVZU: Professiografiya (professiogramma) to'g'risida umumiy tushuncha reja:

- 1) Professiogramma xaqida umumiy tushuncha.
- 2) Professiografiyaning mohiyati, uning yuzaga kelish tarixi.
- 3) Kasbiy faoliyatni muvaffaqiyatli egallash uchun zarur bilimlar va ko'nikmalar ko'lamining pedagogik tavsifi

Professiografiya - deganda kasblar va ularning bir - biridan farqlanuvchi ixtisoslar tomonidan inson oldiga qo'yiladigan talablarni bayon qilish majmuasi tushuniladi.

Professiografiya – bu biror bir soha egasining Shaxsiy hislatlariga psixologik qobiliyatlariga, psixologik va fiziologik imkoniyatlariga qo'yilgan talablarni o'rganish usullari.

Professiografiya natijalari Professiogrammada aks etadi, u mehnat sharoitlari tasviri, ishchi xuquq va majburiyatlar, muhim kasbiy sifatlari shuningdek, sog'ligiga qarshi ko'rsatmalarni o'z ichiga oladi. Professiogrammaning muhim tarkibiy qismi – **psixogramma** bo'lib, u mutaxassisning motivatsion, iroda va emosional sohasining tavsifi hisoblanadi. Psixogramma – kasbning psixologik portreti bo'lib, u aniq kasbda dolzarb bo'lган psixologik funksiya guruxi bilan namoyon bo'ladi. Professiografik tadqiqot metodlari. Kasbning ilmiy ta'siri, mehnatning (mehnat xulqi) tashqi ya'ni psixik jarayonlar qurishini ya'ni, mehnat sub'yektining ichki vositalariga bo'lган integral psixologik tuzilmalarini nazarda tutadi.

Professiografiyada ko'pgina usullar qo'llaniladi:

1. Ijtimoiy (so'rovnomalar, savollar kiritilgan kuzatuv);
2. Psixologik (suhbat kuzatuv tajriba va ulardan kelib chiquvchi intervyu, Shaxsiy so'rovnomalar testlar, tajribalar, psixobiografiyalar, faoliyat mahsulini o'rganish metodi);
3. Fiziologik (EKG. KER qonda arterial bosimni ulchash antopometrik va texnik ma'lumotlar);
4. Texnologik jarayonlar ta'siri va boshqa usullar xilma - xilligidan vaqt, kuch va vaziyatlarni minimalligi bilan professiogramma tadqiqotdagi savollarga javob beruvchi usullarni tanlash lozim. Usullar kompleksini ishlab chiqishda tizimni tashkil etuvchi omil tadqiqot maqsadi muhim rol o'ynaydi.

Psixografiyalarni kasbga yo'naltirish uchun ishlab chiqayotganda kasbning umumiyligi Professiografik va ijtimoiy-psixologik ta'siriga katta e'tibor beriladi. Mehnat sharoitlaridan texnik, texnologik va ijtimoiy psixologik sharoitlari ancha chuqurroq o'rganiladi. Tadqiqotlarning muhim yo'nalishi bu shaxsning qobiliyatlari, psixofiziologik xususiyatlarini baholashdir. Professiogrammalarning kasbga yo'naltirish va kasbiy tanlov maqsadida ishlab chiqishda psixodiagnostik tadqiqotlar juda muhim hisoblanadi. Qolgan tadqiqotlar o'quv – kasb muassasalarida talabalar, o'quvchilarni o'qishga qabul qilinadigan shaxslar ishlashi lozim bo'lган sharoitlarni aniqlash uchun ahamiyatga ega. Ammo ular xam muhim hisoblanadi, Chunki aniq majburiyatlarni va mehnat sharoitlarini bilmasdan, kasbga yo'naltirish, kasbiy yo'nalanganligini tashkillashtirish va kasbga nisbatan layokatini aniqlab bo'lmaydi.

Professiografik tadqiqotlarning keyingi yo'nalishi – toliqish **monotoniya** boshqa yomon holatlarni oldini olish, **travmatizm** bilan ko'zning ko'rish kasalligi va uning pasayishi maqsadida mehnat sharoitlari va tartibini o'rganishdir. Tadqiqotlarning asosiy maqsadi – mehnat sharoitlar va tartibini o'rganishi va shu bilan birga normal va patologik holatlar, shuningdek, shaxsning kasbiy muhim va faoliyatiga bo'lган reaksiyasi tashhis qiladi. Bu kompleksga professiografik usullardan gigienik, tibbiy, psixologik va fiziologik usullar kiradi. Usullarni tanlashda kasbning to'liq o'rganilishi

nazarda tutilishi kerak. Bunda professiografik tadqiqotlar yo'nalishlarida quyidagi **professiografiya chizmasidan** foydalanish tavsiya etiladi:

1. Ishlab chiqarish jarayoni bilan umumiy tanishuv uning o'rghanish va tasviri.
2. Ish o'rinalarini tasvirlash, ish o'rnidagilarning faoliyatini psixologik qo'llash.
3. Ish-xarakatlarining psixologik, fiziologik va antropometrik tomoni.
4. Mehnat jarayonining ishi.
5. Ish kunining sur'ati xronometraj.
6. Faoliyatning individualligini o'rghanish.
7. Xatoli xarakatlar tizimi.
8. Sanitariya-gigienik mehnat sharoitlarini baholash.
9. Bir smena, xafka, uzoq davr mobaynida ish qobiliyatining dinamikasi.

Professiografiyalar turli mazmuniga ega. Bu ular nima maqsadlarda tuzilganligiga bog'liq. Professiografik adabiyotlarni o'rganib va tizimli tamoyiliga tayangan holda umumlashgan profesiogramma chizmasi ishlab chiqilgan.

1920 yillarning ikkinchi yarmida rus psixotexniklari tez suratlarda kasbiy faoliyatning tamoyil va usullarini ishlab chiqdilar. Shu tadqiqotlarni umumlashtirishi natijasida psixotexnikada maxsus yondoshuv Professiografiyani shakllanishiga olib keldi. Bu yondashuvning mohiyati – “kasblar tasviri” umuman olganda Professiografiyani o'rghanish, kasbning psixologik tavsifi va loyihalashtirishini o'z ichiga oladi. Professiografiyada ma'lum mehnat jarayonini tashkil etuvchi ob'yektlar belgilari, mehnat sub'ekti, mehnat predmeti vazifalari, vositalari va sharoitlari o'rganiladi. Professiografiyaning asosiy tamoyillaridan biri kasbiy faoliyatni o'rghanishda differensial yondashuv tamoyili hisoblanadi. Bu tamoyilning mohiyati Professiografiyaning aniq amaliy masalalarini yechishga bo'ysunishidir. Masalan, kasbiy konsultatsiya va kasbiy tanlov uchun shunday kasbiy muhim belgilarni ajratish kerakki, ular sinovdagilarning kasbiy layokatiga ko'ra farqlanishi lozim. Malaka darajasini aniqlash uchun mehnat vazifalari, kasbiy bilim, malaka, ko'nikma tavsifi muhim ahamiyatga ega. Kasbiy toliqishni o'rghanish uchun shunday belgilardan foydalanildiki, ular yordamida kasbiy toliqishning keltirib chiqaradigan omillarini aniqlaydi. Shunday qilib, profesiografiyaning differensial tamoyili kasbning o'rghanish usullarini uning tavsif, mazmuni, shuningdek, qo'llanilish sohasi ya'ni professiografiya o'tkazish xususiyatlari uning maqsadlari bilan belgilanadi. Maqsadlari quyidagi faoliyat sohalari bilan bog'langan bo'lishi mumkin:

- 1) Ishchilar jamoasi.
- 2) Yangi kasblar mutaxassisliklarni loyihalashtirish.
- 3) Optantlar profkonsultasiyasi va mutaxassislar tanlovi.
- 4) Kasbiy ta'lim malaka tayyorgarligi va malaka oshirishni takomillashtirish.
- 5) Shaxs kasbiy rivojlanishi bo'yicha ilmiy tadqiqotlar.

E.M.Ivanova professiografiyaning 4 ta guruhini taklif etadi: ma'lumotli, diagnostik, prognostik va metodik. Informatsion (ma'lumotli) Professiografiya oktantlar, ya'ni kasb tanlash zaruriyati oldida turgan Shaxslar bilan kasbiy maslahat ishlari uchun mo'ljallangan. Ular qatoriga O'quvchilar, kasb bilim yurtlari bitiruvchilari, ishsizlar va kasblarni almashtirmoqchi bo'lganlar kirishi mumkin. Informatsion Professiografiya ishlari maxsus kasbiy adabiyotlarni ish xujjatlarni o'rghanish orqali amalga oshiriladi.

Diagnostik Professiografiyalash mehnat samaradorligining pastligi mahsulot sifatining pastligi, avariya holati, travmatizm, kadrlar qo'nimsizligi sabablarini aniqlash uchun o'tkaziladi.

Diagnostik professiografiyalash quyidagi masalalarni o'z ichiga oladi.

1. Faoliyat mazmuni:

- 1) Mehnat predmeti va masalalari.
- 2) Ish natijalari sifatiga qo'yiladigan talablar.

2. Mehnat qurollari:

- 1) Ish turi va tartibi.
- 2) Boshqarish organlari.
- 3) Ish joyini tashkil etish.

3. Mehnat sub'ektining faoliyati:

- 1) Xarakat turlari va ularning tavsifi.
- 2) Ishni rejalashtirish va bajarish xarakteri.
- 3) Kasb faoliyatiga halaqit beruvchi omillar.
- 4) Mehnat jarayonida uchraydigan xatolar, brak, travmalar turi.

4. Mehnat sub'ektining faoliyati:

- 1) Ishchilarning o'zaro aloqalari to'zilmasi.
- 2) Ishni rejalashtirish va nazorat.

5. Kasbning mehnat sub'ekti shaxsiy psixologik va psixofiziologik sifatlariga qo'yiladigan talablar.

6. Mehnat sub'ekti faoliyatining past samaradorligi sabablarini tashhisi.

7. Kasbiy faoliyatni takomillashtirish bo'yicha amaliy - eksperimental tekshiruv.

Diagnostik Professiografiyalash empirik ma'lumotlarni yig'ish usullari orqali amalga oshiriladi. Prognostik Professiografiyalash kasbiy faoliyatni takomillashtirish bo'yicha asoslangan tavsiyalarni berish maqsadida qo'llaniladi.

1. Kasbning umumiy tavsifi:

- 1) Kasb rivojlanishi tarixi va istiqbollari.
- 2) Kasbiy faoliyatni bajarilishining ijtimoiy - iqtisodiy sharoitlari.
- 3) Kasbiy muhit.

2. Kasbiy dala va mazmuni va jihat:

1) Kasbiy dala tavsifi.

2) Kasbiy bilimni aniqlovchi omillar.

3) Kasbiy bilimni rivojlanishi prognozi.

3. Kasbiy ta'lim malaka oshirish:

1) Kasbiy ta'lim darajasi.

2) Kasbiy tayyorgarlik.

3) Malaka oshirish.

4. Ishchining kasbiy moyilligi:

1) Mutaxassislik sohasining kengligi.

2) Asosiy malakalar darajasi.

3) Mutaxassislik va kasbni o'zgartirish imkoniyati.

5. Kasb istiqbolini baholash:

1) Shaxsning kasbiy - psixologik potensiali.

2) Ishchining kasbiy faolligi.

3) Kasbiy o'zini o'zi takomillashtirish karera.

Pragnostik Professiografiyalash genetik usullarni, shuningdek modellashtiruvchi eksperimentlarni qo'llaydi. Metodik Professiografiyalash psixologga mehnat sub'ektining holati va muhim kasbiy sifatlarni o'rGANISH usullarini ishlab chiqish imkonini beradi. Tadqiqot maqsadi va vazifalariga ko'ra metodik Professiografiyalash sxemasi xam o'zgaradi. Masalan, kasbiy mehnat va xordiq tartibi, kasbiy toliqish, befarqlik, passivlikka bo'lgan ta'sirini o'rGANISHda shunday sxema qo'llaniladi.

1. Mehnat sub'ekti faoliyatining mazmuni:

1) Xaraktlar turi va ularning tavsifi.

2) Ishni rejorashtirish va bajarish xarakteri.

3) Emotsional ko'rinishlar.

4) Ish joyidagi noqulaylik turlari.

5) Faoliyat jarayonida paydo bo'ladigan xatolar, brak travma turlari.

2. Mehnat sharoitlari:

1) Sanitariya-gigienik muhit (xavo darajasi, chang, namgarlik va boshqa).

2) Jismoniy muhitning yoritilganligi, shovqin.

3) Ish tartibi.

4) Xaq to'lash va rag'bat shakli.

Mutaxassisning kasbiy mahoratini o'rGANISHda Professiografiyalashning quyidagi sxemasi qo'llaniladi.

1. Faoliyat mazmuni:

1) Ishchilar malakasiga qo'yiladigan talablar (kasbiy bilim, ko'nikma va malakalar, shuningdek, sifatlar va qobiliyatlar).

2) Ishchilarning xuquq va majburiyatları.

2. Mehnatni tashkillashtirish:

- 1) Malaka oshirish.
- 2) Kasbiy psixologik potensial.
- 3) Ijodiy qobiliyatlar.

3. Mehnat sub'ekti faoliyati:

- 1) Xarakatlar turi va ularning tavsifi.
- 2) Ishni rejalashtirish va uni nazorat qilish.
- 3) Faoliyat individualligining xususiyatlari.

Ta'limga yo'naltirilgan professiografiyalash – asosiga kasb sub'ektligi haqidagi g'oya qo'yiladi: kasb egasi, faoliyatning xaqiqiy sub'ekti bo'lib, unga bir qator maxsus belgilar xos. Bu professiografiyalashning mualliflari uning mazmun-mohiyati va loyihalashtirish texnologiyalarini o'rganib chiqishdi. "Kasb pasporti" bloki kasb va mutaxassisliklar nomining modifikasiyasi, kasbiy yo'nalish, kasb maqsadi, ta'lim darajasi haqida qisqa ma'lumotlarni o'z ichiga oladi. "Kasbning asosiy ob'yekti" (sohasi) bloki kasb turi haqida ma'lumotlarni o'z ichiga oladi. "Inson-tabiat", "inson-inson", "inson-texnika", "inson-belgilar tizimi", "inson badiiy obraz" va boshqalar. Bu blok mazmuni boshqa Professiografiyalash bloklarining asosi hisoblanadi. "Kasbiy predmetli salohiyat" bloki ko'p tizimli ta'lim sifatida kasbiy muhim tavsifini o'z ichga oladi. Mutaxassis kasbi qaysi sohaga tegishli ekanini, qaysi asosiy ob'ektlarga yo'naltirilgan, bu ob'ektlar qanday ob'ektlar, bu sohada mehnat natijasi yoki mehnat mahsuli qanday ahamiyatga egaligi haqidagi ma'lumotga ega bo'lishi lozim. "Ijtimoiy kasbiy salohiyat" blokida shaxs ob'ektining qo'yidagi yo'nalishlari aks etadi. Fikrlash potensialining rivojlanishi. Shaxsni o'zini nazorat eta olish va rivojlantirish imkoniyatlari. Shaxsning muvaffaqiyat strategiyasiga yo'naltirilganligi. Shaxsning bozor iqtisodiyoti sharoitida bardoshligi. Professiografiyada ekologik, xuquqiy va iqtisodiy madaniyat masalalari xam nazarda tutiladi. Maxsus psixofiziologik talablar bloki – ishchining kasbiy faoliyati jihatdan psixofiziologik xususiyatlariga qo'yiladigan talablarni aks ettiradi. Bunga tibbiy ko'rsatmalar, jinsiga, yoshga bo'lган va sanitariya-gigienik talablar kiradi.¹³

Kasb-kor (hunar) oldiga qo'yiladigan talablarni asoslash va ularni bayon qilish o'ziga xos xususiyatga ega bo'lib, quyidagi umumiylardan xamda xususiy jabhalarni o'zida aks ettiradi;

1. Kasb va uni ixtisosliklarining psixologik tavsifi;
2. Kasb-korning (hunarning) mamlakat iqtisodiyoti uchun ahamiyati;
3. Kasb va ixtisoslikning ijtimoiy tavsifi;
4. Kasbning ijtimoiy psixologik ahamiyati va tavsifi; yoshlarda uning ijtimoiy

3. ¹³ Umarov B.M., Shoyimova Sh.S. Kasbiy psixologiya. Darslik. –«LESSON PRESS» T.: – 2018

mavkei (nufo'zi), jamoaning o'ziga xos xususiyatlari, vertikal va gorizontal bo'yicha Shaxslararo munosabatlarning xususiyatlari;

5. Kasbiy faoliyatni muvaffaqiyatli egallash uchun zarur bilimlar va kunikmalar kulamining pedagogik tavsifi (maxsus mezonlar orqali kasbiy mahorat aniqlanadi);

6. Pedagogik jarayonni takomillashtirish yuzasidan takliflar, tayyorgarlik muddatlari, tadbir – choralarning umumiyl tavsifi;

7. Mehnat sharoitining gigienik tavsifnomasi;

8. Kasb bo'yicha mehnat qilishga tibbiy jihatdan ta'kiklanuvchi omillar izchilligi;

9. Kasbga psixologik nomutanosiblik, yoki kasbiy yaroqsizlik;

10. O'zini o'zi faollashtirish va identikaqiyalash.

Kasbning inson oldiga qo'yadigan talablari majmuasi psixologik, ijtimoiy, iqtisodiy, texnikaviy va pedagogik jabhalarni qamrab oladi. Kasb va ixtisos asoslarini egallovchi yoshlar shu fanlarning barcha talabalariga moslashishi orqali mutaxassislik layokatini rivojlanira boradi.

Kasb tanlashga yo'naltirish davlatning tadbir – choralari tizimidan iborat bo'lib, inson tomonidan tanlanadi, o'z hayot yo'lining ilmiy asoslanganligini ta'minlashga xizmat qiladi, u turmushda o'z o'rnnini aniqlaydi va qo'yidagi shakllarda amalga oshiriladi:

1) mактабда kasbiy ma'lumotlar berish;

2) kasb-hunar maорifi bilan shugullanish;

3) radio, televideenie, kino, matbuotda tashviqot qilish;

4) kasb yuzasidan maslahatlar;

5) kasbga saralash (qobiliyatiga binoan);

6) kasbga moslashish (adaptaqiyalash).

Kasbshunoslikning asosiy konseptual bosh tushunchasi – bu kasb tushunchasidir. Kasbshunoslik adabiyotida kasb tushunchasining tavsifi juda qo'p. Avvalambor, bu maxsus tayyorgarlikni talab etuvchi, inson doim tajribadan o'tkazuvchi va unga yashash uchun manba bo'lib xizmat qiluvchi mashg'ulotdir. Keyin kasb bir xil faoliyat bilan shugullanuvchi kishilarni birlashtiradi. Bu faoliyat ichida ma'lum aloqalar va axloq normalari o'rnatiladi. Kasb jamiyatning mehnatga layokatli a'zolarini ijtimoiy tashkillashtirishning alohida shakli bo'lib, bunda a'zolar faoliyatining umumiyl turi va kasbiy ongi bilan birlashgan.

B.SHonung fikri bo'yicha kasb – mutaxassislarning chetdagi odamlarga karshi fitnasidir. E.A.Klimov o'z ishlarida bu borada bir necha ta'riflarni ilgari suradi. Nisbatan batafsil ta'rif qo'yidagicha: **"Kasb – jamiyat uchun zarur va qadriyatli soha bo'lib, bunda insondan jismoniy va ruhiy kuch talab etadi"** bu kuchlar unga sarflangan mehnat o'rniga yashashi va rivojlanishi uchun muhim vositalar omili sifatida namoyon bo'ladi. Bu ta'rifni yanada batafsil yoritarib, E.A.Klimov kasbiy

faoliyatning sifatli tarixiy rivojlanuvchi tizim va **shaxsning o'zini namoyon etish sohasi deb ta'riflaydi**. Yana bir ta'rifi keltiramiz. “Jamiyat nuqtai nazaricha, kasb bu kasbiy masalalar, kasbiy faoliyat shakllari va turlari, shaxsiy kasbiy xususiyatlari tizimi bo'lib, ular jamiyat extiyojlarini qondirish uchun muhim bo'lgan natija mas'uliyatlarni etkazishni ta'minlab berishi kerak bo'ladi”.¹⁴

Mavjud ta'riflarni umumlashtirib, qo'yidagilarni xulosa qilish mumkin. Kasb mehnat faoliyatining paydo bo'lgan shakllari bo'lib, ularni bajarish uchun inson albatta ma'lum bilimlar va ko'nikmalarga maxsus qobiliyatlar va rivojlangan muhim kasbiy sifatlarga ega bo'lishlari kerak.

“Kasb” atamasi kasbiy faoliyatning fakatgina yukori statusli turlariga nisbatan ishlatiladi. Boshqa faoliyat turlari mutaxassisliklarga yoki ish, mashg'ulot turlariga tegishli bo'ladi. Milliy kasbshunoslikda “kasb” va “mutaxassislik” tushunchalari farqlanadi. Kasb mutaxassislikka qo'ra kengroq tushuncha, kasbiy salohiyatida tashqari, uning muhim sifatlari – ijtimoiy-kasbiy salohiyat, kasbiy avtonomiya, o'zini nazorat qilish, guruxli mezonlar va qobiliyatlar hisoblanadi. Kasb, odatda yakin mutaxassisliklar guruxini birlashtiradi. Masalan, kasb shifokor, mutaxassisliklar – terapevt, pediatr, aqo'list, urolog, va xokazo, kasb – muhandis, mutaxassisliklari – konstruktur, texnolog, metallurg va hokazolar. Mutaxassislik – kasbiy ta'lim, tayyorgarlik yuli bilan ish jarayonidagi maxsus bilimlar, ko'nikma va malakalar kompleksi bo'lib, ular u yoki bu kasb doirasida ma'lum faoliyat turini bajarish uchun zaruriy hisoblanadi. Shunday qilib, mutaxassislik – kasb ichdagi kasbiy faoliyat turi bo'lib, u shaxsiy yutuqlarga yoki o'ziga xos vaziyatlar orqali umumiyligi natijalarga erishishga yo'naltirilgan bo'ladi.

Nashrdan chiqqan ma'lumotnomalar esa korrektirovkaga muxtoj bo'ladi, Chunki kasblar dunyosi doim o'zgarib turadi. Yangi kasblar paydo bo'ladi, kasblarning xarakteri mehnat mazmuni yangilanib turadi, past malakali mehnat kasblari yo'qolib boradi.

Kasb nomi qo'pincha o'tgan yillarda shakllangan mehnat xarakteri sifatida aks etadi. Rasmiy ma'lumot nashrlari esa mehnat resurslarining rivojlanishiga salbiy ta'sir etishi mumkin. Masalan “farrosh” kasbning nomi o'rniga “interyer bo'yicha texnik” nomini kiritish mumkin, shunda kasbning qadri, uning malakaviy darajasi ko'tariladi, asosiysi, ishlab chiqarish rivojlanishi tezlashadi.

Ta'kidlash mumkinki, kasblar va mutaxassisliklar odatda texnologiya va mehnat vositalarining eskirib qolgan holatini aks ettiradi. Boshqa tomondan, rasmiy

¹⁴ G'oziev E.G'. Umumiy psixologiya. – Toshkent: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyat nashriyoti. – 2010.

nomenklaturasiz xam kadrlar siyosatini amalga oshirib bo'lmaydi, bunda qanday yo'l tutish mumkin. Aniqki, qo'p kasblar va mutaxassisliklar nomini o'zgartirmasa xam bo'ladi: shifokor, talaba, muhandis, muharrir, zargar, agronom va xokazo. Ularning mehnat mazmuni o'zgaradi, ammo kasbning nomi uning mohiyatini anglatadi va mehnat mahsuldorligiga salbiy ta'sir ko'rsatmaydi, o'ylaymizki, aynan shu kasblar va mutaxassisliklar ma'lumotlarning rasmiy ro'yxatini tashkil etish lozim.

Ijtimoiy rivojlanish jarayonida yangi kasblar nomini kiritish zaruriyati kelib chiqadi. Yangi kasblar ro'yxati chiqish bilan rasmiy ma'lumotnomalarga kiradi. "Menedjer" kasbi bugungi kunda keng tarqalgan, ammo rasmiy ro'yxatga kiritilmagan. 1979 yildan buyon Yekaterinburg shaxrida kasb bilim yurtlari uchun mutaxassislar tayyorlanadi, ya'ni muhandis - pedagoglar, ammo rasmiy ma'lumotnomalarda bunday kasb yoki mutaxassislik mavjud emas. Bunday misollarni qo'p keltirish mumkin. Kasbiy faoliyatning samaradorligining shartlaridan biri mutaxassisning kasbiy tayyorligi hisoblanadi. Kasbiy tayyorgarlik deganda uning ruhiyati va jismoniy sog'lig'i xamda holati, undagi mavjud sifatlarning bajarayotgan faoliyati talablariga mosligi darajasi tushuniladi.

Mashxur rus psixologi **K.K.Platonov mutaxassisning kasbiy tayyorligi, bu o'zining muayyan kasbiy faoliyatini bajarishga qodir va tayyorgarlik ko'rgan deb hisoblovchi va uni bajarishga intiluvchi shaxsning sub'yektiv holatidir, deb hisoblangan**. Mutaxassisning kasbiy tayyorligi murakkab qo'p darajali va qo'rinishli tizimli psixik shaklga ega bo'lib, birinchi navbatda, odamning shaxsiy qo'rinishi asosiy o'rin egallaydi. Shu bilan birga, kasbiy tayyorgarlik mutaxassisda kerakli darajada jismoniy sog'likni kasbiy faoliyat uchun zarur bo'lgan jismoniy sifatlar shakllanganligi va rivojlanganligini talab qiladi. Chunki xar qanday kasbiy faoliyat insonning qandaydir kuch jismoniy energiya sarflashini ko'zda tutadi. Mutaxassisning kasbiy tayyorgarligida ikkita o'zaro bog'lik bo'lgan tomonlarni ko'rsatish maqsadga muvofiq. Bu o'zaro bog'lik tomonlar psixologlar M.I.Dyachenko va A.M.Stolyarenkolar tomonidan ishlab chiqilgan bo'lib ular qo'yidagilardan iborat:

1. **Shaxsning kasbiy faoliyatga dastlabki salohiyatli tayyorligi.** Mutaxassisning bu tayyorligi qo'yidagilardan iborat bo'ladi, ya'ni, statik komponentlar kasbiy faoliyatning psixik asoslari, bilim, ko'nikma, malakalar kasb uchun muhim hisoblangan, shaxsning sifatlari uning munosabati, mazmun va kadriyatlari, afzallikkari xamda umuman shaxsning zarur bo'lgan kasbiy imkoniyatlari darajasi;

2. **Shaxsning kasbiy faoliyatga bevosita ayni vaktdagi tayyorligi.** Mutaxassisning kasbiy tayyorligining ushbu tomoni **tezkorligi, o'zgaruvchanligi, xar qanday holat va sharoitda aniq masalalarni echish, mutaxassisning ruhiy va jismoniy holati, jamoadagi ma'naviy psixologik muhitga bog'liqligi bilan**

ifodalanadi. Mutaxassisning bevosita psixologik tayyorgarligi dastlabki tayyorgarlikni faollashtirish natijasi sifatida ishtirok etadi. Mutaxassisning kasbiy faoliyatga dastlabki salohiyatli tayyorligi bevosita ayni vaktdagi tayyorligining asosi hisoblanadi.

Shuning uchun mutaxassisni oliy o'quv yurtida tayyorlash unda kasbiy faoliyat uchun yetarli bo'lgan sifatlarni shakllantirish lozim. Ba'zi vaqtarda xatto kasbiy masalalarni hal etishga yaxshi tayyorgarlik ko'rgan mutaxassis xam zarur paytda kerakli faoliyat uchun tayyor bo'lmay qolishi mumkin, ya'ni kasbiy xulqi va faoliyatini ruhiy boshqarish yetarli darajada bo'lmaydi. Bunday holatda faoliyatni muvaffaqiyatli amalga oshirib bo'lmaydi yoki samarasiz bo'ladi. Ko'rinish turibdiki, mutaxassisning kasbiy tayyorligi unda kasbiy bilimdonlikni kerakli darajasini kasbiy mahoratini xamda o'zini boshqarish, **o'zini kerakli faoliyatga yo'naltirishga, o'zining kasbiy (ma'naviy Shaxsiy va jismoniy) imkoniyatlarini hal etishga yo'naltira bilish qobiliyati mavjudligini nazarda tutadi.**¹⁵

Mutaxassisning kasbiy tayyorligining asosiy va eng **murakkab tomoni (psixologik tomoni)** – **mutaxassis ruhiyatining kasbiy tayyorgarligi hisoblanadi.** Bu mutaxassis psixikasi ruhiy qo'chlarining kasbiy masalalarni hal etishga o'zining vazifalarini bajarishga tayyorligi va yo'nalganligi darajasidir. **Mutaxassis ruhiyatining kasbiy tayyorligining asosiy tarkibiy qismlari qo'yidagilardan iborat:**

– **Yo'naltiruvchi intellektual bilish.** Bu tarkibiy qismi mutaxassis shaxsining bilish sohasini o'z ichiga oladi: kasbiy idrokini, fikrlashi, tasavvur, xotirasi, dikkatini va ular birgalikda mutaxassis shaxsining kasbga intellektual tayyorligini tashkil etadi.

– **Motivatsion tayyorligi.** Mutaxassisning motivatsion tayyorligining asoslari o'z kasbi mutaxassisligini tushuna olishi o'zida pozitiv munosabatni tarkib toptira olishi, o'zini baholay olishi, bilish faoliyatiga qiziqishlari hisoblanadi. Oliy o'quv yurti sharoitlarida mutaxassisni tayyorlashda kasbiy faoliyatga motivatsion tayyorligi talabalarning kasbiy va shaxsiy rivojlanishiga va ta'lim olish jarayonida o'zini rivojlantirishga mavjud motivatsion doiraning yo'naltirilganligida namoyon bo'ladi.

– **Ijrochilik.** Bu tarkibiy qismi kasbiy mahoratni (bilim, malaka, ko'nikmalar) kasbiy xulq odatlari kabi muhim kasbiy sifatlarning to'plami, kasbiy qobiliyatlarni rivojlanganlik darjasini va mutaxassisning irodaviy tayyorligi uning xulqi va faoliyati davomida o'zini boshqarishga qodirligi, operatsional funksiyali tayyorgarlikni o'z ichiga oladi. Mutaxassisning kasbiy tayyorgarligi darajasini shaxsning kasbiy yo'nalganligi va kasbiy mahorati tashkil etadi. Hozirgi zamon mutaxassisining kasbiy tayyorgarligida uning kommunikativ tayyorligi alohida ahamiyatga ega. Bunday

¹⁵ Jalilova S.X, Xaydarov F.I, Halilova N.I. Kasbiy psixologiya (o'quv qo'llanma) – Toshkent 2010

tayyorgarlik mutaxassisda odamlar bilan kasbiy muhit bilan konstruktiv va samarali o'zaro yaqin aloqalar xodimlar va raxbarlar bilan amaliy va shaxsiy o'zaro munosabatlarga tayyorligi va bunday o'zaro munosabatlarni o'rnata olishga va rivojlantirishga qodirligini ko'zda tutadi. Shaxsning kommunikativ tayyorligi faqatgina odamning nutqiy madaniyati yetarlicha darajada rivojlaniganligida, u so'z va tildan to'g'ri foydalanishni bilganidagina mavjud bo'ladi.

Shaxsning nutqiy madaniyati uning fikrlash madaniyati rivojlaganligining qo'rsatkichi hisoblanadi. Shuning uchun mutaxassisning Shaxsiy va kasbiy kamol topishini muhim shartlaridan biri – uning kasbiy nutqiy madaniyatini rivojlantirish hisoblanadi. Mutaxassisning kommunikativ tayyorligi unda empativlikni, xushmuomalalikni, do'stonalilikni, o'rtoqlik hissini, jamoatchilikni rivojlantirishni, kasbdoshlari bilan o'zaro aloqalar munosabatlarga tayyorligi va qodirligini, o'zaro munosabatlarda keraksiz keskinliklarni yuzaga keltirmaslikni, yuzaga kelgan qiyinchilikni to'g'ri hal eta bilishni, ishda xodimlar, kasbdoshlari bilan munosabatlarda murosaga kelishni ko'zda tutadi. Mutaxassis faoliyati muvaffaqiyatliligin yana bir muhim sharti, uning kasbiy va shaxsiy jihatdan tayyorligi va qodirligi hisoblanadi. Bu yo'nalishda uning faolligi darjasini ishtirok etadi. Kasbiy masalalarni hal etishda xam xodimlar kasbdoshlari bilan o'zaro munosabatlarda xam o'zini to'la va xar tomonlama ko'rsatishga intilish iborat bo'ladi.

Mavzu bo'yicha bilimlarni mustaxkamlash uchun savollar

1. Professiogramma xaqida umumiy tushunchani izohlang?
2. Psixogrammani izohlang ?
3. Kasbiy faoliyatni muvaffaqiyatli egallash uchun zarur bilimlar va ko'nikmalar ko'laming pedagogik tavsifini izohlang ?

7-MAVZU. Kasbiy tanlovning umumiy masalalari va uning tuzilishi

Reja:

1. Kasb tanlashga tayyorlash ishlarining olib borilish xolatlari
2. Yuqori sinf o'quvchilari bilan olib boriladigan kasbga oid konsultatsiyalar ketma-ketligi
3. Kasbga oid konsultatsiyani o'tkazish bosqichlari
4. Kasb-xunar kollejlarida kasbga oid kansultatsiya o'tkazish uchun moddiy bazalarning yaratilishi

O'quvchilarni kasbga yo'llashni shakllantirish masalalarini xal qilishda pedagoglar o'quvchilarning o'zlariga kasb tanlashda aktivlashtirish zarurligiga ishonch xosil qilmoqdalar. O'zbekiston olimlari shunday karorga keldilar: kasb tanlash, shu vaqtida ilmiy asoslangan bo'ladiki, kachonki shaxsning erkinligi, aktivligi

rivojlantirilsa, shaxs bilan mexnat o‘zaro munosabati shu narsaga olib keladiki, shaxsning qobiliyati va axloqiy kuchi muvaffakiyat bilan rivojlansa.

O‘quvchining aktiv ishtirokisiz kasbga yo‘llash ishida muvaffaqiyatga erishish qiyin. Kasb tanlashga tayyorlash ishlari o‘z ichiga quyidagilarni oladi: o‘quvchi shaxsini faolligini oshirish, o‘qituvchi va tarbiyachini kasbga yo‘llash maxoratiga bog‘liq. SHu sababli sistemali, maksad sari yo‘naltirilgan o‘quvchilarini, ayniksa yuqori sinf o‘quvchilarini kasbga tanlashga tayyorlash ishlarini olib borish zarur, ularni kasb-maxoratni o‘zlari tanlashini aktivlashtirish kerak. Ushbu muammoni xal qilish o‘quvchini kelajak xayotga tayyorlash ishiga xam anchagina bog‘liq.

Kasbga yo‘naltirish ishlarini yaxshi yo‘lga qo‘yishda kasb-xunar kollejlarining imkoniyatlari anchagina. Mexnat va kasb ta’limining o‘ziga xos sharoitlari kasb ta’limini tanlash, aniq bir faoliyatda o‘z kuchini sinab ko‘rish, kasb ta’limi ustalari bilan, kasb ishlab chikarish xodimlari bilan bevosita muloqotda bo‘lib va x k. yigit va qizlarni kelajak kasbni o‘zi tanlashiga imkoniyatini oshiradi. Bu imkoniyatning samaradorligini mexnat va kasb ta’limi jarayonida o‘qituvchilar, masterlar tomonidan maqsad sari yo‘naltirilgan kasbga yo‘llash ishlari, o‘quvchining faolligini shakllantirish asosida yanada oshirish mumkin.

Kasbga yo‘llashdek mo‘rakkab va mashaqqatli, ammo sharaflı ishda o‘quvchilarga ilmiy asoslangan maslaxatlar berish, ularning shaxsiy qiziqishlari, layokat va qobiliyatlarini aniqlashda ushbu shaxsiy -individual yo‘llanmalar (ko‘rsatkichlar) tanlagan kasbiga mos kelish-kelmasligini taqqoslab ko‘rib, to‘g‘ri maslaxatlar berishda ishlab chiqarish masterlariga, kasbga yo‘llash bo‘yicha psixolog kasb-korga oid konsultantga YUqori sinf o‘quvchilari bilan olib boriladigan ishlariga baxoli kudrat yordam berish maqsadida ushbu metodik qo‘llanma yaratildi.

Taklif etilayotgan metodik qo‘llanmaning nisbatan ko‘pqirraligi shaxsni psixofiziologik, mediko-biologik diagnostika qilish (aniqlash) va kasb-xunarga oid konsultatsiyalar o‘tkazish, shaxsni individual qiziqish, layokat va qobiliyatlarini o‘rganish, aniqlash, testli metodikalarni natijalarini umumlashtirib shu natijalarga qarab o‘quvchini kasb tanlashda ilmiy asoslangan maslaxat va yo‘l-yo‘riqlar berish imkoniyatini beradi.

Etaplar bo‘yicha o‘tkazilgan kasbga oid konsultatsiya natijalari mifik o‘quvchisini “kasb-xunarga oid konsultatsiyalar kartasi” ga qayd qilib boriladi.

Karta olib borilayotgan tadqiqot natijalari, kasb-xunar bo‘yicha konsultantning shu natijalarga asoslanib bergen maslaxatlari qayd qilib borilishiga mo‘ljallangan va o‘quvchini ongli, asoslangan kasb tanlashga yordam berishiga maqsadlashtirilgan.

Yuqori sinf o‘quvchilari bilan olib boriladigan kasbga oid konsultatsiyalar ketma-ketligi: Kasbga oid konsultatsiya o‘quvchilarning anik bir kasb to‘g‘risida bilimlar olish va shu kasbni egallash yullari to‘g‘risida ma’lumotlar olish xamda shu kasbni egallash yo‘llari to‘g‘risida ma’lumotlar olish, o‘quvchi o‘zining individual qiziqishlari, layokatlari va qobiliyatlarini aniqlashlarni o‘z ichiga oladi.

Kasbga oid konsultatsiyani etaplar bo‘yicha olib borish o‘quvchilarni ongli va asosli kasb tanlashining garovidir. *Etaplar quyidagicha:*

- Dastlabki kasbga oid konsultatsiya;
- Kasbga oid axborot-ma’lumot konsultatsiyasi;
- Kasbga oid boshlang‘ich shakllantirish konsultatsiyasi;
- Kasbga shaxsni mosligini aniqlash konsultatsiyasi;
- Kasbga oid muvofiqlashtirish konsultatsiyasi;
- Kasbga oid asosiy shakllantirish konsultatsiyasi;
- Kasbga oid nazorat konsultatsiyasi;

L.A.Yovaysha klassifikatsiyasiga qo‘shilgan xolda, bu kasbga oid konsultatsiya xar birining mazmuni quyidagilardan iborat:

Dastlabki kasbga oid konsultatsiyani umumiyligi o‘rtalim maktablarida sinf raxbarlari, o‘qituvchilar, kasbga yo‘naltirish bo‘yicha konsultant-psixolog amalga oshirishadi.

Ular o‘quvchilarni kasbga oid dastlabki niyatlarini bilan tanishadilar, bu niyatlar o‘quvchilarni shaxsiy layoqatlari, qiziqishlari, qobiliyatlarini va sogliqlariga qay darajada mos kelishini muxokama qiladilar. Muxokama xulosasi individual suxbat vaqtida o‘quvchiga ma’lum qilinadi: niyatning to‘g‘riliqi ma’qullanadi yoki kasb-xunarga oid materiallarni o‘rganish maslaxat beriladi.

Kasbga oid axborot-ma’lumot konsultatsiyasi - vaqtida dastlabki konsultatsiya natijalariga qarab axborot-professiografiya ma’lumotlar (professiogrammalar, psixoprogrammalar, xalk xujaligi, xususan o‘quvchi yashayotgan iqtisodiy regionda kaysi kasblarga extiyojlar borligi to‘g‘risidagi axborotlar va x. k.) berib boriladi. O‘quvchi shu ma’lumotlar asosida o‘zini qiziqtirgan, jamiyatga zarur bulgan kasbni tanlashga berdam bera oladi.

Kasbga oid boshlag‘ich shakllantirish konsultatsiyasi - o‘quvchining bundan oldingi bosqichlarida kasbga oid olgan bilimlarini chuko‘rlashtirish, kasb ta’limi jarayonida elementar malaka va kunikmalarni shakllantirish.

Kasbga oid muvofiqlashtirish konsultatsiyasi - bundan oldingi bosqichlardagi o‘tkazilgan tadqiqot natijalari va psixofiziologik tekshirish natijalariga qarab o‘quvchi tomonidan noto‘g‘ri tanlangan kasb ta’limi turidan uning shaxsiy ko‘rsatkichlari, kasbga yarokliligi, layokatiga mos kasb ta’limiga muvofiqlashtirish maslaxatlarini beradi va amalga oshiradi.

Kasbga oid asosiy shakllantirish konsultatsiyasi- shaxsnii kasb ta’limi turida olayotgan bilim, malaka va ko‘nikmalarini shakllantirishni davom ettirishni va yuqori sinf o‘quvchisini ma’lum bir mutaxassislikni egallashni amalga oshiradi.

Kasbga oid nazorat konsultatsiyasi- o‘z oldiga quyidagi vazifalarni qo‘yadi: o‘quvchi qanchalik darajada kasbni to‘g‘ri tanlagani, muvofiqlashtirish konsultatsiyasi yaxshi o‘tilganmi, qaysiki shu konsultatsiya vaqtida o‘quvchining psixologik va jismoniy kasb sharoitia moslashishi yaxshi kechganmi, kelgusida kasb maxoratini oshirish va to‘g‘ri mexnat faoliyatini aniklashga doir maslaxatlar, yo‘l yo‘riqlar berish.

Kasbga oid konsultatsiyani o‘tkazishni shartli ikki bosqichga ajratish mumkin:

- o‘quvchi shaxsini o‘rganish;
- ongli kasb ta’limi turini, kasb tanlashga pedagogik raxbarlik qilish.

O‘quvchi shaxsini o‘rganishda turtta asosiy aspektni o‘z ichiga oladi:

- Yo‘nalganlikni o‘rganish (shaxs nimani xoxlaydi), boshkacha so‘z bilan aytganda, shaxs uchun intilish qaysi soxaga karatilgan. Konkret bu shaxsning qiziqishlarida, layokatda, ishonchda o‘z ifodasini topadi.

- YOsh insonni qobiliyati va talantini o‘rganish (nima qila oladi), bu uning individual xislatlariga ma’lum bir faoliyatni yaxshi egallashi uchun sub’ektiv shartashroit bo‘lib xizmat qiladi. U aniq faoliyat turi (texnika, musiqa, tabiatshunoslik, pedagogik va xk.) namoyon bo‘ladi. Ular faoliyatni tez o‘zlashtirib oladilar, tez, aniq va puxta faoliyat ko‘rsatadilar.

- SHaxsni xarakterini va asosiy sifatlarini o‘rganish (shaxsda bor xislatlar), bu xarakteristik xislatlar, psixologik reaksiyalar odamlar bilan muomalada o‘ziga, ishiga munosabatida namoyon bo‘ladi.

- O‘quvchilarni professional planlarini o‘rganish.

Maktab o‘quvchisi shaxsi to‘g‘risidagi ma’lumotlar uni individual kasbiy ish rejasi bilan solishtirib ko‘riladi. Bu vaqtida bir kancha vaziyat paydo bo‘lishi mumkin. E.A.Klimov xar bir aniq vaziyat uchun kasbga oid maslaxatda besh xil xolat yuzaga kelishini ta’kidlaydi. O‘quvchida kasbiy ish rejasi va layokatini bor yoki yukligiga qarab ushbu vaziyatlar metodik adabiyotda berilgan.

Kasbga oid konsultatsiyaning guruxlarga va yakka tartibda tashkil etiladigan shakllari mavjud.

Kasbga oid guruxlarga o‘tiladigan kasbga oid konsultatsiyada o‘quvchilarni professional yo‘nalganligi, kasbi rejalari, o‘qish va mexnat faoliyati to‘g‘risidagi ma’lumotlarni sistemaga keltirish, layokati to‘g‘risida, qiziqish va ularni turg‘unligi va o‘sishi o‘rganiladi. Bu ishlarni xammasi kasbga yo‘llash kabinetida amalga oshiriladi. Bu erda quyidagi metodikalardan foydalilanildi.

Kasbga oid individual konsultatsiya darsdan tashqari vaqtida kasbga yo‘llash

kabinetida va kasbga oid konsultatsiya laboratoriyasida o'tkaziladi. Individual konsultatsiya utayotganda profkonsultant katta maxorat bilan munosabatda bo'lib, o'quvchining ochilmay yotgan imkoniyatlarini ko'zgash, ochish va uni xar xil faoliyat jarayonida (KXK ta'limi turida) shakllanadi, bu 12-jadvalda keltirilgan:

Kasbga oid konsultatsiyani o'tkazish bosqichlari

O'quvchilarni professional qiziqishlari kasb ta'limi turi bilan mos kelsa (KX,K sharoitida) ularni gruppalarga ajratish kerak. mos kelmasa, u vaqtida ko'shimchka aniqlovchi kasbga oid konsultatsiya o'tkaziladi

№	Kasb tili	Kasb ta'limi turi	Insondon talab qiladi
	Inson-texnika	Tokar, frezerchi, slesar, yig'uvchi-slesar, elektromontajchi, tikuvchi-motorist	Ko'z bilan chamalash, ko'zatuvchanlik, fazoviy tafakko'r qo'llar xarakati mosligi, texnikaviy
	Inson-inson	Tabiiy xizmat ko'rsatish (kichik xamshira) mактабгача tarbiya muassasalari tarbiyachisi, savdo xizmati, ozik-ovkat maxsulotlari sotuvchisi, kandolatpaz, pazanda	Xushmuomalalik, yaxshi axloviy sifatlar, odamlar bilan tezda til topisha bilishlik, tartiblilik, mexrokibatlilik, odamlarga gamxo'rlik, bolalarni sevishg bilar extiroslarni boshkarish,
	Inson-belgi sanok temasi	EX,M operatori, programmist, mashinkada yozish va ish xujjatlari, chizuvchi.	Mantikiy tafakko'r, diqqatning turgunligi, yaxshi xotira, tasavvur va boshqalar
	Inson-tabiat	O'simlikshunos, gulchi chorvador	Ko'zatuvchanlik, sabrtoqatlilik, jismoniy chidamlilik, g'amxo'rlik, tartiblilik
	Inson-badiiy obraz	Badiiy to'qish, rassommodeler, yog'ochga ishlov berish xalq ommaviy san'ati, ganchkorlik va x.k.	Ko'z bilan chamalay bilishlik, badiiy did, badiiy va musikiy kobliyat, yaxshi tasavvur qilish, fazoviy tafakkur.

Kasb ta'limi turi va uni insonga talabi

Yangi o'quv yili boshlanishida o'quvchilarni kasb ta'limi turlari bo'yicha taqsimlanishi yana bir marta tekshirish kerak. o'quvchilarga /IX-sinf/ kasb ta'limi o'qitilishi sharoitlari bilan tanishtirish sexlarni, kombinat ustaxonalarini ko'rsatish ishlab chiqarish ta'limi masterlari bilan uchrashuvlar o'tkazish zarur. Kasb ta'limi turini o'zgartirishni istagan o'quvchi kasbga oid konsultatsiya laboratoriya xonasiga ko'shimcha tekshirish uchun yo'llanadi. U erda ularni individual layoqatlari, qobiliyatlarini va professional yo'nalganligiga xar xil testlar, yakka tartibdagi suxbat

yordamida o‘lchanadi.

Imkoniyatiga qarab xotirasi, diqqatini, reaksiya tezligini va o‘quvchisini boshqa xil sifatlarini (barmoqlari sezgisini, nerv sistemasi ko‘zg‘aluvchanligi jarayonini, ko‘zning yorug‘likka sezgirligini, ko‘zni miltillashga sezgirligi, eshitish sezgirligini va boshqalarda) o‘rganadigan, bir kator psixofiziologik metodikalardan foydalaniladi.

Kasbga oid konsultatsiya ko‘rigida aniqlangan o‘quvchining imkoniyatlari kasb ta’limi turlari shaxsga quyadigan talablar bilan solishtirib, o‘quvchini psixofiziologik imkoniyatlari yaqin keladigan kasb ta’limi maslaxat beriladi. (Kasbga oid aniqlovchi konsultatsiya).

O‘quvchini ijtimoiy foydali, unumli mexnatga ishtirok etishi, o‘z maxoratini sinab ko‘rish olingan bilimlarida tarbiyasining qay darajada ekanligini yaqqol ko‘rsatadi va kasb ta’limi turida olgan bilim, malaka va kunikmalarini ishlab chikarishda foydalaniladi. Kasbga oid shakllantirish konsultatsiya “O‘quvchilarni kasbga oid konsultatsiya kartasi”da ishlab chiqarish ustalari (masterlari), meditsina ko‘rige va ota-onalar rozi-rozi emasligi xam qayd qilib boriladi¹⁶.

“O‘quvchini kasbga oid kartasi”da qayd qilingan natijalar umumlashtirilib, analiz qilinadi va xulosaga asosan ongli kasb tanlashiga mos keluvchi konsultatsiya beriladi.

Kasb-xunar kollejlarida kasbga oid kansultatsiya o‘tkazish uchun moddiy bazalarning yaratilishi: Kasbga oid konsultatsiya ishlari effektivligini oshirish uchun KXK sharoitida maxsus jixozlangan laboratori xonasini tashkil etmoq kerak. biz o‘z tadqiqotimizda eksperiment tariqasida 2000 yildan KXK strukturasiga ajralgan. Natija esa kutganidan yaxshi.

Kasbga oid konsultatsiya laboratoriysi uchta aloxida xonadan iborat bo‘lishi mumkin va maqsadga muvofiqli. Biz taqdim etayotgan laboratoriya rejasida keltirilgan. U kasbga oid ommaviy konsultatsiya o‘tkazish xonasidan (kasb tanlashga yo‘naltirilgan kabinet) yakka tartibda suxbat, individual psixofiziologik xislatlarini aniqlaydigan testlar va apparaturami metodikalar xonasi va metodika konsultatsiyasi (kasb tanlab olish) xonasidan iborat.

Imkoniyatga qarab, ushbu xonalarni quyidagi jixozlar va apparaturalar bilan ta’milnamok kerak.

Kasbga yo‘llash kabineti:

1. Kasbga yo‘llash bo‘yicha uchun metodist uchun stol. 2. Stul. 3. Boshqarish pulti. 4. Televizorlar. 5. O‘quvchilar uchun stollar. 6. Stullar. 7. KXKda kasb tanlash turlari bo‘yicha amaliy ishlar ko‘rgazmasi. 8. Kasb tanlashga yo‘llash materiallari (anketalar, kasbga oid konsultatsiya kartalari, kasb tanlashga oid kitoblar, jo‘rnallar va

¹⁶ Myers, D. G. Psychology. Hope College. Holland, Michigan, 2010

x.k.). 9.Kodoskop. 10 SHaffof ekran. 11. “Ukraina -5 M” kinoko‘rilmasi. 12.Oyna. 13.“LETI-60” diaproektori. 14. “Proton” diaproektori. 15. “Lektor-600”. 16. Epiadiaskop EP-1. 17. Videomagnitafon (televizorlar 4) ga kushilgan. 18 “Rus” kinoproektori.

Kasbga oid konsultatsiya laboratoriysi:

1.Pofkonsultant uchun stol. 2.Konsulant uchun stul. 3.O‘quvchi bilan yakka tartibda suxbat o‘tkazish uchun stul. 4.Kasbga oid konsultatsiya kartalari, shaxsni o‘rganish metodikalar, anketalar, kitoblar va x.k.larni saklash uchun shkaflar. 5.Testli metodikalar o‘tkazish uchun stol. b.Stul. 7. KUVT “YAmaxa-2”. 8.Konditsioner BK-1500. 9.EX.M disklari, metodik kitoblarni saklash uchun shkaflar. 11.Qo‘llar xarakati mosligini aniklash ko‘rilmasi. 12.Nerv jarayonlarini aniklash ko‘rilmasi. 13.Ko‘zning bo‘rchagini aniklash ko‘rilmasi.14.Ko‘zning miltillashga sezgirligini aniklash pribori. 15.Eshitish sezgirligini va eshitish xotirasini aniklash apparati. 16.Ko‘zning no‘rga sezgirligini va ko‘riit xotirasini aniklash apparati. 17.Qo‘llar xarakati koordinatsiyasini anqlash moslamasi. 18.O‘quvchini psixofiziologik xususiyatlarini kompleks o‘rganish apparati.19.Apparatlarni saklash uchun shkaflar. 21.Apparatura metodikasi yordamida utkazilgan tekshirish natijasini saklash uchun shkaf.

Kasbga oid meditsina konsultatsiyasi kabineti:

KXK tibbiy yordam ko‘rsatish xonasidan xam foydalansa bo‘ladi. 1.Vrach stoli. 2.Vrach stuli. 3.O‘quvchi uchun stol. 4.Kasbga oid meditsina, konsultatsiyasi natijalarini saklash uchun shkaf. 5.Meditsina xodimi stoli. 6.Stul. 7. O‘quvchi uchun stul. 8. Dori-darmonlar uchun shkaf. 9. O‘quvchi sogligi darajasini va tanlagan kasb ta’limi turiga yarokligini aniklash uchun meditsina apparaturasi.

Mavzu bo‘yicha bilimlarni mustaxkamlash uchun savollar

1. Kasb tanlashga tayyorlash ishlarining olib borilish xolatlari
2. YUqori sinf o‘quvchilarini bilan olib boriladigan kasbga oid konsultatsiyalar ketma-ketligi
3. Kasbga oid konsultatsiyani o‘tkazish boskichlari
4. Kasb-xunar kollejlarida kasbga oid kansultatsiya o‘tkazish uchun moddiy bazalarning yaratilishi
5. Dastlabki kasbga oid konsultatsiya ishlari

8-MAVZU Kasbiy faoliyat va bilish jarayonlari

Reja:

1. Shaxsning bilish jarayonlari va kasbiy rivojlanishi
2. Diqqat jarayoni va shaxsning bilish jarayonlari
3. Sezgi va uning turlari
4. Idrok va kasbga yo’llash

5. Xotira va kasbga yo'llash

6. Xayol va kasbiy faoliyat

Miya va kognitiv psixologiyada shaxs miyasidagi muhim fikrlar bo'lган. Devid Xomning fikri bo'yicha ichki ko'rinish, bilimlar aniq qonun qoidalarga bo'ysungan holatda shakllanib boradi. Bu o'zgarishlar vaqt va kuch sarflashning oqibatida paydo bo'ladi.

Aslida bu kognitiv psixologiyaning ilmiy izlanishlar natijasidir. 19- asr psixologlari Velgelm Vundt va Fransiyalik Kornelis Donders inson reaksiyasiga javob uchun kerak bo'lган vaqt ni o'lchab, bir qator tajribalar o'tkazishdi. Bundan 55 yil o'tgandan so'ng 20-asrda kognitiv psixologiya tushunchasi paydo bo'ldi. 20-asrning birinchi yarmida izlanishlar jarayonida Frederik Burxus Skaner kabi psixolog bixevoiristlar ichki histuyg'ularani kechirish, anglash-fikrlash, xotira – nafaqat gipotetik konstruksiyalar balki hali oxirigacha o'rganilmagan, isbotlanmagan mental konstruksiyalarni aniqlashdi.

Bixevoiristlarning ta'kidlashicha tajriba va izlanishlar tahlili jarayonidagi inson xulq-atvori va stimullari mental konstruksiyalardek ahamiyatli emas. Uotson va Skinneralarning fikricha inson faqat shu tarzda ob'ektiv baholanishi mumkin. Bixevoiristik teoreyaning mashxurligi 50 yillarda chetda qolgan, 1950 yillarda psixolog olimlarning e'tiborini yana bir jihat xotira, til, ma'lumotlarni qayta ishlash, fikrlash va onga qaratildi. Bixevoirizmdan chekinish yangi davrning boshlanishiga asos bo'ldi va turli xil kommunikatsion nazariyalarning paydo bo'lshiga to'rtki bo'ldi. Bu nazariyalar oldin paydo bo'lган ma'lumotlar nazariyalar asosida yangi tajribalarni to'gdirib, nazari va amaliy tushunchalarni shakllanishida belgi va diqqatni aniqlashga qaratilgan. Xomskiy kabi zamonaviy lingvistlar tilga va grammatikaga oid yangi nazariyalarni taklif qildi. Generativ va umumiylar grammatikaning nazariyasi, tilning ustivorligi va Skinerner verbal xulq-atvorining tanqidi kognitiv fan tarixiga kirib keldi.

Xotira nazariyasi va uning modellari boshqa o'rganish jarayonlarining modellarinig paydo bo'lshiga asos bo'ldi. Kompyuter bilan fanlar ayniqsa suniy intellekt inson nerv – tuqimalari tizimi asosida tuzilgan. Buni test orqali tekshirib ko'rish mumkin. Masalalarning yechimi va ishlanishi, saqlash uchun xotira va til o'rganishlarda undan tashqari bu sun'iy neyron tuqimalarining tuzilishida yordam berishi mumkin. Masalan: inson chexralarni eslab qolishi kabi sun'iy neyron tuqimalar eslab qolishi mumkin.

Aniqroq aytadigan bo'lsak sun'iy qurilmalar insonlarga oid qobiliyatlarga ega bo'lib kelmoqda. Kognitiv bilim bo'yicha olib borilayotgan tajribalarda bolalarda dunyonni o'rganish qobiliyatları va chaqaloqlikdan o'smir yoshiga o'tgunga qadar qobiliyatlarini rivojlaning ichki representatsiyamizdir.

U yoki bu narsa haqida ma'lumot bizning miyamizning abstrak yoki neyroximik

kodlarida joylashgan.

Tolmen, Bartlett, Norman va Rumelhart kabi olimlar kognitiv kortagrafiyalar bo'yicha bir qator tajribalar o'tkazishdi. Yangi elektroensefalografiya (EEG) funksional magnitno-rezonansli tomografiyalar olimlarga miyaning faolligini ulchash, insonning ruhiy holatini o'rganish imkoniyatlarini berdi. Bu insonni, ongini, ruhiy holatini o'rganishda bu yo'nalishlar kognitiv psixologiyaning juda qiziqarli tomonlarini aniqlashda yordam berdi.

Kognitiv psixologiya bu nima degan sovolga javob beradigan bo'lsak, bu psixik jarayonlarning asosida yotgan tafakkur va psixik jarayonlarni o'rganishdir. Albatta bu yangi muammolarni tug'diradi. Masalan, psixik hodisa bu aslida nima? Bu savolga juda ko'p javoblar berish mumkin.¹⁷

Misol qilib aytadigan bo'lsak Knut fikricha o'qiyotgan odamning e'tibori so'zlarni va gaplarning joylashishiga qaratiladi va u o'kish jarayonini ko'rish orqali qabul qiladi. Boshqa ma'lumotlarni masalan, kuchadagi shovkinni yoki pashshaning uchayotgandagi ovozini o'z kognitiv apparatiga – qulog'i orqali qabul qiladi, bu erda deraza unchalik ahamiyatga ega emas.

Juda ko'p boshqa kognitiv xususiyatlar xam izlanishlar predmeti bo'lib kelmoqda. Bir muammoning echilishi misolida Knut vaziyatni quyidagicha tushuntiradi: Inson hozirgi holatidan kelib chiqqan holda bajarilmagan vazifadan – maqsad bajarilgan vazifaga erishish uchun o'z miyasida ma'lum operatorlardan foydalanadi.

Knut fikricha bu vazifani bajargunga qadar qisqa muddatli va o'zoq muddatli xotira bir vaqtning o'zida faol bo'lib keladi. Oldin olingan kichik-kichik bo'limlardagi qog'ozdag'i ma'lumotlarni umumlashtirishga uning o'zoq muddatli xotirasi yordam beradi. Inson kitobdag'i, ma'ruzadagi va boshqa joydan olgan ma'lumotlarini jamlaydi va tahlil qiladi. Undan keyin xulosa chiqaradi va natijaga erishadi. Bu jarayon insonni psixologik qobiliyatlarini (qabul qilish, tushunish va saqlash) ko'rsatish va o'rganishda yordam beradi. Ba'zi olimlar inson emotsiyalari kognitiv psixologiya va miya ongdan alohida ko'rinxaydi degan fikrni bildirishadi, masalan, nafrat sevgi quvonch – inson miyasini alohida o'ziga xos deb qaraladi. Kognitiv psixologlar tashqi dunyo ma'lumotlarini qayerdan olamiz degan savolga javobni izlaydilar. Biz ma'lumotlarni qanday saqlashimiz? Ular ustida qanday ishlashimiz? Muammolarimizni qanday echishimiz mumkin? Til orqali fikrimizni qanday ifodalaymiz?

Kengroq yoritadigan bo'lsak, kognitiv psixologiya bu - unda ishtirot etayotgan barcha fiziologik va psixik jarayonlardir. Kognitiv psixologiyaning nevrologiyaga va kognitiv neyropsixologiya bilan bog'liqligi. Albatta, tabiatni anglashni miyaning o'zisiz

¹⁷ Duane P.Schults. Theories of Personality. Wadsworth, a division of Thomson Learning, Inc. Copyright © 2005

tushunish oson bo'lardi, lekin bu juda qiyin, neyrobiologik chegaralanishsiz bizning tafakkurimiz haqidagi nazariyani isbotlash yoki tuzish uchun neyroanatomiya, neyrofiziologiya miyaning faoliyatini va u bilan bogliq bo'lgan komp'yuter orqali olinadigan psixologik modellarni inobatga olish darkor.

Tafakkur juda xam keng va murakkab jarayondir. Shu darajada murakkabdir. Muammoning yechimini topish uchun kognitiv operatsiya bajarilishi mumkin. Neyrobiologik ma'lumotlar o'rganish tadqiqotlarining nazariy yondashuvi uchun aniq ma'lumotlar beradi.

Bu jarayon tadqiqotlarni yanada aniqroq bo'lishiga yordam beradi. Azaldan shu narsa ma'lumki, bosh miyaning jaroxat olishi insonning fe'l atvorida o'zgarishlar keltirib chiqarishi mumkin.

Miyaning tuzilishini va jarayonlarini o'rganish bo'yicha tadqiqotlarda yangi texnologiyalar keng imkoniyalar yaratib bermoqda. Ular bizning ongimizdagi bo'layotgan hodisalarni tushunishga yordam beradi.

Zamonaviy psixofiziologiyaning bo'limlari tepe va pastga bo'rtib chiqqan miya qismi bilan ushlanib turiladi. Ular qarri (singulyar burmalar), taxlamlar deb nomlangan. Ular ma'lumotlarni qabul qilib ishslashda ishtirok etadi. Xotira, e'tibor, tilni alohida-alohida ko'rib o'rganib bo'lmaydi, miya xar xil bo'limlarga javob bersa xam, masalan, chanoq qismi masofaviy joylashuvimiz va orientirga javob bersa, miyaning ort qismi asosan vizual qabul qilish va tassavurga javob beradi. Lekin, ularni o'zaro birgalikda faoliyat yuritishi bizning kognitiv defitsitni davolashga ko'mak beradi. Miyaning xar xil qismlari faoliyatining o'zaro bogliqligini ta'riflash mumkin bo'lgan jarayonlar va natijalar kognitiv neyropsixologiyaning asosiy maqsadidir. EEG va MRT kabi zamonaviy usullar olim izlanuvchilarga miya faoliyatini o'lchab, undagi o'zgarishlarni taqqoslash imkoniyatini beradi.

Knutning yuqoridagi savollarini eslasak, xech narsa o'z-o'zidan sodir bo'lmaydi. Kognitiv psixologiya sohasi o'ziga bir qator jarayon va holatlarni jamlaydi va xar bittasi miyaning bir qismida tasdiqlangan.

Perspektiva mavzusida insho yozish kerak bo'lganda Knut bir necha kun toza varoq oldida o'ng qo'lida ruchka o'ynatib o'tirgan va bir necha soat qolganda essening bir xarfini xam yozmagan oq qog'ozga musht tushurib: "Menga reja kerak"-deb baqirib yuborgan. Knut duch kelgan bu vaziyat bilan biz kunda duch kelamiz. Insonning muammosi bor va u o'sha muammoni qanday echishini bilmaydi.

Muammo o'zi nima? Muammoni echish yo'llari mavjudmi?

Biz yoritmoqchi bo'layotgan muammo bir ikkitasigina xolos. Undan so'ng biz, Geshtalt psixologiyasida zamonaviy strategiya bilan bogliq bo'lgan sun'iy intellekt bilan tugatib, savollar yyechimini topishda turli xil yullarni ko'rsatishni rejalashtirmoqdamiz.

Bundan tashqari biz ekspertlar muammo yechish yo'llarini hal qilishni o'rganib chiqamiz. E'tiborlaringizni ikkita mavzuga qaratmoqchimiz: bir tomondan neyrofiziologik, ikkinchi tomondan esa evolyusion. Xar bitta muammoli vaziyatda asosiysi maqsadni aniq ko'rish - bu fikr evolyusion nuqtai nazarida muammo yechimiga olib keladi. Inson yoki xayvonning moslashuvi adaptatsiya deb nomlanadi va hayotni muammodek qabul qilishga undaydi. Bu muammolar qatoriga ozuqani topish, qaxraton qishdan eson - omon chiqish, qayerda nimani qoldirgan bo'lsa eslab qolish, to'g'ri qaror qabul qilish, qayerga o'qishga borish va xokazolarni kiritish mumkin.

Evolusion nuqtai - nazardan muammolarning yechimi oson va murakabga bo'linadi. Masalan, o'ng qo'l bilan chashkadan kofe ichishimiz kerak bo'lsa bu haqida uylamaymiz xam. Bu miyamizda shakllanib bo'lgan odatiy holat. Lekin murakkab mashina yoki robot uchun bir necha jarayon xotirasida saqlanishi shart (kurujkani tanish, tulaligini aniqlash, undan so'ng uni ushlab buyruqni ijro etish, xarakatlantirish) hayotda esa bunaka tabiiy vaziyatlar juda ko'p, bizning ongimiz muntazam ravishda bu muammolarning yechimini tez hal qilish kerak. Fundamental muammolarga keladigan bo'lsak, ular xar doim xam duch kelavermaydi, lekin uzoq va ko'p kuch talab qiladigan yechimlar bilan hal bo'ladi. Masalan, shaxmat o'yini miyadagi mas'ul qismlarini bir-biri bilan bog'lanib turib o'z ishini bog'lashga undaydi. Qaysi joydan qaysi joyga o'tish mumkin, bu bilan nimaga erishamiz. Bu muammoning oxirgi maqsadi mot qo'yib yutish. Bu maqsadga erishish yo'lidagi muammolarni yechimi aniq maqsadlar bilan bogliq. Bu talablarni algoritmik yo'l bilan amalga oshirish mumkin.¹⁸

Diqqat inson kasbiy faoliyatining barcha turlarini muvaffaqiyatli amalga oshirishning va ularni samaradorligini ta'minlovchi muhim shartlardan biridir. Kasbiy faoliyat qanchalik murakkab, serzaxmat, davomiylik jihatdan uzoq muddatli, mas'uliyat hissini taqozo qilsa, u diqqatga shunchalik yuksak shartlar va talablar qo'yadi.

Kasbiy psixologiya va umumiyligi psixologiya fanlarida diqqatga xar xil ta'rif beriladi, uni yoritishda psixologlar turli nazariyaga asoslanib yondashadilar. Diqqat deb ongni bir nuqtaga to'plab, muayyan bir ob'ektga aktiv (faol) qaratilishi aytiladi (P.I.Ivanov). P.I.Ivanovning fikricha, biz faoliyatimiz jarayonida idrok va tasavvur qiladigan xar bir narsa, xar bir hodisa, o'zimiz qilgan ishimiz, uy va fikrlarimiz diqqatning ob'ekti bo'la oladi. Demak, xar qanday kasbiy faoliyat peredmetlari diqqatning ob'ekti bo'la oladi.

Diqqat deb ongimizni bir nuqtaga to'plab, ma'lum narsa va hodisalarga faol yo'naltirilishiga aytiladi. diqqat sezish jarayonida, idrok qilishda, xotira, xayol va tafakkur jarayonlarida xar doim ishtirok etadi. Demak, diqqat barcha aks ettirish jarayonlarimizning doimiy yo'ldoshidir.

¹⁸ Duane P.Schults. Theories of Personality. Wadsworth, a division of Thomson Learning, Inc. Copyright © 2005

Diqqat inson faoliyatining barcha turlarini muvaffaqiyatli amalga oshirishning va ularni samaradorligini ta'minlovchi muhim shartlardan biridir. Kishi faoliyati qanchalik murakkab, serzaxmat, davomiylik jihatdan o'zoq muddatli, mas'uliyat hissini taqozo qilsa u diqqatga shunchalik yuksak shartlar va talablar qo'yadi. Inson ziyrakligi, farosatliligi, tez payqashi, sinchkovligi, dilkashligi uning turmush sharoitida, Shaxslararo munosabatida muhim omil sifatida xizmat qiladi. Diqqat aqliy faoliyatning barcha turlarida ishtirok etadi, insonning xatti-xarakatlari xam uning ishtirokida sodir bo'ladi.

Psixologiya fanida diqqatga xar xil ta'rif beriladi, uni yoritishda psixologlar turli nazariyaga asoslanib yondashadilar. Diqqat deb ongni bir nuqtaga to'plab, muayyan bir ob'ektga aktiv(faol) qaratilishi aytildi (P.I.Ivanov). P.I.Ivanovning fikricha, biz faoliyatimiz jarayonida idrok va tasavvur qiladigan xar bir narsa, xar bir hodisa, o'zimiz qilgan ishimiz, uy va fikrlarimiz diqqatning ob'ekti bo'la oladi

Ixtiyoriy diqqat – ongning oldindan belgilangan maqsadga muvofiq irodaviy va asabiy faollik ko'rsatgan holda muayyan ob'ektga yo'nalishi va unga to'planishdan iborat diqqat turi.

Ixtiyoriydan keyingi diqqat – diqqatning muayyan ob'ektga, avvalo, ixtiyoriy ravishda qaratilib, so'ngra uning ahamiyati tushunilgan sari o'z-o'zidan qaratilib boriladigan (avtomatlashgan) diqqat turi. Ushbu tushuncha psixologiya faniga N. F. Dobrinin tomonidan kiritilgan.

Diqqat chalg'ishi – ma'lum bir faoliyat jarayonida diqqatning bir ob'ektdan boshqa bir ob'ektga ixtiyorsiz ravishda o'tib turishidan iborat salbiy xususiyati.

Diqqatning hajmi – diqqatning bir vakgning o'zida qamrab olishi mumkin bo'lган mustaqil ob'ektlar miqdori bilan o'lchanadigan xususiyati. Diqqatning xajmi eksperimental sharoitda 2-6 mustaqil ob'ektga tengdir.

Diqqatning ob'ektlari o'rtasida qanchalik yaqin bog'lanishlar mavjud bo'lsa, uning xajmi shunchalik keng bo'ladi va aksincha.

Diqqat ob'ekti – ongimiz atrofdagilardan ajratib olgan holda yo'naltirilgan va faol to'plangan narsa yoki hodisa. Diqqat ob'ekti faqat ob'ektiv narsalar emas, balki sub'ektiv hodisalar, o'z his tuygularimiz, fikrlarimiz, xayol yoki xotira tasavvurlarimiz va boshqa shu kabilar xam bo'lishi mumkin.

Ixtiyorsiz diqqat – ongimizning oldindan belgilangan maqsadsiz ravishda muayyan ob'ektga yo'naltirilishi va unga to'planishidan iborat diqqat turi. Ixtiyorsiz diqqat ob'ektlari narsa va hodisalarining odatdan tashqari holati, belgisi, sifati va boshqalardir.

Diqqatsizlik – diqqatni ob'ektga yo'naltira va tuplay olmaslik, atrofdagi kishilarga nisbatan diqqatsizlik yoki iltifotsizlikdan iborat salbiy xarakter hislati.

Diqqatning o'zgarib turishi – idrok, xotira, tasavvur yoki tafakkur jarayonida diqqatning ma'lum vaqt ichida dam kuchayib, dam susayib turishdan iborat qonuniyat; diqqat

ba'zan daqiqaga 25-30 marta xam o'zgaradi. Diqqatning o'rtacha o'zgarish tebranish chastotasi 2-3 sekundga tengdir.

Ko'ruv diqqati – narsa va hodisalarni ko'ruv organi orqali idrok qilish, esga tushirish munosabati bilan namoyon bo'ladigan diqqat turi.

Ikkinchi tartibli ixtiyoriy diqqat – ongimizning muayyan ob'ektga ixtiyorsiz ravishda yo'naltirilsada, uning ustiga ma'lum vaqt barqaror holda, to'planib turishidan iborat ixtiyoriy diqqat turi; diqqat to'plangan ob'ektining mazmuniga qarab ixtiyorsiz diqqatning ixtiyoriy diqqatga aylanishi.

Ichki diqqat – ongimizning o'z sub'ektiv taassurotlarimiz, his- tuygularimiz va intilishlarimizga qaratilishidan iborat diqqat turi.

Tashqi diqqat – ongimizning ob'ektiv voqealikdagi narsa va hodisalarga, ularning ayrim belgi va xususiyatlariga yo'naltirilish, ularda faol to'planadigan diqqat turi.

Bedor holat – bosh miya yarim sharlaridagi tegishli nerv markazlarining ko'zg'alishi bilan belgilanadigan uyqudan tashqaridagi holat, ongli holat. Shaxs bedor holatidagina ma'lum bir faoliyat turini amalga oshira oladi.

Ko'zg'alish markazi – markaziy asab tizimining ko'zgalish jarayoni ruy bergen uchastkasi.

Diqqat depretsiyasi(lot.deprezyu-pasayish) – turli tashqi va ichki omillarga ko'ra ob'ektda to'planish va mustaxkamlanishning kuchsizlanishi va bo'zilishi. Paradoks fazasi-kuchli ko'zg'atuvchilarga qaraganda kuchsiz ko'zgatuvchilarning kuchli reaksiyasining vujudga keltirishi (patologik holatlar nazarda tutiladi). Orientir refleksining elektrofiziologik simptomlarining barqarorlashuvi – ixtiyoriy diqqat bo'zilganda maqsadga muvofiq topshiriq berish va oqilona instruksiya yoki ustanovka berish xamda vaziyatga qarab uni o'zlashtirishorqali insonda orientirovka refleksini qaytadan tiklashdan iborat korreksion faoliyat.

Diqqat korreksiyasi(lot. Tuzatish) – insonda diqqat patologik holatga (buzilishga) uchraganda maxsus usul va uslublardan foydalanib to'zatish.

Odamning diqqati bir qancha xususiyatlariga ega bo'lib, ulardan asosiyлari

Diqqatning bo'linuvchanligi va diqqatning ko'chuvchanligidan iboratdir. diqqatning kuchi va barqarorligi deb odam o'z diqqatini biror narsa yoki hodisaga o'zoq muddat davomida muttasil qaratib tura olishiga aytildi. diqqatning kuchi va barqarorligi deb odam o'z diqqatini biror narsa yoki hodisaga o'zoq muddat davomida muttasil qaratib tura olishiga aytildi. diqqatning bo'linuvchanligi. diqqatning bo'linishi deganda, biz ayni bir vaqtda diqqatimizni ikki yoki uch narsaga qaratilishini tushunamiz. Agar diqqatimiz faqat bitta narsaga qaratilgan bo'lsa, ya'ni diqqatimiz faqat bitta narsa ustida to'plangan bo'lsa buni konsentratsiyalashgan (to'plangan) diqqat deb yuritiladi. Buning aksicha, agar diqqatimiz ayni bir vaqtda bir necha narsaga

qaratilgan bo'lsa, buni bo'lingan (taqsimlangan) diqqat deb yuritiladi.¹⁹

Diqqatning bo'linishi xar kimda xar xil bo'ladi. Buning sababi shundaki, diqqatning tengillik bilan bo'linishi diqqatimiz qaratilgan narsalarning ilgaridan bizga qanchalik tanishligi bilan bogliqdir.

Sezgi bilish jarayonidan biri hisoblanadi. **Sezgi** – oddiy bilish jarayoni, aks ettirishning dastlabki shakli ya'ni sezgi organlariga tashqi dunyoning alohida sifatlari tasviri. Segzi kognitiv jarayonning boshlangich nuqtasi. (R.Solso).

Psiologlar fikricha, sezish jarayoniga kirish psixik faoliyatni tushuntirishdagi eng birinchi qadam hisoblanadi. Lekin bizning miya faoliyatimiz xam biz nima sezsak o'shani aniqlab beradi. Biz his tuyg'ularni ikkala tomondan xam sezish yani miyaning yuqori qismidan keladigan va bizning tajriba va umid ishonchlarimizga yo'naltiradi. Bizning sezish qobiliyatlarimiz turli chiziqlarni, burchaklarni va ranglarni anglashga yordam beradi.

Tabiat sezish qobiliyatini xar narsaga in'om etadi. Inson o'ziga kerak bo'lgan xar qanday organizmdagi eng kerakli ma'lumotlarni topa oladi. qurbaqa uchadigan xashoratlar bilan oziqlanadi. Bunda faqat qora va oq ranglar signali etib boradi.

Atrof muhitda sodir bo'layotgan muhim voqeа hodisalarni biz sezgi organlarimiz orqali qabul qilamiz, qulqolarimiz eng sezgir organdir. Tovush chastotalari orgali inson ovozini chaqaloq yigisidan farqlaydi.

Insoniyat tajribasi natijasida xayvonlar sezgi qobiliyati xam aniqlangan. Ko'chib yuruvchi qushlar ichki sezgisi orqali qayerda ko'lishga munosib joy ekanligini anglashadi. Ko'rshapalak va delfinlar esa o'ljasini qayerda osonroq tuta olishiga qarab joy tanlashadi. Bulutli kunlarda asalarilar o'zлari uchun ma'lum quyosh nurini hosil qila oladilar.

Missiy moslashishning vazifasi nima?

Siz qo'shni xonaga kirganingizda noxush xidni sezdingiz. Bu yerdagilar bu xidga qanday chidayotganliklariga xayron qoldingiz, biroz vaqt o'tgach bu xidni payqamay ko'ydingiz.

Missiy moslashish – bu sizning oldingi holatingiz o'zgarmagan holda keyingi holatga kirishish jarayonidir. (Bu holat siz qo'l soatingizga qarab olgan vaqt davomida sodir bo'ladiyu, siz buni bir necha soniyalargina his qilasiz. Holatga moslashganimizdan so'ng nerv xujayralarimizda o'sha holatga moslashish hissi uyg'onadi.

Nega biz xar doim atrofimizdagi narsalarni diqqat bilan kuzatamiz. Chunki bizning ko'zlarimiz shunga moslashgan.

Marining ko'zi xarakatlanishi bilan proektordagi rasm xam xarakatlana boshlaydi. Mari qayerga qaramasin tasvir xam shu tomonga xarakatlanadi. Agar biz bunday


¹⁹ Duane P.Schults. Theories of Personality. Wadsworth, a division of Thomson Learning, Inc. Copyright © 2005

qurilmani yon tomondan yuz orqali joylashtirsak, Mari nimani ko'rар ekan? Birinchidan, u to'liq manzarani ko'radi. Lekin bir necha soniyadan so'ng uning ko'rish tizimida charchoq kuzatiladi va narsalar boshqacha ko'rina boshlaydi. Oz ozdan tasvir yo'qola boshlaydi, birozdan so'ng tasvir to'liq yoki tanish bo'lak shaklida tiklanadi va keyin g'oyib bo'ladi.²⁵

Sezgi psixik jarayonlarning boshlang'ich darjasini hisoblanadi. Faqt sezgi jarayoni orqali ma'lumotlar bizning ongimizga kirib keladi. Sezgining psixik xususiyatlarini tushunish uchun sezgining turli tomonlarini tahlil qilishimiz kerak. Biz sezgini signall va aks ettiruvchi funksiyalarini ajratishimiz kerak. Bir tomondan sezgi organizm uchun sharoitlarni ajratuvchi signal hisoblanadi. Biroq, sezgining o'rni shu bilan yakunlanmaydi sezgi aks ettirishning maxsus funksiyasiga ega, ular iz yoki ob'ektiv dunyoning sub'ektiv obrazini yaratadilar bu inson va xayvonlarga o'zini tutish imkoniyatini yaratadi. Bizga ma'lumki inson yoki xayvon organizmlariga kirib kelayotgan ma'lumotlar signallar tizimiga ega. Xayvonlar uchun bu signallar tizimi oziqlanish, ximoyalanish yoki jinsiy xarakterga egadir. Xayvonlar uchun signallar tizimi faqat hayot uchun ahamiyatli holatlarga nisbatan qo'llanilishi mumkin. Masalan: mushuk ko'ng'iroq tovushiga e'tibor bermasligi mumkin, lekin sichqonning qimirlayotgan tovushiga javob reaksiyasini qaytara oladi. Ona qattik tovushga e'tibor bermasligi mumkin, biroq farzandining yig'i tovushiga uyg'onadi.

Sezgini faqat "signallar" tizimi deb e'tirof etilsa xato bo'ladi. Ular narsalarning sub'ektiv xususiyatlarini xam aks ettiradilar. Sezgi tufayli bizda ob'ektiv dunyoning sub'ektiv obrazi paydo bo'ladi. Bu ob'ektiv dunyoning sub'ektiv obrazi insonni tashqi muhitga moslashish imkoniyatini beradi.

Inson psixikasi shunday murakkab tuzilganki u o'zi uchun nafaqat qiziq bo'lgan signallarni balki mavjud bo'lgan tashqi dunyoning ob'ektiv *holatlarini xam qabul qiladi*.



4-rasm. Sezgining paydo bo'lishi

Ko'pgina olimlar sezgi haqida o'z qarashlarini keltirib o'tishgan. Birinchi qarash: sezgi tashqi olam bilan aloqa o'rnatuvchi jarayondir. Faylasuf idealistlar sezgi organlar bizni tashqi dunyo bilan birlashtirmaydi, balki ulardan ajratadi. Sezgi organlari orqali real bo'limgan mavjud bo'lgan ob'ektlarni qabul qilamiz. Bu fikrlar inglez faylasufi Berkli tomonidan keltirilgan. I.Kant xam bu fikrni tasdiqlagan, nemis faylasufi Ernest Max tomonidan xam bu fikrlar tasdiqlangan. Masalan men yashil rangdagi maysaga qarayapman, lekin bu ob'ektiv yashil rangni idrok qilayapmanmi. Ya'ni insonning ko'z gavxariga tushgan nur rangni o'zgartiradi Berklining fikriga ko'ra, biz xaqiqatdan xam maysaning rangini bilmaymiz shuning uchun xam biz illyuziyalar dunyosida yashaymiz. Chunki, bu holatlar bizning sub'ektiv fikrimiz hisoblanadi.

Shunga yaqin fikrlarni Kant xam aytib o'tgan. Men ob'ektiv olam haqidagi fikrlarni faqat sezgilarim orqali qabul qilaman. Men sezgi organlarim chegarasidan chika olmayman. Sezgi organlarim meni tashqi dunyodan ajratadi, ularni birlashtirmaydi.

Ernest Max xam bu fikrga kushilgan tashqi dunyo mening sezgilarimning kompleksidir, bu sezgilar fiziologik jarayonlarning aks ettirishidir.

XIX asrning o'rtalarida ikki taniqli fiziologlar idealistik nazariyani mustaxkamlashgan. Ularning biri Loganis Myuller ikkinchisi Gelmgolslardir. Ularning fikrlarini yuqorida keltirilgan tushunchalar to'ldiradi. Ular psixologiyada sezgi organlarining maxsus energiyasi qonuniyati nazariyasini kashf qilishgan. Olimlar sezgi organlari bizni tashqi dunyoga yaqinlashtirmaydi, balki ularni bir biridan ajratadi deb hisoblashgan.

Miller alohida sezgi organlarini ko'zatib quyidagi xulosalarga kelgan. Xar bir sezgi organlari o'ziga xos bo'lgan energiyaga egadir va shular tashqi dunyoga ta'sir o'tkazadi. Masalan, bizning sezgi organlarimizga turlichcha ta'sir o'tkazishimiz xar bir sezgi organlarimizning o'ziga xos kodlari mavjud.²⁰

Sezgining klassifikatsiyasi. Sezgilarni 3ta katta sinfga ajratish mumkin. Bular introtseptiv (organizmdagi sezgilar), propriotseptiv sezgilar (xarakatdagi organlar sezgisi), eksterotseptiv sezgilar (tashqi dunyodan kelayotgan sezgilar) dir.

Hamma ichki organlarda tomir devorlari, oshqozon devorlarida sezuvchan to'qimalar joylashgan, ular xar bir holatlarga javob beradilar, bu to'qimalardan biri esa bosimga javob beradi. Har qanday ichki organlarning holatlari boshqariladi bunda introretseptorlarning o'rni katta. Bu to'qimalarning ko'zg'alishi anglangan sezgilarni aniqligini ko'rsatmaydi. Sechenov ularni «qorong'u sezgilar» - deb nomlab, tashqi dunyodan ajratuvchi deb atagan. Bu korongu sezgilar so'z orqali ifodalanmaydigan sezgilarni beradi. Ba'zi bir tadqiqotchilar komfort yoki diskomfort tushunchasini beradi deb e'tirof etishadi. Bu sezgilar emotsiyal xarakterga ega, bo'lar organizmning

²⁰ Duane P.Schults. Theories of Personality. Wadsworth, a division of Thomson Learning, Inc. Copyright © 2005

holatlarini aks ettiradi.

Bu sezgilarning organizm uchun o'rni kattadir. Bu sezgilar mayl va extiyojlarni xam tug'diradi. Ochlik, chanqov, havo etishmasligi va boshqalar, bu sezgilarni biologik mayl va extiyojlarning asosi deb hisoblanadi.

Introretseptiv sezgilar: bizni qornimiz ochsa ovqatlanamiz, chanqasak chanqovni qondiramiz. Bu sezgilarni murakkab reflektor jarayoni dEsak mubolaga bo'lmaydi, bo'larning natijasida esa extiyojlar qondiriladi.

Amerikalik fiziolog olim Kennon introretsertor funksiyalarni o'zlashtirish maqsadida gemostazis tushunchasini kiritgan, gemostazis organizmda qaytadigan muvozanat holatini bildiradi. Gemostazis introretseptor signallarning shakllanishi orqali vujudga keladi.

Introretseptorlarning ishi reflektor jarayonlarining ichki organizmlarda asosiy jarayoni hisoblanadi, ular qat'iy muvozanat yoki gemostazisni saqlab turadi.

Proprioretseptiv sezgilar: introretseptiv sezgilar bilan bir qatorda boshqa sezgi organlari xam mavjud. Bu proprioretseptorlar tizimidir, ular xarakat, muskul to'qimalari signallarini qabul qilish imkoniyatini beradi.

Bizning muskul, bo'g'im to'qimalarimizda sezuvchan nerv to'qimalari mavjud, ular bizning muskullarimiz haqidagi ma'lumotlarni beradi.

Ko'p vaqtlar davomida xarakatni amalga oshirish uchun efferent xarakat ko'zg'atuvchilarini o'zi kifoya qiladi degan fikr mavjud edi. N.A.Bernshteyn umrining ko'p qismini xarakatni o'rganishga bag'ishladi, uning tadqiqotlarini ko'rsatishicha xarakat apparati murakkab tuzilgan, uni xarakatga keltirish uchun efferent impulsning o'zi kifoya qilmaydi. Ixtiyoriy xarakatni boshqarish uchun proprioretseptorlardan keluvchi afferent signallarni mustaxkamlash kerak, bugimlarning xarakatlari esa bevosita shu retseptorlarga bog'liqdir.

Interoretseptorlar ichki gemostazisning organi hisoblanadi, proprioretsertorlar tashqi gemostazisning organi hisoblanadi. Interoretseptorlar organizmdagi moddalar almashinuvini nazorat qiladi, proprioretseptorlar xarakatlarni koordinatsiya qiladi va koordinatsiya apparatini nazorat qiladi.

Ekstereoretseptiv sezgilar: sezgilarning uchinchi katta sinfi ko'p darajada tadqiq qilingandir, bo'lar ekteroretseptorlar hisoblanadi, ular tashqi dunyodagi signallari tizimidir.

Eksteroretseptorlarning klassifikatisiyasida ikki xil tizim mavjud sistematik va genetik. Ekstereoretseptor sezgilarni shartli ravishda ikki turga ajratish mumkin. Kontakt sezgilar bu sezgilar bevosita aloqaga kirishadigan sezgilardir bular ta'm bilish, teri tuyush, hid bilish sezgisi hisoblanadi, distant sezgilar bo'lar ko'rish va eshitish sezgisi hisoblanadi.

Kontakt va distant retseptorlar orasida miqdoriy farq mavjud. Kontakt retseptorlar

vaqtli shakllangan bo'lib diffuz, differensiallashmagan, predmetli bo'limgan sezuvchanlikni shakllantiradi. Distant retseptorlar sodda tuzilgan jonivorlarda yuk, jonzotlar kanchlik rivojlangan bo'lsa distant retseptorlar shuncha katta o'ringa egadir. Bo'larning barchasi sistematik yondoshuvga misol bo'ladi.

Eksteroretseptorlarning klassifikatsiyasini genetik yondoshuvi yoki sezuvchanlik ko'rinishining evolyusion klassifikatsiyasi hozirga qadar sezuvchanlikni uch xil sinfi haqida so'z yuritadi (intro, proprio, ekstro).

Sezgi turlarining psixologik tavsifi: psixologiya fanida uchta katta gurux(turkum)ga ajratilgan sezgilar (eksteroretseptiv, prioretseptiv, interoretseptiv) o'z navbatida quyidagi turlarga bo'linadi:

- Ko'rish sezgilari.
- Eshitish sezgilari.
- Xid bilish sezgilari. Eksterotseptiv
- Ta'm bilish sezgilari
- Teri sezgilari.
- Muskul-xarakat (kinEstetik).
- Statik sezgilar Propriotseptiv
- Organiq sezgilar. Interotseptiv

Idrok – sezgi a'zolariga bevosita ta'sir etib turgan narsa va hodisalarning kishi ongida butunligicha yaxlit holda aks ettirilishi idrok deyiladi. Idrokning sezgidan farqi, narsalarni umumlashgan holda, uning xamma xususiyatlari bilan birgalikda aks ettirilishidir. Idrokning muhim xususiyatlari uning predmetliligi, yaxlitligi, strukturaliligi, doimiyligi (konstantligi) va anglashilganligidir. Idrok psixologiya fanida "persepsiya" (lotincha, qayd etish) ma'nosini bildirib, uning sodda turi persepsiya, tajribaga o'tgan qismi, "apppersepsiya" deyiladi.

Voqe'likdagi hodisa va vaziyatlarni oldindan anglash "sotsial persepsiya" deyiladi. Idrokni tushunishda uning xususiyatlarini bilish, o'zaro farqlash ahamiyatli sanaladi. Idrok tug'mami yoki o'zlashtirilganmi?" – degan savolni qo'yish o'rinnlidir. Har ikkalasi (tug'ma xam o'zlashtirilgan) xam deb javob bera olamiz. Idrok-his tuyg'ular, ruhiy kechinmalar orqali boyitib boriladi. Shu sababli xam bizga turli darajadagi tahlil natijalari zarur bo'ladi. "Oddiy" tushunchalar bu inson miyasining yaratuvchilik mahsulidir.

Psixologlar ish olib borayotgan mexanizmlar xamda ish qurilmalaridan oqilona foydalanish borasida inson omili qay darajada ahamiyatli? Inson omili psixologiyasi psixologiyaning insonlar xamda mexanizmlar va mexanizmlar bilan fizik muhitda qanday qilib xavfsiz va oson ish faoliyat olib borish haqida tadqiqotlar olib boradigan sohasidir. Dizaynlashda ba'zida inson omili e'tibordan yiroqda qoladi. Bunga e'tiroz tariqasida psixolog Donald Norman televizor, telefon go'shagi, karnaylar, raqamli ovoz

yozish apparati, DVD pleer, video magnitafon xamda murakkab ko'rinishdagi uy teatriga o'rmatilgan ettita oddiy qurilmalar birlashmasiga bergan alohida ta'rifida quyidagicha fikrlarni keltirib o'tgan edi. «Men Arrle rivojlangan texnologiyasining vitse prizidenti edim. Men o'nlab kompyuterlarni o'nlab tilda dasturlay olaman. Televizorni xaqiqatda tushunaman. Ha xaqiqatda yaxshi bajaraman. Buning ahamiyatli joyi yuqku: men buyukman»

Agar muhandislar insonlarning dizaynlari xamda ko'rsatmalarini tekshirish ustida inson omili psixologiyasi bilan muntazam tarzda ish olib borsalar, hayotimizni shunchalik osonlashtiradilar.

Inson omili psixologlari bizning tabiiy va ko'nglimizdagi tushunchalarimizni xamda jixozlar, mexanizmlar xamda ish sharoitlari bilan uygunlashtirishga ko'maklashadi.

Avtomatlashtirilgan hisob mashinalari video magnitafonlarga nisbatan ichki jihatdan murakkab tuzilishga ega, insoniyat omili psixologlariga muhandislar bilan birgalikda faoliyat olib borganliklari uchun tashakkur. Avtomatlashtirilgan hisob mashinalaridan foydalanish juda oson.

Inson omili psixologlari dizaynlashtirish xavfsizligi xamda yetarlicha shart-sharoitlar ustida xam ish olib borishadi. Tadqiqotchilarning aniqlashicha, o'ziga xos oshxona joylashishida, omborda kerakli bo'lган jixozlar foydalanuvchilar yaqqol va aniq ko'ra oladigan darajada joylashishi lozim. Bunaka joylashgan jixozlar inson yumushlarini oson bajarishi imkonini beradi, uchburchak shaklda joylashgan mo'zlatgich, oshxona plitasi xamda rakovina misolida yaqqol ko'rishimiz mumkin. Xamda bunday joylashuv qo'llarga tirsakdan biroz past balandlikda ishslash imkonini yaratadi²¹.

Odam omilini tushunish tushkunlikka tushishni kamaytirishga mo'ljallangan loyihalardan ko'proq ish bajaradi; bu baxsiz voqeа - hodisalardan ximoyalanish xamda faloqatlardan qutilishga yordam beradi (Boexm - Davis, 2005). Misol tariqasida, moliyaviy xavo faloqatlarining uchdan ikki qismi inson xatosi tufayli sodir bo'lган (Nitskerson, 1998). 1960- yillarning oxirlarida Tijoriy xavo qatnovlari boshlanishidan so'ng Boing 727 uchuvchi xatosi tufayli yerga qo'nish jarayonida bir necha bor falokatga uchradi. Psixolog Sonrad Kraft (1978) bu halokatlarni oddiygina izohlab o'tgan edi: xammasi tunda yoritilmagan yer va yoyilib yotgan suvdan uchib o'tib, uchish va qo'nish yo'llari yetishmasligi sabbabli sodir bo'ldi. Kraft uchish kunish

²¹ G'oziev E.G'. Umumiy psixologiya.-O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti. T.: – 2010.

yo'laklaridan tashqari shaxar chiroklarini xam releyfga nisbatan kattaroq va yaqqol ko'rini turishi proyektlashtirilishi lozim ekanligini xam sabab qilib ko'rsatdi. Bu erni masofasiga qaraganda yaqqol ko'zga tashlanishiga imkon yaratadi. Bunday qatnov tasviri axvolini qaytadan yaratish orqali, Kraft uchuvchilar xakikiy balandliklaridan chalgigan ekanliklarini kashf qildi. Kraftning kashfiyoti kumagida, xavo yo'llari monitor oldida xavf xatar va balandlikdan ogoxlantirib turuvchi birgalikda ishlovchi uchuvchilarga extiyoj sezsa boshladi va halokatlar kamaydi.

Ta'lim jarayonida inson omili masalasi, psixologlarning eng kuchli qurilmasi izlanishlar kumagidagi ta'limot hisoblanadi. Amerika Qo'shma Shtatlarida odatdagи sharoitda qo'llasa bo'ladigan shunday bir texnologiya borki, u chuntak o'lchamidagi moslamaga infra qizil nurlar yoki xona tovush sistemasidagi signallarni qabul qiluvchi qurilmaga o'rnatilgan. Yaxshi niyatda dizaynlashtirgan, sotib olgan xamda ushbu qurilmani to'g'ri tushunib o'rnatganda foydalanuvchi qo'log'da qurilma to'g'ridan to'g'ri ovoz chiqaradi. Afsuski, bir qancha odamlar eshitishi yuqolishi oqibatida ushbu ko'rila mdan foydalanish jarayonida uni joylashtirishda, taqib yurishda xamda ko'zga yaqqol tashlanib turishi natijasida qiyinchilik va nokulayliklarni boshdan kechirganlar. Shu tufayli xam bunga o'xshash qurilmalar devoriy shkaflardan joy olgan. Britaniya, Skandinaviya xamda Avstraliyada halqa shaklidagi odatdagи tovushlarni to'g'ridan-to'g'ri insonning o'z eshitish qobiliyatiga ko'ra o'tkazadigan qurilmani o'rnatishdi. Qulq ichiga moslab o'rnatilgan ovozni baland qilib beruvchi moslama extiyotkorona qo'shilganda eshitishga yordamlashishi tubdan o'zgarishi mumkin. Qulay, ko'zga tashlanmaydigan, xar bir shaxsning eshitish darajasiga mo'ljallangan moslama taklif qilinganda ko'pgina odamlar yordamchi eshtish qurilmalaridan foydalanishni tanlashadi. Insonlar va texnologiya o'rtasidagi oson, xavfsiz, xamda foydali o'zaro munosabatni dizaynlashga imkoniyat yaratish faktlar ko'rsatilgan paytda aniq ravshan o'z aksini topadi. Shunday ekan nega ular ommalashmasin?

Texnologiyani rivojlantiruvchi mutaxassislar ba'zida insonlar o'zlarining tajribalarini o'zlariga nima aniq bo'lsa o'zgalarga xam shunga o'xshash narsalar aniq bo'ladi deya fikr almashishadi deb xato taxmin qilishadi. Insonlar bilaklarini stol ustiga qo'yib tanish ovozni taqillatganlarida, eshitayotgan insonni xam aynan shu tovushlarni anglashi qutiladi (buni do'stlaringiz bilan sinab ko'ring). Ammo bu tinglovchi uchun deyarli imkonsiz bo'lgan topshiriq hisoblanadi. Qachonki bir narsani bilib tursangiz-u, ammo uni aqlingiz orqali nimaga o'xshashini tasvirlashingiz qiyin bo'lsa, bu bilimning haloqati hisoblanadi. Yodda saqlash uchun ma'lumot: dizaynerlar xamda muhandislar dizaynlashni Insonlarga mos tarzda bo'lishida foydalanuvchilar o'zlarining kashfiyotlarini keng ommaga taqdim etishdan oldin xamda bilim faloqatga yuz tutmasligi uchun insonning qobiliyati va xulq atvorini hisobga olishlari shart.

6-rasm. Idrokning paydo bo'lishi



Obrazlar xamisha muayyan ma'noli ahamiyatga ega bo'ladi. Kishining idroki uning tafakkuri bilan, narsaning mohiyatini tushunib etishi bilan, uning ko'plab xossalarni bilishi bilan xam bogliqdir. Narsani anglab idrok etish – unga fikran nom berish, ya'ni idrok etilgan narsani narsalarning muayyan guruxiga,

sinfiga kiritish, uni so'z vositasida umumlashtirish demakdir. Shu nuqtai nazaridan olganda gox shakl, gox fon navbatma navbat idrok etish, "Ikki mazmunli" deb ataladigan rasmlar bilan tajribalar o'tkazish Diqqatga sazovordir.

(Kubiklar nechta? vaza yoki bir biriga qarab turgan odamlarmi? va xokazo rasmlar.)

Shunday qilib, idrok sub'ektning bundan oldingi tajribasiga bog'liq bo'ladi. Kishining tajribasi qanchalik boy bo'lsa, uning bilimlari qanchalik boy bo'lsa, uning idroki shunchalik to'liq bo'ladi, buyumda u shunchalik ko'p narsalarni ko'ra oladi.

Idrokning mazmuni kishi oldiga qo'yilgan vazifa bilan xam uning faoliyati sabablari bilan xam belgilanadi.

Sub'ektning ustakovkasi (yo'l-yo'rig'i) xam, his-xayajonlari xam idrok mazmuniga ta'sir etadi.

Idrok xam sezgi kabi reflektor jarayondir. Shartli reflekslar, miya po'stlog'idagi muvaqqat bog'lanishlar idrokning fiziologik asosini tashkil etadi. Bosh miya po'stida eng kuchli, dominant ko'zgalish uchastkalarining yuzaga kelishi shaxsning xususiyatlari yoki holati bilan bogliq bo'lgan idrok yo'nalishining fiziologik asosini tashkil etadi.

Idrok qilish, sezish orqali biz nimalarni o'rGANAMIZ. Nemis olimi Immanuel Kant (1724-1804) tabiiy yo'llar bilan qabul siluvchi tajribalrini tashkil qilish haqidagi fikrlarini qo'llab-quvvatlagan. Xaqiqatdan xam, biz ma'lumotlarni qabul qilish jarayonimizda olgan bilimlar bilan ta'minlanishimiz mumkin. Ammo inglez faylasufi Jon Lokke (1632-1704) bundan farqli o'laroq biz o'z tajribalarimiz orqali olamni idrok qilishni o'rGANISHIMIZ mumkinligi haqida o'z fikrlarini bildirib o'tgan. Chindan xam, biz predmetlarni ularning masofasi va o'lchamlarini bir-biriga bog'lash orqali o'rGANAMIZ. Xush, bunday holatda tajriba qanday muhim ahamiyatga ega?

Villiam Molyneux kub va shar orasidagi farqni, ko'r bo'lib tug'ilib, hozirda talaba bo'lgan inson farqray oladimi yoki ko'rish qobiliyatiga ega inson farqlay oladimi degan savol bilan Joxn Lokkega yuzlanganda Lotske bu savolga nisbatan yuk deb javob qaytaradi, inson farqlarni ko'rish orqali o'rGANMAYDI. Malinyuxning taxminiy fikrlari

bir nechta butunlay ko'r bo'lib tug'ilgan o'spirinlarni tajribaga qo'yish orqali isbotlandi. Ularning ko'pchiligi katarakta bilan tug'ilgan bo'lib, bu katarakta linzalari ularga oddiy tipdagi rangni ko'rishga imkoniyat yaratadi. Katarakta operatsiyasidan so'ng, bemorlar turli xil figuralarni va ranglarni bir-biridan farqlay oladilar shuning uchun sezishning barcha ko'rinishlari tug'ma qobiliyat deb baholashadi. Lekin Joxn Lokkening fikrlashicha, bunday bemorlar tegish, ushlab ko'rish orqali ularga ma'lum, tanish bo'lgan predmetlar xar doim xam ko'rish orqali payqay olmaydilar.²²

Siz va men yakka holdagi yuzni bir butunlikda tasavvur qilishimiz va idrok qilishimiz mumkin. Bizga yuzning aynan bir xil qismi bilan juftlashgan ikki xil xar xil eng pastki yarim qismi aynan yuzning eng yuqori yarim qismidan farqlanadi. 43 yoshli erkak 40 yillik ko'rlik jarayonidan so'ng ko'rish qobiliyati tiklandi. Va u odamlarning o'ziga xos xususiyatlari bilan moslashtirish qobiliyatiga ega bo'ldi. Ammo u yuzni doimiy ravishda yodda saqlab qola olmasdi. Bundan tashqari, doimiy sezish qobiliyati xam yetarli darajada bo'lmasdan, masalan insonlar undan o'zotslashganda ularning xajmi kichiklashib borayotganday tuyuladi. Tadqiqotchilar Molyneuxning xayoliy tajribalari asosida yosh mushuklar va maymunlar ustida olib borilgan Tadqiqotlarga raxbarlik qildilar. Bir tajribada xayvonlar faqat aniq va oddiy shakldagi yorug'lik ko'ra oladigan ko'z oynak bilan ta'minlanadi. Go'daklik davrdan so'ng, ko'z oynaklar olingach xayvonlarning sezish muddati katarakta bilan tug'ilgan insonlarniki bilan bir xil bo'ladi. Ular ranglar va yorug'likni farqlay oladilar. Lekin kvadratlar aylana kabi shaklarni farqlay olmaydilar. Ularning retinasi ya'ni ichki sezuvchi tashqi membranasi po'stloq tomonidan berilayotgan belgilariga bog'liq bo'ladi.

Stimulyasiyaning etishmasligi tufayli, ularning tashsi po'stloq qavatidagi xujayralar tula rivojlanmagan bo'ladi. SHuning uchun xayvonlar funksional jihatdan ko'r holatda bo'ladi. Kataraktalarning kuchirilishinatijasida normal ko'rish qobiliyati oshadi. Endigina ko'rishni o'rgangan 3 yoshli Mike May portlash jarayonida ko'rish qobiliyatini yo'qotadi. 2000-yil, 7-mart kuni ung ko'ziga yangi sornea qo'yilgandan so'ng ko'rish qobiliyati yana tiklandi va dastlab ayoli va farzandlarini ko'rdi.

O'zoq muddatli xarakatsiz davrda signal kelib turganiga qaramasdan, ularni yetkazib berish uchun yetarli tajriba bo'lмаган. YUzlari ba'zi bir xususiyatlardan tashqari, masalan, sochi tanish bo'lмаган sezish qobiliyatimiz qanday darajada moslashuvchan?

Bir juft yangi ko'zoynak taqqanimizda biz o'zimizni adashib solgandek, ba'zan boshimiz aylanib yitsilgudek sezamiz. Bir yoki ikki kun ichida biz bu muhitga moslashamiz. Ammo bizning sezish bilan bogliq bo'lgan moslashish qobiliyatimiz yana

²² G'oziev E.G'. Umumiy psixologiya.-O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti. T.: – 2010.

olamni avvalgidek normal holatda ko'rishimizga yordam beradi. Lekin yangi bir juft ko'zoynak tatssak predmetlarning aniq joylashuvini 40 daraja chapga o'zgarib ko'rsatadi. Siz uni bиринчи мarta kiyib do'stingizga tup irgitganingizda bu predmet 40 daraja chapga tomon siljiydi. Siz bu buzib ko'rsatilayotgan dunyoga moslasha olasizmi? Bu jarayonga jo'jalar moslasha olmaydi. Ularning qayerda don mavjuddek tuyulsa o'sha erni cho'qishni davom ettirishadi. Lekin odamzot bu cxalqashtiruvchi linzalarga tezda moslashadi. Dastlab, ko'rish qobiliyatizingiz qarama-qarshi yo'nalishlarni adashtirishi, unga siljishi mumkin, lekin bir necha daqiqalar ichida bu vaziyatga yana qaytadan moslashamiz.

Psixolog George Stratton o'zining tajribalarida 8 kun davomida kiyiladigan bosh kiyim yaratdi. Bu optikal bosh kiyimning o'ziga xos jihat shundan iboratki, u chapni unga, yuqorini pastga qilib ko'rsatadi. Qachonki, Stratton bu moslamani kiyganda o'zini adashgandek his qildi. U yurishni xohlaganda, u o'z oyog'ini qidirayotgan holatda topdi. Bu jarayonda ovqatlanish deyarli amrimaxol. U bu jarayonda qattiq asabiylashgan holda bu vaziyatdan chiqish yo'lini qidirdi. 8 kundan so'ng, deyarli xech narsaga urilmagan holatda to'g'ri yo'nalishda shu bilan birga qulay holatda o'zi istagan predmetlarga etib bordi. U bosh kiyimini echganda, bu holatga yana qaytadan moslashdi.

Mana bir nechta misollar: Tasavvur qiling, siz buzilib qolgan «aravada xol» degan shovqin eshitdingiz. Darxaqiqat, siz bиринчи so'zni g'ildirak deb qabul qilasiz. «Apelsinda qo'l» deb eshitganingizda siz bиринчи navbatda apelsin po'stlog'ini tasavvur qilasiz. Bu qiziqarli fenomen, Richard Uorren tomonidan topilgan, taxmin qilinadiki miya vaqt bo'y lab orqaga ishlay oladi, oldingi yoddan chikgan stimullarni aniqlab olish uchun uni undanda oldingi vaqtida qanday qabul qilganligimiz aniqlashtiriladi. Qandaydir vaqt oraligida miya kutish ya'ni yangi ma'lumotni qabul qilish rejimida bo'ladi. Va bu holatda biron bir signal qabul qilinsa miya buni qanday qabul qiladi. Qabul qilish bo'limi ko'z, quloq, burun, qo'l ma'lumotlarni miyaga yetkazib beradi. Miya esa xotiraga saqlaydi. (Grosberg, 1995)

Kontekst va ma'lumotlarni qabul qilib saqlash effekti ko'rsatadiki, qanday qilib miya qabul qilayotgan ma'lumotlarni tasavvur qilishni tajriba orqali ko'rishimiz osonroq. Biz deyarli bilamiz xar kuni eshitayotgan va qabul qilayotgan ma'lumotlarimizni – dedi Toro. Masalan: kundalik hayotda biron bir jins vakiliga tegishli bo'lган stereotiplarini (qabul qilishning boshqacha ko'rinishlari) yanada yorqinroq qabul qilishimiz mumkin. Pushti yoki xavorang degan ochik taxminlarsiz. Notaniq odamlar begona chaqaloqlarning u yoki bu jins vakili ekanligini aniq aytishga xarakat qiladilar. Agarda chaqaloqning ismi «Devid» bo'lsa, uni jasur va katta o'g'il bola deb qabul qilishadi. Biroq u «Diana» ismli qiz bola bo'lsa uni bunday qabul qilishmaydi. (Stern &arraker, 1989). Ba'zi bir farqlar qarab turgan odamgagina ko'rindi.

Vaqt va xarakatni idrok qilish. Vaqtni idrok qilinishi voqealik hodisalarining ob'ektiv ravishda doimiyligini, tezligi va izchilligini aks ettirish demakdir. Vaqtni idrok qilish kishiga muhitdan mo'ljal olish imkonini beradi.

Odamda vaqt chandalash miya qobig'i bo'lmlarida ro'y beradi. Miya qobig'inining ma'lum bir joyida vaqt chandalash ruy beradi, vaqtni sarhisob qilishning maxsus markazi mavjud degan taxmin asossizdir. Vaqtni idrok etilishi negizini ko'zgalish va tormozlanishning ritmik tarzda almashinuvi, markaziy nerv sistemasida, bosh miya yarim sharlarida ko'zgalish va tormozlanish jarayonlarinig susayishi oqibatidir.

Vaqtni idrok qilishda turli analizatorlar ayniqsa eshitish va kinEstezik sezgilar ishtirok etadi. Makon va vaqt oraliklari vaqtni idrok etishda juda muhimdir. (Quyosh holati va vaqt, turli tovushlar: xo'roznинг kichkiritti, azon tovushi, bir xil vaqtida chalinadigan gudok, ma'lum jadval bo'yicha katnaydigan poezdning o'tishi yoki kechkurun ayrim qushlarning to'planib o'tishi, sayrashi va boshqalar eshitishsezgilar ta'sir qilayotgan ko'zgatuvchining vaqtga oid xususiyatlarini: uning davomiyligini, ritmik xususiyatlarini va shu kabilarni aks ettiradi)

Vaqt doimiyligini idrok etish ko'p jihatdan ichki kechinmalarga, hissiyotga xam bog'liq. Qiziqarli va chuqur asoslangan faoliyat bilan band bo'lishdagi vaqt juda qisqa, zerikarli va mazmunsiz faoliyatda vaqt o'tishi qiyin, o'zoq deb idrok qilinishi mumkin.

Harakatni idrok qilinishi – ob'ektlarnig fazoda egallagan holati o'zgarishini aks ettirishdir. Xarakatni idrok etilishi hayotiy muhim ahamiyatga ega.

Xayvonlar uchun xarakat qiluvchi ob'ektlar xavf-xatar yoki oziklanish imkoniyati paydo bo'lishi haqida signal vazifasini utaydi va shunga javob berishga undaydi. (Masalan, baqa faqat xarakatlanadigan xashorotlarnigina eydi, ba'zi baliqlar ma'lum xarakatlardan-to'lqindan qochadi, xurkiydi va xokazo). Xarakatni idrok etishda ko'rish va eshitish, kinEstezik analizatorlar asosiy rol o'ynaydi. Tezlik, tezlanish, xarakat yo'nalishi xarakatdagi ob'ektning perimetri hisoblanadi.

Kishi ob'ektning fazoda u yokdan bu yokka kuchishiga oid ma'lumotlarni 2 ta xar xil yo'l bilan, ya'ni ko'chish hodisasining o'zini bevosita idrok etish va bir muncha vaqt mobaynida boshqa joyda turgan ob'ektning xarakati haqida xulosa chiqarish asosida olish mumkin.

Xarakatlanayotgan ob'ektning xarakatsizligi, agar u muayyan vaqt vaziyat birligini ko'z bilan idrok qilish mumkin bo'lmasa, xarakatni o'tgan vaqt birligida idrok qilamiz lekin bu xarakat natijasini idrok etish bo'ladi. (Soat millari siljishini bevosita kuzatib idrok qila olmasak xam bir necha vaqtidan keyin uning siljiganligini vaqt birligida idrok qilamiz).

Ko'rish orqali ob'ektlar xarakati haqidagi axborotni 2 yo'l bilan: qayd etilgan nigox va ko'zlarning ko'zatuvchi xarakati bilan olishimiz mumkin. Ko'zni uzmay kuzatish, ko'zni, gavdani burib kuzatish. Masalan, biz o'tirgan vagon xarakatlanmasada,

yonimizda turgan vagonga qarab bizning vagon yura boshladi deb idrok qilamiz yoki aksincha, biz o'mimizda turibmiz-u, temir yo'l chetidagi stolbalar, daraxtlar yurmokda deb idrok qilishimiz mumkin.

Odatda illyuziyani gallyusinatsiyadan farq qila olish lozim. Illyuziya shu lahzada Shaxsning sezgi a'zolariga ta'sir etib turgan biror narsani yanglish, noto'g'ri idrok qilish jarayoni bo'lsa, gallyusinatsiya yuq mavjud bo'limgan narsalarni tashqi ta'surotsiz idrok qilishdir. Masalan, yo'q narsalarning ko'zga bordek ko'rinishi, yuk ovozlarning quloqka eshitilishi, yuk xidlarning dimoqqa urilishi kabilar gallyusinatsiyaning mahsuli bo'lib hisoblanadi. Gallyusinatsiya Shaxsning biror narsa va holatni ko'rgandek, eshitilgandek, his qilgandek kabi tasavvurning aks etishidir xolos. Gallyusinatsiya hodisasi Ko'pincha kasallikdan (isitma, alaxsirashdan) darak beruvchi alomatdir, u nerv tizimini bo'zadigan kasalliklarning oqibatida ruy berishi mumkin.

Idrok qilish qonunlari: Shaxs idrok qilishi jarayonlariga xos bo'lgan bir nechta qonuniyatlar psixolog olimlarning yozgan ilmiy adabiyotlarda keltirilgan, biz ularning ayrimlarini belgilaymiz:

Figura va foning ilgarigi harakat bilan bog'liqligi qonuni. Figura va foning ilgarigi xarakatga bog'liqligi qonuni. Bu qonunning ma'nosi odam ilgarigi tajribasida bo'lgan, bevosita to'qnash kelgan narsalarini idrok qilishga moyil bo'ladi. Agar biror predmetni u ilgari figura sifatida idrok qilgan bo'lsa, demak, keyingi safar xam uni aynan figuraday idrok qiladi, agar fon bo'lgan bo'lsa, tabiiy, fonday qabul qiladi. Bu qonunning hayotdagি o'rni chet davlatlarda borgan turistlar tajribasiga tayanib tushuntirilishi mumkin. O'zbekistonliklar er ko'rrasining qaysi burchagida bo'lmasin, o'zbek dupsisi yoki atlas kuylakni juda tez ilgab oladilar va suyunib ketadilar xam. YOnidagi sheriklari o'zbek bo'lsa xam, aynan do'ppili o'zbekni ko'rib, ko'zlar yashnab ketadi. Boshqa millat vakillari, masalan, nigeriyalik xam milliy ko'ylagida yurgan bo'lishi mumkin, lekin o'zbek turist uchun bu kiyim fon edi, fonligicha qoladi xam.²³

Idroknинг konstantliliги qonuni. Bu qonun ma'lum ma'noda oldingisiga bogliq. YA'ni bunda xam ilgarigi tajriba katta rol o'ynaydi. Ma'nosi: odam o'ziga tanish bo'lgan narsalarni o'sha xossa va xususiyatlar bilan o'zgarishsiz idrok qilishga moyildir. Masalan, samolyot ichida o'tirib erga qaraganmisiz? Avtomobil yo'llari, ularda xarakat qilayotgan mashinalar kichkina ko'rindi, lekin biz ularni hozir kichrayib qolgan, deb idrok kilmaymiz-ku? Aslida ko'z qorachig'imizdagi aks kichkina bo'lsa-da, ularni o'zimiz «to'g'rilib» alohida predmetlar sifatida idrok qilaveramiz.

Bu o'rinda bir etnografning Afrikadagi kuzatishi haqida misol keltirish joizdir. U kunlarning birida pigmeylar deb ataluvchi qabila vakillaridan biri bilan quyuq o'rmondan chiqqan (bu kabilaning umri qalin o'rmonda o'tadi). Ro'parada yaylovda sonsiz mollar podasi o'tlab yurgan bo'lган. Etnograf ularni oddiy mollar podasi sifatida idrok qilgan, pigmey esa ularni chumolilarga o'xshatib, ularning ko'pligi va kichikligidan xayratlangan. Olimda idrokning konstantligi namoyon bo'lган bo'lsa, uning sheri gida uning buzilganligi kuzatilgan.

Demak, idroqimizning konstantligi, ya'ni ilgarigi tajriba asosida narsalarning xossa va xususiyatlarini o'zgartirmay, turg'un holda yaxlit tarzda idrok qilish xususiyati bizga tashqi muhitda to'g'ri moslashuvimiz, narsalar dunyosida adashmasligimizni ta'minlaydi. Konstantlik - «sonstanta» so'zidan olingan bo'lib, o'zgarmas, doimiy degan ma'noni bildiradi.

Inson xotirasi vaqtini inobatga olib bizning hayot tarzimizni hal qiladi. Xotiraga minnatdorchilik bildirishimiz lozim. Chunki borliqdan olgan ma'lumotlarni saqlash, oila a'zolarimizni tanish, til bilish, o'z uyimizga qaytib kelish, suv va oziqa topish imkoniyatlarini beradi. Aynan xotira bizga zavq va lazzat his-tuyg'ularini takrorlanishiga qodirdir. Bizning xotiralarimiz o'zaro munosabatlarimizni saqlashga yoki aksincha uzoq yurishga asoschi bo'ladi, u yoki bu qonunbuzarlikka yul qo'ymaslikka ko'mak beradi. O'qish jarayonida siz xotirangizda saqlab qolgan bilim, ko'nikmalarning xar biri quvonch yoki gazab ogriqli bir xotiralar bilan bogliq.

Djeyms Mayk Gaux (2003). Aytishicha "Xotirani yuqotsangiz siz qaram yoki sholg'om bo'lishingiz mumkin." Chunki siz o'zingiz uchun xam begonasiz, o'zingizga xos his-tuyg'ular, xotiralarga ega emassiz. 92 yoshda mening otam mikroinsultni boshdan kechirdi va g'alati bo'lib qoldi. U oldingidek mexribon xarakatlanuvchi bo'lib bizlarni tanigan lekin xafta kunlarini, akasini o'lganligini, oilada bo'lган ba'zi voqeа va suhbatlarni bir-biri bilan bog'lay olmas edi. Bu holat xatto ba'zi to'tiqushlarda xam bo'ladi. 7-9 belgili so'zlarni ularga orasida uch soniyani tashlab 70 marta tinch takrorlasa ular xam bu so'z yoki raqamlarni eslay oladi.

YOrkning yangi kollektsiyasida (1992y.) Robert Mankoff xotirani saqlash va ma'lumotni izlash qobiliyatiga e'tiborni qaratdi. Ofitsiant men ovqat emagan bo'lsam hisobni olib keladimi va hisobni olib keladi?" Bu savolga javob aynan xotira bilan bog'liq. Inson xotirasi tovush, ovoz kuy, ta'm, xid, chexra, joy va hodisalarni eslab qolishga qodir. Lekin, agar 10 soniya ichida 2500ta slayd ko'rsatsak o'shalardan 280 tasi juftli bo'lib joylashgan bo'lsa, Ralf Xaber (1970) fikricha 90% odam bu slaydlarni oldin xam ko'rganman deb javob beradi.

Devid Mitchell (2006) tajribasi bo'yicha inson ko'p yillar oldin ko'rgan ob'ektini keyinchalik kichkina bir qismini ko'rsa xam xotira yordamida qolganini tasavvur qila oladi. YOki chigirkalarning dastidan 17 yil oldin zarar ko'rgan bo'lsa, uning xotirasida

birgina nom bilan bogliq qandaydir nafrat his- tuygusi paydo bo'ladi. Lekin shu bilan barobar 1 datsitsa oldin tanishgan insonimizning ismini unitib yuborishimiz mumkin, ba'zi noxush hodisalarini esa xohlasakda unita olmaymiz.

Xotirani bu qobiliyati qayerdan paydo bo'lgan?

Nima qilsak xotirani kuchaytirsa bo'ladi?

Bizning miyamizda xotiralar qanday saqlanadi?

Nima uchun ba'zi og'riqli xotiralar kutilmaganda bizga tashrif buyuradi?

Nima uchun bitta hodisaga guvox bo'lgan ikki kishining xotirasi keskin farq qiladi.

Aynan shu savollarni biz o'rganib javob berishga xarakat qilamiz va xotirani o'rganish natijasida shuni aytishimiz mumkinki, xotira ma'lumotni qabul qilish so'ng qayta ishslash va tayyor modelni chitsarib berish xususiyatiga ega.

Inson xotirasiga xos bu hislatlar komp'yuter tizimiga xam kiritilgan. Kompyuter xam inson kabi ma'lumotni qabul qiladi, o'z xotirasida kodlaydi, satslaydi va uni zarur paytida chitsarib beradi. SHu kabi kompyuter bor ma'lumotini klavyatura orqali elektron tiliga, inson miyasi sensor ma'lumotlarni nevron tiliga o'tkazgani kabi o'tkazib beradi. Kompyuter juda ko'p ma'lumotlarni diskida saqlaydi va ular qayta tiklanish xususiyatiga ega. Bizning xotiramiz xam juda ko'p ma'lumotni qayta ishlab saqlaydi. Bu ishni sekinrok bajaradi, lekin, barobariga ko'p ishni bajaradi. Ma'lumotni qayta ishslash modelini bir nechta yulini psixologlar taklif etishdi. Misol, Richard Atkinson va Richard SHiffrin (1968) zamonaviy bir modelni taklif etishdi. Undan matn, fikr, xotira, ularni bog'lab turuvchi nevron to'qimalarini chiqib kelishi 3 bosqichga bo'linadi.

1. Xotira birinchi ma'lumotni shunchaki tez qabul qilish orqali sensor xotiraga tashlaydi.
2. U erdan biz ma'lumotni xotirada qisqa muddatli ma'lumotni kodlaymiz.
3. Ma'lumot uzoq muddatli xotiraga joylashadi va undan keyinchalik foydalaniladi.

Bu tarixiy muhim ahamiyatga ega uch bosqichli sodda model ba'zida pand beradi. Bu bobda yangilangan model taklif qilinadi unda 2 muhim tushunchalar kiritilgan:

-ba'zi ma'lumot Atkinson va SHiffrining birlamchi ikki etapi ishlovdan o'tib avtomatik ravishda uzoq muddatli xotirada bizning ongimiz ishtirokisiz o'tkaziladi;

Atkinson va SHiffrin ta'kidlashi bo'yicha ikkinchi etapda ishchi xotira o'zida bor diqqatni jamlaydi va ma'lumotni faol qayta ishlashga tushadi.

Biz bor ma'lumotga o'zimzning e'tiborimizni qarata olmaymiz va e'tiborni qaratish stimullarga bogliq bu kirib kelayotgan stimullar xam ma'lumot bilan birga xotiramizga joylashadi va olinadi.

Baddeli (2001-2002) ta'kidlashicha ishchi xotira o'zida eski va yangi ma'lumotlarning muammolarini hal qiladi.

Keyin, Ansvort va engl (2007) lar tahlili bo'yicha inson xotirasi uning ish faoliyatini

bilan bog'liqdir. Ishchilarni xotirasini sig'imi sirkda koptok otuvchidan keskin farqlanadi, Jonglyor xotirasi kaptokni tez otgani kabi so'z xarf yoki raqamlarni xotirasiga tez saqlaydi. Bu uni xotirasini muntazam ravishda bir xil qolibda qabul qilishga o'rgangan va bunuqa Shaxslar yuqori intellekt egasi ekanligidan dalolat beradi. YAngilangan modelga chuqurroq nazar tashlasak biz kodlagan qisqa yozuvlarni sensor ma'lumotlarni tizimli xotiraga joylashganini ko'ramiz.

Qiska muddatli xotiraga misol qilib telefonning 7 ta raqamini kiritishimiz mumkin. O'sha raqamlarni terganimizda ularni saqlangani yoki unitilgani aniq bo'ladi.

Uzoq muddatli xotira xotiraning doimiy va chegarasiz zaxirasidir.U o'zida bilim, ko'nikma va tajribani saqlaydi. Ishchi xotira yangi tushunchalarni qisqa xotiradan olib ongli faol ishlovga kirib kelayotgan tovushli vizual ma'lumotlarga tsarab uzoq muddatli xotiraga joylashtiradi.

Atkinson va SHiffrinlarning 3 bosqichli moslashgan modeli bizga xotiralarni qay darajada ishlanganligini o'ylashga yordam beradi.

Lekin zamonaviy tadqiqotchilar uzoq mudatli xotirani eslashni boshqa yollarini tan olishadi Masalan ba'zi ma'lumot uzoq muddatli xotiradan o'tib ketadi. Bizning xotiramiz ongli ravishda xech qanaqa e'tiborni qaratmadni.

Qisqa muddatli xotirada ishlovdan o'tayotgan ma'lumotlar ko'pligidan zamonaviy psixologlar ishchi xotira terminini ko'proq tan olishadi. Sensorli joylashuv. Xotiramizning sensor registerlari bizning miyamizda ko'p chexralarni bir daqiqaga joylashtirish bilan band. Biz o'z e'tiborimizni muhim deb topgan, masalan, olamon orasidagi g'azabli chexranga qaratamiz va uzoqroq qarab turamiz (repititsiya), agar biz xotirjam bo'lmasak, (bu muhim) deb uzoq muddatli xotiraga kodlaymiz va 1 soatlardan yoki ma'lum muddat o'tgandan so'ng biz o'sha chexrani ko'z oldimizga keltirishga muvaffaq bo'lamicha.

Xotiralash jarayonlari:

- Ma'lumot qabul qilish
- Kodlash
- Qabul qilish
- Uzoq muddatli xotiraga joylash
- Sensor xotira
- Qisqa muddatli ishchi
- Ongsiz ishlovlar
- Tashqi hodisalar

Ba'zi ma'lumotlar masalan, oxirgi sinfga kirganligingiz, osonlik bilan kechishi, operativ xotira yordamida bu notashish boshqa hodisalarga e'tibor qaratishimizga imkoniyat yaratib beradi.

Do'stingizning telefon raqamini eslab qolish uchun ko'proq Diqqatimizni jal

etamiz va avtomatik ishlovga murojat qilamiz. Miyamizning qobiliyati evaziga baravariga (parallel) faoliyat yuritish mumkin. Ko'p narsa bizning ongli Diqqatimizsiz bajarilib keladi.

(Kosmos) Masalan, ongli xarakatsiz avtomatik ravishda kosmos haqida ma'lumotni o'qish jarayonida qabul qilingan bilimlarga tayangan holda eslab chiqarish mumkin. Aniq ko'rgan material vizualizatsiyasi keyinrok chikib keladi.

(Vaqt) Bir kunimizni oladigan bo'lsak o'sha kundagi hodisalarning ketma - ketligiga e'tiborimizni qaratsak o'zimiz paltoyimizni qayerda xoldirorganimizni eslab xuddi shu ketma - ketlikdagi xarakatlarimizni takrorlashimiz mumkin.

(Takrorlanish) Ba'zi bir hodisalar yoki narsalarini bir necha bor takrorlanishini hayotda ko'p uchratishimiz mumkin "Bu kishini bugun 3 chi marta uchratdim", —bir xil raqamli mashina 4 marta oldimizdan qayta o'tdi."

(Ma'lumot) Ma'lumotlarni yaxshi o'zlashtirish ayniqsa ona tilida qabul qilingan ma'lumotlarning qayta ishlanishi oson kechadi.

Xotira va shaxs tajribasining boyligi: odam ko'rgan, his qilgan va eshitgan narsalarining juda oz miqdorinigina eslab qola oladi. Ma'lum bo'lishicha, bir vaqtning o'zida odam ongida 7 tadan ortiq belgiga ega bo'lgan ma'lumotning qolishi qiyin ekan. Bu ettita so'z, son, belgi, narsaning shakli bo'lishi mumkin. Agar telefon raqamlari 8 ta belgili bo'lganda, uni yodda saqlash ancha qiyin bo'larkan. Demak, ongning tanlovchanligi va ma'lumotlarni saralab, terib ishlatishi yana bir psixik jarayonni - xotirani bilishimiz lozimligini bildiradi.

Xotira - bu tajribamizga aloqador har qanday ma'lumotni eslab qolish, esda saqlash, esga tushirish va unutish bilan bog'liq murakkab jarayondir. Xotira uar qanday tajribamizga aloqador ma'lumotlarning ongimizdagи aksidir.

Xotira psixik jarayon sifatida o'r ganilishi: xotira tufayli bizda ajoyib imkoniyatlar borligini so'zsiz qabul qilamiz. Xotira hayotimizni belgilaydi. Xotira tufayli biz oilamni taniymiz, o'z tilimizda gapira olamiz, uyimizga olib boradigan yo'lni yo'qotmaymiz xamda oziq - ovqat va suv bor joyini aniqlaymiz. Xotira tufayli biz tajribalarimizdan baxramand bo'lamiz va uni qayta qo'llay olamiz. Ammo ba'zan aynan xotira tufayli aybdorlarni va aybdorligimizni kechira olmaymiz. Biz nimani ko'proq eslasak u xotiramizning katta qismini egallaydi. Agar xotiramiz bo'lmanida, o'tgan quvonchli va alamlı lahzalarimizni, aybdorlik hissini yoki g'azabni sezmagan bo'lardik. Uning o'rniga biz hozirgi yangi lahzada yashagan bo'lardik.²⁴

Bunday holatda xar bir kishi begona, xar bir til yangi xamda xar safar qiyin, ovqat pishirish va velosiped xaydash muammo bo'lardi. Biz xatto o'zimizga xam begona bo'lardik. Uzoq o'tmishimiz va hozirgi lahzamiz o'rtasida xech qanday bog'liqlik bo'lamasdi. Xotira tadqiqotchisi James Ms.Gaugxning ta'kidlashicha: - Agar sen

²⁴ Ivanov P.I, Zufarova M.E Umumiy psixologiya Darslik. O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti. T.: 2008.

oldingi xotiralarini eslash qobiliyatini yo'qotsang sen uchun hayot tugaydi".

David Mitchellning tadqiqotlariga ko'ra to'liq obektlarni ko'rish va eslab qolish noaniqlariga nisbatan oson va tez. Shuningdek xotira xam xar 17 yilda yangilanadigan xashoroti singari oldingi tajribalarni tiklay oladi. Xotira tadqiqotchilari 1 asrdan ko'proq vaqtan buyon quyidagi savollarga javob izlamoqda. Qanday qilib biz xotira yutuqlariga erishishimiz mumkin? Nima uchun biz xatto bir daqiqa oldin uchrashgan insonimizning ismini unitib qo'yamiz? Xotiralar miyada qanday saqlanadi? Nima uchun ayrim narsalarni tez unutamiz ammo alamlı, istalmagan hodisalarni unutishimiz qiyin? Qanday qilib bir hodisa ikki shaxsning xotirasida turlicha qoladi? Xotiramiz imkoniyatlarini qanday o'stirishimiz mumkin?³¹

Insonlarning o'rganish va axborotni qabul qilish bo'yicha 3 turga ajratsak bo'ladi. Bo'lar: eshitish, ko'rish va xarakat xotiralar. Bular miyaga kirayotgan xabarning turiga bog'liq.

Ko'rish: bunda yaqqol tasavvurlar hosil qilinadi. Bunda so'z tasavvurdagi manzaralar timsolida xotiraga joylashadi. Doktor Medina fikricha: barcha sezgi organlari ichida eng muhimi aynan axborot qabul qilish bo'yicha.

Vizual xotira cheksiz. Tadqiqotlardan birida ishtirokchilarga 10000 ta rasm berilgan va so'ng boshqa rasmlar bilan aralashtirilagan rasmlarni berib ularni ajratish topshirilgan. 99% aniqlikda rasmlar to'g'ri ajratilgan. Va xatto 3 oydan so'ng xam shu natija takrorlangan. 10% o'qiganda, 20% eshitganda, 30% o'qib eshitganda, 50% eshitib ko'rganlarda, 70% suhbatlashganda, 90% bajarayotganda eslab qolingan. Tevarakdagi ma'lumotlarni hissiyotlarimiz orqali qabul qilamiz. O'rganish va xotirada saqlashning turli usullari mavjud. Har bir odamda ma'lum usullarning majmui mujassam bo'lib turlicha usullarda turlicha o'rganish mumkin.³²

Odatda biz biror bir materialni o'qiydigan bo'lsak, uni xech bir o'zgarishsiz eslab qolishga xarakat qilamiz. Lekin ajablanarlisi shundaki, borgan sari material ma'lum o'zgarishlarga yuz tutib, xotirada dastlabki paytdagisidan boshqacharoq bo'lib saqlanadi. Ba'zi bir material yoki ma'lumot xohlasak xam xotiradan o'chmaydi, boshqasi esa juda qattiq xohlasak xam kerak paytda yodimizga tushirolmaymiz. Bu kabi savollar, inson bilish jarayonlaridagi eng muhim savollar bo'lib, ba'zan o'z taraqqiyotimiz va kamolotimizni xam ana shunday omillarga bog'lagimiz keladi.

Ma'lum bo'lishicha, inson miyasi xar qanday ma'lumotni saqlab qoladi. Agar shu ma'lumot biror sabab bilan odamga kerak bo'lmasa, yoki o'zgarmasa, u ongdan tabiiy tarzda yo'qoladi. Lekin xar doim xam bizning professional faoliyatimiz manfaatlariiga mos ma'lumotlarni esda saqlash juda zarur va shuning uchun xam ko'pchilik ataylab xotira tarbiyasi bilan shug'ullanadi.

Xotira biz ilgari idrok qilgan, boshdan kechirgan va bajargan ishlarimizni yodda saqlash, keyinchalik ularni eslash yoki xotirlash jarayonidir. Biz xar kuni yangi

narsalarni bilamiz, kun sayin bilimlarimiz boyib boradi. Xotira faoliyatida Shaxsning goyaviy yo'nalishi katta o'rinni egallaydi. Bu yo'nalish uning faoliyatini hayot sharoiti ta'sirida shakllantiradi. Kishi o'zining shu faoliyati uchun muhim bo'lgan voqe, hodisalarini yaxshi eslab qoladi. Aksincha, kishi uchun kam ahamiyatga ega bo'lgan narsalar yomon esda qoldiriladi va tezda unutib yuboriladi. Shu o'rinda xotira borasidagi ta'riflarga qaytsak, ko'pgina adabiyotlarda xotira tushunchasi quyidagicha ta'riflanadi. «Indvidning o'z tajribasida esda olib qolishi, esda saqlashi va keyinchalik uni yana esga tushirishi *xotira* deb ataladi». Lekin mazkur ta'riflarni tahlil qilgan professor E.G'oziev tomonidan xotira tushunchasiga quyidagicha ta'rif beriladi. «*Xotira* atrof - muhitdagi voqealik (narsa)ni bevosita va bilvosita, ixtiyoriy va ixtiyorsiz ravishda, passiv va faol holda, reproduktiv va produktiv tarzda, verbal va noverbal shaklda, mantiqiy va mexanik yo'l bilan aks ettiruvchi esda olib qolish, esda saqlash, qayta esga tushirish, unutish xamda tanish hissidan iborat psixik jarayon. Alovida va umumiylig namoyon qiluvchi ijtimoiy hodisa barcha taassurotlarni ijobiy qayta ishslashga yo'naltirilgan mnemik faoliyatdir».

Shuni ta'kidlash joizki, keltirilgan mazkur ta'rif xotiraning murakkab, keng qamrovli jihatlarini to'la ta'kidlash imkoniyatiga ega.

Shaxsning yo'nalishi uning qiziqishida ifodalanadi. Kishining qiziqishi xotiraga aniq va kuchli ta'sir ko'rsatadi, ya'ni yaxshi esda olib qolishini ta'minlaydi. Biz ko'pincha u yoki bu narsa va hodisalarini yomon esda qoldiramiz. Bu xotirani yomonligini emas, balki ularga qiziqish yo'qligini ko'rsatadi. Masalan, o'quvchilar xamma fanlarni bir xil o'zlashtira olmaydilar. Bu ularning xar xil xotiraga ega ekanliklar bilan emas, balki o'qitilayotgan fanga qiziqishning xar xilligi bilan tushuntiriladi. Esda olib qolishga kishining emotsional munosabati xam katta ta'sir ko'rsatadi. Kishi uchun yaqqol xayajonli reaktsiya vujudga keltiruvchi narsalar ongda chuqur iz qolirib, puxta va uzoq yodda saqlanadi. Biz bir narsadan ta'sirlansak, o'sha uzoq vaqt esda saqlanadi. Samarali xotira kishining iroda sifatlariga xam bogliqdir. Kuchsiz, irodasiz kishilar xar doim yuzaki yomon xotirlaydilar. Aksincha, irodali, materialni o'zlashtirishga astoydil kirishadigan kishilar puxta va chuqur eslab qoladilar. Samarali xotira kishining umumiylig madaniyatiga, uning aqliy saviyasiga, bilimiga, o'quviga fikrlash qobiliyatiga, ko'nikma va odatlariga xam bog'liqdir. Shunday qilib, xotiraning tabiatini va uning samaraliligi shaxsning xususiyatlari bilan bogliqdir. Shaxs o'z oldiga qo'yilgan maqsad va vazifalari asosida o'zining xotirlash jarayonini ongli ravishda tartibga soladi va boshqaradi.

Xotira sohasida quyidagi asosiy jarayonlar: esda olib qolish, esda saqlash, esga tushirish va unutish bir - biridan farq qilinadi. Bu jarayonlar faoliyatda tarkib topadi va belgilanadi. Ma'lum materialni esda olib qolish hayot faoliyati davomida individual, ya'ni shaxsiy tajribani to'plash bilan bogliqdir. To'plangan tajribadan keyingi faoliyatda

foydalananish qayta esga **tushirishni** talab qiladi. Ma'lum materialning faoliyatda qatnashmay qolishi yoddan chiqarishga olib keladi.

Xotiraning psixifiziologik va nervofiziologik mexanizmlari esda olib qolish nerv tizimining egiluvchan, ya'ni o'zgaruvchanlik, ko'zg'atuvchilar ta'sirida o'zida go'yo bir iz qoldirish, saqlash imkoniyati tufayli yuzaga keladi. Har qanday insonning miyasi egiluvchanlik xususiyatiga ega bo'lib, uning darajasi xar xil bo'ladi. Shaxs xotirasining sifati miyaning faolligi va turli faoliyatga to'g'ridan - to'g'ri bog'liq ravishda rivojlanadi. Atrofni o'rabi olgan borliqni faol biluvchi kishi o'z miyasi faoliyatini to'xtovsiz kuchaytiradi. Shu bilan birga uning egiluvchanlik darajasini oshiradi. Miya egiluvchanligi vaqtincha pasayishi, xotira samarasining susayishi, ba'zi paytda odamning toliqishiga sabab bo'ladi. Dam olgandan keyin yana tiklanadi. Odatda miya egiluvchanligi yosh o'tishi bilan susayadi. Masalan, keksa kishilar gaplaridan adashib ketadi, ilgari gapirganlari esdan chiqib, o'sha gapni takrorlayveradilar. Miya egiluvchanligining ko'rsatkichi bosh miya po'stlog'ida muvaqqat nerv aloqalarni tezlikda vujudga kelishi, davomli saqlanishi va ularning tez, oson jonlantirilishi hisoblanadi.

Xayol va kasbiy faoliyat: psixologiyada xayol tafakkur singari **bilish** jarayonlaridan biri hisoblanib, u insonining ichki va tashqi xususiyatli va izlanishli faoliyatida, muayyan darajaga ega bo'lgan muammoli vaziyatning vujudga kelishi va uning hal qilinishida. Ishtirok etadi. Agarda xayolni genetik jihatidan kelib chiqishi tahlil qilinadigan bo'lsa, u albatta insonning mehnati mahsulini obrazlar, timsollar yordami bilan aks ettirmasdan turib, bevosita faoliyatga kirishish mumkin emas, Chunki fikri muloxazalarni tasavvur qilish tufayli yaqqol tafakkurning predmetiga o'zatiladi. Xuddi shu boisdan xayol yordami bilan inson tomonidan kutilayotgan natija, ya'ni kutilmagan tasavvur obrazlari yaratiladi, guyoki bu jarayonda ijodiy faoliyatning modeli ishlab chiqiladi, fantastik timsollar tizimi yangiliklarning mutlak tarkiblari bilan boyib boradi, ichki faollik esa uning mexanizmiga aylanadi.

Odamning xar qanday izlanishli, mehnat va ijodiy faoliyatları xayoliy jarayonlarni o'z ichiga qamrab oladi, kashfiyotning dastlabki obrazlari, tarkiblari aniq voqealikdan o'zoq bo'lishidan qat'i nazar taraqqiyot (rivojlanish), turkisi vazifasini bajaradi. Odatda xayol inson faoliyatining zaruriy tarkibi, muhim sharti sifatida uning turlari atamasi nomlari bilan ifodalanadi, chunonchi badiiy, adabiy, ilmiy izlanishli, musiqaviy, loyihibiy, konstrukturlik. Evristik (fikriy topkirlik), ijodiy faoliyat kabilar. Shaxs tomonidan bajarilishi, amalga oshirilishi lozim bo'lgan xar qanday faoliyatning mahsuli oldindan tasavvur qilinishi, yaxlit timsol shaklda ko'z o'ngiga keltirilishi shart.

Jahon psixologiyasida xayol insonning ijodiy faoliyatning tarkibiy qismi sifatida talqin qilinadi, u tizimi xususiyatli xatti-xarakatning oralik va yakuniy mahsullari orqali aks etadi, muammoli vaziyatda noaniqlik, noma'lumlik alomatlari vujudga kelsa,

u holda faoliyat rejasini qayta ko'rib chiqishni ta'minlaydi. Shu narsani alohida ta'kidlab o'tish kerakki, xech qachon xayol ijodiy faoliyat dasturining yaratuvchisi sifatida namoyon bo'lmaydi, balki uning ayrim o'rinalarini to'ldirishning va almashtirishning timsollarini yaratadi, xolos.

Xayolning bilish jarayoni sifatidagi asosiy vazifasi shundan iboratki, u amaliy faoliyat boshlanmasdan turib, uning mahsulini oldindan tasavvur qilish va ularning timsollar tariqasida vujudga keltirishdan iboratdir. Inson shaxsiy faoliyatida ayrim qiyinchiliklar vujudga kelsa, ularni bartaraf qilish uchun odam o'ylanadi, fikriy obrazlarni yaratadi, ularga yangi qo'shimchalar kiritadi, xullas mahsulotning sifatlari chiqishini, uning buyum tariqasida namoyon bo'lishini xayol o'zluksiz ravishda ta'minlab turadi. Aytaylik, inson stul yasamokchi bo'lsa, u eng avval unga oid qismlarni tayyorlaydi, shaxs xayolan uning sifatiga e'tibor beradi, keyin ularni yaxlitlaydi, o'zaro birlashtiradi xamda buyum shaklida gavdalantiradi. Binobarin, xayol ishning xar bir bosqichida bevosita ishtirok qiladi, yul- yulakay ko'rsatmalar, qo'shimchalar kiritib boradi.

Xayol bilish jarayonlari bilan o'zviy aloqada hukm suradi, ularni aks ettirish imkoniyatining tularoq ro'yobga chiqishiga yordam beradi. Ayniqsa, u tafakkur bilan bevosita aloqada bo'ladi, xuddi shu boisdan ularning xar ikkalasi xam bashorat qilish, oldindan payqash, sezish, istikbol rejasini to'zish imkoniyatiga ega. Shuning uchun ular o'rtasida bir qator o'xshashliklar va ayrim farqlar mavjuddir. Bu holat quyidagilarda o'z ifodasini topadi: 1) xayol tafakkur singari muammoli vaziyatda, masala va topshiriqlar echish jarayonida tug'iladi; 2) yangi yechim, usul, vosita qidirishda va ularni saralashda umumiylit mavjud; 3) xayolning xam, tafakkurning xam paydo bo'lishi Shaxsning extiyojlariga bevosita bog'liq; 4)extiyojlarni qondirishning dastlab xayoliy obrazlari yaratiladi, uning natijasida vaziyatni yorqin tasavvur qilish imkonli tug'iladi; 5) xayolda oldindan aks ettirish jonli tasavvurlar tarzida, yaqqol timsollar shaklida vujudga kelsa, tafakkurda ular umumlashmalar, tushunchalar bilvositalik xususiyati orqali ro'yobga chiqadi.

Shuni alohida ta'kidlash joizki, muammoli vaziyatda aql faoliyati natijalari ong nazoratidagi obrazlar, tasavvurlar xamda tushunchalar tizimida ifodalanadi. Obrazlar va tasvirlar tanlash (saralash) xayolning funksiyasi orqali tushunchalar va ularning yangilik alomatlari esa tafakkur yordamida ro'yobga chiqadi. Tasavvurlar bilan tushunchalarning o'zaro uygunlashuvi ikkita ijodiy xususiyatlari bilish jarayonlarining xamkorlikdagi ijodiy faoliyatida bir davrning o'zida qatnashishni birdiradi. Faoliyatning tarkibiy qismlari ularning qanday amalga oshirilishi to'g'risidagi yaqqol obrazlarni o'zviy bog'lanib ketgan fikriy muloxazalarning ko'shilishi tufayli xarakatchanlik imkoniyatiga ega bo'ladi.

Xayol jarayoni tafakkurdan farqli o'laroq muammoli vaziyatning ma'lumotlari

qanchalik noaniq bo'lsa, shunchalik ta'savur obrazlari yaralishi uchun qo'lay imkoniyat tughiladi, uning mexanizmlari tezkorlikda ishga tushadi. Masalan, yozuvchining xayoli asar qaxramonlarining taqdiri bilan o'zviy bogliq bo'lib, konstruktor, muhandis, me'mor kabi mutaxassislarga qaraganda nixoyat darajada katta noaniqliklarga ega, voqealikdan tubdan o'zoq fantaziya olamida obrazlar, chizgilar, badiiy tuqimalar yaratadi. Ma'lumki, aniq dunyoviy fanlarning qonuniyatlariga qaraganda insonning psixikasi, uning xatti-xarakatlari qonuniyatları murakkab va yetarli darajada ma'lumotlarga ega emas. Xuddi shu boisdan bosh miya katta yarim sharları funksiyasining kariyb uchdan bir qismini ilmiy dalillar asosida tushuntirib bera olishimiz mumkin, xolos.

Xayolning eng ahamiyatli tomoni shundan iboratki, u tafakkur predmetiga taalluqli holatlardagi etishmovchilikda xam u yoki bu yul bilan muammoli vaziyatdan engilroq chikib ketishga muhim zamin hozirlaydi. Insonda mavjud narsalarning ichki tuzilishi, uning rivojlanishi, o'zgarishi to'g'risidagi ma'lumotlarning etishmasligi tufayli Shaxs xayolga va fantaziyaga murojaat qiladi. Biosfera va neosferada insoniyat uchun noma'lum o'rganilmagan sohalar mavjud ekan, demakki, xayol uzlusiz ravishda o'z funksiyasini bajaraveradi, shuning uchun xayolning qaysi turi hukm surayotganligidan qat'i nazar u ijobiy hodisa sifatida baholanishi lozim. Chunki, xayol insonning aqliy zo'r berishda, stress, affekt holatlarida asab tizimining tangligidan halos etib, tana a'zolari funksiyasini tiklaydi, ishchanlik qobiliyatini barqarorlashtiradi.²⁵


Xayol o'zining faolligi bilan atrof muhitni o'zgartirishga yo'naltirilgan Shaxsnijodiy faoliyatining muhim sharti sifatida xizmat qiladi. Ba'zi bir psixologik ma'lumotlarga qaraganda, goho xayol faoliyatning funksiyasini bajaradi, bunda u xatti-xarakatlarning sun'iy ravishdagi majmuasi vazifasini ijro etadi, xolos. Inson quyidagi holatlarda yaqqol tasavvurdan yiroq bo'lgan xayolot olamiga kirib borishi mumkin: 1) inson xech qanday yul bilan hal qilib bo'lmaydigan masalalar, muammolar iskanjasidan berkinish maqsadida; 2) turmushning ogir sharoitlaridan, zaxmatlaridan ximoyalanish niyatida; 3)Shaxsiy nuqsonlarning ta'kibidan; 4) o'shalgan armondan; 5) patologik holatga (ruhiy nuqsonga) uchraganda; 6) alkogolizm, narkomaniya va boshqa vaziyatlarda. Xayolot (fantaziya) turmushda gavdalanishi mumkin bo'lмаган, amalga oshirish imkoniyati yuk xatti-xarakatlar dasturini namoyon etadi.

Yuqoridagi muloxazalar negizidan kelib chikuvchi xayolning bunday shakli psixologiya fanida passiv (sust) xayol deb nomlanadi. Psixologiyada aktiv (faol), ixtiyorli, ixtiyorsiz, tiklovchi va ijodiy turlar to'g'risida xam muayyan ma'lumotlar mavjuddir.

O'zining mohiyati bilan tasavvurlarga muvofiq keladigan tasavvurlar, tasvirlar

²⁵ G'oziev E.G'. Umumiy psixologiya.-O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti. T.: – 2010.

tizimini yaratuvchi xayol «tiklovchi xayol» deb ataladi. Tabiyatga, jamiyatga va shaxslararo munosabatga, bilimlarga oid ma'lumotlar o'rganilishida xayol bevosita ishtirok etadi xamda matnlarda, rasmlarda, xaritalarda aks ettirilgan narsalar qayta tiklanali. Ijtimoiy tajribada, ta'lim-tarbiya jarayonida fazoviy xayol, vaqt va xarakat birliklariga oid axborotlar, masofa, xajm to'g'risidagi xabarlarga diqqat bilan sinchkovlik bilan qarash, tiqilish jarayonida mazkur xayol turi rivojlanadi.



5-rasm Xayolning paydo bo'lishi

Ijodiy xayol tiklovchi xayoldan farqli o'laroq original va qimmatli moddiy, ijodiy mahsulotlarda gavdalanuvchi yangi obrazlarning yaratilishidan iborat xayolning turidir.

Tasavvur obrazini yaratish yo'llari

- *Agglyutinatsiya* - obrazlarni qismlari, sifatlarini va xususiyatlarini birlashtirish.
- *Urg'u berish* – biror butunlikni qismlariga alohida urgu berish.
- *Tiplash* – bu murakkablashgan uslubdir. Rassom aniq epizodni yaratadi, shu bilan birga uni o'ziga singdiradi va uni voqeligiga aylanadi. Adabiy obraz xam shunday yaraladi, u obrazlarda xar xil epohalarning turli tabaqalari va ularning tabiatlariga ahamiyat beriladi. Eng chambarchas bogliqlilik tasavvur va fikrlash orasida bo'ladi:
 - To'xtovsiz qabul qilish chegaralaridan ortikcha fikrlarni ajratadi;
 - Kelajak haqida xayratlanishni uyg'otadi;
 - Avval bo'lib o'tgan narsalarni jonlantiradi.

So'z idrokning vaqtinchalik, yangi aloqalarida asosiy joy egallaydi. Tasavvur sezilaricha tushunish jarayonini chuqurlashtiradi va kengaytiradi. U dunyonи yaxshilashda katta ahamiyat egallaydi.

Tasavvur bu ijodiy jarayonning asosiy qismi hisoblanadi. Ko'p odamlar tasavvur yorqinligi darajasi bilan farq qiladilar. Agar biz bunga tegishli shkala bor deb faraz qilsak, bir qutbda tasavvur yorqinligi juda yuqori bo'lgan odamlar bo'ladi va boshqa qutbda – tasavvur yorqinligi juda xira odamlar. Odatda, tasavvurning rivojlanishining yuqori darajasi ijodiy mehnat qiladigan odamlarda ko'zatiladi – yozuvchilar, rassomlar, musiqachilar va olimlar.

Odamlar o'rtasidagi muhim farqlar xayol dominant turi tabiatini bilan bogliq bo'ladi. Eshitish, ko'rish motorika tasvirlashtirish tasavvuri kuchli bo'lgan insonlar ko'p

uchraydilar. Biroq, tasavvurning barcha turlari rivojlangan odamlar xam bor. Bu odamlar aralash tur deb atalmish turiga bogliq bo'lishi mumkin. Tasavvur bir turiga mansub juda ko'p insonning individual psixologik xususiyatlarini aks ettiradi. Misol uchun, odamlar eshituv yoki motorika turidan bo'lsa, ular vaziyatni juda chuqurlashtirishadi, yoki raqibni tasavvur qilishadi. Ta'kidlash lozimki, inson rivojlangan tasavvur bilan dunyoga kelmaydi. Inson tasavvuri ontogenet davomida rivojlanadi va birinchi o'rinda avval yigilgan tasavvurlarning zaxirasini talab qiladi va keyinchalik obrazlar yaratish uchun ashyo bo'ladi.

Eslatib o'tish joizki, inson rivojlangan tasavvur bilan tugilmaydi. Tasavvurning rivojlanishi birinchi navbatda inson ontogenezi jarayoni yordamida amalga oshiriladi va uy xayol namoyishi yigindisi talab etiladi va shu bilan birga tasavvur obrazlarini yaratish uchun muhim omil hisoblanadi. Tasavvur kishining xar tomonlama rivojlanishi bilan zich bogliq bo'lib, u o'quv va tarbiya jarayonida, tasavvur, xotira, iroda va hissiyot bilan rivojlanadi.

Tasavvur rivojlanish dinamikasini ifodalovchi, aniq bir yosh chegarasini aniqlash juda qiyindir. Tasavvurning o'ta erta rivojlanish misollari mavjud. Masalan Motsart musiqa to'qishni to'rt yoshida boshlagan. Repin va Serov olti yoshidanok yaxshi chizar edilar. SHu bilan birga kech tasavvur rivojlanishi, kelajakdagi rivojlanishni pas darajada bo'lishiga ta'sir etmaydi. Tarixga nazar soladigan bo'lsak, buyuk insonlar, masalan enshteyn, tasavvur rivojlanishi bilan ajralmagan, va aksincha ularni geniy deb ataganlar.

Inson tasavvurning rivojlanish etapini aniqlash juda qiyin bo'lsa xam, uning shakllanishining muayyan qonuniyatları mavjud. Shunday qilib, tasavvur birinchi belgilari idrok jarayoniga bogliqidir. Misol uchun, bir yarim yoshda bolalar eng oddiy xikoya yoki ertakni xam eshita olishmaydi, ular boshqa biror narsaga chalgishadi yoki uxbab qolishadi, biroq o'z boshidan kechirgan xikoyalarni roxat bilan tinglashadi. Bu hodisa aniq tasavvur va idrok bir biri bilan bogliq ekanligini ko'rsatadi.

Bola o'z boshidan kechirgan voqealar haqida diqqat bilan eshitadi, Chunki uning tushunchasi bu voqealar mavjud. Idrok va tasavvur o'rtasidagi bog'liqlik keyingi qadamda xam saqlanib qoladi. Bola o'yнayotgan vaqtida avval olingan taassurotlarni boshqatdan ishlab chiqaradi, ko'rinishini o'zgartiradi. Oddiy stul, samolyot torga aylanadi, korobka – avtomashinaga. Aytib o'tish kerakki, bolaning tasavvuri ilk obrazlari uning qattiq xarakatiga bogliq bo'ladi. Bola orzu qilmaydi, u obrazni boshqatdan ishlab chiqaradi va o'z faoliyatida o'sha obrazni mujassam etadi, o'sha faoliyat –o'yinligiga qaramay.

Bola tasavvuri rivojlanishining asosiy bosqichi bolaning nutqi rivojlanish davri bilan bogliq. Nutq bolaga nafaqat muayyan obrazlar balki, yanada xayoliy narsalarni va tushunchalarni tasavvur qilish imkoniyatini beradi. Bundan tashqari, nutq bolaga oddiy tasavvuri faoliyatdan nutqiy faoliyatga o'tish imkonini beradi.

O'z navbatida nutqning rivojlanishi bilan bir qatorda bolaning amaliy tajribasi va e'tibori o'sib boradi. Buning natijasida bola endilikda predmet qismlarini alohida predmet sifatida qabul qiladi va eslab qoladi. Biroq sintez real hayotdagi noaniqliklar bilan sodir bo'ladi. Yetarlicha hayotiy tajribaga va tanqidiy qarashga ega emasligi natijasida bola obrazlarni real hayotdagiday tasavvur qila olmaydi. Bu bosqichning e'tiborga moyillik jihat shundaki bu paytda bolaning tasavvurida o'zi bilmagan holda xayoliy obrazlarning paydo bo'lishi. Ko'p xollarda bu obrazlar vaziyatga bog'lik ravishda yaraladi.

Tasavvurning keyingi rivojlanish bosqichi uning aktiv ko'rinishlari bilan bogliq. Bu bosqichda tasavvur jarayoni ixtiyoriy ravishda amalga oshiriladi. Tasavvurning aktiv ko'rinishlarining paydo bo'lishi katta yoshlilarning tashabbusi bilan paydo bo'ladi. Masalan, katta odam boladan biror ish qilishni so'raganda (daraxt chizishni, kubikchalardan uycha yasashni va xak.), u tasavvur jarayonini aktivlashtiradi. Katta odamning iltimosini bajarish uchun bola avval tasavvurida ma'lum bir obraz yaratishi kerak bo'ladi. Bunda tasavvur jarayoni ixtiyoriy hisoblanadi Chunki bola bu jarayonni boshqarishga o'rindi.

Keyinchalik bola ixtiyoriy tasavvurni kattalarning ishtirokisiz amalga oshira boshlaydi. Tasavvurning rivojlanishi bolaning o'yinlarida aks eta boshlaydi. Ular ma'lum bir maqsad va ma'noga ega bo'ladi. Endilikda atrofdagi predmetlar nafaqat shunchaki predmet balki bolaning tasavvurlarini amalga oshirish uchun ob'ektga aylanadi. Bola 4-5yoshdan boshlab o'z fikriga ko'ra chizish, ko'rish va narsalarni joyini o'zgartirish amallarini amalga oshiradi.

Tasavvurning rivojidagi boshqa bir muhim bosqich muktab yoshida sodir bo'ladi. Muktab darsliklarini o'rganishga bo'lgan extiyoj bolani tasavvur jarayonini aktivlashtirishini shart qilib qo'yadi. Muktabdagi bilimlarni o'zlashtirish uchun bola o'zining tasavvurini maksimal darajada ishga soladi bu esa unda tasavvuriy obrazlarning qayta ishlash jarayonining o'sishiga olib keladi.

Muktab yillardagi tasavvurlarni tez avj bilan rivojlanishining yana boshqa bir sababi, o'qish davomida bola jadallik bilan yangi, turli xil obektlar haqida va xakikiy olamdagи hodisalar haqida tushunchalar paydo bo'la boshlaydi. Bu tushunchalar tasavvur uchun zarurdir va muktab o'quvchisini ijodiy gayrat bilan rag'balantirib turadi.

Mavzu bo'yicha bilimlarni mustaxkamlash uchun savollar

- Diqqat va shaxsnинг bilish jarayonlarini izohlang?
- Sezgi va uning turlarini izohlang?
- **Idrok qilish qonunlarini sanang?**
- **Xotiraning individual xususiyatlarini aytинг?**
- Xayol va kasbiy faoliyatni izohlang?

9 – mavzu: Tafakkur. Intellect. Nutq.

TAFAKKUR

Reja:

1. Tafakkur haqida umumiy tushuncha.
2. Tafakkur jarayonlari.
3. Tafakkur shakllari.
4. Tafakkur va masala hal qilish.
5. Tafakkur turlari.
6. Tafakkurdagi individual farqlar.

Mavzu bo`yicha tayanch tushunchalar:

Abstrakt tafakkur - mavhum narsalar haqida fikr yuritish

Analiz - narsa va hodisalarini tahlil qilish

Sintez - ajratilgan elementlarni qaytadan birlashtirish

Umumlashtirish - bir turkumga xos bo`lgan narsa va hodisalar haqida fikr yuritish

Taqqoslash - narsa va hodisalar o`rtasidagi o`xshashlik va farq xususiyatlar haqida fikr yuritish

Masala - muammoli masalalar haqida fikr yuritish

Tafakkur - narsa va hodisalarini umumlashtirib, vositali yo`l bilan aks ettirish.

TAFAKKUR HAQIDA UMUMIY TUSHUNCHA

Tafakkur inson aqliy faoliyatining yuksak shaklidir. Insonda tafakkur bo`lganligi va tafakkur bilan chambarchas nutq bo`lganligi tufayli u hayvonlardan farq qiladi, shu sababli u ongli mavjudotdir. Inson o`z atrofidagi olamda bo`lgan buyumlar va hodisalarini ongli ravishda idrok qiladi. Ongli ravishda eslab qoladi hamda esga tushiradi va ongli ravishda harakat qiladi. Tafakkur atrofdagi olamni bilish qurolidir va inson amaliy faoliyatini vujudga kelishi uchun shardir. Biron narsa to`g`risida tafakkur qilish jarayonida fikr paydo bo`ladi, bu fikrlar insonning ongida hukm va tushunchalar shaklini oladi. Tafakkurning bilish faoliyatidagi roli avvalo bizning idroklarimiz va fikrlarimizning voqelikka qanchalik muvofiq bo`lishini, bo`lar haqiqat yoki xato, chinmi yoki yolg`on ekanligini belgilashda o`z ifodasini topadi. Bunday tafakkur qilish eng oddiy amaliy voqelikda namoyon bo`ladi. Voqelikning sezgilardagi va idrokdagagi in`ikosning o`zi chinakam bilim bo`ladi. Masalan: biz quyoshning har kuni sharqdan chiqib, g`arba botayotganini hammamiz ko`ramiz (idrok qilamiz). Biz erni qimirlamay turganini, asrlar davomida qilgan fikriy faoliyati natijasidagina uzoq davom qilgan kuzatishlar o`tkazish va matematika yo`li bilan tadqiqotlar qilish natijasidagina haqiqatda quyosh er atrofida aylanmasdan, balki er o`z o`qi atrofi va quyosh atrofida aylanayotganligini aniqladik. Demak, kuyoshning harakati to`g`risidagi bizning bevosita idrokimiz voqelikka to`g`ri kelmas ekan. Voqelikni to`g`ri aks etishi tafakkur bilan aniqlanadi. Yuqoriyoq bosqichlarda bunday fikrlash tafakkur jarayonlarida hosil bo`lgan hukmlar va tushunchalarning chinligini yoki chin emasligini aniqlashda ifodalanadi. **Tafakkur deb, voqelikdagi narsa va hodisalarini, ular o`rtasidagi bog`lanishlarni fikran, umumlashtirib, vositali yo`l bilan aks ettirishga aytildi.** Voqelik tafakkurda, idrok va tasavvurgina nisbatan chuqurroq va to`laroq aks etadi. Biz sezgi, idrok vositasi bilan bilib olishimiz mumkin bo`limgan narsa yoki hodisalarini, narsa yoki hodisalarning xususiyatlarini, ularning bog`lanish va munosabatlarini tafakkur vositasi bilan bilib olamiz.

Masalan: bizga ma`lumki, agar yorug`lik nuri shisha prizma orqali o`tkazilsa bu nur spektorni etti rangiga ajralib ketadi. Bu ranglarni biz idrok qilamiz (ko`zimiz bilan ko`ramiz). Lekin fizikadan bizga shu narsa aniqki, bu nurlardan bo`lak yana boshqa nurlar ham bor. Bu nurlar infrazil, ul`trabinafsha nurlar deb ataladi. Bu nurlarni biz ko`rmaymiz. Bunday nurlarni borligi tafakkur yordami bilan kashf qilingan. Biz tasavvur qilishimiz mumkin bo`lgan ko`pgina hodisalar bor. Biz bu hodisalar to`g`risida faqat fikr yurita olamiz.

Tafakkur voqelikni umumlashtirib aks ettirishdir. Biz ayrim narsalarni va hodisalarni, masalan, alohida stolni yoki stulni idrok qilamiz, tasavvur qilamiz, ammo umuman stol va stul to`g`risida fikrlashimiz mumkin. Umumlashtirish natijasida bir hukmning o`zida ayni vaqtida yakka bir narsa to`g`risidagina fikr qilib qolmasdan, balki shu narsa bilan birga narsalarning butun bir turkumi to`g`risida ham fikr qilish mumkin. Masalan, **“O`zbekistonning hamma fuqarolari qonun oldida tengdirlar.”** Bu hukmda ayrim bir kishi to`g`risida hukm qilmasdan, balki O`zbekistonning hamma fuqarolari to`g`risida fikr yuritamiz. Narsa yoki hodisalar to`g`risidagi eng muhim bog`lanishlar va munosabatlar tafakkur yordami bilan ochiladi. Siz qalamni barmoqlaringiz bilan 20 sm balandda ushlab turibsiz. Barmoqlaringizni ochib yuborsangiz qalam stol ustiga to`sadi, uning taqillagani eshitiladi. Biz bu hodisalarni birin-ketin idrok qilamiz va ularni xuddi shu tartibda tasavvur qilishimiz mumkin. Lekin biz bunda hodisalarni ma`lum vaqt ichida birin - ketin sodir bo`lishini idrok qilamiz, holos. Ammo ayni vaqtida tafakkur yordami bilan bu hodisalarning bir - biriga qonuniy bog`lanishdagi chuqurroq sabablar va bundan kelib chiqadigan natijalar ochiladi.

Biz hodisalarning birin - ketin o`tayotganligini qayd qilib qolavermaymiz, balki birinchi hodisa bo`lgani uchun ikkinchi hodisa ro`y berdi, undan keyingina hodisalarning har qaysisi (masalan, tovush) oldindan hodisa ro`y bergenligi uchun (qalam stolga urilgani uchun) sodir bo`ladi, deb aniq qilib aytamiz va oldingi hodisaning ro`y bergenligi keyingi hodisaning muqarrar keltirib chiqarganligini anglaymiz. Bu hodisalar ularning ma`lum bir vaqt ichida birin - ketin sodir bo`lganligini idrok qilganimizdan tashqari ular o`rtasida sabab - natija tariqasida bog`lanishi, ya`ni qonuniy bog`lanish bor, deb aniq qilib aytamiz. Biz shu sabab - natija tariqasidagi bog`lanishning o`zini bevosita idrok qila olmaymiz. Uni sezgi organlarimiz vositasi bilan his qilolmaymiz, (ko`rmaymiz, ushlab ko`rmaymiz, eshita olmaymiz) balki shu bog`lanish borligini idrokimizga asoslanib turib fikr qilish yo`li bilan topamiz. So`ngra ayrim hodisalardagi sabab-natija bog`lanishlarini ochilganligiga asoslanib, umumiylashtirish yo`li bilan voqelikning umumiyl qonuniyatlarini topib olamiz. Masalan, bir holda suvning yaxlab qolganligi haroratning pasayganligi (0 dan pastda tushib ketganligi) sabab bo`lgani aniqlangan bo`lsa va bu hodisa boshqa bir qancha hollarni ham aniqlagan bo`lsa, yana shu hollarni umumiylashtirish natijasida “harorat 0 dan past bo`lgani suv hamisha muzlaydi”, degan hukmda ifodalangan qonun topilgan. Hodisalar o`rtasidagi mavjud sabab - natija bog`lanishlarini belgilaganimiz uchun biz hozirgi paytda bizning oldimizda ro`y bermagan hodisalarning yuz berishini oldindan aytib berishimiz mumkin. Masalan: termometrda haroratning 0 dan past tushganligini ko`rishimiz bilan endi suv muzlaydi, deb oldindan aytta olamiz.

Astronomlar osmondagagi jismlarning harakat qonunlarini bilganliklari uchun quyosh yoki oy qachon tutilishini rosa aniq qilib oldindan aytib beradilar. SHarq mutafakkirlari jamiyat taraqqiyoti qonunlarini ochib berganlar. Bu qonunlarni bilish ijtimoiy - siyosiy

voqealarning qay tarzda borishini (bilish tufayli mumkin bo`lmoqda) oldindan bilib turish imkoniyatlarini beradi.

Oldindan bilish muayyan maqsadni qo`yishga va ana shu maqsadga muvofiq harakat qilishga imkon beradi. Odamlarning hozirgi amaliyoti bizning xilma - xil mehnatimiz natijasini oldindan bilish tufayli mumkin bo`lmoqda. Mehnat faoliyati ayni vaqtida fikrlash faoliyati hamdir. Tafakkur yo`li bilan aniqlangan abstrakt - nazariy qoidalar inson amaliyotida sinovdan o`tkaziladi, (tasdiqlanadi yoki rad qilinadi), voqelikni xuddi shu yo`l bilan eng to`g`ri va aniq bilib olinadi. Tafakkur ongning voqelikni eng aniq, chuqur, to`liq, umumiylashtirib va bevosita aks ettirishga (bilishga) qaratilgan faoliyatdir, asosan narsalarni bevosita sezishimiz va idrok qilishimiz mumkin bo`lмаган bog`lanishlar va munosabatlarning aks etishidir. Fikrlar, hukmlar va tushunchalar dastlab idrok va tasavvur asosida vujudga keladi. Bu fikrlar xotirada mustahkamlanadi va so`ngra tafakkurning yuksakroq va murakkabroq jarayonlari uchun material (asos) bo`lib qoladi. Har bir kishi tevarak - atrofdagi olamni bevosita bilish bilan mashg`ul bo`lganida fikr yuritmay, balki shu bilan birga u harakat qilayotganida ham boshqa kishilar nutq orqali aloqa qilayotganida, o`z fikrini boshqa kishilarga bildirayotganida hamda boshqa kishilardan tayyor fikr va bilimlarni olayotganida ham fikr qiladi. Odamning tafakkuri til bilan bevosita bog`langandir. Fikr va muhokamalar, bilish va tajriba til yordami bilan shakllanadi. Insoniyat jamiyatida odamlar bir - birlari bilan til vositasi orqali fikr almashadilar.

TAFAKKUR JARAYONLARI VA FIKR YURITISH OPERATSIYALARI

Tafakkur faoliyati muayyan maqsadga qaratilgan alohida ong jarayoni tariqasida sodir bo`ladi. Bosh miyaning biror uchastkasidagi faoliyat emas, balki butun bosh miya po`stining faoliyati mana shu jarayonning nerv - fiziologik asosidir. Tafakkur faoliyati uchun avvalo analizatorning miyadagi uchlari o`rtasida vujudga keladigan murakkab bog`lanishlar muhim ahamiyatga egadir. Analizatorning bosh miya po`stidagi uchastkalari bir - biridan keskin ajralgan holda emas, balki bir - biriga tutashib, bir - biri bilan chambarchas bog`lanib ketganligi sababli mazkur bog`lanishlarning vujudga kelishi osonlashadi. Ikkinci signal tizimida muvaqqat bog`lanishlar vujudga kelishi, yuqorida aytib o`tilganidek, tafakkurning maxsus nerv -fiziologik mexanizmlaridir. Bunda ikkinchi signal tizimining bog`lanishlari birinchi signal tizimidagi bog`lanishlarga tayanadi. I.P.Pavlov ikkinchi signal tizimining ishi hamisha birinchi signal tizimi bilan o`zaro o`tkazish jarayonida hozir bo`ladi, deb ta`kidlagan. Ikkinci signal tizimi asosida, birinchi signal bilan o`zaro ta`sir qilish jarayonida “dastlab umuminsoniy empirizm”ni va nihoyat odamning o`z tevaragida olamni va uning o`zini bilish uchun oliy qurol bo`lgan fanni yaratuvchi maxsus insoniy, oliy tafakkur voqe bo`ladi. Tafakkurning muayyan bir narsaga qaratilishi uchun nerv - fiziologik asos bo`lgan orientirovka refleksi tafakkur jarayonlarida katta rol’ o`ynaydi. Tafakkur jarayoni insonning bilishga bo`lgan ehtiyojlari, tevarak -atrofdagi olam va turmush to`g`risidagi o`z bilimlarini kengaytirishga va chuqurlashtirishga intilish sababli vujudga keladi. Fikr qiluvchi kishining tafakkur ob`ektini anglashi (bilish) tafakkur jarayonining xarakterli xususiyatidir. Odam o`zi idrok qilayotgan, tasavvur qilayotgan narsalar to`g`risida fikr qiladi. SHuning uchun tushunchalar, narsalarning butun bir sinfi (turkumi) to`g`risida fikr qiladi. Odam o`z tafakkuri to`g`risida va boshqa psixik jarayonlar to`g`risida, shuningdek o`ziga xilma xil ob`ektiv xususiyatlari to`g`risida fikr qiladi, ya`ni bo`lar tafakkur ob`ekti bo`ladi. Bir narsaga

tayanmagan quruqdan - quruq tafakkur bo`lishi mumkin emas. Taqqoslash, tahlil va sintez, abstraktsiya va umumlashtirish, tasniflash va tizimga solish aqliy operatsiyalarining asosiy turlaridir. Bizda yangi hukmlar ana shu operatsiyalar jarayonida hosil bo`ladi, real olamdagi narsalar va hodisalar to`g`risidagi tushunchalar vujudga keladi.

Taqqoslash. Taqqoslash shunday bir aqliy operatsiyadirki, bu operatsiya ayrim narsalar o`rtasidagi o`xshashlikni yoki tafovutni, tenglikni yoki tengsizlikni, bir xil yoki qarama - qarshilik borligini aniqlashda ifodalanadi. Narsalarning o`xshashligi yoki tafovuti dastlab bevosita sezgilarda va idroklerda aks etadi. Taqqoslash fikr qilish jarayoni idrok qilinayotgan narsalarning o`xshashligi yoki tafovutni aniqlash lozim bo`lganda, yoxud sezgilarda va idrokda bevosita aks etmagan o`xshashlik va tafovutni topish lozim bo`lgan hollarda voke bo`ladi. Amaliy taqqoslash bir narsani ikkinchi bir narsaga solishtirib ko`rilayotganda, masalan: bir qalamni ikkinchi bir qalamga, o`lchov chizig`ini taxtaga va shu kabilarga solishtirib ko`rilayotganda sodir bo`ladi. Taqqoslash tasavvur qilinayotgan yoki o`ylanilgan narsalarni bir -biriga fikran solishtirib ko`rish yo`li bilan amalga oshiriladi. Psixologiyani o`rganayotgan vaqtimizda biz hamisha ayrim psixik hodisalarni bir - biri bilan taqqoslaymiz va ulardagi o`xshashlikni, tafovutni topamiz. Ayrim kishilarni bir -biriga taqqoslab, ularning qobiliyatida, xarakterida, qarashlarida tafovut yoki o`xshashlik topamiz.

SINTEZ va TAHLIL. Analiz (tahlil) narsa - buyumlarni, hodisalarni, jarayonni tarkibiy belgilari, elementlariga, qismlariga bo`lish demakdir. Tahlil jarayonida butunning uning qismlariga, uning elementlariga bo`lgan munosabati aniqlanadi. Tahlil ob`ektlari amalda ajratib bo`lmaydigan elementlarga yoki belgilarga bo`lishda ifodalanishi mumkin. Bu fikriy tahlil, ya`ni fikrda qilinadigan tahlildir. Psixologiyani o`rganayotganimizda har bir psixik hodisani bir-biri bilan taqqoslabgina qolmasdan, balki shu bilan birga tahlil ham qilamiz. O`qish mashg`uloti vaqtida tafakkurning tahlil qilish faoliyati katta o`rin tutadi. CHunonchi, savod o`rgatish, nutqni tahlil qilishdan: gapni so`zlarga, so`zlarni bo`g`inlarga, bo`g`inlarni tovushlarga ajratishdan boshlanadi. Matematik masalani echish tahlil qilishdan, dastlab bir qancha ma`lum sonlarni, so`ngra esa noma`lum sonlarni topishdan boshlanadi. **Sintez** tahlilning aksi yoki teskarisi bo`lgan tafakkur jarayonidir. Bu jarayon ob`ektning ayrim elementlarini, qismlarini, belgilarini bir butun qilib qo`shishdan iboratdir. Sintez jarayonida murakkab bir butun narsa yoki hodisa tarkibiga kirgan elementlar yoki qismlar tariqasida olingan buyum va hodisalarning shu murakkab bir butun narsa yoki hodisaga bo`lgan munosabati aniqlanadi. Sintez elementlarning, narsa va hodisalarning qismlarini bir butun qilib qo`yishdan iboratdir, tahlil amaliy bo`lgani singari sintez ham amaliy bo`lishi mumkin. Tahlil singari sintez ham o`qish jarayonida katta o`rin tutadi. Masalan: o`qishga o`rgatish vaqtida tovushlar va harflardan bo`g`inlar, bo`g`inlardan so`zlar, so`zlardan gaplar tuziladi. Mana shuning o`zi sintezdir.

Abstraktsiyalash, umumlashtirish va konkretlashtirish.

Abstraktsiya shunday bir fikrlash jarayonidirki, bunday tafakkurda aks etilayotgan bir yoki bir necha ob`ektlarning biror belgisi (xususiyati, harakati, holati, munosabati) shu ob`ekt yoki ob`ektdan fikran ajratib olinadi. Bu jarayonda ob`ektdan ajratilgan bir belgining o`zi tafakkurning mustaqil ob`ekti bo`lib qoladi. Abstraktsiya, odatda tahlil jarayonida yoki tahlil natijasida sodir bo`ladi. Masalan: sinfdagi doskani qoraligi to`g`risidagi, so`ngra umuman qoralik to`g`risida fikr qilish mumkin. Biz odamlar, samolyotlar, suv, ot va hokazolarni ko`z oldimizdagи harakatini ko`zatib turib, ularning bitta umumiyl belgisini,

harakatini fikran ajratib olishimiz va umuman harakat to`g`risida fikr qilishimiz mumkin. CHunonchi abstraktsiyalash yo`li bilan bizda uzunlik, kenglik, miqdor, tenglik, son, qiymat va boshqa shu kabilalar to`g`risida abstrakt tushuncha hosil bo`ladi.

Umumlashtirish tafakkurda aks etgan bir turkum narsalarning o`xshash muhim belgilarining shu narsalar to`g`risidagi bitta tushuncha qilib fikrda birlashtirish demakdir. Masalan: olmalar, noklarda, o`riklarda, apel`slnlarda va boshqa shu kabilarda bo`lgan o`xshash belgilari bitta tushunchada birlashadi. Biz buni meva degan so`z bilan ifodalaymiz. Daraxtlar, o`tlar, gullar va boshqa shu kabilalar o`simlik degan tushunchada umumlashtiriladi.

Konkretlashtirish birinchidan, umumiylar abstrakt belgining yakka ob`ektga tadbiq etish mansub qilinadi, ifodalanadi. Masalan: biz “oq” deganimizda ko`z oldimizga kor, qog`oz, paxta va shu kabilalar kelishi mumkin. Ikkinchidan, konkretlashtirish umumiylar va yakka belgilari kamroq bo`lgan umumiylikni ochishda ifodalanadi. Masalan, biz olma, olxo`ri, o`zumni mevalar qatoriga, stol, stul, divan va shu kabilarni mebel qatoriga qo`shamiz. Umumiylar fikrlarni bayon qilish va izohlash chog`ida biz, odatda keltiriladigan misollarning hammasi konkretlashtirishning o`zidir.

Klassifikatsiya (turkumlarga bo`lish), sistemaga solish atrofdagi olamni bilish uchun bitta narsani emas, balki ko`pchilik va xilma - xil narsalarni o`rganishdir. SHu sababli o`rganish uchun qulaylik tug`dirish maqsadida, shuningdek amaliy maqsadlarida mana shu ko`pchilik narsalarni guruhlarga, turkumlarga bo`lishga to`g`ri keladi. Ko`pchilik narsalarni (hodisalarni) guruhlarga bo`lish klassifikatsiya yoki turkumlarga bo`lish deb ataladi. Masalan: kutubxonada kitoblar muqovasiga, shakliga, mazmuniga va shu kabi belgilari qarab turkumlarga bo`lish mumkin. O`quvchilarning odatda yoshi yoki jinsiy belgilari bo`yicha, ulgurishlariga kabilarga qarab turkumlarga bo`ladilar.

Tizimga solish shundan iboratki, bunda ayrim narsalar, faktlar, hodisa va fikrlar muayyan tartibda makondagi, vaqtdagi tutgan o`rniga yoki mantiqiy tartibda joylashtiriladi. SHu sababli makon, xronologiya va mantiqiy belgilari asosida tizimga solish turlari ajratiladi. Mebelning xonadagi joylashtirilishi, daraxtning boqqa o`tqazilishi makoniylar tizimga na`muna bo`la oladi. O`tmishda bo`lib o`tgan voqealarning xronologik tartibda joylashtirilishi shu voqealarning vaqtiga qarab tizimga solishning namunasi bo`la oladi. Matematikaga, falsafaga, mantiqqa doir darsliklarda ilmiy materiallarning joylashtirilishi mantiqiy tizimga solishning namunasidir.

TAFAKKUR SHAKLLARI

Tushuncha voqelikda narsa va hodisalarning umumiylar, muhim farq qiluvchi maxsus belgilarini aks ettiradi, Masalan: “odam”, “kuy”, “ruchka”.

Hukm voqelikdagi narsa va hodisalar o`rtasida mavjud bog`lanishlarni, shu narsa va hodisalarga bir xususiyatni xos yoki xos emasligi ko`rsatadi. Hukmlar ob`ektiv voqelikni aks ettirishga qarab chin yoki xato bo`ladi. “Hozir tashqarida yomg`ir yog`yapti” (xato). Hukmlar umumiylar juz`iy va yakka hukmlar bo`ladi. Umumiylar hukmlarda mazkur guruhdagi mazkur sinfdagi hukmlar, hamma narsalar to`g`risida tasdiqlanadi yoki inkor qilinadi. Juz`iy hukmlarda xususiyatlar ayrim qismlarga taalluqli bo`ladi. Yakkasida hukmlarda tasdiqlash yoki inkor qilish faqat bitta narsaga tegishli bo`ladi.

Xulosa chiqarish bitta yoki bir necha hukmlardan yangi hukm hosil qilishdir 3 xil xulosa chiqarish mavjud:

- 1. Induktiv xulosa chiqarish (yakka xulosa)**
- 2. Deduktiv xulosa chiqarish (umumiy xulosa)**
- 3. Analogik xulosa chiqarish (taxminiy xulosa)**

TAFAKKUR VA MASALA HAL QILISH

Agar hayot va amaliyat davomida odam yangi maqsad, yangi muammo, yangicha ahvol va yangi faoliyat sharoitlari paydo bo`lsa, odamda dastlab tafakkur qilishga zaruriyat tug`iladi. Tafakkur yangilikni izlash va ochish demakdir.

Oddiy eski usullar bilan vazifa hal qilinganda tafakkur talab qilinmaydi. Masalan, muammoli vaziyat bilan masalani farq qilish zarur. Muammoli vaziyatning odamlar faoliyati davomida kutilmagan, qandaydir tushunib bo`lmaydigan narsaga, noma`lum tashvishli narsalarga duch kelib qoladi. Muammoli vaziyatni tahlil qilish natijasida masala paydo bo`ladi va tarkib topadi. Masalani yuzaga kelish muammozi vaziyatdan farq qilib, garchi oldindan bo`lsa ham mazkur (ma`lum) va noma`lum qidirayotgan narsani taxminan bo`laklarga bo`lish masalaning shartida ifodalanadi. Masalan, o`quv masalasida uning asosiy sharti hamda talablar (savollar) mavjud bo`ladi.

TAFAKKUR TURLARI

Psixologiyada tafakkur turlarining quyidagi sodda va bir muncha shartli tasnifi tarqalgandir:

- 1. Ko`rgazmali - harakat;** **2. Ko`rgazmali -obrazli;** **3.Mavhum.** **4.Nazariy;** **5. Amaliy tafakkur.**

Ko`rgazmali - harakat tafakkur - tarixiy taraqqiyot davomida odamlar o`z oldilarida turgan maqsadlarni dastlab amaliy faoliyat nuqtai nazardan echganlar, keyinchalik undan nazariy faoliyat ajralib chiqqan. Amaliy va nazariy faoliyat chambarchas bog`langandir. Sof nazariy faoliyat birlamchi emas, balki amaliy faoliyatning o`zi birlamchidir. Yana faoliyatning taraqqiyoti davomida unga nisbatan mustaqil nazariy fikr yuritish faoliyati ajralib chiqqan. Faqat butun insoniyatning tarixiy taraqqiyoti emas, balki shu bilan birga har bir bolaning psixik taraqqiyoti jarayonini ham dastavval sof nazariy faoliyat emas, balki amaliy faoliyatdir. Guyo bu amaliy faoliyat ichida avval bola tafakkuri rivojlanadi. Bog`chadagi yosh (3 yoshgacha) asosan ko`rgazmali - harakat tafakkuri bo`ladi. Bola bilayotgan obrazli tafakkurni o`z qo`llari bilan amaliy ravishda va guyo tabiiy ravishda ajratadi. Masalan, o`yinchoqlarni buzib ko`rish va boshqalar.

Ko`rgazmali - obrazli tafakkur. **Ko`rgazmali-obrazli** tafakkur sodda shaklda ko`pincha bog`cha yoshida bolalarda, ya`ni 4 - 7 yoshgacha bo`lgan bolalarda paydo bo`ladi. Bu yoshdagи bolalarda tafakkurning amaliy harakatlar bilan aloqasi avvalgidek to`g`ri va bevosita bo`lmaydi. Bola bo`layotgan obrazli tafakkurni aniq idrok qilishi va tasavvur qilishi shartdir. Bog`cha yoshidagi bolalar faqat ko`rgazmali obrazlar bilan fikr yuritadilar va uncha tushunchaga ega bo`lmaydilar. Bog`cha yoshidagi bolalarda tushunchalarning yo`qligi shveytsariyalik psixolog J.Piajening quyidagi tajribasida juda yaqqol namoyon bo`ladi: 7 yoshga yaqin bolalarga xamirdan qilingan mutlaqo bir xil hajmi jihatdan teng 2 ta soqqa ko`rsatiladi. Bolalar uni teng deb hisoblaydi. Bolalarning ko`z oldida bitta soqqa ezib non shakliga keltiriladi. endi bolalar non shaklidagi soqqada xamir ko`p deb hisoblaydilar. Bolalarning ko`rgazmali - obrazli tafakkurlari hali ularning idroklariga bevosita to`la

bo`ysunadigan bo`ladi. Ularning ko`rgazmali - obrazli shaklida o`tadigan tafakkurlari bolalarni soqqaga qaraganda non shaklidagi hamir ko`proq, degan xulosaga olib keladi.

MAVHUM TAFAKKUR (ABSTRAKT)

Bolalarning amaliy va ko`rgazmali hissiy tajribalari asosida ularning mакtab yoshidagi davrlarda avval sodda shakldagi mavxum tafakkur, ya`ni mavxum tushunchalarga asoslangan tafakkur rivojlanadi. Maktab o`quvchilarining matematika, fizika, tarix va boshqa fan asoslarini o`zlashtirish davomida tushunchalarni egallashlari ularning aqliy taraqqiyotlari uchun katta ahamiyatga egadir. eng mavhum tafakkurlarning ham hissiy bilish chegarasidan ancha chiqib ketishga qaramay, hech qachon sezgi, idrok va tasavvurlardan to`la - to`kis ajralib ketmaydi. O`quvchilarda tushunchalarning taraqqiy etishi jarayonida ko`rgazmalilik ikki tomonlama rol' o`ynaydi. Bir tomonidan, ko`rgazmalilik, tushunchalarning taraqqiy etishi ni engillashtiradi. Ikkinci tomonidan, har qanday ko`rgazmalilik sharoitida maktab o`quvchilarida mavxum tafakkurning tarkib topishiga qulay sharoit yarata bermaydi. Juda ko`p ko`rgazmalilik o`quvchilar diqqatini chalg`itib yuboradi.

TAFAKKURDAGI INDIVIDUAL FARQLAR YOKI SIFATLAR

Ayrim kishilarning tafakkuri o`zining mazmundorligi, chuqurligi va kengligi jihatdan, mustaqilligi, samaraliligi va tezligi jihatdan turli davrlarda turlicha namoyon bo`ladi. Bular tafakkurning sifatini tashqil qiluvchi belgilardir.

Tafakkurning mazmundorligi avvalo u yoki bu narsalar, hodisalar to`g`risidagi voqelikning u yoki bu, muhokamalar va tushunchalarda odamlarning ongida qanchalik o`rin olganligidan kelib chiqadi. Fikrning chuqurligi uning mazmundorligini ta`minlaydi. Tafakkurning mazmundorligi va chuqurligi uning kengligi bilan chambarchas bog`langan. Voqelikning eng ko`p sohalarini o`z ichiga olgan, hozirgi vaqtini, uzoq o`tmishni va uzoq kelajakni o`z ichiga olgan tafakkurni biz keng tafakkur deymiz. Odam o`z oldiga yangi vazifalarni qo`yishda o`zi tashabbus ko`rsatib, shu vazifalarni boshqa odamlarning yordamisiz, o`zining alohida yo`llari bilan hal qilaversa, bu odamlarning tafakkuri mustaqil tafakkur bo`ladi. Tafakkurning tanqidiyligi o`zgalarning yoki o`zlarining fikrlarini xaqiqatga mos bo`lishi - bo`lmasligi jihatini tekshira bilishda va shu fikrlarga baho bera olishda ifodalanadi. Tafakkurning tezligi qo`yilgan savollarga juda tezlik bilan javob topa olishida namoyon bo`ladi. Fikrning tezligi maktab o`quvchilari uchun muhim ahamiyatga ega. Masalan: ayrim yaxshi o`quvchilarni doskaga chiqarib, ulardan yangi masalani echish talab qilinganda hayajonlanib, butun sinf oldida o`zlarini yo`qotib qo`yadilar. Bu salbiy emotsiyalar go`yo ularning tafakkurini tormozlab qo`yadi. Fikr juda sekin va tez - tez muvaffaqiyatsiz ishlay boshlaydi. Maktab o`quvchilarning tafakkuri hali juda katta va etarli foydalanilmayotgan zaxira hamda imkoniyatlarga egadir. Psixologiya va pedagogikaning asosiy vazifalaridan biri ana shu imkoniyatlarni to`la ochish va ular asosida ta`limni yanada samarali, hamda ijodiy qilishdan iboratdir.

Tushunish va tafakkur qilishning ijtimoiy mohiyati. Inson idrok qilgan, xotirasida saqlab qolgan narsalarning barchasi uning uchun ma'lum ma'no va mohiyatga ega bo`ladi. Aks xolda u eslabqolmaydi ham, keyingi safar analogik ob'yekt bilan to`qnash kelganda, unga diqqatini qaratmaydi ham, figura fonga aylanib qolaveradi. Ya`ni, biz ko`rgan, eshitgan, his qilgan narsalarimizning barchasi ma'noli, kerak bo`lsa, ma'nili bo`lishini xohlasmiz.

Shunisi xarakterlikni, ana shunday narsa va hodisalarga biz tomondan beriladigan ma'no har bir alohida shaxs tomonidan turlichay qilinadi. Masalan, olim uchun har qanday kitob - hayotining ma'nosi bo'lsa, dehqon uchun yer va undan olinadigan hosil - ahamiyatli hisoblanadi. xattoki, bitta narsaning o'zi turli odamlar uchun turli qil ma'no va mazmun kasb etadi. O'sha kitob misolini oladigan bo'lsak, kitob industriyasi bilan shuqullanuvchi muxandis uchun - ishlab chiqarish mahsuloti, kitob do'koni sotuvchisi uchun - tovar - mahsulot, o'quvchi uchun - ilm manbai, muallif olim uchun - ijodining mevasi, eng qimmatligi narsadir. har bir alohida narsaga bo'lgan munosabatimiz uning biz uchun qadr -qimmatiga bevosita ta'sir etadi, u goh ijobjiy, goh salbiy bo'lishi mumkin. Shu nuqtai nazardan ham biz narsa va hodisalarga tanlab munosabatda bo'lamic. Tilshunoslikni kasb etib tanlagan talaba uchun kibernetik modellashtirishga bag'ishlangan ma'ruza qanchalik zerikariday tuyulsa, iqtisodchilik kasbini egallamoqchi bo'lganlar uchun pul, foyda va daromad olish yo'llari haqidagi ma'lumotlar shunchalik ahamiyatli, oddiy so'zning morfologik taxlili - shunchalik befarqlik holatini keltirib chiqaradi. Demak, bizning dunyoni, uning sir - asrorlarini tushunishimizning zaminida narsa va hodisalarning biz uchun shaxsiy aloqasi, ahamiyatliligi darajasi yotadi. Ana shunday dunyoni tushunishimiz, anglashimiz va unga ongli munosabatimizni bildirib, izhor qilishimizga aloqador bilish jarayoni psixologiyada tafakkur, fikrlash deb ataladi.

Tafakkur - inson ongining bilish ob'yektlari hisoblanmish narsa va hodisalar o'rtaida murakkab, har tomonlama aloqalarning bo'lishini ta'minlovchi umumlashgan va mavhumlashgan aks ettirish shaklidir. Tafakkur muammolari uzoq vaqtgacha o'zining murakkabligi bilan psixologlar nazaridan chetda bo'lgan, u asosan faylasuflar va mantiqshunoslar fikr yuritadigan massala hisoblangan. Psixologiya ilmining otaxoni hisoblanmish nemis olimi Vilgelm Vundt ham psixologiyani ikkiga bo'lib - fiziologik psixologiya (eksperimental yo'l bilan bilish jarayonlarini o'rganuvchi fan) va xalqlar psixologiyasi qismlariga bo'lib, oxirgi psixologiyaning tarkibiga nutq va tafakkur psixologiyasini ham kiritgan va uni eksperimental tarzda o'rganib bo'lmaydi, ularni tushuntirish mumkin xolos deb hisoblagan. Bu xulosalar aslida tafakkur va fikrlash jarayonlarining naqadar murakkab tabiatga ega ekanligidan dalolat beradi. Lekin shunday bo'lsa ham shuni ta'kildash joizki, birinchidan, tafakkur va fikrlash jarayonlari - bu bilish jarayonlari; ikkinchidan, ular ham shaxs tomonidan borliqni aks ettirish shakli, umumlashtirib, bilvosita aks ettirish shakli; uchinchidan, bu jarayonlar ham eksperimental psixologiya tomonidan o'rganiladi; to'rtinchidan, tafakkur bilishning eng oliy va yuqori darajadagi shaklidir.

Tafakkurning oliyligi va murakkabligi shundaki, u idrokdan farqli, bevosita aks ettirish bo'lmay, narsalar va ularning xossalari ular yo'q paytda ham aks ettirishga imkon beradi. Masalan, Afrikaning subtropik xududlari to'g'risida gap ketganda, umrida biror marta Afrikaga bormagan odam ham subtropiklik xossasini bilgani uchun ham ushbu axborotni tushunib, uni qabulqila oladi. Sinov paytida talaba kecha o'qigan, laboratoriya sharoitida sinab ko'rgan qonuniyatlar xususida xuddi ro'parasida namoyon bo'layotganday, obrazli qilib gapirib berishi, ro'y bergen hodisalarni yana formulalar va statistik hisob - kitoblar vositasida isbot qilib berishi ham mumkin. Bu operasiyalarning asosida tafakkur jarayonlari yotadi.

Tafakkur qilishimizni ta'minlovchi organ - bu bizning miyamiz. Barcha hisob - kitob

ishlari - eng elementar harakatlarni rejalashtirishdan tortib, murakkab mavhum teoremlarni isbot qilishga qaratilgan operasiyalar miyada sodir bo'ladi. Shuning uchun ham juda charchab turgan paytda odamdan biror qiyinroq masala xususida fikr bildirishini so'rasangiz, "hozir boshim og'rib turibdi, juda charchaganman, biroz o'zimga kelay, keyin fikrlashamiz", deb javob beradi. Demak, miya faoliyati bilan fikrlash faoliyati o'zaro uzviy bog'liq ekan. Miyamizning fikrlash qobiliyati va imkoniyatlari shunchalik salmoqliki, ayrim olimlarning fikricha, uning ishslash qonunlari hozir biz ishlatayotgan kompyuterlar emas, yana 100-200 yillardan keyin paydo bo'ladigan murakkab, o'ta "aqli" kompyuterlar faoliyatiga yaqin ekan. Kallamizga kelgan barcha o'y - xayollar - bu fikrlardir. Normal insonni fikrsiz tasavvur qilib bo'lmaydi, har on, har daqiqada odam miyasi qandaydir fikrlar bilan band bo'ladi. Ularni tartibga solish, keragiga diqqatni qaratish, ichki yoki tashqi nutq vositasida uni echish - fikrlash jarayonidir. Fikrlash jarayoni aslida ma'lum bir masala, muammo, jumbojni hal qilish kerak bo'lganda paydo bo'ladi. Fikrlash doimo bir narsa xususida kamida bitta yechimni berishi shart, aks xolda u boshqa jarayonga - xayol, fantaziyaga aylanib ketishi mumkin. Fikr,g'oya, aniq yechim bo'limganda, inson miyasining borliqdagi narsa va hodisalar mohiyatini aks ettirishi xayol deb ataladi. Shuning uchun ham do'stlar davrasida ba'zan muammo xususida tortishuv bo'lib qolganda, aniq bilimi yoki g'oyasi yo'qligi tufayli kallasiga kelgan narsani aytgan bolaga qarab "Juda olib qochishga ustasanda, xayolparast" deyishadi. Shunday qilib, muammo yoki jumboqlar bizni fikrlashga majbur etadi. Masalan, shunday masalani olib ko'raylik. Sizga mixlar solingen bir karton quticha va ikkita sham, bolqacha berilgan. Vazifa: eshikka shamni o'rnatib, yoqib qo'yish kerak. Kim qanday yechadi? Albatta, birdaniga to'g'ri yechimga kelish qiyin. Agar qutichani bo'shatish mumkinligi va uni shamdon sifatida eshikka qochish mumkinligi to'g'risida fikr kallaga kelmaguncha, yechimni toppish qiyin. Ayni shu masala ikki xil shart bilan berilgan: bittasida quticha mixlar bilan to'la deyilgan, ikkinchisida quticha bo'sh deb berilgan. Ikkinchchi holatda bolalar uning yechimiga tezroq kelishgan.

Psixoglarning fikricha, har qanday masalani yechish mobaynida odam uning shartlarini bir necha variantlarda tasavvur qilsagina yechimga kelarkan. Agar idrok bilan bog'laydigan bo'lsak, figura fonga, fon esa figuraga aylanadi, ularning o'rirlari almashadi va qakozo. Bundagi individual farq shundaki, ba'zi bolalar yechimga to'g'ridan - to'g'ri figura asosida keladi, boshqalar esa bir necha yechimning variantlarini ko'z oldiga keltirib, so'ng bir qarorga keladi. Kimdir juda tez fikrlaydi, kimdir juda sekin. Shuning uchun ham test yechish jarayonida yonma - yon o'tirgan ikki bola bir xil yechimni belgilaydi, lekin o'sha yechimga kelish yo'llari har birida o'ziga xos bo'ladi. Aynan shu jarayonning qanday kechishini tafakkur psixologiyasi o'rganadi. Muammoning yechimi ba'zan birdan , yorqin yulduzday yarq etib paydo bo'ladi. Bunday psixologik holat psixologiyada insayt - oydinlashuv deb ataladi. Odam qachon ana shunday fikrlarda tiniqlik, insayt paydo bo'lganini o'zi ham bilmaydi. Eng iqtidorli, zukko olimlar ham o'z fikr yuritish qonuniyatlariga e'tibor berib, yangi g'oya qachon,qanday yo'l bilan paydo bo'lganiga javob topolmaganlar. Xattoki, ba'zan shunday ham bo'ladiki, yangilik kashf etgan olim o'zining fikri naqadar noyob ekanligini ham anglash imkoniyatiga ega bo'lmaydi,qolaversa, kashfiyot go'yoki uniki emasday,qaerdan kelib qolaganini ham tushunmaydi. Shuning uchun ham ko'plab genial kashfiyotlarning haqiqiy qadr -qimmati muallif o'tib ketgandan keyin tarix tomonidan baholanadi. Xuddi shunday qadrga ega bo'lgan kashfiyotlar yurtimizda yashab

o'tgan yuzlab allomalar ijodiga taalluqli. Masalan, Ibn Sino, Alisher Navoiy, Abu Nasr Farobi, Al- Farg'oniy, Xorazmiy, Zamashhariy kabi allomalar o'zları ijod qilgan paytlarida yaratgan g'oyalari va kashfiyotlarining qanchalik ahamiyatli va o'lmas ekanligini keyingi avlod, butun bir insoniyat tarixi isbot qilib, tan oldi. R. Dekartning kallasiga analitik geometriya g'oyasi kelganda, o'zida yo'q xursand bo'lган va cho'kkalab, yig'lab shu fikrni unga ato etgan Xudoga sajda qilgan ekan. Darqaqiqat, miyadagi tiniqlik, oydinlashuv avvalo Olloqning inoyati,qolaversa, o'sha fikr egasining mashaqqatli mehnati, tinimsiz ilmlar dunyosida to'kkan zahmatli terlari evaziga ro'y beradi. Umuman yangiliklar ochish, ijod qilishga aloqador tafakkur turi uning eng ahamiyatli va shu bilan birga eng qiyin turidir. Chunki ijodkor, yoki kashfiyotchi nimanidir kashfqilishni xohlaydi, tinimsiz izlanadi, lekin qachon,qanday sharoitda,qanday yo'l bilan uni ochishi mumkinligini o'zi ham bilmaydi. Shu o'rinda akademik Kedrovning Mendeleev davriy jadvalini kashf qilganligi xususidagi esdaliklari juda o'rinli. Olim uzoq vaqt mobaynida barcha kimyoviy elementlarni ma'lum qonuniyat asosida jadvalga tushirishni o'ylab yurgan. "Kallamga kelyapti-yu, uni ko'rolmayapman", deb tashvishlanardi olim. Kunlardan bir kun u juda toliqib, yozuv stoli ustida uqlab qolganda, tushida davriy jadvalni "ko'rgan". Xursand bo'lib ketib, uyg'ongan zahoti moddalarni jadvalga joylashtira boshlagan. Tushdag'i ishi bilan o'ngidagi ishining farqi shu bo'lganki, tushida engil moddalar pastda joylashgan bo'lган, Mendeleev ularni o'ngida "to'g'rilib" chiqqan. Bu ham o'sha insaytga bir misol.

Tafakkurning turlari. Insonning fikrlash jarayoni tahlil qilinganda, uning qanday shakllarda kechishi ahamiyatli bo'lib, bu uning turlari va shunga ko'ra fikrlashdagi individuallik masalasidir. 1- jadvalda tafakkurning turli mezonlar asosidagi klassifikasiyasi keltirilgan.

hayot mobaynida o'qiganlarimiz, ma'lum shart-sharoitlarda konkret dalillar va nazariy bilimlar asosida mushoqadaqilgan bilim vaqoyalarimiz asosida yuritgan fikrlash jarayoni nazariy tafakkurdir. Undan farqli amaliy tafakkur bevosita hayotda va harakatlarimiz mobaynida hosil bo'lган fikrlarimizga asoslanadigan tafakkurimizdir.

Jadval - 1

Tafakkur turlari

Shakliga ko'ra	Ko'rgazmali - harakat Ko'rgazmali - obrazli Mantiqiy
Ko'rildigan masalaning xarakteriga ko'ra	nazariy amaliy
Ijodiylik elementiga ko'ra	konvergent divergent
Yangiligi va noyobligiga ko'ra	reproduktiv produktiv (ijodiy)

Ko'rgazmali - harakat tafakkurining xususiyati shundaki, u ham odamning real predmetlar bilan ishqilayotgan paytdagi fikrlash jarayonini nazarda tutadi. Ko'rgazmali -

obrazli tafakkur esa ko'rgan - kechirgan narsalar va hodisalarning konkret obrazlari ko'z oldimizda gavdalangan chog'da ularning mohiyatini umumlashtirib, bilvosita aks ettirishimizdir. **Mantiqiy tafakkur** - bu mavhum tafakkur bo'lib, so'zlar, so'zda ifodalangan bilim,g'oya va tushunchalarga tayangan xolda bevosita idrokimiz doirasida bo'limgan narsalar yuzasidan chiqargan hukmlarimiz, muloqazalarimiz bu tafakkurga misol bo'la oladi. Masalan, olam, uning noyob va murakkab hodisalarini falsafiy o'rganish faqat mavhum, abstrakt tafakkur yordamida mumkin bo'ladi.

Fikrlashimizning yana bir turi reproduktiv bo'lib, uning mohiyati - ko'rgan - bilgan narsamizni aynan qanday bo'lsa, shundayligicha, o'zgarishsiz qaytarish va shu asosda fikrlashga asoslanadi. Undan farqli produktiv yoki ijodiy tafakkur - fikrlash elementlariga yangilik, noyoblik,qaytarilmaslik qo'shilgandagi tafakkurni nazarda tutadi. Shunga bog'liq bo'lgan **konvergent** fikrlash masalaning yechimi faqat bitta bo'lgandagi fikrlashni nazarda tutsa, **divergent** tafakkur - fikrning shunday turki, u shaxsga bir muammo yoki masala yuzasidan birdaniga bir nechta yechimlar paydo bo'lishini taqozo etadi. Aynan ana shunday ijodiy tafakkur divergent shaklda bo'lsa, u ijodiy parvoz, yangiliklarni kashf etishga asos bo'ladi. Fikrning kashf etish, yangilik yaratishga qaratilgan faoliyati ba'zan uning kreativlik sifati bilan bog'lab tushuntiriladi. **Kreativlilik** - shunday hislatki, u go'yoki yo'q joyda borqiladi, ya'ni oddiygina, jo'ngina narsalarga boshqacha , birovlarnikiga o'xshamagan yondashuvlarni talab qiladi. Masalan, uchta so'z berilgan - "qalam", "ko'l", "ayiq". Uchtasini qo'shib, yangi jumlalar tuzish kerak . har kim o'zidagi kreativlik darajasiga ko'ra turli xil jumlalar tuzsa bo'ladi, masalan, "Bolaqalamni olib, ko'lda cho'milayotgan ayiq rasmini chizdi". Yoki "Terak qalamchalari ekib chiqilgan ko'l yoqasida bir ayiq bolasini cho'miltirardi". Shunga o'xshash ko'plab jumlalar tuzish mumkin.

Mashhur olim K. Yung insonlarni fikrlashlariga ko'ra asosan ikki toifaga bo'lgan edi:

Intuitiv tiplilar. Bu shunday toifali kishilarki, ularda ko'pincha hissiyotlar mantiqdan ustun keladi va miya faoliyati bo'yicha ham o'ng yarim sharlar faoliyati chapnikidan ustunroq bo'ladi. Ko'rib, his qilib, yorqin emosional munosabat shakllantirilmaguncha, bunday odamlar biror xususda fikrlarini bayon eta olmaydilar.

Fikrlovchi tiplar. Bunday kishilarda doimo mantiq, mulohaza hissiyotlardan ustun bo'ladi va miyasining chap tomoni o'ngiga nisbatan dominanta(ustun) hisoblanadi. Bundaylar gapira boshlashsa, ko'pincha, "Faysasuf bo'lib ket-e", deb ham qo'yishadi. Chunki ular o'zlarigacha bo'lgan bilimlar, mantiqiy fikrlash borasidagi yutuqlarga tayanib, doimo to'g'ri gapirishga, doimo fikrlarini mantiqan asoslash – argumentasiya qilishga harakat qiladilar. Aniq va texnika, tibbiyat fanlari bilan shug'ullanuvchilarda ana shu tafakkur tipiga moyillik va psixologik hozirlik bo'lsa, ular o'z kasblari borasida juda yaxshi natijalarga erishadilar. Ulardan farqli birinchi toifa vakillaridan yaxshi yozuvchilar, shoirlar, tilshunoslar, psixologlar yetishib chiqadi.

Tafakkur shakllari va operasiyalari. Tafakkur qilish shakllari yoki formasiga tushunchalar, hukmlar va xulosa chiqarish kiradi.

Tushunchalar - tafakkurning shunday shakliki, unda narsa va hodisalarga xos bo'lgan eng umumiyligi va xarakterli xususiyatlarni o'zida aks ettiradi. Ular umumiyligi va juz'iy, konkret yoki mavhum bo'lishi mumkin. Masalan, "ong" tushunchasini oladigan bo'lsak, uning eng muhim va boshqa tushunchalardan farq qiladigan jihatlarini ajratishimiz kerak : faqat insonga xoslik, oliy darajadagi aks ettirish, olamni bilish mexanizmi ekanligi va xakozo.

Hukmlar - atrofimizdagi narsalar va hodisalar o'rtasidagi bog'liqlikni aks ettiradi. Masalan, "Inson ongli mavjudot" degan hukm - fikr "odam, inson", "ong" va "mavjudot" tushunchalari o'rtasidagi bog'liqlikni ifodalab turibdi. Ana shunday hukmlar bizning nutqimizda har kuni juda ko'p ishlatalidi va ular tabiatan turli bog'liqliklarni yo tasdiqlaydi, yoki inkor qiladi, rost yoki yolg'on bo'ladi. Shaxsning insoniyligi aslida u ishlatadigan iboralarning qanchalik mantiqqa, hayotiy xaqiqatlarga to'g'ri kelishi, argumental ekanligi bilan baholanadi. Doimo to'g'ri, mantiqan fikr yuritgan odamni biz "bama'ni, gapida jon bor, xaqiqatgo'y" deb ta'riflaymiz.

Xulosalar - mantiqiy tafakkurning yana bir shakli bo'lib, ular fikrlar, hukmlar va tushunchalar o'rtasidagi bog'lanishdan yangi bir fikrlarni keltirib chiqarishni nazarda tutadi. Masalan: 1- hukm: O'zbekiston - mustaqil davlat.

2-hukm:Qirg'iziston - mustaqil davlat.

3-hukm:qozohiston - mustaqil davlat.

4-hukm: Turkmaniston - mustaqil davlat.

5-hukm : Tojikiston - mustqil davlat.

Demak, Barcha Markaziy Osiyo davlatlari - mustaqildir.

Shunga o'xshash biz ba'zan ayrim fikrlardan umumiylar fikr keltirib chiqaramiz (bu - induktiv xulosa chiqarish), ba'zan esa aksincha, umumiydan juz'iy - alohida fikr chiqaramiz (fikrlashning bunday harakati deduksiya deb ataladi).

Bundan tashqari, psixologiya bizdagi fikrlash jarayonini ta'minlovchi alohida operasiyalarni ham o'rganadi. Fikrlash operasiyalariga analiz (fikran narsa va hodisalarga taalluqli sifat va xususiyatlarni alohida qilib ajratish, tahlil qilish), sintez (analiz jarayonida ajratilgan qismlarni yana fikran birlashtirish,qo'shish), mavhumlashtirish (alohida biror xususiyatni ajratib, boshqalaridan fikrni chalg'itish, ayrim xossani mavhumlashtirish), taqqoslash (predmetlar va ularga xos bo'lgan xususiyatlarni fikran bir - biriga solishtirish, umumiylar farq qiluvchi jihatlarini topish), umumlashtirish (umumiylar muhim sifatlariga ko'ra predmetlarni guruhlashtirish, umumiylashtirish) kabilalar kiradi.

Mustaqil fikrlash – sog'lom ma'naviyatning mezoni sifatida. Tafakkurni rivojlantirish. Biz yuqorida tafakkurni individual xususiyatlari va ushbu jarayonga xos bo'lgan umumiylar qonuniyatlarni o'rgandik. Lekin aslida maqsad shundayki, har bir shaxs o'zidagi tafakkur va fikrlash jarayonlarining o'ziga xos tomonini bilgan qolda uni o'stirish yo'llarini bilishi kerak. Oxirgi yillarda psixologlarning o'tkazgan tadqiqotlari va kuzatishlari shuni ko'rsatdiki, fikrlash jarayonlarini guruh sharoitida, dars paytida ham o'stirish va bunga qisqa yo'llar bilan erishish mumkin ekan. Ularning fikricha, guruhdagi hamkorlikdagi faoliyat idrok va xotiraning o'sishiga ijobiy ta'sir ko'rsatib, fikrlash jarayonini tezlashtiradi va faoliyatni samaraliroq qiladi. Ayrim juda jiddiy va murakkab ijod daqiqalarini inobatga olmaganda, yaxshi tashkil etilgan dars jarayoni, undagi faoliyat shakli individual tafakkurning ham rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Shu narsa isbotqilinganki, jamoada ishlash ko'plab nostonstandart fikrlarning tuqilishi, ularning ichidan eng yaxshilarining saralanishi va yangidan yangi g'oyalarning paydo bo'lishiga sabab bo'larkan. Ana shunday samara beruvchi metodikalardan biri "breynstorming" deb atalib, uning lug'aviy ma'nosi "miyani zabit etish"dir ("mozgovaya ataka" ruscha - "brain storming" ingl.). Uni o'tkazish quyidagi tamoyillarga asoslangan:

Ba'zi intellektual masalalarni echishda bitta echim bilan cheklanib bo'lmaydi va shu

maqsadda ijodiy fikrlovchilar guruhi tashkil etiladi va bu jarayonda “gruppaviy effekt” bo’lishi kutiladi. Guruh ishi tez va optimal qarorlar qabul qilishga qaratilgan bo’ladi va bunda alohida ayrim individual qarorlarga ta’sirlanishga yo’l qo’ymaydi. Guruhga shunday kimsalar kiritiladiki, ular bir - birlaridan fikrlash uslublarining noyobligi bilan farq qiladilar. Masalan, kimdadir mantiqiylik ustun, kimdir- kreativ, kimdir - tanqidchi va shunga o’xhash. Guruhda shunday ijodiylik ruhi bo’lishi kerakki, har kim xohlagan fikrini bemalol aytaveradi, u yoki bu fikr tanqid qilinishi mumkin, lekin uning egasi tanqid qilinmaydi. Bunday sharoitda o’rtacha intellektual darajaga ega bo’lgan shaxs ham shunday fikrlar izhor qila boshlaydiki, ular alohida qolgan paytida sira ham miyaga kelmagan bo’lardi.

Bu jarayon oliv o’quv yurtlarida darslarda ham qo’llanilishi mumkin, faqat uning yuqoridaagi tamoyillari inobatga olinishi va guruhda o’zaro hamjihatlik muhiti bo’lishi kerak.

Mavzu yuzasidan test savollari:

1. Tafakkurda aks etgan bir turkum narsalarning o’xhash, muhim belgilarni shu narsalar to`g`risida bitta tushuncha qilib, fikran birlashtirish degan ta`rif tafakkurning qaysi jarayoniga taalluqli?

a) analiz va sintezga; b) taqqoslashga; v) umumlashtirishga; g) abstraktsiyalashtirishga;

2. Quyidagi javoblarning qaysi biri tafakkurning ta`rifini to`g`ri ifodalaydi?

a) tafakkur xotira obrazlaridan tashkil topadi;

b) tafakkur hodisalarning umumiylarini umumlashtirib aks ettirishdir;

v) tafakkur nutqqa bog`liq bo`lmagan jarayondir;

g) tafakkur faqat insonlarga xos bo`lgan xossadir.

O’xshashini topish (tafakkurni mashq qildirish).

Biror predmet yoki hodisaga o’xhash bo’lgan predmet va hodisalarni sanang, masalan, “vertolyot” so’zini oladigan bo’lsak, uning ko’pgina xususiyatlariga qarab o’xshashini topish mumkin, ya’ni “qush”, “kapalak”, “ninachi”(uchadi), “avtobus”, “poezd”, (transport vositalari va h.k.). Bu mashqlar tafakkurning umumlashtirish va tasniflash jarayonini rivojlantirishga xizmat qiladi.

T A F A K K U R V A K A S B E G A L L A S H .

R e j a :

1. **Tafakkurning umumiylarini xarakteristikasi.**
2. **Tafakkur operatsiyalari..**
3. **Tafakkur shakllari.**
4. **Kasbni egallahda tafakkurning o`rni.**

T a y a n ch s o’ z v a i b o r a l a r :

Tafakkur, nuqt, logika, tafakkur psixologiyasi, uning turlari. Tafakkur operasiyasi, analiz, sintez, taqqoslash, umumlashtirish, mavhumlashtirish, klassifikasiyalash, sistemalashtirish.

Tafakkur, xususiyatiga ko’ra, shaxs faoliyatida vujudga kelgan muammo va masalalarni hal qilishga yordam beradi, muammoning yechimini topish bilan bir qatorda, muammoli vaziyatga aloqador narsa va hodisalarning noaniq xususiyatlari, ayni vaziyatdagi munosabatlariga ham aniqlik kiritadi. Tafakkur yuritishdan ko’zlangan asosiy maqsad muayyan vaziyatdagi turli munosabatlar, holatlar yuzasidan avval

alohida, so'ngra umumlashtirilgan holda olingen manbalarni o'zaro solishtirish orqali masalaga oydinlik kiritish usullarini ongda shakllantirishdir⁷.

Kasbiy tafakkur nafaqat harakatga keltirish zarur bo'lган aqliy imkoniyat, balki inson omilini faollashtirish qurolidir⁸. Shu nuqtai nazardan, ichki ishlar idoralari xodimlarining kasbiy tafakkuri deganda, o'z xizmat vazifalarini bajarishlarida muhim ahamiyat kasb etadigan voqeа, hodisa va holatlardagi umumiylikni ko'ra olish, analiz va sintez qilish, taqqoslash, asoslash va taxminiy xulosalar chiqarish jarayoni tushuniladi.

Kasbiy rivojlangan tafakkur xodimning muhim xislati bo'lib, narsalar, odamlar va ularning xatti-harakatlaridagi muhim jihatlarini bilish, ular o'rtasidagi qonuniyatli aloqalarni topish qobiliyatida namoyon bo'ladi. Xodimning tafakkuri murakkab tezkor xizmat vazifalarini bajarish, amaliy muammolarni hal etishning yangi yo'llarini topish qobiliyati. Kasbiy tafakkurni faollashtirishning asosiy usullari quyidagilardan iborat.

Kasbiy vazifani tushunish usuli. Dastlab umumiyl vazifani oddiy vazifalarga bo'lish zarur. Ishning tafsilotlari, ikir-chikirlariga e'tibor berish, hech narsani nazardan qochirmaslik, vazifani bajarishning bir necha variantlariga ega bo'lishga harakat qilish kerak.

Masalaning yechimini topish usuli. Avvalo, izlanishning dastlabki nuqtasi ajratib olinadi, bunda izlash chegaralari aniqlanadi va tartibga solinadi. Izlash yo'naliishlari tanlanadi, uyg'unlashtiriladi va qayta ko'rib chiqiladi. *Tekshirilayotgan hodisaning manzarasini fikran shakllantirish usuli.* Xodimdan umumiyl manzara va undagi elementlarning obrazli ishlovini amalga oshirish hamda shu asosda tekshirilayotgan hodisaning qolipi (sxemasi)ni shakllantirish talab etiladi (bu tezkor yoki taxminlar (tusmollar) shaklida amalga oshirilishi mumkin). Hodisaning elementlari o'rtasidagi aloqalarni ko'rib chiqish va ishslash, ularni bir butun ko'rinishga birlashtirish hamda asosiy bo'g'inni topish zarur. *Tafakkurni yo,,naltirish usuli* tadqiq etilayotgan vaziyatda ruhiy yo'naliish olish (masalan, gumon qilinuvchining xatti-harakatlari motivlarini tushunishga harakat qilish), shuningdek psixologik tahlil o'tkazish va uning asosida vaziyatning bundan keyingi rivojlanishini bashorat qilishdan iborat. Ba'zi murakkab vaziyatlarda refleksiya usulidan, ya'ni raqib nuqtai nazaridan mulohaza qilishdan foydalilanadi.

Tafakkur jarayonida nazoratni kuchaytirish usuli. Xodim o'zini nazorat qilishning so'zda ifodalangan formulalaridan («Men buni qanday qilib bajara oldimq», «Nima uchun men bunday xulosaga keldimq» va h.k.) foydalangan holda tekshirib turishi zarur. O'z xulosalari va baholarida subyektivlikka yo'l qo'ymaslikka, shaxsiy moyillik va xusumatni yo'q qilishga harakat qilishi kerak. Tafakkurni shakllantirish usullari:

- 1) mustaqil fikr yuritish, javobgarlik hissini anglash kabi shaxsiy xususiyatlarni rivojlantirish;
- 2) kasbiy masalalarni hal qilishda talab etiladigan bilim, ko'nikma va tajribani egallashga harakat qilish;
- 3) kasbiy masalalarni hal qilishda talab etiladigan bilim, ko'nikma va tajriba egallashga harakat qilish;
- 4) bir-biriga qarama-qarshi fikrlar chigalini yechish, qiyin, mavhum vaziyatlarda yechim topish mashqlarini mukammallashtirish;

5) mantiqiy fikrlash, tafakkur operatsiyalar mohiyatini anglash, masalani yechishdagi g'ayritabiiy usullar bilan tanishish;

Kishining butun hayoti uning oldiga hamisha jiddiy va kechiktirib bo'lmaydigan vazifalar va muammolarni qo'yadi. Bunday muammolarning, qiyinchiliklarning, tasodiflarning yuzaga kelishi atrofimizdagi voqelikda hali juda ko'p noma'lum, tushunib bo'lmaydigan, kutilmagan, yashirin narsalar borligidan dalolat beradi. Demak, olamni chuqurroq o'rganib, unda odamlar va narsalarning tobora yangi-yangi jarayonlarini, xususiyatlarini va o'zaro munosabatlarini ochish lozim. Tafakkur shuning uchun ham zarurki, hayot va faoliyat davomida har bir individ narsalarning qandaydir yangi, ilgari ma'lum bo'lмаган xususiyatlariga duch keladi. O'tmishdagi bilimlarimizning kamliqi bilinib qoladi. Koinot cheksiz bo'lganidek, uni bilish jarayoni ham cheksizdir. Tafakkur hamisha hali bilib olinmagan, yangilikning ana shunday cheksiz chuqur jihatlariga qaratilgan bo'ladi.

Tafakkur-jiddiy ravishda yangilikni qidirish va ochishga bog"liq, aloqador psixik jarayondir, uning tahlili va sintezi jarayonida voqelikni bavosita va umumlashtirib aks ettirish jarayonidir. Tafakkur amaliy faoliyat asosida hissiy bilishlardan paydo bo'ladi va hissiy bilish chegarasidan ancha tashqariga chiqib ketadi.

Tafakkur-bu predmet va hodisalarning umumiyligi xususiyatlarini aks ettirish, ular o'rtasidagi qonuniy aloqalar hamda munosabatlarni topish jarayonidir. Boshqacha qilib aytganda, tafakkur-bu borliqni umumlashtirilgan holda va bevosa aks ettirishdir. Tafakkur-inson aqliy faoliyatining yuksak shaklidir. Istalgan ixtiyoriy faoliyat, u xoh o'quv, xoh ishlab chiqarish faoliyati bo'lsin, uning natijalarini oldindan ko'rishni albatta talab qiladi. Biroq oldindan ko'rish uchun dalillarni umumlashtirish va shu umumlashmalar asosida xuddi shunga o'xshash boshqa dalillarga ham tadbiq etish mumkin bo'lgan xulosalar chiqarish kerak bo'ladi. Bu ikkiyoqlama yondashish yakkadan umumiyya, umumiyyadan yakkaga-tafakkur orqali amalga oshiriladi. Voqelik tafakkurda idrok va tasavvurlardagiga qaraganda chuqurroq va to'laroq aks etadi. Narsa vahodisalar o'rtasidagi eng muhim bog'lanishlar va munosabatlar tafakkur yordami bilan ochiladi. Binobarin, tafakkur insonning shunday aqliy faoliyatidirki, bu faoliyat voqelikni eng aniq (to'g'ri), to'liq, chuqur va umumlashtirib aks ettirishga (bilishga), insonning tag'in ham oqilona amaliy faoliyat bilan shug'ullanishiga imkon beradi.

Bilish faoliya sezish va idrok qilishdan boshlanadi va keyin tafakkurga o'tib ketishi mumkin. Biroq istagan tafakkur, hatto eng rivojlangan tafakkur ham hamisha hissiy bilish bilan, ya'ni sezgi, idrok va tasavvurlar bilan bog'langan bo'ladi. Tafakkur faoliyati o'zining butun «**materialini**» faqat bitta manbadan, ya'ni hissiy bilishdan oladi. Tafakkur sezgilar va idrok qilish jarayonlari orqali tashqi olam bilan bevosa bog'lanadi hamda shu tariqa olamni aks ettiradi. Bu aks ettirishning to'g'riliqi (adekvatligi) amaliy faoliyat orqli tabiat va jamiyatni amaliy o'zgartirish jarayonida uzuksiz tekshirilib turiladi. Bosh miya po'stining biron bir sohasi emas, balki bosh miyaning butun po'sti bajarayotgan faoliyat tafakkurning nerv-fiziologik negizidir.

Analizatorlarning miyaga borib tutashgan uchlari o'rtasida vujudga keladigan murakkab va muvaqqat bog'lanishlar tafakkur qilish uchun birinchi galda ahamiyatga ega.

Tafakkurni yo'naltirib turadigan asosiy nerv-fiziologik negiz shunday yo'l ko'rsatib turuvchi refleksdirki, bu refleks tafakkur qilish jarayonlarida katta rol o'ynaydi. Tafakkur qilish jarayoni biror psixik elementlarning shunchaki bir-biri bilan almashinishi tarzida voqe bo'lmasdan, balki alohida aqliy operasiyalar-biz idrok qilayotgan yoki tasavvur qilayotgan narsalar ustida, umumiylashgan va amalda tushunchalarga ega bo'lgan ob'yektlar ustida aqliy harakatlar qilish tarzida voqe bo'ladi.

Taqqoslash, analish va sintez, abstraksiya va umumiylashtirish, konkretlashtirish, klassifikasiya (tasnif) va sistema (tizim)ga solish aqliy operasiyalarning asosiy turlaridir.

Taqqoslash-shunday bir aqliy operasiyadirki, bu operasiya ayrim narsalar o'rtasidagi o'xshashlikni yoki tafovutni, tenglik yoki tengsizlik borligini, bir xillik yoki qarama-qarshilik borligini aniqlashda ifodalanadi. Amaliy taqqoslash bir narsani ikkinchi narsaga solishtirib ko'rيلayotganda, masalan, bir qalamni ikkinchi qalamga, o'lchov chizig'ini taxtaga va kabilarga solishtirib ko'rيلayotganda sodir bo'ladi. Taqqoslash tasavvur qilinayotgan yoki qilingan narsalarni bir-biriga fikran solishtirib ko'rish yo'li bilan hal bo'ladi.

Analiz- narsani tarkibiy elementlarga, qismlarga yoki tarkibiy belgilarga bo'lish demakdir. Analizning qismlarga uning elementlariga bo'lgan munosabati aniqlanadi. Psixologiyani o'rganish vaqtimizda har bir psixik jarayonni bir-biri bilan taqqoslabgina qolmasdan, balki, shu bilan birga, analiz ham qilamiz. O'qish mashg'uloti vaqtida tafakkurning analiz qilish faoliyati katta o'rin tutadi. Chunonchi, savod o'rgatish odatda nutqni analiz qilishdan: gapni so'zlarga, so'zlarni bo'g'lnlarga, bo'g'lnlarni tovushlarga ajratishdan boshlanadi.

Sintez-analizning aksi yoki teskarisi bo'lgan tafakkur jarayonidir. Bunda tarkibiy qismlar yagona bir butunga birlashadi. Analiz va sintez bir-biri bilan chambarchas bog'langandir, chunki fikr jarayonining ayrim bosqichlarida birinchi o'ringa analiz yoki sintez chiqadi. Sintez elementlarning, narsa va hodisalarining qismlarini bir butun qilib qo'yishdan iboratdir, amaliy analiz bo'lgani singari amaliy sintez ha bo'ladi.

«Tafakkur,-deb yozgan edi I.P.Pavlov,-albatta assosiasiylardan, sintezdan boshlanadi, so'ngra sintezning ishi analiz bilan qo'shiladi. Analiz, bir tomonidan, reseptorlarimiz, periferik uchlaringin analizatorlik qobiliyatiga, ikkinchi tomonidan esa, bosh miya katta yarim sharlarining po'stida takomil topuvchi va voqelikka muvofiq bo'limgan narsalarni voqelikka muvofiq bo'lgan narsalardan ajratib turuvchi tormozlanish jarayoniga asoslanadi».

Abstraksiya-shunday bir fikrlash jarayonidirki, bunda tafakkurda aks etilayotgan bir yoki bir necha ob'yektlarning biror belgisi (xususiyati, harakati, holati, munosabati) shu obyekt yoki ob'yektlardan fikran ajratib olinadi.t bu jarayonda ob'yektdan ajratilgan bir belgining o'zi tafakkurning mustaqil ob'yekti bo'lib qoladi. Obstraksiya odatda analiz jarayoni yoki analiz natijasida sodir bo'ladi. Abstraksiya umumiashtirish bilan bog'liqdir.

Umumiashtirish-predmetlar va xodisalarni ularning umumiylashgan va asosiy tomonlarini ajratib ko'rsatish asosida bir-birlari bilan fikran birlashtirishdir.

Klassifikasiya-ko‘p narsalarni, holatlarni, kechinmalarni guruhlarga bo‘lish. Masalan tibbiyotda kasalliklarning klassifikasiyalari mavjud: sil kasalligi, zaxm, yuqumli kasalliklar. Anatomiya fanida suyaklar klassifikasiyasini alohida o‘rganiladi.

Tushuncha-bu predmet va hodisalardagi umumiyligi va muhim xususiyatlar hamda sifatlarning kishi ongida aks etishidir. Tushunchaning ikki turi bor: birikonkret tushuncha, ikkinchisi-abstrakt tushuncha.

Muhokama-biror narsa, hodisa haqida biror nimani tasdiqlash yoki inkor qilish demakdir.

Xulosa chiqarish-tafakkurning tarixan tarkib topgan mantiqiy shaklidir.

Tafakkurning shu mantiqiy shakli vositasi bilan bir yoki bir necha ma‘lum hukmlardan yangi hukm-xulosa chiqariladi.

Fikriy qobiliyatlar haqida gapirganda ko‘pincha bu tushuncha ostida (aql) ko‘zda tutiladi. Aql olingan bilimlarni, tajribani va ularni yanada boyitishga va aqliy faoliyatda foydalanishga bo‘lgan qobiliyatni o‘z ichiga oladi. Kishining aqliy fazilatlari uning hajmi bilan belgilanadi. Tafakkur aqlning faol funksiyasi bo‘lib, mantiq qonunlari asosida takomillashib boradi. Tafakkur amaldagi aqldir. Tafakkurning jarayonidagi tushunish boshqa bir kishining og‘zaki va yozma nutqini idrok qilish va uqib olish jarayonida sodir bo‘ladi. Nutqni tinglayotganimizda yoki biror yozma matnni o‘qiyotganimizda, odatda biz o‘zimiz eshitayotgan yoki o‘qiyotgan so‘z birikmalarini to‘g‘ri idrok qilishga intilamiz.

Ayrim kishilarning tafakkuri o‘zining mazmundorligi, chuqurligi va kengligi jihatidan, mustaqilligi, samaradorligi va tezligi jihatidan turli hollarda turlicha namoyon bo‘ladi. Bular tafakkurning sifatini tashkil qiluvchi belgilardir. Kishining tafakkur faoliyati uchun uning faqat hissiy bilishi bilan o‘zaro bog‘liqligining muhim ahamiyatga ega bo‘lib qolmay, balki til bilan, nutq bilan o‘zaro bog‘liqligi ham muhim ahamiyatga egadir. Bunda inson psixikasi bilan hayvon psixikasi o‘rtasidagi prinsipial farqlardan biri namoyon bo‘ladi. Xayvonlarning elementar, juda _oda tafakkuri hamma vaqt faqat harakat tafakkurligicha qoladi; ular hech vaqt mavhum, bavosita bilish darajasiga yetmaydi. Ularning, ya‘ni hayvonlarning tafakkuri ayni chog‘da go‘yo ko‘z o‘nglarida turgan narsalarni bevosita idrok qilish bilan ish ko‘radi. Ana shunday _oda_am_e tafakkur harakat tarzidagi narsalar bilan munosabatda bo‘ladi va bunday ayoniy harakat doirasidan chetga chiqmaydi.

Faqat nutq paydo bo‘lgach, bilinayotgan ob‘yektdan ma‘lum bir xususiyatni ajratib olib, uni maxsus so‘z yordamida tasavvurda yoki tushunchada mustahkamlash, qayd qilish imkoniyati tug‘iladi. Tafakkur so‘zda o‘zining zaruriy moddiy qobiliyatiga ega bo‘ladi, tafakkur faqat so‘z orqali boshqalar uchun va o‘zimiz uchun ham bevosita reallikka aylanadi. **Inson tafakkurini, u qanday shaklda amalga oshirmsasin, tilsiz amalga oshirib bo‘lmaydi.** Har qanday fikr nutq bilan chambarchas bog‘liq holda paydo bo‘ladi va rivojlanadi. U yoki bu fikr qanchalik chuqur va asosli suratda o‘ylangan bo‘lsa, u so‘zlarda, og‘zaki va yozma nutqda shunchalik aniq hamda yaqqol ifodalangan bo‘ladi. Va, aksincha, qandaydir fikrning so‘z orqali fiodalanishi qanchalik ko‘p takomillashtirilgan, sayqallangan bo‘lsa, shu fikrning o‘zi shunchalik yaqqol va tushunarli bo‘ladi.

Inson tafakkuri til bilan, nuqt bilan chambarchas bog‘liqdir. Tafakkur zaruriy

tarzda moddiy so‘z qobig‘ida mavjuddir.

Psixologiyada tafakkur turlarining quyidagi holda va birmuncha shartli klassifikasiyasi tarqalgandir:

1. **Ko‘rgazmali harakat;**
2. **Ko‘rgazmali-obrazli;**
3. **Mavhum (nazariy) tafakkur.**

Tarixiy taraqqiyot davomida odamlar o‘z oldilarida turgan masalalarni dastlab amaliy faoliyat nuqtai nazaridan yechganlar; keyinchalik undan nazariy faoliyat ajralib chiqqan. Amaliy va nazariy faoliyat o‘zaro chambarchas bog‘langandir. «G‘oyalar, tasavvurlar va ong ishlab chiqarishi dastavval bevosita moddiy faoliyatga qo‘silib ketgan bo‘ladi...» Bu shuni anglatadi, sof nazariy faoliyat birlamchi emas, balki amaliy faoliyatning o‘zi birlamchidir. Amaliy faoliyatning taraqqiyoti davomida undan nisbatan mustaqil nazariy fikr yuritish faoliyati ajralib chiqadi.

Faqat butun insoniyatning tarixiy taraqqiyotida emas, balki har bir bolaning psixik taraqqiyoti jarayonida ham asos sof nazariy faoliyat emas, balki amaliy faoliyat asos qilib olinadi. So‘nggi faoliyat ichida avval bola tafakkuri rivojlanadi. Bog‘chagacha yosh davrida (3 yoshgacha) asosan ko‘rgazmali harakat tafakkuri bo‘ladi. Bola bilayotgan ob‘yektlarini o‘z qo‘llari bilan amaliy ravishda va go‘yo tabiiy ravishda ajratadi, bo‘laklarga bo‘ladi hamda, ayni chog‘da idrok qilinayotgan narsalarni birlashtiradi, solishtirib ko‘radi, narsalarni bir-biri bilan bog‘lab, analiz va sintez qiladi. Qiziquvchan bolalar ko‘pincha «ichida nima borligini» bilash maqsadida o‘z o‘yinchoqlarini buzib sindirib ko‘radilar.

Ko‘rgazmali-obrazli tafakkur formada ko‘pincha bog‘cha yoshidagi bolalarda paydo bo‘ladi (4-7 yosh). Bu yoshdagi bolalarda tafakkurning amaliy harakatlar bilan aloqasi garchi saqlanib qolsa ham, lekin bu aloqa avvalgidek mustahkam, to‘g‘ri va bevosita bo‘lmaydi. Bola bilayotgan ob‘yektni analiz va sintez qilishi davomida qiziqtirayotgan narsani qo‘llari bilan albatta va hamma vaqt ham ushlab ko‘rishi shart emas. Juda ko‘p hollarda sistemali ravishda ob‘yektni amaliy timirsklab ko‘rish talab qilinmaydi. Lekin barcha hollarda mazkur ob‘yektni aniq idrok qilish va yaqqol tasavvur etish shartdir. Boshqacha qilib aytganda, bog‘cha yoshidagi bolalar faqat ko‘rgazmali obrazlar bilan fikr yuritadilar va hali tushunchalarga ega bo‘lmaydilar.

Bolalar amaliy va ko‘rgazmali-hissiy tajribalari asosida ularning maktab yoshidagi davrlarida shakladgi **mavhum** tafakkur, ya‘ni mavhum tushunchalar shaklidagi tafakkur rivojlanadi. Tafakkur bu yerda faqat amaliy harakatlar tarzida va ko‘rgazmali obraz shaklida emas, balki avval mavhum tushunchalar va muhokamalar shaklida namoyon bo‘ladi Maktab o‘quvchilarining turli fanlar-matematika, fizika, tarix asoslarini o‘zlashtirishlari davomida tushunchalarni egallashlari ularning aqliy taraqqiyotlari uchun katta ahamiyatga egadir. Matematika, geografiya, fizika, biologiya va boshqa ko‘plab tushunchalarnimaktab ta‘limi davomida tarkib toptirish va o‘zlashtirish juda ko‘p tadqiqotlarning predmetini tashkil etadi. Bu ishlarda tushunchalarning xususan qaysi belgilari, qanday izchillikda, qanday sharoitlarda o‘quvchilar tomonidan o‘zlashtirilishi batafsil qarab chiqiladi. Maktab ta‘limining oxiriga kelib, bolalarda ma‘lum darajada tushunchalar sistemasi tarkib topadi.

Har xil odamlarda tafakkurning individual xususiyatlari eng avvalo ularda

fikrlash faoliyatining har xil va o‘zaro bir-birini to‘ldiruvchi turlari hamda shakllari turlicha nisbatda tarkib topgani uchun yuzaga keladi. Tafakkurning individual xususiyatlariga bilish faoliyiating mustaqillik, epchillik, fikrning tezligi kabi boshqa sifatlari kiradi.

Tafakkurning mustaqilligi dastavval yangi masala, yangi muammoni ko‘ra bilish va qo‘ya bilishda, undan so‘ng esa ularni o‘z kuchi bilan yecha bilishda namoyon bo‘ladi. Tafakkurning ijodiy xarakteri mana shunday mustaqillikda yorqin ifodalanadi.

Tafakkurning o‘zgaruvchanligi shundan iboratki, masalani yechishning boshda belgilangan yo‘li (plani) chiqib asta-sekin yuzaga chiqadigan va avvaldan hisobga olib bo‘lmagan muammo shartlarini qanoatlantirmasa, ana shu yo‘lni o‘zgartira olishdan iboratdir.

Fikrning tezligi xususan shunday hollarda kerak bo‘ladiki, ba‘zan (masalan, jang paytida, avariya paytida) kishidan biror qarorni juda qisqa muddat ichida qabul qilish talab qilinadi. Fikrning tezligi maktab o‘quvchilariga ham kerakdir.

Tafakkurning yuqorida ko‘rsatilgan barcha va juda ko‘p sifatlari uning asosiy sifati yoki belgisi bilan chambarchas bog‘liqdir. Har qanday tafakkurning eng muhim belgisi, uning ayrim individual xususiyatlardan qat‘iy nazar muhim tomonlarini ajratib, mustaqil ravishda tobora yangi umumlashtirishlarga kela bilishdan iboratdir. Kishi o‘yayotgan paytda, bu o‘yning hatto juda yorqin, qiziq, yangi va favqulodda bo‘lishiga qaramay, biror narsa yoki hodisalarini sharxlash bilan cheklanmaydi. Tafakkur mazkur hodisaning mohiyatiga chuqur kirgan va tashqi jihatdan bir-biridan farq qilishidan qat‘iy nazar, ozmi yoki ko‘pmi bir xil hodisalarini barchasining umumiylaraq qiyot qonunini kashf etgan holda zarur ravishda oldinga qarab boradi.

Nutk. Nutk-bu ogzaki kommunikasiya, ya’ni til yordamida munosabat kilish jarayoni demakdir. Ijtimoiy tajribada biron-bir moxiyatni anglatadigan suzlar ogzaki kommunikasiya vositasi xisoblanadi. Suzlar eshittirib yo ovoz chikarmasdan aytilishi, yozib kuyilishi, yoki kar-sokov kishilarda biron-bir moxiyatga ega bulgan imo-ishoralar bilan almashtirilishi (buni xar bir xarf barmoklar xarakati bilan iodatiligan daktiologiya va imo-ishora butun bir suz yoki suzlar turkumini anglatadigan imo-ishorali nutk deb ataladi) mumkin. Kuyidagi nutk turlari fark kilinadi: yozma va ogzaki nutk. Uz navbatida ogzaki nutk dialogik va monologik nutklarga ajratiladi. Ogzaki nutkning eng sodda turi dialog, ya’niallakanday masalalarni birlashtirishda muxokama kilayotgan va xal etilayotgan xamsuxbatlar tomonidan olib boriladigan suxbat xisoblanadi. Gapirishayotganlarning bir-birlariga lukmalari, suxbatdoshidan keyin iboralarni va ayrim suzlarni takrorlash, savollar berish, kushimchalar kilish, izox berish, fakat suzlashayotganlar tushunadigan sha’malar kilish, turli xil yordamchi suzlar va undovlar suzlashuv nutki uchun xos xususiyatdir. Bu nutkning uziga xos xususiyatlari kup jixatdan xamsuxbatlarning xamjixatligi darajasiga, ularning uzaro munosabatlariga boglik buladi. Aksariyat xamma joyda xam pedagog oilaviy muxitdagiligi dialogni xech kachon sinfda ukuvchilar bilan munosabatda bulgani kabi olib bormaydi. Suzlashuv chogida xissiy xayajonlanish darjasasi katta axamiyatga ega buladi. Iymangan, xayratlangan, kuvongan, kurkkan, jaxli chikkan kishi xotirjam xolatidagi kabi gapirmaydi, uzgacha oxangdagina gapirib kolmasdan, balki kuperinchalashuv suzlarni, iboralarni ishlatadi.

Ogzaki nutkning ikkinchi bir turi monolog nutk bulib, uni bitta kishi boshkasiga yoki uni tinglayotgan kuplab kishilarga karata gapiradi: bunga ukituvchining xikoyasi, ukuvchining kengaytirilgan javobi, doklad va shu kabilar kiradi. Monologik nutk tuzilishi jixatidan juda xam murakkab bulib, fikrning tugallanganligini, grammatik koidalarga ancha kat'iy amal kilinishini, monolog aytayotgan kishining bayon etmokchi bulgan fikrda kat'iy mantik diologik va izchillik bulishini takozo etadi. Monologik nutkni egallahash nutkka nisbatan katta kiyinchiliklar tugdiradi, uning kengaytirilgan shakllari ontogenetika (yuzaga kela boshlaganidan takomillashuviga kadar) kechikibrok rivojlanadi, ukuvchilarda bu nutkni shakllantirish maxsus vazifa xisoblanadi va pedagoglar uni ta'limning kator yillari mobaynida bajarishlariga tugri keladi. Kiynalmasdan, bemalol suxbatlasha oladigan, lekin oldindan yozilgan tekstdan foydalanmasdan monologik xarakterga ega bulgan ogzaki axborot (doklad, keng ma'ruza va shu kabilar) bilan chikishga kiynaladigan katta yoshli odamlar xam uchrab trishi tasodifiy xol emas. Kupincha bu ukituvchilarning ukuvchilarda monologik nutkni shakllantirish ishiga e'tibor bermaganliklari okibati xisoblanadi.

Yozma nutk insoniyat tarixida ogzaki nutkdan ancha keyin paydo buldi. U bir-birlaridan makon va zamon bilan ajralib turuvchi odamlar urtasida munosabat kilish extiyojining natijasi sifatida paydo buldi va fikr shartli sxematik suratlar yordamida ifoda etiladigan paytlardagi piktografiyadan minglab suzlar bir necha unlab xarflar yordamida ifoda etilayotgan xozirgi zamon yozuviga kadar rivojlandi.

Yozuv tufayli odamlar tuplagan tajribani avloddan avlodga eng yaxshi tarzda yetkazish imkonи tugildi. Negaki, ogzaki nutk yordamida utkazilgan takdirda u buzulishi, uzgarib va xatto beiz yukolib ketishi mumkin edi. Yozma nutk fanda foydalaniladigan murakkab umumlashmalarning rivojlantirilishida, badiiy timsollar (obrazlar) ni yetkazishda muxim rol uynaydi. Bolaga ta'lim berishning dastlabki kunlaridanok rivojlantirilishi matabning eng muxim vazifikasi bulib xisoblanadigan yozuv va ukuv bolaning aqliy saviyasini kengaytiradi xamda bilimlarni egallahash va bayon kilishning eng muxim vositasi xisoblanadi. Yozma nutkdan foydalanish mumkin kadar tugri ta'rif berilishiga erishish, logika va grammatika koidalariiga kat'iyrok amal kilish, mazmun va fikrlarni ifoda etish usuli ustida chukurrok muloxaza yuritish imkoniyatini yaratadi. Kupincha biron-ir narsani yozib kuyish-bu uni yaxshi anglab olish va eslab kolish demakdir.

Nutk mexanizmi. Nutk uzining fiziologik negiziga kura eshitish va xarakat analizatorlari faoliyatini bajaradi. Miya kobigida tashki olam tomonidan buladigan turli xil kuzgatuvchilar bilan suzlarning talaffuz kilinishini boshkarib turadigan tovush paychalari, xikildok, til va boshka a'zolar xarakati urtasidagi muvakkat boglanishlar urnatiladi. Nutk ikkinchi signallar sistemasi negizida amal kiladi. Suz, I.P.Pavlov aytganidek, "signallar signali"dir. Suzlar birinchi signallar sistemasi signallarini, olamning timsolllar tarzida mavjud bulgan turli-tuman taassurotlarni xabar kilgan xolda bevosita kuzgatuvchilar keltirib chikaradigan ta'sirlarga turtki berishi mumkin. Suzlar va ularning birikmalari xar doim miyada birinchi signallar sistemasi signallarining mavxumlashtirilishi, umumlashtirilishi va kayta ishlanishi natijasi xisoblanadi. Ogzaki munosabatdek murakkab jarayon uni ta'min etuvchi mexanizmlarning izchillik bilan xarakatga keltirishga tayanadi. Nutkni

programmalashtirish-nutkiy ifodaning, ya'ni kishi bildirmokchi bulgan fikrning ma'naviy uzagini tuzish birinchi boskich xisoblanadi. Buning uchun inson muxim deb xisoblaydigan axborot ajratib olinib, yaroksizlari, ya'ni ikkinchi darajalilari bir chetga surib kuyiladi. Ikkinci boskich-jumlaning sintaktik strukturasini tuzishdan iboratdir. Iboraning umumiyl tuzilishi, uning grammatic shakli taxmin kilib kuriladi. kerakli suzlarning kidirib topilishini, ularni eng anik talaffuz etadigan tovushlarning tanlanishini ta'min etadigan mexanizmlar ishga solinadi. Va nixoyat, jumani ovoz chikarib aytila boshlaydi, ya'ni nutk real tarzda ruyobga chikadi. Shunday kilib, "gapirosh" jarayoni boshlanadi. Bu jarayon davomida kommunikator uzatilishi lozim bulgan axborotni kodlashtiradi. xamsuxbat (resipiyyent) tinglash jarayonida olinga axborotning kodini ochadi. Bu uz navbatida eshitilgan nutkning tovushlarini boskichma-boskich suzlar moxiyatiga aylantirishdan iborat bulib, kommunikatorning aytmokchi bulgan suzi anglab yetilishini ta'minlaydi. Tinglovchining unga xabar kilingan narsani tugri tushunganligi kommunikator uchun fakat resipiyyenning uzi kommunikatorga aylanib (kommunikativ rollar almashgan xolda), unga xabar kilingan narsani kabul kilgani va tushunib yetganini ma'lum kilganidan keyingina anik-ravshan buladi. Diologik munosabatda kommunikativ rollar navbatma-navbat uzgarib turadi, natijada sekin-asta xamjixatlar tarikb topadi. Mulokat kilayotganlarning xattixarakatlari va xulk-atvori muvofiklashgan bulish extimoli tugiladi. Buning birgalikda faoliyat kursatishda biron natijaga erishib bulmaydi.

Nazorat uchun savollar:

1. Tafakkur haqida umumiyl tushuncha.
2. Tafakkur jarayon sifatida.
3. Tafakkurning individual xususiyatlari.
4. Tafakkur turlari.
5. Nutq haqida ma'lumot.
6. Nutqning asosiy turlari.

Reja:

- 1. Muloqot haqida tushuncha.**
- 2. Muloqot turlari va vazifalari.**
- 3. Muloqotning verbal va noverbal vositalari.**
- 4. Muloqot - shaxslararo o`zaro ta`sir etish.**
- 5. Muloqot insonlarning bir - birini tushunishi.**
- 6. Muloqot texnikasi va usullari**

Mavzu bo`yicha tayanch tushunchalar:

Afaziya — bosh miya po`stloq qismidagi markazlar faoliyatining shikastlanishi natijasida nutqning buzilishi.

Dialogik nutq — ikki yoki undan ortiq ishtiroqchilar birday faol bo`lgan nutq turi.

Ichki nutq — insonning tovushsiz nutq faoliyatining o`ziga xos turi, tafakkurning asosiy quroli.

Identifikatsiya — o`zini boshqa kishining o`rniga qo`yish orqali unga tenglashtirish.

Kommunikatsiya (psixologiyada) — til yoki boshqa belgilar vositasida axborot berish.

Muloqot — ikki yoki undan ortiq kishilar o`rtasidagi axborot ayrboshlash, o`zaro ta`sir

va bir - birini tushunishdan iborot jarayon.

Monologik nutq — bir kishining o`ziga yoki boshqalarga yo`naltirilgan nutqi.

Refleksiya — sub`ektning u bilan munosabatga kirishgan sherigi tomonidan qay tarzda idrok etilishini anglab etish.

Stereotiplashtirish — xulq - atvor shakllarini tasniflash va ularni hozirgacha ma`lum va mashhur deb sanalgan, ya`ni ijtimoiy qoliplarga mos keladigan hodisalar jumlasiga kiritish yo`li bilan ularning sabablarini izohlash.

Til — so`z belgilari yig`indisi.

1. Muloqot haqida tushuncha

Insonning uning o`rab turgan olamga o`zaro ta`siri ob`ektiv munosabatlari tizimida namoyon bo`ladi, ob`ektiv munosabat va aloqalar so`zsiz har qanday real guruhlarda paydo bo`ladi. Guruh a`zolarining bu ob`ektiv o`zaro munosabatlari sub`ektiv shaxslararo munosabatlarda aks etadi. Har qanday ishlab chiqarish odamlarning o`zaro birlashishini talab qiladi. Hech bir kishilik jamiyati agar unda odamlar bilan munosabat o`rnatalmasa, ular bir - birini to`g`ri tushunmasdan to`laqonli, birgalikdagi faoliyatni tashqil eta olmaydi. Masalan, o`qituvchi o`quvchilarga biror narsani o`rgatish uchun ular bilan munosabatga kirishishi kerak.

Muloqot kishilarning hamkorlikdagi faoliyati ehtiyojlari asosida tug`iladigan ular o`rtasidagi aloqa rivojlanishining ko`p qirrali jarayonidir. Muloqot hamkorlikdagi faoliyat qatnashchilari o`rtasida axborot almashinishni o`z ichiga oladi, bu muloqotning kommunikativ tomonini ifodalaydi. Odamlar bir - biri bilan munosabatga kirishishda tildan muomala vositasi sifatida foydalanadilar. Muloqotning ikkinchi tomoni muomalaga kirishuvchilarning o`zaro ta`siridir. Bunda faqat so`zlar emas, balki harakat va holatlar ham almashinadi. Masalan, sotuvchi bilan haridor o`rtasida biror so`z aytmasdan muomalaga kirishish mumkin. Muloqotning uchinchi tomoni muomalaga kirishuvchilarning bir - birini idrok qilishidir. Muomalaga kirishuvchilarning bir -birini to`g`ri tushunishi muhim ahamiyatga ega. SHunday qilib, muloqotning shartli uch tomonini ajratish mumkin: kommunikativ (axborot berish), interaktiv (o`zaro ta`sir) va pertseptiv (o`zaro idrok qilish).

Muloqotning bu uch tomonining birligi muomalaga kirishuvchi kishilarning o`zaro munosabati va hamkorlikdagi faoliyatining tashqil etish usuli sifatida namoyon bo`ladi. Muloqotning qonuniyatlarini, malaka va qobiliyatlarining shakllanishi bilish pedagog uchun g`oyat muhimdir. Bu to`laqonli pedagogik muloqotni yoki muomalani yo`lga qo`yishini ta`minlaydi. Pedagogik muloqot-pedagog va o`quvchilarning o`zaro ta`sir etish usullari yig`indisidir. Muloqotning mazmuni - axborot almashish, o`qituvchi tomonidan turli kommunikativ vositalar yordamida o`quvchilar bilan o`zaro tushunish va o`zaro munosabatlarni tashqil etishdir. Pedagoglarning tarbiyaviy va didaktik vazifalarni o`qituvchi hamda o`quvchilar jamoasi o`rtasida munosabatlarni ta`minlamay turib amalga oshirib bo`lmaydi.

Pedagogik faoliyatdagi muloqot:

1. O`quv vazifalarini bajarish vositasi.
2. Tarbiyaviy jarayonni ta`minlashning ijtimoiy - psixologik tizimi.
3. Ta`lim va tarbiya jarayoni muvafaqqiyatini ta`minlovchi o`qituvchi va o`quvchilarning o`zaro munosabatlarini tashqil qilish usuli.

4. O`quvchining individual xususiyatlarini tarbiyalash jarayoni sifatida namoyon bo`ladi.

Pedagog bu muloqotning o`quv tarbiyaviy jarayonlarni hissiy foni va vosita mazmunini tashqil etadi. Muloqot ikki va undan ortiq kishilar o`rtasida bilish yoki baholash tarzidagi axborot almashishda namoyon bo`luvchi o`zaro ta`sirdir.

? Faoliyat va muloqot o`rtasida qanday aloqa mavjud?

2. Muloqotning turlari va vazifalari.

Hamkorlikdagi faoliyatda zaruriyat tufayli inson boshqa kishilar bilan birlashishi, ular bilan munosabatga kirishishi, aloqa o`rnatishi, o`zaro tushunishga erishishi va kerakli axborotni olishi, shunga mos javobni berishi kerak. Bunda muloqot faoliyatning bir tomoni, uning axborot aspekti-kommunikatsiya sifatida namoyon bo`ladi. Biroq predmet yasash bilan birga inson o`zi yasagan predmetda o`zini “translyatsiya” qiladi, ya`ni o`zini boshqalarda davom ettiradi. Hosil qilingan predmet (ko`rilgan bino, yozilgan qatorlar, o`tkazilgan daraxt) bir tomonidan faoliyat predmeti, ikkinchi tomondan inson o`zini ko`rsatadigan vositadir. CHunki bu boshqa kishilar uchun hosil qilingan. SHunday qilib, faoliyat muloqotning bir qismi, uning tomoni; muloqot faoliyatning bir qismi va tomonidir. Lekin muloqot va faoliyat barcha hollarda yaxlit (buzilmas) birlikni tashqil etadi.

3. Muloqotning verbal va noverbal vositalari

? Muloqot qanday vositalar yordamida amalga oshiriladi?

Til muomala vositasidir. Til muomalaga kirishuvchilar o`rtasidagi kommunikatsiyani ta`minlaydi, chunki uni axborot beruvchi ham, uni qabul qiluvchi ham birday tushunadi. Boshqa kishiga axborot beruvchi (kommunikator) va uni qabul qiluvchi (retsipient) muloqot jarayonida bir xil tildan foydalanishi kerak, aks holda bir -birini to`g`ri tushunolmaydi. Axborot almashish muomala qatnashuvchilariga tushunarli belgi va mazmunga ega bo`lishi kerak. Til so`z belgilari yig`indisidan iboratdir. So`zning ma`nosini uning mazmuniy tomonidir. Har bir alohida odamning harakatlari va faoliyatlarini alohida odamning harakati va faoliyatlarini 3 ta muhim omil belgilaydi.

Birinchidan, butun insoniyatning yoki bir muncha tor doiradagi kishilar jamoasining ijtimoiy -tarixiy tajribasi belgilaydi. Kichkina bola dunyoni mustaqil ravishda bilab olmaydi, u ota - onasiga savollar beradi va ular unga javob beradilar, bu javoblardan bola o`z faoliyatini keyinchalik foydalanadigan umumiy bilimlarning faqat ozgina qismini oladi. Umumiy bilimlarning bu ozginagina qismini bola til shaklida, til yordamida so`z belgilari tizimida hosil qila oladi. Maktabda ham xuddi shunday bo`ladi, o`quvchi olam haqida barcha bilimlarni o`qituvchining tushuntirishidan yoki darslikdan, ya`ni til yordamida o`zlashtiradi. Bu erda til o`zining muhim vazifalaridan birini bajaradigan, ya`ni yashash vositasi ijtimoiy -tarixiy tajribani berish va o`zlashtirish vositasi tarzida namoyon bo`ladi.

Ikkinchidan, har bir alohida odamning ish -harakati va faoliyati ko`pincha ijtimoiy qiymatga ega bo`lmagan o`zga kishilarning bevosita tajribalari belgilaydi. Masalan, men oshxona tomon yo`l olaman. Yo`lda o`rtog`im uchrab menga: “oshxona yopilgan”, deydi. SHu paytda bu xabar mening faoliyatimni ma`lum bir tarzda boshqaradi: men qayrilib, boshqa oshxona tomon jo`nayman. Bu erda til o`zining boshqa muhim vazifasi bilan, ya`ni vosita yoki kommunikatsiya usuli yoki olamning

xatti -harakatlarini boshqaruvchi bir vosita sifatida namoyon bo`ladi. Natijada har qanday kommunikatsiya, har qanday munosabat suhbatdoshiga ta`sir qilishdan iboratdir.

Uchinchidan, har bir alohida odamning ish -harakatlari va faoliyatlarini har bir ayrim kishilarning shaxsiy tajribasi belgilaydi. Odamning “shaxsiy” tajribasi, o`z individual tajribasi boshqa kishilarning tajribalari va ijtimoiy tajribaning o`ziga xos aralashmasidan iborat. Odam hayvondan farqli ularoq, o`z harakatlarini rejalashtira oladi. Bunday rejalashtirishdan va umumiyl fikriy masalalarni hal qilishning asosiy quroli tildir. Bu erda biz tilning uchinchi vazifasi aqliy faoliyatning (idrok, xotira tafakkur, xayol) quroli sifatidagi vazifasiga to`qnash keldik. So`z belgilari tizimi sifatida tildan nutq faoliyatida foydalaniladi.

? Til va nutqning farqi nimada?

Nutq faoliyati - odam tomonidan ijtimoiy -tarixiy tajribani o`zlashtirish va avlodlarga berish yoki kommunikatsiya o`rnatish o`z harakatlarini rejalashtirish maqsadida tildan foydalanish jarayonidir. Til aloqa vositasi yoxud quroldir, nutq faoliyati yoki nutq esa aloqa jarayonining o`zidir. Nutq faoliyatining faol va passiv turlari farqlanadi: So`zlovchining nutqi faol nutq, tinglovchining nutqi esa passiv nutq hisoblanadi. Nutq ichki va tashqi nutqqa bo`linadi. Tashqi nutq-yozma va og`zaki nutqka, ogzaki nutq esa monolog va dialogik nutqqa bo`linadi. Monolog - bir kishining o`ziga yoki boshqalarga qaratilgan nutqidir. Bu o`qituvchining bayoni, o`quvchining to`laroq javobi, ma`ruza va boshqalardir. Monologik nutq ma`lum qiyinchiliklarga ega. Monologda gapi rayotgan kishi fikrlarning aniqligiga, grammatik qoidalarning saqlanishiga, mantiq va aytidayotgan fikrlarning izchilligiga e`tibor berish kerak. Dialogik nutqqa nisbatan monologik nutqni rivojlantirishga alohida e`tibor berishlari kerak. Ikki yoki undan ortiq kishilar o`rtasidagi nutq dialog deyiladi. Dialogik nutqda bayon qilinayotgan fikr ko`p jihatdan undan oldingi fikrga bog`liq bo`ladi. Dialogik nutqda suhbatdoshlarga ma`lum bo`lgan ayrim so`zlar tushirib qoldiriladi. SHuning uchun yozib olingan dialog boshqalarga unchalik tushunarli bo`lmasligi mumkin. Dialogik nutqda har xil turdag shablonlar, ya`ni odatlanib qolning so`z birikmasi ko`p uchraydi (qoyil, marhamat qilib aytinchchi). Nutqning ichki nutq deb atalgan turi nutq faoliyatining alohida turi hisoblanadi. Ichki nutq amaliy va nazariy faoliyatni rejalashtirish fazasi sifatida namoyon bo`ladi. Biz so`zni chala - yarim aytishimiz bilanoq tushunaveramiz. Ichki nutq ayrim og`zaki nutq aktlaridan ilgariroq, xuso`san ixtiyoriylik darajasi ancha yuksakroq bo`lgan og`zaki nutqdan ilgariroq sodir bo`lishi mumkin. YOzma nutq monologik nutqning turlaridan biri bo`lib yozma nutq monologik nutqqa nisbatan batafsilroqdir.

Noverbal kommunikatsiya vositalariga yuz ifodasi, mimika, ohang, pauza, poza (holat), ko`z yosh, kulgu va boshqalar kiradi. Bu vositalar verbal kommunikatsiya - so`zni to`ldiradi, kuchaytiradi va ba`zan uning o`rnini bosadi. Bolgarlarda boshni qimirlatish yo`q degani, ruslarniki teskarisi bo`ladi. Turli yosh guruhlarida noverbal kommunikatsiya vositasi turlicha bo`ladi. Masalan, bolalar ko`pincha kattalarga ta`sir etish, ularga o`z xohish va kayfiyatlarini o`tkazishda yig`idan vosita sifatida foydalanadilar. Axborotni so`z bilan bayon etishning mazmuni va maqsadiga noverbal

kommunikatsiya vositalarining mos kelishi muomala madaniyatining bir turidir. Bu ayniqsa pedagog uchun g`oyat muhimdir.

4. Muloqot kishilar o`rtasidagi o`zaro ta`sir etish

Kishilar muloqotga kirishar ekan, savol berish, buyruq, iltimos qilish, biror narsani tushuntirish bilan birga o`z oldiga boshqalarga ta`sir etish, shu narsani ularga tushuntirish maqsadini qo`yadi. Muloqotning maqsadi kishilarning birgalikdagi faoliyatiga ehtiyojini aks ettiradi. Bunda muloqot shaxslararo o`zaro ta`sir sifatida namoyon bo`ladi, ya`ni kishilarning birgalikdagi faoliyati jarayonida paydo bo`luvchi aloqa va o`zaro ta`sirlar yig`indisidir. Birgalikdagi faoliyat va muloqot ijtimoiy nazorat sharoitida ro`y beradi. Jamiyat ijtimoiy normalar sifatida maxsus xulq - atvor namunalari tuzilishini ishlab chiqqan. Ijtimoiy normalar ko`lami nihoyat keng - mehnat intizomi harbiy burch va vatanparvarlik xushmuomalalik qoidalari ana shular jumlasidandir. Ijtimoiy nazariya muloqotga kirishuvchilar bajaradigan rolning "repertuar"iga mos holda namoyon bo`ladi. Psixologiyada "rol" deganda ijtimoiy (sotsial) mavqeni egallab turuvchi har bir kishidan atrofdagilar kutadigan, normativ tomonidan ma`qullangan xulq - atvor namunasi tushuniladi. (yosh, mansab, jins va oiladagi, o`qituvchi va o`quvchi shifokor va bemor, katta kishi yoki bola, boshliq yoki xodim, ona yoki buvi, erkak yoki ayol, mehmon yoki mezbon rolida namoyon bo`lishi mumkin). O`z navbatida har bir rol' o`ziga mos talablarga javob berishi kerak.

Bir kishi turli muloqot vazifalarida turli rollarni bajarishi mumkin. Masalan, xizmat joyida direktor, kasal bo`lsa shifokor ko`rsatmalariga itoat etuvchi bemor, oilada keksa ota - onasining qobil farzandi, mehmondo`st oila boshlig`i bo`ladi. Turli rollarni bajaruvchi kishilarning o`zaro munosabati rolli kutishlari bilan boshqariladi. Xohlaydimi yoki yo`qmi atrofdagilar undan ma`lum namunaga mos keluvchi xulq - atvorni kutadilar. Agar rol' yaxshi bajarilmasa ijtimoiy - nazorat tomonidan baholanadi, ozmi -ko`pmi cheklanishlar qilinadi. Muloqotning bevosita muvaffaqiyatining sharti o`zaro ta`sir etuvchi kishilarning har biridan kutilayotgan harakatlarga mos keluvchi xulq - atvor namunasini qo`llanishidadir. Kishining boshqalar undan nimani kutayotganini, nimani eshitishga va unda nimani ko`rishga tayyor ekanligini to`g`ri, aniq, xatosiz ko`chira olish qobiliyati takt deb ataladi.

O`qituvchi o`quvchilar jamoasi kishilardan tashqil topganligini unutmasligi har bir o`quvchi shaxsini e`tibordan chetda qoldirmasligi kerak. O`quvchilar bilan psixologik aloqaning qisqa muddatga bo`lsada yo`qolishi, og`ir oqibatlarni vujudga keltiradi.

? Muloqotga kirishuvchilar bir - birini har doim ham to`g`ri tushunadilarmi?

5. Muloqot kishilarning bir -birini tushunishi

Muloqotning pertseptiv tomoni kishining kishi tomonidan idrok qilish, tushunish va unga baho berishdir. Boshqa kishilarni tushunib olish bilan kishi suhbatdosh bilan bo`ladigan faoliyat, aloqa istiqbolini aniqroq belgilab oladi.

Kishini kishi tomonidan idrok qilish mexanizmi.

Muomala jarayonida kamida ikki kishi ishtiroq etadi. Kishining qiyofasi, xatti - harakati asosida suhbatdosh haqida tasavvur hosil qilinadi. Bir -birini idrok qilishda quyidagi mexanizmlar g`oyat muhimdir:

- a) identifikatsiya;
- b) refleksiya;

v) stereotipizatsiya.

Identifikatsiya (lotincha tenglashtirish) tasnifini u kishiga tenglashtirish, baravarlash.

Refleksiya — (lotincha aks ettirish) - o`z fikr va kechinmalarini tahlil qilish va mulohaza yuritish, ya`ni muloqotga kirishuvchining suhbatdosh uni qanday idrok etayotganligini anglash. Kishini kishi tomonidan idrok qilishini ikqilangan oynadagi aks ettirishga o`xshatish mumkin. Odam boshqa kishini aks ettirar ekan, shu bilan birga o`zini ham aks ettiradi, agar kishi o`zi muloqotga kirishadigan kishilar haqida to`liq, ilmiy asoslangan axborotlarga ega bo`lsa, ular bilan bexato aniqlikda o`zaro ta`sir o`rnatishi mumkin. Biroq sub`ekt hamma vaqt bunday aniq ma`lumotga ega emas. SHuning uchun u boshqalar xatti - harakatining sabablarini o`ylab chiqishga majbur bo`ladi. Boshqa kishining harakatlarini tushuntirish uchun faoliyat motivlari, his-tuyg`ular, intilish va fikrlashning o`ylab chiqarilishi kauzal atributsiya deb ataladi. O`qituvchilar tomonidan bola harakatlarining shunday sababini talqin qilinishi matabdag'i pedagogik muomalani qiyinlashtiradi.

Stereotipizatsiya — grekcha o`zgarishsiz, takrorlanish degan ma`noni bildiradi. Stereotipizatsiya mos ma`lum yoki taxminan ma`lum bo`lgan voqealarni tiklash, nisbat berish yo`li bilan xulq normalarini tasniflash va ularning sabablarini izohlash demakdir. Ba`zan muomala jarayonida noto`g`ri stereotip vujudga keladi. Masalan, A.A.Bodalev tomonidan o`tkazilgan suhbatga ko`ra kishining tashqi qiyofasi va uning xarakteri haqidagi stereotip tasavvurlar ommaviyashib ketganligi tasdiqlandi. So`ralgan 72 kishining 9 tasi kvadrat ko`rinishiga ega bo`lganlar kuchli, irodali, 17 kishi peshonasi katta kishi aqli, 3 kishi sochi tikka kishilar engilmas, bo`ysunmas xarakterga ega. 5 kishi bo`yi o`rtachadan past kishilar boshqalar ustidan hukmronlik qilishga, buyruq berishga intiluvchi kishilar, 5 kishi chirolyi kishilar yo axmoq yoki o`zini sevuvchi kishilar bo`ladi, deb tasdiqlagan. Begona kishini idrok qilishda birinchi axborot, dastlabki tasavvur katta ahamiyatga ega. Kishilar tashqi qiyofasi muhim o`rin tutadi. Amerikalik psixologlar tomonidan o`tkazilgan tadqiqot bunga misol bo`la oladi. 400 ta o`qituvchilarga baholash uchun tarqatilgan ishlarni ular 200 tasi ijobiyligi, chirolyi, 200 tasi salbiy xunuk, yoqimsiz deb bergenlar. ekspertlardan tashqi qiyofasini emas, balki xarakterini ta`riflash so`ralgan edi. Afsuski baholarning sub`ektivligi kishining tashqi qiyofasini baholash bilan bog`liqdir.

Muloqotda qayta axborot. Muloqot muvaffaqiyatli bo`lishi uchun u albatta qayta aloqaga ega bo`lishi - sub`ekt o`zaro ta`sir natijalari haqida axborot olishi kerak. Kommunikator o`zi uzatgan axborotni retsipient qanday qabul qilishini va qanday munosabatda bo`layotganligini qayta axborot ma`lumotlariga asoslanib bilib oladi. Muomalada suhbatdoshni yoki tinglovchini idrok etish bir -birini tushunishning asosiy shartidir. Agar o`qituvchi o`quvchilarni uni qanday idrok etayotganligini, tushunayotganligini anglay olmasa pedagogik munosabat yaxshi bo`lmaydi. Ayniqsa, ma`ruza o`tayotganda bu juda muhimdir.

Muloqot treningi. Trening - inglizcha maxsus rejim, trenirovka degan ma`noni bildiradi. Kishilarda muloqot malakalari tasodifan yoki ta`lim mahsuli sifatida shakllanib boradi. Masalan, o`quvchilar to`liq javob berishga, o`zidan kattaga munosabat qilganda o`rnidan turishga o`rganib boriladi.

Ijtimoiy - psixologik trening:

1 - muloqot va pedagog muomala qonuniyatlarini o`rganish.

2 - pedagogik kommunikatsiya texnologiyasini egallash, kasbiy pedagogik muomala ko`nikma va malakalarini shakllantirish vazifasini bajaradi.

Psixologik - pedagogik treningni bir shakli ish o`yinlaridir.

Mavzu yuzasidan test savollari:

1. Quyidagilardan qaysi biri noverbal kommunikatsiya vositasi hisoblanadi?

a) til; v) nutq;

b) mimika va pantomimika; g) xatti – harakat.

2. Pedagogik muloqot qanday munosabat turi hisoblanadi?

a) shaxslararo munosabat; v) maishiy;

b) ish yuzasidan; g) ishlab chiqarish

3. SHaxslararo ziddiyatlar qaysi sabablar ta`sirida vujudga keladi?

a) qiziqishlarning mos kelmasligi;

b) mazmunli to`sqliar;

v) e`tiqodlarning mos kelmasligi;

g) muloqotdan qoniqmaslik.

4. Refleksiya bu:

a) muloqotdagi aks ta`sir;

b) suhbatdosh qanday tushunayotganligini to`g`ri idrok qilish;

v) kishini kishi tomonidan idrok qilish;

g) muloqotdagi o`zaro baholash.

5. Muloqot treningining vazifasi nima?

a) muomalaning umumiy qonuniyatları va texnologiyasini o`rgatish;

b) takrorlash orqali shartli reflekslar hosil qilish;

v) muomala jarayonida mashq qildirish;

g) pedagogik muloqotga tayyorlash.

Mavzu yuzasidan nazorat savollari:

1. Muomala, muloqot, aloqa, munosabat tushunchalari o`rtasidagi aloqa qanday?

2. Muloqotning asosiy vazifasini aytинг?

3. Hayvonot olamidagi munosabat qanday tabiatga ega?

4. Tilning vazifalari qanday?

5. Nutq turlariga misollar keltiring?

6. Noverbal vositalar muloqotda qanday ahamiyatga ega?

Muloqotga kirishuvchanlikni aniqlash metodikasi:

Berilgan savollarga “ha”, “yo`q”, “ba`zan” deb javob bering.

1. Ish yuzasidan uchrashuv o`tkazish kerak. Uni kutish sizni hayajonlantiradimi?

2. Vrach huzo`riga borishni oxirgi vaqtgacha qoldirasizmi?

3. Anjuman, simpozium va yig`ilishlarda ma`ruza, axborot va xabarlar bilan qatnashish sizda noxush holatni vujudga keltiradimi?

4. Sizga hech kachon bo`limgan shahrингизга xizmat safariga borish taklif qilindi. Bu safardan voz kechish uchun imkoniyatni ishga solasizmi?

5. O`z kechinmalaringizni boshqalar bilan o`rtoqlashishni yoqtirasizmi?

6. Ko`chada notanish kishi sizga iltimos bilan (vaqtini aytish, yo`lni ko`rsatib yuborish

va boshqalar) murojaat qilsa achchiqlanasizmi?

7. “Ota va bola” muammosining mavjudligi, turli avlod vaqillari bir - birini tushunishi qiyin ekanligiga ishonasizmi?

8. Tanishingizga sizdan bir necha oy avval olgan qarzini berishni unutib qo`yganini eslatishga uyalasizmi?

9. Restoran yoki oshxonada sizga sifatsiz taom berishdi. Asabiylashmay jimgina tarelkani surib qo`yasizmi?

10. Notanish kishi bilan yolg`iz qolganda siz birinchi bo`lib suhbat boshlaysizmi?

11. Turli o`zundan - uzoq navbatlardan cho`chiysizmi? (magazin, kutubxona, kino - teatr). O`z xohishingizdan voz kechasizmi yoki navbatda turib, kutasizmi?

12. Janjalli vaziyatlarni hal qiladigan komissiyalarda ishtiroq etishdan qo`rqsizmi?

13. Adabiyot, san`at, madaniyat asarlarini baholashda o`z bahongiz mavjud? Boshqalar fikrini e`tiborga olasizmi?

14. Sizga yaxshi tanish bo`lgan masala yuzasidan xato fikrni eshitib, jim tura olasizmi?

15. Biror kishi u yoki bu xizmat yuzasidan muammoni hal qilish uchun yordam so`rasa norozilik tug`iladimi?

16. O`z nuqtai nazaringizni (fikringizni) og`zakiga qaraganda yozma holda to`la bayon eta olasizmi?

Har bir “ha” javob uchun — 2 ball, “ba`zan” javobi uchun — 1 ball, “yo`q” javob uchun — 0 ball beriladi. Umumiy ball qo`sib hisoblanadi.

30 - 32 ball — Siz muloqotga kirishishga qiynalasiz. Lekin sizning tanishlaringizga ham qiyin. CHunki guruhiy bajariladigan vazifalarda sizga ishonish qiyin.

25 - 29 ball — Siz kamgap, yolg`izlikni yoqtiradigan kishisiz. YAngi ishdagi aloqalar sizni anchagacha muvozanatdan chetga chiqaradi.

19 - 24 ball — Siz ancha muloqotga tez kirishuvchisiz, notanish vaziyatda o`zingizni yaxshi tutasiz. YAngi muammolar sizni cho`chitmaydi. YAngi tanishlar bilan silliq munosabatda bo`lasiz.

14 - 18 ball — Sizda muomalaga kirishish normada. Ko`p narsani bilishga qiziqasiz, suhbatdoshingizni yaxshi tinglaysiz, boshqalar bilan suhbatda o`zingizni bosiq tutasiz, o`z fikringizda qat`iy turasiz. Lekin turli shovqinli, ko`p gaplar bo`ladigan vaziyatlar sizda qo`zg`alishni vujudga keltiradi.

9 - 13 ball — Siz normada yuqori darajada muloqotga kirishuvchansiz. Ko`p narsani bilishga, ko`p gapirishga, turli mavzularda fikrlashni bayon etishga harakat qilasiz. Odamlar bilan tez tanishasiz, barchani e`tiborida bo`lishga, qo`lingizdan kelmasa ham boshqalar iltimosini bajarishga harakat qilasiz.

4 - 8 ball — Haddan tashqari muomalaga kirishuvchansiz. Barcha sohalar bo`yicha ma`lumotga egasiz. Turli bahs va tortishuvlarda ishtiroq etishga harakat qilasiz. Har qanday mavzuda, u sizga judayam yuzaki tanish bo`lsa ham so`z olishingiz mumkin. Har qanday ishni uddasidan chiqa olmasangiz ham harakat qilib ko`rasiz.

3 - va undan kam ball bo`lsa juda ko`p gapirasiz, o`zingizga aloqador bo`lmagan narsalarga ham aralashaverasiz. Boshqalar uchun siz bilan, uyda, ishda va boshqa joyda muomalada bo`lish juda qiyin.

10-mavzu: Kasbga yo'naltirish omillari va kasblarning psixologik tasnifi.

Reja:

1. **Kasbiy o'z-o'zini yo'naltirish va o'z-o'zini anglash.**
2. **Shaxsning kasbiy kamoloti.**
3. **Shaxsning o'z-o'ziga baho berishi va kasbiy o'zligini anglash.**
4. **Kasbiy kamolotdagi shaxsning motivlari.**

K.K.Platonov kasb tanlashga yo'llashning kompleks dasturini ishlab chiqib, ushbu «kasb tanlashga yullah uchburchagi» ni taklif qildi.

- Uning birinchi tomoni kasblarning kishi va uning organizmiga qo'yadigan talablari.
- Ikkinci tomoni bozor imkoniyatlari (mexnat bozori talablari, jamiyatning kadrlarga bo'lgan ehtiyojlari).
- Uchinchi tomoni o'smirning layoqati, qobiliyatlarini va imkoniyatlari.

Kasbiy maslaxat – (profkonsultatsiya) kasbga yo'naltirish tizimining bir qismi bo'lib, odamning qobiliyatlarini o'rganishga, tegishli maslaxatlar berishga, kasbiy shakllanishini ta'minlashga xizmat qiladi.

Kasbiy maslahat uch bosqichda kechadi:

- Tayyorlov;
- Yakunlovchi;
- Aniqlovchi.

Tayyorlov bosqichida oilada, umumta'lim maktabidagi o'qish davrida oladigan kasbiy maslaxatlar.

Yakunlovchi kasbiy maslahat matabni bitirish arafasida olib boriladigan ishlar bilan bog'liq holda amalga oshiriladi.

Aniqlovchi kasbiy maslaxat o'rta maktab doirasidan tashqariga chiqadi va akademik litsey, oliy o'quv yurti yoki korxona, tashkilot, muassasalarda va xalq xo'jaligining turli sohalarida davom etadi.

Kasb tanlashning asosiy tarkibiy qismlari: kasbiy axborot, kasbiy maslaxat, kasbiy tanlov va saralash, kasbiy moslashish.

Kasbiy axborot – axolining turli toifalarini zamonaviy ishlab chiqarish turlari, mexnat bozorining xolati, xo'jalik majmuasining malakali kadrlarga bo'lgan extiyojlari, kasblar bozorining kelajakdagi rivojlanishi, kasblarni o'zlashtirishning shakllari va sharoitlari, mexnat faoliyati jarayonida kasbiy malakaviy o'sish va o'z-o'zini takomillashtirish imkoniyatlari bilan tanishtirish;

Kasbiy maslaxat – insonga o'zining psixologik xususiyatlari va imkoniyatlari, xamda jamiyatning extiyojlarini xisobga olgan xolda kasbiy yo'lini tanlash bo'yicha ongli ravishda qaror qabul qilish maqsadida kasbiy o'zligini aniqlashda yordam ko'rsatish;

Kasbiy tanlov – insonga psixologik, psixofiziologik, tibbiy tashxis asosida o'zining psixologik, fiziologik xususiyatlariga ko'proq mos bo'lgan turli kasbiy yo'nalishlar to'g'risida tavsiyalar berish;

Kasbiy saralash – insonning ma'lum kasb (ish o'rni)ga tegishli me'yoriy talablarga mos ravishda kasbiy loyiqlik darajasini aniqlash;

Kasbiy ishlab chiqarish va ijtimoiy moslashuv – xodimning kasbiy shakllanishiga, unda tegishli ijtimoiy va kasbiy sifatlarning faol ijodiy mexnatga va moxirlikning yuqori darajasiga erishishga bo’lgan yo’nalish va extiyojlarning shakllanishiga yordam beruvchi tadbirlar tizimi.

Yuqorida ko’rsatilgan faoliyat yo’nalishlarini majmuaviy amalga oshirish axolini, shu jumladan maktabgacha ta’lim, umumiyo’rta ta’lim mакtablari o’quvchilarini kasbhunarga yo’naltirish ishlarida xaqiqiy tizimli yondashuvini amalga oshirish imkonini beradi. O’zbekiston xalq ta’limi tizimidagi kasbga yo’naltirish xizmatlarining xususiyatlari quyidagilar:

- maktabgacha ta’lim muassasalarida 3 yoshdan 6-7 yoshgacha;
- umumiyo’rta maktab o’quvchilarining yoshi 6-7 yoshdan 15-16 yoshgacha;

Shundan kelib chiqib, xalq ta’limi Vazirligi tizimidagi kasbga yo’naltirish xizmatlari vazifalariga yuqorida qayd etilgan kasbga yo’naltirish faoliyatining barcha yo’nalishlarini kiritib bo’lmaydi, ushbu tizimda kasbga yo’naltirish xizmatlari doirasiga ikkita asosiy yo’nalish farqlanadi:

- Kasbiy axborot – maktabgacha ta’lim muassasalari tarbiyalanuvchilari va umumiyo’rta ta’lim muassasalari o’quvchilarini zamonaviy ishlab chiqarish turlari va kasblar, mexnat bozorining xolati, xo’jalik majmuasining malakali kadrlarga bo’lgan extiyojlari, kasblar bozori rivojlanishining mazmuni va kelajagi, kasblarning shakllari va ularni o’rta maxsus, kasb-hunar ta’limi va oliy ta’lim shart-sharoitlari, kasblarning odamga qo’yiladigan talablari, mexnat faoliyati jarayonida kasbiy – malakaviy o’sish va o’z-o’zini takomillashtirish imkoniyatlari bilan (yosh xususiyatlarini xisobga olgan xolda) tanishtirish.
- Kasbiy maslaxat – umumiyo’rta ta’lim mакtablari o’quvchilariga va Shaxsnинг pedagogik – psixologik xususiyatlari imkoniyatlarini, xamda jamiyat extiyojlarini xisobga olgan xolda o’zining kasbiy yo’lini va o’rta maxsus, kasb-hunar ta’limi muassasasini (kasb-hunar kollej yoki akademik litsey) tanlash bo’yicha ongli qaror qabul qilishga yordam berish.

Bu yo’nalishlar doirasida quyidagi vazifalarni xal qilish lozim:

- **Maktabgacha ta’lim muassasalarida:**

- dastlabki pedagogik-psixologik ijtimoiy yo’nalishini amalga oshirish;
- bolalarni kasblar olami bilan tanishtirish;
- bolalarda o’yin orqali mexnat ko’nikmalarini rivojlanterish;
- yosh xususiyatlari va salomatligini xisobga olgan holda motivatsiya va qiziqishlarni shakllantirish.

- **Umumiyo’rta ta’lim mакtablari:**

- o’quv dasturlari, qo’llanmalar va umuman o’quv-tarbiya jarayonining kasbga yo’naltirish tizimiga bog’liqligini asoslash, pedagogik jamoalar, ota-onalar, tegishli tashkilot va muassasalarning ishtirokini ta’minlash;
- uzlusiz ta’lim tizimiga kasbga yo’naltiruvchi ta’sir ko’rsatishning uzlusizligi va uzbviyligini ta’minlash;
- o’quvchilarda ularning qiziqishlari, salomatligini xolatiga mos ravishda kasbtanlashga bo’lgan ongli yondashuvini shakllantirish;

- o'quvchilarni o'qishdan tashqari vaqtlarida texnik va badiiy ijodiyotga jalg qilish;
- demografik xususiyatlar davlat va xududning kadrlarga bo'lgan extiyojlari, tuman (shaxar) xalq xo'jaligi majmuasining kelajak rivojlanishini xisobga olgan xolda kasbiy ma'rifat ishlarini olib borish;
- o'quvchilarga ularning Shaxsiy qiziqishlari, qobiliyatları va moyilliklari to'la ochib berish maqsadida kasbiy maslaxat berish.

Maktabgacha va umumiy o'rta ta'lim maktablarida kasbga yo'naltirish ishlarini o'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish va pedagogik – psixologik Respublika tashxis Markazi muvofiqlashtiradi. Uning faoliyati mazmuniga, maqsad va vazifalariga quyidagilar kiradi:

- xalq ta'limi tizimida kasb–xunarga yo'naltirish bo'yicha tashkiliy, ilmiy metodik, axborot va dasturiy ta'minotni amalga oshirish;
- kasb-hunarga yo'naltirish asoslari bo'yicha ilmiy-amaliy, nazariy va tashkiliy - metodik materiallar va xujjatlarni ishlab chiqish;
- o'quvchilarni zamonaviy ishlab chiqarish turlari, mehnat bozorining xolati, kasblar bozorining taraqqiyoti u yoki bu kasb tomonidan insonga qo'yiladigan talablar.

Kasb-hunarga yo'naltirish masalasi barcha davrda bo'lgani kabi hozirgi taraqqiyot davrida ham o'zining xarakterli jixatlari bilan bog'liqdir. Ayniqsa kasb-hunar kollejlarida kasbga yo'naltirish ishlari bugungi kunning dolzarb muammolaridan biridir.

Ko'pgina tadqiqotchilar o'zlikni anglashni uzoq davom etadigan jarayon sifatida qaraydilar. Kasbiy o'zlikni anglash bu serqirra va bir necha bosqichli jarayon bo'lib, jamiyat talablari asosida hayot faoliyatning individual uslubi shakllanib boradi. Kasbiy o'zlikni anglash jarayonida imkoniyatlardan kelib chiqib mehnat taqsimoti aniqlanadi. Kasbiy o'zlikni anglashni Shaxs taraqqiyotidagi "stop-kadr" sifatida tahlil qilish kerak emas.

Ilk o'spirinlik davrida kasbiy o'zlikni anglash Shaxsni jamiyatdagi o'rini aniqlab olishida muhim rol o'ynagani bilan uning butun imknioiyatlarini ochib bermaydi. Shaxsning kasbiy tasavvurlari uning jamiyatdagi mavqeい bilan bog`liq. Kasb tanlash qaysidir ma`noda kelajakdagi ijtimoiy pozitsiyani rejallashtirishni anglatadi. Kasbiy o'zlikni anglash deganda hozirgi kunda faqatgina muayyan kasbni tanlash emas, balki tanlangan, o'zlashtirilgan va amalga oshirilayotgan kasbiy faoliyat tushuniladi. Kasbiy o'zlikni anglashga bunday izoh berilishi –bu jarayonning Shaxs taraqqiyotidagi muhim o'rini belgilab beradi.

Yosh davrlarda turli kasblar haqidagi tasavvurlar boyib boradi. Yoshlarning kasbiy o'zligini anglashiga kasblar haqidagi bilimlari, yaqinlarning nuqtai nazarlari va Shaxsning qobiliyatları o'z ta'sirini o'tkazadi.

Fantastik tanlov bosqichida (11 yoshgacha) bola kelajak haqida o'ylaydi, lekin maqsad va vositalarni bir biriga bog`lay olmaydi. Ushbu bosqichdagi dastlabki tanlovda kasblar haqidagi tasavvurlar voqelikka mos kelmasligi, kasbiy faoliyatga yetarli darajada moyillikning yo'qligi bilan kechadi.

O'smir yoki ilk o'spirin o'zining intellektual taraqqiyotiga tayangan holda real sharoitlar bilan juda qiziqadi, lekin o'z kuchi va imkoniyatlariga ishonmaydi-bu dastlabki tanlov bosqichidir (16-19 yosh). Sekin astalik bilan uning diqqat –e'tibori

sub`ektiv omillardan real vogeliklar sari siljib boradi. Bir necha variantlar orasidan reallikka yaqinroq kasblar turini ajratib ola boshlaydi.

Real tanlovlardan bosqichida (19 yoshdan yuqori) bola o'z qobiliyatlar, Shaxsiy qadriyatlar tizimiga mos bo'lgan, uning imkoniyatlarini to'la ochib beruvchi kasblar to'g'risida mushohada yurita boshlaydi.

Kasbiy o'zlikni anglash muammosi N.S.Pryajnikov tomonidan umumlashtirilgan bo'lib, kasbiy o'zlikni anglashning psixologik negizini quyidagi omillar tashkil etadi:

- ijtimoiy foydali mehnat qadrini anglash;
- mamlakatdagi ijtimoiy-iqtisodiy vaziyatga yo'nalganlik;
- to'liq o'zlikni anglash va o'z imkoniyatlarini chamlash;
- kasbiy mehnatga yo'nalganlik;
- kelgusidagi kasbiy maqsadlarni ajratib olish;
- kasbiy maqsadlarni boshqa hayotiy maqsadlar bilan muvofiqlashtirish;
- maqsadli bilim olish;
- maqsadga erishini qiyinlashtiruvchi to'siqlarni aniqlash.

Tadqiqotchilar va amaliyotchilar tomonidan kasbga yo'naltirishning usul va usuliyatlari ishlab chiqilgan. Kasblarni xususiyatlariga qarab tasniflash va ularni ma'lum tartibga solib ifodalab berishga erishilgan. Bu borada E. A. Klimovning sxemasi alohida ahamiyatga ega. U quyidagi kasb turlarini tavsiya qiladi:

1. Polizchi, chorvador, asalarichi, zootexnik, agronom, o'rmonchi — biologiya mutaxassisligi «inson — tabiat» tizimi.
2. Chilangar, tokar, montyor, konstruktor, radio-texnik, muhandis — texnika mutaxassisligi «inson — texnika» tizimi.
3. Sartarosh, sotuvchi, shifokor, hamshira, o'qituvchi, tarbiyachi, menedjer — «inson — inson» tizimi.
4. Xisobchi, nusxa ko'chiruvchi, statist, operator, dispatcher, noshir, arxitektor — “inson-shartli belgilari” tizimi.
4. Bo'yoqchi, musiqachi, badiiy bezovchi yoki pardozlovchi, bastakor, aktyor, rejissyor, yozuvchi — «inson — badiiy obraz» tizimi.

Oddiyoq ifodalansa, kasblarni tabiatga xizmat qilishga, texnikaga xizmat qilishga, insonga xizmat qilishga va badiiy obrazlar ustida ishlashga doir kasblarga ajratish mumkin, lekin mazkur kasblar tasnifida ularning ko'pchiligi ifodalanmagan shu guruhlarga o'nlab yondosh kasb — hunarlarni kiritish mumkin.

Yuritilgan mulohazalardan ko'rinish turibdiki,; kasb-hunar to'g'risida axborotlar, maslahatlar berishning o'zi ongli ravishda kasb tanlash uchun etarli emas. Shunga ko'ra o's'irin o'quvchilarning bilish faoliyatini kuchaytirish, ularni mustaqil bilim olishga o'rgatish ularga o'zlarini muayyan faoliyatda sinab ko'rish imkoniyatini yaratadi. Lekin kasbga yo'naltirishning boshqa yo'l va vositalarini ham qidirish va qo'llash kerak.

Mehnat psixologiyasining mutaxassislari kasbga yo'naltirishning boshqacha usullarini: barcha fanlarni o'qitishning politexnik jihatini chuqurlashtirishni; tabiiy-matematik fanlarda atrofdagi ishlab chiqarishdan ob`ekt sifatida foydalananishni; ijtimoiy turkumdagagi fanlarni o'qitishda o'lkashunoslik materiallarini qo'llab o'quvchilarning kasbga qiziqishni oshirish, mehnatga ishtiyoq uyg'otishni: darslarda kasblar haqida axborotlar berib borishni; mehnat sohalari bilan o'quvchilarning mustaqil tanishishi

uchun sharoit yaratishni tavsija etmoqdalar.

Qishloq maktablarida kasb tanlash bo'yicha qo'shimcha imkoniyatlar ham mavjud. Chunonchi yozda yuqori sinf o'quvchilarini ishlab chiqarishga bemalol jalg etish mumkin. Bunda jismoniy mehnatga o's'irinlarni qiziqtirish, mehnat nashidasidan bahramand etish, ularda mammuniyat hissini tarkib to'tirish, ularda rejali mehnat qilish ko'nikmasini vujudga keltirish, javobgarlik va mas'uliyat hissini tarkib to'tirish lozim.

Kasb tanlashda o'spirin yigit-qizlarda qator maqsadlar vujudga kelishi mumkin. Dastlabki maqsad bosh maqsad deb ataladi va u umumxalq mehnatiga o'z ulushini qo'sha olamanmi, qanday inson bo'lib etishaman, hayot va faoliyat ideallarim nimalar bo'lishi dozim, degan fikrlardan iborat bo'ladi. Yaqin va yaqqol maqsad — dastlabki faoliyat sohasi, mutaxassislikni qanday va qaerda egallash, o'qishni tugatgach, dastlabki mehnat faoliyat qaysi lavozimdan boshlanishi, mehnat mahoratini oshirish istiqbollari haqidagi mulohazalardan tashkil topadi.

Psixologik nuqtai nazardan maqsadga erishishning tashqi va ichki shart-sharoitlari mavjud. Tashqi sharoitlarga maqsad yo'lidagi har xil qiyinchiliklar, qaramaqarshiliklar, ziddiyatlar, muassasa yoki tashkilotning imkoniyatlari, yosh kasb egasiga ko'rsatishi mumkin bo'lgan qarshiligi kiradi.

Maqsadga erishishning ichki shart-sharoitlariga Shaxsning imkoniyatlari, sihat-salomatligi, aqliy qobiliyati, tirishqoqligi, irodaviy sifatlari chidamliligi, sabr-toqati, tanlagan kasbi bo'yicha ishlashi uchun zarur fazilatlari kiradi.

Psixologiya fanida maqsadga erishish faoliyatining qo'shimcha, yordamchi turlari ham amalda uchrab turadi. Ular asosiy maqsad vositalari ish bermay qolganda qo'llanadi. O's'irinlar tajribasida shunday hollar ro'y beradiki, asosiy maqsadni amalga oshirishda, engish qiyin to'siqlarga duch kelinadi, ana shundagina yordamchi vositalardan foydalaniladi. Bunday holatni tasavvur etish uchun o's'irinlar tajribasidan quyidagi ko'chirmani keltiramiz: «Konkurs bo'yicha yaqin oradagi hunar-texnika bilim yurtiga kira olmayman, shuning uchun xuddi shu mutaxassislik bo'yicha boshqa bilim yurtiga kirish uchun harakat qilaman...» Kasb tanlovchi o's'irinning mulohazasidan ko'rilib turibdiki, u bir emas, balki bir nechta qo'shimcha maqsaddan foydalanishga intilya'ti. SHunga o'xhash maqsadga erishishning qo'shimcha, yordamchi yo'l va vositalari uchrashi mumkin. Qo'yilgan maqsadni ro'yobga chiqarish uchun intilish kasb tanlash jarayonida o's'irinlar Shaxsiyatida jur'atlilikni vujudga keltiradi. Bu fazilat o's'irin Shaxsining ajoyib yutug'idir

Yuqori sinf o'quvchilarining professiogramma bilan tanishishida asosiy maqsad quyidagi tarkibiy qismlarni, jihatlarni o'z ichiga qamrab oladi:

a) asosan mehnat qurollari — kasb tanlovchining diqqati, shijoati, fikr-xayoli xuddi shu qurollariga qaratilgan va yo'naltirilgan bo'lishi kerak;

b) asosiy mehnat operatsiyalari: mehnat quroli bilan qanday faoliyatni amalga oshirish imkoniyati mavjudligini aniqlash va qaysi sohalarda ishlatish mumkinligini bilish; ishlab chiqarish jarayonidagi o'eratsiyalarning rolini to'g'ri tasavvur qila olish; operatsiyalarning yangi variantlarini qidirib to'ish uchun harakat qilish;

s) asosiy qurollar va vositalar;

d) mehnat sharoitlari: kasb tanlovchini qurshagan tabiiy muhit va sharoitlar, kishilar va hokazolar.

Yuqoridagi mulohazalarga asoslanib, o's'irlarlari o'z qiziqishlari, mayl, ehtiyoj, iqtidor, qobiliyat, ko'nikma va malakalarini hisobga olgan holda kasb tanlashga yo'naltirish jamiyatning rivoji uchun 'uxta zamin hozirlaydi.

Ma'lumki, xalqimiz qadimdan yosh avlod tarbiyasi, xususan yoshlarni mehnatga tayyorlash, ularga hunar o'rgatishga alohida e'tibor berib keladi. Buni hunar-hunardan unar, yigit kishiga qirq hunar oz kabi maqollarimizda ham ko'rishimiz mumkin.

Bugungi kunda har bir insonning kasblar olamida o'z o'rnini to'ishi, kasbiy o'zligini anglashi, jamiyatda o'z o'rnini to'ishga intilishi va unga qiziqishi kun sayin ortib bormoqda. Minglab kasblar ichida qaysi birini tanlash, Shaxsning unga moyilligi, layoqati va qiziqishlarining mos kelishi yoki kelmasligini bilish, Shaxs istiqbolida muhim ahamiyat kasb etadi. Bolalarga ularni qiziqtirgan kasblar haqida ko'plab ma'lumotlar mактабгача та'lim muassasalarida kasblar olami haqidagi dastlabki tushunchalar, boshlang'ich mehnat ko'nikmalari, o'yinlar orqali beriladi.

Bu borada qayd etilgan o'quv muassasalar, korxona va tashkilotlarni tegishli kadrlar bilan ta'minlash, ayniqla: psixologlar, kasbiy maslahatchilar, psixofiziologlar, sotsiologlar va boshqalarni tayyorlashni ko'paytirish hisobiga shakllantiriladi.

Bu borada o'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish bo'yicha umumiyoq o'rta ta'lim maktablari direktori, amaliyotchi psixolog, kasb-hunarga yo'naltiruvchi, sindif rahbarlarining asosiy vazifalarini kasb tanlash ishlari bilan uyg'unlashtirib olib borishlarini tashkiliy va ilmiy-pedagogik asoslarini taxlil qilish lozim.

O'quvchilarning kasbiy layoqat, moyillik, qiziqish hamda qobiliyatlarni hisobga olinmasa quyidagi kamchiliklarni keltirib chiqarish mumkin:

- Kasb-hunarga yo'llashda o'quvchining qobiliyati va qiziqishining xisobga olinmasligi;
- O'qituvchining o'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish sohasidagi talimiyyat tarbiyaviy ishini aniq va ijodiy rejalashtirmasligi;
- O'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish tizimi hamda talim va tarbiya o'rtasida uzviy birlik va uyg'unlikning yo'qligi.

Har bir mактаб O'zbekistondagi migratsiya vaziyatini hisobga olgan holda atrofdagi ishlab chiqarish korxonalari, fermer xo'jaliklari, agrosanoat majmualari, xususiy tadbirkorlik faoliyatlarini istiqboliga tayangan holda mehnat ta'limi negizida o'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirishni belgilab oladi.

O'zlikni anglashning muhim jihatlaridan biri zamonaviy o'smirlarning obro'li kasblarga nisbatan intilishni ortishi bilan belgilanadi. O'spirinlar ko'pincha oson muvaffaqiyatga erishish va tezda boyib ketishga qiziqadilar.

Pryajnikovning fikricha, san`at, umumiyoq madaniyat, ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy fikrlar bolning kasbiy va Shaxsiy o'zini anglashga katta ta'sir etadi. O'spirinlarga jamiyat va kattalar tomonidan yordam juda zarur, lekin bu uning Shaxsiga nisbatan tazyiq ko'rinishiga o'tishi va uning mustaqilligini cheklab qo'yishish kerak emas, balki muayyan maslahat va tavsiya ko'rinishiga ega bo'lishi lozim. O'smirlik davrining oxiriga kelib umumiyoq aqliy qobiliyatlar shakllanib boradi, o'spirinlik davriga kelib ular yanada takomillashib boradi. Yuqori sindfa tahsil olish davrida o'quvchilarga qo'yiladigan talablar kuchayadi, o'quv materiallarining hajmi ortadi va topshiriqlar murakkablashib boradi. Ulardan bilish faoliyatining egiluvchanligi, universialligi,

ijodiyligi, aniqligi, kognitiv topshiriqlarni hal etishdagi mustaqilligi talab etiladi.

Kelajakka yo'nalganlik, kasbiy va Shaxsiy o'zlikni anglash bilan bog'liq vazifalarni qo'yish, psixik taraqqiyot, bilish jarayonlarining taraqqiyotida o'z aksini toadi. Yuqori sinf o'quvchilarining qiziqishi, ko'proq kelajak rejalariga bog'liq bo'lib, ularda ma'lumotlarning turli manbalariga qiziqish kuzatiladi, dunyoni bilishga bo'lgan ehtiyoj kengayadi, barqarorlashadi, mehnat va ta'limga nisbatan ongli munosabat shakllanadi. Individual yo'nalganlik va qiziqishlarni tanlash ularning hayotiy rejalar bilan bog'liq holda kechadi.

Ushbu davrda xotiraning samaradorligi oshadi, bu faqat xotiradagi ma'lumotlar zahirasining ko'payishi bilangina emas, balki ma'lumotlarni eslab qolish usullarining o'zgarishi bilan tavsiflanadi. Yuqori sinf o'quvchilarida itiyoriy eslab qolish bilan birga, ma'lumotlarni eslab qolishning eng maqbul, qulay usullari ham qo'llanila boshlanadi. Murakkab intellektual operatsiyalar analiz va sintez, nazariy umumlashtirish va mavhumlashtirish, o'z fikrini asoslash va isbotlash kabilar takomillashadi. Sabab-oqibat bog'liqligi tizimlilik, barqarorlik va tafakkurning tanqidiyligi, mustaqil irodaviy faoliyat o'spirinlar uchun xosdir.

Kasbiy va Shaxsiy anglash N.S. Pryajnikovning tomonidan olib borilgan izlanishlarning 'redmeti hisoblanadi. Uning konse'tual yondashuvi quyidagilardan iborat.

Adabiyotlar tahlili, amalga oshirilgan tadqiqot ishlari N.S.Pryajnikovga kasbiy shakllanish nazariyasi va amaliyotini boyitish imkonini beradi. Kasbiy anglash Shaxsning boshqa muhim sohalarida o'zini namoyon eta olishi bilan uzilmas aloqasini doimo ta'kidlagan holda, u shunday yozadi. "Kasbiy anglashning mohiyati aniq madaniy-tarixiy vaziyatda bajariladigan ish va butun hayot mazmunini mustaqil va anglangan holda topishdadir".

Shaxsning kasbiy anglashi bo'yicha o'tkazilgan tahlilini umumlashtirib, bu jarayonning asosiy nuqtalarini ajratishimiz mumkin:

1. Kasbiy anglash-individning kasblar olamiga va tanlangan aniq kasblar olamiga nisbatan bo'lgan tanlovli munosabati

2. O'z xususiyatlar va imkoniyatlarini, kasbiy faoliyat talablarini va ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarni hisobga olgan holda kasbiy anglash yadrosi hisoblanadi.

3. Kasbiy anglash butun kasbiy hayoti davomida amalga oshiriladi, Shaxs doim o'zgaradi, o'z kasbiy hayotini qayta anglaydi va kasbida o'zini namoyon etadi.

4. Shaxs kasbiy anglashning dolzarblashuvi, turli voqealar, ya'ni umumta'lim maktabini, o'quv yurtini tugatish malaka oshirish, yashash joyini almashtirish, attestatsiya, ishdan bo'shash va hokazolar bilan anglanadi.

5. Kasbiy anglash Shaxs muhim ijtimoiy-psixologik yetukligini tavsifi hisoblanadi.

Shaxs kasbiy anglashni tadqiq etib, N.S. Pryajnikov uning quyidagi modelini asoslab berdi:

1. Ijtimoiy foydali mehnatning qadr-qimmatini va kasbiy tayyorgarlikning zaruriyatini anglashning qadriyatli, ma'naviy asosi.

2. Ijtimoiy-iqtisodiy vaziyatda o'z yo'nalishini to'ish va tanlanadigan faoliyatni kelajakda rivojalntira olish

3. Kasbiy mehnat olamida umumiy holda o'z yo'nalishini aniqlay olish va kasbiy maqsadni ajrata olish.

4. Yaqin oradagi kasbiy maqsadlarni keyingi maqsadga eltuvchi yo'llar va vositalari sifatida aniqlash.

5. Kasbiy o'quv yurtlari va ish o'rinaliga muvofiq kasblar va mutaxassisliklar haqida ma'lumot berish.

6. Kasbiy maqsadlarga erishishni muraakkablashtiruvchi to'siqlar haqida tasavvurga ega bo'lish, shuningdek. Mo'ljallangan rejalarini amalga oshirishga qo'l beruvchi o'z fazilatlarini bilish.

7. Anglashning asosiy varianti bo'yicha muvaffaqiyatsizlikka uchragan holda, tanlov zahira variantlarining mavjudligi.

8. Shaxs kasbiy istiqbollarining amaliy yuritilishini boshlanishi va mo'ljallangan rejalarini doimiy ravishda korrektirovka etish.

Shaxs o'zini namoyon eta olish imkoniyatlarini tahlil etib, N.S. Pryajnikov kasbiy anglash bo'yicha yettita turini taklif etadi:

1). Ma'lum bir mehnat vazifada o'zini anglash turi bajarilayotgan faoliyat doirasida o'zini namoyon eta olishini nazarda tutadi. Ishchi (ayrim) o'z faoliyat mazmunini ayrim mehnat vazifalarini sifatli bajarishda ko'radi. Tanlash erkinligi va insin harakatlarining dia'azoni minimal darajada aks etishi bilan belgilanadi. Ko''ishchilariga bu bir xil va bir maromda ishlash yomon ta'sir etadi. Shuning uchun ishlab chiqarish tashkilotlari bunday ishlarni bajariladigan ishlar turini almashtirish hisobiga qo'shimcha vazifalar bilan boyitishga harakat qiladilar. Ammo shuni ham ta'kidlash lozimki, ayrim kishilar bunday mehnatdan rohatlanadilar.

2). Ish o'rnida o'zini anglash turli xil vazifalar bajarishni nazarda tutadi. Ish o'rnini ma'lum huquqlar va to'shiriqlar mehnat vositalarini o'z ichiga oluvchi cheklangan ishlab chiqish muhiti bilan belgilanadi. Bajarayotgan faoliyat doirasida o'zini namoyon eta olish imkoniyati birinchi holatda yuqoriq bo'lishi mumkin. Aniq ish joyini almashinuvi mehnat sifati va samaradorligiga yomon ta'sir etadi va ishchining qoniqmasligini keltirib chiqaradi.

3). Mutaxassislik bosqichida o'zini anglash turi ish o'rinalini sezilarsiz almashinuvi nazarda tutadi va shu ma'noda Shaxsning o'zini namoyon eta olish imkoniyatini kengaytiradi. Masalan, avtotrans'ort haydovchisi avtomashinalarning turli rusumini boshqara oladi.

4). Kasbda o'zini anglash turi bo'yicha ishchi mehnat faoliyatida bir-biriga yaqin kasblarni o'zlashtira olishi nazarda tutiladi. Ma'lumki, kasb bir qancha bir-biriga yaqin mutaxassislarini birlashtiradi. Shuning uchun avval anglash turiga nisbatan bunda ishchi faqat ish o'rnini, balki mutaxassisliklarni ham tanlaydi.

5). Hayotni o'zini-o'zi anglash turi kasbiy faoliyatdan tashqari o'zini hordiq chiqarishi, majburiy ishsizlik va hokazolar. Mazmun jihatdan bunday fikr insonning hayot tarzini tanlashi haqida bormoqda. Ta'kidlash kerakki, ko''ishchilar hayot mazmunini kasbdan tashqaridagi faoliyatda ko'rishadi. Hayotni anglash nafaqat insonning u yoki bu ijtimoiy rollarini bajarishini balki hayot tarzini tanlashini ham nazarda tutadi. Bunday holda kasb ma'lum hayot tarzini yuritish vositasi bo'lishi mumkin.

6). Murakkabroq tur-Shaxs o'zini anglashi. Bu tur hayotda o'zini anglashning oily ko'rinishi bo'lib, bunda inson vaziyat va o'z hayotining egasi bo'ladi. Bunday hollarda Shaxs kasb va ijtimoiy rollardan ko'tarilib turadi. Inson ijtimoiy rolni egallabgina qolmay, balki yangi rollarni yaratadi va qaysidir ma'noda hattoki ijtimoiy-sixologik mezon yaratish bilan shug'ullanadi va atrofdagi odamlar u haqida yaxshi muhandis, shifokor, 'edagog deb ga'irib qolmasdan, balki takrorlanmas Shaxs deb ta'riflashadi. Aytish mumkinki, Shaxs o'zini anglashi bu o'ziga xos "Men tarzini" to'ishidir doimo shuni rivojlantirib atrofdagi odamlar orasida tasdiqlashdan iboratdir.

7). Nihoyat eng murakkab tur-Shaxsning madaniyatda o'zini anglashi. Bunda qaysidir ma'noda insonning ijtimoiy adabiyligi to'g'risida ga'irishga imkon beruvchi "o'zini boshqa odamlarda davom etishi"ga yo'naltirilgan ichki faoliyat seziladi o'zini anglashning oily turi Shaxsning keng ma'noda tushuniladigan madaniyat rivojlanishiga qo'shgan hissasida namoyon bo'ladi.

Psixologik va pedagogik adabiyotlarda kasbiy o'zini belgilash jarayoniga ta'sir etadigan omillarning 4 guruhi ajratiladi. Birinchidan, ijtimoiy-iqtisodiy bo'lib u taraqqiyotning turli bosqichlarida jamiyat hayotiga kirib kelayotgan yoshlarga o'zlaridagi mavjud kuch va imkoniyatlarini sarflashga turli sohalarni taklif etadi. Birinchi navbatda bu kasblar spektri ularning o'zgarishi va rivojlanish istiqbollari jamiyatning u yoki bu mutaxassislarga ehtiyojiga daxldordir.

Ijtimoiy-psixologik omillar ikkinchi guruhni tashkil etadi. Avvalo inson maktab ta'limigacha va keyin o'sib tarbiya olgan muhit, oila, do'stlar davrasi, maktab jamoasi va shu kabilar. Ijtimoiy muhit ta'sirida Shaxsning qadriyatli yo'nalganligi kasblarning turli guruhlariga munosabati o'ziga xos ijtimoiy kutishlar ustamovka va steroti'lar shakllanadi.

Uchinchi guruh asl psixologik omillardan iborat bo'lib, bu Shaxsiy qiziqish va moyilliklar, umumiy va maxsus qobiliyatlar, aqliy va Shaxsiy rivojlanish darajasi xotira xususiyatlari, diqqat motorikasining o'ziga xosligi va shu kabilar.

Nihoyat to'rtinchi guruh individual psixofiziologik xususiyatlarni o'z ichiga olib, ulardan ko'p o'rganilgani asab tizimining asosiy xossalarni faoliyat turlariga munosabatini ta'siri masalasidir. Ular psixik jarayonlar keshishining dinamik tavsifnomalarini belgilaydi turli temperamentlar ko'rinishida ifodalanadi va ma'lum faoliyat turini bajarishiga ko'maklashadi yoki aksincha qiyinlashtiradi.

Dunyonи tushunishda voqelikdagi u yoki bu hodisalarни to'liq va aniq baholashga intilish tendentsiyasi yuzaga keladi. J.Piajening fikricha, "o'spirinlik davridagi mantiq, tafakkur-bu bola tafakkuridan farqlanuvchi murakkab kognitiv (ijodiy) tizimdir; u kattalarning tafakkuriga mos va ilmiy tafakkurning dastlabki asoslarini tashkil etadi". Mazkur yosh davrining muhim xususiyatlaridan biri shundaki, bu davrda kasb tanlov asosida maxsus qobiliyatlar rivojlanadi.

O'quvchi o'zini o'zi real baholashi va ijtimoiy talablarni istiqbolli baholashga psixologik jihatdan tayyormi? O'quvchining bu kabi baholashga tayyorgarligining ravshan mezoni kasb tanlashga oid so'rovnama bo'lishi mumkin. psixolog va sotosioglarning ma'lumotlariga ko'ra o'quvchilarni ko'p qismi maktabni tugatish davriga kelib ma'lum kasbiy maqsadlarga ega bo'lmaydi. 8-sinf o'quvchilari bilan o'tkazilgan so'rovlar shuni ko'rsatadiki, har bir o'quvchi o'rtacha 20-23 ta kasb

borligini ayta olgan. Hozirgi kunda 40 mingdan ziyod kasb borligini hisobga olsak, bu kasblar haqida bilim darajasini past ekanligini bilish mumkin. Kasb tanlashni qiyinlashtiruvchi yana bir sabab o'quvchilarda 'sixologik bilimlar madaniyatining pastligi o'z qobiliyatları individual psixologik xususiyatlari moyilliklari haqida ma'lumotlarning yetarli emasligidir.

Kasbiy o'zini anglashdagi qiyinchiliklar kasbiy yaroqlilik nima ekani, uning qanday shakllanishi bilmaslik bilan ham bog'liq. O'zini bilib olmaslik kasbiy o'zini o'zi belgilashda asosiy qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi.

Ayrim o'quvchilar ifodalangan qiziqish qobiliyat va moyillikka ega emasligiga ishonsa boshqalari naqadar ko'' qiziqish va qobiliyatga egaki tanlaydigan kasblar doirasini cheklashga qiynaladi. Ayrimlari ma'lum kasbiy maqsadlarga ega, biroq zarur kasbiy ifodalangan sifatlarga ega emas. O'quvchilarning aksariyat ko'pchiligi hatto ota-onalar ham ko'pincha kasb tanlashda mehnat faoliyatga asosiy e'tibor bermasdan balki ta'lim muassasasini yoki o'quv faoliyatini hisobga olib tanlashni mo'ljallaydilar. Bu tanlov u yoki bu fanga qizishlariga asoslanadi. Kasbiy o'zini-o'zi anglash jarayonidan oldin katta o'smir va o's'irinlik davri kasbni birlamchi tanlash kichik mакtab yoshida amalgam oshadi uning uchun kasblar haqida kam differensiyalashgan tasavvurlarga xos. Bu bosqichda kamdan kam o'quvchi u yoki bu kasbni egallay olish imkoniyatlari haqida o'ylaydi, kasblar haqida esa tashqi atributlar kiyim bosh o'zini tutish va shu kabilarga qarab fikr yuritadi.

Bu yoshdagi bolalarda ko'pincha barqaror qiziqish va moyilliklar bo'lmaydi. Aynan shu davrda o'quvchilarni kasblar dunyosi bilan tanishtirish turli faoliyat turlarida o'zini sinashga imkoniyat berish lozim, ko''incha shu yosh davrida yuzaga kelgan qiziqishlar kelgusi kasbiy tanlov uchun asos bo'ladi.

7-8 sinfdan boshlab kasb tanlash va unga tayyorgarlik dolzarb bo'lgach o'quvchilar bo'lajak kasbi haqida jiddiy o'ylay boshlaydi o'zining 'sixologik va 'sixofiziologik "zahiralarning" baholashga urinadi. Maktab o'quv fanlarini yangidan avvalo bo'lajak kasbi uchun zarurligi nuqtai-nazaridan baholashni boshlaydi. Bu holda kattalarning asosiy vazifasi o'quvchiga o'zini bilishda o'z imkoniyatlari xulq motivlarini individual 'sixofiziologik imkoniyatlarini tushunishda yordamlashishi bu bilimlardan kasbiy o'zini-o'zi anglash jarayonida faol foydalanishdan iborat. Bi ishning 'irovard maqsadi-o'quvchini mustaqil o'ylab ongli ravishda kasb tanlashga yetaklash va maktab sharoitida imkonи boricha kasbga dastlabki 'sixologik tayyorgarlikni ta'minlashdir. O'quvchilarni bunday tarzda ish olib borishda guruh va individual kasbiy konsultatsiyalar shaklidan foydalanish maqsadga muvofiq.

Kasbga yo'naltirish ishining markaziy bo'g'ini o'quvchining mehnat faoliyati turlariga qiziqish va moyilliklarini aniqlash sanaladi. Ifodalangan qiziqish va moyilliги bo'lgan o'quvchilar bo'lg'usi kasbini tanlashda qiyalmaydilar. Biroq ko''lab o'quvchilar aniq qiziqish va moyilliklarga ega emas, yoki ularni bo'lg'usi kasbiy faoliyati bilan bog'lanmaydi. Moyilliklarning asosiy ko'rsatkichi o'quvchilar tomonidan faoliyatning ma'lum turi va maktab fanlaridan tashqari majburlashsiz, balki ichki undov va ehtiyojiga ko'ra shug'ullanishga intilishdir.

Psixolog V.Shubkin qiziqarli ma'lumotlarni keltirib o'tadi, ma'lum bo'lishicha maktabni bitirib chiqayotgan yoshlar fizik, radiomutaxassis, matematik, uchuvchi,

geolog, shifokor, adabiyot va san'at xodimi kasblarini juda yuqori baholar ekanlar. Xizmat ko'rsatish sohalariga oid kasblarning sotuvchilar, tikuvchilar, umumiyligi ovqatlanish, shuningdek, hisobchilik, ish yurituvchilik, bugalterlik kasblarining mavqeい juda 'ast ekan. G. Kulagin ham maktabni bitirib chiqayotganlar orasida turli kasblarning qanday mavqeiga ega ekanligi haqida asosli ma'lumotlarni keltiradi. Kasbiy niyatlarining barqarorligini o'rganish maqsadida N.I. Krilov o'tkazgan tekshirishi shuni ko'rsatadiki hatto o'z niyatlarini amalgalash oshirib oliy o'quv yurtiga kirgan talabalar orasida ham ko''lari o'zlarining kim bo'lishlarini oxirigacha hal qilmaganlar. Bunga sabab maktabni bitirgan yoshlarni mazkur oliy o'quv yurtiga olib kelgan kasb haqidagi tasavvur bilan bu kasbning haqiqiy amaliy mazmuni o'rtasidagi nomuvofiqlikdir.

Kasbiy o'zini-o'zi anglash ko'p bosqichli jarayon bo'lib unga turli xil nuqtai nazardan yondashish mumkin. Birinchidan, bu jarayonni jamiyatda shakllanib borayotgan Shaxs oldiga qo'yuvchi vazifalar sifatida qarash mumkin. Ikkinchidan, kasbiy o'zini-o'zi aniqlash qaror qabul qilish jarayoni sifatida namoyon bo'ladi. Bunda Shaxs o'z moyil va xohishlarini mavjud ijtimoiy tuzum ehtiyojlari asosida shakllantiradi. Uchinchidan u individual kasb uslubining tarkib to'ish jarayoni sifatida ifodalaniishi mumkinki, uning tarkibiy qismi kasbiy faoliyatdir.

Sotsiolog V.N. Shubkin o'tkazgan tadqiqotlarining ko'rsatishicha 17 yoshdagagi o'spirinlarning kasblar dunyosiga bo'lgan munosabatlari ota-onalari, tanish bilishlari, do'stlari, tengdoshlari, kitob, kinofilm, teleko'rsatuvsdan olingan tajribalari hamda ma'lumotlari asosida shakllanadi. O'smirlar psixologiyasida baholash va o'zini o'zi baholash, o'zini o'zi anglash muammolari bilan bevosita shug'ullanadigan psixologlar ishlariga e'tibor qaratish muhimdir. O'zini o'zi anglashning roli-katta o'quvchi Shaxsning xarakterli xususiyati o'smirlikning o'spirinlikdan o'z "Meni"ga qiziqishning ortishi hisobiga farqlaydi. Bu sharoitni hisobga olish o'quvchilar kasbiy tiklanishini tashkil etishda nihoyatda muhim zero kasbni ongli va ishonch bilan tanlay olish bu yoshda nisbatan barqaror "Men" kabi 'sixologik sifatining ya'ni o'zi haqida yaxlit tasavvurning shakllanishi bilan uzviy bog'liq. "Men" obrazzi – murakkab psixologik hodisa u shunchaki o'z sifatlarini anglash yoki o'zini o'zi baholash yig'indisi emas. "Men kimman" degan savol o'zini tavsiflash emas, ko'proq o'zini o'zi belgilashni ko'zda tutadi:

"Men" obrazzi Shaxsning yetakchi motivlari jumladan kasb tanlash motivlari shakllanadigan yadro bo'lib xizmat qiladi. "Men" obrazzi shakllanganligi turli kasb talablari bilan nisbatlash shartlaridan biri sifatida ko'rildi va o'zining psixologik va aqliy potensialini bo'lg'usi kasbiy faoliyatda o'zaro ayrboshlashda samaradorligiga ko'maklashadi. O'quvchilar kasbit tiklashishi xususiyatlarini baholashda "Men" obrazining har bir komponenti holati uch yo'nalishda o'zini o'zi tahlil qilish kasbiy faoliyat tahlili, kasbiy sinovlarda baholanadi.

"Men" obrazining kognitiv komponenti Shaxsiy, psixologik komponentlik darajasi, psixologik bilimlardan atrofdagi voqealarni anglash o'z xulqi, individual psixologik xususiyatlari bilan belgilanishi mumkin. Kom'onent to'liqligi adekvatligi insonning mehnat va kasblar dunyosi haqidagi bilimlari bilan ham belgilanadi.

"Men" obrazining emotsiyalish kom'onenti o'quvchining o'zi uchun xos bo'lgan 'sixologik xususiyatlarini baholay olishda tanlangan kasbni o'zi uchun

namoyon bo'ladi. Bu komponent kasbiy sinov mazmuni va murakkabligi darajasini tanlash kasbiy faoliyatning aniq sinov doirasida turli sohalariga munosabatda namoyon bo'ladi.

“Men” obrazining xulq-atvor komponenti Shaxsining o’zini o’zi tarbiyalash va kasbiy o’zini-o’zi rivojlantirish dasturida uning murakkablik darjasи yo’nalganligi tanlangan kasb talablariga nisbatlanganda namoyon bo'ladi.

I.S.Konning aytishicha, “o’smirlarda o’zini o’zi anglash” va o’z “Men”iga qiziqish o’zining psixologiyada biogenetik maktab vakillari ta’kidlaganidek, faqat jinsiy yetilish bilan bog’liq emas, bola o’sadi o’zgaradi kuch yig’adi va shunga qaramay bu unda interospeksiyasiga tortishni keltirib chiqaradi. O’spirin holati ziddiyatliliqi, uning ijtimoiy rollari, intilishlar darajasining o’zgarishi aynan ular birinchi galda, “Men kimman?” degan savolni dolzarblashtiradi. Bu davrda tashqi boshqaruvdan o’zini o’zi boshqarishga o’tiladi.

Hozirgi kunda kasblar haqidagi yangi tasavvur ishlab chiqilmoqda. Fikrlash – faoliyatli an'analar metodologlari ishlarida kasbiy o’zini o’zi belgilash fenomenini kompleks tadqiq etishning alohida yo’nalishi rivojlanib bormoqda. Kasbiy ong rivojlanishi ya’ni kasbiy tiklanishga nisbatan o’zini o’zi belgilanishi ya’ni kasbiy tiklanishga nisbatan o’zini o’zi belgilash o’z sub’yektligini anglash refleksianing aniqlangan roli bosh qobiliyat insonning professional sifatida o’zini o’zi rivojlantirishning asl mexanizmi sanaladi.

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib shunday deyish mumkinki, kasbiy o’zlikni anglash jarayonida Shaxsning o’zini-o’zi anglash baholash xususiyatlari muhim jihat sifatida ko’rsatib o’tiladi.

Kasbiy motiv va motivatsiya muammosi xorij psixologlari tomonidan keng o’rganilgan, jumladan, E.A.Klimov, V.A.Krutetskiy, A.N.Vasilkova, E.Disi, V.Vrumlar kasbiy faoliyat motivlarini aniqlashga oid tadqiqotlar olib borishgan.

- Shaxsning ish faoliyati bilan bog`liq motivatsiyalarni 3 guruhga ajratish mumkin:
- Mexnat faoliyati motivlari;
- Kasb tanlash motivlari;
- Ish joyini tanlash motivlari.

Mehnat faoliyati motivlari xilma - xil bo’lib, ular o’ziga xos omillar bilan belgilanadi.

Birinchi guruh omilariga jamoaviy xarakterning uyg`onishi bilan bog`liqlari kiritilib, bunda jamoaga foyda tegishini anglash, boshqa insonlarga yordam berish istagi, mehnat faoliyatida ijtimoiy ustyanovkaning zarurligi va boshqalarga nisbatan tobelikni hohlamaslik kabi motivlar hisoblanadi.

Ikkinci guruh omillari o’zi va oilasi uchun moddiy mablag’ning orttirilishi, moddiy va ma`naviy ehtiyojlarning qondirilishi uchun pul ishlab topish motivlaridir.

Uchinchi guruhga o’z-o’zini faollashtirish, rivojlantirish, o’zini namoyon etish ehtiyojlarining qondirilishi va boshqalar kiradi. Ma`lumki, insonlar tabiatdan biror-bir faoliyat bilan shug`ullanmasdan turolmaydilar. Inson nafaqat iste`molchi balki yaratuvchi bo’lib, yaratish jarayonida u ijoddan ilhom oladi. Bu guruhga mansub motivlar, jamiyat tomonidan turli-tuman ijtimoiy ehtiyojlarning qondirilishi va boshqalarning hurmatini qozonish bilan bog`liq.

O'z imkoniyatlarini baholash sog`lomligi, ishga yaroqliligi, kasbi bo'yicha muhim sifatlarga egaligi, bilim darajasi, stresslarsiz ishga moyilligi, yuqori shovqinli ishda talab etilgan temp va xotirjam ritm bilan ishlay olish imkoniyati kabilarni o'z ichiga oladi. Qiziqishlarga mos ravishda tanlangan ish joyini baholash, ayni vaqtida ishlayotgan muassasasi, korxonadagi imkoniyat to'siqlari, ishni boshqarish, kasbiy o'sish, tashabbusning paydo bo'lishi muhim ahamiyatga ega. Ba'zan qiziqish bo'yicha ish joyini tanlash muhim ahamiyat kasb etadi. Ish joyini va kasbni tanlash motivlari **E.S.Chuchunay** tomonidan klassifikatsiya qilingan. U kasb motivlarini quyidagilarga ajratadi:

- Dominant (kasbga qiziqishning ustun turishi);
- Vaziyat bilan bog`liq (har doim insonni qiziqtirib kelgan shart sharoitlarni ro'yobga chiqarish);
- Konformist ;
- Kasbiy motivatsiyalar (o'ziga yaqin ijtimoiy olamning ya'ni yaqinlarini, do'st va tanishlarining maslahatlari bilan).

L.I.Bamburova musiqa ijrochilik kasbini tanlashga sabab bo'luvchi omillar sifatida quyidagilarni ajratib ko'rsatadi:

- ❖ Ijod va musiqa ijro etishga bo'lган qiziqish.
- ❖ Musiqadan zavqlanishga bo'lган ehtiyoj.
- ❖ Musiqa asarlarini ijro etishda o'zi tashabbus ko'rsatishga intilish.
- ❖ Tinglovchilarning qadriyatini ko'tarish, ularga rohat baxsh etish hohishi.

A.P.Vasilev tibbiyot xodimi kasbini tanlashning quyidagi asosiy motivlarini keltirib o'tadi:

- ❖ Insonlarni davolash istagi.
- ❖ Og`ir kasalliklar, qariya, yosh bolalarni og`riqlardan xalos etish istagi.
- ❖ O'z yaqinlarining sog`lig'i haqida qayg`urish imkoniyati.
- ❖ Ilmiy tibbiyot muammolarini hal etish.
- ❖ O'z sog`lig'i haqida qayg`urish.
- ❖ Moddiy qiziqishlar.

Motivlarning mustahkamlanishi mehnat faoliyatida ishlovchilarning ko'pgina omillarini qondirilishiga bog`liq bo'ladi. G`arb psixologlaridan V.Vrum va E.Disi mehnat faoliyati motivatsiyasini tarkibiy qismlarini ajratadilar. Unga ko'ra insonlar qanchalik o'z ishidan qoniqsa, shunchalik ular o'z ishlarini bajarishga kuchliroq harakat qiladilar. Ularni faoliyat jarayonida rag`batlantirib borilsa, shunchalik qattiqroq ishlaydilar. Bunday yondoshuvda amalga oshiriladigan rag`batlantirish ishchilar faoliyatining mahsulorligiga bog`liq. Bunda ular faoliyat ko'rsatadigan firma, kompaniya va tashkilotlardan kuch oladilar. Bu turli qo'shimcha imtiyozlar nafaqat ta'lim olish uchun intilish, dam olish, korxona tomonidan tashkillashtiriladi.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, mакtabdagи amaliy ish faoliyati uchun psixolog o'rgangan nazariy bilimlar yetarli bo'lmay qoladi. Shuning uchun psixolog avvalo maktabga nima maqsadda borayotganligini aniqlashtirib olishi kerak. psixologik xizmatning umumiy maqsadlaridan kelib chiqib, psixolog umumiy o'rta ta'lim maktabida bir qator vazifalarni bajarishi talab etiladi.

Bolalarni mактабга qабул qилишда ularning psixologik-pedagogik tayyorlarligi darajasini o'рганади. Ota-onalarga bolalarini mактабга тайярлаши bo'yicha tavsiya va maslahatlar beradi, o'quvlar tashkil etadi.

Aqliy rivojlanish davri cho'zilgan bolalar uchun moslashtiruvchi, korrektions-rivojlaniruvchi, yuqori darajada individuallashtirilgan guruhlar tashkil etadi, bu guruhlarda maxsus dasturlar asosida mashg'ulotlar o'tkazadi. Bolalarning 'sixik taraqqiyoti, Shaxs va aqliy rivojlanishini muntazam ravishda kuzatib boradi, salbiy burilishlar oldini oladi, nuqsonlarni tuzatish, bartaraf etish choralarini ko'radi, ular haqida tegishli ma'lumotlar to'playdi, psixologik va tibbiy yordam berishni tashkil etib, maxsus o'quv muassasalariga yo'llanmalar beradi. Boshlang'ich sinflardan o'rtalig (5-sinf)larga o'tish davrida o'quvchilarining yangi muhitga moslashuv ishlarini tashkil etadi.

Har bir bolaga individual yondashuvni va uning psixologik- pedagogik o'рганишими ta'minlaydi. Shaxslararo munosabatlarni o'рганади, ziddiyatli va nizoli holatlar oldini oladi, bartaraf etadi hamda jamoada mo'tadil psixologik muhitni yaratadi. Bola tarbiyasiga daxldor Shaxslarning psixologik savodxonligini oshirish bo'yicha dolzarb mavzular bilan ishtirok etib, davra suhabatlarini tashkil etadi. O'quvchilar uchun o'qish, o'z-o'zini tarbiyalash, hayot yo'llini tanlash va boshqa muammolari bo'yicha individual, guruhiy maslahatlar o'tkazadi.

Ta'lim-tarbiya, kasb-hunarga yo'naltirish ishlariga oid 'sixologik muammolar bo'yicha mакtab ma'muriyati, 'edagoglar, o'quvchilar va ota-onalarga maslahatlar beradi. Maktabni bitirish arafasida turgan o'quvchilarga keyingi ta'lim yo'naliшини ongli tanlashida yordamlashadi va tegishli tavsiyalar beradi. O'quvchilar va ota-onalarni psixologik-pedagogik hamda kasbiy tashxis metodikalarining maqsadi, mazmun-mohiyati va natijasi bilan tanishtirib boradi.

O'qituvchilar, o'quvchilar uchun maxsus psixologik treninglar o'tkazadi, ruhiy va aqliy zo'riqish holatlarini bartaraf etadi. Bolaning intellektual jihatdan va Shaxs sifatida rivojlanish jarayonida yuz berishi mumkin bo'lgan chetga chiqishlarni, deviant xulqi og'ishganlikning profilaktikasi (oldini olish) va uni korrektsiyalash ishlarini tashkil etadi. O'quvchilarning qiziqish, qobiliyat va iqtidorini diagnostikalashda, maxsus sinflar, ixtisosga yo'naltiruvchi dasturlar tuzishda o'qituvchilarga yordamlashadi, davra suhabatlarini tashkil etadi. Iqtidorli va iste'dodli bolalarni aniqlashda, ulardagi iqtidor, iste'dodni rivojlanirish yuzasidan sinf rahbarlar, fan o'qituvchilari va ota-onalarga tavsiyalar beradi.

O'quvchilarning individual psixologik xususiyatlari, bilish psixik jarayonlarini ta'lim olish davomida (1-sinfdan 9-sinfgacha) «psixologik-pedagogik tashxis daftari»da qayd etib boradi. O'z yo'naliishi bo'yicha mакtab pedagogika kengashi, direktor huzuridagi va kasb-hunarga yo'naltirish komissiyalari yig'ilishlarida ko'rib chiqish uchun masala tayyorlaydi va hisobot beradi.

Maktabda o'qituvchilarning psixologik savodxonligini oshirish maqsadida pedagogika-psixologiya fanining eng yangi yutuqlarini maktabning amaliy faoliyatiga uzluksiz tadbiq etadi.

Maktab psixologi o'qituvchi-murabbiylarning yaqin hamkor va yordamchisi bo'lishi kerak. professor Z.T.Nishanova ta'kidlab o'tganidek: «psixologlar shuni

unutmasinlarki, maktab hayotini o'ziga xos sahma asari deb tasavvur qilsak, undagi rollar quyidagicha taqsimlangan bo'ladi:

1. Bolalar;
2. O'qituvchi;
3. psixolog;
4. Hisobchi;
5. Oshpaz.

psixologlarga birinchi rol ajratilgan».²⁶

Bo'lajak psixologlarning mehribonlik uylarida olib boradigan ishlari ham o'ziga xos xususiyatlari ega. Mehribonlik uyida ishlaydigan psixolog, chuqur bilimlar bilan bir qatorda, muayyan bir Shaxsiy sifatlarga ega bo'lishi talab etiladi va ular orasida quyidagilar asosiy o'rinn tutadi:

1. Bolalarni sevish.
2. Bolalarning ruhiy olamiga bo'lган qiziqish.
3. psixologik muvozanatni saqlay olish.
4. Qiyinchiliklarga bardosh berish.
5. Ruhiy quvvat bera olish.
6. O'rganish va izlanish.
7. Hamma narsaga reallik nuqtai nazaridan qarash.
8. Bolalarga yoqishni bilish.
9. O'z-o'zini yaxshi anglash va his etish.
10. Ichki ruhiy kuch-quvvatga ega bo'lismi.
11. Muloqatchanlik va dilkashlik.
12. Yaxshi salomatlikka ega bo'lismi.
13. Keljakka ishonch.

Ota-onasi mehridan mahrum bo'lgan bolalar bilan ishlashga kirishishdan oldin psixolog, o'zidan ana shu sifatlarni qidirib ko'rishi lozim. Albatta, ota-ona mehriga zor bo'lgan chanqoqni, oson yo'l bilan qondirib bo'lmaydi. psixolog, esa bolalarning kemtik qalbini to'dirishi va ularda kelgusi hayotga ishonch ruhini uyg'otishi eng muhim vazifalardan biridir.

Turli tuman bolalar muassasalarida psixolog olib boradigan ishlarning mazmuni, ularga xos xususiyatlarning qisqacha tahlili shuni ko'rsatadiki, haqiqatan ham 'sixolog faoliyati muassasa turiga ko'ra farqlanadi.

Talabalar o'z kasblari haqida nazariy bilimlarga ega bo'lismi, ammo, «nazariy 'sixologiyadan amaliy psixologiyagacha bir qadam», lekin uni bosib o'ta olish juda qiyin va mashaqqatli mehnatni talab etadi.

Maktabga pedagogik sohaga xizmat qila oladigan amaliy psixologiya yo'nalishi vakili, amaliy pedagog-psixolog kerak bo'ladi.

Psixologning uslubiy tavsiyalari, ko'rsatadigan yordami, qo'llab-quvvatlashi bilan pedagoglar va o'quvchilar mакtab hayotiga dadil kirib borishadi. Sinflarning taqsimlanishi, dars jadvalini tuzish, murabbiylar bilan hamkorlik, o'quvchilarga individual yondashuv, ta'lim-tarbiya jarayoni, o'quvchi va o'qituvchilarning Shaxsiy muloqoti, o'quvchilarning qobiliyatlarini aniqlash va iqtidorlilarini tanlab olish,

²⁶ Нишонова З. Психологик маслаҳат. Ўқув кўлланма. Тошкент, 2012. – 380 б.

korreksiyalash ishlari, o'quvchilarning kasbga moyilliklarini aniqlash va kasbga uo'naltirish, maktabdagi nizolar va ularni bartaraf etish, ota-onalar bilan suhbat va boshqa ko'pgina masalalarni psixolog hal qilishi lozim.

Bundan tashqari, o'qituvchi-murabbiy mehnatining mashaqqatli tomonlari va o'quvchilardagi his-tuyg'ularning beqarorligi va o'zgaruvchanligi sababli, maktabda psixoprofilaktika - o'qituvchilar va o'quvchilarning mehnat va o'quv faoliyati samaradorligini oshirish, relaksatsiya (charchoq, toliqish, xissiy zo'riqishlar va qo'rquv holatlarini yo'qotish) mashqlarini qo'llash zarurdir.

Maktab psixologi - bu o'qituvchilar jamoasi va o'quvchilar bilan kirisha oladigan, pedagogik jamoa tomonidan tan olingan, ota-onalar va o'quvchilar orasida kasbiy obro'ga ega bo'lган psixolog amaliyotchidir.

Kasbga yo'naltirish omillari va kasblarning psixologik tasnifi.

Reja:

1. Kasbiy o'z-o'zini yo'naltirish va o'z-o'zini anglash.
2. Shaxsning kasbiy kamoloti
3. Shaxsning kasbga nisbatan motivatsiyasi.
4. Motivlarning anglanganlik darajasi, kasbga nisbatan ustyanovka, ustyanovkalarning turi va ruzilishi.
5. Motivatsiyaning shaxs ehtiyojlari bilan bog'liqligi: moddiy va ma'naviy ehtiyojlar.
6. Muvoffaqiyatga intilish hamda mag'lubiyatdan qochish motivlari, tavakkalchilik psixologiyasi.
7. Psixologiyada affilyasiya motivi va uning kasbiy psixologiyaga aloqasi.

Kasbiy motiv va motivasiya muammosi xorij psixologlari tomonidan keng doirada tadqiq qilingan. Jumladan, kasbiy motivlar borasida YE.A.Klimov, V.A.Kruteskiy, A.N.Vasilkova, E.Disi, V.Vrum, M.V.Dmitriy va boshqalarni kiritishimiz mumkin. Shaxsning ish faoliyati bilan bog'liq motivatsiyalarni 3 guruhga ajratish mumkin; birinchisi - mehnat faoliyati motivlari, ikkinchisi - kasb tanlash motivlari va uchinchisi-ish joyini tanlash motivlari. Aniq faoliyat esa barchasini jamlangan holda izohlanadi, ya'ni, bunda mehnat faoliyati motivlari, kasb tanlash motivlarining shakllanishi, shuningdek, qolgan ikkita motiv orqali esa ish joyini tanlash motivlari ham yuzaga keladi. Mehnat faoliyati motivlari xilma-xil bo'lib, ular o'ziga xos omillar bilan belgilanadi. Birinchi guruh omillariga jamoaviy xarakterning uyg'onishi bilan bog'liqlari kiritilib, bunda jamoaga foyda tegishini anglash, boshqa insonlarga yordam berish istagi, mehnat faoliyatida ijtimoiy ustyanovkaning zarurligi va boshqalarga nisbatan tobelikni hohlamaslik kabi motivlar hisoblanadi. Ikkinchi guruh omillari o'zi va oilasi uchun moddiy mablag'ning orttirilishi, moddiy va ma'naviy ehtiyojlarning qondirilishi uchun pul ishlab topish motivlaridir. Uchinchi guruhga o'zini o'zi faollashtirish, rivojlantirish, o'zini namoyon qilish ehtiyojlarining qondirilishi va boshqalar kiradi. Ma'lumki, insonlar tabiatdan biror-bir faoliyat bilan shug'ullanmasdan turolmaydilar. Inson nafaqat iste'molchi balki yaratuvchi bo'lib, yaratish jarayonida u ijoddan ilhom oladi. Bu guruhga mansub motiv jamiyat tomonidan ehtiyojlarning qondirilishi va boshqalarning hurmatini qozonish bilan bog'liq. Maktab o'quvchilarining mehnat tarbiyasi ham shu motiv bilan bog'liq ravishda shakllantiriladi.

Mehnat faoliyatining umumiy motivlari yuqorida aytib o'tilganidek, aniq kasblar doirasida amalga oshadi. Kasb tanlash anchagina qiyin va motivasion jarayondir. Axir shaxsning to'g'ri kasb tanlashi ko'pincha insonning hayotdan qoniqishga ham sabab bo'ladi. Insonning qaysi faoliyatini tanlashi ko'proq tashqi omillar haqidagi qarorning qabul qilinishi jarayoni haqida to'xtalishi muhimdir. Bu asosan tashqi holat baholariga, o'zining imkoniyat va qobiliyathlariga, kasb tanlashdagi qiziqish va moyilliklariga bog'liqdir. Tashqi holatini baholash, ijobiy ta'sir ko'rsatadigan omillar, o'zida ishlab topiladigan pul miqdori, imtiyoz, taklif etilayotgan korxona, muassasaning yashash joyiga yaqin bo'lishi, transpot aloqalarining qulayligi, ish joyi estetikasi va ishlab chiqarishning zararli tomonlari, jamoadagi psixologik iqlim, maqtov va tartibga chaqirish kabilarni qamrab oladi. O'z imkoniyatlarini baholash sog'lomligi, ishga yaroqliligi, kasbi bo'yicha muhim sifatlarga egaligi, bilim darajasi, stresslarsiz ishga moyilligi, yuqori shovqinli ishda talab etilgan temp va xotirjam ritm bilan ishlay olish imkoniyati kabilarni o'z ichiga oladi. Qiziqishlarga mos ravishda tanlangan ish joyini baholash, ayni vaqtda ishlayotgan muassasasi, korxonadagi imkoniyat to'siqlari, ishni boshqarish, kasbiy o'sish, tashabbusning paydo bo'lishi muhim ahamiyatga ega. Ba'zan qiziqish bo'yicha ish joyini tanlash muhim ahamiyat kasb etadi. Ish joyini va kasbni tanlash motivlari E.S.Chuchunay tomonidan klassifikasiya qilingan. U kasb motivlarini quyidagilarga ajratadi:

- 1) Dominant (kasbga qiziqishning ustun turishi).
- 2) Vaziyat bilan bog'liq (har doim insonni qiziqtirib kelgan shart sharoitlarni ro'yobga chiqarish).
- 3) Komformist.
- 4) Kasbiy motivasiyalar (o'ziga yaqin ijtimoiy olamning ya'ni yaqinlarini, do'st va tanishlarining maslahatlari bilan).

Motivlarning turlari. Turli kasb egalari faoliyati motivlarini o'rganishda motivlar xarakterini bilish va ularni o'zgartirish muammosi ahamiyatga ega. Shunday motivlardan biri turli xil faoliyat sohalarida muvaffaqiyatga erishish motivi bo'lib, bunday nazariyaning asoschilari amerikalik olimlar D.Makkelleland, D.Atkinson va nemis olimi X. Xekxauzenlar hisoblanadi. Ularning fikricha, odamda turli ishlarni bajarishini ta'minlovchi asosan ikki turdag'i motiv bor: **muvaqqiyatga erishish motivi** hamda **muvaqqiyatsizliklardan qochish motivi**. Odamlar ham u yoki bu turli faoliyatlarni kirishishda qaysi motivga mo'ljal qilishlariga qarab farq qiladilar. Masalan, faqat muvaffaqiyat motivi bilan ishlaydiganlar oldindan ishonch bilan shunday ish boshlaydilarki, nima qilib bo'lsa ham yutuqqa erishish ular uchun oliy maqsad bo'ladi. Ular hali ishni boshlamay turib, yutuqni kutadilar va shunday ishni amalga oshirishsa, odamlar ularning barcha harakatlarini ma'qullashlarini biladilar. Bu yo'lda ular nafaqat o'z kuch va imkoniyatlarini, balki barcha tashqi imkoniyatlar - tanish - bilishlar, mablag' kabi omillardan ham foydalananadilar.

Boshqacha xulq - atvorni muvaffiqiyatsizlikdan qochish motiviga tayangan shaxslarda kuzatish mumkin. Masalan, ular birinchilardan farqli, ishni boshlashdan avval nima bo'lsa ham muvaffiqiyatsizlikka duchor bo'lmaslikni o'ylaydilar. Shu tufayli ularda ko'proq ishonchsizlik, yutuqqa erishishga ishonmaslik, pessimizmga o'xshash holat kuzatiladi. Shuning uchun bo'lsa kerak, oxir - oqibat ular baribir muvaffiqiyatsizlikka

uchrab, “O’zi sira omadim yurishmaydigan odamman-da” degan xulosaga keladilar. Agar birinchi toifali shaxslar bir ishni muvaffiqiyatli tugatgach, ko’tarinki ruh bilan ikkinchi ishga kirishishsa, ikkinchi toifa vakillari, harqanday ishni yakunlagandan so’ng, uning natijasidan qat’iy nazar, ruhan tushkunlikka tushadilar va og’rinish hissi bilan boshqa ishga kirishadilar. Bu o’rinda talabchanlik degan sifatning roli katta. Agar muvaffiqiyatga yo’nalgan shaxslarning o’zlariga nisbatan qo’yan talablari darajasi ham yuqori bo’lsa, ikkinchi toifa vakillarining talablari aksincha, past bo’ladi. Bunday tashqari har birimizdagи o’zimizdagи real qobiliyatlar to’g’risidagi tasavvurlarimiz ham ushbu motivlarning faoliyatdagи o’rniga ta’sir ko’rsatadi. Masalan, o’zidagi qobiliyatlarga ishongan shaxs xattoki, mag’lubiyatga uchrasa ham, unchalik qayg’urmaydi, keyingi safar hammasi yaxshi bo’lishiga ishonadi. Ishonchsiz shaxs esa kichkina berilgan tanbeh yoki tanqidni ham juda katta ruhiy azob bilan qayg’urib boshdan kechiradi. Uning uchun ham shaxsning u yoki bu vaziyatlarda qayg’urish sifati ham ma’lum ma’noda motivlar xarakterini belgilaydi.

Shunday qilib, motivlar tizimi bevosita shaxsning mehnatga, odamlarga va o’z - o’ziga munosabatlaridan kelib chiqadi va undagi xarakter xususiyatlarini ham belgilaydi. Ularning har birimizda real shart-sharoitlarda namoyon bo’lishini biror mas’uliyatli ish oldidan o’zimizni tutishimiz va muvaffaqiyatlarga erishishimiz bilan baholasak bo’ladi. Masalan, mas’uliyatli imtihon topshirish jarayonini olaylik. Ba’zi talabalar imtihon oldidan juda qayg’uradilar, xattoki, qo’rqadilar ham. Ular uchun imtixon topshirish juda katta tashvishday. Boshqalar esa bu jarayonni bosiqlik bilan boshdan kechirib, ichidan hayajonlanayotgan bo’lsalar ham, buni boshqalarga bildirmaydilar. Yana uchinchi toifa kishilari umuman beg’am bo’lib, sira koymaydilar. Tabiiy, shunga muvofiq tarzda, har bir toifa vakillari ishining muvaffaqiyati va faoliyatning samarasi turlicha bo’ladi. Bunga har bir shaxsdagi da’vogarlik darajasi ham ta’sir qiladi. Da’vogarlik darajasi yuqoriroq bo’lganlar bilgan - bilmaganini isbot qilishga urinsalar, ana shunday darajasi pastlar bor bilganini ham yaxshi aytib berolmay, yana o’qituvchi bilan tortishmaydilar ham.

Shuning uchun ham har birimiz ijtimoiy faoliyat motivlaridan tashqari, shaxsiy hislatlarimizni ham bilishimiz va ongli tarzda xulqimizni boshhara olishimiz kerak.

Motivlarning anglanganlik darajasi: ijtimoiy ustanovka va uni o’zgartirish muammosi. Yuqorida ta’kidlaganimizdek, motivlar, ya’ni xatti-harakatlarimizning sabablari biz tomonimizdan anglanishi yoki anglanmasligi ham mumkin. Yuqorida keltirilgan barcha misollarda va holatlarda motiv aniq, ya’ni shaxs nima uchun u yoki bu turli faoliyatni amalga oshirayotganligini, nima sababdan muvaffaqiyatga erishayotganligi yoki mag’lubiyatga uchraganini biladi. Lekin har doim ham ijtimoiy xulqimizning sabablari bizga ayon bo’lavermaydi. Anglanmagan ijtimoiy xulq motivlari psixologiyada ijtimoiy ustanovka (inglizcha “**attitud**”) hodisasi orqali tushuntiriladi.

Ijtimoiy ustanovka shaxsning ijtimoiy ob’yektlar, hodisalar, guruqlar va shaxslarni idrok qilish, baholash va qabul qilishga nisbatan shunday tayyorgarlik holatiki, u bu baho yoki munosabatning aslida qachon shakllanganligini aniq anglamaydi. Masalan, Vatanimizni hammamiz sevamiz, bayrog’imiz muqaddas, nemis investorlarga ishonamiz, negrlarga rahmimiz keladi, tijorat ishlari bilan shug’ullanadiganlarni albatta puldor, badavlat, deb hisoblaymiz va xokazo. Bu tasavvurlar, baho va hissiyotlar

qachon va qanday qilib ongimizda o'rnashib qolganligiga e'tibor bermasdan yuqorida sanab o'tgan hissiyotlarni boshdan kechiraveramiz. Mana shularning barchasi ijtimoiy ustanovkalar bo'lib, ularning mazmun mohiyati aslida har bir inson ijtimoiy tajribasi davomida shakllanadi va uzoq muddatli xotirada saqlanib, konkret vaziyatlarda ro'yobga chiqadi.

Amerikalik olim **G.Ollport** ijtimoiy ustanovkaning uch komponentli tizimini ishlab chiqqan:

A. Kognitiv komponent - ustanovka ob'yektiga aloqador bilimlar, g'oyalar, tushuncha va tasavvurlar majmui;

B. Affektiv komponent - ustnovka ob'yektiga nisbatan sub'yeqt his qiladigan real hissiyotlar (simpatiya, antipatiya, loqaydlik kabi emosional munosabatlar);

V. Harakat komponenti - sub'yektning ob'yektga nisbatan real sharoitlarda amalga oshirishi mumkin bo'lган harakatlari majmui (xulqda namoyon bo'lish).

Bu uchchala **komponentlar** o'zaro bir - birlari bilan bog'liq bo'lib, vaziyatga qarab u yoki bu komponentning roli ustivorroq bo'lishi mumkin. Shuni aytish lozimki, komponentlararo monandlik bo'lmasligi ham mumkin. Masalan, ayrim talabalar talabalik burchi va tartib - intizom bilan juda yaxshi tanish bo'lsalarda, har doim ham unga rioya qilavermaydilar. "Tasodifan dars qoldirish", "jamoatchilik joylarida tartibni buzish" kabi holatlar kognitiv va harakat komponentlarida uyg'unlik yo'qligini ko'rsatadi. Bu bir qarashda so'z va ish birligi printsipining turli shaxslarda turlicha namoyon bo'lishini eslatadi. Agar odam bir necha marta bila turib, ijtimoiy xulqqa zid harakat qilsa, va bu narsa bir necha marta qaytarilsa, u bu holatga o'rganib qoladi va ustanovkaga aylanib qolishi mumkin. Shuning uchun ham biz ijtimoiy normalar va sanksiyalar vositasida bunday qarama -qarshilik va tafovut bo'lmasligiga yoshlarni o'rgatib borishimiz kerak. Bu shaxsning istiqboli va faoliyatining samaradorligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Kasbga yo'naltirishda hal qiluvchi davr o'smirning o'z istagi yoki zaruratiga ko'ra, tanlagan va uning mehnat yo'lini belgilaydigan kasbga kirishish davridir. Bu davr shuning uchun ham hal qiluvchiki, kishining mehnat yo'li bo'lishi, bu yo'lda u qanchalik uzoq vaqt muvaffaqiyatli bora olishi ishlab chiqarishni xodimlar o'rtasidagi muomalani endi o'quvchi emas, balki boshqa rolni malakali xodim rolini qanchalik oson yoki qiyin, tez yoki sekin o'zlashtirishiga bog'liq.

Kasbiy moslashuv – bu yosh insonning asta-sekin kasbiy mehnat sharoitiga kirish vazifasiga ko'ra emas, balki uning psixik xususiyatiga ko'ra talaba o'quvchilikdan malakali xodimiga aylanishidir.

Organizmning ishlab chiqarish muhiti va mehnat rejimiga moslashish tarzida biologik ko'nikish elementlarini ham o'z ichiga olgan holda kasbga ko'nikish bir butunlikda ijtimoiy ko'nikishning asosiy turi hisoblanadi. Kasbiy moslashuv davri odatda uchta o'ziga xos bosqich bo'yicha boradiki, ularning har biri kasbiy ta'lim pedagoglari uchun juda muhim xususiyatga ega.

1. Kasbiy moslashishning birinchi bosqichi tanishtirish bo'lib, o'zining atrof muhitidagi yangi rolini anglashidan iborat. U tanlangan kasb bo'yicha muayyan malaka olishga qaror qilgandan boshlanadi va ishlab chiqarish ta'limiga dastlabki nazariy tayyorgarlik davrida, o'quv qobiliyatları kasb-hunar kolleji tayanch korxona bilan

tanishishdan boshlanadi. Kasbiy moslashishning bu birinchi bosqichida qabul qilingan qarorning to'g'riliгини о'smir o'zi baholaydi. Kasbga, ishlab chiqarish mehnati guruhlariga va o'qituvchilariga, kasb-hunar kelleji va korxonaga munosabati vujudga keladi. O'smir o'z kelajagiga nazar tashlaydi hamda tanlagan kasbida qanday jozibali va qandaydir kamchilik tomonlarini ko'radi.

Sohalar haqidagi o'y- xayollar barbod bo'ladi. Hamda yangi umid va intilishlar paydo bo'ladi. Ta'sirchan o'smirlar ongida sabablarning qattiq kurashi ketadi. Bu kurash oqibati boshqa bir mashg'ulotga bo'lgan oldingi intilishlar engadimi yoki yangi egallash mavqega muvofiq yangi intilishlar tug'iladimi, bularning hammasi birinchi mashg'ulot: muallim va yaqin kelajakda o'qish va ishga to'g'ri keladigan kasb hunar kolleji va korxonalarning tuzilishi, ulardagi umumiy sharoitlar uyg'otadigan taassurotga bog'liq bo'ladi.

2. Kasbiy moslashishning ikkinchi tayyorlov bosqichi – ijtimoiy umumiy texnika va maxsus predmetlar hamda o'quv xonalarida ishlab chiqarish ta'limini asosli o'rganishdan iborat bo'lib, bu kasb o'rganishdir. Bu erda ham tanlangan mehnat yo'llini baholash davom etadi. Atrof muhitga, ta'limga va o'zlashtirilayotgan mehnatga munosabat o'zgaradi. Biroq hal qiluvchi narsa taassurot emas, balki o'quv mehnatidagi yutuq va kamchiliklar bo'ladi. Kasbiy moslashishning ancha uzoq va ma'suliyatli bo'lgan bu bosqichida kasbini o'zlashtirayotgan malakali xodim shaxsining daslabki shakllanishi yuz beradi. Bu shakllanishing muvaffaqiyati o'zining o'quv mehnati natijasidan qanoatlanishi va qanoatlanmasligiga bog'liq yutuqlar quvontiradi va ilhom beradi, yanada kattaroq muvaffaqiyatlarga undaydi, tasodifiy muvaffaqiyatsizlik yanada ko'proq kuchni safarbar qilishni talab qiladi. Ammo bunday holat tez-tez bo'lib tursa, doimiy muvaffaqiyatsizlik esa ishdan, o'qishdan va kasbdan ixlosini qaytaradi. O'quv predmeti va ishlab chiqarish mashqlariga bo'lgan qiziqishning paydo bo'lishi, kuchayishi yoxud yo'qolishini hamda kasbni yoqtirmay qolishi ana shu yutuq va muvaffaqiyatsizliklarga bog'liq bo'ladi. Bularning hammasi avvalo pedagoglarga o'quvchilarining yutug'i va muvaffaqiyatsizligi o'quvchining ruhiy holatiga ko'ra qanchalik e'tibor berishlariga hamda ularning qanchalik mohirlik bilan boshqara bilishiga bog'liq.

3. Kasbiy moslashishning uchinchi asosiy bosqichi yosh insonning korxona xodimlari muhitiga singishidir. Bu bosqich o'quvchi-talaba o'zini o'rabi olgan o'sha jamoaning a'zosi sifatida his qiladigan ammo ular darajasida malaka orttirmagan mehnat unumdonligi va mahsuloti sifatini ta'minlay olmaydigan, ba'zan xato va beparvoliklarga yo'l qo'yadigan, ishlab chiqarish amaliyoti davrida boshlanadi. Rasmiy jihatdan o'zining tengligi va atrofdagi kishilar bilan ishlab chiqarish malakasida tez emasligi hamda ularning yosh xodimga 'temir qanot qushcha' deb munosabatda bo'lishini anglash uning bu bosqichdagi kasbiy moslashish jarayonini favqulodda murakkablashtirib qo'yadi. Buni ijobiy hal qilish esa amaliyotda korxona xodimlari bilan o'zaro munosabati qanday bo'lishi kasb-hunar kollejini tugatgach ular bilan birgalikda qiladigan mehnatga bog'liq bo'ladi.

Har qanday faoliyat asosida mehnat yotadi. Mehnat esa muayyan kasb-hunar bilan bog'liq bo'lib, o'ziga xos murakkab jarayon hisoblanadi. Mehnatning ana shunday xususiyatlaridan biri yoshlarning kasb-hunarga moslashish shartidir. Mazkur pedagogik

omil bir nechta bosqichlardan iborat. U o‘z imkoniyatlariga mos mehnat jamoasini tanlash, undagi vaziyatni to‘g’ri baholay olish, to‘plangan amaliy tajriba va bilimlarni ish faoliyatiga joriy etish, mustaqil ko‘nikma hosil qilish kabi bir qancha shartlarni o‘z ichiga olgan ushbu jarayonni umumiylmez bilan baholash mumkin. Bunday mezon mehnatning hayotiy qadriyat ekanini tushunib etish, kasb-hunarga nisbatan o‘z salohiyatini baholay olish, mehnat faoliyati va jamoadagi sharoitdan qoniqish, kasbga qiziqish, mehnat faoliyatiga oid ko‘nikmaning shakllanishi asosida aniqlanadi. Bu esa kasb-hunarga moslashishga yordam beruvchi yoki to‘sinqinlik qiluvchi ob‘ektiv va sub‘ektiv sabablarni tahlil etishda qo’llaniladi.

Endi ana shu omillarga to‘xtaladigan bo‘lsak, vujudga kelgan ijtimoiy munosabatlar, mehnat sharoiti, rag’batlantirish tizimi, ishxonadagi ma‘naviy muhit moslashuv jarayoniga yordam beradi. Sub‘ektiv omillar ko‘p hollarda yoshlarning shaxsiy xususiyatlari bilan bog’liq holda paydo bo‘ladi. Ular yoshlarning moddiy va ma‘naviy ehtiyojlarining qanoatlantirilishi, haqiqiy vaziyat va istakning muvozanatini ifodalandaydi. Tadqiqotlar natijasi shuni ko‘rsatadiki, o’smirlarda kelgusi hayot haqida turli-tuman rejalar mavjud bo‘ladi. Lekin ularning aksariyati real voqelikka asoslanmagani bois, orzuligicha qolib ketadi. SHu bois, o’smir yoshlarning reja va istaklarini inobatga olgan holda ularning aqliy qobiliyati va muayyan kasb-hunarga qiziqishini o‘rganish muhim ahamiyat kasb etadi. Bunda maxsus so‘rovnomalar o‘tkazish usuli yaxshi samara beradi. Kasb-hunarga qiziqish unga moslashishga ta‘sir ko‘rsatuvchi asosiy xususiyat hisoblanadi. U shaxsning doimiy xislatini ifoda etadi va o’smir yoshlarning bajaradigan ishiga nisbatan munosabatini belgilaydi. Lekin u o‘z-o‘zidan paydo bo‘lmaydi, aksincha, o‘quv jarayoni va muhit ta‘sirida shakllanadi.

Kasb-hunarga moslashish sharoiti bir nechta ta‘sir etuvchi omillar natijasida yuzaga keladi. Ularning birinchisi tashqi ta‘sir omillari bo‘lib, kichik yoshdag‘i mifik o‘quvchilariga mo‘ljallangan ma‘naviy-tarbiyaviy ishlar, ijtimoiy-tarbiyaviy mehnat, oilaviy tarbiya, jamoatchilik tarbiyasi kabi tarmoqlardan iborat. Maktabdagi va atrofdagi muhit, ota-onaning kasbi-kori, shaxsning ichki va tashqi tabiat, oilaviy kasb-hunar an‘analaridan tashkil topgan ijtimoiy pedagogik omillar ikkinchi guruh hisoblanadi. Uchinchi guruhga kasb-hunarni to‘g’ri tanlay olish, unga nisbatan qiziqish, malaka, ish sharoiti, mehnat faoliyatining samaradorligi kabi o‘ziga xos omillar kiradi. Ana shu omillarni uyg’unlashtirish kasbga moslashuv jarayoniga ijobjiy ta‘sir etish barobarida ta‘lim – tarbiya tizimiga ilg’or pedagogik texnologiyalarni va ish tajribalarini joriy qilishni taqozo etadi. Bunday pedagogik tadqiqotlar yoshlarning muayyan kasb-hunarni mukammal va tez fursatda egallahiga yordam beradi. Bu hol o‘z navbatida shaxs va jamiyat manfaatlariga xizmat qiladi.

Motiv tasnifi. Jahan psixologiya fanning nazariy mushohadalariga va o‘zimizning shaxsiy ma‘lumotlarimizga asoslanib, motivlarni quyidagi turkumlarga ajratishni lozim topdik.

I. SHaxsning ijtimoiy ehtiyojlari bilan uyg’unlashgan, ularning mohiyati mezoni orqali o‘lchanuvchi motivlar:

- 1) dunyoqarashga taalluqli, aloqador bo‘lgan g’oyaviy motivlar;
- 2) ichki va tashqi siyosatga nisbatan munosabatni aks ettiruvchi, shaxsiy pozitsiyani ifodalovchi siyosiy motivlar;

- 3) jamiyatning axloqiy me'yorlari, prinsiplari, turmush tarzi, etnopsixologik xususiyatlariga asoslanuvchi axloqiy motivlar;
- 4) borliq go'zalligiga nisbatan ehtiyojlarda in'ikos etuvchi nafosat (estetik) motivlari.

II. Vujudga kelishi, shartlanganlik manbai bo'yicha umumiylukka ega bo'lgan, boshqaruv va boshqariluv xususiyatlari motivlar:

- 1) keng qamrovli ijtimoiy motivlar (vatanparvarlik, fidoiylik, altruistik);
- 2) guruhiy, jamoaviy, hududiy, umumbashariy motivlar;
- 3) faoliyat tuzilishi, mohiyati va tuzimiga yo'naltirilgan protsessual motivlar;
- 4) faoliyat mahsulini baholashga, maqsadga erishuvga mo'ljallangan rag'batlanuv, mukofot motivlari.

III. Faoliyat turlari mohiyatini o'zida aks ettiruvchi motivlar:

- 1) ijtimoiy – siyosiy voqeliklarni mujassamlashtiruvchi motivlar;
- 2) kasbiy tayyorgarlik va mahoratni o'zida namoyon etuvchi motivlar;
- 3) o'qishga, bilishga (kognitiv), ijodga (kreativ) oid motivlar.

IV. Paydo bo'lismi xususiyati, muddati, muhlati, barqarorligi bilan umumiylukka ega bo'lgan motivlar:

- 1) doimiy, uzlucksiz, longiyud xususiyatlari motivlar;
- 2) qisqa muddatli, bir lahzali, bir zumlik va soniyalik motivlar;
- 3) uzoq muddatli, vaqt taqchilligidan ozod, xotirjam xatti-harakatlarni talab etuvchi motivlar.

V. Vujudga kelishi, kechish sur'ati bioquvvat bilan o'lchanuvchi motivlar:

- 1) kuchli, qudratli, ta'sir doirasidagi shijoatli motivlar;
- 2) paydo bo'lishi, kechishi o'rta sur'atli motivlar;
- 3) yuzaga kelishi, kechishi sust sur'atli motivlar.

VI. Faoliyatda, muomalada va xatti-harakatda vujudga kelish xususiyati, xislati hamda sifatini aks ettiruvchi motivlar:

- 1) aniq, yaqqol, voqe bo'lувchi real motivlar;
- 2) zarurat, yuksak talab va ehtiyojlarda ifodalanuvchi dolzarb motivlar;
- 3) imkoniyat (potensiya), zahira (rezerv), yashirin (latent) xususiyatlarini o'zida mujassamlashtiruvchi motivlar.

VII. Aks ettirish darajasi, sifati nuqtai nazardan ierarxiya vujudga keltiruvchi motivlar:

- 1) biologik motivlar;
- 2) psixologik motivlar;
- 3) yuksak psixologik motivlar.

Motivlar va ularning mutaxassislar tayyorlashga ta'siri. Bu o'rinda ustakovkalar ham alohida ahamiyatga ega. O'qish-bilim olish faoliyati shaxs kamolotida katta rol o'ynaydi va chuqur muammo kasb etadi. Bu shunday faollikki, uning jarayonida bilimlar, malaka va turli ko'nikmalar o'zlashtriladi.

Foliyat turlari o'z-o'zidan ro'y bermaydi. SHaxsnинг jamiyatdagi ijtimoiy xulqi va o'zini qanday tutishi, egallangan mavqeい ham sababsiz, o'z-o'zidan ro'y bermaydi. Ҷаoliyatni amalga oshirish va shaxs xulq-atvorini tushuntirish uchun psixologiyada 'Motiv' va 'Motivatsiya' tushunchalari ishlataladi.

‘Motivatsiya’ tushunchasi ‘Motiv’ tushunchasidan kengroq ma‘noga ega. Motivatsiya-inson xulq-atvori, uning bog’lanishi, yo’nalishi va faolligini tushuntirib beruvchi psixologik sabablar majmuini bildiradi. Bu tushuncha u yoki bu shaxs xulqini, ya‘ni ‘nega?’, ‘nima uchun?’, ‘nima maqsadda?’, ‘qanday manfaat yo’lida?’ degan savollarga javob qidirish – motivatsiyani qidirish demakdir.

Haxsning jamiyatda odamlar orasidagi xulqi va o’zini tutish sabablarini o’rganish tarbiyaviy ahamiyatga ega bo’lib, masalani yoritishning ikki jihatni farqlanadi.

1. Ichki sabablar, ya‘ni xatti – harakat egasining sub‘ektiv psixologik xususiyatlari nazarda tutiladi (motivlar, ehtiyojlar, maqsadlar, mo’ljallar, istaklar, qiziqishlar va h.k.).
2. Tashqi sabablar – faoliyatning tashqi shart – sharoitlari va holatlar. YA‘ni, bular ayni konkret holatlarning kelib chiqishiga sabab bo’ladigan tashqi stimullardir.

Talabalar bilimini nazorat qilish uchun savollar

1. Kasbiy motiv va motivatsiya haqida tushuncha bering.
2. Mexnat faoliyati motivlari nimalardan iborat?
3. Kasbiy moslashuv nima?
4. ‘Motivatsiya’ tushunchasi va ‘Motiv’ tushunchalarining farqi nimada?

11-mavzu: Kasbiy xususiyatlarni tadqiq etish usullari

Reja:

1. Ya. Xolland taklifi bo'yicha kasblarni shartli guruhlash (realistic, ijtimoiy, konvensial (shartli), tadbirkor, artistic tiplar).
2. Kasbiy qiziqishlar, qobiliyatlarni aniqlash.

Qobiliyatlar kishining shunday psixologik xususiyatlaridirki, bilim, ko`nikma, malakalar orttirish shu xususiyatlarga bog`liq bo`ladi. Shu xususiyatlar mazkur bilim, ko`nikma va malakalarga taalluqli bo`ladi. Malakalar, ko`nikma va bilimlarga nisbatan qobiliyatları qandaydir imkoniyat sifatida namoyon bo`ladi.

Qibiliyatlar faqat faoliyatda, shunda ham amalga oshirilishi mumkin bo`lmagan faoliyatdagina namoyon bo`ladi. (Rasm solish qobiliyati bor yo`qligini shu faoliyatda aniqlanadi). Masalan, Albert Eynshteyn (1879-1955, nemis fizigi) o`rta maktabda uncha yaxshi o`kimagan o`quvchi edi, uning kelajakdagi genialligidan, aftidan hech narsa dalolat bermas edi.

Qibiliyatlar bilim, malaka va ko`nikmalarning o`zida ko`rinmaydi, balki ularni egallash dinamikasida namoyon bo`ldi.

Qibiliyatlar shaxsning mazkur faoliyatini muvaffaqiyatli amalga oshirish sharti hisoblangan va buning uchun zarur bilim, ko`nikma va malakalarni egallash dinamikasida yuzaga chiqadigan farqlarda namoyon bo`ladigan individual psixologik xususiyatdir. Shunday qilib, qobiliyat odamlarni sifat jihatidan bir biridan farqlaydigan individual psixologik xususiyatdir.

Qobiliyatlarni sifat xususiyati deb qarab chiqadigan bo`lsak, u odamning murakkab psixologik xossalari sifatida namoyon bo`ladi, va maqsadga etish uchun juda zarur bir necha yo`llarni egallaganligini bildiradi. Kishida u yoki bu faoliyatga qobiliyat bo`lib, boshqa biriga bo`lmasligi mumkin, lekin uning o`rnini to`ldirish, (kompensatsiya) imkoniyati borligidan foydalanib uni paydo qilish mumkin. (Masalan, kar-soqov, ko`r-olima O. I. Skoroxodova faoliyati).

Qobiliyatlarning sifat jihatidan xarakteristikasi insonga mehnat faoliyatining qaysi sohasida (konstruktorlik, pedagogik, iqtisodchilik, sport va boshqalar) osonlik bilan o`zini topa oladi, katta yutuqlarga va muvaffaqiyatlarga erishadi deyishga imkon beradi. qobiliyatlarning sifat xarakteristikasi ularga miqdoriy xarakteristikasiga uzviy bog`liq.

Psixologiyada qobiliyatlarni miqdor jihatdan o`lchash muammosi katta tarixga ega. XIX asr oxiri XX asr boshlarida qator burjua olimlari (Kettel, Termen, Spirmen va boshqalar) ommaviy ixtisoslar uchun kasb tanlashni amalga oshirish zarurati bilan bog`liq bo`lgan talablar ta'siri ostida ta'lim olayotganlarning qobiliyat darajasini aniqlashni taqlif qildilar. Lekin bunday qarashlar hukmron doiralar manfaatiga, ularning «qobiliyatli ekanliklarini» ta'kidlashga xizmat qildi. qobiliyatlarni o`lchash usuli sifatida aqliy iste'dod testlaridan foydalanildi. Ular yordamida qator mamlakatlarda (AqSh, Buyuk Britaniya va hokazo) qobiliyatlarni aniqlash va maktablarda o`quvchilarni saralash, armiyada ofitserlik, sanoatda rahbarlik lavozimini egallash va boshqalarda amalga oshiriladi.

Ikki o`quvchi darsda tahminan bir xil javob berishdi. Lekin pedagog ularning javobiga har xil munosabat bildiradi; birini maqtaydi, boshqasining javobidan qanoatlanmaydi. «Ularning qobiliyatları har xil,-deb tushuntirdi. Ikkitasi institutga kiriyapdi. Birovi imtihonlardan o`tdi, boshqasi muvaffaqiyatsizlikka uchradi. Bu ulardan birining qobiliyatları ko`pligidan dalolat beradimiq Abiturientlarning har biri tayyorlanishiga qanchadan vaqt sarflagani aniqmanmaguncha bu savolga javob berib bo`lmaydi. Bilim olishdagi muvaqqaiyat faktining birgina o`zi bilan qobiliyatni aniqlab bo`lmaydi.

Qobiliyatlar kishining konkret faoliyatidan tashqarida mavjud bo`lmaydi, balki ularning tarkib topishi ta'lim va tarbiya jarayonida sodir bo`ladi. Demak, qobiliyatlarni aniqlashning eng ishonchli yo`li - bu ta'lim jarayonida bolalarning yutuqlari dinamikasini aniqlashdan iboratdir. Bolaning qanday qilib kattalar yordami bilan bilim va ko`nikmalarni egallashlariga, bunday yordamni qanday qilib har xil qabul qilishlariga qarab qobiliyatlarning kattaligi, kuchi va zaifligi haqida asoslangan xulosalar chiqarishi mumkin. Bundan tashqari qobiliyatlarni aniqlashda shaxsni o`rganishning boshqa metodlaridan ham foydalanish mumkin.

Qobiliyat strukturasi konkret faoliyat turi bilan belgilanadi. Bir faoliyatga bir necha qobiliyat kirishi mumkin. Masalan, pedagogik faoliyatga pedagog odobi, kuzatuvchanlik, bolani sevish, talabchanlik va hokazolar kiradi. Shulardan biri etakchi, qolganlari yordamchi fazilatlar bo`lishi mumkin. Kishi qobiliyati uning yordamchi, qo`shimcha fazilatlariga bog`liq yoki shunday deb qaralishi mumkin. Masalan, bir odam o`z ishini puxta, mazmunli uddalaydi, lekin artistlik, notiqlik, san'atini yaxshi egallamagani (ya'ni, yordamchi fazilatga ega emasligi) uchun o`zini ko`rsata olmaydi, ikkinchi bir odam ishni shunchaki uddalasa ham uni ko`zko`z qila oladi, o`zini iste'dod egasi qilib ko`rsata oladi. qobiliyatlar strukturasida shu singari tomonlarini umumiy va maxsus sifatlarini farqlay olish kerak.

Odamlarni qobiliyatiga qarab tiplarga ajratish muammosi juda murakkab. Birida maxsus, birida umumiyl sifat ustunlik qilishi mumkin. I. P. Pavlov qobiliyatga qarab odamlarni 3 tipga bo`ladi: «Fikrlovchi tip», «Badiiy tip», «O`rtacha tip». Bunda

odamdag'i ikki signal tizimi nisbatini hisobga oladi.

Qobiliyatlar kishining shunday psixologik xususiyatlardirki, bilim, ko`nikma, malakalar orttirish shu xususiyatlarga bog`liq bo`ladi, lekin shu xususiyatlarning o`zlarini mazkur bilim, ko`nikma va malakalarga taalluqli bo`lmaydi. Aks holda imtihonda qo`yilgan baho, doska oldidagi javob muvaffaqiyatlari to`g`risida qat'iy xulosa chiqarish imkonini bergan bo`lur edi. Shu bilan birga psixologik tadqiqotlar va pedagogik tajriba ma'lumotlari guvohlik berishicha, ba'zan dastlab nimalarnidir bajara olmagan va bu bilan tevarak atrofdagilardan o`ngaysiz ajralib turgan kishi ta'lim olish natijasida favqulodda ko`nikma va malakalarni tez o`zlashtirib oladi va tezdayoq mahorat yo`lida hammani quvib o`tadi. Unda boshqalarga qaraganda zo`r qobiliyatlar namoyon bo`lsa ham, bilimlar va ko`nikmalar egallah bilan bog`lanib qolmaydi, qobiliyatlar va bilimlar, qobiliyatlar va malakalar, qobiliyatlar va ko`nikmalar aynan bir-biriga o`xshash emas. Malakalar, ko`nikma va bilimlarga nisbatan kishining qobiliyatları qandaydir imkoniyat sifatida namoyon bo`ladi. Tuproqqa tashlangan don ana shu dondan unib chiqishi mumkin bo`lgan boshoqqa nisbatan atigi imkoniyat bo`lib hisoblangani singari (lekin urug` tuproqning tuzilishi, tarkibi va namligi, ob-havo va boshqalar qulay sharoit yaratsagina unib chiqadi) kishining qobiliyati bu bilimlar va ko`nikmalarni egallah uchun imkoniyat hisoblanadi, xolos. Bu bilim va ko`nikmalar egallanadimi yoki egallanmaydimi, imkoniyat haqiqatga aylanadimi yoki yo`qmi, bularning hammasi ko`plab sharoitlarga bog`liq bo`ladi. Shart-sharoitlar jumlasiga, masalan, kiradi: tevarak-atrofdagi odamlar (oilada, mактабда, mehnat kollektivida) kishining bu bilim va qanday ta'lim beradilar, ana shu malaka va ko`nikmalar kerak bo`ladigan va mustahkamalanadigan mehnat faoliyati qanday tashkil etiladi va hakozo.qobiliyatlar-bu imkoniyat, u yoki bu ishda mahoratning zarur darajasi esa voqelikdir. Bolada namoyon bo`lgan musiqiy qobiliyat uning musiqachi bo`lishi uchun biron bir darajada garov bo`la olmaydi. Bolaning musiqachi bo`lishi uchun unga maxsus ta'lim berilishi, pedagog va bola namoyish qolgan qat'iylik, salomatlikning yaxshi bo`lishi, musiqa asbobi, notalar va boshqa ko`plab shart-sharoitlar bo`lishi zarur. Bularsiz qobiliyatlar rivojlanmay turiboq so`nib ketishi mumkin.

Psixologiya qobiliyatlar va faoliyatning muhim komponentlari bo`lmish bilimlar, malakalar va ko`nikmalarning aynan bir xilligini inkor qilar ekan, ularning birligini ta'kidlaydi. Qobiliyatlar faqat faoliyatda, shunda ham faqat ana shu qobiliyatlar siz _malgam oshirishi mumkin bo`lmaganfaoliyatdagina namoyon bo`ladi. Agar kishini rasm chizishga faoliyatdagina namoyon bo`ladi. Agar kishini rasm chizishga o`rgatishga hali urinilmagan bo`lsa, agar u tasviriy faoliyat uchun zarur bo`lgan hech qanday ko`nikmani egallamagan bo`lsa, uning rasm solish qobiliyatları to`g`risida gap bo`lishi mumkin emas. Faqat rasm chizishga va tasviriy san'atga mahsus o`qitish jarayonida o`quvchida qobiliyatning bor yo yo`qligi aniqlanishi mumkin. Bu uning ish usullarini, rang munosabatlarini qanchalik tez va oson o`zlashtirib olishida, tevarak- atrofimizdagi olamda go`zallikni ko`rishga o`rganishida namoyon bo`ladji. Bolada hali zarur ko`nikma va malakalar sistemasi, mustahkam bilimlar, tarkib topgan ish usullari yo`qligiga asoslanib, jiddiy tekshiib krmay, shoshilinch ravishda mazkur o`quvchida qobiliyatlar yo`qligi haqida xulosa chiqarish

pedagogning jiddiy psixologik xatosi hisoblanadi. Bolalik paytida paytida kishida muayyan qobiliyatlarning atrofdagilar tomonidan tan olinmaganligi, keyinchalik ularni yanada rivojlantirish munosib shon-shuhrat keltirganligi hollari ko`plab uchraydi. Albert Eynshteyn o`rtta mакtabda uncha ya'shi o`qimagan o`quvchi hisoblanar va uning kelajakda geneialligidan, aftidan hech narsa dalolat bermas edi.

Shunday qilib, qobiliyatlar shaxsning mazkur faoliyatini muvaffaqiyatli amalgalash oshirish sharti hisoblangan va buning uchun zarur bilim, ko`nikma va malakalarini egallash dinamikasida yuzaga yaiqadigan farqlarda namoyon bo`ladigan individual-psixologik xususiyatdir. Agar shaxsning ma'lum sifatlar yig`indisi odamning pedagogik jihatidan asoslanib berilgan vaqt ichida egallangan faoliyati talablariga javob bersa, bu narsa bizga unda mazkur faoliyatga qobiliyat borligi to`g`risida xulosa chiqarishga asos bo`ladi. Agarda boshqa kishi xuddi shunaqa boshqa sharoitlarda uning oldiga faoliyat ro`baro` qilayotgan talabalarning uddasidan chiqsa olmasa, unda tegishli psixologik sifatlar, boshqacha so`zlar bilan aytganda, qobiliyatlar yo`q deb taxmin qilishga asos bo`ladi.o`z-o`zidan ma'lumki bunday odam zarur ko`nikma va bilimlarni umuman egallay olmaydi, degan ma`no kelib chiqmaydi. Bu ko`nikma va

bilimlarni egallash cho`zilib ketadi, natijasi nisbatanoz bo`lsa ham favqulodda ko`p kuch-g`ayrat sarflanishi va shu kabilarni talab qilishini bildiradi. Bu hol biroz vaqt o`tgach, shuningdek, qobiliyatlarning rivojlanishi mumkinligini ham inkor etmaydi. Qobiliyatlar murakkab strukturaga ega bo`lgan psixik fazilatlar yig`indisidan iboratdir.

Qobiliyat sifatida namoyon bo`ladigan fazilatlar yig`indisining tuzilishi oqibat natijada konkret faoliyat talablari bilan belgilanadi. Masalan, mavjud ma'lumotlarga ko`ra, matematikaga bo`lgan qobiliyatlarning tuzilishi bir qator xususiy bo`lgan qobiliyatlarni o`z ichiga oladi: matematik materiallarni umumlashtirish qobiliyati, matematik mulohaza yuritish jarayonini va tegishli matematik harakatlarni qisqartirish qobiliyati (izchil ko`p tabaqali mulohazalar qisqacha aloqalar bilan almashtiriladi, masalan idrok qilish va uning natijalari o`rtasidagi bevosita aloqa o`rnatishga qadar ish olib boriladi), fikr yuritish jarayonining qaytarilishi qobiliyati (ya`ni to`g`ri fikr yuritishdan teskari fikr yuritishga osonlik bilan o`ta olish qobiliyati), matematik masalalarni hal qilish chog`ida fikrlash jarayonining epchilligi va shu kabilalar. Konkret qobiliyatlar struktruasini tashkil etadiganshahs xislatlari va xususiyatlari orasida ba`zi birlari etakchi o`rinni egallasa, ba`zi birlari yordamchilik rolini o`ynaydilar. Jumladan, pedagogik qobiliyatlar tuzilishida pedagogik odobi, qo`zg`atuvchanlik bilan qo`shib olib boriladigan bilim berishga ehtiyoj, yordamchilik tarzida shular jumlasiga kiradigan bir qator tashkilotchilik qobiliyatları kompleksi va boshqalar etakchi fazilatlar hisoblanadi. Yordamchi fazilatlarga quyidagilar kiradi: artisitlik, notiqlik ma'lumotlari va boshqalar.

Mutlaqo ravshanki, pedagogik qobiliyatlarning ham etakchi, ham yordamchi komponentlari ta'lim va tarbiyaning muvaffaqiyatini ta'minlaydigan birlikni hosil qiladi vashu bilan birga pedagog shaxsi va uning xususiyatlari bilan bog`langan individuallashtirishni tashkil qiladi.Qobiliyatlar taraqqiyotining yuksak bosqichi iste'dod deb aaladi. Iste'dod bu kishiga qandaydir murakkab mehnat faoliyatini

muvaffaqiyatli, mustaqil va original tarzda bajarish imkonini beradigan qobiliyatlar majmuasidir. Qobiliyatlar kabi iste'dod ham faqat ijodiyotda yuksak mahoratga va anchagina muvaffaqiyatlarga erishish imkoniyatidan iboratdir. Oqibat natijada ijodiy yutuqlar odamlarning ijtimoiy-tarixiy hayot sharoitlariga bog`liqdir.

Iste'dodlarning uyg`onishi ijtimoiy shart-sharoitlarga bog`liqdir. Ma'lum qobiliyatlarning to`l-to`kis rivojlanishi uchun naqadar qulay sharoitlarning mavjud bo`lishi davlat uchun naqadar qulay sharoitlarning mavjud bo`lishi davlat oldida turgan qulay sharoitlarning mavjud bo`lishi davlat oldida turgan konkret vazifalarning xususiyatlariga va davr ehtiyojlariga bog`liq. Urush yillarida sarkardalik iste'dodlari jo`shqin rivojlanadi, tinchlik davrida injenerlik, konstruktorlik va shu kabi iste'dodlar rivojlanadi.

O`zidan oldingi barcha ijtimoiy formatsiyalarga qarama-qarshi o`laroq, sotsialistik jamiyat har bir tomonlama rivojlanishiga to`la imkoniyat yaratib beradi. Bu imkoniyat xalq maorifi sistemasi bilan, fan va madaniyat taraqqiyotining yuksak darajasi bilan, halqning butun ijtimoiy hayoti tartibi Bilan ta'minlanadi. Kishilarning Fan va texnika taraqqiyoti sohasidagi zo'r muvaffaqiyatlari va sport sohasidagi talablari-bularning hammasi bizda iste'dodlar juda ko`pligidan dalolat beradi.

Kishi psixik faoliyatida birinchi signallar tizimi signallarining nisbatan ustunligi uning badiiy tipga, signallar signalining nisbatan ustunligi fikrlovchi tipga, signallar vakolatining tengligi odamlarning o`rta tipga mansubligini belgilaydi.

Badiiy tip uchun bevosita ta'surot, jonli tasavvur, emotsiya ta'sirida paydo bo`ladigan obrazlar yorqinligi xosdir.

Fikrlovchi tip uchun mavhumlik, mantiqiy tuzilmalar, nazariy mulohazalar ustunligi xosdir.

Qobiliyatlar taraqqiyotining yuksak bosqichi iste'dod deb ataladi. Iste'dod bu

kishiga qandaydir murakkab mehnat faoliyatini muvaffaqiyatli, mustaqil va original tarzda bajarish imkonini beradigan qobiliyatlar majmuasidir. Iste'dodlarning uyg`onishi ijtimoiy shart-sharoitlarga bog`liqdir. Masalan, bozor iqtisodiyoti «hammani tijoratchi qilib yubormoqda». Alovida olingen, yakka qobiliyatni garchi u taraqqiyotning juda yuksak darajasiga erishgan va yorqin ifodalangan bo`lsa ham iste'dod bilan tenglashtirib bo`lmaydi. Xotira, aqlning epchilligi, qo'llash ko`laming kengligi iste'dodga yo`l ochadi. Bu singari sifatlarni mashhur odamlar faoliyatni misolida ko`ramiz.

Iste'dod strukturasi oqibat natijada mazkur faoliyat shaxs oldiga qo`ygan talablar xarakteri bilan belgilanadi. Bu umumiylar maxsus qobiliyatlar bilan bog`liq. Bir qator iste'dodli bolalarni o`rganish natijasida ba'zi bir juda muhim qobiliyatlarini aniqlashga erishildi. Bunday qobiliyatlar yig`indisi aqliy iste'dod tuzilmasini tashkil etadi. Shunday yo`l bilan ajratganda shaxsni birinchi xususiyati ziyraqlik, yig`noqlik, doimo jiddiy tayyorlikdir. Ikkinchi xususiyat birinchi xususiyat bilan bog`liq - mehnatga tayyorligi, mehnatga moyilligi, mehnatga ehtiyojdir. Uchinchi xususiyati - intelektual faoliyatga bevosita bog`liqdir: bu tafakkur xususiyatlari, fikrlash jarayonlarining tezligi, aqlining sistemaliligi, taxlil va umumlashtirish imkoniyatlarining ko`pligi, aqliy faoliyatning yuksak mahsuldarligidir. Shaxsning o`z so`zini o`tkaza olishi, boshqa odamga kuchli

ta'sir eta olish kishi faoliyatida katta ahamiyatga egadir. Shuning uchun psixologiyada bu muammo bilan bog`lik qator tadqiqotlar olib borilmoqda. Masalan amerikalik psixolog A.Assingerning bu sifatni o`rganish testi «Pedagog tajovuzkorligini baholash» deb nomlanadi. E.I.Rogov esa shaxs tipologik xususiyatlarini aniqlash, o`quvchi-o`qituvchi munosabatlarini aniqlash singari test so`rovnomalari yordamida shaxs sifatlarini aniqlash hozirgi kunda keng qo`llanilmoqda. Shuningdek, shaxs sifatlarini aniqlash muammolariga duch keladigan rahbar xodimlar, maktab va o`quv muassasasalari psixologlari Ayzenk, E.I.Rogov so`rovnomalaridan foydalanishlari mumkin.

Iste'dod qator darajalariga ega bo`lib, maxsus iste'dod faoliyat turlari bilan, mahorat - ruyobga chiqish tezligi, chaqqonligi bilan belgilanadi. Ilhomlanish - faoliyat davomida qo`l keladigan izchillik tizimiga ega bo`lish bilan harakatlanadi va hokazo.

XOLLAND METODIKASI

Ushbu metodika asosida amerikalik psixolog olim Ya.Xolland taklifi bo'yicha odamlar va ko'pchilik kasblarni shartli ravishda 6 guruhga bo'lish mumkin (realistik, ijtimoiy, konventsial (shartli), tadbirkor, artistik tiplar). Bu metodika asosida yuqorida qayd qilingan tiplarni qay biri qay darajada shaxsda namoyon bo'lishini aniqlash mumkin. Kasblarning xususiyati shundaki, shaxs psixologiyasida qaysi bir yo'naliш ko'proq shakllangan bo'lsa, shu kasb o'ziga ko'proq jalb qiladi.

Metodikani o'tkazish tartibi: Metodika savolnomasini o'quvchilarga berishdan oldin, ularga quyidagi ko'rsatma beriladi: «Quyidagi juft-juft taklif etilgan - kasblardan o'zingiz uchun har bir juftdan bittasini tanlang va «a» yoki «b» grafalar yonida «+» yoki «-» (doiraga olish) belgisini qo'ying.

Ikkala kasbdan bittasini tanlashi shart

1.	a) quruvchi	b) loyiha tuzuvchi
2.	a) elektron texnik	b) sanitariya shifokori
3.	a) tokar (chilangar)	b) kotiba
4.	a) suratkash	b) do'kon mudiri
5.	a) chizmakash	b) dizayner
6.	a) faylasuf	b) psixiatr
7.	a) tilshunos	b) advokat
8.	a) ilmiy jurnal muharriri	b) badiiy jurnal tarjimonи
9.	a) pediatr	b) statist
10.	a) sport shifokori	b) feletonchi
11.	a) notarius	b) ta'minotchi
12.	a) parmalovchi	b) hajviy sur'at soluvchi rassom
13.	a) siyosiy arbob	b) yozuvchi
14.	a) bog'bon	b) meteorolog
15.	a) avtobus haydovchi	b) fel'dsher
16.	a) elektron uskunalar muhandisi	b) kotiba
17.	a) bo'yoqchi	b) yog'och yoki metal bo'yicha rassom
18.	a) biolog	b) ko'z shifokori
19.	a) teleoperator	b) rejissyor
20.	a) gidrolog	b) taftishchi
21.	a) zoolog	b) bosh zootexnik
22.	a) matematik	b) me'mor
23.	a) bolalar xonasi noziri	b) hisobchi
24.	a) o'qituvchi	b) kasaba uyushmasi lideri
25.	a) tarbiyachi	b) kulol

26	a) iqtisodchi	b) bo'lim mudiri
27	a) korrektor	b) tanqidchi
28	a) xo'jalik ishlari mudiri	b) dirijer
29	a) radiooperator	b) fizik yadrochi
30	a) sozlovchi	b) montajchi
31	a) agronom	b) menejer
32	a) bichuvchi	b) dekarator
33	a) arxeolog	b) ekspert
34	a) muzeys xodimi	b) maslahatchi
35	a) olim	b) akter
36	a) logoped	b) stenografi
37	a) shifokor	b) diplomat
38	a) bosh hisobchi	b) direktor
39	a) shoir	b) psixolog

Kalit

Aniq yo'nalgan tip	1a, 2a, Za, 5a, 14a, 15a, 16a, 17a, 19a, 29a, 30a, 31a, 32a.
Aqliy salohiyatli tip	1b, 6a, 7a, 8a, 14b, 18a, 20a, 21a, 22a, 29b, 33a, 34a, 35a
Jamiyatga yo'nalgan tip	2b, 6b, 9a, 10a, 15b, 18b, 23a, 24a, 25a, 34b, 36a, 37a, 39b
SHartli (atrofidagilar ta'siridagi) tip	3b, 9b, 11a, 12a, 16b, 20b, 23b, 26a, 27a, 30b, 33b, 36b, 38a
Tadbirkorlik tipi	4b, 7b, 11b, 13a, 19b, 21b, 24b, 26b, 28a, 31b, 35b, 37b, 38b
Ijodkorlik (kreativlik) tipi	4a, 5b, 8b, 10b, 12b, 13b, 17b, 22b, 25b, 27b, 28b, 32b, 39a

Natijalarini hisoblash:

Metodika natijalarini tahlil qilish uchun har bir o'quvchining javob varaqasi alohida ishlab chiqiladi. Buning uchun 6 yo'naliш bo'yicha berilgan maxsus kalitdan foydalilanadi. Har bip savolning javobi kalitda berilgan natija bilan to'g'ri kelsa 1 ball qo'shiladi va oxirida har bir yo'naliш bo'yicha umumiy ballar yig'indisi hisoblab chiqiladi. Eng ko'p bal to'plagan yo'naliш yetakchi hisoblanadi, bunda shu yo'naliш ballar yig'indisi 5 balldan kam bo'lmasligi kerak.

Tiplarning tahlili

Aniq yo'nalgan tip. Bunday tipdagi shaxs ko'proq konkret, ya'ni aniq ob'ektlar (narsalar, asbob uskunalar, hayvonlar, mashinalar) bilan shug'ullanishni afzal ko'radilar, konkret ob'ekt bilan shug'ullanish, chaqqonlik va aniqlikni yoqtiradi. Odamlar bilan muloqotda bo'lishni yoqtirmaganligi sababli yuqori lavozimlarda ishlashni xush ko'rmaydi. Injener, mexanik, elektrik, agronom, bog'bon, haydovchi va shunga o'xshash kasblarni tanlaydi.

Aqliy salohiyatli tip. Bunday odamlar o'zining sezgir va boy xayolligi bilan boshqalardan ajralib turadi. Ular amaliy mashg'ulotlarni bajarishdan ko'ra, muammolarni nazariy hal qilish ustida o'ylashni yoqtiradilar. Mavhum kasblarni tanlashadi: biolog, botanik, astronom, fizik.

Jamiyatga yo'nalgan tip. Bunday odamlar muammoni yechishda ko'proq o'zlarining intellektual qobiliyatlaridan ko'ra shaxsiy hissiyot va tuyg'ularga asoslanadilar. Mexanizmlar bilan shug'ullanishni yoqtirmaydilar. Ko'proq ta'lim va sog'liqni saqlash sohasiga qiziqadilar: shifokor, psixolog, o'qituvchi kasblarini tanlashlari mumkin, chunki ularda muloqotga kirishish, boshqaruv va san'atga ehtiyoj katta.

SHartli (atrofidagilar ta'siridagi) tip. Bunday odamlarda moslashish salohiyati juda past. Ularga past faoliyotni talab qiluvchi mashg'ulotlar va mutaxassisliklar hamda

aniq tizimli faoliyatlar ko'proq yoqadi. CHunki bunday faoliyatlarda aniqlik va noaniqlik belgilab berilgan. Boshqaruv faoliyati qo'l kelmaydi, chunki bunday odamlar masalalarni hal qilishda ko'proq boshqalarning fikriga suyanadilar. Tavsiya etilgan kasblar iqtisod, hisobchi, kotiba va hokazo.

Tadbirkorlik tipi. Bunday tiplar yuqori lavozimlarda ishlashni yoqtiradilar, Ularga qo'l mehnati, diqqatni bir nuqtaga jalgan etuvchi faoliyatlar yoqmaydi. Ular quyidagi kasblarni tanlaydilar: direktor, teleoperator, artist, diplomat, jurnalist.

Ijodkorlik (kreativlik) tipi. Bunday insonlarda xayol va intuitsiya yaxshi rivojlangan. Ular hayotni murakkablashgan holda qabul qiladilar. "Erkaklashtirilgan" — sport, avto ta'mirlash kabi ishlar qiziqtirmaydi. Ular ijodiy xarakterli mashg'ulotlarni xush ko'radilar. Ya'ni, musiqa, rassomchilik, adabiyot va shu kabi sohalarda yuqori natijalarga erishishlari mumkin.

ELERSNING MUVAFFAQIYATGA ERISHISH MOTIVATSİYASI TASHXIS qILISH METODİKASI

Ushbu metodida insondagi muvaffaqiyatga erishish motivatsiyasini qay darajada ekanligini o'lhash uchun mo'ljallangan.

Yo'rinqoma: Quyida berilgai 41 ta savolga "ha " yoki "yuq " deb javob bering.

1. Ikkita ishdan birini zudlik bilan bajarish yoki ularni tanlash kerak bo'lsa, yaxshisi tezda unga kirishib, bajarib qo'ya kolgan afzal.
2. Berilgan topshiriqni 100% yaxshi bajara olmayotganligimni sezsam, juda qayg'uraman.
3. Ishlayotgan vaqtimda shunday berilib ketamanki, go'yoki hamma narsa shunga bog'liqday.
4. Muammoli vaziat paydo bo'lganda, men qaror chiqarishga shoshilmayman.
5. Ikki kun surunkali ishsnz qolsam, holovatimni yo'qotaman.
6. Ba'zi kunlari mening muvaffaqiyatlarim o'rtachadan past bo'ladi.
7. Men o'zimga boshqalarga qaraganda ancha talabchanman.
8. Men boshqalardan ko'ra saxovatli, mehribonroq odamman.
9. Qiyin topshiriqni bajarishdan bosh tortgan paytlarimda, odatda men o'zimni koyiyman, chunki bilaman o'zim, agar o'sha ishga kirishganimda bajargan bo'lardim.
10. Ishlash davomida men tez-tez dam olib turishga ehtiyoj sezaman.
11. Tirishqoqlik va tinmaslik - mendagi asosiy sifat emas.
12. Mening mexnatdagi yutuqlarim doim xam bir xil emas.
13. Men bevosita o'zim bajarayotgan ish emas, balki boshqa ishlar ko'proq yokadi.
14. Maqtovdan ko'ra tanqid meni ko'proq ishlashga majbur qiladi.
15. Meni hamkasblarim ishchan deb hisoblashlarini yaxshi bilaman.
16. Ishdag'i qiyinchiliklar mening qarorlarimni yanada qatqiylashtiradi.
17. Mening nafsoniyatimga tegish juda ham oson.
18. Boshqalar mening ilhomsiz, tashabbussiz ishlayotganimni sezishadi.
19. Biror ishni bajarayotganimda men boshqalarning ko'magiga tayanmayman.
20. Men ba'zan hozir qilishim mumkin bo'lgan ishni keyinga koldiraman.
21. Odam faqat o'ziga ishonishi kerak.
22. Hayotda puldan ham muhim bo'lgan narsa deyarli yo'q.
23. Muhim biror topshiriqni bajarish kerak bo'lganda men doimo boshqa barcha

tashvishlarni unutaman.

24. Men ko'pchilikka qaraganda, unchalik izzattalab emasman.
25. Ta'til oxirida men odatda yaqinda ishga chiqishimni o'ylab quvonaman.
26. Menga ish yoqsa, uni men boshqalarga nisbatan malakaliroq bajaraman.
27. Men ishga kirishib ketadigan insonlar bilan til topishim osonroq bo'ladi.
28. Ishim yo'q paytlarda men o'zimni behalovat his qilaman.
29. Men boshqalarga nisbatan mas'uliyatli ishlarni tez-tez bajarishga to'g'ri keladi.
30. Qaror chiqarish mas'uliyati menga yuklansa, yaxshiroq bajarishga intilaman.
31. Mening do'stlarim meni ba'zan dangasa deb hisoblashadi.
32. Ma'lum ma'noda mening yutuqlarimda hamkasablarimning ulushi bor.
33. Rahbarning ra'yini qaytarishdan foyda yo'q.
34. Ba'zan qanday ish bajarish kerakligini ham bilmaysan.
35. Ishim yurishmay qolgan paytlarimda men betoqat bo'lib bezovtalanaman.
36. Men odatda o'z yutuqlarimga kam e'tibor beraman.
37. Boshqalar bilan ishlayotgan paytlarimda mening yutuqlarim boshqalarnikidan ko'proq va sezilarliroq bo'ladi.
38. O'z bo'ynimga olgan ko'pgina ishlarni men oxiriga yetkaza olmayman.
39. Men ishi juda ko'p bo'lмаган odamlarga havas qilaman.
40. Men hokimiyatga intilgan va amalparastlarga havas qilmayman.
41. Men o'z yo'llimning to'g'riliqiga shubha qilmasam, uni amalga oshirish yo'lida hech narsadan toymayman.

Natijalarni qayta ishslash:

KALIT:

Siz quyidagi savollarning "ha" javoblari uchun 1 baldan oldingiz:

2,3,4,5,7,8,9,10,14,15,16,17,21,22,25,26,27,28,29,30,32,37,41.

quyidagilarga "yo'q" deganingiz uchun ham 1 baldan oldingiz:

63,13,18,20,24,31,36,38,39.

Nihoyat, **1,11,12,19,23,33,34,35,40** savollarga berilgan javoblar hisobga olinmaydi.

Me'yoriy ko'rsatkichlar:

1 baldan 10 balgacha - muvaffaqiyatga nisbatan juda past motivatsiya;

2 baldan 16 balgacha - o'rta darajadagi motivatsiya;

17 baldan 20 balgacha - anchagina yuqori motivatsiya;

21 baldan yuqori -muvaffaqiyatga nisbatan o'ta yuqori motivatsiya

ELERSNING MAG'LUBIYATDAN QOCHISH MOTIVATSIYASI ANIQLASH METODIKASI

Yo'riqnomा, Sizga har birida 3 tadan so'z bo'lган 30 qator so'zlar tavsiya etiladi. Har bir qatordan Sizga yaqin bo'lган va xarakteringizga mos keladigan bitta so'zni tanlang va uni belgilang.

№	1	2	3
1	Dadil	Hushyor	Uddaburon
2	Kamsuqum	Tortinchoq	Qaysar

3	Ehtiyotkor	Kat'iyathi	Umidsiz, pessimist
4	O'zgaruvchan	Beparvo, befahm	E'tiborli
5	Aqlsiz	Qo'rroq	Befarosat, loqayd
6	CHaqqon	Jasur, qo'rmas	O'ylab ish ko'radigan
7	Sovuqqon	Ikkilanuvchan	Epchil, shijoatli, dovyurak
8	Intiluvchan	Engiltak	Qurroq
9	O'ylab ish qilmaydigan	O'zini ko'rsatish	Oldindan ko'ra
10	Optimist, kelajakka	Vijdonli	G'amxo'r (odamlarga)
11	Melanxolik, sust	SHubhali	Beqaror
12	Qo'rroq	Pala-partish	Hayajonlanadigan
13	Niyatli, mo'ljalli	Pismiq, indamas	Qo'rroq, xadiksiragan
14	E'tiborli	Befarosat	Mard, dadil
15	Fahm-farosatli	SHijoatli	Mardona
16	Uddaburon	Ehtiyotkor	O'ylab ish qiladigan
17	Tez xayajonlanadigan	Xayol-parishon	Uyatchan
18	Kamtar; kamsuqum	Ehtistsnz	Bee'tibor
19	Hadiksiragan	Kat'iyatsiz	Asabiy
20	Intizomli ijrochi	Sadoqatli	Niyat bilan ish ko'radigan
21	O'ylab ish qiladigan	Dadil, qo'rmas	SHijoatli, qaytmas
'22	Tobe, o'rgatilgan	Loqayd, beparvo	Pala-partish
23	Ehtiyotkor	Beg'am	CHidamli
24	Oqil	Mehribon, g'amxo'r	Jasoratli
25	Oldindan bashorat	CHo'chitib	Vijdonan qaraydigan
26	SHoshqalooq	Ourroq	Beg'am, tashvishsiz
27	Parishon	Mo'ljalli, niyatli	Umidsiz, pessimist
28	Kuzatuvchan, e'tiborli	Mulohazali	Uddaburon
29	Pismiq, indamas	Betartib	Qo'rroq
30	Kelajakka ishongan	Hushyor	Beg'am, betashvish

Natijalarни qayta ishlash:

KALIT:

Siz quyidagi holatlarda 1 ball olasiz, kalitda keltirilgan sonlarning chiziqcha oldidagisi kator sonini, orqasidagi - ustunlar sonini bildiradi, masalan. 1/2 bo'lsa, demak, 1-chi qatorda 2-chi ustundagi suzni tanlagan bo'lsangiz, 1 bal olasiz, aks holda, bal olmaysiz.

Xisoblash kaliti:

1/2; 2/1; 2/2; 3/1; 3/3; 4/3; 5/2; 6/3; 7/2; 7/3; 8/3; 9/1; 9/2; 10/2; 11/1; 11/2; 12/1; 12/3; 13/2; 13/3; 14/1; 15/1; 16/2; 16/3; 17/3; 18/1; 19/1; 19/2; 20/1; 20/2; 21/1; 22/1;

23/1;23/3; 24/1; 24/2; 25/1; 26/2; 27/3; 28/1; 28/2; 29/1; 29/3; 30/2.

Natijann tahlil qilish:

Ballar miqdori qanchalik ko'p bo'lsa, himoya, mag'lubiyatdan qochish motivatsiyai darajasi ham shunchalik yuqori bo'ladi.

2 dan 10 balgacha — himoyaga nisbatan quyi motivatsiya.

11 dan 16 balgacha — motivatsiyaning o'rtacha darajasi.

17 dan 20 balgacha - motivatsiyaning yuqori darajasi.

20 baldan yuqori —o'ta yuqori daraja.

Nazorat uchun savollar:

1. Qobiliyatlar haqida tushuncha.
2. Qobiliyatlarning tarkib topishi

12 – mavzu: Kasbiy xususiyatlar psixodiagnostikasi.

Reja:

- 1. Shaxsnинг hissiy-irodaviy sohasi va kasbga moslashish xususiyatlari**
- 2. Differensial diagnostic so'rovnama.**
- 3. Shaxsnинг tashkilotchilik va kommunikativ qobiliyatlarini diagnostika qilish.**

DIFFERENTSIAL - DIAGNOSTIK SO'ROVNOMA (DDS)

Bu metodika yordamida sinaluvchining faoliyatni u yoki bu turidan qaysi birini ko'prok ma'qul ko'rishligi va shunga mos ravishda qaysi kasbga moyilligi aniqlanadi.

Ko'rsatma: «Faraz qilaylik tegishli ta'limni olganingizdan so'ng, Siz har qanday ishni bajara oladigan bo'lasiz. Agar Sizga taklif qilingan ikki imkoniyatdan faqat birini (ulardan biri yoki ikkalasinnng ham sizga yoqishi yoki yoqmasligidan qat'iy nazar) tanlashingizga to'g'ri kelgudek bo'lsa, unda Siz qaysi birini ma'qul ko'rgan bo'lardingiz?

O'z javoblariningizni, javoblar varaqasining tegishli kataklarida qayd etilgan tartib raqami va harfini doira ichiga olib qo'yish bilan bildiring. Imkon qadar tezroq ishslashga va samimiy javob berishga harakat qiling».

DDS «Men ma'qul ko'raman»

1a. Hayvonlarga qarash (ularni boqish, parvarish qilish).	yoki	1b. Mashina va uning qismlariga xizmat ko'rsatish (ularni kuzatib turish, boshqarish).
2a. Bemor kishilarga yordam berish ularni davolash.	yoki	2b. Jadvallar, sxemalar, hisoblash mashinalari uchun dasturlar tuzish.
3a. Kitob bezaklari, plakatlar, badiiy otkritkalar, audiodisklar sifatini kuzatib borish.	yoki	3b. O'simliklar holati, o'sishini kuzatish.
4a. Materiallarni (yog'och, gazlama, metall, plastmassa va h.k.) qayta ishslash.	yoki	4b. Mahsulotlarni iste'molchilarga yetkazish (reklama qilish, sotish).

5a. Ilmiy-ommabop kitob, maqolalarni muhokama qilish.	yoki	5b. Badiiy kitoblarni (yoki pъessa, kontsertlarni) muhokama qilish.
6a. Biron-bir zotli (porodali) hayvonni boqish, parvarish qilish.	yoki	6b. O'rtoqlaringiz yoki o'zingizdan kichik bolalarni biron-bir faoliyat (mehnat, o'qish, sport) bilan shug'ullantirish.
7a. Rasm, tasvirlardan nusxalar ko'chirish yoki musiqa asboblarini sozlash, tuzatish.	yoki	7b. Biron-bir yuk tashuvchi (ko'taruvchi) vositalarni (kran, traktor, teplovoz va boshqa) boshqarish.
8a. Odamlarga (ma'lumot byurolarida, sayohatlarida va b.q.) kerakli ma'lumotlarni berish, tushuntirish.	yoki	8b. Ko'rgazmalarni, peshtaxtalarini bezashda (yoki pъessa, kontsertlarni tayyorlashda) ishtirop etish.
9a. Buyumlar, narsalar (kiyim, texnika)ni, uy-joyni ta'mirlash, tuzatish.	yoki	9b. Jadvallar, tekstlar, rasmlardan xatolarni qidirib topish va tuzatish.
10a. Hayvonlarni davolash.	yoki	10b. Hisob-kitob ishlarini bajarish.
11a. O'simliklarning yangi navlarini yaratish.	yoki	11b. Sanoat mahsulotlari (mashinalar, kiyimlar, bino, oziq-ovqat mahsulotlari va boshq.)ning yangi turlarini loyihalashtirish, yaratish.
12a. Odamlar o'rtasidagi nizo, janjallarni hal qilish (ishontirish, tushuntirish, rag'batlantirish).	yoki	12b. CHizmalar, sxemalar, jadvallarni o'rganish (tekshirish, aniqlash, tartibga keltirish).
13a. Badiiy havaskorlik to'garaklari ishlarini o'rganish, kuzatish.	yoki	13b. Mikroblar hayotini o'rganish.
14a. Tibbiyot asbob-uskunalarini ishlatish, ularga xizmat ko'rsatish.	yoki	14b. Odamlarga yaralanganda, shikastlanganda, kuyganda va shu kabilarda tibbiy yordam ko'rsatish.
15a. Kuzatilayotgan, voqealar, hodisalar o'lchanayotgan ob'ektlar va boshqalar haqida aniq hisobotlar yozib borish.	yoki	15b. Voqealar (kuzatilayotgan yoki tasavvur qilingan)ni badiiy ifodalash.
16a. Kasalxonada laboratoriya analizlarini qilish.	yoki	16b. Bemorlarni qabul qilish, ularni tekshirish, ular bilan suhbatlashish va ularni davolashga yo'llash.
17a. Xona devorlarini, narsalar sirtini bo'yash va bezash.	yoki	17b. Binolarni ta'mirlash yoki mashina qismlarini yig'ish.
18a. Tengdoshlaringiz yoki kichik yoshdagi bolalarning (teatr, muzeylarga madaniy sayohatlarini, ekskursiyalarini va boshq.) tashkil etish.	yoki	18b. Sahnada o'ynash, kontsertlarda ishtirop etish.
19a. CHizmalar bo'yicha detallarni	yoki	19b. CHizmachilik bilan shug'ullanish,

buyumlar (mashina kiyimlar)ni tayyorlash, binolarni qurish.		chizmalar, kartalardan nushalar ko'chirish.
20a. O'simliklar kasalliklari va bog'-o'rmon zararkunandalariga qarshi kurashish.	yoki	20b. Klavishli mashinalarda (yozuv mashinkasi, teletayp va boshqalar)da ishslash.

Differentsial-diagnostik so'rov javob varaqasi (kaliti)

O-Tt	O-Ta	O-O	O-Bt	O-Bo
1a	1b	2a	2b	3a
3b	4a	4b	5a	5b
6a		6b		7a
	7b	8a		8b
10a	9a		9b	
11a			10b	
13b	11b	12a	12b	13a
16a	14a	14b	15a	15b
		16b		17a
20a	17b	18a		18b
	19a		19b	
			20b	

Differentsial-diagnostik so'rov natijalarini qayta ishslash

DDS savollari shunday tartibda guruhlanganki, ularga berilgan javoblar faoliyatning turli sohalarini farqlash imkonini beradi. Bu o'rinda kasb turlari shartli ravishda quyidagicha qisqartirib olindi: I-ustunda – «Odam-tabiat»-O-Tt; II-ustunda – «Odam-texnika»-O-Ta; III-ustunda-«Odam-odam»-O-O; IV-ustunda «Odam-Belgilar tizimi»-O-Bt; V-ustunda «Odam-Badiiy obraz»-O-Bo.

Biror-bir ustun bo'yicha belgilangan javoblar sonining ko'p bo'lishi sinaluvchining shu toifa kasblarga moyilligini bildiradi. Agar hamma ustunlar bo'yicha javoblar miqdori bir xil bo'lib chiqsa, bu qiziqishlar yoyilib ketganligini, u yoki bu kasbga nisbatan qiziqishning shakllanmaganligini yoki yorqin ifodalangan ustunlikning yo'qligini bildiradi. Bunday hollarda tadqiqotdan so'ng sinaluvchi bilan bafurja suhbatlashish, unga qiziqishlarini aniqlab olishga yordam berish lozim.

1-jadval

Kasb turi	Odam-tabiat (O-Tt)
Mehnat predmeti xarakteristikasi	Tirik organizmlar, biologik, ximik jarayonlar
Mazkur kasb uchun muhim bo'lgan ayrim sifatlar	Kuzatuvchanlik, qat'iylik, chidam, kuzatishlarni sistemalashtira ola bilish, mehnat natijalari uzoq va ma'lum muddat o'tgandan so'ng ma'lum bo'ladigan sharoitlarda ishlay olish qobiliyati, oldindan ko'ra bilish

	qobiliyati, barcha jonli narsalarni sevish.
Hunar-texnik ma'lumot talab qiluvchi kasblar	Bog'bon, sabzavotkor, chorvador, gulchi-bezakchi, arichilik, mirob.
O'rta maxsus ta'lim talab qiladigan kasblar	O'rmonchi-texnik, zootexnik, veterinar, yer o'lchovchi.
Oliy ma'lumot talab qiluvchi kasblar.	Zoomuhandis, agronom, veterinariya vrachi, zoolog, agrotexnik, kimyogar.

2-jadval

Kasb turi	Odam-texnika (O-Ta)
Mehnat predmeti xarakteristikasi.	Texnik tizimlar: energiya, sun'iy va tabiiy materiallar.
Mazkur kasb uchun muhim bo'lgan ayrim sifatlar	Yuqori rivojlangan texnik tafakkur, makon-obraz tasavvurlari, koordinatsiyaning rivojlanganligi, harakatlarning aniqligi va chaqqonligi, diqqat, texnikaga qiziqish.
Hunar-texnik ma'lumot talab qiluvchi kasblar.	CHilangar, slesarъ, montajchi, tele-radio vositalar sozlovchisi, tikuvchi-motoristka.
O'rta maxsus ta'lim talab qiladigan kasblar	Texnik-texnolog, texnik-quruvchi, texnik-mexanik, texnik elektrik.
Oliy ma'lumot talab qiluvchi kasblar.	Muhandis-texnolog, muhandis-elektrik, quruvchi-muhandis, muhandis-mexanik.

3-jadval

Kasb turi	Odam-Odam (O-O)
Mehnat predmeti xarakteristikasi	Odamlar, guruhlar, jamoalar, ijtimoiy jarayonlar.
Mazkur kasb uchun muhim bo'lgan sifatlar	Muloqatga kirishuvchanlik, odamlar bilan aloqa o'rnata bilish, boshqa odamlar bilan qiziqish va ularning manfaatlarini tushunish, odamlarning hamkorlikdagi hatti-harakatlarini tashkil qila bilish va ularga yordam berishga intilish .
Hunar-texnik ma'lumot talab qiluvchi kasblar	Sotuvchi, sartarosh, ofitsiant, yo'lovchi tashuvchi vagonlar nazoratchisi (provodnik), konduktor.
O'rta maxsus ta'lim talab qiladigan kasblar	Hamshira, bolalar bog'chasi tarbiyachisi, kasb ta'limi ustasi, fel'dsher.
Oliy ma'lumot talab qiluvchi kasblar	O'qituvchi, vrach, jurnalist, huquqshunos, kutubxonachi.

4-jadval

Kasb turi	Odam-belgilar (O-Bt)
Mehnat predmeti xarakteristikasi.	SHartli belgilari, raqamlar, kodlar, tabiiy yoki sun'iy materiallar (formulalar)
Mazkur kasb uchun muhim bo'lgan ayrim sifatlar	CHidam, bardamlik, sabr-toqatlilik, turg'unlik, diqqat, tezkor xotira, idrokning aniqligi, raqamlar, tasvirlar, sxemalar, jadvallar bilan uzoq, ishlay bilish.

Hunar-texnik ma'lumot talab qiluvchi kasblar	Harf teruvchi, chizmachi, EHM operatori, kotiba-mashinistka, korrektor (tuzatuvchi), telegrafchi.
O'rta maxsus ta'lim talab qiladigan kasblar	Iqtisodchi, rejalomchi, texnik muharrir, hisobchi, texnik-dasturchi.
Oliy ma'lumot talab qiluvchi kasblar	Muhandis-iqtisodchi, muhandis-matematik, dasturchi, konstruktor.

5-jadval

Kasb turi	Odam-badiiy obraz (0-Bo)
Mehnat predmeti xarakteristikasi.	Badiiy obrazlar, ularning xususiyatlari va elementlari.
Mazkur kasb uchun muhim bo'lgan ayrim sifatlar	Ma'lum bir badiiy faoliyatga maxsus qobiliyat, xayol, taassurot, obrazli xotira, obrazli tafakkur, estetik did.
Hunar-texnik ma'lumot talab qiluvchi kasblar.	Graver, arxitektura detallarini yopishtiruvchi.
O'rta maxsus ta'lim talab qiladigan kasblar	Bezakchi-pardozchi, musiqachi, tsirk artisti, badiiy havaskorlik jamoalarining boshlig'i.
Oliy ma'lumot talab qiluvchi kasblar.	Rassom-konstruktur, dekorator, rejisser, teatrshunos, tanqidchi.

O'quvchilarni kasbiy yo'nalganligini aniqlash metodikasi

Bugungi kunda har bir insonning kasblar olamida o'z-o'rnini topishi, kasbiy o'zligini anglashi, jamiyatda o'z o'rnini topishga intilishi va unga qiziqishlari kun sayin ortib bormoqda. Minglab kasblar ichidan qaysi birini tanlash, unga shaxs moyilligi, layoqati va qiziqishlarining mos kelishi yoki kelmasligini bilish shaxs istiqbolida muhim ahamiyat kasb etadi. Siz kasblar olamida Sizni qiziqtiruvchi kasblar haqida ko'proq ma'lumotlarga ega bo'lishni istaysizmi? U holda quyida keltirilayotgan savollarga javob bering.

O'tkazish tartibi.

Quyida Sizga ishda va bo'sh vaqlardagi mashg'ulotlar va turli kasblarga oid mehnat vazifalari haqidagi 88 ta savol havola etilmoqda.

Savollar tartiblangan bo'lib, javoblar varaqasidagi raqamlarga o'zaro mos tushadi. Siz o'z qiziqishlaringizni hisobga olgan holda har bir savolga bo'lgan javobingizni 1, 2, 3 yoki 4 ball miqdorida baholashingiz lozim bo'ladi. Qo'yiladigan ballarning ma'nosи quyidagicha izohlanadi:

- umuman qiziqarli emas 1 ball;
- unchalik qiziqarli emas 2 ball;
- qiziqarli 3 ball;
- juda qiziqarli 4 ball.

Savollar ichida Sizga notanish bo'lgan bir qator kasblar ham keltirilgan. Bunday hollarda Siz: "Ushbu kasblar haqida nimalarni bilasiz?" savoliga taxminan javob berishingiz lozim. Uzoq o'ylamang. Ko'proq hayolingizga ilk bor kelgan fikrlaringizni javob varaqasiga tushiring.

Savollar to'plami

Menga yoqadi:

1. Mashina va mexanizmlar bilan ishlash
2. Metroda sayr qilish
3. Radio havaskorlik
4. Binolar maketini tayyorlash
5. Vodoprovodni tuzatish
6. Rivojlanishi sust bolalarga yordam berish
7. Traktorlarga texnik xizmat ko'rsatish
8. Bolalarni mакtabga tayyorlash
9. Film ko'rish
10. Pul, foyda va zararni hisoblash
11. Radiotele apparaturalarni tuzatish
12. Velosiped tuzatish
13. Parashyutdan sakrash
14. Komпyuterda ishlash
15. Rangli rasm solish
16. Gaz plitalarini tuzatish
17. Bemorlarni tinchlantirish va ularga yordam ko'rsatish
18. Ekskavator bilan ariq va zovurlarni kavlash
19. Bolalar bilan ishlash
20. Kuy chalish
21. Jamoat tartibini saqlash
22. Oziq-ovqatlarni bezash, garnirlar tuzish
23. Mashinalarni "kavlashtirish"
24. Avtobus haydash
25. Radio detallarni almashtirish
26. G'isht terish
27. Obodonlashtirish
28. Dorishunoslik
29. O'rmon kesish, daraxtlarni tartibga solish
30. To'garak ishini tashkil qilish
31. Raqsga tushish
32. Aktsiya bozorini kuzatish
33. Ko'pchillikka taom pishirish
34. Metallarni biriktirish
35. Samolyotlarga texnik xizmat ko'rsatish
36. Hovliga chiroq tushirish
37. Yog'ochga ishlov berish
38. Rezъba chiqarish
39. Bemorlarga yordam ko'rsatish
40. Mevali ko'chatlar yetishtirish
41. Bolalarga kurash usullarini o'rgatish
42. Ashula aytish

43. Tejamkorlik bo'yicha maslahatlar berish
44. Haridni rejalashtirish
45. Ob-havoni oldindan aniqlash
46. Ralli musobaqalarida qatnashish
47. O't o'chirish
48. Metallni payvandlash
49. Aholini suv bilan ta'minlash
50. Doya-enaga faoliyati
51. Yerga ishlov berish
52. Suvda suzish, cho'milish
53. She'r yodlash va ifodali o'qish
54. Matematik misollar yechish va hisob-kitob qilish
55. Sochni zamonaviy turmaklarini o'ylab topish
56. Bichish, tikish
57. Daryoda yuklarni tashish
58. Akkumulyator tuzatish
59. Bino poydevorini quyish
60. O'rin-joy, xonadonni yig'ishtiruvchi robot yaratish
61. Bemorlarni parvarishlash
62. Mashinada paxta terish
63. Bolalar va yoshlarning bo'sh vaqtlarini tashkil etish bilan shug'ullanish
64. Latifa aytish va eshitish
65. Hujjatlar bilan ishlash
66. Dazmol, kir yuvish mashinasi kabilarni tuzatish.
67. Mebel yasash
68. Poezdda sayohat qilish
69. Pochta aloqasi operatori
70. Oyna qirqish
71. Liftda qavatga ko'tarilish
72. Nuqsonli bolalarga yordam berish
73. O'simlik va hayvonlarni parvarishlash
74. Sport musobaqalarini tashkil qilish
75. Loydan qo'g'irchoq yasash
76. Tejamkorlik
77. SHirinliklar tayyorlash
78. Yer osti boyliklarini izlab topish
79. Avtopoygalarni tomosha qilish
80. Kuygan lampochkalarni yangilash
81. Devorga gul qog'oz yopishtirish, bo'yash
82. Elektr-gazpayvandlash ishlari bilan shug'ullanish
83. Dezinfektsiyalash
84. Akvariumda baliq boqish
85. Bolalarga o'qishni, yozishni o'rgatish
86. Afisha va e'londar chizish

87. Bozordagi narx-navoni kuzatib borish

88. Dasturxon tuzash, mehmon kutish

Javoblar varaqasi

Savollarga javob berib bo'lganiningizdan so'ng har bir qatordagi savollarga berilgan javob ballarining yig'indisi 2-ustunga yoziladi. Yig'ilgan ballarning eng yuqorisiga mos keluvchi sohaning kasblariga Sizdagi qiziqish va moyillik darajasi yuqori.

T/r	Savol №	Ballar yig'indisi	Kasblar guruhi	Sohalar
1	1 12 23 34 45 56 67 78		№1 guruh	Sanoat
2	2 13 24 35 46 57 68 79		№2 guruh	Transport
3	3 14 25 36 47 58 69 80		№3 guruh	Aloqa
4	4 15 26 37 48 59 70 81		№4 guruh	Qurilish
5	5 16 27 38 49 60 71 82		№5 guruh	Uy.j k. x.
6	6 17 28 39 50 61 72 83		№6 guruh	Tibbiyot
7	7 18 29 40 51 62 73 84		№7 guruh	Qish.o'rmon x.
8	8 19 30 41 52 63 74 85		№8 guruh	Ped-ka
9	9 20 31 42 53 64 75 86		№9 guruh	San'at va mad.
10	10 21 32 43 54 65 76 87		№10 guruh	Ijt. Iqtisod.
11	11 22 33 44 55 66 77 88		№11 guruh	Savdo um.ovqat.

S	J	S	J	S	J	S	J	S	J	S	J	S	J	Jami	K.gr	Sohalar	
1		12		23		34		45		56		67		78		№1	Sanoat
2		13		24		35		46		57		68		79		№2	Transport
3		14		25		36		47		58		69		80		№3	Aloqa
4		15		26		37		48		59		70		81		№4	Qurilish
5		16		27		38		49		60		71		82		№5	Uy.j k. x.
6		17		28		39		50		61		72		83		№6	Tibbiyot
7		18		29		40		51		62		73		84		№7	Qish.o'rmon x.
8		19		30		41		52		63		74		85		№8	Ped-ka
9		20		31		42		53		64		75		86		№9	San'atvamad.
10		21		32		43		54		65		76		87		№10	Ijt. Iqtisod.
11		22		33		44		55		66		77		88		№11	Savdo.um.ovqat

1-guruh. Sanoat.

Sizda sanoat sohasiga mansub bo'lgan kasblarga qiziqish va moyillik mavjud. Siz samolyotsozlik, energetika, avtomobilsozlik, geologiya, metallurgiya, kimyo va yengil sanoat, oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish bo'yicha mutaxassislar

tayyorlaydigan kasb-hunar kollejlari shuningdek, matematika, fizika, kimyo fanlarini chuqur o'rganishga yo'naltirilgan akademik litseylarda ta'lim olishingiz mumkin.

2-guruhi. Transport

Sizda avtomobilarni boshqarish, ta'mirlash va ularga xizmat ko'rsatish bilan bog'liq bo'lган kasblarga moyillik yuqori. SHu bois Siz transport vositalari bilan bog'liq bo'lган kasblar tayyorlaydigan kasb-hunar kollejlarida yoki matematika va fizika fanlari yo'nalishidagi akademik litseylarda tahsil olishingiz mumkin.

3-guruhi. Aloqa

Sizda aloqa bilan bog'liq kasblarga moyillik yuqori. Siz telekommunikatsiya, radio, pochta, elektron uskunalarini boshqarish, xalqaro aloqa, telefon, telegraf va boshqa sohalar bo'yicha kasbiy tayyorgarlik yo'nalishidagi kasb-hunar kollejlari va fizika fanini chuqur o'rgatuvchi akademik litseylarga o'qishga borishingiz mumkin.

4-guruhi. Qurilish

Sizda qurilish sohasidagi kasblarga qiziqish mavjud. Sizga qurilish avtomobilari va mashinalarini boshqarish, sanitariya-texnik tizimlar, temir-beton mahsulotlari va konstruktsiyalar, duradgorlikka kabi kasblar tayyorlaydigan kasb-hunar ta'limi muassasalarida o'qishga tavsiya etiladi.

5-guruhi. Uy-joy, kommunal xo'jalik

Sizda suv, gaz ta'minoti, turar joy va jamoat binolariga xizmat ko'rsatish bilan bog'liq bo'lган kasblarga qiziqish mavjud. Siz uy-joy va kommunal xo'jaligi sohasi uchun kasblar tayyorlaydigan kasb-hunar kollejida yoki aniq fanlar yo'nalishidagi akademik litseylarda ta'lim olishingiz mumkin.

6-guruhi. Tibbiyat

Sizda sog'liqni saqlash sohasining umumiy amaliyot, stomatologiya, ortopediya, farmatsiya, tibbiy optika va laboratoriya tashhisi sohalaridagi kasblarga qiziqishingiz yuqori. Tibbiyat yo'nalishidagi kasb-hunar kollejida yoki kimyo va biologiyaga ixtisoslashgan akademik litseylarda o'qishingiz maqsadga muvofiq bo'ladi.

7-guruhi. Qishloq va o'rmon xo'jaligi

Sizga qishloq xo'jaligi va o'simlikshunoslik bilan bog'liq bo'lган kasblar yoqadi. Sizga qishloq xo'jaligi texnikalarini boshqarish, ta'mirlash va xizmat ko'rcatish, gidromelioratsiya, fermer xo'jaligi, agronomiya, zootexnika, o'simlikshunoslik, chorvachilik sohalari bo'yicha kasblar tayyorlaydigan yoki biologiya fanini chuqur o'rgatuvchi akademik litseylarda tahsil olishni tavsiya etiladi.

8-guruhi. Pedagogika

Sizda bolalarni tarbiyalash, parvarish qilish va ularni qo'llab-quvvatlashga bog'liq kasblarga moyillik mavjud. Siz maktabgacha ta'lim, maktabdan va sinfdan tashqari tarbiyaviy ishlar, boshlang'ich sinflarda sport va musiqa ta'limiga oid kasblarga tayyorlaydigan kasb-hunar kollejlarida ta'lim olishingiz mumkin.

9-guruhi. San'at va madaniyat

Sizni tasviriy san'at, rassomchilik, xoreografiya, teatr hamda madaniy oqartuv ishlari qiziqtiradi. Sizga madaniyat va san'at yo'nalishidagi kasblarga tayyorlaydigan kasb-hunar kollejlarida ta'lim olishni tavsiya etiladi.

10-guruhi. Ijtimoiy, iqtisodiy soha

Sizda moliya, buxgalteriya, menejment-marketing, bank, huquqshunoslik, yong'in

xavfsizligi, avto inspeksiya, ijtimoiy ta'minot va bojxonaga oid kasblarga qiziqish mavjud.

Sizga ijtimoiy, iqtisodiy sohadagi kasb-hunar kollejlarida va aniq fanlar yoki ijtimoiy yo'nalishdagi akademik litseyda ta'lim olishni tavsiya etiladi.

11-guruhi. Savdo, umumiy ovqatlanish va xizmat ko'rcatish

Sizda umumiy ovqatlanish, savdo, xizmat ko'rsatish, radiotexnika va teleapparaturalarni ta'mirlash, maishiy gaz va mashinalarni ta'mirlash, kino-fototexnika xizmatlari ko'rsatish sohalariga qiziqish mavjud.

Sizga savdo, umumiy ovqatlanish va xizmat ko'rsatish bo'yicha kasblarga tayyorlovchi kasb-hunar kollej yoki aniq fanlar akademik litseylarda o'qish tavsiya etiladi.

SHaxsning kommunikativ va tashkilotchilik moyilliklari diagnostikasi metodikasi

Ushbu metodika yuqori sinf o'quvchilari bilan olib boriladigan psixodiagnostik chora – tadbirlar va kasbga yo'naltirish ishlarida keng qo'llanadi. Uni individual tarzda ham, guruhda ham o'tkazish mumkin.

Ko'rsatma: Quyidagi savollarga javob bering, savolga «ha» deb javob bersangiz tegishli tartib raqami oldiga «+» belgisini, «yo'q» deb javob bersangiz «-» belgisini qo'ying.

Savollar.

1. Doim suhbatlashib turadigan do'stlaringiz ko'pmi?
2. Ko'p hollarda do'stlaringizni o'z fikringizga og'dira olasizmi?
3. Do'stlaringizdan biri sizni ranjitsa, uzoq vaqt xafa bo'lib yurasizmi?
4. Murakkab vaziyatlarda o'zingizni o'nglab olishingiz doim qiyin kechadimi?
5. Har xil yangi odamlar bilan tanishishga intilasizmi?
6. Ijtimoiy faoliyat bilan shug'ullanish sizga yoqadimi?
7. Vaqtingizni odamlar bilan emas, ko'proq kitob o'qish bilan yoki boshqa ishlar bilan o'tkazishni yoqtirishingiz rostmi?
8. Biror maqsadga erishish yo'lida oldingizda to'siqlar paydo bo'lsa, niyatingizdan tezda voz kechasizmi?
9. Yoshi sizdan ancha katta bo'lgan odamlar bilan oson aloqa o'rnata olasizmi?
10. Do'stlaringiz bilan har xil o'yinlar, ko'ngilochar tadbirlarni uyushtirishni yaxshi ko'rasizmi?
11. Yangi jamoaga qo'shilib olishingiz qiyinmi?
12. Bugun bajarilishi mumkin bo'lgan ishlarni tez – tez ertaga qoldirib turasizmi?
13. Notanish odamlar bilan oson aloqa o'rnata olasizmi?
14. Do'stlaringiz sizning fikringizga monad ish qilishini talab etasizmi?
15. Siz uchun yangi bo'lgan jamoaga qo'shilib ketishingiz qiyinmi?
16. Do'stlaringiz o'z majburiyatlarini, vazifalarini bajarmaganda, ular bilan «san - man»ga bormasligingiz rostmi?
17. Imkoniyat bo'ldi deguncha yangi odam bilan tanishishga, suhbatlashishga intilasizmi?
18. Muhim masalalarni hal etishda, ko'pincha tashabbusni o'z zimmamizga olasizmi?
19. Atrofdagilar g'ashingizga tegadimi, yolg'iz qolishni xohlaysizmi?
20. Notanish joyda o'zingizni tez o'nglab ololmasligingiz rostmi?
21. Doim odamlar orasida bo'lish sizga yoqadimi?

- 22.Boshlagan ishni oxiriga yetkaza olmasangiz asabiylashasizmi?
- 23.Biror yangi odam bilan tanishmoqchi bo'lganiningizda, sizda uyalish, tortinish hislari paydo bo'ladi?
- 24.Do'stlaringiz bilan ko'p so'xbatlashishdan charchaysizmi?
- 25.Jamoa bo'lib o'ynaladigan o'yinlarni yoqtirasizmi?
- 26.Do'stlaringiz manfaatlariga tegishli masalalarni hal etishda tez – tez tashabbuskor bo'lib turasizmi?
- 27.Siz unchalik yaxshi tanimaydigan odamlar davrasida o'zingizni ishonchsiz his etasizmi?
- 28.Kamdan kam hollarda fikringiz to'g'ri ekanligini isbotlashga urinasizmi?
- 29.Sizningcha, notanish odamlar guruhiga ko'tarinki kayfiyatni olib kirish osonmi?
- 30.Ijtimoiy faoliyatda ishtirok etasizmi?
- 31.Tanishlaringiz soni ozgina bo'lishiga intilasizmi?
- 32.Do'stlaringiz sizning fikringizga qo'shilmasa, baribir uni isbotlashga urinasizmi?
- 33.Notanish odamlar jamoasida o'zingizni erkin his etasizmi?
- 34.Turli tadbirlarni tashkil etishga jondildan kirishasizmi?
- 35.Ko'pchilik oldida so'zlayotganingizda o'zingizni erkin his etasizmi?
- 36.Turli uchrashuvlarga tez – tez kech qolib turasizmi?
- 37.Do'stlaringiz sizning fikringizga qo'shilmasa, baribir uni isbotlashga urinasizmi?
- 38.Ko'pincha do'stlaringiz diqqat – e'tibori markazida bo'lib turasizmi?
39. Notanish odamlar bilan suhbatlashganingizda ko'pincha o'zingizni noqulay his etasizmi?
- 40.Do'stlaringizning katta davrasida o'zingizni ishonchli his etishingiz rostmi?

Natijalarini qayta ishslash.

1. Sinaluvchilar javoblarini kalit bilan solishtirish va o'zaro mos javoblar miqdorini aniqlash kerak.

KALIT

Kommunikativ moyilllik				Tashkilotchilik moyilllik			
1. +	3. -	5. +	7. -	2. +	4. -	6. +	8. -
9. +	11. -	13. +	15. -	10. +	12. -	14. +	16. -
17. +	19. -	21. +	23. -	18. +	20. -	22. +	24. -
25. +	27. -	29. +	31. -	26. +	28. -	30. +	32. -
33. +	35. -	37. +	39. -	34. +	36. -	38. +	40. -

2. Kommunikativ moyilliklar koefitsenti /Kk/ ni va tashkilotchilik moyilliklari /Kt/ ni quyidagi formulalar orqali aniqlash.

Kk = o'zaro mos javoblar miqdori X 0,05

Kt= o'zaro mos javoblar miqdori X 0,05

Olingan natijalar 0 va 1 oralig'ida joylashadi. Ko'rsatkichning 1ga yaqin bo'lishi kommunikativ va tashkilotchilik moyilliklari yuqori ekanini, 0 ga yaqin bo'lishi esa past ekanligini ko'rsatadi.

Ko'rsatkichlarni baholash uchun quyidagi jadvaldan foydalilanadi.

Kk	Kt	Baho
0,1 – 0,45	0,2 – 0,55	1
0,46 – 0,55	0,56 – 0,65	2
0,56 – 0,65	0,66 – 0,70	3

0,66 – 0,75	0,71 – 0,80	4
0,76 – 1,00	0,81 – 1,00	5

Baholar tavsifi.

1. Kommunikativ va tashkilotchilik moyilliklari sust.
2. Kommunikativ va tashkilotchilik moyilliklari o'rtacha darajaga yetmaydi. Tashabbusni o'z zimmasiga olmaydigan, vaqt ni tanholikda o'tkazishni hush ko'radigan, notanish odamlar bilan suhbatlashayotganda, ko'pchilik oldida biror narsani aytib berayotganda o'zini noqulay his etadigan, xafagarchilikni og'ir o'tkazadigan odam.
3. Kommunikativ va tashkilotchilik moyilliklari o'rtacha. Odamlar bilan aloqa qilishga intiladigan, tanishlari doirasini chegaral qo'yaydigan, o'z fikrini himoya qiladigan odam. Ammo uning bu hususiyatlari barqaror emas.
4. Kommunikativ va tashkilotchilik moyilliklari yuqori darajada. Yangi sharoitda o'zini yo'qotib qo'yaydigan, tanishlari doirasini doim kengaytirishga intiluvchi, muloqotda tashabbuskor, ijtimoiy faoliyatda jonbozlik bilan ishtirok etadigan, murakkab vaziyatda mustaqil qaror qabul qila oladigan odam.
5. Kommunikativ va tashkilotchilik moyilliklari juda yuqori. Kommunikatsiya va tashkilotchilik ehtiyoji bo'lib qolgan, doim uni qondirishga intiladigan, yangi jamoada, yangi muhitda o'zini juda erkin tutadigan, tashabbuskor, o'z fikrini oxirigacha himoya qiladigan, turli o'yinlarni, tadbirlarni uyuştirishni yaxshi ko'radigan odam.

Kasbga moyillik so'rovnomasi

(L. Yovayshi metodikasi, G. Rezyapkina modifikatsiyasi)

Ushbu so'rovnomasi orqali insonlarni qaysi kasbiy faoliyatga moyilligini aniqlash uchun mo'ljallangan.

Yo'riqnomasi: O'zingizni qaysi kasbga moyilligingizni aniqlash uchun uch variantdan birini "a", "b" yoki "v" ni tanlang va blankada belgilang.

1. Kasbiy faoliyatimda men hoxlardimki...
 - A) har xil odamlar bilan muloqatda bo'lish
 - B) filmlarni suratga olish, kitob yozish, rasm chizish, sahna ko'rinishi va hokazo
 - V) hisob- kitob bilan shug'ullanish, xujjat yuritish
2. Kitob va kinofilmda meni ko'proq jalg qiladi...
 - A) mualifning hayolini kuzatishining imkoniyati borligi
 - B) baddiy forma, yozuvchi yoki rejissyorning maxorati
 - V) syujet, kahramonlarning harakati
3. Meni ko'proq Nobel mukofoti quvontiradi...
 - A) jamoatchilik faoliyatim uchun
 - B) fan taraqqiyotida
 - V) sa'nat sohasida
4. Men kim bo'lishiga ko'proq rozi bo'laman...
 - A) bosh mexanik
 - B) ekspeditsiya boshlig'i
 - V) bosh buxgalter
5. Odamlarning kelajagini belgilaydi...
 - A) odamlar o'rtasidagi o'zarotushunushlik
 - B) fanda yangilik yaratish

V) korxonaning rivojlanishi

6. Agar men rahbar bo'lsam, unda men bиринчи о'rinda e'tiborimni qaratar edim...

A) Ahil, bir biriga qovushgan jamoa to'zish

B) o'qishning yangi texnologiya ishlanmasini yaratish

V) xujjalat bilan ishlash

7. Texnika ko'rgazmasida meni ko'proq jalg qiladi...

A) ekponatlarning ichki qurilmasi

B) ulardan amaliyotda foydalanish

V) Eksponatlarning tashqi ko'rinishi (rangli shakli)

8. Odamlarda men ko'proq kadrlayman...

A) do'stonalik

B) jasurlik va jidamlik

V) ma'suliyatlik va tartiblik

9. Bush vaqtimda men hoxlardimki...

A) turli eksperiment va tajribalar o'tkazish

B) she'r yozish, musiqa yozish, rasm chizish

V) jismoniy mashg'ulotlar bilan shug'ullanish

10. CHet el sayohatlarda meni ko'proq qiziqtaradi...

A) o'zga mamlakatning tarixi va madaniyati bilan tanishish imkoniyati borligi

B) ekstremal sayohat (al'penizm, vindersfing, tog' chang'i uchish)

V) ishbilarmonlik muloqat

11. Menga suhbatlashish qizig'i bu...

A) odamlar o'rtasidagi o'zaro muloqat

B) yangi fan gipotezasi

V) mashina, kompyuterlarning yangi modeliga texnik xarakteristikani berish

12. Agar mening mакtabimda faqat uchta to'garak faoliyat yuritganda, men tanlardim...

A) texnika

B) musiqa

V) sport

13. Maktabda alohida e'tibor qaratish kerak...

A) o'qituvchi va o'quvchi o'rtasida o'zarotushunishlikka

B) o'quvchilarning sog'ligini qullab quvatlash, sport bilan shug'ullanishga

V) tartib intizomni kuchaytirishga

14. Men katta qoniqish bilan tomosha qilaman...

A) fan taraqqiyot fil'mlarni

B) madaniyat va sport to'g'risida ko'rsatuv

V) sport ko'rsatuvlari

15. Men hoxlardim ishlashni...

A) bolalar va o'smirlar bilan

B) mashina va mexanizm bilan

V) tabiyat ob'ektlar bilan

16. Maktab birinchi o'rinda qilish kerak...

A) odamlar bilan muloqat qilish bilimlarni berish

B) bilim berish

V) ish boshlashga o'rgatish

17. Hayotda asosiy...

A) ijod bilan shug'ullanishga imkoniyat bo'lishi

B) sog'lom hayot tarzini olib borish imkoniyati

V) o'z ishlaringni aniq rejalashtirish imkoniyati

18. Hukumat birinchi o'rinda qayg'urish kerak...

A) fuqorolarning huquq va qiziqishlarini himoya qilish to'g'risida

B) fan va texnika taraqqiyotdagi yutuqlar to'g'risida

V) fuqorolarning moddiy qoniqishi to'g'risida

19. Menga ko'proq yoqadigan darslar...

A) mehnat

B) jismoniy tarbiya

V) matematika

20. Menga ko'proq qiziq bo'lar edi...

A) mahsulot tarqatish

B) buyum ishlab chiqarish

V) mahsulotdarni ishlab - chiqarishni rejalashtirish.

21. Men maqolarni o'qishni yoqtiraman chunki...

A) taniqli olimlar va ularning yaratgan yangiliklardan habardor bo'laman

B) qiziqarli kashfiyotlarini o'rganaman

V) yozuvchilar, rassomlar va musqachalarning hayot va ijodi to'g'risida bilimlarga ega bo'laman

22. Bo'sh vaqtimda men yoqtiraman...

A) o'qishni, uylashni, fikrlashni

B) biror narsani yasash, tikish, hayvonlarni va o'simliklarni parvarishlash

V) ko'rgazmalarga, kontsertlarga, muzeylarga borish

23. Katta qiziqish uyg'otadigan ma'lumotlar men uchun bu...

A) fan yangiliklari

B) badiy ko'rgazma

V) iqtisodiy vaziyat

24. Men ishlashni hoxlardim...

A) odamlar ko'p bo'lган xonada

B) oddiy bo'lмаган (no'naviy) sharoitlarda

V) oddiy xonada

Жавоб варақаси

	I	II	III	IV	V	VI
1	a			б		B
2		a		б	b	
3	a	б		в		
4			a		б	B
5	a	б	в			
6	a	б				B

7		a	б	в		
8	a				б	B
9		a		б	в	
10				a	б	B
11	a	б	в			
12			a	б	в	
13	a				б	B
14		a		б	в	
15	a		б		в	
16	a		б			B
17				a	б	B
18	a	б	в			
19			a		б	B
20	a		б			B
21		a	б	в		
22		a	б	в		
23		a		б		B
24	a				б	B
Жами балл						

10-12 ball – yorqin ifodalangan kasbiy moyillik

7-9 ball - aniq turdag'i faoliyatga ksbiy moyillik

4-6 ball- sust ifodalangan kasbiy moyillik

0-3 ball- kasbiy moyillik ifodalanmagan.

Oltita qator-bu oltita faoliyat turi. Eng ko'p ball yig'gan faoliyat turlariga e'tibor bering. Sizning tanlagan kasbingiz kelib chiqqan natijalar bilan to'g'ri keladimi?

1 qator – Odamlar bilan ishlashga moyillik. Ya'ni boshqaruv, o'qitish, tarbiyallash, xizmat ko'rsatish (maishiy, tibbiy, axborot taxlil) kasblarga moyillik. Bu guruhga doir insonlar odamlar bilan til topishi olishlik, muloqatligi, ularni kayfiyatini tushuna bila olishi bilimlarga egadirlar.

2 qator – Kashfiyotchilik (zakovatli) kasblarga moyillik. Ilmiy aloqador kasblar. Maxsus bilimlardan tashqari bunday odamlar o'zining ratsionalligi, mustaqil fikrlashi, zehni o'tkirligi bilan ajralib turadi.

3 qator – Amaliyot ishlarga moyillik. Bu kasb doirasi juda keng: temir ishlab chiqarish va qayta ishlash, ta'mirlash, elektr va mexanik jihozlari ta'mirlash, binolarni ta'mirlash, transportni boshqarish, buyum ishlab-chiqarish.

4 qator – Estetik turdag'i kasblarga moyillik. Ijodiy xarakterdagi kasblar. Sahna-akterlik, badiy adabiyot, musiqa, ta'sviriy sa'nat faoliyati bilan aloqador. Ijodiy kasb odamlarini maxsus qobiliyatlaridan (musiqali, adabiyli, akterli) tashqari o'zining originalligi va mustaqilligi bilan ajralib turada.

5 qator – Ekstremal turdag'i faoliyatga moyillik. Bu kasbga sport, sayohat, ekspeditorlik, qo'riqlash, tezkor qidiruv faoliyati, armiya xizmati bilan aloqador kasblar kiradi. Bu kasblarning barchasi odamdan jismoniy tayyorgarlikni, sog'liqni, irodani talab qiladi.

6 qator – Iqtisodiy reja faoliyat turiga moyil kasb. Bu kasblar hisob-kitob, rejalashtirish (buxgalter, iqtisodchi), ish yurituvchilik, matn taxlili (redaktor, tarjimon, lingvist), sxematik ob’ktlar ta’svirchisi (chizmachi, topograf) kiradi. Bu kasb insondan tartiblikni talab qiladi.

Nazorat savollari:

- 1. Shaxsning hissiy-irodaviy sohasi va kasbga moslashish xususiyatlarini ifodalang**
- 2. Differensial diagnostic so’rovnomani o’tkazish davomida nimalarga e’tibor berish kerak.**
- 3. Shaxsning tashkilotchilik va kommunikativ qobiliyatlarini diagnostika qilishning qanday afzalliklari bor?**

II. Mustaqil ta'lim mavzulari

Talaba mustaqil ishi (TMI) - muayyan fandan o`quv dasturida belgilangan bilim, ko`nikma va malakaning ma'lum bir qismini talaba tomonidan fan o`qituvchisi maslahati va tavsiyalari asosida auditoriya va auditoriyadan tashqarida o`zlashtirilishiga yo`naltirilgan tizimli faoliyatdir.

O`qishning boshlang`ich bosqichlarida TMIni tashkil etish bir qator vazifalar bilan bog`liq. Ayniqsa, birinchi kurs talabalarining ta'limning navbatdagi turi - oliv ta'lim talablarga ko`nikishi qiyin kechadi. CHunki ular ta'lim olish jarayonida o`z mustaqil faoliyatlarini tashkil qilishni deyarli bilishmaydi. Ma'lumotlarni qaysi manbadan, qanday qilib topish, ularni tahlil qilish va zarurlarini ajratib olib tartibga solish, konseptlashtirish, o`z fikrini aniq va yorqin ifodalash, o`z vaqtlarini to`g`ri taqsimlash, shuningdek, aqliy va jismoniy imkoniyatlarini to`g`ri baholash ular uchun katta muammo bo`ladi. Eng asosiysi, ular mustaqil ta'lim olishga ruhan tayyor bo`lishmaydi.

SHuning uchun har bir professor-o`qituvchi dastlab talabada o`z qobiliyati va aqliy imkoniyatlariga ishonch uyg`otishi, ularni sabr-toqat bilan, bosqichma-bosqich mustaqil bilim olishni to`g`ri tashkil qilishga o`rgatib borishi lozim bo`ladi. Talabalar tomonidan mustaqil ravishda o`zlashtiriladigan bilim va ko`nikmalarning kursdan-kursga murakkablashib, kengayib borishini hisobga olgan holda ularning tashabbuskorligi va rolini oshirib borish zarur. SHunda mustaqil ta'limga ko`nika boshlagan talaba faqat o`qituvchi tomonidan belgilab berilgan ishlarni bajaribgina qolmay, o`zining ehtiyoji, qiziqishi va qobiliyatiga qarab, o`zi zarur deb hisoblagan qo`shimcha bilimlarni ham mustaqil ravishda tanlab o`zlashtirishga o`rganib boradi.

Talabalar mustaqil ishlarining shakli va hajmini belgilashda quyidagi jihatlar ehtiborga olinishi lozim:

- o`qish bosqichi;
- muayyan fanning o`ziga xos xususiyati va o`zlashtirishdagi qiyinchilik darjasи;
- talabaning qobiliyati hamda nazariy va amaliy tayyorgarlik darjasи (tayanch bilimi);
- fanning axborot manbalari bilan ta'minlanganlik darjasи;
 - talabaning axborot manbalari bilan ishlay olish darjasи.

Mustaqil ish uchun beriladigan topshiriqlarning shakli va xajmi, qiyinchilik darjasи semestrdan-semestrga ko`nikmalar hosil bo`lishiga muvofiq ravishda o`zgarib, oshib borishi lozim. Ya`ni, talabalarning topshiriqlarni bajarishdagi mustaqilligi darajasini asta-sekin oshirib, ularni topshiriqlarni bajarishga tizimli va ijodiy yondashishga o`rgatib borish kerak bo`ladi.

TMIni tashkil etishda talabaning akademik o`zlashtirish darjasи va qobiliyatini hisobga olgan holda quyidagi shakllardan foydalanish mumkin:

- fanning ayrim mavzularini o`quv adabiyotlari yordamida mustaqil o`zlashtirish, o`quv manbalari bilan ishslash;
- amaliy, seminar va laboratoriya mashg`ulotlariga tayyorgarlik ko`rib kelish;
- ma'lum mavzu bo`yicha referat tayyorlash;
- kurs ishi (loyihalari)ni bajarish;

- bitiruv malakaviy ishi va magistrlik dissertatsiyasi uchun materiallar to`plash;
- hisob-kitob va grafik ishlarini bajarish;
- maket, model va badiiy asarlar ustida ishlash;
- amaliyotdagi mavjud muammoning yechimini topish, test, munozarali savollar va topshiriqlar tayyorlash;
- ilmiy maqola, tezislar va mahruza tayyorlash;
 - amaliy mazmundagi nostandard masalalarini yechish va ijodiy ishlash;
 - uy vazifalarini bajarish va boshqalar;

Fan xususiyatidan kelib chiqqan holda talabalarga mustaqil ish uchun boshqa shakklardagi vazifalar ham topshirilishi mumkin. Talabalarga qaysi turdagи topshiriqlarni berish lozimligi kafedra tomonidan belgilanadi. Topshiriqlar puxta o`ylab ishlab chiqilgan va ma'lum maqsadga yo`naltirilgan bo`lib, talabalarning auditoriya mashg`ulotlarida olgan bilimlarini mustahkamlash, chuqurlashtirish, kengaytirish va to`ldirishga xizmat qilishi kerak.

Mavzuni mustaqil o`zlashtirish. Faning xususiyati, talabalarning bilim darajasi va qobiliyatiga qarab ishchi o`quv dasturiga kiritilgan alohida mavzular talabalarga mustaqil ravishda o`zlashtirish uchun topshiriladi. Bunda mavzuning asosiy mazmunini ifodalash va ohib berishga xizmat qiladigan tayanch iboralar, mavzuni tizimli bayon qilishga xizmat qiladigan savollarga ehtibor qaratish, asosiy adabiyotlar va axborot manbalarini ko`rsatish lozim.

Topshiriqni bajarish jarayonida talabalar mustaqil ravishda o`quv adabiyotlaridan foydalanib ushbu mavzuni konspektlashtiradilar, tayanch iboralarning mohiyatini anglagan holda mavzuga taalluqli savollarga javob tayyorlaydilar. Zarur hollarda (o`zlashtirish qiyin bo`lsa, savollar paydo bo`lsa, adabiyotlar yetishmasa, mavzuni tizimli bayon eta olmasa va h.k.) o`qituvchidan maslahatlar oladilar.

Mustaqil o`zlashtirilgan mavzu bo`yicha tayyorlangan matn kafedradagi o`qituvchilar tarkibidan tashkil etilgan komissiya oldida himoya qilinadi.

Referat tayyorlash. Talabaga qiyinchilik darajasi uning shaxsiy imkoniyatlari, qobiliyati va bilim darajasiga muvofiq bo`lgan biror mavzu bo`yicha referat tayyorlash topshiriladi. Bunda talaba asosiy adabiyotlardan tashqari qo`shimcha adabiyotlardan (monografiyalar, ilmiy, uslubiy maqolalar, Internetdan olingan ma'lumotlar, elektron kutubxona materiallari va h.k.) foydalanib materiallar yig`adi, tahlil qiladi, tizimga soladi va mavzu bo`yicha imkon darajasida to`liq, keng ma'lumot berishga harakat qiladi. Zarur hollarda o`qituvchidan maslahat va ko`rsatmalar oladi.

Yakunlangan referat kafedrada ekspertlar ishtirokida himoya qilinadi.

Ko`rgazmali vositalar tayyorlash. Talabaga muayyan mavzuni bayon qilish va yaxshiroq o`zlashtirish uchun yordam beradigan ko`rgazmali materiallar (jadvallar, chizmalar, rasmlar, xaritalar, maketlar, modellar, grafiklar, namunalar, musiqiy asar, kichik badiiy asar va h.k.) tayyorlash topshiriladi. Mavzu o`qituvchi tomonidan aniqlanib, talabaga ma'lum ko`rsatmalar, yo`l-yo`riqlar beriladi. Ko`rgazmali vositalarning miqdori, shakli va mazmuni talaba tomonidan mustaqil tanlanadi. Bunday vazifani bir mavzu bo`yicha bir necha talabaga topshirish ham mumkin.

Talaba ko`rgazmali materiallardan foydalanish bo`yicha yozma ravishda

tavsiyalar tayyorlaydi va kafedrada himoya qiladi.

Mavzu bo`yicha testlar, munozarali savollar va topshiriqlar tayyorlash. Talabaga muayyan mavzu bo`yicha testlar, qiyinchilik darajasi har xil bo`lgan masalalar va topshiriqlar, munozaraga asos bo`ladigan savollar tuzish topshiriladi.

Bunda o`qituvchi tomonidan talabaga testga qo`yiladigan talablar va uni tuzish qonun-qoidalari, qanday maqsad ko`zda tutilayotganligi, muammoli savollar tuzishda mavzuning munozarali momentlarini qanday ajratish lozimligi, topshiriqlarni tuzish usullari bo`yicha yo`l-yo`riq beriladi. Konsul'tatsiya paytlarida bajarilgan ishlarning qo`yilgan vazifa va talablarga javob berish darajasi nazorat qilinadi (qayta ishlab kelish, aniqlashtirish yoki to`ldirish taklif etilishi mumkin).

Test, savol va topshiriqlar majmuasi kafedrada ekspertlar ishtirokida himoya qilinadi.

Ilmiy maqola, tezislar va ma'ruzalar tayyorlash. Talabaga biron bir mavzu bo`yicha (mavzuni talabaning o`zi tanlashi ham mumkin) ilmiy (referativ) harakterda maqola, tezis yoki ma'ruza tayyorlash topshirilishi mumkin. Bunda talaba o`quv adabiyotlari, ilmiy-tadqiqot ishlari, dissertatsiyalar, maqola va monografiyalar hamda boshqa axborot manbalaridan mavzuga tegishli materiallar to`playdi, tahlil qiladi, zarurlarini ajratib olib, tartibga soladi, shaxsiy tajribasi va bilimi, ilmiy natijalariga asoslangan holda qo`shimchalar, izohlar kiritadi, o`z nuqtai-nazarini bayon etadi va asoslaydi. Bunda talaba o`qituvchi bilan hamkorlikda ishlaydi.

Tayyorlangan maqola, tezis yoki ma'ruza kafedrada himoya qilinadi.

Amaliy mazmundagi nostandard masalalarni yechish va ijodiy ishlash. Bir mavzu yoki bo`lim bo`yicha nostandard, alohida yondashish talab qilinadigan, nazariy ahamiyatga ega bo`lgan amaliy topshiriqlar, ijodiy yondashish talab qilinadigan ilmiy-ijodiy vazifalar, modellar, maketlar, namunalar yaratish vazifasi toyshirilishi mumkin. Amaliy topshiriqlar masalani hal qilishning optimal variantlarini izlashga va topishga qaratilgan bo`lishi kerak.

Talabaning qiziqish va qobiliyatiga qarab, unga ilmiy harakterdagi topshiriqlar berish, o`qituvchi bilan hamkorlikda ilmiy maqolalar tayyorlash va chop ettirish mumkin.

Talabalar mustaqil ishini samarali tashkil etishda:

tizimli yondoshish;

barcha bosqichlarini muvofiqlashtirish va uzviylashtirish;

bajarilishi ustidan qat`iy nazorat o`rnatish;

tashkil etish va nazorat qilish mexanizmlarini takomillashtirib borish zarur.

Mustaqil ish topshiriqlari muvaffaqiyatli yakunlanishi uchun quyidagi talablar bajarilishi lozim:

maqsad (bilimni mustahkamlash, yangi bilimlarni o`zlashtirish, ijodiy faollikni oshirish, amaliy ko`nikma va malakalarni shakllantirish va h.k.), aniq asoslanishi;

vazifa va topshiriqlarning aniq-ravshan belgilanishi;

topshiriqlarni bajarish algoritmi va metodlaridan talabalarning yetarli darajada xabardor bo`lishi;

maslahat va boshqa yordam turlarining to`g`ri belgilanishi (yo`llanma va ko`rsatma berish, mavzuning mazmuni va mohiyatini tushuntirish, muammoli

topshiriqlarni bajarish usullari bo`yicha tushuncha berish, ayrim muammoli vaziyatlarni birgalikda hal qilish va x.k.);

hisobot shakli va baholash mezonini aniq belgilash;

savol-javob, bajarilgan ish mazmuni va mohiyatini tushuntirib berish, yozma shaklda bayon qilish va h.k.).

Talabalar mustaqil ishini shartli ravishda ikkiga ajratish mumkin:

auditoriyada amalga oshiriladigan TMIlari. O`tilgan mavzuni qayta ishslash, kengaytirish va mustahkamlashga oid topshiriqlar bajariladi;

auditoriyadan tashqarida amalga oshiriladigan TMIlari. O`quv dasturidagi ayrim mavzularni mustaqil holda o`zlashtirish, uyga berilgan vazifalarni bajarish, amaliy va laboratoriya ishlariga tayyorgarlik ko`rib kelish, ijodiy va ilmiy-tadqiqot harakteridagi ishlar va h.k.

«Kasbiy psixologiya»fanidan mustaqil ish bajarilishining kalendar tematik rejasি

T/r	Mavzu nomlari	Mashg`ulot turi	Ajratilgan soat	Talaba mustaqil ishi mavzusi va mazmuni	Hisobot shakli	Bajarilishi haqida ma'lumot	O`qituv-chining imzosi
1	Mehnat faoliyati bilan shug`ullanuvchi shaxslarga qo`yiladigan kasbiy va shaxsiy <i>talabalar</i>	Mustaqil ish	2	Adabiyotlar tahlili, mavzuga oid tayanch so`zlar, referat yozish	Og`zaki, savol-javob	3-4-semestr	
2	“Xalq bilan muloqot va inson manfaatlari yili”da yoshlarni kasbga yo’llash tadbirdilari	Mustaqil ish	2	Adabiyotlar tahlili, mavzuga oid tayanch so`zlar, referat yozish	Og`zaki, savol-javob	3-4-semestr	
3	Kasbiy psixologiyaning ilmiy-tadqiqot metodlari.	Mustaqil ish	2	Adabiyotlar tahlili, mavzuga oid tayanch so`zlar, referat yozish	Og`zaki, savol-javob	3-4-semestr	
4	Professiografiya to`g`risida tushuncha	Mustaqil ish	2	Adabiyotlar tahlili, mavzuga oid tayanch so`zlar, referat yozish	Og`zaki, savol-javob	3-4-semestr	
5	Kasbiy muvofiqlikning psixofiziologik asoslari	Mustaqil ish	2	Adabiyotlar tahlili, mavzuga oid tayanch so`zlar, referat yozish	Og`zaki, savol-javob	3-4-semestr	
6	Tashhis markazlarining faoliyati haqida	Mustaqil ish	2	Adabiyotlar tahlili, mavzuga oid tayanch so`zlar, referat yozish	Og`zaki, savol-javob	3-4-semestr	
7	Kasb tanlashga yo’llashning umumiyl masalalari	Mustaqil ish	2	Adabiyotlar tahlili, mavzuga oid tayanch so`zlar, referat yozish	Og`zaki, savol-javob	3-4-semestr	
8	Kasb tanlashda ota-onalarning tutgan o`rni	Mustaqil ish	2	Adabiyotlar tahlili, mavzuga oid tayanch so`zlar, referat yozish	Og`zaki, savol-javob	3-4-semestr	
9	Kasblarning psixologik tasnifi	Mustaqil ish	2	Adabiyotlar tahlili, mavzuga oid tayanch so`zlar, referat yozish	Og`zaki, savol-javob	3-4-semestr	
10	Professiografiya to`g`risida tushuncha.	Mustaqil ish	2	Adabiyotlar tahlili, mavzuga oid tayanch so`zlar, referat yozish	Og`zaki, savol-javob	3-4-semestr	
11	Kasb psixologiya fanining predmeti	Mustaqil ish	2	Adabiyotlar tahlili, mavzuga oid tayanch so`zlar, referat yozish	Og`zaki, savol-javob	3-4-semestr	

12	Reorientatsiya psixologik muammo sifatida	Mustaqil ish	2	Adabiyotlar tahlili, mavzuga oid tayanch so'zlar, referat yozish	Og'zaki, savol-javob	3-4-semestr	
13	Kasb tanlashda o'qituvchilarning o'rni	Mustaqil ish	2	Adabiyotlar tahlili, mavzuga oid tayanch so'zlar, referat yozish	Og'zaki, savol-javob	3-4-semestr	
14	Milliy kadrlarni tayyorlash sifatida bo'lgan talablar	Mustaqil ish	2	Adabiyotlar tahlili, mavzuga oid tayanch so'zlar, referat yozish	Og'zaki, savol-javob	3-4-semestr	
15	Kasbiy moslik va shaxsning individual-psixologik xususiyatlari	Mustaqil ish	2	Adabiyotlar tahlili, mavzuga oid tayanch so'zlar, referat yozish	Og'zaki, savol-javob	3-4-semestr	
16	Kasblarning psixologik tashhisi	Mustaqil ish	2	Adabiyotlar tahlili, mavzuga oid tayanch so'zlar, referat yozish	Og'zaki, savol-javob	3-4-semestr	
17	Professiografiyaning moxiyati, uning yuzaga kelish tarixi	Mustaqil ish	2	Adabiyotlar tahlili, mavzuga oid tayanch so'zlar, referat yozish	Og'zaki, savol-javob	3-4-semestr	
18	Mehnat psixologiyasi haqida	Mustaqil ish	2	Adabiyotlar tahlili, mavzuga oid tayanch so'zlar, referat yozish	Og'zaki, savol-javob	3-4-semestr	
19	Kasbiy maslahatning psixologik asoslari	Mustaqil ish	2	Adabiyotlar tahlili, mavzuga oid tayanch so'zlar, referat yozish	Og'zaki, savol-javob	3-4-semestr	
20	Kasb psixologiyasining ilmiytadqiqot metodlari	Mustaqil ish	2	Adabiyotlar tahlili, mavzuga oid tayanch so'zlar, referat yozish	Og'zaki, savol-javob	3-4-semestr	
21	Kasb psixologiyasi fanining metodologik asoslari	Mustaqil ish	2	Adabiyotlar tahlili, mavzuga oid tayanch so'zlar, referat yozish	Og'zaki, savol-javob	3-4-semestr	
22	Reorientatsiya holatini misollar bilan izohlash	Mustaqil ish	2	Adabiyotlar tahlili, mavzuga oid tayanch so'zlar, referat yozish	Og'zaki, savol-javob	3-4-semestr	
23	Rubinshteyn nazariyasi bo'yicha shaxs xususiyatlari	Mustaqil ish	2	Adabiyotlar tahlili, mavzuga oid tayanch so'zlar, referat yozish	Og'zaki, savol-javob	3-4-semestr	
24	Shaxsning umumiy xususiyatlari	Mustaqil ish	2	Adabiyotlar tahlili, mavzuga oid tayanch so'zlar, referat yozish	Og'zaki, savol-javob	3-4-semestr	
25	Mehnat va ehtiyojlar psixologiyasi	Mustaqil ish	2	Adabiyotlar tahlili, mavzuga oid tayanch so'zlar, referat yozish	Og'zaki, savol-javob	3-4-semestr	
26	Shaxsning qiziqishlar va layoqati. "Qiziqishlar xaritasi"	Mustaqil ish	2	Adabiyotlar tahlili, mavzuga oid tayanch so'zlar, referat yozish	Og'zaki, savol-javob	3-4-semestr	
27	Mehnatni ilmiy tashkil etishning tarixiy saboqlari	Mustaqil ish	2	Adabiyotlar tahlili, mavzuga oid tayanch so'zlar, referat yozish	Og'zaki, savol-javob	3-4-semestr	
28	Insonlarga qo'yiladigan mehnat talablari	Mustaqil ish	2	Adabiyotlar tahlili, mavzuga oid tayanch so'zlar, referat yozish	Og'zaki, savol-javob	3-4-semestr	
29	Shaxsni o'rganishning umumiy metodlari	Mustaqil ish	2	Adabiyotlar tahlili, mavzuga oid tayanch so'zlar, referat yozish	Og'zaki, savol-javob	3-4-semestr	
30	Kasb tanlashda ota-onalarning tutgan o'rni	Mustaqil ish	2	Adabiyotlar tahlili, mavzuga oid tayanch so'zlar, referat yozish	Og'zaki, savol-javob	3-4-semestr	
			60				

*Izoh: TMI hajmidan kelib chiqib o`quv jadvaliga haftasiga bir marta kunning ikkinchi yarmiga konsultatsiya darsi qo'yiladi

III. GLOSSARIY

Avtokinetik fenomen. O’z-o’zidan xarakatlanish (grekcha «auto» o’zi, «kinetika» xarakat). Qorong’ida xarakatsiz nur manbaining xarakatlanayotganga o’xshab tuyulishi.

Agressiya. Kimgadir zarar yetkazish uchun yo’naltirilgan jismoniy yoki verbal xulq. Laboratoriya eksperimentlarida agressiya deganda xissiyotga ta’sir qilish uchun elektr toki bilan zarba berish yoki so’z bilan nafsoniyatiga tegish tushuniladi. Agressiyaning bunday sotsial-psixologik ta’rifi bo’yicha odam aggressiv bo’lmagan holda qaysar (naporistiy) bo’lishi mumkin.

Adaptatsiya darajasi fenomeni. Qo’zg’ovchilarning aniq darajasiga moslashish va oqibatda aynan shu darajada sodir bo’ladigan o’zgarishlarga javob berish hamda diqqatni qaratish tendentsiyasi.

Altruizm. Ongli shaxsiy egoistik manfaatlar bilan bog’liq bo’lmagan kimgadir yordam ko’rsatish motivi.

Antikateksis – instinktlarning qondirilishiga imkon bermaydigan to’sqinlik.

Atributsiya nazariyasi. Odamlar boshqalarning xulqini qanday tushuntirishadi: xarakatlar sababini odamning ichki dispozitsiyalari (barqaror sifatlar, motivlar va ustanonvklari)ga bog’lashadimi yoki tashqi vaziyatlargami?- xaqidagi nazariya.

Atributsiyaning fundamental xatosi. Kuzatuvchilarning xulqqa vaziyat ta’sirini kamsitib va dispozitsiya (ichki shaxsiy sifatlar) ta’sirini bo’rttirib baholash tendentsiyasi. (SHuningdek mos kelish ishonchi deb ham atalib, biz aksariyat odamning xulqi uning dispozitsiyalariga mos keladi deb hisoblaymiz).

«Begona» guruhning gomogenligi samarasi. «Ularning» guruhi «bizning» guruhimizga nisbatan ko’proq bir biriga o’xshaydi. SHunday qilib «ular – bir biriga o’xhashadi; biz – turli tumanmiz».

Bixevorial tasdiq. Ijtimoiy kutishlar odamlarni shunday xarakat qilishga majbur qilib, ularning xulqi boshqalarni shu kutishlarni tasdiqlashga undashga sabab bo’ladigan, o’z-o’zidan amalga oshadigan bashoratlar tipi.

Verifikatsiyalashganlik. Nazariyaning qiymatini aniqlash uchun ishlatalidigan mezon. Adekvat nazariya qat’iy aniqlangan, mantiqiy o’zaro bog’langan va empirik asoslanadigan kontseptsiyalardan iborat bo’lishi kerak.

Vositachilik. Uchinchi betaraf tomonning aloqalarni yaxshilash va takliflar kiritish yo’li bilan ziddiyatni bartaraf qilishga intilishi.

Gender. Psixologiyada- «erkak», «ayol» tushunchasiga aniqlik beruvchi sotsial-biologik tavsifnoma.Jins biologik kategoriya bo’lganligi uchun sotsial psixologlar aksariyat biologik asoslangan gender farqlarini «jinsiy farqlar» sifatida qarashadi.

Gender roli. Erkaklar va ayollar uchun ulardan kutiladigan xulq (norma) namunalari to’plami.

Genital bosqich – psixoseksual taraqqiyotning to’rtinchi va oxirgi bosqichi bo’lib, bunda yetuk geteroseksual munosabatlar shakllanadi (bosqich o’smirlikdan umrning oxirigacha davom etadi).

Genital xarakter – Freyd tomonidan ideal psixik salomatlikni belgilash uchun kiritilgan atama. Xarakterning bunday tipi seksuallilikning me’yoriy darajasiga ega bo’lgan,

boshqalar bilan intim munosabatlarga qobil, o'z sermaxsul faoliyati bilan jamiyatga hissa qo'shadigan individuumlarda uchraydi.

Guruh. Bir necha daqiqadan ko'proq vaqt mobaynida bir-biri bilan hamkorlik qiladigan, bir-biriga ta'sir qiladigan, o'zini «biz» sifatida idrok qiladigan ikki va undan ortiq odamlar.

Guruh ichida. Guruhgaga mansublik, umumiy identichlilik xissiga ega bo'lgan «Biz» - odamlar guruhi.

Depressiv realizm. Yengil depressiya holatida (o'z «Men»i foydasiga emas) ob'ektiv mulohazalar, atributsiya va bashoratlar tuza oladigan odamlar tendentsiyasi.

Determinizm. Bizning butun xulqimiz qandaydir xodisalar ta'siriga bog'liq va shuning uchun erkin namoyon bo'lmaydi deb tasdiqlash.

Do'stlik-muxabbat. Xayoti bizning shaxsiy xayotimiz bilan chambarchas bog'liq odamga nisbatan xis qilinadigan muloyimlik.

Jipslik. Guruh a'zolarining masalan, o'zaro simpatiya xisobiga bir birlari bilan aloqalari darajasi, «Biz» xissi.

Jismoniy jozibadorlik stereotipi. Jismoniy jozibador odamlar ijtimoiy ma'qul sifatlarga ega bo'lishadi prezumptsiyasi: nima chiroyli bo'lsa demak, yaxshi.

ID – mazmuni nasliy yo'l bilan olingan omillardan iborat bo'lgan shaxs tuzilishining qirrasi. ID o'ta sezgir, irratsional va har qanday cheklashlardan holi.

Identifikatsiya – bolaning o'z shaxsiy xavotiridan ozod bo'lish va ichki ziddiyatlarini susaytirish uchun boshqalarning, birinchi navbatda ota – onasining xarakter xususiyatlarini o'zlashtirishi jarayoni.

Identichlilik diffuziyasi. Yosh yigit yoki qiz kasb yoki mafkuraviy e'tiqodlarni tanlash bilan bog'liq identichlilik inqirozini boshdan kechiradigan yoki boshdan kechirmaydigan Ego-identichlilik maqomi, lekin shu bilan birga qiz yoki yigit aniq bir qarorga kelgani yo'q yoki shunday qaror qabul qilishdan xali juda uzoq.

Ijtimoiy reprezentatsiyalar. Hamma tomonidan qabul qilingan e'tiqodlar. Bizning qarashlarimiz va madaniy mafkuramizni o'z ichiga oladigan, ko'pchilik tomonidan ma'qullanadigan g'oya va qadriyatlar. Bizning ijtimoiy reprezentatsiyalarimiz bizga dunyonni izohlashga yordam beradi.

Ijtimoiy fasilitatsiya. 1) Birlamchi mazmuni-ko'pchilik orasida oddiy yoki yaxshi tanish vazifalarni yaxshiroq bajarishga undash tendentsiyasi. 2) Zamonaviy mazmuni-boshqalar oldida dominant reaktsiyalarning kuchayishi.

Ijtimoiy o'rGANISH nazariyasi. Ijtimoiy xulqqa kuzatish va imitatsiya vositasida hamda mukofotlash va jazolash ta'siri ostida o'rGANAMIZ deb xisoblovchi nazariya.

Ikki bosqichli kommunikatsion oqim. Ommaviy axborot vositalari ta'sirining, o'z navbatida atrofdagilarga ta'sir ko'rsatadigan «fikr liderlari» orqali amalga oshadigan jarayon.

Individualizm. Guruh maqsadlariga nisbatan o'z shaxsiy maqsadlariga ustunlik berish kontseptsiyasi. Bunda o'z-o'zini identifikatsiya qilish o'zini guruh bilan o'xshatish orqali emas balki shaxsiy atributsiyalar vositasida amalga oshiriladi.

Instinkt – tug'ma, organizm to'qimalari darajasida lokallashgan, tashqi namoyon bo'lishga va keskinlikni bartarf qilishga intiladigan qo'zg'alish holati. Freydning fikricha instinkt organizm tug'ma qo'zg'alish holatining mayllar shaklida

ifodalanadigan psixik namoyon bo'lishidan iborat.

Instinktiv xulq. O'rganish bilan bog'liq bo'limgan, shu turning hamma vakillarida namoyon bo'ladigan tug'ma xulq.

Instrumental agressiya. Qandaydir boshqacha maqsadga erishish vositasi bo'lgan agressiya.

Integral kelishuv. «Men yutdim – sen yutding» tipidagi, xar ikki tomonning manfaatlari o'zaro foydada birlashadigan kelishuv.

Informatsion ta'sir. Boshqa odamlarning reallik xaqidagi mulohazalarini qabul qilish natijasida paydo bo'ladigan konformizm.

Iraqchilik. 1) Alovida irq vakillariga nisbatan individual noto'g'ri ustanovkalar va kamsituvchi xulq yoki 2) alovida irq vakillariga tobek holati majbur qilinadigan institutsional amaliyot (xatto bu amaliyot bidoat bilan motivlashgan bo'lsa ham).

Ichki mutanosiblik. Nazariyaning qiymatini aniqlash uchun ishlatiladigan mezon. Adekvat nazariya bir-biridan farq qiladigan fenomenlarni ichki mutanosiblik usuli bilan izohlashi lozim.

Katarsis. Emotsional bo'shanish. Agressiyani katarsis orqali shunday tushuntirish mumkin: individuum agressiv energiyani yoki agressiv xarakat vositasida, yoki tasavvurdagi agressiya xisobiga «ozod qilganda» agressiv qo'zg'alish susayadi.

Kognitiv dissonans. Biri biriga qarama qarshi bo'lgan ikkita fikr paydo bo'lganligini anglashda paydo bo'ladigan zo'riqish. Masalan, biz yetarlicha asosga ega bo'lmay turib, o'zimizning ustanovkalarimizga qarama-qarshi xarakat qilanimizda yoki mantiq boshqasini talab qilib turib boshqa variant foydasiga qaror qabul qilanimizda dissonans paydo bo'ladi.

Kommunikatsiya kanali. Yuzma-yuz, yozma, kinoplyonkada yoki boshqa biron yo'l bilan ma'lumot uzatish usuli.

Kompetentlilik. O'zining shaxsiy muvaffaqiyatliligi va foydaliligi xissidan kelib chiqadigan, odamga o'zining atrofdagilar bilan samarali o'zaro hamkorlik qilish qobiliyatini anglatadigan kuch va ishonchda ifodalanadigan psixosotsial sifat.

Konflikt. Idrok qilinadigan xarakat va maqsadlar nomuvofiqligi.

Konformizm. Guruhning real yoki tasavvurdagi bosimi ostida xulq yoki e'tiqodlarni o'zgartirish.

Korrelyatsion tadqiqotlar. O'zgaruvchi qiymatlar o'rtasida paydo bo'ladigan tabiiy aloqalarni o'rganish.

Ko'chirish. Agressiyani frustratsiya manbaidan boshqa nishonga o'tkazish. Yangi nishon odatda ijtimoiy ma'qulroq bo'ladi.

Latent davr – libidoning mudroqlik va diqqatning o'z jinsiga mansub tengdoshlari bilan munosabatlarda qiziqish va malakalarni rivojlantirishga jamlanadigan davri.

Libido – asosan jinsiy xulqdan lazzat qidiradigan psixik energiyaning bir qismi (seksual energiya).

Liderlik. Alovida a'zolar guruhi faoliyatini motivlashtiradigan va o'z orqasidan ergashtiradigan jarayon.

Ma'qullah. Ijtimoiy bosimga mos xarakat va e'tiqodni o'z ichiga oladigan konformizm.

Madaniyat. Odamlarning katta guruhi uchun umumiyl bo'lgan, avloddan avlodga

uzatiladigan tushunchalar, ustanovkalar, odatlar va xulq xususiyatlari.

«Men» - struktura. Odamning o'z-o'ziga taalluqli bo'lgan ma'lumotni qayta ishlashni tashkil qiladigan va yo'naltiradigan o'z-o'ziga ishonch.

Nazorat illyuziyasi. Aslida nazorat qilib bo'lmaydigan xodisalarni shaxsiy nazoratim ostida yoki yana ham kuchliroq nazorat qilinayapti deb idrok qilish.

Nazorat lokusi. Odamlar o'z xayotlarini shaxsiy intilishlari va xarakatlari orqali «ichkaridan», yoki tasodiflar va tashqi kuchlar orqali «tashqaridan» nazorat qilinadi deb idrok qilishlari darajasi.

Nevrotik xavotir – EGO nazorat qilib bo'lmaydigan instinkтив mayllar tahdidi ostida bo'lganda individ tomonidan his qilinadigan qo'rquv ko'rinishidagi emotсional javob (ID – (U ong osti) dan kelayotgan impulslar EGOga noxushlik keltiradi degan qo'rquv).

Ong – individuum har qanday ayni paytda anglaydigan fikr va hissiyotlar.

Ong oldi – har qanday ayni paytda individuum anglamaydigan, lekin ozgina qiyinchilik yoki umuman qiyalmasdan (masalan: tug'ilgan kuningiz) anglanishi mumkin bo'lgan fikr va hissiyotlar.

Ongsizlik – odamning o'zi anglamagan holda, avtomatik tarzda bajaradigan, uyqu, gipnoz, lunatiklik holatidagi harakatlari ongsiz hisoblanadi. Ongsizlik dialektikaning birinchi qonuniga ko'ra ongga antagonistik, siqib chiqarilgan tabiiy instinktlarning makoni hisoblanadi. Ongsizlik tug'ma bo'lib, odamning butun xulqini belgilab beradi.

Proektsiya – individuum o'zining nojoiz istaklarini boshqalarga tegishli deb xisoblaydigan himoya mexanizmi.

Psixikaning ijtimoiy – madaniy asosga proektsiya qilinishi – Freydning bu nazariyası marksistlar tomonidan keskin tanqid qilingan. Darwin nazariyasiga tayanilsa, “ontogenet filogenezning qaytarilishi” hisoblanadi, ya’ni organizmning individual taraqqiyoti butun turning taraqqiyotini qaytaradi. SHunday qilib odamning taraqqiyotini kuzatib, jamiyatning qanday rivojlanishini aytib berish mumkin, chunki odamning taraqqiyoti jamiyat taraqqiyotini aynan takrorlaydi.

Psixoanaliz – Freyd tomonidan yaratilgan taraqqiyot, dinamika va o'zgarishlarning shaxs qurilmasi haqidagi nazariya. Psichoanalizda xulqni boshqarishda biologik va anglanmaydigan omillarga katta e'tibor beriladi. SHuningdek inson xulqi o'z asosiga ko'ra irratsional va ID (U – ong osti), EGO (Men – individual ong) va SUPEREGO (Yuqori – Men, ijtimoiy ong, madaniyat) ning o'zaro harakati natijasidan iborat deb tasdiqlanadi.

Psixodinamik nazariya – anglanmaydigan psixik yoki emotсional motivlarni inson xulqining asosi deb taokidlaydigan nazariya.

Psixologiyada evolyutsion yo'nalish. Tabiiy tanlanish qonunlariga aoslangan xulq evolyutsiyasi taolimoti. Bu taolimot tabiiy tanlanish aloxida sharoitlarda u yoki bu genlarning saqlanishi va tarqalishiga sharoit yaratadigan informatsiyani idrok qilish usuli va xulq shaklini yaratadi deb xisoblaydi.

Realistik guruhiy ziddiyat nazariyasi. Bid'at guruhlar o'rtasida defitsit resurslar uchun raqobat natijasi deb xisoblaydigan nazariya.

Realistik xavotir – tahdid yoki atrof borliqdagi real xavfni idrok qilishdan paydo bo'ladigan emotсional javob.

Reallik tamoyili – mos keluvchi ob'ekt va yoki shu ehtiyojni qondirish uchun sharoit topilmaguncha instinktni qondirishni kechroq muddatga surib turishni ko'zda tutadigan yo'nalish.

Regressiya – stressni bartaraf qilishga urinishda birmuncha soddaroq javoblardan foydalanish; individuumning birmuncha ertaroq, xavfsizroq va yoqimliroq taraqqiyot bosqichiga qaytishidan iborat himoya mexanizmi.

Reprezentativlik evristikasi. Biron bir narsaning ehtimollik darajasiga uning qanchalik spetsifik prototiplarni namoyon qilishi va ularga mos kelishi bahosi orqali xukm chiqarish; odamni qo'shimcha foydali informatsiyani nazarga ilmaslikka majbur qilishi mumkin.

Reflektor harakat – IDning qo'zg'alish manbaiga o'sha zahoti javob berish yo'li bilan taranglikdan ozod bo'lishidan iborat jarayon.

Rol. Ayni ijtimoiy pozitsiyada odamlar o'zlarini qanday tutishlari kerakligini aniqlab beruvchi normalar to'plami.

Soxta informatsiya manbai metodi. Tekshiriluvchilar ustanovkalarini yolg'on yordamida aniqlash usuli. Dastavval eksperiment qatnashchilarini yangi uskuna psixologik reaktsiyalarni o'lchab, ularning shaxsiy ustanovkalarini aniqlaydi deb ishontiriladi. Keyin tekshiriluvchilardan o'lchov natijalarini oldindan bashorat qilish so'raladi va shunday qilib ularning ustanovkalari aniqlanadi.

Stereotip. Odamlar guruhining shaxsiy sifatlar xaqidagi fikri. Stereotiplar haddan tashqari umumlashgan, noaniq va yangi informatsiyaga rezistent bo'lishi mumkin.

Stereotiplarga nisbatan ojizlik. Kimdir salbiy stereotipning to'g'rilegini tasdiqlaydi degan vayronkor ta'sirli xavfsirash.

Strukturaviy model – Freyd tomonidan belgilangan shaxs qurilmasining ID, EGO va SUPEREГОдан iborat uch darjasи.

Sublimatsiya – IDning impulslari ijtimoiy ma'qul faollikka yo'naltiriladigan o'rin almashtirish shakli.

Super – Ego – interiorizatsiyalashgan madaniy-ijtimoiy normalar. Psixoanaliz nazariyasida shaxs qurilmasidagi etik yoki axloqiy qatlam; ota-onadan jazolash va rag'batlantirish vositasida olingan ijtimoiy norma va xulq standartlarining individuum tomonidan internalizatsiya qilinishi. (internalizatsiya – e'tiqod, qadriyat, ustanovka, amaliyat, standart va xokazolarni o'ziniki deb qaobul qilish yoki ularga moslashish).

Tafakkurning guruhashuvi. Birdam guruh uchun konsensusni qidirish ustunlik qilib, u muqobil xarakat usulini real baholashni inkor qilishga moyil bo'lganda odamlarda paydo bo'ladigan tafakkur rejimi.

«Tenglar» fenomeni. Ayollar va erkaklarning jozibalilik va boshqa sifatlar bo'yicha o'zlariga «tenglar ichidan» sherik tanlashlari tendentsiyasi.

Tobe o'zgaruvchan qiymat. Mustaqil o'zgaruvchan qiymat manipulyatsiyasiga bog'liq bo'lgan o'zgaruvchan qiymat.

Topografik model – Freyd tomonidan tasvirlangan psixikaning uch darjasи modeli: ong, ong oldi va ongsizlik.

Torlik. Bitta odamga to'g'ri keladigan maydonning sub'ektiv yetarli emaslik xissi.

Transfer – psixoanalitik terapiyaning muhim hodisasi bo'lib, patsientning o'tmishda boshqa muhim ob'ektlarga (odatda ota-onadan biriga) nisbatan his qilgan hissiyorlarini

terapevtga ko'chirishini anglatadi.

Tushuntirish usuli. Xayot hodisalarini izohlashning odatiy usuli. Izohlashning salbiy, pessimistik, depressiv usuli muvaffaqiyatsizliklarni barqaror, global va ichki sabablarga bog'laydi.

Tug'ilish tartibi. Xayot uslubining shakllanishida muhim rol o'ynaydigan individning oiladagi ketma-ketlik pozitsiyasi (masalan, birinchi farzand).

To'laqonli emaslik xissi. Bolalikda paydo bo'ladigan va keyinchalik balog'at yoshida boshqalardan ustunlik uchun kurashga asos bo'lib xizmat qiladigan shaxsiy to'laqonli emaslik, beo'xshovlik va noqobililik xissi.

Ustanovka (attityud). Fikr, xissiyot va maqsadga yo'naltirilgan xulqda namoyon qilinadigan, nimagadir yoki kimgadir nisbatan ijobiy yoki salbiy baholovchi reaktsiya.

Faktlarga qarshi tafakkur. Sodir bo'lishi mumkin bo'lgan, lekin sodir bo'lмаган, tasavvurdagi muqobil stsenariylar va natijalar.

Fiksatsiya – frustratsiya yoki ota-onalarning beparvoligi tufayli shaxs taraqqiyotining ilk psixoseksual bosqichda to'xtab qolishi.

Frustratsiya. Maqsadga yo'naltirilgan xulqning tutilib qolishi.

Frustratsiya – ona tomonidan ehtiyoj va istaklarning qondirilishiga yo'l qo'yilmasligi. SHuningdek shaxsiy maqsadlarga erishishning tutilib qolishida ham paydo bo'ladi.

Xarakter tipi – Freyd tomonidan odamlarni psixoseksual taraqqiyotning aniq darajasida tutilib qolishga mos holda klassifikatsiya qilish.

SHajara mansubligi tamoyili bo'yicha tanlanish. Umumiy genlar yashovchanligi imkoniyatini oshirish uchun, yaqin qarindoshlarga nisbatan altruizm evolyutsiya jarayonida xulq modeli sifatida tanlab olingan deb tahkidlovchi nazariya.

SHaxsiy maydon. Biz o'z atrofimizda saqlab turishni ma'qul ko'radian bufer bo'shliq. Bu bo'shliqning o'lchami yonimizda turgan odam bilan qanchalik yaqinligimizga bog'liq.

SHaxsiy monitoring. Ijtimoiy vaziyatlarda o'zini taqdim qilish va kerakli taassurot uyg'otish maqsadida xulqni boshqarish usullarini o'rganish.

SHaxsiy samaradorlik. SHaxsiy kompetentlilik va samaradorlik xissi. O'z-o'zini xurmat qilish va shaxsiy obro' xissidan farq qiladi. Masalan, bombardirda yuqori shaxsiy samaradorlik va past o'z-o'zini baholash bo'lishi mumkin.

SHunchaki ko'z o'ngida turish samarasi. Ilgari notanish bo'lgan qo'zg'ovchilarga ular bir necha marta ko'z o'ngimizda paydo bo'lgandan so'ng ularga ko'proq moyil bo'lib, ijobiyroq baho berishimiz.

O'z – o'zini idrok qilish nazariyasи. SHaxsiy ustanovkalardagi ishonchsizlik bizni ular xaqida «o'zimizni kuzatish» - ustanovkalar namoyon bo'ladigan vaziyatlar va xulqimizni tekshirish orqali xulosa chiqarishga majbur qiladi deb xisoblovchi nazariya.

O'z «Men»i foydasiga moyillik. O'z-o'zini qoyilmaqom idrok qilish tendentsiyasi.

O'z guruhi foydasi uchun qayg'urish. Begona guruh a'zolarining ijobiy xulqini ma'lum oqlashlar bilan tushuntirish; salbiy xulqini ularning dispozitsiyalarini bilan tushuntirish (ayni o'z guruhining shunday xulqini oqlash).

O'z –o'zini anglash. Ongning diqqatni o'z-o'ziga yo'naltirilgandagi holati. Bu narsa odamlarning shaxsiy ustanovkalari va dispozitsiyalariga sezgirligini oshiradi.

O'zaro bir-birini to'ldirish. Go'yoki ikkita odam o'rtasidagi o'zaro munosabatlar

chog’ida xar ikkalasining bir-birini to’ldirish tendentsiyasi paydo bo’ladi. O’zaro bir birini to’ldirish xaqidagi munozarali faraz, aynan qiziqishlari turlicha bo’lgan odamlar bir birlariga intilishadi, chunki bu narsa ularga bir birlarini to’ldirishga imkon beradi deb tasdiqlaydi.

O’zaro bog’liqlik illyuziyasi. Individ tomonidan aslida yo’q o’zaro munosabatlarni idrok qilish, yoki o’zaro munosabatlarni aslidagidan ko’ra yaqinroq deb idrok qilish.

O’zgaruvchanlik. Individning butun xayoti davomida shaxs beto’xtov o’zgarishga uchrab boradi deb tasdiqlash.

O’ziga bino qo’vish fenomeni. Aniqlikdan ko’ra ko’proq ishonish tendentsiyasi, ya’ni o’z e’tiqodlarining to’g’riligiga ortiqcha baho berish.

O’zini oshkor qilish. Boshqa odam oldida yashirin kechinma va xissiyotlarini oshkor qilish, yorilish.

O’zini oqlashning yetarli emasligi samarasi. Tashqi oqlash «etarli bo’lmagan» holatda o’z xulqini ichki oqlash yo’li bilan dissonansni kamaytirish.

O’zlashtirilgan chorasizlik. Odam yoki xayvon doimiy qaytarilayotgan noxush xodisalarni nazorat qila olish imkoniyatini xis qila olmagan holatlarda o’zlashtiriladigan chorasizlik va mutelik.

O’z-o’ziga murojaat qilish samarasi. O’zimizga taalluqli bo’lgan informatsiyani yaxshi eslab qolish va samarali qayta ishlash tendentsiyasi.

O’z-o’zimiz uchun quradigan to’sqinliklar. O’z shaxsiy muvaffaqiyatsizligini oqlash yo’li bilan Men-obrazini himoya qilish.

O’z-o’zini taqdim qilish. O’z-o’zini namoyon qilish akti va kimningdir ideallariga mos tushadigan taassurot yoki yoqimli taassurot uyg’otish uchun yo’naltirilgan xulq.

O’z-o’zini hurmat qilish. SHaxsiy g’urur xissi yoki odamning o’z-o’ziga keng qamrovli bahosi.

O’lim instinkti – Freydning odamlar o’z-o’zini vayron qilish va o’lim istagi bilan faollashishadi deb ataluvchi g’oyasi (aksariyat tashqi tomonidan agressiya ko’rinishida ifodalanadi).

Hayot instinkti – Freydning odamlar o’z – o’zlarini saqlashga intilishadi degan g’oyasi.

Hamkorlar. Raqobat talab qilmaydigan ishni alohida-alohida bajaradigan, individual, bir vaqtida ishlaydigan odamlar guruhi.

Hamkorlik normasi. Odamlar ularga yordam bergenlarga zarar keltirishdan ko’ra, ko’proq yordam berishadi deb kutish.

Himoya mexanizmlari – individuumni xavotir va aybdorlik hissi kabi noxush emotsiyalardan himoya qiluvchi anglanmagan reaktsiyalar. Odamga xavf soluvchi impulsslarni berkituvchi yoki buzib ko’rsatuvchi ego-himoya tendentsiyasi.

Oiyosiy deprivatsiya. O’zining axvolini boshqalarga nisbatan yomon deb idrok qilish.

«Quyonlar». Guruhdan foyda olib o’rniga kam narsa beradigan odamlar.

Oo’shilganlik ehtiyoji. Doimiy ijobjiy o’zaro xarakatlarni kafolatlaydigan aloqalar bog’lashga intilish.

E’tiqodlar mustaxkamligi. Biron bir odamning birlamchi tasavvurlarining mustaxkamligi. E’tiqodning asosi diskreditatsiya qilinganda (obro’sizlantirilganda) ham, e’tiqodning xaqiqiy bo’lganligining izohi saqlanib qolaveradi.

Evristikaning ochiqligi. Narsalar ehtimolligini ularning xotirada mavjudligi nuqtai-

nazaridan baholaydigan samarali, lekin xatodan holi bo'lмаган empirik usul. Agar qandaydir misollar osongina esimizga tushsa, biz ularni hamma tomonidan qabul qilingan deb xisoblay boshlaymiz.

Ego – ideal – ota-onalar tomonidan bolaga о'ргатилган о'з-о'зини тақомиллаштиришнинг аниқ стандартларидан иборат суперегонинг бир қирраси. Individ о'з-о'зини баҳолаш ва маг'рурлик хиссining о'sishiga оlib keladigan мақсадларга ерішішга итілганды Ego – идеалдан фойдаланади.

Ego – психоанализ наукасида ижтимои дунё билан сamarали hamkorlik qilish uchun zarur bo'ladigan idrok, tafakkur, malaka va psixik faollikning boshqa hamma ko'rinishlarini o'z ichiga oladigan shaxs qurilmasining қирраси.

Egoizm. (Etimol xar qanday xulqning asosida yotadigan) shaxsiy farovonlikni yaxshilash motivatsiyasi. Boshqalarning farovonligini yaxshilashni maqsad qilib qo'yadigan alg'truizmga teskari.

Edip yoki Elektra kompleksi – fallik bosqichda paydo bo'ladigan, боланинг qarama-qarshi jinsdagi ota yoki onasi bilan jinsiy qo'shilishga intilishi, o'zi bilan bir jinsdagi ota yoki onasi bilan tahdidni his qilishi va vaqt kelib ziddiyatni o'zini o'zi bilan bir jinsdagi ota yoki onasi bilan identifikasiya qilish orqali bartaraf qilishidan иборат jarayon. Bola qarama-qarshi jinsdagi ota yoki onasiga nisbatan erotik hissiyotni, o'zi bilan bir jinsdagi ota yoki onasiga nisbatan esa nafrat va rashkni boshdan kechiradi.

Eksperimental realizm. Eksperimentning qatnashchilarni jalb qilish va qamrab olish darajasi.

Eksperimental tadqiqot. Bir yoki bir necha omillar (mustaqil o'zgaruvchan qiymatlar) ni manipulyatsiya qilib va boshqalarini назорат qilib (o'zgarishsiz qoldirib), sabab oqibat xaqidagi ma'lumotlarni aniqlaydigan tadqiqot.

Ekstraordinat maqsad. Hamkorlikdagi intilishni talab qiladigan umumiyyat maqsad; shunday maqsadki odamlar o'rtasidagi farqni e'tiborga olmaydi.

Elektra kompleksi – Freyd наукасида Edip kompleksining ayollarga nisbatan versiyasi.

Emotsional gayta o'rGANISH – даволашнинг охирги bosqichida qo'llaniladigan, патIENTGA o'zi anglagan narsani kundalik hayotida o'zgarishga ерішіш uchun foydalanishiga yordam beradigan psixoanalitik usul.

Emotsiyalarning ikki faktorli nazariyasi. Qo'zg'alish x yorliq = emotsiya.

Empatiya. Boshqa odamning xis tuyg'ularini jo'shqin ichdan kechirish; o'zini uning o'rniga qo'yishga xarakat qilish.

Entropiya – har qanday energetik tizim muvozanat holatiga intiladi deb tasdiqlovchi termodinamika qonuni. Psixoanaliz наукасида entropiya har qanday tirik mavjudotga o'zları paydo bo'lgan jonsiz holatga qaytishga intilish hos degan maononi anglatadi.

Epigenetik tamoyil. Odam o'z taraqqiyotida albatta butun insoniyat uchun umumiyyat bo'lgan qat'iy ketma-ketlik bosqichlaridan o'tadi deb ta'min qilish. Xar bir bosqich biologik yetilish va ayni bosqich tomonidan odam oldiga qo'yiladigan ijtimoiy talablar bilan birga keladigan inqirozda namoyon bo'ladi.

Erkin assotsiatsiya – individuum qanchalik absurd, sharmandali va mantiqsiz bo'lmasin kallasiga nima kelsa shuni erkin gapirishi jarayonida ongsizlikni o'rganadigan psixoanalitik usul.

Erogen zonalar – badanning ichki va tashqi to’qimalari birlashadigan va taranglik hamda qo’zg’alish manbai bo’lgan nuqtalari.

Etnotsentrizm. O’z etnik guruhi va madaniyatining ustunligiga ishoch va mos ravishda boshqa guruhlarni nazar pisand qilmaslik.

Ehtimol MEN. Kelajakda biz orzu qiladigan yoki shunday bo’lishdan qo’rqadigan obrazlar.

Ehtiros-muxabbat. Boshqa odam bilan aloqaga kuchli moyillik holati. Ehtirosli sevishganlar bir-birlari bilan butunlay band bo’ladilar, sevganlarining muxabbatiga erishganlarida ekstaz holatiga tushadilar, uni yo’qotganlarida esa g’am-anduxlarining chegarasi bo’lmaydi.

E’tiqodlar mustaxkamligi. Biron bir odamning birlamchi tasavvurlarining mustaxkamligi. E’tiqodning asosi diskreditatsiya qilinganda (obro’sizlantirilganda) ham, e’tiqodning xaqiqiy bo’lganligining izohi saqlanib qolaveradi.

«Yuziga tarsillatish» texnikasi. Yon berishga erishish strategiyasi. Kimdir katta iltimos bilan murojaat qilib rad javobi olgandan so’ng (yuziga tarsillatish), endi kichikroq iltimos bilan murojaat qiladi.

Yaqinlik. Geografik qo’shnilik. Yaqinlik (yana ham aniqrog’i «funktsional masofa») bog’liqlik xissining uyg’onishini taqozo qiladi.

Терминов по психологии

Европейский функциональный спектр, который считает, что психология должна учиться не содержимому ума, а действиям (например, качеству чувств, но не качеству чувств);

Понятие функции вводит новый контент, американский прагматический психолог, которому необходимо изучить роль сознания в адаптации к природной и социальной среде человека, практические аспекты личности.

Mixhical Psychology - специальная область взаимодействия технических устройств психологии с теми, кто контролирует ее и взаимодействует с ними; Научная цель инженерной психологии - помочь инженерам в разработке методов, которые улучшают психофизиологические рассуждения и оптимальные проекты оптимальных конструкций.

Ретикулярная формация - формирование regularis - нервные волокна в теле головного мозга (длинный мозг, мост Воролиева, средний церебральный паралич), толще их структуры имеют опухолеподобные опухоли. Сенсорные нервы, которые передают сигналы от различных рецепторов к мозгу через гриб, прикрепляются к ретинальной форме, а существующие сигналы также стимулируют ретинальную форму. Возбуждение в мозге стимулирует или уменьшает формальность сетчатки. Таким образом, каждая клетка ретикулярной рецептуры имеет большое количество сигналов от органов чувств и в целом влияет на функционирование мозга и спинного мозга.

Test - тест короткое стандартное исследование психического прогресса человека, способности, ведомственных атрибутов и других умственных характеристик.

Активность - это связь между общим качеством живого организма и внешней средой. умственная деятельность характерна, в которой человек пытается изменить реальность, чтобы удовлетворить свои потребности. Деятельность

является важной возможностью изменить реальность для удовлетворения этих потребностей.

Анкета - Психологическое исследование, которое представляет собой письменный ответ на вопросы экзаменатора, подготовленные заранее.

Безусловный рефлекс - безусловный рефлекс, который является наиболее основным понятием теории отражения И. Пшенича и концепции врожденного рефлекса И. Пахлова, вызванной врожденной нервоздушностью реактивных реакций организма рефлекс.

Биографический метод - этот метод будет изучен путем биографического описания, биографической информации, писем, мемуаров, описаний, дневников, мемуаров. Он также исследует процессы обучения, способности, таланта, таланта, умственных, моральных и организационных качеств.

Внимательность ума - новые или сложные теоретические и практические вопросы, а также возможность быстрого поиска правильных путей.

Восприятие - анатомические и физиологические возможности, лежащие в основе формирования и развития индивидуального таланта, признаки врожденного таланта.

Генетический метод - генетический метод Сущность генетического метода заключается в том, что рассматриваемый в этом процессе психологический феномен рассматривается как процесс, и исследователь тщательно исследует диалектический прогресс этого процесса

Детерминизм - (Много Determinara) определение природы, общества и психические явления, определяемые объективными причинами, преподавание научной психологии о психике, созданная с целью является ум и нервная система, о психике образ жизни, изменить жизнь изображения Принцип заключается в том, что он изменится.

Диагностика психологического развития - это способ изучения того, в какой степени развивается психология человека, и его индивидуальные психологические особенности.

Дисциплина - характер отрицательной характеристики, которая соответствует строгим правилам и поведенческим правилам, которые необходимы всем членам определенной команды.

Добровольные действия - отличающихся от импульсивных и автоматизированных действий, сознательных действий, которые выполняются с умом.

Естественный эксперимент - это научный метод изучения психологических явлений психологии в условиях человеческой деятельности в игре, чтении и труде.

Занятие - процесс повторения, который предполагает сознательное повторное приобретение определённой интеллектуальной или физической активности для сознательного захвата и улучшения его качества.

Застенчивость - характера, выражающийся в беспочвенной тирании.

Знание - суть профессии, сущность понятия природы, общества и человеческого мышления, правильная концепция и концептуальная система.

Знание потребностей - девиз действия почтствовать потребность в

самопознании, основанном на знаниях или науке.

Изучение опыта преподавателя - экспериментальное исследование психологических требований к конкретной профессии в трудовой психологии.

Индивидуализм - интересы личности выше общественных интересов, но характер негативного характера, вырвжающийся в стремлении к его узким интересам.

Индивидуальность - совокупность каждого живого существа, которое отличает его от других видов.

Индивидуальные функции - только конкретные особенности конкретного лица.

Индивидуальный опыт - опыт каждого человека в течение его жизни.

Индивидуальный ответ - отношение к умственному, культурному и эмоциональному благополучию каждого человека, возрасту и индивидуальным особенностям.

Инженерная психология - определенную область взаимодействия технических устройств психологии и тех, кто её контролирует.

Интерес - индивидуальность личности или мотивация действия, которая является активным и стабильным аспектом способности человека иметь определенные события и явления.

Интерес к знанию - индивидуальная характеристика реальности и явлений в реальности, ее качество и характеристики, сущность отношений, а также постоянное устойчивое направление обучения различным закрнам.

Интерес к профессии - индивидуальная характеристика человека с постоянным и устойчивым мотивационным интересом к определённой профессии.

Интроверсия - пологаться на собственные идеи, восприятие, переживания и чувства человека.

Карьерное внимание - тип внимания, который составлен в соответствии с требованиями и объективными особенностями профессии в результате многолетней работы в конкретной профессии.

Квалификация - система автоматических действий, в возникающих восприятиях или нескольких упражнений.

Корреляция - (взаимосвязь) является мерой взаимосвязи между фактами и их зависимостью от эксперимента.

лабораторный мастерпермент - научный метод психологии; он искусственно создается с помощью специальных психологических устройств в лабораторной среде и предупреждает их о том, что должен делать следователь. человек, который исследуется в лабораторном эксперименте, будет непосредственно вовлечен в эту работу. Лабораторные эксперименты исследуют отличительные особенности фокуса, памяти, памяти.

Личный опыт - опыт каждого человека или человека в процессе жизни.

Мастерство - уровень специализации, который является личным качеством, обладающим прочными знаниями, высоким уровнем мастерства и навыками в области знаний и высокой производительностью с высоким уровнем производительности.

Метод - методы исследования природных явлений, метод научного познания и

истины в случае исследованных явлений, пути и порядка действия.

Метод опроса - психологический метод, который дает письменные ответы на вопросы, которые предназначены для изучения конкретного психологического феномена.

Метод разговора - является одним из методов научных исследований в психологии и возникает как вопрос - ответ между экзаменатором и перкуссионистом.

Молодая психология - это область психологии, изучающая психические особенности детей разного возраста, их развития и особенностей.

Мотив - главная причина, по которой человек может действовать по определенному поведению.

Мотивационная борьба - человек со слабостью в процессе выбора наиболее важных из них при наличии нескольких целей.

Мотивация - это логический процесс, чтобы оправдать рассуждения человека, почему он решил не выполнять другие мысли и действия в данный момент времени, но сделать это.

Мужество - характерная характеристика, которая характеризуется строгим и рациональным управлением действиями, которые ставят под угрозу личную жизнь.

Наблюдательность - индивидуальный метод способности человека отслеживать.

Надежная - объективная форма объективной формы психологии, объективная форма объективной формы объективного, организованного, систематического, систематического уточненного восприятия, сбора доказательств, формирования первоначального понимания событий и одного из методов научных исследований в психологии.

Напротив, сложность сложной системы в теле. В противоположность внешним воздействиям противоположное указывает, как действия тела согласуются с целью мозга. Никакая часть действия мозга, которая реагирует на внешние воздействия, не может быть продолжена без немедленного уведомления (обратная связь) с мозгом (знак предпочтения) о результатах этого действия.

Настойчивость - характер негативного характера, который характеризуется отсутствием активности.

Настойчивость - характерный для своевременного и последовательного принятия решений и колебаний, чтобы действовать без колебаний.

Невнимательность - не фокусирование внимание на конкретном объекте.

Недисциплинированность - характер негативного характера систематического отказа следовать или нарушать правила публичной, занятости, школьной или семейной жизни.

Независимость - характер непримиримого характера человека при решении конкретных ментальных, этических или практических вопросов, особенно в оценке сложной ситуации и выборе правильного пути выбора его собственных идей, принципов и убеждений.

Необходимость - деятельность, отражающая жизненные силы жизни организма.

Описание профессии - метод проверки технологических и психологических

аспектов профессии в научных исследованиях в области трудовой психологии.

Описательная специальность - описание производственных требований, изложенных в конкретном содержании работы определенной профессии или персонала.

Описать методы работы - методы проверки описания отдельных методов работы или умения в порядке их реализации в научноисследовательских работах в области трудовой психологии.

Оптимизация деятельности - повышение эффективности определенных видов деятельности за счет создания наиболее благоприятных условий для изучения, изучения и чтения психологических возможностей.

Опыт - в более широком смысле взаимоотношений между людьми во внешнем мире и в частности с целым социальным трудом, накопленным в процессе материального производства.

Отважный - характер непримиримого характера, с целью противостояния любым объективным и субъективным трудностям, с которыми сталкивается человек в достижении конкретной цели.

Парапсихология - (по-гречески, впереди, рыщаван, логотипы) - это доктрина, согласно которой идея может передаваться отдельно без каких-либо средств. Пластмассы - это особенность нервной ткани, которая составляет основу речи и речи. Психо-психофизическая, высокоуровневая материя способна отражать объективный мир в отдельности (в чувствах, восприятиях, фантазиях, эмоциях, эмоциях, непримиримых движениях) которую вы хотите. возникшие в результате чувствительности и способности определенной стадии психического развития. как животных, так и людей. В отличие от психики человеческой психики, это называется человеческим сознанием. Так что «психический» - это общий термин, представляющий духовную жизнь животных и людей. **Психология** - (греческая психика - душа, логос - наука) - это наука о психике, функция, отражающая забытое явление мозга. предмет психологии, психические процессы, психические состояния и особенности. психическая деятельность мозга отражается в условиях жизни человека. Психология изучает закономерности возникновения и развития психической деятельности, психического состояния и личности человека.

Психиатрические процессы - это постепенное изменение в появлении психических явлений и переход от одного этапа к новому этапу, где происходят качественные изменения.

Психиатрические условия - это положительные и отрицательные эмоциональные переживания, удовлетворение и гнев, уверенность и надежность, а также неактивность, которые представляют собой объективную реальность человека и отношение к событиям и самооценке.

Психологические особенности - различные формы мозговой деятельности, такие как интуиция, восприятие, память, фантазия, мышление. Так называемая «функциональная психология», распространяемая в области иностранной психологии, отличает психические функции от индивида, от деятельности человека и считает их независимой сущностью. По нашему мнению, современная психология понимается как составляющая психологических функций,

взаимосвязанных и связанных с атрибутами личности.

Психиатрические явления - это конкретные формы психической жизни, такие как интуиция, восприятие, память, воображение, мышление. Психическая жизнь проявляется во множестве явлений. Психические жизненные события включают психические процессы, завещания и эмоции, психическое здоровье и психические состояния. Рационализм является источником знаний в теории рационализма и метафизическим принципом, который отличает их от чувственного восприятия, которое является критерием их правдивости. На самом деле источником и критикой знаний являются эмоциональный опыт, социальная практика. Время реакции - время, когда источник появляется до начала реакции. Высокие умственные функции являются сложной частью психических процессов, которые происходят в течение жизни. Этот термин был использован Л. С. Выготским в современной психологии А. Рурия и др. Это форма умственной деятельности. Рефлексология - поток естественных наук в российской психологии в начале XX века и был основан российским психиатром В. М. Бекетовым. Предмет рефлексологии состоял из всех видов рефлексов, которые возникали в мозге. Рефлексология отражает часть третьей (действительной) части рефлектора в действии и уменьшает ее центральный (психический) элемент. Таким образом, рефлексология игнорирует проблему сознания, психологически игнорирует психологию и совершают механическую ошибку. Однако роль рефлексологии в борьбе с неидеалистической психологией была велика. Рефлексия - (лот рефлексии - назад). Понимание человека, его внутреннего мира, его психических качеств и процесса понимания внутреннего психического состояния субъекта

Пассивность - состояние дел в окрестностях, забытое отношение к людям и физическая или психологическая бездеятельность.

Патопсихология - это область психического заболевания, которая является результатом психологической болезни или тяжелого развития мозга. Психопатологический анализ психофизиологических процессов, таких как восприятие, восприятие, память, мышление, умение, эмоции, сила воли.

Педагогическая психология - поле психологии, которое изучает правила воспитания и воспитания. Педагогическая психология изучает умственный прогресс ребенка в образовании и обучении.

Перемещение навыков - правовые рамки для навыков, приобретенных в области конкретных видов деятельности, чтобы оказать положительное влияние на формирование новых навыков.

Переход на профессиональный выбор - система мер, таких как консультирование, разъяснение педагогов, психологов, врачей и других специалистов по подготовке молодёжи к выбору профессии.

Поведение - система действий, которая описывает отношение людей и животных к окружающей среде и их внутренней жизни.

Подготовка к карьере - обладать знаниями, навыками, квалификацией, привычками, качествами принадлежностью и поведенческими нормами, которые позволяют успешно работать в определенной профессии.

Положительный характер персонажа - непрерывные положительные

особенности человека в рамках морали общества.

Постоянное усилие - нервной и волевой силы, которая может проявляться в устранении объективных и субъективных трудностей для достижения цели.

Правильный выбор работы в профессии - учитывать физические и умственные качества человека, которые соответствуют объективному характеру этой профессии при принятии на работу в определённой профессии.

Практическая деятельность - эффективная деятельность, направленная на изменение природы и социальных отношений в общественном производстве человечества.

Привычка - является личностью, которая автоматизирована в результате многочисленных повторений в повседневной деятельности и является функцией функциональных потребностей человека.

Принцип единства сознания и действия - работа сознания не противоречит друг другу, а скорее требует друг друга и составляет целое. Психологический принцип заключается в том, что внутренняя деятельность организации формирует свою программу.

Принципиальность - с точки зрения справедливости и интересов сообщества, на самую строгую позицию самоуважения и убеждений, на единство слова и на работу этого слова.

Промышленная психология - специальная сфера изучения роли психологических факторов трудовой психологии в отрасли, которая занимается вопросами производительности труда, основанной на законах психологии.

Просмотр или утечитель эксперимент - метод формулирования умственных или физических атрибутов, требуемых индивидуумом.

Профессиональная информация - система специальных знаний, навыков, необходимых для профессиональной деятельности.

Профессиональная память - это тип памяти, который напрямую связан с вашей профессией, запоминанием, укреплением и запоминанием мыслей, чувств, действий.

Профессиональная психология - отдел, занимающийся изучением психологических компонентов профессиональных психологических компонентов профессиональной профессии или конкретных занятий и научного анализа.

Профессионально компонентный - сочетание физических и психологических атрибутов профессионализма личности.

Профессиональные навыки - автоматизированное поведение в результате многократного воспроизведения производственной деятельности.

Профессиональные традиции - типичные привычки для определённой профессии.

Профессия - постоянная профессия или вид деятельности, которая служит источником жизни для человека

Психическая усталость - из-за чересмерного или жесткого функционирования психических функций, они временно частично утрачиваются в работоспособности.

Психограмма - письменное или графическое представление наиболее важных личных качеств и характеристик, присущих конкретной профессии или

специальности.

Психолог - психолог и исследователь в области психологии или учитель/учительница.

Психологические методы - Научное понимание психических явлений, исследование явлений, изучение научных знаний и правды.

Психологическое описание - монтальные, этнические, моральные, отношения, мнения, убеждения конкретного человека, а также характер, темперамент, способность индивидуальных психологических характеристики.

Психотехника - в области психологии, изучающей практические вопросы трудовой психологии.

Работоспособность - сочетание физической и умственной функциональности, необходимое человеку для достижения определенного вида работы.

Рабочая культура - личность, основанная на системе знаний, навыков и привычек, имеющих право на труд.

Рабочая психология - в области изучения проблем трудовой деятельности психологии.

Рабочая терапия - научную сеть, которая использует трудовые процессы для её лечения.

Рабочие навыки - автоматизированные, усиленные действия для определённой области рабочей деятельности.

Рагрессия умения - закон, который постепенно угасает умение, определенное в определённой области деятельности в течение длительного периода времени.

Развитие навыков - эмпирическое правило, которое увеличивается и развивается в результате использования навыков в определённых областях практики в повседневной практики.

Разговор - один из методов научных исследований в психологии. интервью - это прямой обмен идеями между двумя или более лицами.

Рецепторное кольцо (мышца, железа) или принимающая сигнал клетка, мышечная ткань или различные железы отличаются от рецепторов эффектор-рецептор. Они называются клеточными эффекторами

Самоуправление - человек наблюдает за своими мыслями, чувствами и действиями. психологическое состояние, характеристики и процессы объекта самонаблюдения.

Сангвиник - индивидуальность, характеризующаяся быстрым, сильным, но неустойчивым эмоциональным возбуждением и психическими процессами.

Семиотика - это наука, которая исследует природу и характер знаков реалистических объектов в процессе обучения.

Сила воли - точность цели, заданной индивидуумом, стремление к этому, качество воли, определяемое скоростью принятие решения и своевременным исполнением решения.

Симпатия - эмоциональное состояние, связанное с вещью или личностью, чувство уверенности.

Скромность - характер человека который характеризуется простым отношением к окружающим его людям, его критическим отношением к себе, уважение к

другим и не хвастовством.

Слабый тип - качество нервной системы переходит на защитное торможение, не способное противостоять последствиям незначительной или минимальной силы.

Солометрический метод - метод психологии. Социометрический метод используется для определения отношений и структуры групп и сообществ.

Социальные навыки - активное участие в общественной жизни и самодисциплина в сообществе.

Специализированная работа - работа, которая требует специальных знаний, навыков, квалификаций и культурных привычек для поиска и развития.

Специализированные тесты - событие для изучения навыков и знаний, полученных студентами после завершения теоретического курса обучения.

Способность - совокупность индивидуальных характеристик, созданных в процессе жизни, представляющих степень способности человека преуспеть в конкретном типе деятельности.

Стимул - это процесс внутренних или внешних раздражителей, стимулирующих рецепторы. Источник действия.

Страсть - устойчивое и стабильное эмоциональное состояние с сильной мотивацией к определенному типу деятельности.

Субъект - человек, который знает объективный мир, меняет его на собственные нужды и интересы, является сознательным существом.

Талант - человеческая способность сочетание природного потенциала, обеспечивающего наивысший уровень развития.

Талант - личность, состоящая из комбинации таланта которая обеспечивает успешно и творческое выполнение определенных видов деятельности.

Темперамент - сумма индивидуальных особенностей, характеризующихся эмоциональным возбуждением и мобильностью человека.

Труд - тип сознательной деятельности, которая целенаправленно ориентирована на создание богатства, которое исторически было найдено.

Трудовое воспитание - сознательное отношение к молодому поколению к работе психологической подготовки к выполнению любой социальной работы в духе тяжелой работы.

Трудовое образование - политехническое образование и трудовое воспитание своего рода работы от молодого поколения к развитию и знаний, навыков, квалификаций и привычек социальной жизни в определенной области.

Трудолюбие - характер персонажа, который всегда должен быть готов к выполнению любого рода труда.

Трудоспособность - сумма физических и психических функций, необходимых для успешного функционирования конкретного вида деятельности человека.

Ужасный тип - тип возбуждения и торможения нервной системы одинаково и умеренно эффективен.

Умственная работа - сочетание физической и умственной функциональности, необходимой для выполнение типа умственной работы.

Умственная усталость - снижение интеллектуальных возможностей для работы в результате чрезмерного использования потенциальной энергии в нервной

системе.

Утомление - физическое и психическое напряжение тела, которое формируется влиянием отрицательных эмоций и характеризуется уменьшением способности работать.

Учитель - учитель, который преподает предмет обучения в старших классах или частных общеобразовательных школах.

Учительская графика - набор психологических особенностей, которые необходимы для конкретной профессии.

Фрейдизм - (психоанализ) - идеалистическая теория, которая рассматривает сущность сознательной деятельности и решающую роль социального функционирования, как основную движущую силу человеческого поведения в буржуазной психологии и психопатологии. эта теория называется австрийским невропатологом, психиатром и психологом Зигмундом Фрейдом. Человек в психиатрии и психологии был либидо человеческого поведения. особенно в раннем детстве, является грозным научным реактивным потоком, который отрицает социальность поведения человека, что способствует сексуальному желанию.

Функциональная психология относительно развита в интроспективной психологии, что несколько укрепило практику психологии. Но его псевдометодолог не позволял раскрывать истинную сущность психических процессов.

Функциональная психология. Предметом психологии в психологии конца 19-го века и начала XX века была идея о том, что психологические элементы и их структуры не являются психологическими, а психологическими. Поток функциональной психологии делится на 2 части:

Функциональная система - нейродинамическая система, которая лежит в основе материального психического и личностного менталитета, а также высоких умственных функций и непрерывного обучения.

Характер персонажа - сочетание непрерывных атрибутов и качеств, которые регулярно наблюдаются в действиях человека, на которого влияет социальная среда.

Хорошая работа - прямая работа над материальным богатством.

Целевая ориентация - характер выражющийся в том, что он готов и способен взять на себя обязательства по достижению устойчивых целей жизни.

Человечность - характер характера, который является соблюдением всех человеческих особенностей во взаимоотношениях и отношениях.

Честность - этическое качество, выраженное человеком в его приверженности его обязанностям и убеждениям, в его отношениях с окружающим субъектом и в его отношениях с другими.

Эгоизм - характер негативного характера, выражющийся в сильном желании поставить личные интересы над обществом и коллективными интересами.

Эксперимент является одним из основных способов изучения экспериментальных и конкретных явлений путем изучения определенных аспектов психиатрической экспертизы и соответствующей корректировки условий работы.

Эксперт - степень компетентности человека конкретной профессии, уровень подготовки, знания, навыки и навыки необходимые для достижения успеха в определенных областях деятельности.

Экспертные экзамены - в рамках специализированных испытаний, изучить теоретические знания, полученные студентами в результате отраслевого обучения.

Экстроверсия - направление человека окружающим людям к внешним событиям.

Электроцефалограмма (ЭЭГ) представляет собой специальный аппарат для регистрации биоактивной активности мозга с использованием усилителя.

GLOSSARY (PSYCHOLOGY)

ANIMISM-imagination in which animals, plants and things are believed to have spirits.

ASSOCIATION-the link between mental states, which is based on specific laws

CONSCIOUSNESS- the highest level of psychology is only man's. It is the result of permanent relationship with other people through the use language to establish labor activity.

UNCONCIOUSNESS-is a total of such mental states and phenomena that a person can not control his actions like dreaming, hallucinations, raving, pathological conditions.

SUBCONSCIOUS STATE-a total of mental states and phenomena which can not be understood actually.

PSYCHE-the function of highly developed material. Its essence is that the emotions are reflected in perception, imagination, thoughts and others.

PSYCHOLOGY-a subject that learns the process in which a person understands the universe through intuition, perception, emotion and other mental states.

MENTAL STATE-a process that forms and develop any psychic production and consequences such as psychic images, conditions, concepts, emotions and others.

INSTINCT-a complex unconditional reflex which is formed from the innate totality of behavior in response to external and internal influences.

ONTOLOGY-an independent development of an organism. It is a set of changes in the lifetime of living things.

VIBARATION-the ability of living things to respond influences biologically.

TROPISM-ways of reaction to the factors that have biological importance with the help of special actions.

PHOTOTROPISM-it is a movement of a living organism through light.

THERMOTROPISM-it is a tendency of a living organism to move through light.

CHEMOTROPISM-a tendency of a living organism to choose his physico-chemical environment.

TOPOTROPISM-a potential of living organisms to move through the influences of mechanical stimulants.

HYDROTROPISM-a living organism's response to water.

HEMOTROPISM- a living organism's response to sun rays.

VAROTROPISM-a living organism's response to air pressure.

ASSOCIATIVE PSYCHOLOGY- a branch of psychology which is mainly common in England and founded in XVII-XIX centuries MC. According to its founder David Yum `s (1711-1776) doctrine, mind's all complex conditions and consequences are

self-realization and mutual external links.

BEHAVIORISM (MORAL PSYCHOLOGY)-a mechanical branch of psychology established in the USA in early 1900s. According to its founders D. Watson (1878-1958) and E. Thorndike (1874-1949) it is possible to learn an individual's behaviors, actions which are formed through external influences.

WURZBURG SCHOOL-an association of german psychologists in the early 1900s. They learned the prototype of directed thinking in the "constrained-association" experiment.

GESTALT PSYCHOLOGY-one of the modern foreign psychology schools established in Germany in mid 1900s. To explain complex mental condition the founders Erenfels (1859-1932) and N. Koffka(1886-1941) use principle of unified phenomena.

FREUDISM- a theory established in XX century by an Australian psychologist Z. Freud. Its matter is instinctive tendencies. It rejects the role of the mind.

FUNCTIONAL PSYCHOLOGY- a branch that learns psyche and an individual as a separate psychic function.

AUTOMATISM-an action done undeliberately or consciously.

AUTOMATISATION-the formation process of different skills through training.

LEADING ACTIVITY-an activity in which an individual changes in quality during a specific period.

INTERIORIZATION-the turning process of external practical actions into internal mental practice.

INTERFERENCE-the process of slowing down the formation of newly-gained knowledge by the previously-gained one.

SKILL-the training of doing a particular job consciously.

AIM-an image of the activity consequence and an accomplishment of the man's needs.

MOTIVE-power that urges the man to action and provides a meaning.

LABOR-an activity aimed at creating material and spiritual wealth and meeting the needs.

HABIT- a component of an action or behavior which is needed to be done.

EDUCATION-a process of acquiring knowledge and consolidation, doing different activities.

ACTIVITY-an individual's action aimed at knowing each other with the universe and originates from the consciously regulated needs.

EXTERIORIZATION- a process in which an external psychic condition turns into external practical one.

GAME- an activity of children aimed at exploring the environment and reflected in the work of adults, their actions and relationship between people.

STUDYING-a process in which an individual acquires knowledge and types of activities.

ACTION-a set of activities done consciously to achieve the goal.

MOTIVATION-a set of psychological causes that define man's character, behavior and activity.

BIOLOGICAL NEEDS –physiologic needs such as hunger, thirst, sleep and sexual

and adaptation needs.

SOCIAL NEEDS- laboring, ethical and mental needs.

AUTISM-a psychologic alienation in which an individual gets isolated by thinking about his experiences.

IDEAL- a sample of a thing or the main goal that defines the aspiration and actions of some people, groups.

INDIVIDUAL-a biological living thing.

INDIVIDUALITY-a unique combination of the man`s features

MOTIVE- an internal force that urges to fulfill the process of meeting the needs.

MOTIVATION- a set of motives that urge to be active.

NEED- a main source of activity of the man and animals.

PERSON- a conscious individual who interacts with people through normal language, lives in a society and involved in a certain activity.

INTEREST- the attitude of a person towards particular things and events that are valuable and pleasing to him. It can be broad or restricted, deep or superficial, stable or unstable.

SELF-CONTROL- the ability of the man to control himself.

SELF-ESTEEM-the ability of the man to estimate his personal features.

FRUSTRATION-a psychic condition of the man in which difficulties towards the goal seem to be subjectively and objectively unbeatable.

FAITH- a system of man`s needs that urge to act according to his views, principles, outlook.

SOCIAL SANCTIONS-mechanisms of promotion and punishment that regulates the norms to be reflected in person`s behaviors.

SELF-DISCIPLINE-an important criterion of self-control which is needed to correct and control his all actions regularly.

ATTENTION- a psychic condition in which the mind is focused on a certain object.

INVOLUNTARY ATTENTION-a type of attention that appears through a sudden cause beyond our desire.

VOLUNTARY ATTENTION-a focus of the mind on particular thing and events based on predefined purpose.

POST-VOLUNTARY ATTENTION- a goal-oriented activity in which not only the result of attention like in voluntary attention but also its meaning and the process itself are important and interesting for a person.

SUSTAINED ATTENTION-is used when you need to focus on one specific task or activity for a long period of time.

SELECTIVE ATTENTION-is used to focus on one activity in the midst of many activities.

ALTERNATING ATTENTION-is used to alternate back and forth between tasks or activities.

DIVIDED ATTENTION-is used to complete two or more tasks simultaneously.

SENSE- a feature that is acceptable for both humans and animals as psychic reflection and provides getting to know some hues and features of things and events in the environment.

INTERIORECEPTIVE SENSES-the receptors in internal organs

EXTERIORECEPTIVE SENSES-senses that give information about such different features of external world as hearing, vision, smell, taste and touch.

PROPRIORECEPTIVE SENSE-senses that give information about conditions and motions of different parts of body.

KINAESTHETIC SENSES-sensing the motion and condition of his own body through proprioceptive influences.

SENSIBILIZATION-an increase in sensory level of analyzers though the influences of internal factors.

OBJECT AND BACKGROUND- things that are important and unimportant for a person at a time.

APPERCEPTION-the fact that intellect is linked with the person and his experience.

ILLUSION-misunderstanding the existent things.

CONSTANCY- the quality of staying the same even when situations change.

HALLUCINATION- understanding nonexistent things.

OBSERVATION-the ability of a person to perceive.

MEMORY-the mental capacity to encode, store and retrieve information.

AMNESIA- a failure of memory caused by an injury.

MECHANIC MEMORY-memory that requires to repeat the material if not understood.

LOGICAL MEMORY-memory that requires to encode the material by understanding its meaning.

PARAMNESIA-a memory illness in which a person seems to have underwent what he is experiencing now.

REMINISCENCE- a memory process of recalling the material that has been forgotten before or state of forgetting the material temporarily.

ANALYZE AND SYNTHESIZE-reviewing and summarizing memory imaginations.

AGGLUTINATION-the process of creating a new image by combining some components.

ACCENTUATION- creating an image through exaggeration.

HYPERBOLE- creating an image through either enlarging or shrinking.

CREATIVE FANTASY-fantasy that involves creating original images.

TYPIFYING-creating images suitable for each phase.

DAYDREAMING- a disorganized fantasy process which is not directed to the aim.

ABSTRACT THOUGHT-thinking about abstract things.

ANALYZE-reviewing things and events.

SYNTHEZIZE-to combine separate things into a complete whole.

SUMMARIZING-thinking about the things and events that are common to a category.

COMPARISON- thinking about similarity and differential features between things and events.

MATTER- thinking about problematic issues.

THOUGHT-charactering things and events indirectly by summarizing them.

EMOTION-a process that includes the ability of a man to meet or not to meet the reflection of his attitudes towards the world through the quality of creating an image.

APATHY-the feeling of not being interested in things and events happening around himself.

ASTHENIA-a psychological letup during which an organism gets exhausted.

MOOD- a stable emotion.

AFFECT- a psychological state that occurs strong, intense and short-term emotional experiences.

STRESS-mental state that occurs through stimulators.

STHENIC FEELINGS- such perceptual feelings of a person as happiness.

DEPRESSION- state of being low that causes a person to be less active.

SATIRE-approve of someone being discussed externally but laugh at them mildly.

WILL-mental reflection of choosing the action to overcome internal and external difficulties.

PERSISTENT EFFORT-a subjective component related to feeling the persistent motion.

WILLPOWER-persistent effort level for achieving goal.

IMPULSIVE MOTION- actions done unintentionally and unconsciously.

DECIDING-choosing the way of solving the problem.

TEMPERAMENT-a set of the person's individual psychological features.

CHOLERIK-is defined with a sudden change in mood , stability of a feeling.

SANGUINE- is defined with the quality of restlessness, kindness, concern.

MELANCHOLIC-is linked with sensitiveness, being deeply upset about minor problems.

PHLEGMATIC-is defined with the slowness, stability of the actions and externally weak emotions.

RIGIDITY-difficulties arising from that restoration is required in the activity programmed by the subject.

LABILITY-a rapid transition of nerve cells from excitation to braking and from braking into excitation.

CHARACTER- individual unity of psychic features of the man. It is reflected in the attitude of a person towards people, events and himself.

INTROVERT-the man's belief in his own views, senses and experiences.

EXTROVERT-the direction of man's interest towards external events surrounding people.

PHENOMENON-a concept that means the occurrence understood through emotional experience.

CHARACTER ACCENTUATION-excessive expression of characteristic features.

PHYSIOGNOMICS- a strong link between the appearance of a person and his belonging to an entity type.

CHIROMANCY-predicting a person's destiny looking at his palm.

PSYCHOPATHY-an illness related to character that is sometimes socially dangerous for surrounding people while having intellectual ability.

GENIALITY-the phenomenon of self-expression with the highest level of creativity.

ABILITY-anatomical and physiological features of some genetic theories of the nervous system, the first individual inborn inheritance in the formation and

development of abilities.

TENDENCY- attraction of interests and ideas of an individual to activity expressed in a person as a strong desire and delights if accomplished.

TALENT- the opportunity of a person to do an activity independently and originally.

TEST-a normalized examining method to define the individual features and development level.

PHRENOLOGY-theory that development of a person's any ability is based on his skull. Its founder is an Australian doctor F. Hall

APHASIA-a psychopathologic defect connected with the speech failure caused by the injury of cerebral cortex.

COMMUNICATION-giving information through language or other symbols.

IV. FAN

YUZASIDAN

ILOVALAR

IV. MODULNI O'QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTREFAOL TA'LIM METODLARI



1. “Keys-stadi” metodi

«Keys-stadi» - inglizcha so‘z bo‘lib, («case» – aniq vaziyat, hodisa, «stadi» – o‘rganmoq, tahlil qilmoq) aniq vaziyatlarni o‘rganish, tahlil qilish asosida o‘qitishni amalga oshirishga qaratilgan metod hisoblanadi. Mazkur metod dastlab 1921 yil Garvard universitetida amaliy vaziyatlardan iqtisodiy boshqaruv fanlarini o‘rganishda foydalanish tartibida qo‘llanilgan. Keysda ochiq axborotlardan yoki aniq voqeahodisadan vaziyat sifatida tahlil uchun foydalanish mumkin. Keys harakatlari o‘z ichiga quyidagilarni qamrab oladi: Kim (Who), Qachon (When), Qaerda (Where), Nima uchun (Why), Qanday/ Qanaqa (How), Nima-natija (What).

“Keys metodi” ni amalga oshirish bosqichlari

Ish bosqichlari	Faoliyat shakli va mazmuni
1-bosqich: Keys va uning axborot ta'minoti bilan tanishtirish	yakka tartibdagи audio-vizual ish; keys bilan tanishish(matnli, audio yoki media shaklda); axborotni umumlashtirish; axborot tahlili; muammolarni aniqlash
2-bosqich: Keysni o‘quv aniqlashtirish va topshirig‘ni belgilash	individual va guruhda ishlash; muammolarni dolzarblik ierarxiyasini aniqlash; asosiy muammoli vaziyatni belgilash
3-bosqich: Keysdagi asosiy muammoni tahlil etish orqali o‘quv topshirig‘ining echimini izlash, hal etish yo‘llarini ishlab chiqish	individual va guruhda ishlash; muqobil echim yo‘llarini ishlab chiqish; har bir echimning imkoniyatlari va to‘siqlarni tahlil qilish; muqobil echimlarni tanlash
4-bosqich: Keys echimini shakllantirish va asoslash, taqdimot.	yakka va guruhda ishlash; muqobil variantlarni amalda qo‘llash imkoniyatlarini asoslash;

ijodiy-loyiha taqdimotini tayyorlash;
yakuniy xulosa va vaziyat echimining
amaliy aspektlarini yoritish

Namuna: SHaxs kamolotiga temperament xususiyatining ta'siri

Keys. Alisher o‘z o‘rtoqlari bilan muloqotda qiynaladi. Goho u xafachilikka moyil bo‘ladi va kimningdir etarli darajada mehribonchilik qilmagani uchun o‘zicha ich-ichidan hafa bo‘lib, mayus yuradi.

Tengdoshlari bilan musobaqa ko‘rinishidagi o‘yinlarni o‘ynashda uning sekin harakat qilishi jamoani mag‘lubiyatiga uchrashiga sabab bo‘ladi. Tengdoshlari ham mag‘lubiyatning sababchisi Alisher deb achchiqlanib, ba’zan uni koyiydilar va o‘yinda ishtirok etishiga yo‘l qo‘ymaydilar. Bu hol ko‘p bor takrorlandi. Kunlardan bir kun esa Alisher ko‘chaga chiqishdan, bolalar bilan o‘ynashdan bosh tortdi. O‘g‘lining harakatidan tashvishlangan onasi uni ko‘chaga chiqib, bolalar bilan o‘ynashga undadi. Ammo Alisher bundan qat’iy bosh tortdi va bolalar bilan o‘ynagandan ko‘ra uyda o‘tirish unga ma’qulligini aytди.

Muammo: SHaxsning kamolotida temperament hususiyatlarining o‘rni qay darajada?



o‘quv topshiriq” (topshiriqni yakka tartibda yoki kichik guruhchalarga berish mumkin)

1. Sizningcha Alisher qaysi temperament tipiga taalluqli?.
2. Aisherning ruhiyatidagi o‘zgarishni ijobiy baholash kerakmi yoki salbiy?
3. Alisherga qanday yordam berish zarur?



“Konvert” usuli

Konvert usuli yordamida mavzuga oid savol hamda muammolar keng yoritiladi va tahlil qilinadi.

O‘quv topshiriq: Guruh sardorlari bittadan konvertlardan tanlaysizlar, har bir konvert ichida uchtadan mavzuga oid savollar bo‘lib, barchangizni faol ishtirokingiz yordamida istagan grafik organayzer asosida savollarga javob yozasizlar va izohlaysizlar.

Namuna: (Konvert ichidagi savollar:)

1-Konvert

- 1.Ibn Sinoning mijozga oid ta’limotini izohlang.
2. Rasmni izohlang.



2-Konvert

- 1.Temperament va ishtahani izohlang.
- 2.Melanxolik tipiga ta'rif bering va mimika, pantomimika orqali harakatlarini ijro etib bering.

3-Konvert

- 1.Gippokrat ta'limotini izohlang.
- 2.Sangvinik tipiga ta'rif bering va mimika, pantomimika orqali harakatlarini ijro etib bering.

4-Konvert

- 1.Temperamentning muloqotdagi rolini izohlang.
2. Rasmni izohlang.



“KLASTER” GRAFIK ORGANAYZERI

“Klaster” (g‘uncha, to‘plam, bog‘lam) grafik organayzeri puxta o‘ylangan strategiya bo‘lib, uni o‘quvchi (talaba)lar bilan yakka tartibda, guruh asosida tashkil etiladigan mashg‘ulotlarda qo‘llash mumkin. Klasterlar ilgari surilgan g‘oyalarni umumlashtirish, ular o‘rtasidagi aloqalarni topish imkoniyatini yaratadi.

Grafik organayzerdan foydalanishda quyidagi shartlarga rioya qilish talab etiladi:


Нимани ўйлаган бўлсангиз, уни қоғозга ёзинг! Фикрингизнинг сифати ҳакида ўйлаб ўтирамай, шунчаки ёзиб боринг!

Ёзувингизнинг орфографияси ёки бошқа жиҳатларига эътибор берманг!

Белгиланган вақт ниҳоясига етмагунича, ёзишдан тўхтамант! Агар маълум муддат ўйлай олмасангиз, у ҳолда қоғозга бирор нарсанинг расмини чиза бошланг! Бу ҳаракатни янги ғоя туғилгунига қадар давом эттиринг!

Муайян тушунча доирасида имкон қадар кўпроқ янги ғояларни илгари суриш, улар ўртасидаги ўзаро алоқадорлик, боғлиқликни кўрсатинг!

Grafik organayzer yordamida o‘quvchi (talaba)lar topshiriq bo‘yicha fikrlarini klaster (mayda, alohida qismlar) tarzida quyidagicha ifodalaydi:






“VENN DIAGRAMMASI” GRAFIK ORGANAYZERI

Grafik organayzer o‘quvchi (talaba)larda mavzuga nisbatan tahliliy yondashuv, ayrim qismlar negizida mavzuning umumiyligi mohiyatini o‘zlashtirish (sintezlash) ko‘nikmalarini hosil qilishga yo‘naltiriladi. U kichik guruhlarni shakllantirish asosida aniq sxema bo‘yicha amalga oshiriladi.

YOzuv taxtasi o‘zaro teng to‘rt bo‘lakka ajratiladi va har bir bo‘lakka quyidagi sxema chiziladi:

Grafik organayzer o‘quvchi (talaba)lar tomonidan o‘zlashtirilgan o‘zaro yaqin nazariy bilim, ma’lumot yoki dalillarni qiyosiy tahlil etishga yordam beradi. Undan muayyan bo‘lim yoki boblar bo‘yicha yakuniy darslarni tashkil etishda foydalanish yanada samaralidir.




O‘quvchi (talaba)larning e’tiborlariga quyidagi jadvalni taqqdim etish mumkin:

Guruqlar	Diagrammaning tartib raqami	Topshiriqlar mazmuni
	1-diagramma	

1- guruh	2-diagramma	
	3-diagramma	
2-guruh	1-diagramma	
	2-diagramma	
	3-diagramma	
3-guruh	1-diagramma	
	2-diagramma	
	3-diagramma	
4-guruh	1-diagramma	
	2-diagramma	
	3-diagramma	

Namuna:



Talabalar bilimini nazorat qilish topshiriqlari (Test, psixologik masala va nazorat savollari)

Izchillik testlari

1. Qaysi qatorda xotira tushunchasiga to'g'ri ta'rif berilgan?

A) miyadagi muvaqqiyat bog'lanishlar

B) miyada iz hosil bo'lishi

*V) ilgari idrok qilgan boshdan kechirgan va bajargan ishlarimizni yodda saqlash keyinchalik ularni esga tushirishdan iborat jarayon

G) kundalik bilimlarni esda olib qolishga

D) zarur vaqtida kerakli materialni esga tushira olish qobiliyati

2. Qaysi qatorda xotira jarayonlari ko'rsatilgan?

A) esga tushirish

B) esda olib qolish

V) unutish

G) esda saqlash

*D) barcha javoblar to'g'ri

3. Xotiraning nerv fiziologik asosini nima tashkil qiladi?

A) ikkinchi signallar tizimi

*B) assotsiatsiyalar

V) bosh miyaning po'stloq qismi

G) ketma-ketlik assotsiatsiyasi

D) dinamik streotip

4. Qaysi qatorda assotsiatsiya tushunchasiga to'g'ri ta'rif berilgan?

A) miyada iz qosil bo'lishi

B) material izini yo'qolishi

V) esda qoldirish va unutish tezligiga ko'ra

*G) xotiramizda mustahkamlangan va ongimizda qayd qilingan ayrim voqeahodisalarning o'zaro bog'lanishdir biror buyumni esda olib qolish uni boshqa buyumlar bilan bog'lash orqali amalga oshiriladi

D) barcha javoblar to'g'ri

5. «Muvaqqat nerv bog'lanishlari hayvonot olamida va bizning o'zimizga ham bo'ladigan eng umumi fiziologik hodisadir. Shu bilan birga u psixik hodisa hamdir. Turli-tuman harakat taassurot bo'lmasa harflar so'zlar va fikrlar o'rtasida paydo bo'ladigan bog'lanishlarni psixologlar assotsiatsiyalar deb ataydilar.» Mazkur fikr muallifi qaysi qatorda ko'rsatilgan?

*A) I.Pavlov

B) I.Sechenov

V) L.Vigotskiy

G) A.Smirnov

D) F.Galton

6. Assotsiatsiyalar nechta turga ajratiladi?

A) 2 ta ketma-ketlik o'xshashlik

*B) 3 ta ketma-ketlik o'xshashlik qarama-qarshilik

V) 2 ta fazoviy va vaqt

G) 3 ta fazoviy emotsiyonal harakat

D) barcha javoblar to'g'ri

7. Narsa va hodisalarning fazoviy vaqt munosabatlari aks etadi. Mazkur fikr qaysi assotsiatsiyaga tegishli?

*A) ketma-ketlik

B) o'xshashlik

V) qarama-qarshilik

G) fazoviy

D) harakat

8. Qaysi qatorda psixik faollik tabiatiga ko'ra xotira turlari berilgan?

*A) harakat, hissiy, obrazli, so'z-mantiq, mexanik

B) ixtiyorsiz, ixtiyoriy

V) qisqa muddatli va uzoq muddatli, operativ

G) harakat, ixtiyorsiz, operativ

D) barcha javoblar to'g'ri

9. Qaysi qatorda faoliyat maqsadiga ko'ra xotira turlari keltirilgan?

A) harakat, hissiy, obrazli, so'z-mantiq, mexanik

*B) ixtiyorsiz, ixtiyoriy

V) qisqa muddatli va uzoq muddatli, operativ

G) harakat, ixtiyorsiz, operativ

D) barcha javoblar to'g'ri

10. Materialni qancha vaqt esda olib qolish va esda saqlash muddatiga ko'ra xotira turlari qaysi qatorda ko'rsatilgan?

A) harakat, hissiy, obrazli, so'z-mantiq, mexanik

B) ixtiyorsiz, ixtiyoriy

*V) qisqa muddatli va uzoq muddatli, operativ

G) harakat, ixtiyorsiz, operativ

D) barcha javoblar to'g'ri

11. Esda qoldirish faolligiga ko'ra qanday turlarga ajratiladi?

A) 2 ta ixtiyoriy, ixtiyorsiz

*B) 3 ta ixtiyoriy, ixtiyorsiz, tasodifan

V) maqsad qo'yish, o'quv materialini tushunish

G) ixtiyoriy va beixtiyoriy

D) barcha javoblar to'g'ri

12. Ixtiyoriy esda olib qoldirishda qanday usullardan foydalaniladi?

A) material va so'zning ta'sirchanligi

B) ixtiyoriy va ixtiyorsiz tasodifan

*V) maqsad qo'yish o'quv materialini tushunib esda qoldirish, esda qoldirishning ratsional usullari

G) maqsad qo'yish, esda qoldirishning ratsional usullaridan foydalanish

D) hissiy ta'sirchanligi, hajmi, harakatchanligi, tezligi, shakli

13. Beixtiyor esda qoldirishda qaysi jarayon asosiy rol o'ynaydi?

A) ehtiyoj

B) tajriba

V) shakl va hajmi

*G) qiziqish

D) hissiy ta'sirchanliligi

14. Narsa va hodisalarni uni shu paytda idrok qilmay esga tushirishga aytildi?

A) esga tushirish

B) tanish

*V) eslash

G) bevosita esga tushirish

D) vaqt o'tkazib esga tushirish

15. Narsa va hodisalarni uni shu paytda idrok qilmay esga tushirishga aytildi?

A) esga tushirish

B) tanish

*V) eslash

G) bevosita esga tushirish

D) vaqt o'tkazib esga tushirish

16. Materialni idrok qilish ketidanoq esga tushirishdan iborat jarayon nima deb ataladi?

A) esga tushirish

B) tanish

V) eslash

*G) bevosita esga tushirish

D) vaqt o'tkazib esga tushirish

To'ldiruvchi testlar

17. Turli xil harakatni esda olish, esda saqlash va qayta esga tushirishdan iborat esda olib qolish deb ataladi

*A) harakat xotirasi

B) hissiy xotira

V) obrazli xotira

G) ixtiyorsiz xotira

D) ixtiyoriy xotira

18. Tassavurlar tabiat va hayot manzaralari shu bilan birga tovush xidlar, ta'mlar bilan bog'liq xotira

A) harakat xotirasi

B) hissiy xotira

*V) obrazli xotira

G) ixtiyorsiz xotira

D) ixtiyoriy xotira

19. Idrok qilingan narsa va hodisalarning obrazlarini miya po'stida iz hosil qilishi..... deb ataladi?

A) esda saqlash

B) esga tushirish

V) unutish

*G) esda olib qolish

D) remenisentsiya

20 O'tmishda idrok qilingan narsalarning his-tuyg'u, fikr va ish-harakatlarning ongimizda qayta tiklanishi deb ataladi?

*A) esga tushirish

B) tanish

V) eslash

G) bevosita esga tushirish

D) vaqt o'tkazib esga tushirish

21..... ilgar idrok qilingan narsa va hodisalarning takror idrok qilish natijasida narsa yoki hodisaning esga tushirishdir?

A) esga tushirish

*B) tanish

V) eslash

G) bevosita esga tushirish

D) vaqt o'tkazib esga tushirish

Mutanosiblik testlari (nostandard testlar)

22. Xotira turlari o'rtaqidagi mutanosiblikni aniqlang

1	Harakat yoki motor harakat xotirasi, obrazli xotira	A	Davomiyligiga ko'ra
2	ixtiyorsiz, ixtiyoriy, mexanik	B	Faoliyatning faolligiga ko'ra
3	Qisqa muddatli, uzoq muddatli, operativ	V	Inson yo'nalishiga ko'ra
4	Fenomenal, kasbiy xotira	G	Maqsadiga ko'ra

Javoblar

1-B	2-G	3-A	4-V
------------	------------	------------	------------

23. Xotira jarayonlari o'rtaqidagi mutanosiblikni aniqlang

1	bevosita esga tushirish	A	O'tmishda idrok qilingan narsalarning his-tuyg'u, fikr va ish-harakatlarning ongimizda qayta tiklanishi
2	eslash	B	ilgar idrok qilingan narsa va hodisalarning takror idrok qilish natijasida narsa yoki hodisaning esga tushirishdir
3	esga tushirish	V	Narsa va hodisalarni uni shu paytda idrok qilmay esga tushirishga
4	tanish	G	Materialni idrok qilish ketidanoq esga tushirishdan iborat jarayon

Javoblar

1-G	2-V	3-A	4-B
------------	------------	------------	------------

24. Quyidagi tushunchalar o'rtaqidagi mutanosiblikni aniqlang

1	Proaktiv tormozlanish	A	- oldin esda qoldirilgan narsalarni qayta idrok qilish orqali obraz tariqasida esga tushirishdan iborat xotira jarayoni
2	Tanib olish	B	- ilgari idrok qilingan narsa va hodisalarning takror idrok qilish natijasida narsa yoki hodisaning esga tushirishdir
3	Xotira	V	- avvalgi faoliyatning qayta-qayta kun takrorlanishi natijasida keyingi materiallarning esga tushirishning yomonlashuvi
4	tanish	G	- aks ettirilgan narsa va hodisalarni, tajribani esda qoldirish, esda saqlash va zarur bo'lganda esga tushirishdan iborat psixik jarayon

Javoblar

1-V	2-A	3-G	4-B
------------	------------	------------	------------

Reproduktiv testlar

25. Bu qonun haqida eramizdan avvalgi VI-V asrlarda yashagan Arastu ham yozgan edi. Qonunning mohiyati shundaki, bir vaqtida shakllangan tasavvurlar xotirada ham yonma-yon bo'ladi. Masalan, ayni konkret xona o'sha erda ro'y bergan xodisalarini ham eslatadi. Bu qaysi qonun?

- a) anglanganlik qonuni
- b) tormozlanish qonuni
- c) kuchli taassurotlar qonuni
- d) asossatsiyalar qonuni

J:D

26. Bu shunday kishilarki, ular bir vaqtning o'zida nisbatan juda katta hajmdagi ma'lumotlarni esda saqlay oladi va esga tushiradi. Ularda qanday xotira turi ustunlik qiladi?

- a) operativ xotira
- b) fenomenal xotira
- c) emotsiyonal xotira
- d) ko'rgazmali obrazli xotira

J:B

Продуктив тестлар

27. Taniqli, rus psixologgi va neyropsixologgi A. R. Luriya ham ana shunday xotira sohiblaridan biri asli kasbi journalist bo'lgan Shereshevskiy degan shaxs xotirasini ataylab uzoq vaqt mobaynida o'rgangan. Uning xotirasi shunday ediki, Dantening «Illohiylik komediyasi»dan olingan uzundan-uzoq parchani bir marta qarab olgandan so'ng, 15 daqiqadan so'ng so'zma-so'z aytib berolgan. Shunisi xarakterli ediki, komediya unga notanish bo'lgan italyan tilida yozilgan edi. Mazkur fikr qaysi xotiraning qaysi turini ochib berishga qaratilgan?.

- a) obraz xotirasi
- b) emotsiyonal xotira
- c) fenomenal xotira
- d) uzoq muddatli xotira

J:c

Ijodiy izlanuvchanlik testlari

28. Labirintga pastki qatorning o'ng burchagidan kirib, yuqori qatorning chap burchagidan chiqing va mavzuga oid tushunchani hosil qiling. (**Esda saqlash**)

X	U	O	K	B	Y
Sh	O	N	T	I	Sh
A	D	T	U	P	K
L	L	O	I	A	D
Q	A	S	A	R	A
Б	V	A	D	S	E

29. Labirintga pastki qatorning o'ng burchagidan kirib, yuqori qatorning chap burchagidan chiqing va psixologiyaga oid tushunchani hosil qiling. (**Eksperiment**)

T	O	B	M	P	П
H	A	P	C	H	А
E	A	И	H	O	П
M	И	P	E	П	С
H	E	T	O	З	К

30. Anagrammani yeching va ortiqcha so'zni toping. (Metod)

A	P	D	I	O
P	D	K	I	O
G	E	C	Z	I
D	O	M	T	E

“Kasbiy psixologiya” fanidan joriy baholash uchun masalalar**1- VAZIYAT**

Matematika o'qituvchisi mavzuni tushuntirmoqda. Komil ta'sirchan bola. Bundan oldingi eng èqtirgan tarix darsida «uch» baho olgan edi. U o'zining omadsizligidan siqilib, qog'oz buklab o'tirgan edi.

O'qituvchi: Komil nima qilayapsan? Nimaga darsni eshitmayapsan? Sen o'zingni èmon tutayapsan.

Komil: Nima qilibdi? To'ng'illadi Komil.

O'qituvchi: Sen o'qituvchi bilan qanday gaplashyapsan? O'rningdan tur!

Komil: Nega men o'rnimdan turar ekanman? Men xech narsa qilganim yo'q.

O'qituvchi: Xali shunaqami? Sinfdan chiqib ket!

Komil: CHiqmayman!

O'qituvchi: Yo'q, chiqasan, o'qituvchi bolani qo'lidan ushlab hamma bolalar oldida sinfdan chiqarib yubordi.

Savollar.

1. Bolani xulqida nimaga o'zgarish ro'y berdi?

2. O'qituvchining Komilga nisbatan pedagogik xarakatlarini izohlang.

3. O'qituvchining pedagogik xatosi nimada edi?

2- VAZIYAT

Bir kuni siz do'stлaringiz bilan kursdosh o'rtog'ingiznikiga mehmonga bordingiz.O'rtog'ingizni uyida ota – onasi yo'q ekan. O'rtoqlaringiz bundan foydalanib spirtli ichimlikni qo'lma-qo'l qilib ichishyapti. Siz ichishni xoxlamayapsiz. Sizga boshqalarni xatti – xarakatidan noqulay bo'lyapti. Siz do'stingizga pichirlab ichishni xoxlamayapganingizni aytgan edingiz, u kulib: «Sen bir ta'tib ko'rigin, xar doim ham èsh bola bo'lib qolmaymizku!»- deb aytdi. Siz nima qilasiz?

Yechish yo'llari:

1. Ichasiz, chunki boshqalar hammasi ichmoqda, ichmasangiz sizni ustingizdan kulishadi.

2. «Men dori ichyapman, spirtli ichimlik bilan aralashtirib bo'lmaydi» deb bahona qilasiz.

3. Oddiygina «yo'q, raxmat» èki «men xoxlamayman» deb qo'ya qolasiz.

3- VAZIYAT

O'qituvchi darsga kirish vaqtida xonada bolalar to'paloni ustidan chiqdi. O'qituvchi urushaètgan bolalarni koridorga olib chiqib, nima sababdan urushaètganlarini so'radi. Bolalar bir-birlariga qarab sababini aytmadilar.

«Bu sirmi?» - deb so'radi o'qituvchi. Bolalar boshlarini qimirlatdilar. SHunda o'qituvchi bolalarga «sizlar 5 daqiqa vaqt ichida erkakchasiga gaplashib olinglar, faqat bir-biringlarni urmasdan, xaqorat qilmasdan kelishinglar. Sinfga siz oldingidan ham inoqroq do'st bo'lib kiring, shunday xaètiy muammolarni ham tinch-totuv yechib kirganingizni boshqalar ko'rsin.»

Savollar.

1. O'qituvchi xaqmi? U vaziyatni qanday boshqardi?
2. Siz bolalarda ta'lif – tarbiya ishlarini olib borishda, «erkakcha», «qizlarga hos» degan fikrlarni ishlatalishiga qanday qaraysiz?
3. Siz bu vaziyatda qanday yo'l tutar edingiz?

4 - VAZIYAT

Ikkinchi chorak boshida o'qituvchi boshlang'ich sinf o'quvchilariga: «Mening sizlar bilan ishlashim qulay bo'lishi uchun, siz bilan kelishib olamiz. Kim «3» va undan past baho olgan bo'lsa, mendan o'ng tamonga, kim yuqori baholarga o'qisa mendan chap tamonga o'tiradi. CHunki, bu o'yin sizlarni o'zlashtirishingizdagи yutuq va kamchiliklarni yaqqol ko'rsatadi va o'ng tamondagilar ko'proq men va sinfdoshlarini e'tiborida bo'ladilar.»

Savollar.

1. Bunday tabaqalashtirishda o'qituvchi qanday qonuniyatlarni ko'zda tutgan?
2. Bu tajribani o'spirinlarda qo'llash mumkinmi?
3. Bu pedagogik yo'naliш ta'lif va tarbiya ishlarida qanday rolъ o'ynaydi?

5 - VAZIYAT

Rasm darsida o'qituvchi piёlani stol ustiga qo'yib, uni rasmini chizishni bolalarga tushuntirdi. Oldinda o'tirgan Sarvar tikilib o'tirib, qo'lini ko'tardi:

- Maylimi, men piёlani rasmini chizmay, xech qachon ko'rmagan narsamni rasmini chizsam?
- Niman chizmoqchisan? - hayratlandi o'qituvchi.

Bola o'ylab turib, efkolipt daraxtini chizmoqchiligin aytdi. O'qituvchi ruxsat berdi.

Bola bir oz o'ylanib o'tirib, yana so'radi:

- Maylimi, men faqat ba'zi odamlar ko'rgan narsalarni chizsam? O'qituvchi qiziqib u nima narsa ekan deb so'radi. Bola ko'k qush rasmini chizmoqchiligin aytdi. O'qituvchi xayratlanib bo'lsada bolaga chizishga ruxsat berdi.

Xamma bolalar rasm chizish bilan bandlar, faqat Sarvar yana xaёl surib o'tiribdi. U yana qo'l ko'tarib o'qituvchiga yuzlandi:

- Maylimi, men xech kim xech qachon ko'rmagan narsani rasmini chizsam?
- O'qituvchi undan yana nima tasavvuriga kelganini so'radi.
- Men mamontni uyg'onishini chizmoqchiman.
- Mamontni? So'radi o'qituvchi.
- Xa, mamontni, xo'rsindi Sarvar.
- Mamont bo'lsa mamont, faqat sen tezroq nimani xoxlaётganiningni xal qilmasang ulgurmay qolasan, chunki xozir qo'ng'iroq chaladi.

Besh daqiqadan so'ng qo'ng'iroq chaldi. Sarvarni qog'ozi oppoqligicha qoldi.

Savollar.

1. Siz bu vaziyatni qanday izoxlaysiz?

2. Sarvar xaqida qanday tasavvurga ega bo'ldingiz?
3. Keyinchalik o'qituvchi bu bola bilan qanday ishlashi kerak?

6- VAZIYAT

Tohir doim dars jaraènida qiziqmasdan, boshqalarga darsni tinglashida xalaqit berib o'qituvchilarning asabiga muntazam ravishda tegib yuradigan bola. Hamma o'qituvchilar bu boladan doimo shikoyat qilib yuradilar. Bir kuni fizika o'qituvchisi Nasiba opa Tohirni kolidorda ko'rib qolib: «Bilasanmi ertaga darsda men nimalar xaqida to'xtalib o'tmoqchiman?» deb, ertangi dars mavzusi va topshiriqlari bilan Tohirni tanishtirdi. Ertasi kuni fizika darsida Tohir hammani xayratda qoldirib, yangi mavzuni o'qituvchi bilan barobar munozara tarzida o'tkazdi. Boshqa o'quvchilar Tohirning bu yutug'idan xayratda qoldilar.

Keyingi fizika darsidan bir kun oldin Tohir o'zi o'qituvchini kolidorda poylab turib ertangi dars nima xaqida bo'lishini so'radi.

Savollar.

1. Bolaning yutug'ini siri nimada? Siz bunday yo'l bilan yutuqqa erishishga qanday qaraysiz?
2. Qanday sharoitlarda bolaning bu yutug'ini mustaxkamlash mumkin?
3. O'qituvchining bu xarakatini antipedagogik deb qarash mumkinmi?

7- VAZIYAT

Fakulitet sponsorlari Universitet yubeleyiga yaxshi studentlarga 3 ta putèvka premiya tariqasida ajratdilar.

Qanday yo'l bilan studentlar orasida buni taqsimlash mumkin?

- 1) Fakulitet soveti talabalar o'rtasida konkurs o'tkazib, g'oliblarga mukofatni berishni taklif qildi.
- 2) Fakulitet soveti gurux sardorlarini yig'ib, ulardan gurux a'zolariga xarakteristika olib, ko'pchilik fikriga asoslanib mukofat ajratish.
- 3) Sizni bu vaziyat bo'yicha fikringiz qanday?

8- VAZIYAT

Men dugonam bilan qanday kasbni tanlash lozimligi borasida ko'p tortishdim -, hali bu to'g'ri kelmagandek hali u ...

- Men aniq bilaman, qaysi kasblarni tanlamasligimni: o'qituvchi bo'lib asabimni buzmayman, kimèviy sanoatga bormayman, chunki kimèviy moddalar bilan ishlash sog'liqqa zarar; fabrikaga bormayman, u yerda bir xil ish qilib robotga aylanib qolish mumkin. Men hohlardimki, ishimda sog'lig'im buzilmasin va ishlash jaraèni qiziqarli bo'lsin. Istardimki, ishim hayvonlar bilan va ko'pgina safarlar bilan bog'liq bo'lsin.
- Unda sen tsirkka borishing kerak! – deb qichqirdi dugonam va ilova qildi: menga esa yaxshi pul topsam bo'ldi.

Keyin men uzoq o'yladim. TSirkka menda iste'dod borligi shubhalantirdi. Balki dugonam xaqdir. Agar qobilyat bo'lmasa, boshqacha yo'l bilan pul topishni o'ylash kerakdir.

Savol va topshiriqlar:

1. Qizning kasb tanlash motivlari qanday?
2. Berilgan holatda pedagogik ta'sirning qanday turi qo'llanilgan?

9- VAZIYAT

Bolalar o'rtasidagi bitiruvchilar uchrashuvida shunday suhbat ro'y berdi.

Ioda ozg'in kichkina qiz. U farmatsevt. Uning o'z kasbi to'g'risida gapirishini eshitish – faqat rohat:

- Bolalar uchun dori, - deydi u, - bu juda ma'suliyatli. Arzimas xato xaqida o'ylash ham dahshat, nimalarga olib keladi ... Axir ular zaharlanishi mumkin. O'zim ham tatib ko'raverganimdan zaharlanay debman. U dori, retseptlar nomlarini to'kib soldi. Bolalar kulishadi.

- Sen bilan o'zbekchada gaplashib bo'lmaydi, nuqlu hamma gaping lotin va dorilar to'hrisida.

- Bu mening ishim, - kuladi u.

Bitiruvchilar o'rtasida bo'lajak shifokor – Dilnoza. U stomatolog bo'lmoqchi.

- Dilnoza, nega sen stomatologlikka kirding?

- Nargiza kirdi, men ham u bilan.

- Qalay èqyaptimi?

- Ha bo'ladi, faqat keraksiz har xil fanlar ko'p. Masalan ingliz tili. Nega tish doktorlarga ingiliz tili kerak? Umuman olganda men stomatologiya kollejiga o'tmoqchiman. Texnik bo'laman.

- Universitetdan kollejga? Lekin nimaga?

- O'qish jonga tegdi, keyin biz poliklinikada amalièt o'tadik, shunda bildimki, doktorga qaraganda texnik ko'p pul ishlashi mumkin ekan.

Savol va topshiriqlar:

1. Kasb tanlashda ikkala holatni solishtiring.

2. Qizlar mehnatni baholashning qanday asoslaridan foydalanishadi?

3. Insonning kasbiy o'zini anglashi va ijodiy o'zini tahlil qilishini qanday tushunasiz?

10- VAZIYAT

- Marhamat o'tiringlar, alifbodagi «Q» harfi bo'lgan betni oching.

Bolalar shunday voqeа to'g'risida o'qishadiki, unda kichik G'iès hamma harflarni o'rganib uyiga xursand holatda keladi va buvisiga aytadi: «hohlaysizmi, men ham sizga o'qishni o'rgataman? Bu juda oson!»

- Endi keyingi betda boshqa hikoyani o'qing!

- Boshqa bet yo'q!

- Qanaqasiga yo'q?

- Biz kitobni tugatdik!

- Butunlay tugatdik!..

- Unda kitobni èping... Keling gaplashamiz: u sizga nimani o'rgatdi?

- U bizga o'qishni va èzishni o'rgatdi.

- Ona tilini o'rgatdi... Qanday to'g'ri gapirishni! Bilim berdi!

- Bizni yaxshi bo'lishga, do'st bo'la olishga o'rgatdi!

- O'qishni sevishni, kitobni sevishni!

- Ota-onalarni hurmat qilishni !

- Muloyim bo'lishni!

- Unda ko'p kulguli va ajoyib rasmlar!

- Unda yana, rebuslar, krossvordlar, tez aytishlar!

- Men bu kitobni juda yaxshi ko'raman! Siz kitobni uyga olib ketishga ruxsat berganingizda, men uni èstig'im ostiga qo'yardim va u bilan uxlardim!
- Men esa hammaga, qo'shnilarimga ham ko'rsatardim!
- Endi boshingizni partaga qo'ying! Ko'zlariningizni yuming! – o'qituvchi ovozini pasaytirdi. - Men sezayapman siz birinchi kitobningizni yaxshi ko'rib qoldingiz, to'g'rimi?
- Ha, - shivirlashdi bolalar.
- Unda o'ylab ko'ringlar, qanday so'zlar bilan siz unga o'z minnatdorchililingizni bildirasiz?

Savol va topshiriqlar:

1. Bunday holatda pedagog qanday pedagogik masalalarni hal etadi?
2. Berilgan fragment qanday kontseptsiya èki ta'lif andozasini namoyish qiladi?
3. Darsdagi pedagogik o'zaro faoliyat tashkilotida pedagog qanday qonun-qoidalarga amal qilgan?
4. Bu holat o'qituvchining qanday pedagogik faoliyat xususiyatlarini bildiradi?

11- VAZIYAT

Toyir (T.): Men yuk tashuvchi bo'lmoqchiman! Menga yuk mashina bering! Qo'yvor! Qo'yvor!

Zoir (Z.): Men uni birinchi oldim! U esa kelib mendan uni birinchi olib qo'ydi! Uni menga bersin!

Ota (O.): Ko'rib turibman, sizlarda xaqiqatdan muammo yuk mashinasida. Balki bu xonaga o'tib gaplasharmiz? Men sizlarga bu muammoni hal qilishga èrdam bermoqchi edim.

Z.: Men yuk mashinasini olmoqchiman! Menga ber! Dada, aytin, menga bersin!

O.: Zoir, senga yuk mashinasini qaytarib berishlarini hohlaysanmi?

Z.: Lekin, men uni birinchi oldim!

O.: Zoir, yuk mashinasini senda bo'lishi kerak deb o'ylaysan, chunki sen uni birinchi olding, to'g'rimi? Toyir eshitding. Zoir nimani taklif qilayapti?

T.: U boshqa nimani ham taklif qilardi? Unga muhimi gapida turib olish.

O.: Zoir, Toyirga sening qaroring èqmoyapti, chunki bunda sen yutasan u esa yutqizadi.

Z.: Yaxshi, men unga mashinalarimni o'ynashga berib turaman, toki yuk mashinasini jonimga tekkuncha.

O.: Toyir, Zoir boshqa gapni aytayapti – u mashinasini bilan o'ynab turguncha, sen uning boshqa mashinalarini o'ynashing mumkin ekan.

T.: Keyin, u menga yuk mashinani beradimi?

O.: Zoir, Toyir ishonsinmi, unga o'ynab bo'lib yuk mashinani berasanmi?

Z.: Yaxshi, men uzoq o'ynamayman.

O.: Toyir, Zoir aytayapti, hammasi joyida bo'ladi – u seni aldamaydi.

T.: Unda mayli.

O.: Umid qilamanki, endi sizlar kelishib oldinglar, shundaymi?

Savol va topshiriqlar:

1. Holatni tahlil qiling va ziddiyat sababini aniqlang.
2. O'g'llar o'rtasidagi ziddiyatlarni hal qilish jaraènini boshqarishda ota qanday tamoyillarga amal qilgan?

3. Ota o'g'illari bilan munosabatda qanday o'rin egallayapti? Bu nimada bilinyapti?

12- VAZIYAT

Bola (yig'layapti): Mashina, mashina! Qani mening mashinam?

Ota: Senga mashining kerak, lekin uni topolmayapsan?

Bola: (xonalar bo'y lab yugurdi, ditvan taglarini qaradi).

Ota: U yerda mashinang yo'q.

Bola: Qani mashinam?

Ota: Balki mashinang shkaf ichida o'yinchoqlar orasidadir? Qaragin.

Bola: (shkaf oldiga yugurib bordi, hamma narsani ag'dardi, lekin mashinani topolmadi va otasiga ma'noli qaradi)

Ota: (indamadi, bu bilan bolaga qidiruv tashabbusini berdi)

Bola: (oshxonaga yugurdi va stol tagidan mashinasini topdi) Mana u!

Ota: Balli! Sen o'zing mashinani topding.

Savol va topshiriqlar:

1. Otaning har bir javob variantini va holatini tahlil qiling.

2. Bu holat ota hulqining qanday xususiyatlarini va bola bilan munosabatning qanday xarakterini bildiradi?

3. Berilgan holatda tarbiyaning qanday turi kuzatiladi?

13- VAZIYAT

Erkin «onasini bolasi» deb ataladigan bolalardan biri. Uning onasi garchi faqat o'g'li bilan shug'ullanishi kerak bo'lsa-da, u har qanday sabab bilan goh direktorga, goh o'qituvchilarga, goh sinfdoshlarning ota-onalariga murojat qilishni afzal ko'rdi. Natijada, Erkin 15 èshga to'lgan bo'lishiga qaramay, har qanday arzimas sabab bilan onasiga murojat qilish odobsizlik ekanligini tushunmadni va u umuman xaqiqiy haètga moslashmadi. U o'zini o'zi himoya qila olmaydigan, oddiy vaziyatlardan ham chiqib keta olmaydigan darajaga yetdi.

Odatdagidek, ziddiyatlarning hamma sabablari quyidagilarga taqalardi: «meni turtishdi», «meni masxara qilishdi», «meni chaqirishmadi» va sh.k.

Mehmonga buva va buvisi kelishdi, ular chet elda yashardilar shuning uchun ham 8 yil mobaynida nabirasini ko'rishmagan edi. Buvasi sobiq xarbiy edi, u hafta davomida Erkin va kelin xulqini kuzatdi.

Yanagi holatdan keyin buva nabirasi bilan èlg'iz gaplashishga qaror qildi.

- Men sen bilan nafaqat bu holat xaqida, balki butun haèting to'g'risida gaplashmoqchiman. Sen endi 15 èshdasan va buni tushunishing kerak: qanday vaziyatda onasini èrdamga chaqirish va uning maslahatini olish lozim; qanday vaziyatda onasini o'z shaxsiy ishlariga aralashtirmaslik lozim. Mana qara, qanday xudbinsan: oyingni ko'zi èshlanishigacha tashvishlantirding, umuman olganda bu ishni o'zing ham hal qilishing mumkin edi.

Yana bir gap. O'zing tushunasan, hamma payt ham oying èningda bo'lmaydi va sen o'zingni himoya qila olishing kerak, o'tmisht va kelajakni tahlil qila bilishing shart. Mana bugun, agar sen o'zingni xaq deb bilsang, nega unda o'qituvchidan bahoni pasaytirgani sababini so'ramading? Sen bo'lsang oyingni ovora qilib, o'qituvchidan shikoyat qilding. Axir sen kap-katta yigtsan, har qanday iltimosingni, norozilicingni, savolningni o'zing aytishing kerak.

Hayotda juda qiyin masalalarini hal qilishinga to'g'ri keladi: o'z g'ururing, oilang faxrini himoya qilishing, bezorilarga to'sqinlik qilishing, sevgan qizing nomusini, Vataningni himoya qila bilishing lozim.

Bir hafta oldin oying bilan suhbating davomida sinfdoshlarining bilan ziddiyatli munosabatlaring haqida eshitib qoldim. Sen aytdingki, o'rtog'ing noxaq. Lekin sen bunga qanday e'tibor qilding: tupurding, tirdning va oyinga yugurding... Oying senda o'z himoyachisini ko'rishi kerak. Sen bo'lsang o'zingni èsh boladek tutasan. Kelishib olaylik, agar nimadir bo'lsa, oyingni boshini qotirmaysan, balki men bilan maslahatlashasan. Biz birgalashib o'yaymiz. SHu yo'l ma'qulmi senga?

Yana bir shart, irodangni o'zing tarbiyala, ya'ni hamma narsani o'zing hal qil va bajar. Fe'lingni tarbiyala! Axir sen urush ofitserining nabirasisan-ku! Agar qiyalsang, senga hamisha èrdam beraman! Kelishdikmi?

Qani ovqatga, oying bilan buving bizni kutib qolishdi.

Savol va topshiriqlar:

1. Ona va o'g'il o'rtasida kelib chiqqan oilaviy munosabatlar turiga xarakteristika bering.
2. Ona va buvaning tarbiya ko'rinishi qanday?
3. Oilaviy tarbiya qiyinchiligini nimada ko'rasiz?
4. Bunda qanday pedagogik kategoriyanidan uzoq bo'lish lozim?

Kasbiy psixologiyada qobiliyatlarni aniqlovchi topshiriqlar

Quyida turli hildagi kasbiy pedagogik qobiliyatlarni aniqlovchi 14 xildagi pedagogik vaziyatlar berilmoqda. Ularni hal etish bir muncha vaqt talab etadi. O'qituvchi dars jaraènida har bitta vaziyatdan unumli foydalanishi mumkin. Bu muammolarni hal etishda quyidagi topshiriqlarni belgilab olish maqsadga muvofiq:

I BOSQICH

Bu bosqich 3 ta topshiriqdan iborat.

1-topshiriq. Har bir pedagogik vaziyatni bittadan talabaga bo'lib bering.

2-topshiriq. Har bir talaba berilgan pedagogik vaziyatlarni mazmun mohiyatini aniqlab olsin.

3-topshiriq. Bo'lib olingen vaziyatlar mazmuniy izohini talabalardan og'zaki so'rang va ular javobini tinglang.

II BOCHQICH

Bu bosqichda talabalarning har biriga barcha pedagogik vaziyatlar tegishli javoblari bilan tarqatiladi. Tarqatilgan har bir vaziyatlarni talabalar o'zлari hech kimning èrdamisiz bajarishi lozim.

Oldingizda noqulay pedagogik vaziyatlar qatori berilgan. Ularning har biri bilan tanishib chiqib, berilgan vaziyatga ta'sir javob variantlardan fikringizga ko'ra to'g'risini tanlang.

1- VAZIYAT

Darsni boshladningiz, auditoriyada tinchlik hukmron surmoqda. Birdan kimir kulub yubordi. Siz kulib turgan talabaga savol va xayrat nazari bilan qaradingizda, u sizga tik qarab gapirdi: "Men uchun sizga qarsh doim kulgili va kulgim keladi".

Bunga siz qanday ta'sirlanasiz?

1. “Mana senga!”
2. “Senga nimasi kulgili?”
3. “Bilganiningni qil”
4. “Sen, nima jinnimisan?”
5. “Xushchaqchaq odamlarni èqtiraman”
6. “Senda xush kayfiyatni uyg’otganimdan xursandman”

2- VAZIYAT

Bu auditoriyada bir necha dars o’tganimizdan so’ng, talaba sizga yuzlanib, “Men o’ylamaymanki, siz pedagog sifatida bizlarga biror narsani o’rgatasiz”

Sizning ta’siringiz:

1. “Sening ishing o’qish, o’qituvchiga o’rgatish emas”
2. “Sendaylarni, men, albatta, hech narsaga o’rgatolmayman”
3. “Balki, senga boshqa guruhga o’tish èki boshqa o’qituvchida o’qishing ma’qulroqdir”
4. “SHunchaki, sen o’qishni hohlamaysan”
5. “Qiziq, nimaga sen bunday deb, o’ylaysan”
6. “Kel, bu to’g’rida ochiqroq gaplashamiz. Balki, o’zimni tutishimda biror-bir narsa bordirki, seni shunday fikrga olib keladi”

3- VAZIYAT

Talaba o’qituvchiga qarab, berilgan vazifani bajarishni hohlamagan holda gapiryapti “Men bu vazifani bajarishni hohlamayman”

O’qituvchining ta’siri qanday bo’lishi kerak?

1. “Hohlamaysanmi- majburlaymiz”
2. “Unda nima uchun o’qishga kelding?”
3. “Senga shuncha èmonroq bo’ladi, o’qimay qolaver. Sening xulqing bir odamni eslatadiki, u o’zining yuziga achchiq qilib, burnini kesib olishni hohlardi”
4. “Sen o’zingga bu to’g’rida hisob berasanmi, bu sen uchun nima bilan tugashi mumkin?”
5. “Tushuntirib berolmaysanmi, nimaga?”

4- VAZIYAT

Talaba o’zining o’zlashtiridan norozi, mavzuni qanday tushunishi, o’zlashtirish kerakligi va o’zining qobiliyatlaridan shubhalangan holda o’qituvchiga dedi: “Nima deb o’ylaysiz, qachondir men ham “a’lo” bahoga o’qir olarmikanman va guruhdagi boshqalardan orqada qolib ketmasmikanman?”

O’qituvchining javobi qanday bo’lishi kerak?

1. “To’g’risin aytganda-shubhalanaman”
2. “Ha, albatta, bundan shubhalanmasliging mumkin”
3. “Senda ajayib qobiliyatlar mavjud va men senga katta umidlar bog’layman”
4. “Nima uchun o’zingdan shubhalanasan?”
5. “Kel gaplashamiz va muammolarining aniqlab olamiz”
6. “Ko’p narsa bir-birimiz bilan qanday ishlashimizga bog’liq”

5- VAZIYAT

Talaba o’qituvchiga qarab: “Sizning kelgusi ikki darsingizga qatnasha olmayman, chunki èshlar ijrosidagi kontsertga bormoqchiman”.

O’qituvchining munosabati qanday bo’lishi kerak?

1. “Qani, boib ko’rchi!”
2. “Keyingi safar darsga ota-onang bilan kelishingga to’g’ri keladi”
3. “Bu sening ishing, imtixon topshiradigan sen. SHundoq ham qoldirilgan darslaring uchun javob berishinggga to’g’rikeladi, men seni keyin albatta so’roq qilaman”
4. “Sen, menimcha, darslarga juda yengil qarayapsan”
5. “Balki, o’qishni tashlaganing ma’quldir?”
6. “Keyin nima qilmoqchisan?
7. “Qiziq, nimaga senga kontsertga borish darslardan ko’ra qiziqroq”

6- VAZIYAT

Talaba auditoriyaga kirib kelgan o’qituvchiga qarab dedi: “Siz juda ham charchagan va horg’in ko’rinasiz”.

O’qituvchining ta’siri qanday bo’lishi kerak?

1. “Menimcha, sen tomondan menga bunday tanbehtar berish odobdan emas”
2. “Ha, men o’zimni èmon his qilyapman”
3. “Mendan havotirlanma, yaxshisi o’zingga qara”
4. “Bugun ishim ko’pligidan èmon uxladim”
5. “Xavotirlanma, bu darslarimizga xalaqit bermaydi”
6. “juda ham e’tiborli ekansan, mehribonliging uchun rahmat!”

7- VAZIYAT

“Men sezyapmanki, siz olib boraètgan darslar menga èrdam bermayapti, -dedi talaba fan o’qituvchisiga qarab va davom etdi, umuman darslarni tashlash haqida o’ylayapman”

O’qituvchining ta’sirlanishi qanday bo’lishi kerak?

1. “Bemani gaplarni bas qil!”
2. “Voy bo’, juda o’ylavording-ku”
3. “Balki, boshqa o’qituvchini toparsan?”
4. “Men yaxshilab bilmoxchi edim, nima uchun senda bunday istak tug’ildi”
5. “Nima deysan, sening muammolaring ustida birga ishlaymizmi?”
6. “Balki, muammolarining boshqacharoq hal qilish mumkindir”.

8- VAZIYAT

Talabao’ziga ishonishini ko’z-ko’z qilib, o’qituvchiga dedi: “Agar hohlaganimda, men qilaolimaydigan hech narsa yo’q. SHu bilan birga sizning fanningizni o’zlashtirish men uchun hech narsa emas”.

O’qituvchining munosabati qanday bo’lishi kerak?

1. “O’zing to’g’ringda jo’da to’g’ri o’ylayapsan”
2. “Qobiliyatlarining bilan-a? Ishonmayman”
3. “Agar shunday gapiraètgan bo’lsang, balki o’zingni yetarli darajada ishonchli his qilyapsan”
4. “Bunga shubham yo’q, chunki ishonaman, agar istasang, qo’lingdan hamma narsa keladi”
5. “Balki, bunarsa sendan katta mehnatni talab qilar”
6. “Haddan tashqari o’ziga ishonish ishga zarardir”

9- VAZIYAT

O'qituvchining tanbehlariga javoban, talaba dedi: "O'quv predmetini o'zlashtirish uchun, ko'p ishslash kerak emas, meni yetarli darajada qobiliyatli deyishadi"

Bunga o'qituvchining ta'siri qanday bo'lishi kerak?

1. "Nahotki, sening bu fikrga aloqang bor"
2. "Sen haligacha boshingdan o'tkazgan qiyinchiliklar va sening bilimlaring hech bunga guvohlik bermaydi"
3. "Ko'pchilik o'zlarini yetarli darajada qobiliyatli hisoblaydilar, lekin ko'pchilik bunday emas"
4. "Hursandman, o'zing haqingda yuqori fikrdasan"
5. "Aynan shu narsa seni o'qishda ko'p kuch sarflashga majbur qilishi kerak"
6. "Bu shunday eshitilyaptiki, go'èki sen o'z qobiliyatlaringga ishonmaysan"

10- VAZIYAT

Talaba fan o'qituvchisiga qarab: "Men yana daftar olib kelishni unutdim"

O'qituvchining munosabati qanday bo'lishi zarur?

1. "Yana -ya?"
2. "Seningcha, bu mas'uliyatsizlikning yaqqol namoèn bo'lishi emasmi?"
3. "Menimcha, ishga jiddiyroq èndoshishingni ayni vaqtি"
4. "Bilishni istardim, nimaga?"
5. "Senda, ehtimol, bunga imkoniyating bo'limgandir?"
6. "Nima deb o'ylaysan, men nima uchun doim senga bu to'g'rida eslataman?"

11- VAZIYAT

Talaba o'qituvchi bilan suhbatda, unga murojaat qilib: "Men hohlardimki, siz boshqa talabalarga qaraganda menga yaxshiroq munosabatda bo'lsangiz".

Talabaning iltimosiga o'qituvchining javobi qanday bo'lishi kerak?

1. "Nimaga men boshqalarga nisbatan senga yaxshiroq munosabatda bo'lishim kerak?"
2. "Men erkatoylarni o'yamoqchimasman"
3. "Menga seday fikrلaydigانlar èqmaydi"
4. "Aytchi, nimaga boshqa talabalar o'rtasida seni alohida ajratishim kerak?"
5. "Agar men senga aytsam, seni boshqa talabalardan ko'proq yaxshi ko'raman, desam, o'zingni bundan yaxshiroq sezarmidинг?"
6. "Nima deb o'ylaysan, o'zi senga qanday munosabatdaman?"

12- VAZIYAT

Talaba o'qituvchiga unga o'qitiladigan predmet haqida yaxshi o'zlashtirish imkoniyatlari bo'yicha o'zining shubhalarini aytdi: "Men sizga meni xavotir qiladigan narsani aytdim. Endi aytinchchi, buning sababai nima va men nima qilishim kerak?"

Bunga o'qituvchining javobi qanday bo'lishi kerak?

1. "Menimcha, senda to'laqonlilik yetishmaydi"
2. "Senda tashvishlanishlarga hech qanday asoslar yo'q"
3. "Asoslangan fikrni aytishdan oldin, men muammoni yaxshiroq tushunib olishim kerak"
4. "Kel, kutamiz, ishlaymiz, bir oz vaqtдан so'ng bu muammoning hal qilinishiga qaytamiz. O'yaymanki, buni hal qila olamiz"
5. "Men senga aniq javobni aytishga tayermasman, o'ylab ko'rishim kerak"

6. "Tashvishlanma, o'z vaqtida menda ham hech narsa o'xshamagan"

13- VAZIYAT

Talaba o'qituvchiga qarab: "Menga sizning darslarda gapirishingiz va himoya qilishingiz yoqmaydi"

O'qituvchining ta'sirlanishi qanday bo'lishi kerak?

1. "Bu yomon"

2. "Ehtimol, sen buni tushunmassan?"

3. "Umid qilamanki, keyinchalik darslarimiz davomida fikring o'zgarar"

4. "Nimaga?

5. "O'zing nimaga èqtirasan va himoya qilishga tayersan?"

6. "Did va rang bo'yicha do'st yo'q"

7. "Nima deb o'ylaysan, men buni gapiraman va himoya qilaman"

14- VAZIYAT

Talaba guruhidagi o'rtoqlaridan biriga salbiy munosabatini ochiqchasiga bildirib, gapiradi: "Men u bilan birga o'qishni istamayman"

O'qituvchining javobi qanday bo'lishi kerak?

1. "Nima qilibdi?"

2. "Hech qocholmaysan, baribir majbursan"

3. "Sen tarafdan bu ahmoqlik"

4. "Lekin u ham bundan so'ng sen bilan o'qishni hohlamaydi"

5. "Nimaga"

6. "O'yashimcha, sen nohaqsan"

ЖАВОБЛАР ВАРАҚАСИ <i>Вазиятлар №</i>				Жавоб варианtlари (баллар)			
№	1	2	3	4	5	6	7
<i>1</i>	4	3	4	2	5	5	-
<i>2</i>	2	2	3	3	5	5	-
<i>3</i>	2	3	4	4	5	5	-
<i>4</i>	2	3	3	4	5	5	-
<i>5</i>	2	2	3	3	2	4	5
<i>6</i>	2	3	2	4	5	5	-
<i>7</i>	2	2	3	4	5	5	-
<i>8</i>	2	2	4	5	4	3	-
<i>9</i>	2	4	3	4	5	4	-
<i>10</i>	2	3	4	4	5	5	-